Organik karbon kislotalarning egiluvchan ligandlari yuqori deformatsiyaga, keng konfiguratsiya va konformatsiyaga ega bo'lib, yangi tuzilish va funksiyalarga ega bo'lgan koordinatsion birikmalar sintezi uchun yaxshi imkoniyatlarga ega [5-6].

Ayrim ishlarda [7] 2,4-D va boshqa gerbitsid fenoksikislotalarning donli ekinlarga zaharliligini kamaytirish uchun suvda erishi yaxshilangan alkiltrimetilamoniy galogenli gerbitsid kislotalarning tuzlari olingan, bu esa qayta ishlash jarayonida dori vositalarining dozasini kamaytirish imkonini bergan.

Adabiyotlar tahlili oraliq metallarning 2,4-D asosidagi aralash ligandli kompleks birikmalarining sintezini amalga oshirish, ularning tarkibi va tuzilishini tahlil qilish, aniqlangan xossalarga ko'ra kompleks birikmalarining qo'llanilish sohalari belgilash kabi vazifalarni amalga oshirish zaruriyatini mavjudligini ko'rsatdi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, 2,4-D, rux asetat tuzi va etilendiamin reaksiyasi natijasida olingan kompleks IQ- va Raman-spektroskopiyasi usullarida o'rganildi.

Tadqiqot metodikasi

Sintezda ishlatiladigan reagentlar Sigma-Aldrichdan sotib olindi va hech qanday tozalashsiz foydalanildi. $[Zn(2,4-D)_2(En)]$ tarkibli geteroligand kompleksni sintez qilish uchun absalyut etil spirtida 442,08 mg (0,2 mkmol) 2,4-dixlorfenoksisirka kislota va distillangan suvda 219,50 mg (0,1 mkmol) $Zn(CH_3COO)_2 \cdot 2H_2O$ eritildi. Ikkala eritma aralastiriladi, unga 0,67 ml



En qoʻshiladi va magnit aralashtirgich bilan 60 °C da 30 daqiqa davomida kuchli aralashtiriladi. Olingan gomogen aralashma xona haroratida sekin bugʻlatishga qoldirildi. 10 kun davomida monokristallar hosil boʻlishi kuzatildi. Kompleks tuzilishi RTT usulida aniqlangan. Reaksiya unumi 85%, [Zn(2,4-D)₂(En)] C₁₈H₁₈Cl₄N₂O₆Zn (Mr=565.51) ning CHN tahlili nazariy jihatdan - C 38.22, H 3.20, N 4.95 %; ni koʻrsatadi; maʼlum boʻladiki: C 38.20, H 3.18, N 4.96 %.

Kompleks va ligand namunalari IQ-spektrlari IRTracer-100 (Shimadzu) IQ-Fure-spektrometrida ATR uskunasida 400-4000 sm⁻¹ oraliqda yozib olindi. Kompleks va ligandlarning amorf holatdagi namunasi va suvli toʻyingan eritmasi Raman spektrlari 0-2000 sm⁻¹ oraliqda lazer nurlanishi toʻlqin uzunligi 532 nm boʻlgan EnSpector R532 (Rossiya) Raman spektrometrida olindi.


Tahlillar va natijalar

Maʼlumki, chiziqli boʻlmagan N atomdan tarkib topgan birikma 3N-6 tebranishga ega boʻlib, ularning koʻpchilik qismi IQ-spektrometrlarida, bir qismi Raman-spektrida, ayrimlari esa ikkala spektrometrdan ham kuzatiladi. 2,4-dixlorfenoksisirka kislota va [Zn(2,4-D)₂En] tarkibli kompleks mos ravishda 51 (3*19-6=51) va 102 ta (3*36-6=102) tebranishlarga ega. Boshlangʻich birikmadagi elektromanfiy atomlar molekuladagi qariyb barcha bogʻlarning IQ-spektrda faol boʻlishiga olib kelgan (1-rasm). Xuddi shuningdek, kompleks IQ-spektrida ham qariyb hamma bogʻlar faol. Xatto, barmoq izlari sohasidagi yutilish chiziqlarining yuqori intensivlikka ega ekanligidan Zn-O bogʻi tebranishi natijasida yuzaga kelgan chiziqni aniqlash murakkab. Shu tufayli Raman spektrda kam sondagi bogʻlar tebranishlari chiziqlari kuzatilgan.

Boshlangʻich birikma - 2,4-D IQ-spektrida karbon kislotalarga xos yutilish sohalari kuzatilishi, yaʼni OH guruhi valent tebranishlari natijasida yuzaga kelgan yutilish chizigʻi 3200 – 3500 sm⁻¹ sohada kuzatilmagan, balki 2500 – 2750 sm⁻¹ sohada kuzatilishi aniqlandi. 2,4-D IQ-spektridagi 2856, 2775, 2646 va 2574 sm⁻¹ sohalar ushbu kislotaning dimer holatda ekanligidan dalolat beradi. Nazariy hisoblashlar ushbu birikma IQ-spektrining eng yuqori chastotali sohasidagi kichik intensivlikdagi yutilish chiziqlari (3000 – 3100 sm⁻¹) aromatik halqa C-H bogʻlari valent tebranishlariga tegishligini koʻrsatdi. Keyingi yutilish (2980 va 2939 sm⁻¹) chiziqlari metilen guruhi C-H valent tebranishlari natijasida yuzaga kelgan chiziqlardir. 2,4-D C=O guruhi valent tebranishi natijasida yuzaga kelgan yutilish chizigʻi eng intensiv chiziqlardan biri boʻlib u 1722 sm⁻¹ da joylashgan (1-rasm).


Uchta almashgan aromatik halqa tutgan birikmalar uchun 1450-1600 sm⁻¹ oraligʻida aromatik halqaning halqa tekisligi boʻyicha tebranishi natijasida yuzaga kelgan uchta yutilish chiziqlar (dixlorfenoksisirka kislota uchun 1577, 1558, 1475 sm⁻¹) kuzatiladi. Bundan tashqari, spektrning “barmoq izlari” sohasida halqaning halqa tekisligidan tashqari tebranishlari natijasida yuzaga kelgan ikkita (792 va 871 sm⁻¹) yutilish chiziqlar kuzatiladi.

Hisoblashlar asosida 2,4-Dning tajribaviy IQ-spektridagi C-O (1091 sm⁻¹) hamda C-O-C (1105 sm⁻¹) guruhlar yutilish chiziqlari hamda C-Cl guruhlar (644 va 694 sm⁻¹) yutilish chiziqlari topildi.




1-rasm. 2,4-dixlorfenoksisirka kislota IQ-spektri

[Zn(2,4-D)₂En] tarkibli kompleksda Zn ioni 2ta karboksil guruhi bilan monodentant tipdagi kompleks hosil qilgan (etilendiamin bilan birgalikda).



Kompleks IQ-spektrida karboksil guruhi uchun $\nu_{as}(\text{COO}^-)$ va $\nu_s(\text{COO}^-)$ yutilish chiziqlari mos ravishda 1624 va 1386 cm^{-1} kuzatildi (2-rasm). Ular orasidagi farq [$\Delta=(\nu_{as}(\text{COO}^-)-\nu_s(\text{COO}^-))=1624-1386\text{cm}^{-1}$] $\Delta\nu=238 \text{ cm}^{-1}$ bo'lib, ligandning monodentant xolatda koordinatsiyalanganini bildiruvchi $\Delta\nu$ oralig'i bilan mos tushadi [8].




2-rasm. [Zn(2,4-D)₂En] tarkibli kompleks birikma IQ-spektri.

Kompleksning C-O-C (1267, 1244 sm^{-1}) va C-O (1068, 1031 sm^{-1}) yutilish chiziqlari ligandga nisbatan quyi astotali sohaga siljigan. Bundan tashqari, kompleks IQ-spektrining barcha sohalarida ligand spektriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi. Masalan, kompleks tarkibidagi etilendiamin NH_2 guruhleri valent tebranishlariga xos yutilish chiziqlari 3323 va 3273 sm^{-1} sohada namoyon bo'ladi. C-H (Ar) va CH_2 valent tebranishlari natijasida yuzaga yutilish chiziqlari mos ravishda 3097, 3035 sm^{-1} hamda 2974, 2902 sm^{-1} sohalarda kuzatiladi.

Zn-O va Zn-N guruhleri yutilish chiziqlari IQ- va Raman spektroskopiyasi hamda hisoblash usullari uyg'unlikda qo'llanilgandagina to'liq aniqlanishi mumkin [9].

Kompleks nazariy IQ-spektri tahlili N-Zn-N (310, 432 sm^{-1}) va O-Zn-O (353, 451 sm^{-1}) guruhleri uchun asimmetrik va simmetrik tebranishlarning mavjudligini ko'rsatdi. Amaliy IQ-spektrda 400-500 sm^{-1} sohasida shovqin-signal nisbati yuqori bo'lganligi sababli Zn-O(N) guruhleri yutilish chiziqlarini ilg'ash imkoniyati yo'q. Ammo, Raman spektrda ularni kuzatish mumkin. Nazariy spektrlarning amaliy spektrlarga nisbatan yuqori chastotali sohada kuzatilishini e'tiborga olib, kompleks Raman-spektridagi 244 va 319 sm^{-1} chiziqlarini N-Zn-N va O-Zn-O guruhlarining simmetrik hamda asimmetrik tebranishlari natijasida yuzaga kelgan chiziqlar deb qarash mumkin.



4-rasm. $[Zn(2,4-D)_2En]$ tarkibli kompleks birikmasining kristall holatida (a) va suvli eritmasi (b) $0-2000\text{ cm}^{-1}$ oraliqda olingan Raman-spektri

Eritmadagi kompleksning Raman-spektri amorf xolatdagi Raman-spektri bilan qariyb bir xil ekanligi aniqlandi. Bu eritmada kompleksning parchalanib ketmasligini ko'rsatadi.

Xulosa

Shunday qilib, 2,4-D, rux tuzi va etilendiamin asosida sintez qilingan geteroligandli kompleks birikmasi IQ-spektroskopik va Raman spektroskopik usuli bilan o'rganildi. Kompleks IQ-spektrida karboksil guruhi uchun $\nu_{as}(COO^-)$ va $\nu_s(COO^-)$ yutilish chiziqlari mos ravishda 1624 va 1386 cm^{-1} kuzatildi. Ular orasidagi farq $[\Delta=(\nu_{as}(COO^-)-\nu_s(COO^-))]=1624-1386\text{ cm}^{-1}$ $\Delta\nu=238\text{ cm}^{-1}$ ekanligi topildi. Eritmadagi kompleksning Raman-spektri amorf xolatdagi Raman-spektri bilan qariyb bir xil ekanligi aniqlandi. Bu eritmada kompleksning parchalanib ketmasligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ghoshdastidar A., Treatment of organophosphorus insecticides and phenoxyacetic acid herbicides using membrane bioreactor technology // MS thesis, Acadia University, Spring Convocation. -2012. -P. 169.
2. Krieger R., Hayes' Handbook of Pesticide Toxicology, third ed., // Academic Press. -2010. -P. 58-65.
3. <http://sitem.herts.ac.uk/aeru/iupac/> – PPDB Pesticide Properties Database; EXTTOXNET – Extension Toxicology Network
4. Skiba, E., et al., Influence of 2,4-D and MCPA herbicides on uptake and translocation of heavy metals in wheat (*Triticum aestivum* L.) // Environmental Pollution 10.072. -2016. -P. 2-9 <http://dx.doi.org/10.1016/j.envpol>.
5. Xu X.X., Ma Y., Wang E.B., Different aliphatic dicarboxylates affected assemble of new coordination polymers constructed from flexible-rigid mixed ligands // J. Solid State Chem. 180 (11). -2007.-P. 3136-3145.
6. Zhang W.H., Wang Y.Y., Lermontova E.K., et al., Interaction of 1,3-adamantanediactic acid (H(2)ADA) and ditopic pyridyl subunits with cobalt nitrate under hydrothermal conditions: pH influence, crystal structures, and their properties // Cryst. Growth Des. 10 (1). -2010. P 76-84.
7. Stasiewicz M., Trugata A. Oxidation of alyltrimethylammonium salts with herbicidal anion // Chemik. V. 70. № 9. -2016. -P. 564-569.



8. Накамото К. ИК-спектры неорганических и координационных соединений. -М.: Мир. -1991. -С.536.
9. Ferenc W., Bernat M. and Sarzyński J., The physico-chemical properties of 2-methoxyphenoxyacetates of Mn(II), Co(II), Ni(II) and Cu(II) // Eclética Química, vol. 35. núm. 2. -2010. –P. 89-98

Cr (III) IONINING GOSSIPOL 3- AMINO 5-METIL PIRAZOL BILAN KOMPLEKSLARINI OLIHNING OPTIMAL SHAROITLARINI ANIQLASH

Turg'unboev Shavkatjon Shuhratjon o'g'li

FarDU Ekologiya kafedrasini mudiri, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshov Hamza Sayidmurodovich

O'zMU Organik sintez va amaliy kimyo kafedrasini katta o'qituvchisi,
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Raximov Samariddin Baxodirovich

O'zMU Analitik kimyo kafedrasini katta o'qituvchisi,
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xaitbayev Alisher Xamidovich

O'zMU Organik sintez va amaliy kimyo kafedrasini professori,
kimyo fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahalliy xom-ashyo hisoblangan g'o'za o'simligidan ajratib olinadigan gossipol moddasi asosida olingan Schiff asosi (di(3- amino 5-metil pirazol)) ning Cr^{3+} ionini analitik aniqlashning turli shart-sharoitlari o'rganilgan ya'ni turli xil obyektlar tarkibidan Cr^{3+} kationini analitik aniqlash uchun organik reagent sifatida qo'llanilishi bo'yicha ayrim tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: gossipol, Schiff asoslari, kompleks birikma, gossipol 3-amino 5-metilpirazol, optimal sharoit, optik zichlik.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ОПТИМАЛЬНЫХ УСЛОВИЙ ПОЛУЧЕНИЯ КОМПЛЕКСОВ ИОНА CR (III) С ГОССИПОЛ 3 - АМИНО 5-МЕТИЛПИРАЗОЛОМ

Аннотация. В данной статье изучены различные условия аналитического обнаружения Иона Cr^{3+} основания Шиффа (ди(3-амино 5 - метилпиразол)), полученного на основе вещества gossipola, выделяемого из хлопчатника, являющегося местным сырьем, т. е. представлены результаты некоторых исследований по его применению в качестве органического реагента для аналитического обнаружения катиона Cr^{3+} из состава различных объектов.

Ключевые слова: gossipol, основания Шиффа, комплексное соединение, gossipol 3-амино 5-метилпиразол, оптимальные условия, оптическая плотность.

DETERMINATION OF OPTIMAL CONDITIONS FOR OBTAINING COMPLEXES OF CR(III) ION WITH GOSSYPOL 3 - AMINO 5-METHYLPYRAZOLE

Annotation. This article studies various conditions for the analytical detection of the Cr^{3+} ion of the Schiff base (di(3-amino 5-methylpyrazole)) obtained on the basis of the substance gossipol isolated from

cotton, which is a local raw material, i.e. the results of some studies on its use as an organic reagent for the analytical detection of the Cr^{3+} cation from the composition are presented various objects.

Keywords: gossypol, Schiffbases, complex compound, gossypol 3-amino 5-methylpyrazole, optimal conditions, optical density.

Turli metall ionlari bilan kompleks hosil qilishda organik reagentlar analitik faol guruhlarining ishtirok etish mexanizmini aniqlash, kompleks hosil bo'lishida funksional faol guruhlarni tanlash va yangi uslublarni yaratish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Gossipol asosida olingan Schiff asoslari ayrim metallar bilan maxsus sharoitlarda o'ziga xos rangli birikmalar hosil qiladi. Ayrim metall ionlari gossipol birikmalarining suv-asetonli yoki suv-spirтли eritmalarida gossipolatlar deb nomlanadigan metallarning tuzlarini hosil qiladi. Gossipolatlar bir qancha organik erituvchilarda: benzol, xloroform, uglerod tetraxlorid, spirtlarda ma'lum miqdorda eriydi. Og'ir metallarning gossipolatlarini olish va xossalarini o'rganish hozirgi kungacha yetarlicha tadqiq qilinmagan, ko'plab gossipolatlarning strukturaviy tuzilishi ham o'rganilmagan [1-3].

Kompleks hosil qilish reaksiyalarining eng muhim sharoitlaridan biri sistemaning pH qiymati hisoblanadi. Ushbu reaksiya uchun optimal pH qiymatini topish maqsadida kompleks olish jarayoni turli bufer eritmalar ishtirokida olib borildi.


1-jadval

Shiff asosi va Cr (III) ioni bilan olingan kompleks birikma optik zichligining pH qiymatiga bog'liqligi

($C_{Cr^{3+}} = 50 \text{ mkg/ml}$; $n=5$; $t=1,5$; $l=1\text{cm}$)

pH	1,82	2,53	3,10	3,52	4,04	4,53	5,08	5,56	6,23
\bar{A}	0,09	0,381	0,514	0,537	0,495	0,391	0,294	0,124	0

1-jadvaldan ko'rish mumkinki, pH qiymati ortishi bilan kompleksning optik zichligi ortib boradi. Optik zichlik qiymatining maksimal qiymati pH=3,5 da kuzatildi. Shuning uchun tadqiqot davomida kompleksni sintez qilish uchun pH=3,5 qiymati tanlab olindi va reaksiyalarda universal bufer eritmalaridan foydalanildi.



1-rasm. Kompleks optik zichligining muhit pH qiymatiga bog'liqlik grafigi.

1-jadval va 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, kompleks birikma eng yuqori optik zichligi pH=3,0-4,0gacha bo'lgan oraliqda kuzatildi va optimal muhit sifatida pH=3,54 tanlandi, chunki shu pH da optik zichlik maksimal analitik signalga ega. Keyingi tadqiqot ishlarida pH ko'rsatkichi 3,54 bo'lgan bufer eritma ishlatildi.

Optimal bufer tanlash

50 ml o'lchov kolbasiga 90 mkg/ml li Cr³⁺ eritmasidan 1,0 ml, 0,1 % li gossipol 3- amino 5-metil pirazol reagenti suvli eritmasidan 1,0 ml, 5,0 ml dan pH= 5,0 bo'lgan bufer eritmalardan alohida solib, idish belgisigacha distillangan suv bilan to'ldirildi. Hosil qilingan har xil eritmaning optik zichligi ($\lambda_{max}=400$ nm, $\alpha=1,0$ sm) solishtirma eritmaga nisbatan o'lchandi. Olingan natijalar 3.9-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Optimal bufer eritma tanlash

Bufer eritma nomi	Bufer eritma tarkibi	pH	$\bar{A}_{o'rt}$
Universal	(H ₃ PO ₄ +CH ₃ COOH+H ₃ BO ₃ +NaOH)	3,52	0,537
Na-fosfatli	(KH ₂ PO ₄ +Na ₂ HPO ₄)	3,52	0,315
Na-sitratli	(HCl+NaH ₂ C ₆ H ₅ O ₆)	3,52	0,389

Olingan natijalarga ko'ra optimal bufer eritma sifatida pH=3,5 bo'lgan universal bufer tanlandi. Keyingi tekshirishlarda pH=3,5 bo'lgan universal buferdan foydalaniladi.

Komponentlarni quyilish tartibini aniqlash

Komponentlarning quyilish tartibini aniqlashda turli quyilish tartiblarida kompleks birikma hosil qilindi. Bunda, 50,0 ml o'lchov kolbalariga 90 mkg/ml li Cr³⁺ eritmasidan 1,0 ml, 0,1 % li gossipol 3- amino 5-metil pirazol reagenti eritmasidan 1,0 ml, 5,0 ml dan pH=3,5 bo'lgan universal buferdan solindi va idish belgisigacha distillangan suv solib suyultirildi. Hosil qilingan har bir eritmaning optik zichliklari (l=1,0 sm) solishtirma eritmaga nisbatan o'lchandi.

3-jadval

Komponentlarning quyilish tartibini aniqlash jadvali


№	Quyilish tartibi	\bar{A}
1	Cr ³⁺ +R+bufer	1,050
2	Cr ³⁺ + bufer + R	1,207
3	bufer + R + Cr ³⁺	1,090
4	bufer + Cr ³⁺ +R	1,050
6	R+ bufer + Cr ³⁺	1,000

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun reagentlarning quyilish tartiblari 6 xil bo'lgan bo'lgan holda eritmalar tayorlandi. O'lchash natijalari 3-jadvalda keltirildi. Olingan natijalarga ko'ra 2-quyilish tartibida kompleksning maksimal hosil bo'lish kuzatildi. Keyingi tekshirishlarda esa aynan 2-quyilish tartibidan foydalanilgan holda tadqiqotlar o'tkazildi.

Optik zichlikni vaqtga bog'liqligi

(C=1·10⁻⁴ M, $\lambda=400$ nm)

Vaqt, min	0,3	1,0	5	10	20	30	40	50	60
A	0,254	0,469	0,565	0,568	0,572	0,569	0,571	0,569	0,572



2-rasm. Optik zichlikning vaqtga bog‘liqligi

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, kompleks birikmaning optik zichlik qiymati 60 minutgacha barqarordir. Bu vaqt oralig‘i analizni bajarish uchun yetarli ekanligini xulosa qilish mumkin.


Kompleks birikmaning optik zichligining quyilgan reagent miqdoriga bog‘liqligi

50 ml sig‘imli stakanga reagentning o‘zgaruvchan miqdorlari solindi, pH=3.5 bo‘lgan universal bufer eritmasidan 10 ml qo‘shildi va eritmaning hajmi belgigacha distillangan suv bilan yetkazildi. Tayyorlangan eritma tashuvchidan o‘tkazildi va 400 nm to‘lqin uzunligida optik zichligi o‘lchandi. O‘lchash natijalari 5-jadvalda va 3-rasmda keltirilgan.

5-jadval

Optik zichlikni reagent konsentratsiyasiga bog‘liqligi

V _R ml	0,5	1,0	1,5	2,0	2,5	3,0	3,5	4,0	4,5	5,0
\bar{A}	0,07	0,130	0,285	0,435	0,630	0,805	0,730	0,735	0,735	0,730



3-rasm. Optik zichlikni reagent konsentratsiyasiga bog‘liqligi (C=5.2·10⁻⁵ M, pH=3,5)

5-jadval va 3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, metallni to‘liq bog‘lash va kompleks hosil bo‘lish reaksiyasini yaxshi ketishi uchun 3,6·10⁻² M reagent kiritish kerak ekan.

Kompleks birikmaning optik zichligini element miqdoriga bog‘liqligi (Ber qonuniga bo‘ysunish)


Yuqoridagi tajriba orqali aniqlangan optimal sharoitlarga amal qilgan holda, 50 ml li o‘lchov kolbalariga har xil miqdordagi (2.0 mkg/ml dan 110 mkg/ml) Cr³⁺ eritmalaridan 1,0 ml

gossipol 3- amino 5-metil pirazol eritmasidan 3,0 ml va bufer eritma (pH=3,50 universal) dan 5,0 ml olib kolbaning belgisigacha distillangan suv bilan suyultiriladi. Hosil qilingan kompleks birikmaning optik zichligi ($\lambda_{max}=380 \text{ nm}$ $l = 1,0 \text{ sm}$) solishtirma eritma nisbatan o'lchandi. Olingan natijalar 6-jadval va 4-rasmda keltirildi.

6-jadval

**Optik zichlikning Cr³⁺ miqdoriga bog'liqligi
(pH=3,5)**

No	Cr ³⁺ /ml	Cr ³⁺ mkg	\bar{A}
1	0,3	3	0,051
2	1,0	10	0,233
3	1,5	15	0,392
4	2,0	20	0,489
5	2,5	25	0,682
6	3,0	30	0,797
7	3,5	35	1,035
8	4,0	40	1,18
9	4,2	42	1,24
10	4,5	45	1,25
11	5,0	50	1,27



4-rasm. Optik zichlikning Cr³⁺ miqdoriga bog'liqlik grafigi.

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, Ber qonuniga bo'ysunishi Cr³⁺ ning 3 mkg dan 42 mkg konsentrsiyalari oralig'ida kuzatiladi. Undan yuqori konsentrsiyalarda to'g'ri chiziqli bog'lanishdan chetlanish ro'y berdi.

Cr³⁺ ning gossipol gossipol 3- amino 5-metil pirazol reagenti bilan hosil qilingan kompleksning spektral tavsifi

Yuqoridagi optimal sharoitlardagidek komponentlardan olib 50 ml li kolbalarga Cr³⁺ ni 1,0 li 0,1 % li gossipol 3- amino 5-metil pirazol reagentidan 1,0 ($V_{buf}=5,0 \text{ ml}$ pH=3,5) olib kolbaning belgisigacha distillangan suv bilan suyultiriladi va kompleks hosil qilindi. Hosil qilingan kompleksning yutilish spektri solishtirma eritmaga nisbatan reagentning yutilish spektri esa distillangan suvga nisbatan o'lchov natija olindi.

Kompleks birikma eritmasining maksimal optik zichligi qiymatidan foydalanib ($\lambda=420 \text{ nm}$ bo'lgan sohada) kompleksning molyar so'ndirish koefitsiyenti hisoblandi.

$$E=A/C \cdot \alpha$$

Bu yerda:

E- $\lambda=420$ nm dagi molyar so'ndirish koeffitsiyenti, C- Cr^{3+} ning konsentrasiyasi (mol), L-yutuvchi qatlam qalinligi (sm), A-kompleks birikmaning solishtirma eritmasiga nisbatan o'lgangan optik zichligi.

Ishlab chiqarilgan usulning sendol bo'yicha 0.001 birlik uchun sezgirligi quyidagi formula bilan hisoblanadi.


$$S. s. = \frac{q_{\text{MKГ}} \cdot \ell \cdot 0,001}{A \cdot 50} = \frac{90 \cdot 1 \cdot 0,001}{0,572 \cdot 50} = 0,00315 = 3,15 \cdot 10^{-3} \text{MKГ/CM}^2$$

7-jadval

gossipol 3- amino 5-metil pirazolning va xrom (III) ioni bilan hosil qilingan kompleksining spektral tavsifi

(l=1,0 sm, $C_{Cr^{+3}}=90$ mkg)

pH	λ_{max} Cr R nm	λ_{max} R nm	$\Delta\lambda$	$C_{Cr^{+3}}$ mol/l-10 ⁻⁵	$C_{Cr^{+3}}$, mkg	A	ϵ 10 ⁴	Sendal bo'yicha sezgirlik
3,52	380	440	60	9,05	90,0	0,57	2,45	0,00315



5-rasm. Cr^{3+} ning gossipol gossipol 3- amino 5-metil pirazol reagenti bilan hosil qilgan kompleksining yutilish spektri.

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, reaksiya sezilarli kontrastlikka ($\Delta\lambda=75$ nm) va yuqori sezgirlikka ($S.b.s = 3,15 \cdot 10^{-3}$) ega ekan.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Turg'unboyev Sh.Sh., Toshov H.S., Raximov S.B. Gossipol 2-amino 4-metilpiridin bilan Co^{3+} kationini analitik aniqlash // FarDU Ilmiy xabarlar. 3-son. 2023-yil. 61-65 bet.
2. Laura Trzonkowska, Barbara Le'sniewska. Beata Godlewska-Zy'kiewicz. Development of Solid Phase Extraction Method Based on Ion Imprinted Polymer for Determination of Cr(III) // Ions by ETAAS in Waters. Water. -2022. -№14. -P.529.
3. Khaitbaev, A. K., Khakberdiev, S. M., & Toshov, K. S. (2021). Isolation of Gossypol from the bark of cotton roots. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 1069-1073.
4. Хаитбаев, А. Х., Тошов, Х. С., & Хушвақов, Ж. Т. (2017). Квантово-химическое исследование некоторых Шифф-оснований. *Научный журнал «Austria-science*, 6, 48-51.
5. Абдураимова, З. З., Тошов, Х. С., & Хаитбаев, А. Х. (2021). Госсипол ҳосилаларининг металлокомплекслари тадқиқоти. *Science and Education*, 2(5), 24-27.
6. Urinova F., Azizmatova z., Fazliddinova s. Didactic foundations for forming the professional competence of the future teacher. //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – т. 3. – №. 4 part 4. – с. 197-202.
7. O'rinova f. Innovative reforms in the modern preschool education system //Science and innovation. – 2023. – т. 2. – №. B2. – с. 557-561.
8. Уринова Ф. У. Особенности развития психологии ребёнка дошкольного и младшего школьного возраста //Science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. B2. – с. 68-71.
9. Тошов, Х. С., Хаитбаев, А. Х., Сарабеков, А. Т., Юлдашев, И. Ш., & Хушвақов, Ж. Т. (2017). КОМПЬЮТЕРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ СТРОЕНИЯ МЕТАЛЛОКОМПЛЕКСОВ ОСНОВАНИЙ ШИФФА ГОССИПОЛА. *Велес*, (6-1), 107-111.

НОРФЛОКСАЦИННИНГ Cu(II) БИЛАН $[\text{Cu}(\text{HL})_2(\text{CH}_3\text{COOH})_2](\text{CH}_3\text{COOH})_2(\text{H}_2\text{O})_2\text{Cl}_2$ ($\text{HL} = \text{НОРФЛОКСАЦИН}$) ТАРКИБЛИ КОМПЛЕКСИ: DFT, ХИРШФЕЛЬД СИРТИ ВА ИҚ СПЕКТРИ ТАҲЛИЛИ

¹Расулов А.А., ²Ешимбетов А.Г., ³Ашуров Ж.М., ⁴Ибрагимов Б.Т.

¹ЎзР ФА О.С.Содиқов номидаги, Биоорганик кимё интитути, кичик илмий ходими

²ЎзР ФА О.С.Содиқов номидаги, Биоорганик кимё интитути, катта илмий ходими

³ЎзР ФА О.С.Содиқов номидаги, Биоорганик кимё интитути, профессори

⁴ЎзР ФА академиги, О.С.Содиқов номидаги, Биоорганик кимё интитути

E-mail: rabdusamad51@gmail.com.

Аннотация: Ушбу мақолада норфлоксацин иштирокида мис (II) ацетат билан янги $[\text{Cu}(\text{HL})_2(\text{CH}_3\text{COOH})_2](\text{CH}_3\text{COOH})_2(\text{H}_2\text{O})_2\text{Cl}_2$ комплексининг синтези ва тадқиқот натижалари келтирилган. Синтез қилинган металлокомплекснинг таркиби, молекуляр ва кристалл тузилишлари рентген тузилиш таҳлили (РТТ), ИҚ спектроскопия натижалари асосида аниқланган. РТТ натижаларига кўра комплексда мис(II) катионига цвиттер шаклдаги иккита HL молекуласи бидентантли ва иккита сирка кислотаси монодентантли координацияланган. Комплекснинг РТТ маълумотлари асосида электрон тузилиши ORCA дастуридан фойдаланган ҳолда DFT усулида назарий тадқиқоти ва Хиршфельд сирт таҳлили ўрганилган.

Калит сўзлар: Норфлоксацин, мис (II) ацетат, сирка кислота, дистилланган сув.

NORFLOXACIN COMPLEX WITH Cu(II)

$[\text{Cu}(\text{HL})_2(\text{CH}_3\text{COOH})_2](\text{CH}_3\text{COOH})_2(\text{H}_2\text{O})_2\text{Cl}_2$ ($\text{HL} = \text{NORFLOXACIN}$): DFT, HIRSHFELD SURFACE AND IR SPECTRUM ANALYSIS

Abstract: This article presents the synthesis and research results of a new $[\text{Cu}(\text{HL})_2(\text{CH}_3\text{COOH})_2](\text{CH}_3\text{COOH})_2(\text{H}_2\text{O})_2\text{Cl}_2$ complex with copper (II) acetate in the presence of norfloxacin. The composition, molecular and crystal structures of the synthesized metallocomplex were determined based on the results of X-ray structure analysis (RTT), IR spectroscopy. According to RTT results, two HL molecules in zwitter form are bidentately coordinated to copper(II) cation in the complex and two acetic acids are monodentately coordinated. Based on the RTT data, the electronic structure of the complex was studied using the ORCA program using the DFT method and Hirschfeld surface analysis.

Key words: Norfloxacin, copper (II) acetate, acetic acid, distilled water.

КОМПЛЕКС НОРФЛОКСАЦИНА С Cu(II)

$[\text{Cu}(\text{HL})_2(\text{CH}_3\text{COOH})_2](\text{CH}_3\text{COOH})_2(\text{H}_2\text{O})_2\text{Cl}_2$ ($\text{HL} = \text{НОРФЛОКСАЦИН}$): DFT, ПОВЕРХНОСТЬ ХИРШФЕЛЬДА И ИК-СПЕКТР АНАЛИЗ

Аннотация: В данной статье представлены результаты синтеза и исследования нового комплекса $[\text{Cu}(\text{HL})_2(\text{CH}_3\text{COOH})_2](\text{CH}_3\text{COOH})_2(\text{H}_2\text{O})_2\text{Cl}_2$ с ацетатом меди (II) в присутствии норфлоксацина. Состав, молекулярную и кристаллическую структуру синтезированного металлокомплекса определяли по результатам рентгеноструктурного анализа (РТТ) и ИК-спектроскопии. Согласно результатам РТТ, две молекулы HL в цвиттер-форме координированы с катионом меди (II) бидентатно, а две уксусные кислоты – монодентатно. По данным РТТ

электронную структуру комплекса исследовали с помощью программы ORCA с использованием метода DFT и анализа поверхности по Хирифельду.


Ключевые слова: норфлоксацин, ацетат меди (II), уксусная кислота, вода дистиллированная.

Кириш

Сўнги йилларда вирус, бактерия ва замбуруғларнинг кўпайиши учун қулай иқлим шароити кузатишмоқда. Бу ҳолат микро организмлар тарқатаётган касаллик турларининг ортишига олиб келмоқда. Шу сабабли кимё ва фармацевтика соҳасидаги олимлар олдига янги вазифа қўймоқда яъни таъсир доираси кенг, кам миқдордаги концентрацияда ҳам самарали таъсир кўрсатадиган, кам зарарли дори воситаларини яратиш вазифасини қўймоқда. Маълумки бир дори воситасини яратиш кўп вақтни талаб қилади. Бу ҳолат мавжуд дори воситаларининг биофаоллигини ошириш эҳтиёжини тўғдиради. Ҳозирги кунда кенг спектрли таъсирга эга фторхинолонлар гуруҳига кирувчи дори воситаларидан норфлоксацин (НЛ) энг самарали фторхинолонлардан бири бўлиб[1], клиник амалиётда кўпгина грам-манфий ва баъзи грам-мусбат бактерияларга нисбатан антибактериал восита бўлиб, у простата, тери, ўпка, овқат ҳазм қилиш ва пешоб йўллари инфекциялари каби кўплаб инфекцияларни клиник даволашда қўлланилади [2-4]. Маълумки кўп ҳолларда алоҳида дори воситасининг металлокомплекс бирикмалари эркин лигандга нисбатан фаол бўлади [5]. Тадқиқотлардан маълум биофаол хусусиятга эга бўлган, таркибида пиридин ҳалқаси сақлаган НЛ нинг металлокомплекслари синтез қилинган ва ўрганилган [6-7]. Шундан келиб чиққан ҳолда, мис (II) ацетат тузининг НЛ билан таъсирлашиши сирка кислотаси иштирокида, рН қиймати 4 га тенг бўлган муҳитда олиб борилди. Натижада $[Cu(HL)_2(CH_3COOH)_2](CH_3COOH)_2(H_2O)_2Cl_2$ таркибли ион молекуляр тузилишга эга комплекс РТТ усулида аниқланди. Шунингдек, синтез қилинган комплекснинг электрон тузилишини ORCA дастуридан фойдаланган ҳолда DFT усулида назарий ўрганиш мақсад қилинди[8-9].


Материал ва усуллар


НЛ нинг муз сиркадаги эритмаси билан мис (II) ацетатнинг 2:1 моляр нисбатдаги эритмаларидан фойдаланилди. Ҳосил бўлган эритмаларни механик аралаштиргич ёрдамида 50-60°C ҳароратда 25-30 дақиқа давомида қиздирилиб аралаштирилди, хона ҳароратида қолдирилиб кузатишга қўйилди. Кузатишлар натижасида 10-14 кундан сўнг идиш тубида яшил рангли кристаллар ҳосил бўлгани кузатилди. Микроскоп орқали РТТ учун 0.1-0.4 мм ўлчамдаги яроқли монокристаллар танлаб олиниб, таҳлил қилинди ва комплекснинг тузилиши аниқланди. Реакция тенгламаси қуйидагича тақлиф қилинди (1-расм).



2-*rasm.* $[Cu(HL)_2(CH_3COOH)_2](CH_3COOH)_2(H_2O)_2Cl_2$ таркибли комплекснинг дублет ва юқори спин секстет ҳолатдаги кўринишлари.


$[Cu(HL)_2(CH_3COOH)_2](CH_3COOH)_2(H_2O)_2Cl_2$ таркибли комплекснинг молекуляр тузилиши (3-*rasm*, а) рентген нурлари дифракцион таҳлили усулида аниқланди. Молекулалараро ўзаро таъсирлар (3-*rasm*, б) характерини тавсифлаш учун Хиршфельд сиртини Crystal Explorer 17.5 [6] дастури ёрдамида таҳлили амалга оширилди.






3-расм. Норфлоксацин гидрохлориднинг мис (II) ацетат билан ҳосил қилинган комплекс монокристалнинг молекуляр тузилиш (a), Хирифельд сиртлари (b), Хирифельд бармоқ изи диаграммаси (c), 2D Хирифельд бармоқ изи графиги (d)

HL гидрохлориднинг мис (II) ацетат билан ҳосил қилинган комплекснинг хиришфелд сиртида қизил ранг энг яқин таъсирлашувларни ва кўк ранг энг узок таъсирлашувларни ифодалайди (3-расм, b). Хиришфельд бармоқ изи диаграммаси (3-расм, c) ҳамда кристалл қадоқлашнинг шаклланишига индивидуал ўзаро таъсирларнинг ҳиссасини кўрсатувчи d_e ва d_i функциялари ёрдамида олинган икки ўлчамли бармоқ изининг графиклари (3-расм, d) келтирилган. Шундай қилиб Хиришфельд сиртини таҳлил қилиш натижасида қуйидаги таъсирлашувлар аниқланди: H...H(43.7%), H...O/O...H (27.7%), H...Cl/Cl...H (7.7%), H...F/F...H (7.0%), C...C (4.5%), H...C/C...H (3.4%), O...C/C...O (1.5%), N...C/C...N (1.4%) таъсирлашувлар кристалл қадоқлашнинг шаклланишига асосий ҳисса қўшади. Хиришфельд сирт таҳлилидан кўриниб турибдики, ўзаро таъсирларнинг асосий қисмини H...H (43.7%) ҳамда O...H/H...O (27.7%) ташкил қилади. Молекулалараро водород боғланишнинг асосий қисми O2...HN3 ҳамда N3H...O2 орасидаги боғлар ҳиссасига тўғри келади (4-расм).



a




b


4-расм. Норфлоксацин гидрохлориднинг мис (II) ацетат билан ҳосил қилинган комплекс монокристалнинг Хиришфельд сиртларида молекулалараро кучли водород боғланишлар (a), 2D Хиришфельд бармоқ изи кучли водород боғланиш учлари графиги (b)

Синтез қилинган металлокомплекснинг тузилишини исботлаш масадида ИҚ спектри ўрганилди. Ушбу лиганд ҳамда янги синтез қилинган металлокомплекс кристалларининг ИҚ-спектрларини қиёсий солиштириб ўрганилди. Лиганд ва синтез қилинган комплекс кристалининг ИҚ - спектри Японияда ишлаб чиқарилган Shimadzu ИҚ- Фурье спектрофотометрида 400-4000 см⁻¹ соҳада олинди.

Қуйидаги 5-расмда лиганд HL нинг ИҚ-спектри таҳлилида қуйидаги соҳаларда тебраниш кузатилди: 3421.72 см⁻¹ соҳада ОН-гуруҳининг валент тебранишлари, 2985.81 см⁻¹ соҳада -CH₃ гуруҳига хос интенсивлиги юқори валент тебраниш, 2821.86 см⁻¹ соҳасида NH₂⁺ ионининг валент тебраниши, 1616.35 см⁻¹ соҳасида >C=O гуруҳининг жуда юқори интенсивли валент тебранишлари кузатилди.



5-расм. Лиганд HL нинг ИҚ-спектри таҳлили



6-расм. Синтез қилинган $[Cu(HL)_2(CH_3COOH)_2](CH_3COOH)_2(H_2O)_2Cl_2$ таркибли металлокомплекснинг ИҚ-спектри таҳлили

6-расмда синтез қилинган комплекс бирикманинг ИҚ-спектри таҳлилида қуйидаги соҳаларда тебраниш кузатилди: 2924.09 cm^{-1} соҳасида $-CH_3$ гуруҳининг валент тебраниши, 2802.57 cm^{-1} соҳасида NH_2^+ гуруҳига хос валент тебраниш, 1708.93 cm^{-1} соҳасида CH_3COOH молекуласининг валент тебраниши, 1670.35 cm^{-1} соҳасида $>C=O$ гуруҳининг жуда юқори интенсивли валент тебраниши, 628.79 cm^{-1} соҳасида C-F боғининг, 518.85 cm^{-1} соҳасида Cu-O боғининг валент тебраниш частоталари кузатилди.[7]

2-жадвал

Лиганд HL (a) ва $[Cu(HL)_2(CH_3COOH)_2](CH_3COOH)_2(H_2O)_2Cl_2$ таркибли комплекс (b) нинг ИҚ-спектрлари таҳлили, cm^{-1}

Tebranish tavsifi	OH	CH ₃	C ₂ H ₄ O ₂	NH ₂ ⁺	>C=O	M-O
HL	3421.72	2985.81	-	2821.86	1616.35	-
$[Cu(HL)_2(C_2H_4O_2)_2](C_2H_4O_2)_2Cl_2$	-	2924.09	2821.86	2802.57	1670.35	518.85

Хулоса

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида HL асосида $[Cu(HL)_2(CH_3COOH)_2](CH_3COOH)_2(H_2O)_2Cl_2$ таркибли янги металлокомплекс синтез қилинди. Синтез қилиш учун оптимал шароитлари ўрганилди. Синтез қилинган металлокомплекснинг таркиби, молекуляр ва кристалл тузилишлари, рентген тузилиш таҳлили (РТТ), ИҚ спектроскопияси таҳлиллари ёрдамида аниқланди. Синтез қилинган комплекснинг электрон тузилишини ORCA дастуридан фойдаланган ҳолда DFT усулида назарий ўрганилди, Хиршфельд сирт таҳлили амалга оширилди.

Адабиётлар

1. Schaefer F., Bruttin. O., Zografos. L., Guex-Crosier Y. Bacterial keratitis: a prospective clinical and microbiological study // Br J Ophthalmol. -2012. -V.84. -P.327-328.



2. Appelbaum, P. C., & Hunter, P. A. (2000). The fluoroquinolone antibacterials: past, present and future perspectives. *International Journal of Antimicrobial Agents*, 16(1), 5–15. doi:10.1016/s0924-8579(00)00192-8
3. Fang, T., Li, X., Wang, C. et al. The action of norfloxacin complexes on *Tetrahymena* investigated by microcalorimetry. *J Therm Anal Calorim* 109, 433–439 (2012). <https://doi.org/10.1007/s10973-011-1674-7>
4. Drevensek P., Kosmrlj J., Giester G., Skauge T., Sletten E., Sepcic K., Turel I. X-Ray crystallographic, NMR and antimicrobial activity studies of magnesium complexes of fluoroquinolones–racemic ofloxacin and its S-form, levofloxacin // *J. Inorg. Biochem.* –2006. – V.100. –P. 1755-1763.
5. Martins, D. A., Gouvea, L. R., (2016). Norfloxacin and N-Donor Mixed-Ligand Copper (II) Complexes: Synthesis, Albumin Interaction, and Anti-Trypanosoma cruzi Activity. *Bioinorganic Chemistry and Applications*, 2016, 1–11. doi:10.1155/2016/5027404
6. Mazuel C. Norfloxacin // *Analytical profiles of drug substances.* – Academic Press, 1991. – T. 20. – БТ С. 557-600.
7. Katsarou M.E., Efthimiadou E.K., Psomas G., Karaliota A., Vourloumis D. Novel Copper(II) Complex of N-Propyl-norfloxacin and 1,10-Phenanthroline with Enhanced Antileukemic and DNA Nuclease Activities // *J. Med. Chem.*–2008. –V.51. –P. 470-478.
8. Neese F. *WIREs Comput Mol Sci.* – 2022. – T. 12. – №. 5. – С. e1606.
9. S.I. Tirkasheva, O.E.Ziyadullaev. A. G. Eshimbetov, B. T. Ibragimov and J. M. Ashurov "Synthesis, crystal structure, Hirshfeld surface analysis and DFT study of the 1,100-(buta-1,3-diyne-1,4-diyl)bis(cyclohexan-1-ol)" *Acta Cryst.* (2023). E79 <https://doi.org/10.1107/S2056989023004772>
10. Turner, M. J., McKinnon, J. J., et al. 2017, *Turner CrystalExplorer17*. University of Western Australia. <http://Hirshfeldsurface.net>.
11. Накамото К. ИК-спектры неорганических и координационных соединений. -М.: Мир, 1996. - 206 с.



BIOLOGIYA FANLARI
03.00.00 **БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**
BIOLOGICAL SCIENCES

MOLECULAR-GENETIC PROCESSES IN DOMESTIC ANIMALS AND THEIR ANALYSIS

Odiljonov Khojiakbar Zokirjon ugli
Student of faculty of Biotechnology, Namangan State University

Abstract: Genetic variations that lead to easily identifiable phenotypic changes have always been of interest to animal breeders since domestication. Molecular genetics has opened up possibilities for identifying these variations and understanding their biological and population effects. The following is about it.

Key words: domestic animals, genetic variability, molecular markers.

МОЛЕКУЛЯРНО-ГЕНЕТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ У ДОМАШНИХ ЖИВОТНЫХ И ИХ АНАЛИЗ

Одилжонов Хожиакбар Зокиржон угли
Студент факультета Биотехнологии, Наманганский государственный университет

Аннотация: Генетические вариации, которые приводят к легко идентифицируемым фенотипическим изменениям, всегда интересовали животноводов с момента одомашнивания. Молекулярная генетика открыла возможности для выявления этих вариаций и понимания их биологических и популяционных эффектов. Подробнее об этом ниже.

Ключевые слова: домашние животные, генетическая изменчивость, молекулярные маркеры.

UY HAYVONLARIDA MOLEKULAR-GENETIK JARAYONLAR VA ULARNING TAHLILI

Odiljonov Hojiakbar Zokirjon ugli
Namangan davlat universiteti Biotexnologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Oson aniqlash mumkin bo'lgan fenotipik o'zgarishlarga olib keladigan genetik o'zgarishlar, hayvonlar honakilashtirilgandan beri chorvadorlarni qiziqtirgan. Molekulyar genetika ushbu o'zgarishlarni aniqlash va ularning biologik va populyatsiya ta'sirini tushunish uchun imkoniyatlar ochdi. Quyida, shu haqida.

Kalit so'zlar: uy hayvonlari, irsiy o'zgaruvchanlik, molekulyar belgilar.

Introduction

In domestic animals, the first signs of mutations were obtained during phenotypic observation, i.e. direct contact led to the observation of animals with a different phenotype that could be passed on to their offspring. Some of the earliest examples are the five-toed gudan birds,

polled Hereford cows, and the short-legged Ancon sheep. Based on the first discoveries of genetic mechanisms, researchers tried to infer the inheritance of these traits in domestic animals, often based on other living things.

Human actions through domestication and phenotypic selection have altered the genetic constitution of livestock populations. An example is the fixation of alleles of genes associated with the behavior of rabbits that were selected for obedience during domestication. Nowadays, with the development of molecular genetic methods, it has become possible to "visualize" changes in hereditary molecules and understand spontaneous variations, their phenotypic effects and their transmission to offspring. In addition, molecular genetics plays an important role in animal husbandry, allowing paternity testing and the detection of fraud and genetic diseases, among other possibilities that will be explored in this review.

Therefore, the purpose of this article was to report on the various perspectives on the application of molecular genetics not only in animal husbandry and genetics, but also in animal husbandry, by providing examples of successful and repetitive use, in addition to better contextualizing it. information, showing you how to use it.

Selection based on genetic variants. When we talk about molecular genetics applied to animal husbandry, we immediately think of the identification of genes, their polymorphisms, their phenotypic effects, and hence their possible use in breeding. There are two main uses for genetic variants: selection based on a functional mutation, and inclusion of that genetic variant in a model used for genetic evaluation.[1]

Literature review

The literature used to write the article was used on the basis of sources related to the topic of molecular genetic processes in animals and their analysis. The necessary sources were obtained and included in the list of references.

Research Methodology and Empirical Analysis

Paternity tests. Paternity tests in pets have two main uses: registering animals with breed associations and providing accurate pedigree information for genetic evaluations. Some breed associations require paternity testing for registration, while others randomly select animals to be submitted for paternity testing for registration.

In genetic evaluations, pedigree among the animals being evaluated is fundamental to predicting breeding value. Wrong ratios can lead to prediction errors. Nowadays, with the advent of genomic selection, paternity errors are easy to identify because SNP array genotyping used for selection can also be used for paternity testing. [2]

Genetic diseases. There are a number of genetic diseases that affect domestic animals and therefore affect the performance of animals. The identification of genetic variants of these diseases allows mating to be controlled and directed to prevent the spread of damage caused by the disease.

An example of a livestock disease that has a direct impact on livestock production is hyperkalemic periodic paralysis in horses. It is a dominant autosomal genetic disorder that is important in Quarter Horses and related/derived breeds. Symptoms of the disease include attacks of weakness, tremors, and intermittent paralysis. Animals also exhibit a hypertrophied muscle phenotype. This phenotype was highly sought after by Quarter Horse conformation line breeders, leading to the spread of the disease along with its detrimental effects.

Fraud detection. Molecular genetic markers are very useful in detecting possible forgeries in animal products such as meat, milk and their derivatives. This type of fraud is common to reduce production costs; for example, cow's milk is mixed with milk of other species (goat, buffalo or sheep) and meat and meat products of domestic mammals (cattle, sheep, goats, pigs and horses) and poultry (chicken, turkey). Fraud can be detected by protein analysis, but DNA tests have proven to be cheaper and equally or even more effective.[3]

Parasite identification. Parasitology is an important area of animal husbandry. High costs are associated with preventive practices. Moreover, poor sanitation management can lead to reduced productivity, disease and death of animals. High rates of invasion require the use of specific antiparasitic agents. The intensity of application and drug of choice must be appropriate to avoid selection of resistant parasite populations. Available methods such as faecal egg count, larval culture or microscopic examination are insensitive and time consuming. Thus, the effective identification of parasite species is very important, since it allows tracking drug resistance and the spread of parasites depending on climate change. In this regard, molecular biology techniques can be used to identify parasites as well as to control infestation.[4]

Results

Genetic diversity. Molecular genetics also contributes to population studies designed to assess genetic diversity. Genetic diversity is important in maintaining the variability of a population influenced by domestication or selection, and in initiating and maintaining breed conservation programs. Molecular markers make it possible to assess the degree of heterozygosity in a population and thus to observe the possible effects of inbreeding. Then, population studies of inbreeding are completed or, if there is no pedigree data for the population, in loco inferences can be made about its genetic variability (Kristensen et al. 2015). The markers most commonly used to test for this variability are microsatellites, which are multi-allelic markers distributed throughout the genome. Santos et al. (2016) report examples of loss of genetic variation in tambaki (*Colossoma macropomum*), a fish species of commercial interest, due to captive rearing and lack of relationship control. Other genotyping methods such as SNP arrays can be used to assess genetic diversity. Makina et al. (2014) studied the population structure of six South African cattle breeds using the SNP chip. The authors found low to moderate genetic variation in the breeds, as well as a divergence between local breeds and breeds locally bred from European breeds, suggesting the importance of conservation to cope with environmental changes. Mastrangelo et al. (2017), studying the endangered Barbaresca sheep, showed the importance of using SNP chips in small populations and future strategies to be used for better genetic conservation. Barbaresca sheep have a small effective population, a high level of inbreeding, and many homozygous loci. Genomic information plays a critical role in breed management.[5]

Editing the genome. Genome editing is the latest frontier of molecular biology achieved in animal husbandry. This procedure consists of identifying a specific target and then inducing a mutation or knockout of a gene in an organism in order to achieve improvements in livestock production that reflect positively on the people who depend on it. According to Petersen (2017), there are three main methods for editing the genome. Their application to pets is still in research but is already showing results of potential applicability.



Examples of successful genome editing in animal husbandry are the production of comologo Holstein cattle (Carlson et al. 2016) by introgression of a causal mutation in Celtic breeds by editing the genome and interrupting the MSTN and FGF5 genes in goats (Wang et al. 2015) to improve animal performance, as well as MSTN in cattle and sheep with spectacular phenotypic changes (Proudfoot et al. 2015).

There are also applications of genome editing in domestic animals for biomedical purposes, such as breeding pigs that have genes encoding cell surface proteins removed to reduce organ rejection in xenotransplantation (Butler et al. 2016).

It should be remembered that genome editing does not apply to transgenics, since in most cases it only causes modifications to the DNA of one species, not combining it with DNA from another species, and therefore, has the potential to be more regulated in terms of legislation.[6]

Conclusion

Molecular genetics has many applications in animal husbandry. Knowledge of methods and their application is essential for the management of intensive livestock production. The inclusion of disciplines or subjects in undergraduate and graduate courses on the topics mentioned above is fundamental to preparing specialists for providing services to the market and developing future technologies related to this area. This review was intended to collect information on the application of these molecular techniques in animal production.

References

1. Abell CE, Dekkers JCM, Rothschild MF, Mabry JW, Stlader KJ (2014) Estimating the total cost of implementing genomic breeding in a multi-level pig production system. *Genetics, breeding, evolution* 46, 32. doi: 10.1186/1297-9686-46-32
2. Alyethodi RR, Singh U, Kumar S, Alex R, Deb R, Sengar GS, Raja TV, Prakash B (2018) T-ARMS PCR genotyping of SNP rs445709131 using thermostable chain displacement polymerase. *BMC Research Notes* 11, 132. doi: 10.1186/s13104-018-3236-6
3. Tavares KCS, Carneiro IS, Rios DB, Feltrin C, Ribeiro AKC, Gaudêncio Neto S, Martind LT, Aguiar LH, Lazzarotto CR, Calderón CEM, Lopes FEM, Teixeira LPR, Bertolini M, Bertolini LR (2015) Quick and easy method for sex determination of livestock embryos based on polymerase chain reaction. *Genetics and Molecular Research* 15. doi:10.4238/gmr.15017476
4. Kristensen TN, Hoffmann AA, Pertoldi C, Stronen AV (2015) What can livestock breeders learn from conservation genetics and vice versa? *Frontiers in Genetics* 6, 38. doi:10.3389/fgene.2015.00038
5. Hashimoto DT, Senhorini JA, Foresti F, Porto-Foresti F (2012) Interspecific fish hybrids in Brazil: management of genetic resources for sustainable use. *Reviews in Aquaculture* 4, 108–118. doi:10.1111/j.1753-5131.2012. 01067.x
6. Rudolph JA, Spier SJ, Byrns G, Rojas CV, Bernoco D, Hoffman EP (1992) *Tabiat genetikasi* 2, 144-147. doi:10.1038/ng1092-144



**KO'ZLI TAXIR BALIQ (RHODEUS OCELLATUS)
NING KO'PAYISH BIOLOGIYASI.**

Umarov Fayoziddin Abdulfatto o'g'li¹; Nazarov Muxammadrasul Sharopovich²;
Muqimov Muxammad Karim Adxamovich³

¹Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti assistenti; El.pochta.
fayoziddinumarov073@gmail.com

²Farg'ona davlat universiteti dotsenti; E-mail: m_nazarov@mail.ru Tel: +99893 944 84 22

³Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti; El.pochta.

muqimovmuhammadkarim7@gmail.com Tel: +998904080862

Annotatsiya: Maqolada Orol dengizi havzasi Farg'ona vodiysi Norin daryosida uchrovchi ko'zli taxir baliq - *Rhodeus ocellatus* (Kner, 1866) ning ko'payish biologiyasi bo'yicha ma'lumotlar tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Simbioz, ikki pallali mollyuska, erkak baliq, ko'payish, invaziv tur.

Аннотация. В статье приведены данные по биологии размножении глазчатого горчака *Rhodeus ocellatus* (Kner, 1866) в р.Нарын Ферганской долины в Аральском бассейне.

Ключевые слова. Симбиоз, двустворчатый моллюска, самец, процесс размножения, инвазивный вид.

Abstract: The article presents an analysis of the reproductive biology of *Rhodeus ocellatus* (Kner, 1866) in the Norin River, Fergana Valley, Aral Sea Basin.

Keywords: Symbiosis, bivalve mollusk, male fish, reproductive process, invasive species

Kirish

O'zbekiston suv havzalariga, xususan Farg'ona vodiysi havzalariga turli davrlarda bir qancha invaziv turlar (*Hemiculter leucisculus*, *Rhodeus ocellatus*, *Opsariichthys cf. bidens*, *Pseudorasbora parva*, *Abbottina rivularis va boshq.*) kelib qolgan bo'lib, hozirgi kunda Farg'ona vodiysi suv havzalarining deyarli barcha qismlarida uchraydi. Yuqoridagi baliq turlari hududimizga kirib kelgach ixtiofauna holati ancha o'zgardi. Maqolada Ko'zli taxirbaliq (*Rhodeus ocellatus*)ning ayrim biologik ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar tahlil etiladi.

Rhodeus ocellatus karpsimonlar turkumining keng tarqalgan vakillaridan biri bo'lib, Taxirbaliqlar (Acheilognathidae, Bleeker, 1863) oilasiga mansubdir. Acheilognathidae oilasining hozirda 81 ta valid turi mavjud [9]. *Rhodeus*-urug'ining nomlanishi yunoncha bo'lib *rhodeos-atirgul* degan ma'noni anglatadi[10]. *R.ocellatus* bizning o'lkamizga Xitoy suv havzalaridan o'simlikxo'r baliqlar iqlimlashtirilgan paytda tasodifan kelib qolgan invaziv tur hisoblanadi [1].

R.ocellatus o'ziga xos ko'payish usuliga ega bo'lib bunday holat ixtiofaunamizning boshqa vakillarida uchramaydi ya'ni ko'payish davrida ikki pallali mollyuskalar bilan simbiotik munosabatga kirishadi. Farg'ona vodiysi sharoitida baliqlar biologiyasiga doir ilmiy ishlar kam amalga oshirilgan va aynan mana shu jihatlar *R.ocellatus* ning ko'payish biologiyasi bo'yicha tadqiqot o'tkazishda dolzarblik kasb etdi.

Material va uslubi

Namunalar 2021 yilning fevral-iyun va sentyabr-noyabr oylarida Norin daryosining yuqori oqimi Uchqo'rg'on tumani va Norin daryosining pastki oqimi Uychi tumanidan Uychi ko'prigi atrofidan hamda Norinning Qoradaryo bilan qo'shilish joyidan, Sirdaryo daryosining boshlanish qismidan, Namangan va Andijon baliqchilik xo'jaligi hovuzlaridan, Sirdaryo daryosiga quyiluvchi Yozyavon, Oltiariq, Beshariq tumanlarining suv havzalaridan tutildi. Namunalarning bir qismi 7%li formalin eritmasida saqlanmoqda. Bir qismi ko'zli taxir baliqning etologiyasi va ko'payish biologiyasini o'rganish uchun tirik holda akvariumga solib boqildi hamda ko'payish etologiyasi kuzatildi. *R. ocellatus*ning ko'payish jarayoni, erkak baliqlarning urg'ochilarga munosabati, erkak baliqlarning ko'payish substrati bo'lmish molyuska chig'anog'i va urg'ochilar uchun o'zaro raqobati o'rganildi. Baliqlar o'rtasidagi munosabat video va foto tasvirga olindi.



1-rasm. Ko'zli taxir baliq (*Rhodeus ocellatus*). Norin daryosi. SL=55,4 mm; TW=5,6 gr.

Na'munalarni o'lchashda 0,01 mm aniqlikda raqamli shtangensirkul hamda 0,1gr aniqlikdagi elektron tarozidan foydalanildi. Barcha statistik hisoblashlar MS Excel 2019 dan foydalanilgan holda olib borildi.

Natijalar

Urg'ochi baliqlar gonadalarini massasi o'rtacha 0,24 g bo'lib, tuxum hujayralarning soni o'rtacha 231 taga teng bo'ldi. Mahsuldorlik bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich yirik urg'ochi baliqlarda kuzatildi va maksimal tuxum hujayralar soni 304 tani tashkil etdi. Urg'ochi baliqlar ko'payish mavsumida bir necha bor tuxum qo'ygani uchun ularning gonadalarida bir paytda yetilgan va yetilmagan tuxum hujayralarni kuzatdik. Yetilmagan tuxum hujayralar yumaloq shaklga ega bo'lib ular nisbatan kichik o'lchamga ega. Yetilgan tuxum hujayralar esa o'ziga xos uzunchoq oval shaklga ega. Bunday shakldagi tuxum hujayra bizning o'lkada uchrovchi boshqa karpsimonlarda uchramaydi. Kam sonli tuxum qo'ygani uchun tuxum hujayralari anchagina yirik o'lchamli.



2-rasm. Erkak Ko'zli taxirbaliq. TL=68,7 mm; SL=55,6 mm; TW=6,2 gr. Sirdaryo havzasi, Namangan baliqchilik xo'jaligi ko'llari. 40.663869 N, 71.275158 E.

3-rasm. Urg'ochi Ko'zli taxirbaliq. TL=55,3 mm; SL=44,1 mm; TW=2,5 gr. Sirdaryo havzasi, Namangan baliqchilik xo'jaligi ko'llari. 40.663869 N, 71.275158 E.

Norin daryosida uchrovchi ko'zli taxir baliq populyatsiyasini o'rganish davomida jinslar nisbati urg'ochi va erkak organizmlar o'rtasida 1:1 ekanligini aniqladik.

1-jadval.

Urg'ochi *Rh. ocellatus* ning biologik ko'rsatkichlari

Standart uzunligi (SL). (min.-max./ o'rtacha)	Og'irligi (Q), gr (min.-max./ o'rtacha)	Gonada og'irligi (q), g (min.-max./ o'rtacha)	Individual mutlaq serpushtligi (IMS), dona (min.-max./ o'rtacha)	Soni
<u>46,55-59,35</u> 49,98	<u>2,81-5,99</u> 3,82	<u>0,17-0,4</u> 0,238	<u>163-304</u> 231,3	6 ta

R. ocellatus ustida Buyuk Britaniyaning Lester universiteti olimlari Mara Casalini va sheriklari tomonidan olib borilgan tajribada taxminiy tanlab olingan 4 erkak baliqni midiya bilan birgalikda akvaryumga joylashtirishgan. 1 soatdan so'ng kuzatilganda 4 ta erkak baliqdan faqat 1 tasi midiya atrofida suzayotganini va midiya yoniga qolgan erkak baliqlarni yaqinlashtirmayotganini kuzatishgan. Agar dominant erkak baliq olib qo'yilsa uning o'rnini boshqa bir erkak baliq egallagan [3].

Akvariumda olib borgan shunday tajribamizda Norin daryosidan tutilgan *R. ocellatus*ning 4 ta erkak va 2 ta urg'ochi individlarini akvariumda 2 yil davomida boqildi. Birinchi yil nisbatan kichik bo'lganligi uchun ko'payish jarayoni sodir bo'lmadi. Lekin ikkinchi yil erkak va urg'ochi baliqlar o'rtasida farq paydo bo'la boshladi. Erkak baliqlar anchagina yiriklashib rang-barang tusga kirdi. Urg'ochi baliqlar esa uncha ham kattalashmadi va rangi ham o'zgarmadi. Biz o'tkazgan tajribada erkak baliqlar ichida o'lcham jihatidan ikkinchi o'rinda turuvchi baliq yetakchilikni qo'lga oldi yani mollyuska yoniga boshqa erkak baliqlarni yaqinlashtirmay qo'ydi. Yetakchi baliq mollyuska yoniga urg'ochilarni jalb qila boshladi. Mollyuska chig'anog'ini erkak baliq boshqa erkak baliqlardan qo'riqladi. Erkak baliq urg'ochi baliqni mollyuska yoniga yetakladi va urg'ochi baliq mollyuska yoniga yaqinlashdi. Urg'ochi baliq boshini pastga tushirib, uzun nay orqali mollyuskaning chig'anoq bo'shlig'iga tuxum qo'ydi. Shundan so'ng erkak baliq ham mollyuskaning chig'anoq bo'shlig'iga spermiylarini sochdi.

Ko'zli taxir baliq ko'rinish jihatidan akvarium baliqlari singari chiroyli bo'lgani uchun ba'zan bu baliqni akvariumlarda boqilishini ko'rishimiz mumkin (3-rasm). Ayniqsa erkak baliqlar ko'payish mavsumida o'ziga xos libosga kiradi. Urg'ochi organizmda esa ikki pallali mollyuska ichiga tuxum qo'yish uchun mo'ljallangan nay hosil bo'ladi. Ko'payish mavsumida erkak va urg'ochi baliqlarni ajratish oson. Norin daryosidan tutilgan ko'zli taxir baliqlarning erkagi nisbatan yirik va rangdor, urg'ochilari esa kichik va unchalik ham rangdor emasligi kuzatildi.



4-rasm. Urg'ochi baliqning mollyuska mantiyasi ichiga tuxumlarini qo'yishi.



5-rasm. Erkak baliqning mollyuska tanasi ichiga qo'yilgan tuxumlar ustiga spermiylarini sepishi.

Tuxum qo'yish jarayonida odatda 1ta erkak va 1ta urg'ochi baliq qatnashadi. Baz'an yetakchi erkak baliq spermiy sochgandan so'ng nisbatan kuchsizroq erkak baliq ham spermiy sohib ketishi mumkin. Ba'zi holatlarda kuchsizroq erkak urug'lanishdan avval ham spermiy sohib ketishi mumkin ekan. Agarda molyuskani qo'riqlaydigan erkak baliq bo'lmasa yoki hududiylik buzilgan bo'lsa ommaviy tuxum qo'yish kuzatiladi[4].

Muxokama

*R. ocellatus*ning ko'payishi uch xil tipda sodir bo'ladi. Birinchi holatda bitta erkak va bitta urg'ochi baliq qatnashadi. Bu holatda urg'ochi baliq molyuska ichiga tuxum qo'yadi. Erkak baliq tuxumlarni urug'lantiradi. Tuxumdan chiqqan baliqchalarning otasi bitta bo'ladi. Ikkinchi holatda bitta urg'ochi va bitta dominant erkak baliq va bir nechta kuchsiz erkak baliqlar qatnashadi. Urg'ochi baliq tuxum qo'yadi. Dominant erkak baliq tuxumlarni urug'lantiradi. Kuchsiz erkak baliqlar esa dominant erkak baliqni ketishini kutib, urug'lanishdan avval yoki keyin spermiy sochishadi. Bu holatda tasodifan tuxum hujayralar boshqa erkak spermatozoid hisobiga urug'lanib qolishi mumkin. Uchinchi xil ko'payishda molyuska chig'anoq bo'shlig'iga *R. ocellatus*ning bir necha urg'ochilari tuxum qo'yadi va tuxumlarni bir necha erkak baliqlar urug'lantiradi.

Agar erkak individlar zichligi orttirib borilsa tajovuzkorlik dastlab ortadi, keyin esa kamayadi. Erkak organizmlarning xulq atvorini o'rganish uchun o'tkazilgan tajribalar quyidagi 6 ta nisbatda olib borilgan. Bunda erkak va urg'ochi individlar quydagicha 1:1, 2:1, 3:1, 5:1, 7:1, 9:1 nisbatlarda bo'lgan. Bu nisbatlar ichida 3:1 holatda erkak organizmning xatti-harakatlari maksimum darajaga chiqadi [5].

*R. ocellatus*ning urg'ochilari 1 tadan 5 tagacha (odatda 3ta) tuxum qo'yadi. Tuxum hujayra urug'lanib bo'lgandan so'ng ularning lichinkalari o'rtacha 1 oydan keyin ekzogen oziqlanishga o'tadi. Ya'ni taxmiman 1 oy molyuska chig'anog'i ichida rivojlanadi [6]. Urg'ochilarning tuxum qo'yish sikli har 6-9 kunda takrorlanib turadi va bir mavsumda 10 marta tuxum qo'yadi[7]. Jami

mahsuldorlik 220-280 dona tuxumga teng bo'ladi. Ko'zli taxir baliqning ko'payish davri apreldan sentyabrgacha davom etadi. Eng faol ko'payish davri may va iyun oylarida kuzatiladi [5].

R. ocellatus va molyuska o'rtasidagi munosabatdan faqatgina baliq uchun foydali emas. Bu munosabatdan molyuska ham foyda ko'radi. Mollyuskaning lichinkasi baliq terisi va jabralariga kirib oladi va uzoq masofalarga tarqaladi [8]. Mollyuska ichiga qo'yilgan tuxumlar nobud bo'lishi ham kuzatilgan. Bu jarayon ikkita holatda sodir bo'lishi mumkin. Ba'zan mollyuska tuxumlarni chiqarib yuboradi. Bu holatda tuxumlar ko'pincha nobud bo'ladi. Ikkinchi holatda esa molyuska chig'anog'i ichida kislorod yetishmasligi natijasida ham tuxum nobud bo'lishi mumkin[2].

Erkak ko'zli taxir baliqlar o'rtasida molyuska uchun kuchli raqobat kuzatiladi. Odatda erkak ko'zli taxir baliqning hududi 100 sm gacha bo'ladi. Lekin erkak baliq qo'shni baliqlar hududiga tez-tez bostirib kiradi. Urg'ochi baliqni qidirib o'z hududidan ancha uzoqqa boradi. Erkak baliq hududida 1 tadan bir necha 10 ta mollyuska bo'lishi mumkin[2].

Ko'zli taxir baliq Norin daryosining yuqori qismida nisbatan kamroq, pastki oqimida ko'proq uchrashini qayd etdik. Bunga sabab harorat omili deb hisoblanadi. Norin daryosining O'zbekistonga kirib kelish qismida harorat 11°C dan oshamaydi. Daryoning nisbatan o'rta qismlarida suv harorati 13,5°C, tugash qismida ya'ni Norin va Qoradaryoning qo'shilish joyida harorat 17,5-19°C ni tashkil etadi. Ko'zli taxir baliq issiq suv balig'i hisoblanadi. Bu baliqni ko'payishi uchun harorat 20°C atrofida bo'lishi zarur.

Xulosa

Yuqoridagi ma'lumotlar Farg'ona vodiysi sharoitida Ko'zli taxirbaliqning ko'payish biologiyasiga oid dastlabki ma'lumotlardan hisoblanadi. Ushbu baliq turi boshqa invaziv turlarga nisbatan kam nasl qoldirishi va nasl qoldirish jarayoni mollyuskalar bilan simbiotik tarzda amalga oshirilishi kuzatildi. Kelgusi ishlarimizda ushbu baliq turining hozirgi boshqa baliq populyatsiyalari bilan munosabati, ularga ta'sir doirasi qanday ekanligi va oziqlanish biologiya qanday ekanligini o'rganish maqsad qilib qo'yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirabdullayev I.M., Kuzmetov A.R., Qurbonov A.R. O'zbekiston baliqlari xilma-xilligi. Toshkent: "Classic" nashriyoti, 2020.
2. Martin Reichard et al.: Selection gradients on male phenotypic traits: experimental study on lifetime reproductive success in the bitterling fish (*rhodeus amarus*) *Evolution* 2008 doi:10.1111/j.1558-5646.2008.00572.x
3. Mara Casalini et al.: Male dominance, female mate choice, and intersexual conflict in the rose bitterling (*rhodeus ocellatus*) *The Society for the Study of Evolution*. 63-2: 366–376 2008-yil
4. Yoshihiko Kanoh. Reproductive success associated with territoriality, sneaking, and grouping in male rose bitterlings, *Rhodeus ocellatus* (Pisces: Cyprinidae). *Environmental Biology of Fishes* 57: 143–154, 2000.
5. Liao et al.: Reproductive behavior of the male rose bitterling *Rhodeus ocellatus* as influenced by the operational sex ratio. *Zoological Studies* 2013 52:21. doi:10.1186/1810-522X-52-21
6. Muna Agbali va boshqalar. Mate choice for nonadditive genetic benefits correlate with mhc dissimilarity in the rose bitterling (*rhodeus ocellatus*). *Evolution* 64-6: 1683–1696 2010-yil



7. Yoshihiko Kanoh. Reproductive success associated with territoriality, sneaking, and grouping in male rose bitterlings, *Rhodeus ocellatus* (Pisces: Cyprinidae). *Environmental Biology of Fishes* 57: 143–154, 2000.
8. Н. Г. Богуцкая, А. М. Насека, О. К. Клишко. Горчак и моллюск: необычный пример межвидовых отношений. *Вестник санкт-петербургского университета*. Сер 3 2009 вып 3.
9. <https://www.calacademy.org/scientists/projects/eschmeyers-catalog-of-fishes>
10. Romero, P., 2002. An etymological dictionary of taxonomy. Madrid, unpublished.

ВИДЫ СЕМЕЙСТВА LAMIACEAE, РАСПРОСТРАНЕННЫЕ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

¹Толибова Шахло Эркин кизи, ²Хужанов Алишер Нуралиевич
Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова,

¹Соискатель кафедры физиологии растений и микробиологии

²Преподаватель кафедры физиологии растений и микробиологии

Email: alisher_khujanov@samdu.uz

Анотация: В данной статье представлена информация о видах лекарственных растений семейства губоцветных, распространенных в Самаркандской области. Эфиромасличные, танины, сапонины и органические кислоты, накопленные в вегетативных и генеративных органах растения, обладающие лечебными свойствами, выделены различными технологиями и описаны их свойства.

Ключевые слова: *Lamiaceae*, *Anisomeles*, *Hyptis*, *Leonotis*, *Leucas*, *Mentha*, *Ocimum*, *Oreganum*, *Salvia*, ароматические, фитохимические, лекарственные.

SAMARQAND VILOYATIDA TARQALGAN LAMIACEAE OILASINI TURKUMLARI

Tolibova Shahlo Erkin qizi, Xujanov Alisher Nuralievich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
Samarqand, O'zbekiston

¹O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya kafedrasida tadqiqotchisi

²O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya kafedrasida o'qituvchisi

Email: alisher_khujanov@samdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyati hududida tarqalgan Lamiaceae oilasining dorivor o'simlik turlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan o'simlikning vegetativ va generativ organlarida to'planuvchi efir moyi, taninlar, saponinlar va organik kislotalar turli texnologiyalar orqali ajratib olinishi va ularning xususiyatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Lamiaceae*, *Anisomeles*, *Hyptis*, *Leonotis*, *Leucas*, *Mentha*, *Ocimum*, *Oreganum*, *Salvia*, aromatik, fitokimyoviy, dorivor.



SPECIES OF THE FAMILY LAMIACEAE DISTRIBUTION IN SAMARKAND REGION

¹Tolibova Shakhlo, ²Khujanov Alisher

Samarkand State University named after Sharof Rashidov,

¹Researcher Department of Plant physiology and microbiology

²Teacher Department of Plant physiology and microbiology

Email: alisher_khujanov@samdu.uz

Abstract: This article presents information on medicinal plant species of the Lamiaceae family distributed in Samarkand region. Essential oil, tannins, saponins and organic acids accumulated in the vegetative and generative organs of the plant with medicinal properties are used for the composition and production of additional materials based on various technologies.

Key words: Lamiaceae, Anisomeles, Hyptis, Leonotis, Leucas, Mentha, Ocimum, Oreganum, Salvia, aromatic, phytochemical, medicinal.

Введение

Растения приобрели большое значение в человеческом мире и с древних времен использовались в качестве продуктов питания, пряностей, одежды, кондитерских изделий, легкой и тяжелой промышленности, при разработке парфюмерных изделий, а также в качестве лекарств. На протяжении веков растения составляли основу комплексной народной медицины при производстве натуральных лекарств, а также при борьбе и лечении обычных заболеваний. Яснотковые – одно из самых разнообразных и распространенных с этномедицинской точки зрения семейств растений, и его лечебное значение оценивается по концентрации эфирных масел [2].

Представители семейства губоцветных превосходят других представителей семейства наличием желез, хранящих и выделяющих эфирные масла [3]. Основные свойства эфирных масел важны в пестицидной, фармацевтической, ароматизирующей, парфюмерно-косметической промышленности [4]. В сельскохозяйственной жизни развивающихся стран мира лекарственные растения имеют важное значение в социокультурных, духовных и лечебных целях. В настоящее время люди во всем мире используют в качестве лекарственных средств от 50 000 до 80 000 цветковых растений [5]. По данным ВОЗ, лекарственные и эфиромасличные растения используют от 70 до 80% населения земного шара из-за их лечебного и терапевтического действия [5,7,8,9,10].

Семейство Lamiaceae включает 236 родов и от 6900 до 7200 видов на Земле, самыми крупными родами являются *Salvia* (900), *Scutellaria* (360), *Coleus* (325), *Plectranthus* (300), *Hyptis* (280), *Teucrium* (250), *Thymus* (220) и *Nepeta* (200). Род *Klerodendrum* много лет назад насчитывал более 400 видов, но к 2010 г. количество видов сильно сократилось [6,12].

При анализе видового состава семейства губоцветных в Самаркандской области выявлено 29 родов и 80 видов растений, из которых 24 рода и 44 вида растений используются в качестве лекарственных пищевых и пряных растений [1]. Виды категории в основном используются в пищу, 14 видов 7 категории используются в пищу. Эти виды используются в основном для надземной части растения, корней и листьев в лечебных целях, они содержат антибактериальные и антиоксидантные вещества. Представители

этого семейства также отличаются друг от друга по жизненным формам. Особое значение имеет то, что эфирные масла в основном концентрируются в листьях растения [11,12]. Представители семейства губоцветных используются как антиоксиданты, противовоспалительные, противовирусные, цитотоксические, при лечении сердечно-сосудистых заболеваний.

Материалы и методы исследования

В результате исследований и сведений, собранных из научной литературы, были отобраны лекарственные растения семейства губоцветных, произрастающие на территории Самаркандской области, и изучено их распространение по вертикали, виды серии, значение. При анализе результатов исследования использовались сведения, предоставленные кадастром растений Самаркандской области и врачами, применяющими лекарственные растения при лечении различных заболеваний, и предпринимателями, занимающимися реализацией лекарственных растений. Кроме того, для изучения значения растений и определения их научных названий использовались сайты <https://planta-medica.uz> и <http://www.theplantlist.org>.

Результаты и обсуждения

При анализе видового состава семейства Lamiaceae на территории Самаркандской области было обнаружено в общей сложности 29 родов, 80 видов растений, из которых 24 рода, 44 вида растений используются в качестве лекарственной пищи и специй [1]. Из видов в пищу в основном используются 14 видов из 7 рода (табл.).

Таблица 1

Значение ведущих родов семейства Lamiaceae, распространенные в Самаркандской области.

Название рода	Научное название	Русское название	Узбекское название	Жизненная форма	Важность	Распространение
<i>Lagochilus</i> Bunge ex Benth.	<i>Lagochilus inebrians</i> Bunge	Зайцегуб опьяняющий	Sarxush bozilbang	П	Л	Горные равнины, предгорья
	<i>Lagochilus gypsaceus</i> Vved	Зайцегуб гипсовый	Gips bozilbang	П	Л	Горные равнины, предгорья
	<i>Lagochilus olgae</i> Kamelin	Зайцегуб Ольги	Olga bozilbangi	П	Л,Э	Нижняя и средняя горные части
	<i>Lagochilus proskorjakovii</i> Ikramov	Зайцегуб Проскорякова	Ikramov bozilbangi	П	Л	Средние горные части
<i>Nepeta</i> L.	<i>Nepeta cataria</i> L.	Котовник кошачий	Mushik zufosi	М	Э,М	Горные равнины, предгорья, Нижняя и средняя горные части



	<i>Nepeta formosa</i> Kudrjasch.	Котовник прекрасный	Guzal zufo	М	Э,М	Средние горные части
	<i>Nepeta mariae</i> Regel	Котовник Марии	Mariya zufosi	М	Э,М	Средние горные части
	<i>Nepeta micrantha</i> Bunge	Котовник мелкоцветковый	Maydagulli zufo	О	Э,М	взял гору нижняя и средняя части гор
	<i>Nepeta olgae</i> Regel	Котовник Ольги	Olga zufosi	М	Э,М	взял гору Нижние горные части
	<i>Nepeta pungens</i> (Bunge) Benth	Котовник колючий	Tikanli zufo	О	Э,М	Нижняя и средняя горные части
	<i>Nepeta saturejoides</i> Boiss.	Котовник чабровидный	Gulrayxonsimon zufo	О	Э,М	взял гору нижняя и средняя части гор
<i>Perovskia</i> Kar.	<i>Perovskia angustifolia</i> Kudrjasch.	Перовския узколистная	Ingichka bargli qisroq	П	Л,Э,К,М	взял гору нижняя и средняя части гор
	<i>Perovskia botschantzevii</i> Kovalevsk	Перовския Бочанцева	Batchasev qisroqi	П	Л,Э,М,К	Нижняя и средняя горные части
	<i>Perovskia kudrjashevii</i> Gorschk. & Pjataeva	Перовския Кудряшева	Kudrashev qisroqi	П	Л,Э,М,К	Нижняя и средняя горные части
	<i>Perovskia scrophulariifolia</i> Bunge	Перовския норичниковолистная	muxallisbargli qisroq	П	Л,Э,М,К	взял гору нижняя и средняя части гор
<i>Phlomis</i> L.	<i>Phlomis linearifolia</i> Zakirov	Зопник линейнолистный	Uzun bargli qoziquloq'	М	Э,М	Нижняя и средняя горные части
	<i>Phlomis nubilans</i> Zakirov	Зопник мрачный (зопник тусклый)	Ko'rimsiz qo'ziquloq	М	Э,М	Нижняя и средняя горные части
	<i>Phlomis olgae</i> Regel	Зопник Ольги	Olga qo'ziquloqi	М	Э,М	Средние горные части



	<i>Phlomis salicifolia</i> Regel	Зопник иволистный	Tol bargli qo'ziquloq	М	Э,М	Нижняя и средняя горные части
	<i>Phlomis thapsoides</i> Bunge	Зопник коровяковый	Sigirquyruqli qo'ziquloq	М	Э,М	Горные части
Phlomoides Moench	<i>Phlomoides ambigua</i> (Popov ex Pazij & Vved.) Adylov, Kamelin & Makhm.	Фломоидес двуличный	ikkiyuzli flomoides	М	Э,М	Средние горные части
	<i>Phlomoides anisochila</i> (Pazij & Vved.) Salmaki (Paraeremostachys anisochila) (Pazij & Vved.) Adylov, Kamelin & Makhm.)	Фломоидес неравногубый	uchpoyali oqto'sha, tengsiz labli flomoides	М	Л	Средние горные части
	<i>Phlomoides arctiifolia</i> (Popov) Adylov, Kamelin & Makhm.	Фломоидес лопухолистный	qariqiz bargli flomoides	М	М	Средние горные части
	<i>Phlomoides canescens</i> (Regel) Adylov, Kamelin & Makhm.	Фломоидес Сероватый	kulrang flomoides	М	М,Д	Средние горные части
	<i>Phlomoides desertorum</i> (Regel) Salmaki	Фломоидес пустынный	cho'l flomoidesi	М	М	Горные равнины, горы
	<i>Phlomoides eriocalyx</i> (Regel) Adylov, Kamelin & Makhm.	Фломоидес опушенночашечный	tukli kosabarg flomoides	М	М,Д	Предгорная, предгорная части
	<i>Phlomoides kaufmanniana</i>	Фломоидес Кауфмана	Kaufman flomoidesi	М	М,Д	Нижняя и средняя



	(Regel) Adylov, Kamelin & Makhm.					горные части
	<i>Phlomoides napuligera</i> (Franch.) Adylov, Kamelin & Makhm.	Фломоидес репчатый	sholg'omsi mon flomoides	М	М,Д	На горных равнинах, перед горой
	<i>Phlomoides sogdiana</i> (Pazij & Vved.) Salmaki	Фломоидес согдийский	Sug'd flomoidesi	М	М,Д	Предгорны е предгорны е части
	<i>Phlomoides speciosa</i> (Rupr.) Adylov, Kamelin & Makhm.	Фломоидес видный	ko'rimli flomoides	М	М,Д	Средние горные части
	<i>Phlomoides uniflora</i> (Regel) Adylov, Kamelin & Makhm.	Фломоидес од- ноцветковый	birgulli flomoides	М	М,Д	В горных равнинах, предгорьях
<i>Salvia L.</i>	<i>Salvia aequidens</i> Botsch.	Шалфей равнозубчатый	tengtishli marmarak	М	Л,Э,Д,М	Нижняя и средняя горные части
	<i>Salvia drobovii</i> Botsch.	Шалфей Дробова	Drobov marmaragi	М	Э,Д,М	Средние горные части
	<i>Salvia komarovii</i> Pobed.	Шалфей Комарова	Komarov marmaragi	М	Э,Д,М	Нижняя и средняя горные части
	<i>Salvia macrosiphon</i> Boiss.	Шалфей длинно- трубчатый	uzunnayli marmarak	М	Э,Д,М	Нижняя и средняя горные части
	<i>Salvia sarawschanica</i> Regel & Schmalh.	Шалфей зеравшанский	Zarafshon marmaragi	М	Л,Э,Д,М	Нижняя и средняя горные части
	<i>Salvia sclarea</i> L.	Шалфей мускатный	muskat marmaragi, mavrak	М	Л,Э,Д,М	В горных равнинах, предгорьях



						предгорной части
	<i>Salvia spinosa</i> L.	Шалфей колючий	Tikanli marmarak, pashsha qo'nnas	М	Л,Э,Д,М	Предгорная, предгорная части
	<i>Salvia submutica</i> Botsch. & Vved.	Шалфей туповатый	To'mtoq marmarak	М	Э,Д,М	Средние горные части
	<i>Salvia virgata</i> Jacq.	Шалфей прутьевидный	Xivchinsimon marmarak	М	Л,Э,Д,М	Нижняя и средняя горные части
<i>Scutellaria</i> L.	<i>Scutellaria botschantzevii</i> M.N. Abdull.	Шлемник Бочанцева	Bochansev ko'kameroni	П	Л	Нижняя и средняя горные части
	<i>Scutellaria comosa</i> Juz.	Шлемник хохлатый	Kokilli ko'kameron	П	Э	Нижняя и средняя горные части
	<i>Scutellaria galericulata</i> L.	Шлемник колпачковый	Qalpoqchali ko'kameron	М	Л,Э,М,К	В горно-равнинной, предгорной, низкогорной и среднегорной частях
	<i>Scutellaria glabrata</i> Vved.	Шлемник головатый	Yalang'och ko'kameron	П	Л,Э,Д	Средние горные части
	<i>Scutellaria immaculata</i> Nevski ex Juz.	Шлемник незапятнанный	Dog'siz ko'kameron	П	Э	Нижняя и средняя горные части
	<i>Scutellaria intermedia</i> Popov	Шлемник средний	O'rta ko'kameron	П	Л,Э	Средние горные части
	<i>Scutellaria leptosiphon</i> Nevski	Шлемник тонкотрубковый	Ingichka ustunchali ko'kameron	П	Д	Нижняя и средняя горные части
	<i>Scutellaria oxystegia</i> Juz.	Шлемник острочешуйный	O'tkirtangachali ko'kameron	П	Э,М	Средние горные части
	<i>Scutellaria ramosissima</i> Popov	Шлемник ветвистейший	Shoxlangan ko'kameron	П	Э	Средние горные части



	<i>Scutellaria squarrosa</i> Nevski	Шлемник растопыренный	Toptalgan ko'kamoron	П	Л,Э	Нижняя и средняя горные части
Ziziphora L.	<i>Ziziphora capitata</i> L.	Зизифора головчатая	Boshchali kiyiko't	О	Л,Э,С,М	Нижние горные части
	<i>Ziziphora clinopodioides</i> Lam.	Зизифора пахучковидная	Hidli kiyiko't	П	Л,Э,С,М	Предгорная, нижняя и среднегорная части
	<i>Ziziphora pamiroalaica</i> Juz.	Зизифора памироалайская	Pomir-Oloy kiyiko'ti	П	Л,Э,С,М	Средние горные части
	<i>Ziziphora persica</i> Bunge	Зизифора персидская	Fors kiyiko'ti	О	Л,Э,С,М	Предгорная, предгорная части
	<i>Ziziphora tenuior</i> L.	Зизифора тонкая	Nafis kiyiko't, cho'l yalpizi	О	Л,Э,С,М	Горно-равнинные, предгорные, низкогорные и среднегорные части

Примечание: Жизненная форма - П-полукустарник, М-многолетние, О-однолетние; Важность - Л-лекарственные, Э-эфиромасличные, М-медоносные, К-красильные, С-специй, Д-декоративные.

Кроме того, были проанализированы ведущие виды рода на основе их использования в народной медицине и результатов опросов местного населения. На основании полученных результатов было установлено, что в отношении лечебных свойств и иного значения, главным образом при лечении чахотки, различные органы растения используют в качестве отваров, мазей, приправ при приготовлении пищи и для других целей (табл.).

Заключение

По результатам исследований представители этого семейства отличаются особым лечебным свойством. Можно сказать, что эти виды важны для здоровья человека благодаря своим антибактериальным, антиоксидантным, противомикробным, противовоспалительным свойствам, использованию в качестве специи при приготовлении пищи и во многих других аспектах. Мы считаем целесообразным размножать встречающиеся в природе лекарственные растения с целью предотвращения истощения их природных запасов, а также с научной точки зрения изучать физиологические аспекты растений.

Литературы

1. Тожибаев К. Ш., Бешко Н. Ю., Кодиров У. Х., Батошов А. Р., Мирзалиева Д.У., Кадастр флоры Узбекистана: Самаркандская область. – Ташкент: Издательство «FAN» АН РУз., 2018. – 220 с.
2. Aghajani Z., Assadian F., Masoudi S., Chalabian F., Esmaeili A., Tabatabaei-Anaraki M., Rustaiyan A. (2008): Chemical composition and *in vitro* antibacterial activities of the oil of *Ziziphora clinopodioides* and *Z. capitata* subsp. *Capitata* from Iran. *Chemistry of Natural Compounds*, 44: 387–389
3. Ahmad N., Fazal H., Ahmad I., Abbasi B.H. (2012): Free radical scavenging (DPPH) potential in nine *Mentha* species. *Toxicology and Industrial Health*, 28: 83–89.
4. Aliakbarlu J., Shameli F. (2013): *In vitro* antioxidant and antibacterial properties and total phenolic contents of essential oils from *Thymus vulgaris*, *T.kotschyanus*, *Ziziphora tenuior* and *Z.clinopodioides*. *Turkish Journal of Biochemistry*, 38: 425–431.
5. Araújo S.G., Alves L.F., Pinto M.E.A., Oliveira G.T., Siqueira E.P., Ribeiro R.I.M.A., Ferreira J.M.S., Lima L.A.R.S. (2014): Volatile compounds of Lamiaceae exhibit a synergistic antibacterial activity with streptomycin. *Brazilian Journal of Microbiology*, 45: 1341–1347
6. Sarac N., Ugur A. (2007): Antimicrobial activities and usage in folkloric medicine of some Lamiaceae species growing in Mugla, Turkey. *EurAsian Journal of BioSciences*, 4: 28–37.
7. Boudjelal A., Henchiri C., Siracusa L., Sari M., Ruberto G. (2011): Compositional analysis and *in vivo* anti-diabetic activity of wild Algerian *Marrubium vulgare* L. infusion. *Fitoterapia*, 83: 286–292
8. Licina B.Z., Stefanovic O.D., Vasic S.M., Radojevic I.D., Dekic M.S., Comic L.R. (2013): Biological activities of the extracts from wild growing *Origanum vulgare* L. *Food Control*, 33: 498–504.
9. Dzhambazov B., Daskalova S., Monteva A., Popov N. (2002): *In vitro* screening for antitumour activity of *Clinopodium vulgare* L (Lamiaceae) extracts. *Biological and Pharmaceutical Bulletin*, 25: 499–504.
10. Formisano C., Rigano D., Senatore F. (2011): Chemical constituents and biological activities of *Nepeta* species. *Chemistry and Biodiversity*, 8: 1783–1818
11. Olim K. Khojimatov, Dilovar T. Khamraeva, Alisher N. Khujanov, Rainer W. An overview of Ethnomedicinal plants of Uzbekistan. *Ethnobotany Research & Applications*. 2020. Pp. 1-19 <http://dx.doi.org/10.32859/era.20.08.1-19>
12. Ozkan M. (2008): Glandular and eglandular hairs of *Salvia recognita* Fisch. & Mey. (Lamiaceae) in Turkey. *Bangladesh Journal of Botany*, 37: 93–95.



FARG'ONA SHAHRI DENDROFAG TANGACHAQANOTLILARINING (INSECTA, LEPIDOPTERA) OZUQA SPEKTRI VA EKOLOGIK GURUHLARI

Shermatov Malikjon Raxmatjonovich

Farg'ona davlat universiteti doktoranti, b.f.n., dotsent

E-mail: malikjonshermatov78@gmail.com

Mo'minjon Muhammedov Ma'ruf og'li

Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi

E-mail: mominjonmuhammedov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Farg'ona shahri dendrofag tangachaqaqanotlilarining 16 ta (53,3%) turlari polifag, 13 ta (43,3%) turlari oligofag, 1 ta (3,3%) tur esa, monofag ekanligi qayd etilgan. Dendrofag tangachaqaqanotlilarning 10 ta turi bahorgi-yozgi, 6 ta turi yozgi, 3 ta turi yozgi-kuzgi, 11 ta turi bahorgi-yozgi-kuzgi fenologik guruhga mansub ekanligi aniqlangan. Dendrofag tangachaqaqanotlilarning 15 ta (50%) turlari mezofil, 6 ta (20%) turlari evribiont, 9 ta (30%) turlari gemikserofil turlardan iborat.

Kalit so'zlar: Farg'ona shahri, tangachaqaqanotlilar, kapalak, dendrofag, urbanizatsiya, ozuqa spektri, fenologiya, polifag, mezofil

ПИЩЕВОЙ СПЕКТР И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ГРУППЫ ЧЕШУЕКРЫЛЫХ - ДЕНДРОФАГОВ (INSECTA, LEPIDOPTERA) ГОРОДА ФЕРГАНА

FOOD SPECTRUM AND ECOLOGICAL GROUPS OF LEPIDOPTHER - DENDROPHAGES (INSECTA, LEPIDOPTERA) OF THE CITY OF FERGANA

Abstract: In the article, it is noted that 16 (53.3%) species of lepidopther - dendrophages of Fergana city are polyphagous, 13 (43.3%) species are oligophagous, and 1 (3.3%) species is monophagous. It was determined that 10 species of lepidopther - dendrophages belong to the spring-summer, 6 belong to the summer, 3 belong to the summer-autumn, and 11 belong to the spring-summer-autumn phenological groups. 15 (50%) species of lepidopther - dendrophages are mesophilic, 6 (20%) species are eurybionts, and 9 (30%) species are hemixerophilous species.

Key words: Fergana city, Lepidoptera, butterfly, dendrophagus, urbanization, food spectrum, phenology, polyphagous, mesophilic.

Kirish

Farg'ona shahrining manzarali va mevali daraxtlari dendrofag tangachaqaqanotlilar uchun o'ziga xos yashash joyidir. Shuni alohida ta'lidlash lozim-ki, mazkur ekotizimlarda texnogen ifloslanishlarning yuqori ta'siri oqibatida ozuqa o'simliklarning fiziologik zaiflashishi, parazitlar va yirtqichlar bosimining pasayishi texnogen ta'sirlarga chidamli bo'lgan zararkunada turlar populyatsiyasining ko'payishiga yordam beradi. Shahardagi yashil maydonlarning "orolsimon" fazoviy tuzilishi natijasida populyatsiyalardagi individlarning hududlararo migratsiyasining qiyinligi, havoni ifloslantiruvchi moddalarning yashil maydonlarga ta'siri sababli ozuqa o'simliklari sifatining yomonlashishi va shahar sharoitlariga xos bo'lgan boshqa ta'sirlar

dendrofag tangachaqanotlilar sonining kamayishiga va ayrim turlarning yo'q bo'lib ketishiga olib keladi.

Adabiyotlar tahlili

Xorijiy mamlakatlarda urbanizatsiyalashgan hududlarning dendrofag tangachaqanotli hasharotlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar Yaponiyaning markaziy qismidagi Tsukuba shahri istirohat bog'larida [15], Rossiyaning Sankt-Peterburg shahri istirohat bog'larida [8], Kanadaning Ontario shahridagi buzilayotgan eski mavzalar hududidagi istirohat bog'larda [13], Britaniya bog'larida [23], Katta Boston shahri [10] hamda Nyu-York shaharlaridagi istirohat bog'larida [14], Braziliyaning Kuritiba Parana shahridagi Botanika bog'i va Barreirinha istirohat bog'ida [9], Italiyaning urbanizatsiyalashgan hududlari istirohat bog'larida [11; 12; 17], Tokioning izolyatsiyalangan yoki parchalangan shahar o'rmonlarida [22], Pekin shahridagi (Xitoy) 10 ta shaharlarning istirohat bog'larida [16; 21], Fuchjou shahridagi to'qqizta bog'larda [18] olib borilgan. Shuningdek, Ramirez va MacGregorlar shahar markazlarida tarqalgan kapalaklarning ekologik holatini aniqlash maqsadida, 37 ta mamlakat va 110 dan ortiq shaharlardan jami 173 ta tadqiqotlar, shu jumladan nashr etilgan maqolalar va tezislarni (1956-2015) jamlashgan. Yig'ilgan ma'lumotlarning tahlillariga ko'ra, ko'pgina maqolalar (69%) ekologik mavzularga bag'ishlangan, 14% biologik muhofazaga va 17% ishlar turlar ro'yxatiga qaratilgan [19]. Umuman olganda, xorijiy mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati shaharlardagi urbanizatsiya intensivligini kapalaklarning xilma-xilligiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

O'zbekiston entomofaunasiga bag'ishlangan bir qator ilmiy asarlarda ayrim tur dendrofag tangachaqanotlilar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, J.A.Azimov, D.A.Bekuzin, A.G.Davletshina, M.K.Kadirovalar hammuallifligidagi "O'zbekiston hasharotlari" nomli ilmiy asarda (1993) dendrofag tangachaqanotlilarning ba'zi turlari haqida ma'lumotlar berilgan [1].

V.V.Yaxontov (1962) [25], A.Yusupov (1998) [4], A.Sheraliyev (2001) [3], Sh.T.Xo'jaev, E.A.Xolmurodov (2014) [24], M.X.Bekchanov (2019) [5], B.A.Sulaymonov, A.S G'ozibekov (2020) [2], M.X.Bekchanova (2022) [7], X.O'.Bekchanov (2023) [6], M.R.Shermatov (2010) [20] larning tadqiqotlari natijalarida ham dendrofag tangachaqanotlilarning tabiiy landshaftlar hamda agrotsenozlarda tarqalgan turlari haqida ma'lumotlar uchraydi. Shunga qaramasdan, O'zbekistonda urbanizatsiyalashgan hududlarning dendrofag tangachaqanotli hasharotlarini o'rganishga oid maqsadli tadqiqotlar olib borilmagan.

Material va tadqiqot uslublari

Namunalar Farg'ona shahrida joylashgan Ahmad al-Farg'oniy nomidagi istirohat bog'i, Islom Karimov nomidagi san'at saroyi hududi hamda Farg'ona davlat universiteti hududida o'stirilayotgan manzarali daraxtlar va yashil maydonlardan yig'ildi. Kapalaklar asosan tunda sun'iy yorug'lik manbalari (gaz razryadli lampalar DRL 250, DRV 250)ga jalb qilish orqali ushlandi. Yoritkichlar 2 m² xajmda bo'lgan, oq matodan tayyorlangan maxsus ekran oldida joylashtirildi. Ushbu matoga uchib kelgan kapalaklar maxsus idishlarga yig'ib olindi. Kunduzgi yoki kun davomida faol bo'lgan ba'zi turlar entomologik to'r yordamida ushlandi. Ertalab kapalaklarning ba'zi vakillari boshqa hasharotlar bilan birga ko'cha chiroqlari ostida to'planadi. Kechasi gullaydigan o'simliklarni ustida uchub yurgan kapalaklar entomologik to'r yordamida ushlandi.

Farg'ona shahrining istirohat bog'larida dendrofag tangachaqanotli hasharotlarning qurtlari oziqlanadigan 21 tur manzarali daraxtlar aniqlanib, ularning ro'yxati shakllantirildi hamda rivojlanish xususiyatlari va gullash fenologiyasiga oid ma'lumotlar to'plandi.

Olingan natijalar

Dendrofag tangachaqanotli hasharotlar qurtlarining ozuqa spektrini tahlil etish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Dendrofag tangachaqanotli hasharotlar qurtlarining ozuqa spektri

T/r	Lepidoptera tur nomi	Ozuqa o'simligining ilmiy nomlanishi	Ozuqa o'simligining maxalliy nomlanishi	Ozuqa ixtisosligi
	<i>Stigmella maloidica</i> Puplesis, 1991	<i>Cotoneaster integerrima</i>	Oddiy irg'ay	Oligofag
	<i>Yponomeuta padellus</i> Linnaeus, 1758	<i>Salix alba</i> , <i>Fraxinus excelgior</i> , <i>Salix babylonica</i> , <i>Quercus robur</i>	Oq tol, shumtol, majnuntol, eman	Oligofag
	<i>Lyonetia clerkella</i> Linnaeus, 1758	<i>Betula verrucosa</i> , <i>Castanae crenata</i> , <i>S.alba</i> , <i>F. excelgior</i> , <i>S.babylonica</i>	Qayin, soxta kashtan, oq tol, shumtol, majnuntol	Oligofag
	<i>Leucoptera malifoliella</i> Costa, 1836	<i>Betula verrucosa</i> , <i>Castanae crenata</i>	Qayin, soxta kashtan	Oligofag
	<i>Acleris variegana</i> Denis & Shiffermuller, 1775	<i>Salix alba</i> , <i>Fraxinus excelgior</i> , <i>Salix babylonica</i> , <i>Quercus robur</i>	Oq tol, shumtol, majnuntol, eman	Polifag
	<i>Pandemis chondrillana</i> Herrich-Schäffer, 1860	<i>S. alba</i> , <i>F. excelgior</i> , <i>S. babylonica</i> , <i>P. alba</i> , <i>P. bachofenii</i> , <i>P. nigra</i> , <i>P. candican</i> , <i>Q. robur</i>	Oq tol, shumtol, majnuntol, oq terak, ko'k terak, mirza terak, amerika teragi, eman	Polifag
	<i>Spilonota ocellana</i> Denis & Schiffermüller, 1775	<i>Quercus robur</i> , <i>Betula verrucosa</i> , <i>Salix alba</i> , <i>Fraxinus excelgior</i> , <i>Salix babylonica</i>	Eman, qayin, oq tol, shumtol, majnuntol	Oligofag
	<i>Archips crataegana</i> Hubner, 1796-1799	<i>Quercus robur</i> , <i>Populis alba</i> , <i>P. bachofenii</i> , <i>P. nigra</i> , <i>P. candican</i> , <i>S.alba</i> , <i>Fraxinus excelgior</i> , <i>Pinus</i> , <i>Tilia cordata</i> , <i>Platanus orientalis</i> , <i>C.oxycantha</i>	Eman, oq terak, ko'k terak, mirza terak, amerika teragi, oq tol, shumtol, qarag'ay, jo'ka, chinor, do'lana	Polifag
	<i>Archips xylosteana</i> Linnaeus, 1758	<i>Quercus robur</i> , <i>Tilia cordata</i> , <i>Platanus orientalis</i> , <i>Populis alba</i> , <i>P. bachofenii</i> , <i>P. nigra</i> , <i>P. candican</i> , <i>Salix</i>	Eman, jo'ka, chinor, oq terak, ko'k terak, mirza terak, amerika	Polifag




		<i>alba, Fraxinus excelgior, Pinus pallasiana</i>	teragi, oq tol, shumtol, qarag'ay	
	<i>Glyphodes pyloalis</i> Walker, 1859	<i>Morus multicanlis</i>	Majnun tut	Monofag
	<i>Cossus cossus</i> Linnaeus, 1758	<i>Ulmus suberosa, Betula verrucosa, Quercus robur, Platanus orientalis, Morus alba</i>	Po'kak qayrag'och, qayin, eman, chinor, tut, oblepixa	Polifag
	<i>Malacosoma neustria</i> Linnaeus, 1758	<i>Q. robur, B. verrucosa, S.alba, F.excelgior, S.babylonica, P.orientalis</i>	Eman, qayin, oq tol, shumtol, majnuntol, chinor	Polifag
	<i>Laothoe populi</i> Linnaeus, 1758	<i>P.alba, P. bachofenii, P. nigra, P. candican</i>	Oq terak, ko'k terak, mirza terak, amerika teragi	Oligofag
	<i>Smerinthus kindermannii</i> Lederer, 1857	<i>Populis alba, P. bachofenii, P. nigra, P. candican, Salix alba, Fraxinus excelgior, Salix babylonica</i>	Oq terak, ko'k terak, mirza terak, amerika teragi, oq tol, shumtol, majnuntol	Oligofag
	<i>Cabera pusaria</i> Linnaeus, 1758	<i>Q. robur, B.verrucosa, S. alba, F.excelgior, S.babylonica</i>	Eman, qayin, oq tol, shumtol, majnuntol	Polifag
	<i>Campaea margaritaria</i> Linnaeus, 1761	<i>Populis alba, P. bachofenii, P. nigra, P. candican, Salix alba, Fraxinus excelgior, Salix babylonica</i>	Oq terak, ko'k terak, mirza terak, amerika teragi, oq tol, shumtol, majnuntol	Oligofag
	<i>Eulithis populata</i> Linnaeus, 1758	<i>Populis alba, P. bachofenii, P. nigra, P. candican, Salix alba, Fraxinus excelgior, Salix babylonica, Quercus robur, Betula verrucosa</i>	Oq terak, ko'k terak, mirza terak, amerika teragi, oq tol, shumtol, majnuntol, eman, qayin	Oligofag
	<i>Opisthograptis luteolata</i> Linnaeus, 1758	<i>S. alba, F. excelgior, Salix babylonica, Crataegus oxyacantha</i>	Oq tol, shumtol, majnuntol, do'landa	Polifag
	<i>Amphidasis betularia</i> Linnaeus, 1758	<i>Quercus robur, Populis alba, P. bachofenii, P. nigra, Betula verrucosa, Tilia cordata, Albizzia julibrissima</i>	Qayin, oq terak, ko'k terak, mirza terak, eman, lipa, akatsiya	Polifag
	<i>Ourapteryx sambucaria</i> Linnaeus, 1758	<i>Salix alba, Fraxinus excelgior, S. babylonica, Crataegus oxyacantha</i>	Oq tol, shumtol, majnuntol, do'landa	Polifag
	<i>Lymantria dispar</i> Linnaeus, 1758	<i>Quercus robur, Populis alba, P. bachofenii, P. nigra, Betula verrucosa, Tilia cordata, Albizzia julibrissima, Salix alba,</i>	Qayin, oq terak, ko'k terak, mirza terak, eman, lipa, akatsiya, oq tol, shumtol,	Polifag



		<i>Fraxinus excelgior, Salix babylonica, Betula verrucosa, Platanus orientalis</i>	majnuntol, chinor, qayrag`och	
	<i>Euproctis kargalika</i> Moore, 1878	<i>Populis alba, P. bachofenii, P. nigra, Quercus robur, Salix alba, Fraxinus excelgior, S.babylonica</i>	Oq terak, ko`k terak, mirza terak, eman, oq tol, shumtol, majnuntol	Polifag
	<i>Euproctis chrysorrhoea</i> Linnaeus, 1758	<i>Ulmus suberosa, Quercus robur, Platanus orientalis, Salix alba, Fraxinus excelgior</i>	Chinor, qayrag`och, eman, oq tol, shumtol	Polifag
	<i>Leucoma salicis</i> Linnaeus, 1758	<i>Populis alba, P. bachofenii, P. nigra, P. candican, Salix alba, Fraxinus excelgior, Salix babylonica</i>	Oq terak, ko`k terak, mirza terak, amerika teragi, oq tol, shumtol, majnuntol	Polifag
	<i>Dysgonia algira</i> Linnaeus, 1767	<i>Salix alba, Fraxinus excelgior, S. babylonica</i>	Oq tol, shumtol, majnuntol	Oligofag
	<i>Grammodes stolidia</i> Fabricius, 1775	<i>Quercus robur</i>	Eman	Oligofag
	<i>Drasteria cailino</i> Lefebvre, 1827	<i>Salix alba, Fraxinus excelgior, S. babylonica</i>	Oq tol, shumtol, majnuntol	Oligofag
	<i>Acronicta psi</i> Linnaeus, 1758	<i>Salix alba, Fraxinus excelgior, B. verrucosa</i>	Oq tol, shumtol, qayin	Oligofag
	<i>Cosmia pyralina</i> Denis & Schiffermüller, 1775	<i>Salix alba, Fraxinus excelgior, Quercus robur</i>	Oq tol, shumtol, eman	Polifag
	<i>Cosmia trapezina</i> Linnaeus, 1758	<i>Populis alba, P. bachofenii, P. nigra, Salix alba, Fraxinus excelgior, Platanus orientalis, Quercus robur</i>	Oq terak, ko`k terak, mirza terak, oq tol, shumtol, qayrag`och, eman	Polifag


Tahlillar natijasida, Farg`ona shahrining manzarali daraxtlari bilan trofik aloqaga ega bo`lgan tangachaqanotli hasharotlarning 16 ta (53,3%) turlari (*Acleris variegana, Pandemis chondrillana, Archips crataegana, Archips xylosteana, Cossus cossus, Malacosoma neustria, Cabera pusaria, Opisthograptis luteolata, Amphidasis betularia, Ourapteryx sambucaria, Lymantria dispar, Euproctis kargalika, Euproctis chrysorrhoea, Leucoma salicis, Cosmia pyralina, Cosmia trapezina*) **polifag**, 13 ta (43,3%) turlari (*Stigmella maloidica, Yponomeuta padellus, Lyonetia clerkella, Leucoptera malifoliella, Spilonota ocellana, Laothoe populi, Smerinthus kindermannii, Campaea margaritaria, Eulithis populata, Dysgonia algira, Grammodes stolidia, Drasteria cailino, Acronicta psi*) **oligofag**, 1 ta (3,3%) tur (*Glyphodes pyloalis*) **monofag** guruhga mansub ekanligi aniqlandi.



1-rasm. Dendrofag tangachaqanotli hasharotlarni ozuqa spektri bo'yicha oilalar kesimida taqsimlanishi

Dendrofag tangachaqanotli hasharotlar ozuqa spektri bo'yicha oilalar kesimida taqsimlanishiga ko'ra, Yponomeutidae, Nepticulidae, Sphingidae, Lyonetiidae, Erebidae oilasidan qayd etilgan turlarning barchasi oligofag, Cossidae, Lasiocampidae, Lymantriidae oilalariga mansub turlarning barchasi polifag turlardan iborat. Crambidae oilasidan qayd etilgan yagona tur *Glyphodes pyloalis* esa, monofag. Noctuidae, Tortricidae, Geometridae oilasidan qayd etilgan turlar polifag hamda oligofag turlardan iborat (1-rasm).

Farg'ona shahri dendrofag tangachaqanotli hasharotlarining mavsumiy rivojlanish xususiyatlari (fenologiyasi) hamda ekologik talablariga ko'ra guruhlari o'rganilib, tahlil etildi (2-rasm).





2-rasm. Farg'ona shahri dendrofag tangachaqaqnotli hasharotlarining fenologik guruhlar bo'yicha taqsimlanishi

Tadqiqotlar natijasida, Farg'ona shahri dendroflorasi lepidopterafaunasining 10 ta tur kapalaklari (*Stigmella maloidica*, *Yponomeuta padellus*, *Lyonetia clerkella*, *Cossus cossus*, *Malacosoma neustria*, *Laothoe populi*, *Amphidasis betularia*, *Euproctis kargalika*, *Dysgonia algira*, *Acronicta psi*) **bahorgi-yozgi** fenologik guruhga, 6 ta tur kapalaklar (*Archips crataegana*, *Archips xylosteana*, *Camptocampa margaritaria*, *Eulithis populata*, *Lymantria dispar*, *Cosmia pyralina*) **yozgi**, 3 ta tur kapalaklar (*Euproctis chrysorrhoea*, *Leucoma salicis*, *Cosmia trapezina*) **yozgi-kuzgi**, 11 ta tur kapalaklar (*Leucoptera malifoliella*, *Acleris variegana*, *Pandemis chondrillana*, *Spilonota ocellana*, *Smerinthus kindermannii*, *Glyphodes pyloalis*, *Cabera pusaria*, *Opisthograptis luteolata*, *Ourapteryx sambucaria*, *Grammodes stolidus*, *Drasteria cailino*) **bahorgi-yozgi-kuzgi** fenologik guruhga mansub ekanligi aniqlandi (2-rasm).

Farg'ona shahri dendrofag tangachaqaqnotli hasharotlarining 15 ta (50%) turlari (*Stigmella maloidica*, *Lyonetia clerkella*, *Leucoptera malifoliella*, *Malacosoma Neustria*, *Laothoe populi*, *Smerinthus kindermannii*, *Cabera pusaria*, *Opisthograptis luteolata*, *Amphidasis betularia*, *Ourapteryx sambucaria*, *Lymantria dispar*, *Euproctis kargalika*, *Euproctis chrysorrhoea*, *Leucoma salicis*, *Cosmia trapezina*) **mezofillar** bo'lib, ular asosan o'rtacha namlik biotoplarni afzal ko'radigan, daraxt va butazorlarda yashaydigan turlardan iborat. Dendrofag tangachaqaqnotlilarning 6 ta (20%) turlari (*Acleris variegana*, *Pandemis chondrillana*, *Archips crataegana*, *Glyphodes pyloalis*, *Cossus cossus*, *Acronicta psi*) **evribiontlar** bo'lib, ular asosan har xil turdagi biotoplarda uchraydigan, keng ekologik valentlikga ega hamda barcha landshaftlarda tarqalgan turlardan iborat. Tadqiqot hududi dendrofag tangachaqaqnotli hasharotlarining 9 ta (30%) turlari (*Yponomeuta padellus*, *Spilonota ocellana*, *Archips xylosteana*, *Camptocampa margaritaria*, *Eulithis populata*, *Dysgonia algira*, *Grammodes stolidus*, *Drasteria cailino*, *Cosmia pyralina*) **gemikserofillardir**. Ular namlik nisbatan kam bo'lgan, asosan madaniy o'simliklar o'sadigan, o'tloq-dasht maydonlar hamda bog'larda uchraydigan turlardan iborat.

Xulosa

Farg'ona shahrining manzarali daraxtlari bilan trofik aloqaga ega bo'lgan tangachaqaqnotli hasharotlarning 16 ta (53,3%) turlari polifag, 13 ta (43,3%) turlari oligofag, 1 ta (3,3%) tur monofag guruhga mansub ekanligi aniqlandi. Dendrofag tangachaqaqnotli hasharotlarning fenologiyasi tahlil etilganda, 10 ta tur kapalaklar bahorgi-yozgi, 6 ta tur kapalaklar yozgi, 3 ta tur kapalaklar yozgi-kuzgi, 11 ta tur kapalaklar bahorgi-yozgi-kuzgi fenologik guruhga mansub ekanligi aniqlandi. Tangachaqaqnotli hasharotlarining 15 ta (50%) turlari mezofil, 6 ta (20%) turlari evribiont, 9 ta (30%) turlari gemikserofillardir.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Азимов Д.А., Бекузин Д.А., Давлетшина А.Г., Кадирова М.К. Насекомые Узбекистана.- Изд. "Фан". -Ташкент, 1993. -С. 172.
2. Сулаймонов Б.А., Ғозибеков А.С. Ўрмон биоценозида тарқалган Eribidae оиласи вакилларининг энтомофаглари ҳамда уларнинг учраш даражалари // Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini, №4. Toshkent, 2020. -В. 17-18.
3. Шералиев А., Эсанбаев Ш., Болтаев Б., Сулаймонов Б., Арипов Ш., Юсупов А. Ўрмон зараркундалари, касалликлари ва уларга қарши кураш чоралари // ТошДАУ тахририят бўлими (маърузачига қўлланма). - Тошкент, 2001. – 15 б.



4. Юсупов А.Х. Пахучий древооточец-вредитель тополей //Ж. Сельское хозяйство Узбекистана. –1998. - №1. – С. 21.
5. Bekchanov M.X. Xorazm vohasi oqish kapalaklari (Lepidoptera: Pieridae) bioekologiyasi va ularni saqlash muammolari. Biol.fan.b. fal.dok.diss. avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 40 b.
6. Bekchanov X.O'. Shimoli - G'arbiy O'zbekiston tangachaqanotlilari (Insecta, Lepidoptera) faunasi va ekologiyasi. Biol. fan. dokt. diss. (DSc) avtoref. – Toshkent, 2023. – 54 b.
7. Bekchanova M.X. Quyi Amudaryo okrugi tunlam kapalaklarining (Noctuidae, Lepidoptera) faunasi, biologiyasi va ekologik xususiyatlari. Biol.fan.b. fal.dok.diss. avtoreferati. – Nukus, 2022. – 40 b.
8. Bolotov I. N. Diurnal lepidopterans (Lepidoptera, Rhopalocera) of Arkhangelsk and its surroundings // Zool. Zh. – 2002. – T. 81. – №. 4. – С. 457-462.
9. Bonfantti D. et al. Butterflies's richness in two urban parks in Curitiba Parana, Brazil // Biota Neotropica. – 2011. – T. 11. – P.247-253.
10. Clark P. J., Reed J. M., Chew F. S. Effects of urbanization on butterfly species richness, guild structure, and rarity //Urban Ecosystems. – 2007. – T. 10. – P.321-337.
11. Fattorini S. Insect extinction by urbanization: a long term study in Rome //Biological Conservation. – 2011. – T. 144. – №. 1. – С. 370-375.
12. Fattorini, S. Insects and the city: what island biogeography tells us about insect conservation in urban areas, Web Ecol., 2016, 16, 41-45, <https://doi.org/10.5194/we-16-41-2016>
13. Hogsden K. L., Hutchinson T. C. Butterfly assemblages along a human disturbance gradient in Ontario, Canada //Canadian Journal of Zoology. – 2004. – T. 82. – №. 5. – P. 739-748.
14. Kevin C. Matteson & Gail A. Langellotto. Determinates of inner city butterfly and bee species richness // Urban Ecosyst (2010) 13:333-347 <https://doi.10.1007/s11252-010-0122-y>
15. Kitahara M., Fujii K. An island biogeographical approach to the analysis of butterfly community patterns in newly designed parks //Population Ecology. – 1997. – T. 39. – №. 1. – P.23-35.
16. Kong-Wah Sing, Jiashan Luo, Wenzhi Wang, Narong Jaturas, Masashi Soga, Xianzhe Yang, Hui Dong & John-James Wilson. Ring roads and urban biodiversity: distribution of butterflies in urban parks in Beijing city and correlations with other indicator species // Scientific Reports, 2019. 9:7653. <https://doi.org/10.1038/s41598-019-43997-8>
17. Lazzeri M. G., Bar M. E., Pieri Damborsky M. Diversidad del orden Lepidoptera (Hesperioidea y Papilionoidea) de la ciudad Corrientes, Argentina //Revista de Biología Tropical. – 2011. – T. 59. – №. 1. – P. 299-308.
18. Lin, Y.; Huang, S.; Fang, W.; Zhao, Y.; Huang, Z.; Zheng, R.; Huang, J.; Dong, J.; Fu, W. Butterfly Communities Vary under Different Urbanization Types in City Parks. Animals 2023, 13, 1775. <https://doi.org/10.3390/ani13111775>
19. Ramírez-Restrepo L., MacGregor-Fors I. Butterflies in the city: a review of urban diurnal Lepidoptera //Urban ecosystems. – 2017. – T. 20. – P. 171-182.
20. Shermatov M.R. Tut parvonasi (Glyphodes pyloalis Walker)ning Farg'ona vodiysida tarqalishi, biologiyasi va ekologik xususiyatlari: Biol. fan. nomz. ...diss. –Toshkent, 2010. - 120 b.
21. Sing, K. W., Dong, H., Wang, W. Z. & Wilson, J. J. Can butterflies cope with city life? Butterfly diversity in a young megacity in Southern China. Genome, 2016. 59, 751-761.

22. Soga M., Koike S. Relative importance of quantity, quality and isolation of patches for butterfly diversity in fragmented urban forests //Ecological Research. – 2012. – Т. 27. – P.265-271.
23. Thomas J. A. et al. Comparative losses of British butterflies, birds, and plants and the global extinction crisis //Science. – 2004. – Т. 303. – №. 5665. – P.1879-1881.
24. Хо'jaev Sh.T., Xolmurodov E.A. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari (3-nashr). – Toshkent: Fan, 2014., – 565 b.
25. Yaxontov V.V. O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi o'simliklari hamda mahsulotlarining zararkunandalari va ularga qarshi kurash. – Toshkent: «O'rta va oliy maktab», 1962. –693 b.

O'SIMLIKLAR ABIOTIK STRESSGA CHIDAMLILIGIDA DEGIDRIN - KODLOVCHI GENLARNING AHAMIYATI

Mamatqulova G.F., Turayev O.S., Kushanov F.N.

O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti

E-mail:gavharmf0@mail.ru

***Annotatsiya:** Ma'lumki abiotik stresslar o'simliklar o'sib rivojlanishiga hamda hosildorligiga salbiy ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biridir. Maqolada degidrin genlari tuzilishi va hususiyatlari hamda ularning o'simliklar abiotik stresslar ta'sirida faollashishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Degidrinlar o'simliklarning abiotik stressiga javoban o'zining ekspressiyalarida dinamik o'zgarishlarni ko'rsatadi, bu o'zgarishlar o'simliklarning abiotik stresslarga chidamlilik ko'rsatkichlari hisoblanadi.*

***Kalit so'zlar:** o'simliklar, abiotik stress, degidrin genlar, ekspressiya, LEA oqsillari, sovuq, qurg'oqchilik, sho'rlanish.*

ВАЖНОСТЬ ГЕНОВ, КОДИРУЮЩИХ ДЕГИДРИН, В УСТОЙЧИВОСТИ РАСТЕНИЙ К СТРЕССУ

Маматкулова Г.Ф., Тураев О.С., Кушанов Ф.Н.

Институт генетики и экспериментальной биологии растений АН Рuz

E-mail:gavharmf0@mail.ru

15. Полетаев Д. Дети без детства. // Миграция XXI век. — 2015 — № 2 (17). — С. 21-23.



IJTIMOY ADOLATNI HUQUQIY-FALSAFIY MUAMMO SIFATIDA O'RGANISH ZARURATI

Shokirov Temurbek Shuhrat o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy adolat tushunchasini va o'rnini aniqlashga yordam beradi. Qonunlarning ijtimoiy adolatga muvofiqligi jamiyatning tengligi va adolatliligini ta'minlashda juda muhim rol o'ynaydi. Qonunlar yordamida insonlarning huquqlari muhofaza qilinadi va ijtimoiy tartibni saqlash uchun tizimli qarorlar olinadi. Bu orqali demokratik jamiyatni ta'minlash va fuqarolik kuchini oshirish mumkinligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: adolat, insof, vijdon, ijtimoiy adolat, conssiense, tenglik, to'g'rilik, empirik ijtimoiy adolat tadqiqoti, ijtimoiy baholash, Kant.

НЕОБХОДИМОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ КАК ПРАВОВО-ФИЛОСОФСКАЯ ПРОБЛЕМА

Шокиров Темура Шухратович

Аннотация: Данная статья помогает определить понятие и место социальной справедливости. Соответствие законов социальной справедливости играет очень важную роль в обеспечении равенства и справедливости общества. С помощью законов защищаются права людей и принимаются системные решения для поддержания общественного порядка. Благодаря этому можно обеспечить демократическое общество и повысить власть граждан.

Ключевые слова: справедливость, справедливость, совесть, социальная справедливость, совесть, равенство, правильность, эмпирическое исследование социальной справедливости, социальная оценка, Кант.

THE NEED TO STUDY SOCIAL JUSTICE AS A LEGAL-PHILOSOPHICAL PROBLEM

Shokirov Temur

Abstract: This article helps to define the concept and place of social justice. Compliance of laws with social justice plays a very important role in ensuring equality and justice of society. With the help of laws, people's rights are protected and systematic decisions are made to maintain social order. Through this, it is possible to ensure a democratic society and increase the power of citizens.

Key words: justice, honesty, conscience, social justice, consciense, equality, correctness, empirical research of social justice, social evaluation, Kant.

Kirish

Insonparvar jamiyat o'z a'zolarining barcha ehtiyojlarini qondirish, ular o'rtasida birdamlikni yoyish, kuchli va farovon jamiyatga erishish uchun mavjud bo'lgan. Jamiyatning umumiy va shaxsiy manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda, har bir shaxs o'ziga berilgan asosiy huquqlar evaziga davlat va uning a'zolari oldidagi o'z burchlarini bilishi uchun "ijtimoiy adolat" tushunchasi va uni amalga oshirish yo'llari aniqlashtiriladi.

Adolat – islom chaqiradigan va qat'iy tavsiya qiladigan eng muhim tamoyillardan biri. Chunki bu yagona jamiyat a'zolari o'rtasida munosabatlar o'rnatilishining eng muhim

sabablaridan biridir. Adolat jamiyatda birdamlik va barqarorlikni ta'minlovchi eng muhim omil bo'lib, shu jarayonning o'zi ham adolatdir. Qoloq jamiyatlar sharoitida adolatsizlik keng tarqalgan va bu adolatsizlik odamlarning huquq va erkinliklarini yo'qotishga olib keladigan jamiyatlarni ko'radi va ularning a'zolari qo'rquv, dahshat, yurak og'rig'i bilan ajralib turadigan tartibsiz jamiyatlardan boshqa narsa emas. Qolaversa, butun ijtimoiy adolat tushunchasi adolatsizlik va ijtimoiy adolatning yo'qligi sababli aylanib yuradigan aql va tafakkurdir. Bu shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, mazhabviy e'tiqodi, diniy va siyosiy tafakkurini hisobga olmasdan, o'rtasida tenglikni ta'minlashdir[1].

Shaxslar o'rtasida ijtimoiy adolatga erishishga harakat qilayotgan jamiyatlar bilan solishtirganda, bu jamiyatlar o'zaro bog'liq, barqarorlik bilan ajralib turadi. Barcha shaxslar o'rtasida adolat ta'minlansa va ular irqi, dini, rangi va xususiyatlaridan qat'i nazar, bir xil huquqlarga ega bo'lganda; ular orasida mehr-muhabbat va yaqinlikning yoyilishiga, davlat va hukmdorlariga bo'lgan ishonchlarining ortishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, u turli jihatlarida barqaror va izchil davlatni yaratadi.

Ijtimoiy adolatga erishish yo'llarini tushuntirish uchun faqat "ijtimoiy adolat" tushunchasiga murojaat qilishning o'zi yetarli emas. Shu bilan birga, odamlar orasida ijtimoiy adolatning ahamiyati haqida madaniy ongni yoyish orqali ijtimoiy adolatni yaxshilash mumkin bo'lgan jamiyatda buni samarali amalga oshirishga harakat qilishdir.

Ijtimoiy tarmoq saytlari universitetda, maktab darajasida yoki ish joyida ijtimoiy adolatni ta'minlovchi eng ko'zga ko'ringan manbalar qatoriga kiradi, ayniqsa ular bugungi kunda eng ko'p foydalaniladigan vositalar bo'lib, ijtimoiy tarmoq saytlarining ovozini eshitishga ehtiyot bo'lish kerak bo'ladi.

Shuningdek, ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun seminarlarda qatnashish yoki shartnomalar imzolash orqali boshqalarning fikrini bilish va ularning qalbida nima borligini bilish, ularni sevgi va samimiyat bilan haqiqatga yo'naltirish, tenglikka chaqiruvchi tashkilotlarda qatnashish zarur. Bundan tashqari, adolatni ta'minlashning samarali usullaridan biri bu turli mamlakatlardan kelgan odamlar bilan muloqot qilish orqali adolat darajasini bilish mumkin. Bu dunyoni bilish va dunyo duch kelayotgan muammolarni, ular mansub jamoalarni bilish va bu muammolarga hayotiy yechimlarni taklif qilishdir[2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ijtimoiy adolat jamiyat ichida mas'uliyatni taqsimlash, ijtimoiy maqomni tartibga solish va resurslarni taqsimlashda adolat tamoyillariga erishishdir. Bu konsepsiya "ijtimoiy hayotda eng qimmatli narsa", "ijtimoiy hamkorlik qanday adolatli" kabi ijtimoiy baholash va ijtimoiy axloqning xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra, adolatli taqsimlash siyosiy yoki boshqa muhokama jarayonlari tomonidan o'rnatilgan qadriyatlarining me'yoriy tartibiga muvofiq taqsimlashni anglatadi. Bu adolat tushunchasining muhimligining sababi shundaki, ijtimoiy hamkorlik, siyosiy qonuniylik va siyosiy sadoqat adolatli deb hisoblangan ijtimoiy tuzum sharoitidagina real asosga ega bo'lishi mumkin[3].

Ijtimoiy adolat bo'yicha tadqiqotlar ikki qismga bo'linadi: biri adolat tushunchasining me'yoriy nazariyasi (umumiy me'yoriy ijtimoiy adolat tamoyillarini o'rganish), ikkinchisi – empirik ijtimoiy adolat tadqiqoti (ijtimoiy taqsimotning adolatli ijtimoiy tuzumga mos kelishini baholash).

Huquq va adolat tushunchalari o'zaro aloqadorligi bir-birini to'ldirib turish mumkin emas. Huquq tizimi orqali insonlarning huquqlari muhofaza qilinadi va ularni munosabatlari

tizimli tartibga solinadi. Adolat tizimi orqali jamiyatning tengligi va tezkorligiga e'tibor beriladi va vatandoshlik kuchini oshirish mumkin bo'ladi.

Bir necha misollar orqali huquq va adolat tushunchalari o'zaro aloqadorligini ko'rsatish mumkin. Masalan, huquq tizimi orqali huquqiy muvozanat insonlarning janjallarida ham juda muhim rol o'ynaydi. Janjallarda hamma insonlarning huquqlari muhofaza qilinadi va ularni munosabatlari tizimli hal qilinadi. Bu orqali janjallarning tezkorligini huquqiy tizimga solish mumkin bo'ladi[4].

Adolat tizimi orqali jamiyatning tengligi va tezkorligiga e'tibor beriladi. Masalan, sud tizimi orqali fuqarolarning huquqlari muhofaza qilinadi va ularning huquqi tizimga solinadi. Sud tizimi orqali jamiyatning tengligi va huquqiylikini saqlash mumkin bo'ladi.

Muhokama va natijalar

Mavzuni tadqiq va tahlil qilganda shunday xulosaga kelish mumkinki, axloqqa oid uch toifa (eng yuksak axloq, jamoat axloqi va davlat axloqi) axloq va huquq o'rtasida alohida vazifalarga ega bo'lish bilan birga, bir-biriga ta'sir qilish funksiyalariga ham ega. Bu funksiyalar ham alohida, ham birgalikda axloqiy va ijtimoiy mas'uliyat nuqtai nazaridan o'zini ko'proq namoyon qiladi. Axloqiy va ijtimoiy mas'uliyat axloqiy burch sifatida insonning nafaqat ijtimoiy faolligini, balki uning shaxsiyatini shakllantirishning muhim omili sifatida qaraladi. Axloqiy va ijtimoiy javobgarlikni tushunish va amalga oshirish uchun huquqiy me'yorlar zarur. Binobarin, bu mas'uliyatni ado etish uchun qonun doirasida ish olib borish, qonun talablariga rioya etish lozim. Albatta, axloqiy va ijtimoiy mas'uliyat bilan birga vijdonning ham bo'lishi asosiy shartlardan biridir. Vijdon axloqning tanlangan xususiyatlaridan biri sifatida mas'uliyatning bajarilishini nazorat qiladi. Vijdon faqat qonun mavjudligida namoyon bo'ladi, ya'ni vijdonning vazifasi qonunlarning mavjudligi bilan bog'liq. Har qanday masala qonundan tashqari deb topilganda odamda vijdon tuyg'usi bo'ladi, bu vaqtda odamning ichki qismi bezovtalanadi va vijdon azobini tortadi. Vijdon bu – insonning ichki ehtiyoji va xohish-istaklaridan kelib chiqadigan juda kuchli tuyg'u. Bu tuyg'u tabiiy kuch bo'lsa-da, uning yanada mukammal shakllanishi uchun ta'lim va tarbiya kerak. Vijdonning asosiy vazifasi insonni hukm qilishdir, ya'ni bu tuyg'u munosabatlarda o'zini tekshiradi va hukm qiladi. Bu yerda inson deganda vijdoniga itoat qiluvchi kishi tushuniladi. Bundan tashqari, huquqiy normalarni shakllantirish va rivojlantirishda biz vijdonni jamoaviy shaklda kuzatamiz, chunki vijdon ham individual, ham jamoaviy tarzda rivojlanishi mumkin. Boshqa tomondan, vijdon adolat bilan chambarchas bog'liq, ammo shunga qaramay, biz ular orasidagi ba'zan o'xshashlik va ba'zan farqlarni kuzatamiz. Albatta, o'xshash va turli tomonlari bo'lishiga qaramay, har ikkisi ham qonunlarning yaratilishi va rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Vijdon va adolat, axloqiy va ijtimoiy mas'uliyat bilan birga, shaxsga tegishli bo'lgan oliy fazilatlardir. Garchi o'xshashlik va farqlar mavjud bo'lsa-da, ikkalasi ham qonunlarning yaratilishi va rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Vijdon va adolat, axloqiy va ijtimoiy mas'uliyat bilan birga, shaxsga tegishli bo'lgan oliy fazilatlardir. Garchi o'xshashlik va farqlar mavjud bo'lsa-da, ikkalasi ham qonunlarning yaratilishi va rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Vijdon va adolat, axloqiy va ijtimoiy mas'uliyat bilan birga, shaxsga tegishli bo'lgan oliy fazilatlardir[5].

Yuqoridagilardan tashqari shuni aytish mumkinki, inson madaniy-sivilizatsiyalashgan mavjudotdir; jamiyat alohida kishilarning mavjudligidan iboratdir. Jamiyatdagi har bir shaxs va butun jamiyat o'rtasida o'zaro ta'sir mavjud bo'lib, bu jamiyat va shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni qonuniylashtiradi. Jamiyatda mavjud bo'lgan qonunlar jamiyatda qonun

hujjatlarining talablaridan kelib chiqadi, jamiyatda mavjud bo'lgan qonunlar, qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqadi. Vijdon amri bilan tuzilgan adolatli qoida bu jamiyatda nafaqat huquqiy qoidalar, balki axloqiy qoidalar hamdir. Bu nafaqat zarur, balki muhim ahamiyatga ega, chunki jamiyatda huquq va qonunlarning mavjudligi nafaqat majburiyat va burchlar bilan, balki axloqiy me'yorlarning mavjudligi bilan ijtimoiy ahamiyatga ega.

Qonunlarning ijtimoiy adolatga muvofiqligi jamiyatning tengligi va adolatligi bo'yicha ko'paytirishda juda muhim rol o'ynaydi. Qonunlar yordamida insonlarning huquqlari muhofaza qilinadi va ijtimoiy tartibni saqlash uchun tizimli qarorlar olinadi. Bu orqali demokratik jamiyatni ta'minlash va fuqarolik kuchini oshirish mumkin bo'ladi[6].

Xulosa qilib aytganda, qonunlarning ijtimoiy adolatga muvofiqligi jamiyatning insonlarning huquqlariga e'tibor berish va ularni muhofaza qilishda juda muhim rol o'ynaydi. Bu orqali insonlarning tengligi va adolatligiga e'tibor beriladi va ularning munosabatlari tartibga solinadi. Qonunlarning ijtimoiy adolatga muvofiqligi orqali demokratik jamiyatni ta'minlash mumkin bo'ladi.

Birinchidan. jamiyatda ijtimoiy adolatga erishmasdan turib, mamlakatni taraqqiyot yo'liga olib borib bo'lmaydi. Ijtimoiy adolat O'zbekiston va o'zbek xalqining tabiati va ruhiga mos keladi. O'zbek xalqi azaldan adolatni qo'llab-quvvatlab, himoya qilib kelgan. G'urur bilan aytishimiz mumkinki, ijtimoiy adolat tamoyili Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan amalga oshirilayotgan siyosiy yo'nalishda yanada rivojlangan shaklda namoyon bo'lmoqda. Adolat – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining xalqqa munosib hissasi, O'zbekiston davlatining milliy boyligidan tushayotgan daromadlarini xalqimizga adolatli yetkazib berishdir. Ayni paytda adolat deganda bozor iqtisodiyoti jamiyatda yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarning qaysidir guruhga zarar yetkazishining oldini olish tushuniladi. Bu O'zbekiston Respublikasi uchun juda muhim tamoyil.

Ikkinchidan, barcha jamiyatlar tarixi shuni ko'rsatadiki, adolat tamoyili buzilganda nizo tamoyillari kuchayadi. Bu tartibsizlikka, anarxiyaga va bosh-boshdoqlikka olib kelishi mumkin. Adolat tamoyilini ta'minlash islohotlar orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyatda odamlarning tabaqalanishi fonida doimiy islohot va taraqqiyot, turli siyosiy va iqtisodiy vositalar orqali ijtimoiy adolatni ta'minlashga harakat qilinmoqda. Ijtimoiy adolat deganda har bir oila, har bir fuqaroning farovonligini oshirish, jamiyatni boshqarishda har kimning ishtirokini ta'minlash, erkin iqtisodiy munosabatlarni ta'minlash va boshqa shu kabi masalalar tushuniladi. Bular O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev siyosatida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy adolat konsepsiyasi mazmunining doimiy ravishda kengayishi, yanada xilma-xil tuzilish zamonaviy jamiyat uchun xosdir. Kuzatilgan tendensiya davlatning ijtimoiy funksiyasi kuchayib borishida namoyon bo'lishini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Davlatning yanada ijtimoiy institutga aylanishi zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning asosiy tendensiyalaridan biridir. O'zbekistonda hukumatning ijtimoiy roli muttasil yuksalib borayotgani, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan loyihalar ko'lami kengayib borayotgani va shu kabi voqealar fikrimizni tasdiqlovchi mustahkam dalil sifatida baholanishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati (references)

1. Ёшлар ижтимоий фаоллиги ва толерантлигини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. –Тошкент: 2006. –220 б.
2. Жўраев Н. Тарих фалсафаси. –Тошкент: Маънавият, 1999. –192 б.
3. Из философского наследия народов Востока. –Тошкент: Фан, 1972. –264 с.
4. Иномова М. Оилада болаларни маънавий ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятлар. –Тошкент: Фан, 1999. –151 б.
5. Кант И. Сочинение в 6-ти т. –М.: Мысль, 1963-1966.
6. Кляган Н.В. Происхождение цивилизации. –М.: РАН, 1996. –252 с.
7. Конкин М.И. Становление мыслящего духа. –М.: Высшая школа, 2002. –152 с.

SHAYX NAJMIDDIN KUBRO – KUBROVIYA TA'LIMOTINING ASOSCHISI

Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich

“Ma'mun universiteti” NTM,

Tarix va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvuf ta'limotining ilmiy-falsafiy asoslari, tasavvuf g'oyalarining ezgulikka yo'g'rilganligi, Xorazm zaminida kubroviya tariqatining vujudga kelishi, inson ma'naviy kamolotida kubroviya g'oyalarining ahamiyati, haqsevarlik, vatanparvarlik hamda nafs tabiyasida Najmiddin Kubro g'oyalarining o'rni, kubroviya ta'limotida insonning ilohiy ishqqa moyil bo'lishi, tasavvuf ahlining ruhiy-ma'naviy holati singari masalalar falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, zuhd, zohid, so'fiy, darvesh, javonmard, ishq, oshiq, jazba, shayx, valiy, avliyo, talab, talib, solik, ofoq, anfus

Аннотация: В данной статье рассматриваются научно-философские основы суфизма, ориентация суфизма на добро, возникновение Кубровского направления на земле Хорезма, значение Кубровских идей в духовной зрелости человека, значение идей Наджмуддина Кубро в природе самоправедности, патриотизма и эгоизма. В учении Кубровии философски анализируются такие вопросы, как склонность человека к божественной любви и духовное состояние суфизма.

Ключевые слова: тасаввуф, зуҳд, зоҳид, сўфий, дарвеш, жавонмард, ишқ, ашиқ, жазба, шайх, валий, авлиё, талаб, талиб, салик, афоқ, анфус

Abstract: In this article, the scientific-philosophical foundations of Sufism, the orientation of Sufism to goodness, the emergence of the Kubrovian order in the land of Khorezm, the importance of Kubrovian ideas in human spiritual maturity, the importance of Najmuddin Kubro's ideas in the nature of self-righteousness, patriotism, and self. In the teachings of Kubroviya, such issues as human inclination to divine love and the spiritual state of Sufism are analyzed philosophically.

Keywords: Sufism, truth, asceticism, ascetic, sufi, dervish, youth, love, passion, sheikh, guardian, saint, talab, talib, tax, afaq, anfus

Kirish

Tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega ta'limot bo'lib, islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko'rinishida kurtak yoyadi. Hazrat Muhammad Mustafo s.a.v. vafotlaridan keyin musulmonlar jamoasi ichida bo'linish yuz beradi, ayniqsa xalifa Usmon r.a. zamonida boylikka ruju qo'yish, qimmatbaho tuhfar bilan qarindosh urug'lar, yaqin do'st-birolarlarni siylash rasm bo'ladi. Ummaviya xalifaligi davriga kelib esa saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to'plash avj oldi. Bu hol diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, boylıklardan ustun qo'ygan e'tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo'ldi [1, 9].

Yuqorida ko'rilganidek, bu ta'limot dastlab zohidlik harakati sifatida vujudga kelgan. Lug'atda zohid – “zuhd” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, tarkidunyochilik, ya'ni dunyodan yuz o'girish, butun umrini toat-ibodatga bag'ishlash ma'nolarini anglatadi. Zohidlarning asosiy maqsadi saroy ahli, zadogon-sarvatdorlar, boylar axloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyochilik g'oyasini targ'ib etish bo'lgan. Xalq orasida ularni obro'-e'tibori katta bo'lib, odamlar zohidona yashovchi kishilarni e'zozlaganlar.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, zohidlar uzlat (xalqdan uzilish) va taqvoni o'zlariga odat etgan bo'lishlariga qaramay, ular ishq va irfon (ilohiy ma'rifat)dan yiroq kishilar edilar. Ular falsafiy mushohadakorlik, ajzu irodad bilan ma'naviy-axloqiy kamolot sari intilish, valiylik, karomatlar ko'rsatish kabi xislatlarga ega emasdilar[1, 10].

So'fiy zohiddan farli o'laroq, na dunyo va na oxirat ta'masidan yiroq bo'lgan, yagona maqsad-istagi faqatgina Haq taoloning diydori bo'lgan zotdir. Shuning uchun so'fiylar Allohni jon-dildan sevish, Uning zoti va sifatlarini tanish va bilish, ko'ngilni nafsu-hirs g'uboridan poklab, botiniy musaffo bir holatda Iloh vasliga etishish va bundan lazzatlanish g'oyasini keng targ'ib qildilar. Aynan mana shu so'fiylar tasavvuf ta'limotining vujudga kelishiga sababchi bo'lgan zotlardir. Ulug' mutasavvuf shayx Najmiddin Kubro hazratlari ana shunday Haqsevar zotlardan edilar. Tasavvuf ahli haqida ruboiylaridan birida shayx shunday yozadi:

Darvesh elin yozg'urma debon xordurlar,
To bordur ular, borligicha bordurlar.
Tariqchaga qone'lar, olam tegsa,
Sabr birla qanoatga chunon yordurlar [3].

Ya'ni so'fiy, oshiq, darveshlar xuddi telbalardek, aqldan begonadirlar. Mana shuning uchun xalq ularni devona, g'arib, telba deb, doimo malomat qiladi. Aslida ular tabiatan qanday bo'lsalar shundaydirlar. Dunyo molidan bir dona bug'doycha tegsa ham ularga kifoyadir. Undan ortig'i uchun o'zlarini qiynamaslar.

Bu oqim Movarounnaxrga Eron orqali kirib keladi. Uning yoyilishi o'rta asrlarning mutafakkirlari Hakim at-Termiziy, Abu Hamid G'azzoliy, [Yusuf Hamadoni](#), Abdulxoliq G'ijduvoni va Axmad Yassaviylarning nomlari bilan bog'liqdir. Bu tariqat asosan shahar va shahar atroflarida yoziladi. U hayot bilan chambarchas bog'langan bo'lib, izdoshlarini mehnatga, kasb-xunar egallashga da'vat etadi. Shu boisdan bu tariqat og'ir ijtimoiy va iqtisodiy ahvoldan qutulish uchun tasavvufdan yo'l axtargan jabrdiyda ommaning talablariga ma'lum darajada javob berar edi. Tasavvuf ta'limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. Unda kishining har bir nafasida ong, aql-idrok bo'lmog'i, bosgan har bir qadamiga diqqat e'tibor solmog'i, u Vatan ishi bilan band bo'lmog'i, xalq bilan aloqada birga hayot kechirmog'i kerak, deb uqtiriladi [4].

Tasavvufning tariqat yo'llari g'oyat keng bo'lib, turli davrlarda Turkiston va Movarounnaxrning turli o'lkalarida bu ta'limotning turli xil yo'nalishlari vujudga keladi. XII asrda Turkistonda yassaviya, XII asr oxirida Xorazmda kubroviya, XIV asrda esa Buxoroda Naqshbandiya va boshqalar vujudga keladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Anushtaginlar – Xorazmshohlar davlatida tasavvuf taraqqiyoti birinchi navbatda xorazmlik yirik mutasavvif olim Najmiddin Kubro (1145-1221) nomi bilan bog'liqdir. Uning asli ismi Ahmad ibn Umar al-Xeva'iy bo'lib, Xorazmda tug'ilib-o'sib keyin Eronzamin va Arab mamlakatlariga sayohat qilgan; uzoq vaqt o'sha tomonlarda yirik tasavvuf mashoyixlaridan ta'lim olib, o'zi ham etuk tasavvuf ta'limotchisi darajasiga etgan va Najmiddin Kubro laqabi bilan shuhrat qozongan. So'ngra u vataniga qaytib, Muhammad Xorazmshoh davrida Gurganjda yashab, tasavvuf ta'limotini rivojlantirgan, ko'plab shogirdlar orttirgan. Jumladan, taniqli shoir va tasavvuf namoyondasi Farididdin Attor ham uning shogirdlaridan edi. Najmiddin Kubroning ta'limoti tasavvufda kubraviya tariqati nomini olgan va mashhurdir. "Kubro tasavvuf tarixida keng fe'llik yo'lini tutgan shayxlardandir. Chunki, ul zotning xonaqosida sunniy mazhabli shogirdlar bilan birga shia mazhabli muridlar ham ta'lim olavergan" [1], deb yozadi.

Hukmdorlar, ayniqsa, Xorazmshoh Otsiz olimu, shoirlar va adiblarga hurmat bilan qarar, o'zi ham iste'dodli ma'rifatparvar, adabiyotga qiziqqan shaxs edi. Uning davrida ilm-fan taraqqiyoti yo'lida bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilgan.

Obodonchilik va madaniyat rivojiga e'tiborni so'nggi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi faoliyatida ham kuzatish mumkin. U hayotining keyingi o'n yilini ona Vatanidan uzoqda, turli yurtlarda o'tkazgan va boz ustiga biror joyda uzoqroq muddat yashab qolmagan bo'lishiga qaramay, shahar va qo'rg'onlar obodonchiligi uchun hissa qo'shganligi, masjidlar barpo etganligi o'sha davr tarixiy manbalarida qayd etilgan.

Uzoq yillik ilm safaridan Xorazmga qaytgach, o'z xonaqohini tuzgan yosh Najmiddin tez orada dovrug' qozonib, ko'p izdoshlarga ega bo'ldi. Uning xonaqohi Xorazmshoh dorussaltanatining eng tabarruk go'shasiga aylandi. Shayx qaroqchi bo'ron tamonidan o'g'irlangan qo'lyozmalarini tiklab, ularni to'ldirdi. Uning qalamiga mansub Qur'oni karim sharhiga bag'ishlangan, "Ayn al-hayot" atalgan tafsir, "Fi odobi solikin", "Risalat ul-xoif ul-xayam an-lavmat ul-loim", "Favoteh-ul janob" nomli risolalar, so'fiyona ruhda yozgan ruboyilari ma'lumu-mashhur bo'ldi. Shayx Najmiddin Kubro o'zi tuzgan Kubraviya maktabi aqidalarini "lison ul-g'ayb" – she'r tili bilan insonlar qalbiga singdirishga ko'p e'tibor berdi. Uning tarbiyasini olgan shogirdlari ham ustoz yo'lidan yurib, beqiyos satrlar yaratdilar.

Kubroviya tariqatining asosini «tavba», «zuxd» (mol-dunyodan voz kechish), «tavakkul» (ollox yo'lida) «qanoat», «uzlat», «zikr», «tavajjuh», «sabr», «muraqaba» (kamolot topish) va «rizo»(xalqqa yetishish) kabi qonun-qoidalar ifodalaydi. Yassaviya tariqatidan farqli o'larok, kubroviya ta'limoti tarkidunyochilikni rad etadi. Unda kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu noz-ne'matlaridan baxramand bo'lishning joizligi g'oyasi ilgari suriladi. Kubroviya ta'limotoida xalqqa va Vatanga bo'lgan muxabbat nihoyatda kuchli bo'lib, har og'ir damlarda ham omma bilan birga bo'lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da'vat etiladi. Bu muqaddas g'oya yo'lida Najmiddin Kubro qo'lga qurol olib, o'z shogird va izdoshlarini orqasidan ergashtirib shahar aholisi bilan bir safda turib dushmanga qarshi g'azotda qatnashadi. Shahar ichida bosqinchilar bilan bo'lgan shiddatli jangda bu ulug' shayx o'z safdoshlari bilan shahid bo'ladi.

Natijalar (Результаты/Results). Najmiddin Kubro bir qancha ilmiy asarlar va ruboiylar yozgan. Ulardan asosiylari – “Favoyih al-Jamol va fovotih al-Jalol”, “Al-usul al-ashara”, “Risolat al-Xaif al-Xaim min-Laumon al-laim” va boshqalar.

Ma’lumki, O’rta Osiyoda Islom taraqqiy etib, mustahkam qaror topgach, hukmdorlar davlatning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy boshqaruvini Islom huquqi asosida tashkil qildilar. Bunda mahalliy huquqshunoslar - faqihlar muhim o’rin tutgan. Xorazmshohlar ham o’z saltanatini shu asosda boshqardilar. Natijada bu davrda ko’pgina faqihlar etishib chiqdi. Jumladan, Muhammad az-Zamaxshariy (1075-1144), Ahmad ibn Muhammad Muvaffiq-ad-din xotib al-Xorazmiy (hij. 484-596), Dovud ibn Iso Abu Bakr ibn Ayub, Abu Muhammad Majid ad-din Sadir al-Afozil al-Xorazmiy (hij. 555-617), Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad al-Xorazmiy va boshqa ko’pgina yirik fuqaho va ulamolar etishib chiqqan.

Afsuski, bu yuksalish uzoqqa cho’zilmadi. Davlat tepasiga dunyoparast, zolim, shuhratparast amirlar va beklar kelib, xalqqa zulm va zo’ravonlik qila boshladi. Ana shunday bir davrda Najmiddin Kubro Xorazmda kubroviya (yoki zahabiya, ya’ni oltin) tariqatiga asos soladi. Bu maktabdan maktab, tariqatdan tariqat yaratuvchi valiyalar etishib chiqqan.

Najmiddin Kubro hazratlari kishilarni saodat yo’liga – Alloh rizosi uchun go’zal axloq egasi bo’lishga, o’zida go’zal xislatlarni shakllantirishga, yuksak ma’naviyat sohibi bo’lishga, komillik kasb etishga da’vat qilgan. O’sha davrda jahonning eng qudratli davlatiga aylangan Xorazmshohlar davlatida bu ta’limotga zid o’laroq shon-shuhratga o’chlik, manmanlik, kibru-havo, boyluk ketidan quvish avj olayotgan, hurfikrlilik, huquq toptalayotgan, birdamlikka putur yetib, mamlakat ich-ichidan buzulib, choh yoqasiga kelib qolgan edi. Sohta shuhrat, manmanlik, kibru-havo oxir-oqibat Muhammad Xorazmshohnning ko’zini ko’r qilib qo’yadi. O’zini ikkinchi Iskandar deb atagan bu fotihning kaltabinligi natijasida xonadoni xor, mamlakati g’orat bo’ldi [2].

Xorazmshoh soyasiga ko’rpacha to’shagan nafs bandalarini o’ziga yaqin oldi, uni balolardan ogoh etmoqchi bo’lgan, saodat yo’liga undagan to’g’riso’z olimu fuzaloni ta’qib etdi va ayovsiz jazoladi, hatto shayx Najmiddin Kubroning shogirdi Majididdin Bag’dodiyini qatl qildirdi. Natijada hazrati shayxning qattiq norozichiligi va duoyibadiga qoldi.

Shayx Najmiddin Kubro huzuriga Eron, O’rta Osiyo, Misr, Kavkaz, Shom, Iroqning turli joylaridan muridlar kelib, tarbiya topganlar, shayx ma’rifatidan bahramand bo’lganlar, ulug’ maqomu martabalarga erishganlar.

Tarixiy manbalarda kelishicha, mo’g’illar itilosi arafasida shayxning to’rt yuzdan ortiq muridlari bo’lib, ularning har birlari tasavvuf tarixida ulkan mavqega ega bo’lib, kubroviya tariqatining davomchilari bo’lganlar. Kubroviylik Sharq mamlakatlariga tarqalib, islomiy hikmat va insoniy poklik, ilohiy ma’rifat g’oyalarining tarqalishiga yordam berdi.

Xulosa

Najmiddin Kubro butun umri inson pokligi, ilohiy ma’rifat uchun kurashdi, dunyoviylik bilan ilohiylikni qo’shdi, mardlik va ma’naviy yuksalishdan saboq berdi, barchaga u zotning hayoti saboq bo’ldi. Shu bois uning merosi qadrlanib, avlodlar e’zosi, hurmat-e’tiboriga sazovor bo’ldi.

Ofoq va anfus (katta va kichik olam) nazariyasining asoschisi Najmiddin Kubroning boy ma’naviy merosini o’rganish, tadqiq etish orqali tariximiz, madaniyatimiz, milliy qadriyatlarimizning naqadar mumtoz va ulug’vorligi, u zotning hayoti o’zligini anglab etgan inson uchun ibrat va saboq ekanligini har birimiz chuqur xis qilamiz.



Adabiyotlar ro'yxati:

1. Najmiddin Komilov, Tasavvuf. – Toshkent: «Movarounnahr» - «O`zbekiston», 2009. 9-b.
2. Shayx Najmiddin Kubro, Jamoling menga bas. - Toshkent, «G`ofur G`ulom», 1994. 14-b
3. Haqqulov I. Tasavvuf saboqlari. -Buxoro, 2000.
4. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. A. Mansur. -Toshkent. "Cho'lpon", 1992.
5. Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – Toshkent: «Movarounnahr», 2004.
6. Evgeniy Bertel's. Najmiddin Kubro // Muloqot jurnali, 1995. 3/4 son.
7. Mahmud As'ad Jo'shon. Yunus Emro va tasavvuf. – Toshkent: "Fan", 2001. 12-13-b
8. Gaffarova, G.G. (2020), Structural transformations as a faktor new development opportunities // Scientific Bulletin of Namangan State University. –T.1. –№10, - С.185-190.
9. Гаффарова, Г., & Қодиров, Б. (2020). Рақамлаштириш - инновацион ривожланиш омили сифатида. Academic Research in Educational Sciences, 1 (2), 104-112.
10. Гаффарова, Г. (2023). Молодежного Сознания В Цифровом Обществе. Центральнo-азиатский журнал литературы, философии и культуры, 4 (2), 13-17.
11. G'affarova G.G', Jalalova G. Inson kapitalini rivojlantirish davrida kreativlik zarurati // Namangan Davlat Universiteti Ilmiy axborotnomasi, 2022. № 3, 207-212 b.
12. Gaffarova, G. (2023). Transformations of youth consciousness in a digital society. ISJ Theoretical & Applied Science, 02 (118), 1-5.



10.00.00

FILOLOGIYA FANLARI
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA DARSLARIDA YUNON KLINIK VA FARMATSEVTIK ATAMALARINING QO'LLANILISHI

Maxmudov Zafar Mardanovich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrası assistenti

***Annotatsiya:** Maqolada bilimlarning fanlararo tarmog'i-terminologiya haqida fikr yuritiladi. Maqolada funktsional buzilishlar nomlarida, patologik jarayonlar va holatlar nomlarida, farmatsevtika terminologiyasi va retsepturada lotin atamalarini va ularning yunon dubletlarini tuzish modelining tamoyillari muhokama qilinadi. Shuning uchun shifokor uchun lotin tilini bilish boshqa, o'zaro bog'liq fanlarning terminologiyasini tushunishga imkon beradi. Lotin tilini o'rganish shifokorning so'z boyligini yaxshilaydi va chet eldan kelib chiqqan yangi so'zlarni o'rganish jarayonini osonlashtiradi. Lotin tilini bilish turli mamlakatlar shifokorlariga bir-birlarini osongina tushunish imkonini beradi. Lotin tilini tibbiyotda qo'llashning uzoq an'analari butun dunyo shifokorlari va tibbiy ta'limni birlashtirish uchun birlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** lotin tili, yunon tili, retseptura, klinika, kasallik nomlari, fanlararo bog'lanish, zamonaviy tibbiyot, tibbiy terminologiya, til o'rganish, tibbiy muloqot.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГРЕЧЕСКИХ КЛИНИЧЕСКИХ И ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ НА УРОКАХ ЛАТИНСКИЙ ЯЗЫК И МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Махмудов Зафар Марданович

Ассистент кафедры языков Самаркандского государственного медицинского университета

***Аннотация:** В статье рассматривается междисциплинарная отрасль знаний – терминология. В статье рассматриваются принципы модели построения латинских терминов и их греческих двойников в названиях функциональных нарушений, патологических процессов и состояний, фармацевтической терминологии и рецептуре. Поэтому знание латыни для врача позволяет понять терминологию других, взаимосвязанных наук. Изучение латыни улучшает словарный запас врача и облегчает процесс изучения новых слов иностранного происхождения. Знание латыни позволяет врачам из разных стран легко понимать друг друга. Давние традиции использования латыни в медицине служат объединяющим фактором для объединения врачей и медицинского образования во всем мире.*

***Ключевые слова:** латинский язык, греческий язык, рецептура, клиника, названия болезней, междисциплинарные связи, современная медицина, медицинская терминология, изучение языка, медицинское общение.*



APPLICATION OF GREEK CLINIC AND PHARMACEUTIC TERMS IN LATIN AND MEDICAL TERMINOLOGY CLASSES

Makhmudov Zafar Mardanovich

Assistant of the Department of languages of Samarkand State Medical University

Abstract: *The article discusses the interdisciplinary branch of knowledge–terminology. The article discusses the principles of the model of structuring Latin terms and their Greek Doublets in the names of functional disorders, names of pathological processes and conditions, pharmaceutical terminology and receptions. Therefore, for the doctor, knowledge of Latin makes it possible to understand the terminology of other, interrelated disciplines. Learning Latin improves a doctor’s vocabulary and facilitates the process of learning new words of foreign origin. Knowledge of Latin allows doctors from different countries to easily understand each other. The long tradition of using Latin in Medicine serves as a unifying factor for the unification of doctors and medical education around the world.*

Keywords: *Latin, Greek, prescription, clinic, disease names, interdisciplinary connection, modern medicine, medical terminology, language learning, Medical communication.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimidagi lotin tili va tibbiy terminologiya kursining o‘rganish ob‘ekti tibbiyot fanining maxsus tushunchalarini bildiruvchi so‘z va iboralardir. Bunday so‘z va iboralar atamalar deb ataladi va ularning birikmasi tibbiy terminologiyani - tibbiyot xodimlarining kasbiy tilini tashkil qiladi. Tibbiyot mutaxassisi doimiy ravishda yangilanib turadigan professional tildan malakali foydalanishi va atamalarning paydo bo‘lishini belgilaydigan qonunlarni tushunishi kerak.

Adabiyotlar tahlili

Lotin tilini o‘rgatishga doir darslik, o‘quv qo‘llanma, lug‘atlar, ilmiy maqolalar F.I.Muchnik, M.G.Travitskaya, X.X.Xalimatov, M.N.Boliyev, L.U.Xodjayeva, H.T.Umarov, M.N.Isroilova, S.Sh.Rustamova, N.S.Suyundikov, L.X.Bozorova, R.A.Berezovskayalar tomonidan yozib nashr etilgan va bugungi kunda talabalar va o‘quvchilar tomonidan o‘rganilmoqda. Mustaqil hamdo‘stlik mamlakatlari oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritgan va faoliyat yurutayotgan M.N.Chernyavskiy, V.F.Buxarin, M.N.Nechay, A.Kluchanko, Yu.F.Papassenko, L.S.Kapitula, Yu.I.Gorodkova kabi olimlar tomonidan darslik va o‘quv qo‘llanmalar nashr ettirilgan.

Lotin tilining taraqqiy etishi, ilmiy terminlarda qo‘llanilishi, o‘qitishning didaktik masalalari kabi mavzularda M.M.Yo‘ldoshev, M.N.Isroilova kabi ustozlarimiz o‘z dissertatsiyalarini himoya qilishgan. Mustaqil hamdo‘stlik mamlakatlari tadqiqotchilari G.V.Yurchik, O.N.Dmitriyeva, A.F.Xamurzova, E.O.Petrova, O.N.Pantalyeva, A.M.Arityunyan, O.S.Nikolayeva, I.A.Popova, L.A.Gasparyan, E.A.Filatov, D.V.Drozdova, N.A.Kruglik, A.L.Altonen, L.A.Trujenikova, xorijiy davlatlardan Arthur J.Breen (AQSh), Tayab Merabti (Fransiya) kabilar lotin tilini va tibbiy terminlarni o‘qitish metodlari, o‘qitish usullarining yutuqlari, kamchiliklari va muammolariga bag‘ishlab ilmiy izlanish olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi

Har qanday mamlakat shifokorlari qadimgi yunon va lotin tillarida paydo bo‘lgan xalqaro, umumiy qabul qilingan atamalardan foydalanadilar. Ushbu atamalar universaldir va ular millatidan qat‘i nazar, mutaxassislar uchun tushunarli hamdir. Bunday atamalar –

internatsionalizmlar tibbiyot fanining asosiy fondini tashkil qiladi. Eng qadimiy davrga epidemiya (epidemia), bronx (bronchus), herpes (herpes), karsinoma (carcinoma), emfizema (emphysema) kabi atamalar kiradi.

Ayrim fanlarning terminelementlar to'plami o'nlab, minglab va yuz minglab atamalardan iborat. Terminologiyaning boshlang'ich nuqtasi atamaning maqsadi ilmiy tushunchani qisqa, aniq va bir ma'noda ifodalashdir. Buning uchun atama quyidagi mezonlarga ega bo'lishi kerak: aniqlik, bir ma'nolilik.

Haqiqiy mavjud terminologiyada hamma atamalar bu talablarga javob bermaydi. Shu bois, turli fanlar, jumladan, tibbiyot mutaxassislari o'z kasbiy tilini tartibga solish va standartlashtirishga katta e'tibor berishlari lozim bo'ladi.

Tahlillar va natijalar

Zamonaviy tibbiyotning terminologik tizimi ko'plab quyi tizimlardan iborat bo'lib, ular orasida uchta yetakchi: anatomik va gistologik terminologiya, farmatsevtik terminologiya va klinik terminologiya ajralib turadi.

Klinik terminologiya (yunoncha **klinike (techne)** –yotqizilgan bemorlarni parvarish qilish) tibbiy terminologiyaning eng keng qamrovli bo'limidir. Bu yerda turli kasalliklar va me'yordan chetga chiqish nomlari, tekshirish va davolash usullari nomlari, klinik mutaxassisliklar va mutaxassislar nomlari ko'rsatilgan. Bu nomlarning barchasi asosan otlardir. Bunday otlar bir o'zakli so'zlar bo'lishi mumkin (**asthma, atis n** –astma, nafas qisishi; **hernia, ae f** –churra, dabba). Biroq, ko'p hollarda ular tarkibi murakkab bo'lib, asosan yunoncha so'z yasovchi elementlardan yoki atama elementlaridan iborat: **hyperaesthesia** –yuqori sezuvchanlik.

Affiksial va o'zak terminelementlar mavjud. Affiksial terminelementlar old so'z yasovchi qo'shimcha va orqa so'z yasovchi qo'shimchalardir. Masalan, **hypo-** terminelement old so'z yasovchi qo'shimchasi "me'yordan past" ma'nosi bilan atamalarni hosil qiladi: **hypothermia** –gipotermiya, haroratni pasaytirish; **hypothyreosis** –hipotireoz, qalqonsimon bez funksiyasining pasayishi; **hypoxia** –gipoksiya, to'qimalarda kislorod darajasining pasayishi. **-oma** orqa so'z yasovchi qo'shimchasi odatda "o'simta, shish" degan ma'noni anglatadi: **lypoma** –yog' to'qimalarining shishi; **odontoma** –odontoma, tish to'qimalarining shishi. O'zak terminelement -yunoncha va ba'zan lotincha otlar, sifatlar yoki olmoshlarning asoslari yoki o'zaklaridan iborat bo'ladi. O'zak terminelementlarni so'z boshi terminelementi va so'z oxiri terminelementi turlariga bo'lish odatiy holdir. so'z boshi terminelementi qo'shimchalar yoki so'z oxiri terminelementi bilan bog'lanadi. Masalan, so'z boshi terminelementi **angi-** "tomir" ma'nosi bilan **angioma** (angioma, qon tomirlari to'qimasida shakllanuvchi o'sma) va **angiitis** (angiit, qon tomirlari devorlarining yallig'lanishi) nuqtai nazaridan **-itis** yoki **-oma** qo'shimchalari bilan birlashtirilishi mumkin. Shu bilan birga, bu terminelement o'zak terminelement bilan birlashtirilishi mumkin: **angiosclerosis** –angioskleroz, qon tomirlari devorlarining qattiqlashishi, **angiospasmus** –angiospazm, qon tomirlarining spazmi. So'z boshi terminelementi odatda boshqasiga, shu jumladan so'z oxiri terminelementiga bog'lovchi unli **-o-** yordamida birlashtiriladi: **bronchospasmus** –bronxospazm, bronxlarning sanchiqli torayishi. Agar so'z boshi terminelementi qo'shilgan terminelement unli bilan boshlansa, u holda bog'lovchi **-o-**, qoida tariqasida, olib tashlanadi: **nephrectomia** –nefrektomiya, buyrakni olib tashlash operatsiyasi. Biroq, ba'zida bu qoidaga rioya qilinmaydi va bog'lovchi **-o-** saqlanib qoladi: **acroaesthesia** –tananing distal qismlarining yuqori sezuvchanligi.

O'zak terminelement ko'pincha so'z boshi terminelementi va so'z oxiri terminelementi sifatida harakat qilishi mumkin, masalan: **nos-** va **-nosis** (kasallik), qarang: **nosologia**, **ae f** – nozologiya, kasalliklarning shakllari va ularning tasnifi haqidagi ta'limot; **zoonosis**, **is f** – zoonoz, hayvonlardan odamga yuqadigan yuqumli kasalliklar. Bunday hollarda talabalar ushbu ikkala variantni ham bilishlari va ularga og'zaki yoki yozma javob berishlari kerak: kasallik **-nos-**, **-nosis**.

O'zak terminelementlar bir-biri bilan bog'lanib, ko'p komponentli tuzilmalarni hosil qilishi mumkin: **chole** (safro, o't) + **cyst** (pufak) = **cholecyst** – (o't pufagi): **cholecystographia** – xoletsistografiya, o't pufagining rentgenografiyasi.

O'zak terminelement ba'zan bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkin. Shunday qilib, so'z boshi terminelementi **kerat-** 2 ma'noga ega bo'lishi mumkin: 1) ko'zning shox pardasi; 2) terining epidermisining shox pardasi, qarang: **keratitis** – keratit, ko'z shox pardasining yallig'lanishi; **keratosis** – keratoz, epidermisning shox qavatining qalinlashishi bilan tavsiflangan teri kasalliklarining umumiy nomi.

Tibbiyot fanlari, mutaxassisliklari va bo'limlarining nomlari ko'pincha so'z oxiri terminelementi **-logia** yordamida yasaladi: **ophthalmologia**, **ae f** – oftalmologiya, ko'z kasalliklarini o'rganuvchi fan. Terminelement **-logia** asosida sifatlar so'z oxiri terminelementi **-logicus**, **a, um** (o'zbekcha ekvivalenti mantiqiy) bilan yasaladi, bu fanlarning ayrim guruhiga, klinik tibbiyot bo'limlariga, tadqiqot yoki davolash usullariga tegishli ekanligini ko'rsatadi: **bacteriologicus**, **a, um** – bakteriologiyaga tegishli, bakteriologik.

Klinik terminologiyada funksional buzilishlarning nomlari odatda old so'z yasovchi qo'shimcha va o'zak atama elementlarining kombinatsiyasi yordamida tuziladi. Old so'z yasovchi qo'shimchali terminelementlardan: **dys-** old so'z yasovchi qo'shimchasi ko'pincha orqa yakuniy terminelement – o'zak bilan birgalikda qo'llaniladi: **diskinesia**, **ae, f** – diskineziya, muvofiqlashtirilgan harakatchanlikning buzilishi; **dysfunctio**, **onis, f** – disfunksiya, organning vazifasining bajarishining buzilishi. Bu termin ma'lum bir organ bilan ham ishlatilishi mumkin: **dysfunctio renum** – buyraklarning funktsiyasining buzilishi. Ayrim funksiya yoki fiziologik jarayonning to'liq to'xtab qolishi yoki yo'qligi **a-** (**an-** unli tovush oldidan) old so'z yasovchi qo'shimchasi yordamida ifodalanadi: **aphagia**, **ae f** – afagiya, butunlay yuta olmaslik; **anuria**, **ae f** – anuriya, siydik pufagiga siydik tushmasligi.

Patologik jarayonlar va sharoitlarning nomlari old so'z yasovchi qo'shimchali (prefiks), orqa so'z yasovchi qo'shimchali (suffiks) va o'zakli terminelementlar yordamida tuzilgan va lotincha ot-atamalar bilan ham ifodalangan bo'ladi. Shuning bilan birga, ushbu patologik jarayonning o'ziga xosligini tavsiflovchi ushbu patologik jarayonning o'ziga xosligini bildiruvchi aniqlovchi so'zlar (o'tkir, surunkali, to'liq, qisman va boshqalar) ham otlarga qo'shiladi.

Deyarli barcha old so'z yasovchi qo'shimchali terminelementlar sifatida barcha old so'z yasovchi qo'shimchalar ishlatiladi, ammo yunoncha old so'z yasovchi qo'shimchalar lotin tiliga qaraganda ancha keng tarqalgan. Klinik termin ma'nosida ularning ma'nosi odatda anatomik termin ma'nosiga to'g'ri keladi. Biroq, ko'pincha yunoncha old so'z yasovchi qo'shimchani ma'nosini ko'p atamalarda aniqlash qiyin, chunki: birinchidan, bunday atamalarning old so'z yasovchi qo'shimchasiz ildiz morfemalari tibbiy terminologiyada ishlatilmaydi, ikkinchidan, yunoncha old so'z yasovchi qo'shimchalarning o'zi juda ko'p ma'nolarga ega. Shuning uchun bunday hollarda atamani undagi prefikslarni ajratmasdan va so'zning morfologik tahlilini

o'tkazmasdan o'zlashtirish kerak, masalan, **diabetes, ae m** - diabet, endokrin tabiatdagi kasalliklar guruhining nomi, siydikning tanadan ortiqcha chiqishi bilan tavsiflanadi.

Klinik tibbiyot bo'limlarining ayrim nomlari so'z oxiri terminelementi **-iatria** yordamida shakllanadi: **geriatria, ae f** –geriatriya, klinik tibbiyotning keksa yoshdagilar kasalliklariga va ularni davolash usullariga bag'ishlangan bo'limi.

Klinik tibbiyotning ba'zi bo'limlarining nomlari tavsiflovchidir: **morbi interni** –ichki kasalliklar; **morbi infectiosi** –yuqumli kasalliklar.

Ba'zi klinik shifokorlarning nomlari terminelement **-pathologus** va **-iater** yordamida shakllanadi hamda bunday atamalar har doim klinik tibbiyotning tegishli bo'limlari nomlari bilan bog'liq: **neuropathologia, ae f** – periferik asab tizimi kasalliklarini o'rganuvchi soha; **neuropathologus, i m** –nevropatolog, periferik asab tizimi kasalliklari bo'yicha mutaxassis. Ruscha ekvivalentlarida so'z oxiri terminelementi **-ist** bo'lgan mutaxassislarning lotincha nomlari so'z oxiri terminelementi **-ista** bilan tugaydigan I turlanish otlarining Masculinum rodiga mansub bo'ladi: **infectionista, ae m** –yuqumli kasalliklar bo'yicha mutaxassis. Rus ekvivalentlarida so'z oxiri terminelementiga ega bo'lgan mutaxassislarning nomlari **-pat**, so'z oxiri terminelementi **-pathus** bilan tugallanuvchi II turlanish Masculinum rodiga tegishli otlarni hosil qiladi: **naturopathus, i m** – naturopat, davolash uchun faqat tabiiy (tirik va jonsiz tabiat) vositalardan foydalanadigan shifokor.

"Farmatsevtika" va "farmatsiya" atamalari qadimgi yunoncha **pharmacon** so'zidan kelib chiqqan bo'lib, **pharmacon** –dori so'ziga borib taqaladi. Keyinchalik lotin tili orqali bu ikki atama Yevropaning barcha tillariga kirgan. An'anaviy ravishda tibbiyot dori vositalarini ishlab chiqarish uchun xom ashyo nomlarida, dori vositalarining nomlarida va retsepturada lotin va lotinlashtirilgan yunoncha so'zlardan foydalanadi.

Dori shakllari va dori vositalarining lotincha nomlari ro'yxati Xalqaro farmatsevtika nomenklaturasini tashkil qiladi. Vaqti-vaqti bilan ba'zi dori vositalari yoki dozalash shakllari eskirganligi va boshqa dori vositalari yoki dozalash shakllari paydo bo'lishi bilan farmatsevtik atamalar ro'yxati qayta ko'rib chiqiladi va yangilanadi. Atamaning lug'at shaklida va farmatsevtik atamaning bir qismi sifatida katta va kichik harflar juda muhimdir. Katta harflar lug'at shaklida ham, atamaning bir qismi sifatida ham yoziladi:

1. Dorivor o'simliklarning nomlari: **Chamomilla, ae f** –moychechak; **Flores Chamomillae** –moychechak gullari; **Frangula, ae f** –itshumurt; **Decoctum corticis Frangulae** –itshumurt po'stlog'ining qaynatmasi.

2. Kimyoviy elementlar va kationlarning nomlari: **Ferrum, i n** –temir; **Sirupus Aloës cum Ferro** –temir bilan aloy siropi; **Strichninum, i n** - strixnin; **Solutio Strychnini nitratis** –strixnin nitratining eritmasi.

3. Dori vositalarining nomlari: **Prednizolonum, i n** –prednizolon; **Tablettae Prednisoloni** –prednizolon tabletkalari; **Leonurus, i m** –arslonquyruq; **Tinctura Leonuri** –arslonquyruq tindirmasi.

4. Dori-darmonlarga teng so'zlar: **Amylum, i n** –kraxmal, ohor; **Gelatina, ae f** –jelatin(a); **Gelatoza, ae f** –gelatoz(a); **Propolis, i n** –propolis; **Saccharum, i n** –shakar.

Xulosalar

Bugungi kunda lotin tili nafaqat Qadimgi Rim faylasuflari, notiqolari, shoirlarining xotirasi, balki zamonaviy dunyoning ajralmas qismidir. Lotin tili ko'plab bilim sohalarida, xususan, tibbiyot, biologiya va huquqshunoslikdagi ilmiy terminologiyada mustahkam ildiz otgan.



Shuning uchun ular hatto tibbiy, biologik va yuridik lotin tilini alohida ajratib ko'rsatishadi. Tibbiyotda deyarli barcha tibbiy atamalar lotin-yunon tilidan kelib chiqqan va talabalar shu tilni o'rganishga muhtojdirlar.

Adabiyotlar

1. Maxmudov Z., Sharipov B., Bo'riyev D. Tibbiyot universitetlarida lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 5-10.
2. Ёрова С. К. Бевосита тиббиётнинг касб компетенцияси ва унинг деонтологик асослари //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 212-218.
3. Shamsiyev K. et al. Approaches to Teaching Academic Writing //Международная конференция академических наук. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 31-34.
4. Saidova K. et al. Influence of Using Games on English Lessons //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 54-58.
5. Sharipov B., Makhmudov Z., Buriyev D. The role of teaching latin in the course of subject training of future foreign language teachers //Science and innovation in the education system. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 11-14.
6. Aitmuratova P., Yorova S., Esanova M. The role of foreign languages in our life //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 161-164.
7. Sunbula R. Ingliz tilidagi tibbiy atamalarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlari //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 22. – №. 4. – С. 55-59.
8. Maxmudov Z. M. Lotin tili va tibbiy terminologiyani o'rganishda o'zbek tili grammatikasining o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 756-759.
9. Zafar Mardanovich Maxmudov, Bobur Salimovich Sharipov Lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning didaktik tamoyillari va uning asosi haqida fikrlar // Academic research in educational sciences. 2021. №6.
10. Maxmudov Z., Sharipov B., Bo'riyev D. Tibbiyot universitetlarida lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari //Science and innovation in the education system. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 5-10.
11. Makhmudov Zafar Mardanovich, Sharipov Bobur Salimovich, & Buriyev Dilmurod Arzimurodovich. (2021). Developing Students Attitudes Towards the Environment When Teaching a Foreign Languages. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 1(1), 199–201. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjm/article/view/136>
12. Sharipov B., Makhmudov Z., Buriyev D. Features of teaching latin to students medical universities studying in english //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 21-25.
13. Maxmudov Z. M. Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish istiqbollari //Urganch davlat universiteti, "Ilm sarchashmalari. – С. 118-120.
14. Mardanovich M. Z. The place of problematic and heuristic methods in the process of teaching latin and medical terminology //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 587-591.
15. Mardanovich M. Z. et al. Some Considerations about Legal Solutions and Practices of Certain Problems Writing Recipes //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 5341-5352.



16. Mardanovich M. Z., Salimovich S. B., Arzimurodovich B. D. Modern Methods of Teaching Latin and Medical Terminology in Uzbekistan //International Journal of Development and Public Policy. – 2021. – Т. 1. – С. 5.
17. Maxmudov Z. M. Teaching correct pronunciation of latin as an international language of medicine in medical education institutions, Global Technovation 5th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted From Paris, France //March 30th. – 2022. – С. 30-31.

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN O'QITISHDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Ilmurodova Dilobar Hamzayevna,
Ilmiy izlanuvchi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali o'qituvchi,
Qashqadaryo, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada professional ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan zamonaviy pedagogning ta'lim sifatini oshirish uchun egallashi lozim bo'lgan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limda kasbiy shakllanishining muhim usullar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: professional ta'lim, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, o'quvchining kompetentligi.

ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ОБУЧЕНИИ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Илмuroдова Дилобар Хамзаевна,
Научный исследователь, Каршинского филиала ТУИТ имени Мухаммада аль-Хорезми, Кашкадарьинской области, Узбекистан,

Аннотация: В данной статье перечислены важные пути профессионального становления современного педагога, работающего в системе профессионального образования, в образовании, основанном на компетентностном подходе, который он должен овладеть для повышения качества образования

Ключевые слова: профессиональное образование, образование на основе компетентностного подхода, компетентность, профессиональная компетентность, компетентность учащегося



THE IMPORTANCE OF THE FORMATION OF COMPETENCIES IN TEACHING BASED ON A COMPETENCY APPROACH IN THE SYSTEM OF PROFESSIONAL EDUCATION

Ilmurodova Dilobar Khamzaevna,

Karshi branch of TUIT named after Muhammad al-Khorezmi of the, Kashkadarya region,
Uzbekistan

Annotation: *This article presents important methods of professional formation in education based on the competency approach that a modern educator operating in the system of professional education should take to improve the quality of Education*

Keywords: *professional education, competency-based education, competence, professional competence, student competence.*

Kirish

Bugungi tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan dunyoda mutaxassislariga qo'yilayotgan bilim va malaka talablari ham takomillashib, rivojlanib bormoqda. Ta'limini zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fanlardan elektron ta'lim resurslarini takomillashtirish, o'quvchilarning elektron manbalar bilan faol muloqotini ta'minlash, mustaqil ta'limini amalga oshirish va o'z-o'zini baholash, zaruriy ma'lumotni operativ izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan ta'lim sifati ko'rsatkichlaridan biri kompetentlik hisoblanadi. U faqatgina bilim va ko'nikmalar yig'indisi bo'libgina qolmay, ta'lim oluvchilarning egallagan bilimlarini mobillashtirish va aniq vaziyatlarda tajribada qo'llay olishi bilan tavsiflanadi.

Respublikamizda xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, umumiy o'rta ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda fan o'quv dasturlari ishlab chiqildi, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me'yoriy asoslari yaratildi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi hamda jarayonlar, shaxsning ijtimoiy va mustaqil hayotdagi mavqeyi va o'rne, savodxonligi, tarbiyalanganlik darajasi, shaxs kamolotiga qo'llaniladi.

Kompetentsiyaga asoslangan ta'lim 1970-yillarda AQShda boshlang'ich va kasb-hunar o'qituvchilarining ta'limida kuzatilgan. Kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha yaxshi darajada bo'lmagan o'qitish pedagogik ta'limda yangi tamoyillarni qo'llashga sabab bo'ldi.

Kompetentsiyaga asoslangan ta'lim - bu talabalar va ishchilar uchun mazmunli o'quv muhitida ularning yuqori tajribalari uchun imkoniyatlar yaratadi, bunda o'quvchi amaliyotdagi muammolarni hal qilish uchun integratsiyalashgan, ishlashga yo'naltirilgan qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Adabiyotlar tahlili

Jahonda bir qancha olimlar (Д. А. Иванов, В. К. Загвоздин, И. А. Зимняя, А. Г. Каспьяк va boshqalar)ning fikriga ko'ra, kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'limning yangi sifatiga erishish yo'lidir.

V.A.Slastenin kasbiy kompetentsiya tarkibini umumiy va alohida kasbiy mahoratlar majmuasi orqali ochishni taklif qiladi. Ideal holda, mutaxassisning malaka tavsifi talablariga to'liq mos kelishi o'z-o'zidan kasbiy ko'nikmalarning butun majmuasini integratsiyalashgan holda shakllantirishni anglatadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilayotgan innovatsion texnologik jarayonlar, tadbirkorlik, kichik biznes sohalarida yaratilayotgan yangi texnologik ish o'rinlari bilan o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlovchi mutlaqo yangi kasb-hunar ta'limi maqsadi va mazmunini uyg'unlashtirish professional ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv masalasining dolzarbligini belgilab beradi. Bu esa avvalambor, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda professional ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv konsepsiyasini ishlab chiqish, shu asosda kompetensiyaviy yondashuvga oid asosiy tushuncha va atamalarni izohlash, talqin qilish va tavsiflash, tizimlashtirish, o'qitish texnologiyalari va baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda ta'lim jarayoniga tadbiiq etish lozim bo'ladi. Shuning uchun, professional ta'lim jarayonida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini aks ettirgan o'quv jarayoni mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqish orqali professional ta'lim dasturlarini takomillashtirish va amaliyotda joriy etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot metodologiyasi

Kompetensiyaga asoslangan ta'lim va o'qitish malakasining maqsadlari Anane tadqiqotlariga ko'ra, quyidagilardan iborat:

Kompetensiyalarni baholash mumkin bo'lgan aniq standartlarni belgilash;

Barkamol shaxslarni rivojlantirish;

Ta'limni xodimlar uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan bog'lash;

Barcha foydalanuvchilar, ya'ni o'quvchilar, ta'lim muassasalari va ish beruvchilarning ishonchiga ega bo'lgan ob'ektiv sifat kafolati tizimini ta'minlash;

Shaxsning kasbiy salohiyatini to'liq rivojlantirish;

Uzluksiz ta'lim konsepsiyasini targ'ib qilish[1].

Bundan ko'rib turibdiki, professional ta'limda ham kompetensiyaviy yondashuv ta'lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida dasturul amal hisoblanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati kasbga yo'naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi. O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim[2].

O'quvchilarning kompetentligini oshirishning o'quv-metodik ta'minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga yo'naltirilgan fanlarni o'qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo

bog'liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg'ulotlar asosida o'qitish ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda[3].

Dastlab "kompetensiya" tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. Kompetensiya (lot.*competo* so'zidan olingan bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildiradi) – subyektning maqsadni qo'yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog'liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir[4].

Kompetensiya yana bir qancha ta'riflarni keltirishimiz mumkin:

Kompetensiya –fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir.

Kompetentsiya - bu ma'lum bir sohada muvaffaqiyatli ishlash uchun xarakteristikani, sifatni, bilimlarni, mahoratni va amaliy tajribani qo'llash qobiliyati; keyin shu asosda kompetentsiyani kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladigan va faoliyat mavzusiga shaxsiy munosabatni o'z ichiga olgan qobiliyatga ega deb hisoblash mumkin. Muayyan sohadagi tajribali shaxs tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, ularga ushbu sohaga asosli baho berish va unda samarali harakat qilish imkonini beradi.

Tahlillar va natijalar

Amerikalik olim J.Raven tadqiqotlarida esa kompetensiyalarning quyidagi 37 turi mavjudligi qayd etiladi : aniq maqsadga erishish uchun ustuvor yo'nalishni idrok qilish qobiliyati; o'z faoliyatini nazorat qilish; faoliyat jarayoniga hissiyotlarni yo'naltirish; mustaqil ta'limga tayyor turish; qayta aloqadan foydalanish; o'ziga ishonch; shaxsiy nazorat; ishga kirishib keta olish; ilojisizlik hissining begonaligi; kelajakni yaxshi tasavvur etish; mavhumlashtirishga moyillik; maqsadga erishishga bog'liq muammolarga diqqatni qaratish; mustaqil tafakkur; originallik; tanqidiy tafakkur; murakkab masalalarni yecha bilish qobiliyati; bahsli masalalarni yechishga tayyorlik; tavakkal qilish; jamiyatning innovatsiyalarni yaxshi qarshi olishiga bo'lgan ishonchning mavjudligi; natijaning ijobiyligi va ikki tomonlama foydali ekanligini maqsad qilib olish; qat'iyatli(sabotli) bo'lish; ishonchli; o'zini maqsadga muvofiq tutish qoidalariga bo'ysinish; qaror qabul qilish qobiliyati; javobgarlik hissi; maqsadni ko'zlab hamkorlikda ishlay bilish qobiliyati; maqsadga erishish yo'lida boshqalarni ham ishga unday olish qobiliyati; o'zgalarni tinglay bilish va ularning fikrlarini ham inobatga olish qobiliyati; hamkorlarining imkoniyatlariga subyektiv baho berishga urinish; boshqalarning mustaqil qaror chiqarishlariga yo'l berish; o'zaro nifoqlarni hal qilish va ixtiloflarni mo'tadillashtirish; birovning qo'l ostida faoliyat yuritayotgan paytda samarali ishlash qobiliyati; turli uslubdagi yashash tarziga nisbatan bag'rikenglik; tashkiliy va jamoaviy rejalashtirishga tayyorlik[5]. Mazkur kompetensiyalar asosan real ish o'rnida aynan natija va samaradorlikka qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Kompetensiya turlarini tasniflashga doir xilma-xil qarashlar mavjud. Masalan, o'zbek olimlaridan N.A.Muslimov va M.B.Urazova kasbiy ta'lim nuqtayi nazaridan kompetensiyalarni quyidagi turlarga ajratadilar:

– maxsus kompetensiya – yetarli yuqori darajada o'z kasbiy faoliyatini egallash, keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalashtira olish;



– ijtimoiy kompetensiya – birgalikdagi kasbiy faoliyat, hamkorlikni egallash, o‘z mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik;

– shaxsiy kompetensiya – shaxsiy mustaqillikni namoyish etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning turli muammoli vaziyatlarga qarshi turish vositalarini egallashi;

– individual kompetensiya – kasb doirasida individuallikni mustaqil qo‘llash va rivojlantirish usullarini egallash, kasbiy-shaxsiy o‘shish, o‘z-o‘zini mustaqil tarbiyalash va qayta tarbiyalashga tayyorlik;

– asosiy kompetensiyalar – shaxsiy va ijtimoiy moslashish va samarali faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsning madaniyatlararo va sohalararo bilim, qobiliyat va ko‘nikmalari.

Xulosalar

Xulosada shuni aytish mumkinki, yangi professional ta‘lim va kasbga o‘rgatish tizimiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun professional ta‘lim muassasalarida ilmiy-metodik, axborot-metodik bazasini shakllantirish, pedagog kadrlar va ishlab chiqarish ta‘lim ustalarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va eng muhimi, ularda yangicha fikrlashni shakllantirish kerak bo‘ladi. Buning uchun, pedagog-o‘qituvchilar professional ta‘limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy qilish texnologiyalarini o‘zlashtirishi va kompetensiyalar turkumini shakllantirish metodikalarini egallashi, ya‘ni kompetensiyalarga yo‘naltirilgan nazariy mashg‘ulotlar, amaliy topshiriqlar va testlar tizimi, ta‘lim natijalarini baholash va monitoring qilish mexanizmlarini mustaqil ravishda ishlab chiqish hamda amaliyot jarayonida qo‘llay olishi muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Anane, C.A. (2013). Competency based training: Quality delivery for technical and vocational education and training (TVET) institutions. *Educational Research International*, 2(2), 117- 127.

2. Qoraev S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. *“Education, Science and Innovation,”* 2 (2), 45-50.

3. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. *Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal*, 1(02), 132-137.

4. Ilmurodova D. (2021). The importance of professional data in the professional formation of a modern teacher in the public education system. *Society and innovations Journal*

5. Безюлева Г.В., Иванова Н.В., Никитин М.В., Шеламова Г.М. Профессиональная компетентность: аспекты формирования / Под ред. Г.В. Безюлевой. - М, Московский психолого-социальный институт, Федеральный институт развития образования, 2005. - 82 с



«MAHBUB UL-QULUB»DAGI TURKIY SO‘ZLARNING QADIMGI VA ESKI TURKIY TILGA MUNOSABATI

Muminova Umida Qarshiyevna
Termiz davlat pedagogka instituti
Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma‘lum bo‘ladiki, asarda qo‘llanilgan tub turkiy so‘zlar geneologik jihatdan qadimgi va eski turkiy til manbalariga borib taqaladi. Zero, har qanday tilning tarixi shu tilda so‘zlashuvchi xalqning ijtimoiy tarixini aks ettiradi. Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat bilan birga yashaydi va jamiyat bilan birga taraqqiy qiladi.

Kalit so‘zlar: ichki manbalar, umumturkiy leksmalar, etimologik termin, tub leksmalar, yasalgan leksmalar, o‘zlashma leksmalar

ОТНОШЕНИЕ ТЮРКСКИХ СЛОВ В МАХБУБ УЛЬ-КУЛУБ К ДРЕВНЕМУ И ДРЕВНЕТЮРКСКОМУ ЯЗЫКУ

Муминова Умида Каршиевна Термезский государственный педагогический институт
Преподаватель кафедры теории начального образования

Абстрактный. В данной статье будет известно, что исконно тюркские слова, использованные в работе, восходят к генеологически древним и старотюркским языковым источникам. Ведь история любого языка отражает социальную историю людей, говорящих на этом языке. Язык как социальное явление живет вместе с обществом и развивается вместе с обществом.

Ключевые слова: внутренние источники, общетюркские лексемы, этимологический термин, корневые лексемы, производные лексемы, приобретенные лексемы.

THE RELATION OF TURKISH WORDS IN "MAHBUB UL-QULUB" TO THE ANCIENT AND OLD TURKISH LANGUAGE

Muminova Umida Karshiyevna Termiz State Pedagogical Institute Teacher of the
Department of Theory of Primary Education

Abstract. In this article, it will be known that the original Turkic words used in the work go back to geneologically ancient and old Turkic language sources. After all, the history of any language reflects the social history of the people who speak that language. Language as a social phenomenon lives together with society and develops together with society.

Key words: internal sources, all-Turkish lexemes, etymological term, root lexemes, derived lexemes, acquired lexemes

Kirish

Ma‘lumki, tilning lug‘at tarkibi murakkab rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan. Shu bois, til leksikasining tarixiy shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini bilish uchun lug‘at tarkibidagi so‘zlarni tarixiy-etimologik nuqtai nazardan o‘rganish, ularni etimologik qatlamlarga ajratish zarur. Bu, albatta, til lug‘at tarkibini ilmiy tushunish, ilmiy tahlil qilish borasida amalga oshiriladi. Til lug‘at tarkibini tarixiy-etimologik jihatdan, ya‘ni so‘zlarni genetik manbalariga



ko'ra tadqiq etish o'zbek tilining qardosh va qardosh bo'lmagan tillar bilan aloqasini, mazkur tilda qaysi tillarning ta'siri mavjudligini aniqlashga ko'maklashadi. Pirovard - natijada, bunday izlanishlar o'zbek tili so'z boyligi, grammatik qurilishining tarixiy yo'llarini anglashda nihoyatda muhimdir¹⁵. Binobarin, Binobarin, o'z qatlam har bir tilning shakllanish va taraqqiyot bosqichlarida ichki imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan so'zlardan tashkil topadi. Tilshunoslikda leksikaning ichki imkoniyatlar yordamida rivojlanishida quyidagi hodisalar asosiy omil sanaladi: 1) ichki manbalar orqali so'z yasash yo'li bilan leksikaning boyishi; 2) eskirgan, tarixiy va umuman eski obidalarda bo'lgan lug'aviy birliklar asosida leksikaning boyishi; 3) adabiy til leksikasining dialektik so'zlar hisobiga boyishi¹⁶. O'z qatlam doirasidagi so'zlar, avvalo, tilimizning umumiy boyligini o'zida namoyon qiladi va bu, o'z navbatida, ularni tarixiy yodgorliklar tili bilan solishtirish negizida til tarixi va etimologiyasi uchun qimmatli xulosalar chiqarishga imkon beradi¹⁷. Shu nuqtai nazardan, «Mahbub ul-qulub» asarida qo'llanilgan o'z qatlamga doir so'zlarni quyidagicha guruhlash mumkin: a) tub turkiy so'zlar; b) turkiy so'zlardan yasalgan leksemalar; v) o'zlashmalardan turkiy qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan yuzaga kelgan so'zlar.

Asar tilida iste'molda bo'lgan tub turkiy so'zlarning tarixi ko'hna yozma manbalarga borib taqaladi. Zero, mazkur yodnomalar umumxalq tilining muhim xususiyatlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, xalqning qadimgi madaniyatini aks ettirgan. Ular orqali xalqimiz tarixi va tilimiz taraqqiyotiga oid ko'pgina qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz¹⁸.

Turli davrlarda jamiyat hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlar, eng avvalo, uning leksik qatlamida o'z aksini topadi. Buning natijasida tillardagi ayrim so'zlar eskirishi, iste'moldan chiqishi yoki yangisi bilan almashinishi mumkin. Til doimo harakatda, u doim o'zgarib turadi. Tilning barcha qatlamlari (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik) yillar davomida kengayib, takomillashib boradi. Jamiyat taraqqiyoti natijasida yangi tushunchalar tilga yangi lisoniy birliklar ko'rinishida qo'shilishi mumkin. Yoki yillar davomida foydalanilgan birliklar vaqt o'tib eskirishi, iste'moldan chiqishi mumkin. Bu tabiiy ko'rsatkich, tilga xos xususiyat sifatida baholanadi¹⁹. Binobarin, asar lug'at fondini qadimgi turkiy til va eski turkiy tilning dastlabki yodgorliklarida qayd etilgan leksik birliklar, hozirgi o'zbek adabiy tili hamda uning shevalari bilan qiyosiy o'rganish asardagi so'zlarning tarixiy taraqqiyotini, arxaik so'zlar hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga ko'maklashadi.

Eski o'zbek adabiy tilida qo'llanishda bo'lgan o'z qatlamga oid so'zlar- ning tilda mavjudligi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. U oltoy oilasida- gi tilda so'zlashuvchi xalqlar hali ajralib ketishga ulgurmay, tillari bitta ekan- ligida yuzaga kela boshlagan. Bu davrda ko'proq tasviriy-tanqidiy so'zlar, tub fe'llar shakllangan. Ayni so'zlar hozir ham ayrim fonetik farqlar bilan mo'g'ul va turkiy guruhga oid tillarda kuzatiladi. Keyinchalik obektiv va subektiv omillar ta'sirida umumturkiy leksika yuzaga keldi. Bu davrda turkiy tillar o'zaro farqlanmagan va bir til edi²⁰. Qadimgi turkiy tilning asosiy so'z boyligini,

¹⁵Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Т.: ФАН, 1985. –Б. 54.

¹⁶Ўзбек адабий тилининг тараққиёти. Уч жилдлик. –Т.: ФАН, 1991. –Б. 128.

¹⁷Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 24.

¹⁸Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. –Т.: Ўзбекистон, 1994. –Б. 115.

¹⁹Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи. Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) ...дисс. –Фарғона, 2021. –Б.55.

²⁰Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент, 2000. – Б. 48.

shubhasiz, shu tilga xos bo'lgan qatlam tashkil qiladi. Bu qatlam hozirgi qardosh turkiy tillarning barchasiga tegishli bo'lgani bilan xarakterlanadi²¹.

Adabiyotlar tahlili

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, XI-XIV asrlarda yaratilgan qo'lyoz- ma manbalardagi 700 ga yaqin ijtimoiy-siyosiy terminning 640 dan ortig'i Navoiy asarlarida uchraydi²². Navoiy asarlarida 1400 ga yaqin qadimgi va eski turkiy til so'zlari²³, "Boburnoma" da esa qadimgi turkiy til davrida keng iste'molda bo'lgan 1720 dan ortiq umaumturkiy leksemalar qo'llangan²⁴.

Tadqiqot metodologiyasi

Asar tilidagi turkiy so'zlarning muayyan qismini qadimgi, eski turkiy til manbalarida uchratishimiz mumkin. Jumladan, asarda **abušqa** leksemasi "keksa, chol" semasiga ega: *Yaman tillik bolsa, abušqa köñli andin yaraliğ* (MQ,33). Atama qadimgi turkiy va eski turkiy til obidalarida **awinčga** (DTS,70), **awičga** (DTS,69), **awučqa** (DTS,3), **awučga** fonetik shakllarida qayd etilgan: *Söküş boldi erkä awučga atı* – avuchqa erkaklar o'rtasidagi munosabatda haqorat so'zi bo'ldi (DTS,70). Shu bilan birga, obidada bu so'zning **qari** sinonimi qo'llanishda bo'lgan: *...besaādat qariniñ ilgidin xud heč iş kelmäs* (MQ,63).

"Rost, haqiqiy, to'g'ri" ma'nosi **čın** leksemasi yordamida berilgan: *Šāhğa dunyāda čın söz degüvči va anin āxirati ğamin yegüvči* (MQ,11). Ushbu so'z birinchi marta qadimgi turkiy til yodnomalarida ifodalangan (DTS,148). Mahmud Koshg'ariy lug'atida qayd etilgan semada kelgan: *Čın aydin* (MK,I,326). Manba so'z boyligida leksemaning turkiy **oñ**, forsiy **rāst** va arabcha **haq, haqiqiy** sinonimlari ham ko'zga tashlanadi: *Xatā rāyi oñ kelmäsä, daxlsizlarga širket, balki naqiz tutqanlarğa ziyāa tuhmat* (MQ,12); *Bāvujude ulki, on sözidin ittifaqe biri ham rāst kelmäs* (MQ,26); *Haq anin qašida bātil, xiradmand anin aqidāsida jāhil* (MQ,12); *Ma'ni ahli haqiqati maxfiy va surat ahlinin haqiqiy da'vi* (MQ,36).

Tahlillar va natijalar

Tekshirilayotgan manbada **avuč** so'zi "hovuch, siqim" ma'nosini ifodalagan: *Otdin isinurğaç avuč ač* (MQ,72). Leksema ilk bor "Oltun yorug'" yodnomasida adut shaklida qo'llanilgan: *Ayača aš bermiš adutča suv tutmiş...* - bir kaft hajmicha ovqat, bir hovuch miqdorida suv bermoq (DTS,14). Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida avuč: *Uqušsuz kiši avučča titik* - aqlsiz, nodon kishi bir hovuch axlatga o'xshaydi (DTS,70), avut (DTS,71), Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida avut (MK,I,111), adut: *Bir adut neñ* (MK,I,85) fonetik variantlari kuzatiladi. Alisher Navoiy asarlari, xususan, "Mahbub ul-qulub" da atamaning "chapak" ma'nosi ham aks etgan: *Biyik ün bilä avuč qağmaği har dam, xirad va üzarm qušlari tapmaq üçün ram* (MQ,25). Bundan ko'rinadiki, XV asrga kelib atamaning ma'nolari kengaygan. Bu ot qadimgi turkiy tilda "ikki qo'l shapalog'i bilan olmoq" ma'nosini anglatgan **abu-** fe'lidan **-č** qo'shimchasi bilan yasalgan. Keyinchalik bu so'z tarkibida quyidagi tovush

²¹Abdushukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2019. – B. 40.

²²Дадабоев Х. Алишер Навоий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминларнинг эски туркий обидалар лексикасига муносабати//Алишер Навоий туғилганининг 550 йиллигига бағишланган илмий конференция материаллари. –Тошкент, 1991. –Б. 68-70.

²³Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи (структур-грамматик, функционал-семантик аспектларда). – Филол. фан. номзод. дисс. – Тошкент, 2007.

²⁴Холманова З. "Бобурнома" – тил қомуси. –Тошкент: Akademnashr, 2021. –Б. 78.

o'zgarishlari voqe bo'lgan: ikki unli oraliq'idagi **b** undoshi **v** undoshiga almashgan: **abuč** > **avuč**. O'zbek tilida atamaning boshlanishiga **h** undoshi qo'shilgan: **avuč** > **havuč** (O'TEL,I,595).

"Och, qorni och" tushunchasini anglatgan **ač** so'zi dastlab Turfon matnlarida ifodalangan: *Yaliñ boğazi todmaz ač yoriyur* – uning och tomog'i to'yimas, doimo och yuradi (DTS,3). Bu atama eski turkiy tilning ilk yodnomalarida ham o'zining asl ma'nosini davom ettirgan: *Ač ne yemäs, toq ne temäs* (MK,1,108). Leksemaning keyingi davrda ham iste'molda bo'lganini "Mahbub ul-qulub" da ko'rish mumkin: *Ačlar ğizäsi bazl va atäsi xanidin, yalañğaçlar libäsi xizänai lutf va ehsänidin* (MQ,10).

Čerik so'zi yodnomada "qo'shin, lashkar" ma'nosini ifodalagan: *Čerik bolsa va bolmasa baxtiyār* (MQ,15). Mazkur atama dastlab Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida *čerig* shaklida qayd etilgan: *Yüräksiz kišilär čerig artatur* – yuraksiz (qo'rqqoq) kishilar qo'shinni zaiflashtiradi (DTS,144). "Devon" da *čärik* "urush safi", "har narsaning ro'parasi, vaqti" (o'g'uzcha) ma'nolarini anglatgan: *Alp čärikdä, bilgä tirikdä* – botir jang alangasida sinaladi, dono majlisda (MK,I,369). Ayni paytda, ushbu atama asarda ot yasovchi **-či/-či** affiksi hamda **qara** sifati bilan birikib yangi so'z yasagan: **čerikči** (askar): *...balki ani čerikči desä bolur* (MQ,27); **qara čerik** (yig'ma, muvaqqat qo'shin): *Yasağliq degän qara čerik, ya'juj va ma'juj xaylig'a šerik* (MQ,15). Ayrim manbalarda bu so'zning sanskrit tilidan o'zlashganligi qayd etiladi (DTS,144; O'TIL,IV,475). Biroq bu masalaga Mahmud Koshg'ariyning quyidagi fikrlari oydinlik kiritadi degan umiddamiz: *čär – ro'para(o'g'uzcha): Anin äwi bu čärlikdä* – uning uyi bu narsaning ro'parasidadir. *Ikki askar safiga ham čärik deydilar. Chunki ular ham bir-biriga ro'para turadilar* (MK,I,312-313)²⁵.

Turfon matnlari, qoraxoniylar davri obidalarida **egin** so'zi "yelka" ma'nosini bildirgan: *Köküz eginkä tegi* – ko'kragi va yelkasiga qadar; *Eginkä kedim-mä boğuzqa yemi keräk* – yelkaga kiyim, tomoq uchun ovqat kerak (DTS,166). Leksema tadqiqot ob'ekti qilib olingan manbada "yelka", "tana, badan, kishi gavdasi" semalarida qo'llanilgan: *Yana ridä ham anin egnidä maväliydek* (MQ,14); *Mavlänä hamul masjidğa kirgändä egnidägi xirqa va başidagı eski börk bilä erdi* (MQ,39). Professor Sh.Rahmatullaev atama qadimgi turkiy tildagi "yuqoridan pastga qayirmoq" ma'nosini anglatgan **eñ**- fe'lining **eg-** shaklidan **-(i)n** qo'shimchasi orqali yasalgan degan fikrni ilgari suradi (O'TEL,1,460).

Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, suvorin va qipchoqlar asalni **bal**, o'g'uz hamda turklar esa **ari yaği** deydilar:

Bardi señä yek otru tutub bal,

Barčın kezibän talu yuwğa bolup qal. Shayton seni uchratdi, senga asal tutib dunyo shirinligi – rohatini berdi. Mag'rur bo'lib ipakli kiyimlar kiyding. Agar uning aldovini tushunmaydigan bo'lsang, shunday qolib rohatlanaver (MK,III,171). Tekshirilayotgan obidada zikr etilgan ma'no **bal**, arabcha **šahd**, **asal** so'zlariga yuklangan: *Yafrağni ipäk qilur, čėčäk bargini bal* (MQ,77); *Xaläyiqqa bu šahdın alsun nišät* (MQ,11); *Zanbur ğavğäsidin niš mutasavvardur va asal savdasidin noš muyassar* (MQ,63). **Asal** o'zlashmasi "surkaldi, yopishdi" ma'nosini anglatuvchi **'asala** fe'lining I bob masdari bo'lib, asli "yopishqoq narsa" ma'nosini bildirgan; keyinchalik bu so'z "bol" ma'nosini ifodalay boshlagan (O'TEL,II,42).

²⁵ Абдушукуров Б. Туркий манбалар лексикаси. – Тошкент: BOOKMANY PRINT, 2022. – Б.112.



Xulosalar

Tahlil qilingan misollardan ma'lum bo'ladiki, asarda qo'llanilgan tub turkiy so'zlar geneologik jihatdan qadimgi va eski turkiy til manbalariga borib taqaladi. Zero, har qanday tilning tarixi shu tilda so'zlashuvchi xalqning ijtimoiy tarixini aks ettiradi. Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat bilan birga yashaydi va jamiyat bilan birga taraqqiy qiladi.

Shartli qisqartmalar

DTS – Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969. -676 с.

ESTYA – 1) Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. -М.:Наука, 1974. -767 с.

МК – Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. I-III. –Т.: Fan, 1960-1963.

MQ – Navoiy. Mahbub ul–qulub. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n to'rtinchi tom. – Toshkent: Fan. 1998.

O'TIL – O'zbek tilining izohli lug'ati. I-V. -Т.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006-2008.

Adabiyotlar

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –Т.: FAN, 1985. –B. 54.
2. O'zbek adabiy tilining taraqqiyoti. Uch jildlik. –Т.: FAN, 1991. –B. 128.
3. Egamova Sh. Alisher Navoiy asarlari tilidagi qadimgi turkiy leksika tadqiqi. Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2007. – B. 24.
4. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. –Т.: O'zbekiston, 1994. –B. 115.
5. Yusupova Sh. Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi. Filol.fan.bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ...diss. –Farg'ona, 2021. –B.55.
6. Mirtojiev M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. – Toshkent, 2000. – B. 48.
7. Abdushukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2019. – B. 40.
8. Dadaboev H, Alisher Navoiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlarning eski turkiy obidalar leksikasiga munosabati//Alisher Navoiy tug'ilganining 550 yilligiga bag'ishlangan ilmiy konferensiya materiallari. –Toshkent, 1991. –B. 68-70.
9. Alisher Navoiy asarlari tilidagi qadimgi turkiy leksika tadqiqi (struktur-grammatik, funksional-semantik aspektlarda). – Filol. fan. nomzod. diss. – Toshkent,2007.
10. Xolmanova Z. "Boburnoma" – til qomusi. –Toshkent: Akademnashr, 2021. –B. 78.
11. Abdushukurov B. Turkiy manbalar leksikasi. – Toshkent: BOOKMANY O'RINT, 2022. – B.112.



NEMIS TILSHUNOSLIGIDA FRAZELOGIYA SOHASINING RIVOJLANISH JARAYONI MASALASI

Shuxratxon Imyaminova – O'zMU professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada nemis tilshunosligida frazeologiya va uning taraqqiyotida o'z xissasini qo'shgan olimlarning fikrlari, frazeologiyaning tilda va nutqda muhim element ekanligi hamda uning tilda so'z boyligini ortishida asosiy yo'llardan biri ekanligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, frazeologizm, leksikologiya, nemis tilshunosligi, nominatsiya, nazariya, turg'un so'z birikma, ko'chma ma'no.

К ВОПРОСУ О ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ ОБЛАСТИ ФРАЗЕОЛОГИИ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Шухратхон Имяминова - профессор НУУз

Аннотация: В данной статье рассматривается фразеология в немецком языкознании и мнения ученых, внесших свой вклад в ее развитие, о том, что фразеология является важным элементом языка и речи и является одним из основных способов увеличения словарного запаса в языке.

Ключевые слова: Фразеология, фразеологизм, лексикология, немецкое языкознание, номинализация, теория, устойчивые словосочетания, переносное значение.

THE QUESTION OF THE DEVELOPMENT PROCESS OF THE FIELD OF PHRASEOLOGY IN GERMAN LINGUISTICS

Shuxratxon Imyaminova - professor of NUUz

Abstract: This article discusses phraseology in German linguistics and the opinions of scientists who contributed to its development, that phraseology is an important element in language and speech, and that it is one of the main ways to increase vocabulary in the language.

Key words: Phraseology, phraseologism, lexicology, German linguistics, nominalization, theory, fixed phrase, figurative meaning.

Kirish

Frazeologiya leksikologiyaning kichik bir bo'limi va mustaqil fan sifatida ayniqsa nemis tilshunosligida 1970-yillarning boshidan beri mavjud bo'lib, unga hamon qiziqish ortib bormoqda (H. Burger, V. Fleysher, T. SHippan, B. Votyak, Ch.Palm, I. CHernisheva, D. Dobrovolskiy). Frazeologiya fani tilshunoslikda yoki tilda turg'un so'z birikmalarini tizimda va gapda alohida so'zlarning (leksemalarning) vazifasi va ma'nosini bajaradi. Tilshunoslik nazariyasi doirasida zamonaviy frazeologiya tadqiqotlarining quyidagi jihatlarini qayd etish lozim: 1) Nomlash aspekti, ya'ni turg'un so'z birikmalari orqali tashqi til voqeligining qaysi bo'laklari ma'lum bo'ladi, shuningdek, ularning yasalish mexanizmlari, modellashtirish muammolarini o'rganish. 2) Semantik yaxlitlikni qiyoslash. 3) Matndagi frazeologik iboralarning kommunikativ va pragmatik jihatlarini tahlil qilish. 4) Frazeologizmlardagi idiomatizatsiya va metaforizatsiya jarayonlarini keng tadqiq qilish.

Frazeologiyada «barqaror soʻzlar» termini bilan bir qatorda “frazologik ibora” ham sinonim sifatida qoʻllaniladi. SHuningdek, frazeologizm, koʻpgina tasniflarda turgʻun soʻz birikmalarining torroq maʼnoda frazeologiya predmetini batafsilroq belgilaydi. CHunki turgʻun soʻz birikmalari birlamchi belgilar asosida tuzilgan ammo ikkilamchi lisoniy belgilardir. Tarkibiy jihatdan ular sintaksisning mahsuldor modellari boʻyicha tuzilgan soʻzlar guruhidir. Masalan, **jmdm. den Kopf waschen soʻz birikmasi erkin soʻz birikmasi sifatida “boshni yuvmoq” degan muayyan vaziyatni ifoda etadi. Bu holatda individual leksemalar birlamchi belgi sifatida namoyon boʻladi. Jmdm. den Kopf waschen turgʻun soʻz birikmasi „jmdn scharf zurecht weisen“ “birovni keskin tanqid qilmoq” maʼnosini anglatadi. Barcha leksemalar bu soʻz birikmasida ikkilamchi lingvistik belgi sifatida namoyon boʻladi va koʻchma maʼnoga egadir.**

In den sauren Apfel beißen erkin soʻz birikma sifatida bu iborani “nordon olmani tishlamoq” degan aniq maʼnoni bildiradi. Biroq *In den sauren Apfel beißen* iborasi „gezwungen sein, etw. Unangenehmes zu tun, yaʼni “yoqimsiz nimadir qilishga majbur qilmoq” degan maʼnoni anglatadi. Bu erda ham ushbu frazeologizm koʻchma maʼnoga ega. Bu soʻz birikmasi oʻz maʼnosida qoʻllanilyaptimi yoki koʻchma maʼnoga ega ekanligini biz faqatgina matnda va kontekstda aniqlay olamiz. Demak, bu borada leksemaning bevosita va koʻchma maʼno mazmuniga mos keladigan soʻz birikmasining erkin va koʻchma maʼnosi haqida soʻz boradi.

Adabiyotlar tahlili

Baʼzi soʻz birikmalari matnda faqat bitta, ammo boshqalari ikkita maʼnoni anglatadi. Shu nuqtai nazardan, X.Burger frazeologizmning oʻrganish usullari haqida soʻz yuritadi²⁶. Misol uchun, faqat bitta oʻrganish va oʻqish turida quyidagi iboralarga oʻxshash frazeologizmlar mavjud: a) *Dank sagen, das Rote Kreuz* - frazeologizmida komponentlar ularning soʻzma-soʻz maʼnosini saqlab qoladi va hech qanday semantik oʻzgarishlarga duch kelmaydi, barcha ibora ikkala misolda faqat erkin maʼnoga egadir; b) *gang und gäbe* - **bu iboraning leksik komponentlari erkin maʼnoga ega emas, yaʼni bu frazemadan tashqari holatda ishlatilmaydi, shuning uchun butun ibora frazeologik maʼnoga ega; s) sich mausig machen (sich frech und vorlaut äußern, benehmen)- dastlabki mavjud boʻlgan toʻgʻridan-toʻgʻri maʼno (mausig hieß „keck“, „frech“) yoʻqolgan, shuning uchun bugungi kunda bu ibora matnda faqat bitta maʼnoni, yaʼni frazeologik maʼnoni anglatishi mumkin.**

Frazeologizmlarni ikki xil oʻrganish va idrok qilish quyidagi soʻz birikmalariga oʻxshash frazeologizmlarni oʻz ichiga oladi: a) *jmdm einen Korb geben* - soʻz birikmasi ham erkin, ham frazeologik maʼnoni anglatishi mumkin, ammo ular bir-biriga bogʻliq emas, yaʼni omonimdir va ularni qanday maʼnoda kelishini faqat kontekstda amalga oshirish uchun turli situatsiyalarni talab qiladi; b) *der Apfel fällt nicht weit vom Stamm* - erkin va frazeologik maʼnolar oʻrtasida metaforik bogʻlanish mavjud. Bu maqolning erkin maʼnosi alohida, aniq vaziyatga nisbatan amalga oshirilishi ham, frazeologik maʼnoning aktuallashuvi bilan birga amalga oshishi mumkin; c) *die Achseln zucken* - bu frazeologizmida ikki xil maʼno bir vaqtda amalga oshishi mumkin.

Soʻz guruhlari tushunchasi ostida takrorlanadigan sintagmalarni, maxsus semantikaga ega boʻlgan soʻz birikmalarini, predikativ birikmalar va gaplarni tushunish mumkin. Ularning tillarda paydo boʻlishi va mavjudligi inson bilimining cheksizligi, ijtimoiy amaliyot va

²⁶ Burger Harald. Phraseologie: eine Einführung am Beispiel des Deutschen - Berlin, 1998, S. 62

cheklangan sonlar o'rtasidagi ziddiyatning natijasidir. SHunday qilib, frazeologizmlar tillarda so'z boyligini oshirish, voqelik hodisalari va ob'ektlarini nomlash vositasidir.

Erkin so'z birikmalaridan farqli o'laroq, turg'un so'z birikmalari quyidagi xususiyatlarga ega: 1) Polileksiklik – turg'un so'z birikmalari bir nechta so'zlardan iborat. Istisno tarzda nemis tilida frazeologizmlar bitta so'zdan ham iborat bo'lishi mumkin. Bunda frazeologizmlar qo'shma so'zdan iborat bo'lishi kerak. 2) Barqarorlik – barqaror so'z birikmasini aynan o'sha so'zlarning kombinatsiyasidan bilamiz. Harald Burgerning fikriga ko'ra, bu ikki xususiyatni ko'rsatadigan turg'un so'z birikmalari frazeologiya sohasini tashkil qiladi.

Barqarorlik deganda quyidagilar asosiy mezon xisoblanadi: a) leksik-semantik turg'unlik, ya'ni frazeologizm tarkibidiga hech qanday leksema almashtirilmaydi: *bei jmdm. einen Stein im Brett haben* (yaxshi ahvolda bo'lmoq). Masalan, *bei jmdm. einen Kiesel im Schrank haben*. frazeologizmga hech bir so'zni sinonim bilan almashtirish mumkin emas.

3) Frazeologizmlarning semantik birligi – frazeologizmlar (bu turg'un so'z birikmalarining tor guruhini bildiradi) yuqori darajadagi idiomatizatsiyaga ega (bu frazeologizm komponentlarini semantik o'zgartirish yoki qayta talqin qilishni anglatadi). Frazeologizmning ma'nosi uning tarkibiy qismlarining ma'nosidan keskin farq qiladi, uning barcha yoki ba'zi tarkibiy qismlarining semantik o'zgarishi natijasidir. Masalan: *etwas schwarz sehen* („pessimistisch sein“ - pessimist bo'lmoq). Frazeologizmning ma'nosi *schwarz* va *sehen* ma'nolariga ajratib bo'lmaydi, chunki bu frazeologizm sifatida komponentlari o'zgarmasdir. Xuddi shu ma'nodagi quyidagi misollarda ham shu xodisaga guvoh bo'lishimiz mumkin. Masalan, *an jmdm. einen Narren gefressen haben* („jmdn. sehr gern haben, sich in jmdn vernarrt haben“), *jmdm einen Korb geben*, („jmds. Heiratsantrag ablehnen; jmdn abweisen“ – nikoh taklifini rad qilish, kimnidir rad etish).

Idiomatizatsiya darajasiga ko'ra – idiomatiklik, ya'ni qayta talqin qilingan frazeologizmning barcha tarkibiy qismlari farqlanadi. Masalan, *ins Gras beißen* (o'lmoq), *das ist (hamma narsa) kalter Kaffee* (*das ist längst bekannt, uninteressant* - bu uzoq vaqtdan beri ma'lum, qiziq emas);

- qisman idiomatik (qisman idiomalar) - ba'zi komponentlar o'zining lug'aviy ma'nosini saqlab qoladi. *Blinder Passagier* so'zma-so'z ma'nosi: chiptasiz yo'lovchi (ruxsatsiz, yashirincha sayohat qiluvchi yo'lovchi), *sich in Fäustchen lachen* (yashirin yomon quvonchni his qilish, yashirincha kulish);

- nodiomatik iboralar - ular tarkibiy komponentlarining semantik transformatsiyasi orqali xarakterlanmaydi. Masalan, *das Rote Kreuz, der Nahe Osten*.

4) Bunday xususiyatlar asosida erkin so'z birikmalari va gaplarning takrorlanishidan farqli ravishda o'zgarmas so'z birikmalarining takrorlanishi haqida gapiriladi.

5) Motivsiz frazeologizmlar, bunda nomlash motivini odatda faqat tarixiy bilimlarga asoslanish kerak. Masalan, *den Rubekon überschreiten* (qat'iy choralar ko'ring). Bu frazeologizm Sezar davriga borib taqaladi. Sezar Rubikon daryosidan o'tib, Senat va Respublikaga qarshi urush boshlagan. SHu munosabat bilan *ins Gras beißen* iborasini eslatib o'tish mumkinki, unda yaradorlar o'zlarini himoya qilish uchun, azob va og'riqlardan holi bo'lishi uchun erdagi o'tlarni tishlaganlar. Lekin bu frazeologizm “o'lmoq” degan ma'noni bergan.

Nemis tilida aksariyat idiomalar motivsizdir. Agarda frazeologizmning nomlash motivini aniqlash qanchalik qiyin bo'lsa, idiomatizatsiya darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. SHu ma'noda, “motivlanganlik” semantik “idiomatiklik”ga qarama-qarshidir, yoki aksincha,

frazeologizm motivligi qanchalik kuchli bo'lsa, uning idiomatikligi shunchalik zaif bo'ladi. Motivlangan deganda frazeologizm ma'nosi iboraning erkin ma'nosidan yoki ma'nolaridan kelib chiqishi tushuniladi. Masalan, *das fünfte Rad am Wagen, Öl ins Feuer gießen, ein unbeschriebenes Blatt*.

Shunday qilib nemis tilda frazeologiya sohasida tadqiqotlar olib borgan olimlarning xar biri bu sohaga oid terminlar yaratishdi. SHuning uchun frazeologiya sohasidagi terminlarda tartibsizliklar ro'y berdi. SHu kungacha nemis tili frazeologiya sohasida ellikdan ortiq birgina frazeologizm ma'nosini beruvchi terminlar xosil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi

Bundan tashari xar bir nemis olimlari frazeologiyada o'zlarining klassifikatsiyalarini taqdim eta boshladilar. Masalan birgina T.SHippaning leksik-sintaktik klassifikatsiyasiga e'tibor qaratsak, u o'z klassifikatsiyasida quyidagilarni farqladi: 1. Frazeologik birliklar. Bu erkin birikmaning qayta talqini, ibora ham bo'lishi mumkin. *Jmdm einen Korb geben (uylanish yoki turmushgu chiqishda rad javobini olmoq); ein Kukuk sei ins Nest legen (kimdir uchun yoqimsiz narsalarni qilmoq)*. 2. Barqaror birikmalar. Bu turg'un so'z birikmalari bo'lib, unda bir (yoki ba'zi) komponent ko'chma ma'noga ega bo'lsa, ikkinchisi to'g'ridan-to'g'ri ma'noga ega bo'ladi. T. SHippan ularni yana quyidagilarga ajratadi.

a) bararor fe'lli/verbal birikmalar: Antwort geben, in Aufregung geraten; b) mustahkam otli/nominal birikmalar: schwarzer Tee, sauberer Charakter.

I.CHerneshevaning struktur-semantik klassifikatsiyasi T.SHippaning klassifikatsiyasidan farqli ravishda uning klassifikatsiyasi quyidagi mezonlarga asoslanadi: 1) grammatik (sintaktik) tuzilish: a) qo'shma so'zlar yoki so'z turkumlariga asoslangan frazeologizmlar. b) predikativ bog'langan gaplar. 2) tarkibiy qismlarning bir biriga bog'lanish turiga ko'ra: a) so'z birikmalari. c) modellashtirilgan so'z birikmalari. 3) Tarkibiy qismlarning semantik o'zgarishi natijasiga ko'ra ma'nosi: a) ma'nosi barcha tarkibiy qismlarning semantik o'zgarishi natijasi bo'lgan turg'un so'z birikmalari; b) ma'nosi ba'zi tarkibiy qismlarning qayta talqin qilinishi natijasi bo'lgan turg'un so'z birikmalari; v) ma'nosi aktual natija bo'lgan turg'un so'z birikmalari tarkibiy qismlarning ma'nosi.

Ushbu mezonlarga asoslanib, I.CHernisheva barqaror so'z birikmalarining to'rtta guruhga ajratadi: I. Frazeologizmlar. II. Frazeologik birikmalar. III. Modelli shakllar. IV. Leksik birliklar.

Birinchi guruh frazeologik tipdagi turg'un so'z birikmalaridan iborat. Frazeologizmlar - turli sintaktik so'z birikmalari komponentlarning yakka-yakka bog'lanishi va komponentlarning to'liq yoki qisman semantik o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan tuzilishga ega. Ular quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular ob'ektiv voqelikni belgilash uchun emas, balki konnotativ ravishda ifodalash uchun xizmat qiladi. Ushbu nomlashda ob'ekt boshqa denotatning xususiyatlari bilan tavsiflanadi: *stumm wie ein Fisch, ein weißer Rabe*.

Frazeologizmlarga quyidagi guruhlar kiradi: a) frazeologik birliklar; b) barqaror jumlar; v) frazeologik birikmalar.

Frazeologik birliklar iboraning grammatik tuzilishiga ega. Ma'no barcha tarkibiy qismlarning semantik qayta talqin qilinishi tufayli yuzaga keladi. Masalan, *etw. an den Nagel hängen (die Hoffnung aufgeben)*.

Tahlillar va natijalar

Frazeologik birliklar frazeologizmlarning eng muhim guruhidir. Nutq birliklari bilan o'zaro bog'liqligiga qarab, quyidagilar ajratiladi:

- **verbal frazeologik birliklar:** *den Mund halten* (schweigen), *jmdm. den Kopf waschen* (jmdn scharf zurechtweisen);
- **substantiv frazeologik birliklar:** *das schwarze Gold* (Erdöl), *ein unbeschriebenes Blatt* (ein unerfahrener Mensch);
- **adverbial frazeologik birliklar:** unter vier Augen (**allein mit jmdm., zu zweit**), um ein Haar (**fast**).

Verbal frazeologik birliklar fe'l bilan o'zaro bog'lanib, fe'lning shartli yoki jarayonli so'z sifatidagi xususiyatlariga ko'ra, jarayonlarning borishidagi o'xshashlik, jarayonlarning intensivligi tufayli metaforaning ko'chishi sodir bo'ladi.

Ba'zi verbal frazeologik birliklar jarayondan oldingi qo'shimcha xususiyatlarni oladi. Demak, frazeologizm *jmdm auf den Busch klopfen*, nafaqat „*etwas zu erkunden suchen*“, „*biror narsani o'rganishga intilish*“, balki „*savollar bilan sinchiklab o'rganishga intilish*“ degan ma'noni bildiradi. *Sich bei jmdm. lieb Kind machen* „*yaxshi obro' qozonmoq va shu orqali afzalliklarga ega bo'lmoq, xushomad qilmoq*“ ma'nolarini bildiradi. Verbal frazeologik birliklar orasida quyidagilar mavjud:

a) tarkibiy qismlarning analogik buzilishi deb ataladigan frazeologik birliklar: *Hals über Kopf tun* (o'yalmasdan ish qilish), *die Beine unter die Arme nehmen* (tez qochib ketish, shoshilish, oyog'ini qo'lga olmoq), *den Kopf unter dem Arm tragen* (qattiq kasal bo'lish). SHunga qaramay, ularning motivatsiyasi ona tilida so'zlashuvchi uchun to'liq shaffof bo'lib, uni asosiy leksemalar (bosh, oyoq va boshqalar) orqali tushunish mumkin.

b) frazeologizmlar tarixiy voqealar asosida sodir bo'lgan til birliklari, masalan, *nach Kanossa gehen* (kamtarin, kechirim so'rash), *den Rubikon überschreiten* (qaytarib bo'lmaydigan hal qiluvchi qadamni tashlang).

s) frazeologizmlar anchadan beri yo'qolib ketgan eski odatlar asosida tashkil topgan verbal frazeologik birliklar, masalan, *jmdm. einen Korb geben, sich einen Korb holen* (turmush taklif qilganni rad etmoq, kimnidir rad etmoq), *bei jmdm. auf dem Kerbholz stehen* (birovdan qarzi bor bo'lmoq).

Bunday frazeologizmlarning ichki shaklining ma'nosi tushunarsiz bo'lib, komponentlarning ma'nosi frazeologizmda qo'llanilayotgan komponentlarga aloqasi yo'qligi bilan xarakterlanadi.

Verbal frazeologizmlar gapda xuddi fe'l kabi gapning turli qismlari vazifasida kelishi mumkin: **predikat sifatida**, masalan. *In dieser Gesellschaft spielte er die erste Geige*; **ega sifatida**, masalan: *Die erste Geige in dieser Gesellschaft zu spielen, war ihm leicht*; **atribut sifatida**, masalan: *Sein Wunsch, die erste Geige zu spielen, erfüllte sich*.

KopONENTI turli tipdagi otli frazeologik birliklar: *ein schwerer Junge* (jinoyatchi), *die weißen Mäuse* (yo'l harakati politsiyasi).

Juft so'zlar ikkilik so'z birikmalari bo'lib nemis tilida juda mahsuldor. YAxlit ma'no belgilashning metaforik yoki metonimik ko'chishi yoki ikkita tarkibiy qismning semantik birlashishi orqali yuzaga keladi. Juft so'zlarning komponentlar o'xshashlik, sinonimlik nisbatida bo'lishi mumkin. Masalan, *Feuer und Flamme* (*sofort für etw. begeistert sein*), *mit Haut und Haar* (*ganz, völlig*), *Grund und Boden* (*Grundbesitz*), *Haus und Hof* (*jmds. gesamter Besitz*).

Yoki juft so'zlar antonim sifatida ham bo'lishi mumkin. Masalan, *arm und reich*; *alt und jung* (*alle*).

Yaxlit ma'no nutqning bir xil qismlarining tautologik bog'lanishi tufayli ham paydo bo'lishi mumkin. Masalan, *Schritt für Schritt*; *Stunde für Stunde* (*allmählich*).

Qiyosiy frazeologik birliklar xarakterlovchi va kuchaytiruvchi ma'noga ega. Ular yuqori yoki past darajani mavjudligi, harakat intensivligi va baholashni bildiradi. Masalan, *ein Gedächtnis haben wie ein Sieb (ein sehr schlechtes Gedächtnis haben), häßlich wie die Nacht (sehr häßlich), schimpfen wie ein Rohrspatz (laut und heftig schimpfen), schlafen wie ein Sack (sehr tief schlafen)*.

Qiyoslashda ba'zi tillarda komponentlarning ma'nolari bir – biriga to'g'ri kelmasligi mumkin. Bunda tillardagi milliy o'ziga xosliklar muhim xisoblanadi. Turli tillarda bu qiyoslashlar mos kelmaydi. Masalan nemis va rus tillaridagi frazeologizmlarning qiyoslashda mos kelmaslik xollari:

Nemis tilida

Gesund wie ein Fisch im Wasser

Dumm wie ein Ochse

Mager wie eine Spinne

Rus tilida

Zdorov, kak бык

Glup, kak osyol

Xudoy, kak spichka

XULOSALAR.

Xulosa o'rnida shularni ta'kidlash mumkin, ya'ni frazeologizmlar – xalq asr-asrlar mobaynida til vositasida yaratgan timsoliy (obrazli) ifoda va tasvir vositalaridir. SHuning uchun ham tilni va badiiy adabiyotni frazeologizmlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Xalq yaratgan frazeologizmlarni, shartli ravishda, *“quloqqa yoqqan gaplar”* deb hisoblash mumkin. Chunki quloqqa yoqmaganida xalq ularni asr-asrlar asrab-avaylab, tildan tilga, dildan dilga o'tkazib kelmagan bo'lar edi.

Tilshunoslikda olimlar frazeologizmlarni, kelib chiqishiga ko'ra, ikkiga – og'zaki va yozma adabiyot namunalariga bo'lishadi. Mullojon Fozilov yozma adabiyot namunalari bo'lmish frazeologizmlarga badiiy, ilmiy, siyosiy asarlar hamda matbuotda paydo bo'lgan idiomalar, ibora, matal va maqollarni (hikmatli so'zlarni) qo'shadi²⁷. Bundan anglashiladiki, tilda, adabiyotda va og'zaki nutqda frazeologizmlardan unumli foydalaniladi va yangi-yangi frazeologizmlar yuzaga kelishi ham mumkin.

Albatta, frazeologizmlarni, asosan, xalq yaratadi. YOzma adabiyot namunalarida shoir, yozuvchi, dramaturglar ham xuddi xalq frazeologizmlariga o'xshab ketadigan yangi-yangi, tesha tegmagan ifodalar ishlatadi. Ular shu ijodkorning topilmasi. Ammo ko'p ishlatilaversa, ana shu yozma adabiyot mahsuli bo'lgan ifodalar ham xuddi frazeologizm kabi xalq o'rtasida ommalashadi va iste'molga ko'chadi. Keyinchalik, hatto, uni kim yaratganining ham unchalik ahamiyati bo'lmay qoladi. Tilshunoslar, adabiyotshunoslar va tarjimonlar ifoda izlayotganda ana shu mashhur “qolip”lardan osongina foydalanib ketaveradi.

Adabiyotlar

1. Burger Harald. *Phraseologie: eine Einführung am Beispiel des Deutschen*. Berlin: Erich Schmidt, 1997.
2. Fozilov M. Farhangi zarbulmasal, maqol va aforizmhoi toikiyu fors. Dushanbe, “Irfon” nashriyoti, 1975
3. Burger H., Buhofer, A., Sialm, A. *Handbuch der Phraseologie*. Berlin: de Gruyter, 1982.

²⁷Фозилов М. Фарханги зарбулмасал, мақол ва афоризмҳои тоикию форс. Душанбе, “Ирфон” нашриёти, 1975, 3 б.



4. Dobrovolskij Dmitrij. Kognitive Aspekte der Idiom-Semantik, Studien zum Thesaurus deutscher Idiome. Tübingen 1995.
5. Duden: Duden. Redewendungen und sprichwörtliche Redensarten (Wörterbuch der deutschen Idiomatik). Bd. 11. Mannheim, 1992.
6. Fleischer Wolfgang. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Leipzig: VEB Verlag Enzyklopadie, 1982.
7. Fleischer Wolfgang. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. 2. durchgesehene und ergänzte Auflage. Tübingen: Niemeyer 1997.
8. Fleischer Wolfgang., Michel Georg., Starke Günter. Stilistik der deutschen Sprache. Frankfurt/M., Berlin, 1993.
9. Palm Christine. Phraseologie. Eine Einführung. Tübingen, 1997.
10. Ulbricht A. Idiomatiche Wendungen im Fremdsprachenunterricht Deutsch. In: DaF 26, 1989, 98.
11. Wotjak Barbara., Richter Manfred. Sage und schreibe. Deutsche Phraseologismen in Theorie und Praxis. Leipzig 1993

FRANSUZ TILIDA KOMIZMNING PSIXOLOGIK MEXANIZMI

D.M.Shoxobutdinova

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti
"O'zbek va xorijiy tillar" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada komizm hodisasining psixologik mexanizmini o'rganish maqsadida bir qancha olimlarning turli xil qarashlari, fikr-muloxazalarini o'rganish mumkin. Har bir faylasuf komizmning psixologik talqinini turli misollar yordamida yoritib bergan.

Kalit so'zlar. Komizm, psixologiya, faylasuf, mexanizm, ko'chma ma'no, inversiya, interferensiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ КОМИЗМА ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ

Шохобутдинова Д.М.,

старший преподаватель кафедры «Узбекский и иностранные языки» Ташкентского института текстильной и легкой промышленности

Аннотация. В данной статье с целью изучения психологического механизма комического феномена возможно изучение различных взглядов и мнений ряда ученых. Каждый философ объяснял психологическую интерпретацию комедии с помощью различных примеров.

Ключевые слова. Комедия, психология, философ, механизм, метафора, инверсия, интерференция.

THE PSYCHOLOGICAL MECHANISM OF COMISM IN THE FRENCH LANGUAGE

D.M. Shokhobutdinova,

senior teacher of the Department of "Uzbek and Foreign Languages" of the Tashkent Textile and Light Industry Institute

Annotation. In this article, in order to study the psychological mechanism of the comic phenomenon, it is possible to study the various views and opinions of a number of scientists. Each philosopher explained the psychological interpretation of comedy with various examples.

Keywords. Comedy, psychology, philosopher, mechanism, metaphor, inversion, interference.

Kirish

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida komizmning estetik kategoriyasi muammolariga, yumorning milliy o'ziga xos xususiyatlariga hamda uning til sohiblari tomonidan idrok qilinishiga doimiy ilmiy qiziqishi, shuningdek badiiy matnda komizm hodisasini ancha chuqur va har tomonlama o'rganishning zaruriyati bilan bog'liqligi masalasi, shuningdek matndagi frazeologik birliklarning konseptual mazmunini va matn hosil qilish rolini aniqlashning tizimli tahlilini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Komizm muammosi azaldan faylasuflar, mantiqshunoslar, ruhshunoslar, fiziologlar, tilshunoslar va adabiyotshunoslarning diqqatini o'ziga jalb qilgan va hozirgi kunda juda ko'p qiziqarli tadqiqotlar qilingan.

Komizm muammosi bilan shuningdek psixologlar va vrachlar ham qiziqqanlar. Kulgililikni o'rganishga klinik yondashuvning asoschisi avstriyalik psixonevrolog Z. Freyd hisoblanadi. Uning tadqiqotlari komizm muammosini to'la qamrab olmaydi, faqat uning bir qismi hisoblangan zukkolikni qamrab oladi. Z.Freyd "beziyon zukkolikni" va "ataylab, jo'rttaga qilingan zukkolikni" farqlaydi. O'z navbatida bu ikki zukkolik "so'z zukkoligiga" va "fikr zukkoligiga" bo'linadi. Z.Freyd tomonidan zukkolikning bu ikki turining ajratib ko'rsatilishi e'tiborga molikdir.

Adabiyotlar taxlili

Z.Freyd zukkolikni ruhiyat nuqtai nazaridan baholaydi. Uning "Strax" va "Po tu storonu principa udovolstviya", kitoblarida aytilgan fikrlardan shu narsa ma'lumki, Freyd uchun "shahvoniy intilish" atamasi ostida tuyg'ularning qandaydir, albatta o'z ichiga shahvoniy maylni ham oluvchi kompleksi tushuniladi, ammo shahvoniy maylni u keng deb o'ylaydi. [1; 57 b.]. Bu ham yaratishga, ham hayotni davom ettirishga intilishdir, ham bizning ruhiyatimizda oldindan bo'lgan vayron qiluvchi tug'ma his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga qarshi turuvchi ruhni ko'taradigan intilishlarning yig'indisidir, ham bizning biologik mexanizmimizda tug'ilishdan mavjud bo'lgan o'linga intilishdir.

Z.Freyd o'z xulosalarini asoslayotgan materialning boyligi, tahlilning nozik aniqligi va bu olimning ajoyib kuzatuvchanligi uning "Ostroumie i ego otnoshenie k bezsoznatelnomu" asarini komizm hodisasini o'rganishda qimmatli hissa deb hisoblashga imkon beradi.

Psixologik nuqtai nazardan psixolog olim Tomas Gobbs va mashhur fransuz adibi Stendalning komizm muammosiga sub'ektivistik nazariyasi diqqatga sazovordir. **Tomas Gobbs** komizm nazariyasini yaratadi. [2; 483-484 b.]. Uning fikriga ko'ra, kulgililik tuyg'usi to'satdan paydo bo'ladigan ustunlik va qoniqish tuyg'usidan kelib chiqadi, bu o'zini noloyiq tutgan kishi oldida o'zining afzalliklarini to'satdan tushunib etishdan paydo bo'ladi.

Komizmni asosan ob'ekt nuqtai nazaridan **xarakterlayotgan Aristoteldan farqli ravishda**, Gobbs kulgililikni sub'ektning kechinmalari nuqtai nazaridan tahlil qiladi, bu bilan XIX va XX asrlarda ommabop bo'lgan komizmning psixologik nazariyalariga asos soladi.

T.Gobbs komizmni tasodifiylik muhim rol o'ynaydi, degan fikrni birinchi bo'lib bayon qildi. U, biz komik ob'ektga nisbatan o'z ustunligimizni kutilmaganda va birdan tushunib

qolamiz, buning oqibatida kulgida ifodalanadigan kutilmagan quvonch va qoniqish paydo bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

So'zning eng keng ma'nosida tushiniladigan komik sub'ektning ob'ekt ustidan ustunlik tuyg'usi, haqiqatan ham ayrim komik hodisalarga hamroh bo'ladi. Bu **konsepsiya** sub'ekt uchun komiklikni bilishning yoqimli xarakterini qisman izohlaydi.

B. Zavadskiy o'zining «O komicheskoye. Psixologicheskoye issledovanie» nomli ishida "kulgililik" va "komizm" tushunchalarining boshqacha tabaqalanishini taklif qiladi [3; 211 b.]. Uning nuqtai nazariga ko'ra, kulgililik komizmni keltirib chiqaruvchi **ob'ektlarning xususiyatidir**; komizm psixologik aktdir.

Ma'lumki, idrok reflektiv (refleks tufayli ro'y beradigan) akt. Tashqi ta'sir qiluvchi miya to'qimasida o'ziga tegishli hujayralarning faoliyatini qo'zg'aydi, mana shu hujayralar ta'sir qiluvchi hodisaning modelini namoyon qiladi. Model o'z navbatida organizmning javob reaksiyasini ta'minlaydi. U boshqa modellar bilan bog'langan bo'lib, ular bilan birgalikda ideografik bog'langan birliklarning zanjirini hosil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Har bir model o'zining funksional maydoniga ega, bu maydonning har bir boshlang'ich katagi ilgari ushbu individumda uchragan markaziy modelning funksional aloqalarini boshqa, ideografik yoki funksional jihatdan unga yaqin bo'lgan aloqalarini potensial mumkin bo'lgan amalga oshirishni namoyon qiladi.

Estetik idrokning har bir ko'rinishida funksional-mantiqiy maydonda tashqi ta'sir qiluvchi faqat "o'zining" modelini emas, balki dastlab hukmron bo'lgan tuyg'uning (fikrning) tabiiy evolyusiyasi natijasini, ya'ni model – maqsad yoki model – natijani bildiradi. Komik idrokda xilma-xil funksional-mantiqiy maydonlarning modellari qo'zg'alishga duchor qilinadi. Kulminatsion nuqtada ikkita nomuvofiq fikrlar to'qnashadilar. Biz boshqalardan oldinroq boshqa natijani sezib qoldik, shuning uchun ikkinchi element har doim kutilmagan, xuddi qisqa tutashuvga o'xshash narsa sodir bo'ladi, bu paytda bizning e'tiborimiz oddiy ta'sir qiluvchilar qatoridagi g'ayrioddiy jihatga to'planadi. Kutilmaganlikning samarasiga erishish uchun biz ongli ravishda insonga, predmetga yoki hodisaga unda yo'q bo'lgan yoki unda minimal rivojlangan xususiyatlarni qo'shib yozib, noob'ektivlikka boramiz va bunday holda biz mubolag'alashtiramiz, ta'kidlaymiz va situativ qarama-qarshiliklarni yaratamiz va h.k.

Eski, ikkita bir-biriga nomuvofiq elementlarni qarama-qarshi qo'yish bilan buzilgan yangi mantiqiy zanjirni birlashtirish uchun affekt holati zarur. Affekt bu intellektual faoliyatning avariya tartibi. Quyidagilarni amalga oshirish uchun ruhiy energiya haqiqiy portlashi kerak:

- tabiiy kutilgan natijadan iborat bo'lgan asablarning tashqi ta'sirdan qo'zg'alishning oldini olish,
- boshlang'ich fikrni vayron qiluvchi modelni topish va o'zi haqida xabar berishga majbur qilish, uni ushbu fikrning yagona natijasi sifatida tasdiqlash,
- qolgan boshqa kontrastlardan ehtiyot bo'lish.

Affektda ozod bo'lgan energiyaning bir qismi mana shu maqsadlarga sarflanadi, qolgan qismi organizmdagi ayrim vazifalarning buzilishi orqali to'xtatiladi (sekinlashtiriladi): nafas olish tartibining buzilishi (kulgi), ko'z yoshlarining paydo bo'lishi va qattiq kulganda tananing g'ayrioddiy harakatlari [4; 3 b.], markaziy nerv tizimini ta'minlovchi qon tomirlarining torayishi [5; 35 b.].

Hazil takrorlanganda shartli refleksning "so'qmog'i" hosil bo'lishni boshlaydi [6; 25 b.], affekt holati yo'q, elementlardan bittasini inkor qilish kutilayapti, chunki bunday aloqaning amalga

o'shish o'xshashligi bo'ldi. SHuning uchun haddan tashqari muvaffaqiyatli hazilni takrorlaganda u shunday kulgili tuyilmaydi [7; 48-54 b.].

Natijalar va tahlillar

Komizmni o'rganishga G.Spenser barakali hissa qo'shdi, u uchun kulgi – turli nomuvofiqlarning natijasidir[8; 3 b.]. Spenser, nerv va mushak qo'zg'alishi o'rtasida ma'lum munosabatlar mavjud bo'ladi, deb hisoblaydi. Organizm kuchli qo'zg'alganida, unda ruhiy energiyaning keragidan katta qismi to'planadi, u "tashqariga chiqishga" intiladi. Kulgi organizmni shoshilinch tartibda energiyaning ortiqchasidan xalos qilish usullaridan biri hisoblanadi, chunki ortiqcha energiya nafas olish organlarining, ko'krak qafasi mushaklarining, qorin mushaklarining harakatini amalga oshirishga, qattiq kulgi paytida tananing har xil qismlari harakatiga, shuningdek nerv tizimining boshqa qismlarini qo'zg'atishga sarflanadi [9; 5-6 b.].

Barcha hollarda hazil yoki kulgini qo'zg'agan o'sha fakt yoki hodisa ongda holatlarning yuz berishining sababi hisoblanadi, uning uchun majburiy shart buyukdan – kichikka o'tishdir (qiyoslang, Kant tabiri bo'yicha bir narsaning hech narsaga o'tishi). Bu o'tishni Spenser pasayib boruvchi nomuvofiqlik deb ataydi [10; 16-17 b.]. Spenserning nuqtai nazariga 3.Freyd yaqinroq, u zukkolikni ruhiy energiyani tejashning vositasi, deb hisoblagan edi [11; 160, 186-189 b.].

Keyingi paytda komizmning psixologik asosini tadqiq qilish bo'yicha qiziqarli natijalar olindi. Fanda kognitiv yo'nalishning vakili bo'lgan M. Minskiy shundan kelib chiqadiki, yumor – bu kommunikatsiya jarayonida insonning fe'l-atvori bilan bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir. YUmor nazoratning (senzorlarning) es-xushi yo'q, u qadar foyda keltirmaydigan fikrlashga oid jarayonlarni bostirishga asoslangan va bu bilan axloqiy xatolarning paydo bo'lishining oldini oladigan mexanizmlarning harakatlari bilan bog'liq: "senzor ong bilan qilinadigan sohadan reallik bilan ma'lum ixtilofga keladigan o'sha xohishlarni quvish uchun yaratiladi". Nazoratning bu mexanizmi harakati shunda namoyon bo'ladiki, muomala xatosi mumkin bo'lgan ayrim vaziyatlarda kishi yumorni ishlatishga murojaat qiladi, ya'ni yumor xuddi himoya mexanizmi sifatida ishga tushadi.

Kommunikatsiya nazariyasi pozitsiyasidan amerikalik psixoterapevtlar guruhi tomonidan G. Beytson rahbarligida komizm nazariyasi ishlab chiqilgan. Ular uchun komizm – bu fikrlarning va munosabatlarning implitsit mazmunini aniqlashning ma'lum usulidir. Satira va yumor kommunikativ modallikning to'planishi bilan xarakterlanadi, "komizmning samarasi modallik markerining joyidan qo'zg'alishi sodir bo'lganida kelib chiqadi".

A. Kestler komizmni bir-birini inkor qiluvchi ikkita assotsiativ kontekstlarning o'zaro bog'lanishi deb tushunadi, bu "bizni vaziyatni bir vaqtning o'zida ikkita mustaqil, ammo odatda bir-biriga to'g'ri kelmaydigan munosabatlar doirasida idrok qilishga majbur qiladi". Retsipient nuqtai nazaridan komizm – bu idrok qiluvchi kutganlarining buzilishidir.

Xulosalar

Yuqorida keltirilgan nazariyalarning tahlili ko'rsatadiki, komizmning mexanizmi normani bu atamaning eng keng talqinida buzishga asoslangan, natija sifatida, yuzaga keladigan qarama-qarshilik komizmni yaratishning asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi.

SHu bilan bir qatorda, komik samarani keltirib chiqaruvchi til birligini idrok qilish voqelikni qayta anglashning psixologik jarayonini namoyon qiladi. Ma'lum ziddiyatlar, mantiqiy tushunchaning yoki uning real predmetlarning va voqelik hodisalarining in'ikosi bo'lgan belgining, ham ko'chma ma'noning birga qo'shila olmasligi komik samara yaratish asosida yotadi.

Adabiyotlar

1. Фрейд З. Страх. М., 1919, По ту сторону принципа удовольствия., сп 1905.
2. Гоббс Т. Избр произв. в 2-х томах, т. 1, М.: “Мысль”, 1964, стр. 483—484.
3. Завадский В. Преглад критическую теорию комизма. - «Пшеглад Филозофический», 1929.
4. Spenser, ko'rsatilgan asar.
5. Щербак. “Теория смеха”.
6. Павлов И.П. Полное собрание соч. Москва, 1952, т.IV.
7. Боров Ю. Комическое. стр.48-54.
8. Спенсер Г. Физиология смеха. С.Петербург, 1881, стр.3.
9. Спенсер Г. Физиология смеха. стр. 5-6.
10. Спенсер Г., кўрсатилган асар, 16-17-бетлар, яна қаранг: “Смех слезы и грациозность” сп 1888, стр.4 .
11. Фрейд З. Остроумие и его отношение к бессознательному, стр. 160,186-186.

UMAR XAYYOM RUBOIYOTINING MUNDARIJASI VA G'OYAVIY XUSUSIYATLARI

Sultanova Zulxumor Sabatullaevna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asrdan boshlab Evropada xususan, Rassiyada Xayyomning sho'hrat qozonganligi, bu shoir ijodiyotiga rus o'quvchilarining qiziqish omillari haqida mulohaza yuritilgan. Ma'lumki, boshqa masalalar qatori Xayyom ruboiyotidagi mavzular, ilgari surilgan g'oyalar ham tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lgan. Xususan, V.A.Jukovskiyning “Umar Xayyom va “sarson” ruboiylar” nomli maqolasi nashr etilishidan so'ng sharqshunoslarning qay darajada Xayyom ruboiyotining mundarijasi va g'oyaviy xususiyatlarini o'rganilganliklari maqolada tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Xayyom, tarjimon, ruboiyot, tajriba, shoirlik mahorati, mazmun, mundarija va g'oyaviy xususiyatlar, tadqiq va tahlil.

СОДЕРЖАНИЕ И ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РУБАЙАТА ОМАРА ХАЙЯМА

Султанова Зулхумор Сабатуллаевна

Преподаватель Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация: В статье рассматривается восхождение Хайёма к славе в Европе, в частности в России, начиная с XIX века, и факторы интереса российских студентов к творчеству этого поэта. Известно, что среди прочего в центре внимания исследователей находились темы и идеи, представленные в «Рубайяте» Хайяма. В частности, после публикации статьи В. А. Жуковского «Умар Хайям и «странствующий» рубайат» в статье анализируется степень изученности востоковедами содержания и идеологических особенностей хайямовского рубайата.

Ключевые слова: Хайям, переводчик, рубаи, опыт, поэтическое мастерство, содержание, содержательно-идеологические особенности, исследование и анализ.



CONTENT AND IDEOLOGICAL FEATURES OF THE RUBAIYAT OF OMAR KHAYYAM

Sultanova Zulhumor Sabatullaevna

Teacher of the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

Abstract: *This article discusses Khayyam's rise to fame in Europe, particularly in Russia, from the 19th century, and the factors of Russian students' interest in this poet's work. It is known that, among other issues, the themes and ideas presented in Khayyam's Rubaiyat have been the focus of researchers. In particular, after the publication of V. A. Zhukovsky's article entitled "Umar Khayyam and the "Wandering" Rubaiyat", the article analyzes the extent to which orientalists have studied the content and ideological features of Khayyam's rubaiyat.*

Key words: *Khayyam, translator, narration, experience, poetic skill, content, content and ideological features, research and analysis*

Kirish

Xayyom ruboiyotining mazmun-mohiyati va g'oyaviy xususiyatlari haqida o'z vaqtida rus sharqshunosi V.A.Jukovskiy "Umar Xayyom va "sarson" ruboiylar" nomli maqolasida so'z yuritgan edi. Bu adabiyotshunos birinchilardan bo'lib ba'zi manbalardan iqtiboslar keltirib, bevosita shoir ruboiyotining mavzusi va g'oyaviy xususiyatlarini o'rganishga kirishgan edi.

Adbiyotlar tahlili va metodologiya

Adabiyotshunos M.Mulloahmad ta'kidlaganidek "V.A.Jukovskiy o'zining maqolasi oxirida sayyor ruboiylarni mavzu jihatdan to'rt guruhga ajratadi" [8,8].

Tahlillar va natijalar

V.A.Jukovskiy bu ruboiylarning 33%-da ishq, may, aysh-ishrat mavzulari, 43%-da taqdiri azal, dunyo, odamlar, ularning muhtojligi, ba'zilarining yomon xislatlaridan shikoyat, 7%-da Xudoga murojaat va yana 7%-ga yaqin tasavvuf haqida, 6%-da hikmatli so'zlar, falsafiy va axloqiy qarashlar, 4%-da musulmonlar hurfikrligi kabi mavzularini uchratib, quyidagi xulosaga keladi: "shunday qilib, "sarson" ruboiylarning asosiy qismida aysh-ishrat, shakkoklik va noumedlik mazmunlari o'z ifodasini topgan" [9, 362].

Bu adabiyotshunos mazkur tasnifot zamirida xulosaga keladiki, "bu tavsif etishda asosan, ruboiylarining oxirgi to'rt guruhi mazmuniga suyanish kerak zero, ular ob'ekt sifatida nisbatan kamroq shubhalidir [9, 362]. V.A.Jukovskiy Xayyomni "o'z e'tiqodiga sodiq donishmand" inson sifatida tavsiflab, uni "borliq mojarolaridan aziyat chekkan, islomiy muhitda hayot muammolarini topmaydi va so'fiylar irfoni zamirida munazzam dunyoqarashga ega bo'lar edi. U iymon mustahkamligini targ'ib qilib, zamondoshlarining ba'zi islomiy qarashlari va jamiyatdagi ba'zi tazodlarni tanqid qilar edi... Umar Allohga qaynoq muhabbat, pok axloq va voqelik elchisi bo'lib, abadiy saodatga nurli va go'zal mayli bor" [9, 362].

Ko'rinadiki, V.A.Jukovskiy yuqoridagi ruboiyot tasnifotidan uning mazmun va g'oyasiga qarab Xayyomning insoniylik va ijldkorlik siymosini quyidagicha gavdalantiradi: ya'ni, u "yunon ilmi"ning homiysi, Qur'on va shariat qonunlarini yaxshi biladigan, o'z davrida shariat qonunlariga zid kishilar, chaquvchi ilonlar, munofiq kimsalarga qarshi kurashuvchi shaxs va umri oxirida "SHifo" kitobini mutolaa qilib, undagi bilim va sir-sinoatlarni anglash uchun Allohdan aqliy kuch so'ragan kishi edi [9, 362].



V.A.Jukovskiyning Xayyomni tasavvuf ahlidan sanab, avliyo va so'fiy deb atashidan ba'zi tadqiqotchilar jumladan, S.B.Morochnik, B.A.Rozenfeld, R.M.Aliev, M.N.Osmanov va A.Bolotnikov norohat ham bo'lganlar [96, 57; 23, 200, 41, 190]. Ammo, ular e'tibor bermaganlarki, bu adabiyotshunos Xayyom ruboiyoti mazmun-mundariyasi va g'oyaviy xususiyatlarini manbalarda shoirga mansub deb ko'rsatgan ruboiylar asosida aniqlagan va birinchi bo'lib rus sharqshunosligida Xayyom ruboiyotini tasniflab o'rgangan. SHoir ruboiylaridagi ziddiyatli fikr va g'oyalar, e'tirozlarni payqab ularni sharhlagan.

V.A.Jukovskiyning fikricha "Xayyomning o'z zamondoshlariga e'tirozlari va hurfikrlikni targ'ib qiluvchi so'zlari" uning hayotiga "ko'plab tazyiq va notinchliklar olib kelgan" [9, 362]. Bu sharqshunos shoir ruboiyoti mundariyasi va g'oyaviy xususiyatlarini sharhlab, ba'zi zamondoshlarining nima sababdan unga zid bo'lganliklarini ochiqdigan.

V.A.Jukovskiy o'zi tadqiq etgan ruboilar asosida Xayyomning ijodiy yo'lini teran anglashga harakat qilgan. Adabiyotshunos shoir ruboiylarini u yashagan davr mafkurasi nuqtai nazaridan o'rganib, undagi inson tinchligi va saodati hamda erkin nafas olib fikrlashini targ'ib qiluvchi g'oyalar ustuvor ekanligini aniqlashtiradi. Xayyom ruboiyoti mundarijasidan irfoniy g'oyalarni topganligi ham bu adabiyotshunosning teran fikr va nozik did sohibi ekanligidan dalolat beradiki, bu masala yuzasidan rus sharqshunosligida turli fikrlar mavjud va mavridida bu haqda so'z yuritimiz.

V.A.Jukovskiyning yuqorida tilga olingan maqolasida Umar Xayyom ruboiylarining mundariyasi va g'oyaviy xususiyatlari qisqacha o'rganilib, keyinchalik rus sharqshunosligida bu jihatlar A.Bolotnikovning «Umar Xayyom (Faylasuf-shoir-donishmand)» nomli ilmiy risolasida nisbatan to'laroq va mukammalroq tadqiq etilgan. Bu tadqiqotning vujudga kelganidan boshlab rus sharqshunosligida asosan Xayyom ruboiyoti mundariyasi va g'osining ateistik va materialistik xususiyatlari xayyomshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ta'kidlash joizki, A.Bolotnikov bu raviyaning ilk qatnashchisi sifatida tanilgan.

A.Bolotnikov Xayyom ruboiylaridan irfoniy-tasavvufiy g'oyalarni topib, tarjimalarda soxta ramziy obrazlardan foydalanib shoir she'riyati mazmunini boshqacha talqin qilgan tadqiqotchilarga qarshi chiqqan [1, 202-203]. Bu olim Xayyom ruboiyoti mundariyasi va g'oyaviy xususiyatlarini o'rganib, undagi falsafiy va tarixiy qarashlarni tahlilga tortgan. Uning fikricha "Xayyom dunyoqarashining muhim jihatlaridan biri uning ateizmi hisoblanadi" va ta'kidlaydiki, bu "e'tiqod, Qur'on va din ulamolariga qarshi yo'naltirilgan oddiy raviya bo'lmasdan balki, barcha xudolarni rad etuvchi ateizmdir". Bu tadqiqotchi Xayyom ruboiyoti mundarijasini o'rganib quyidagi xulosaga keladi: "Xayyomning na ateizmi, na materializmi shubhali emas. Uning ruboiyotida tarjima jarayonida so'zlarni o'zgartirib (tarjima jarayonida sodir bo'lishi tabiiy hol), tasavvufiy ma'nolarni keltirib chiqarilgan xususiyatlar ko'proq shubhali sanaladiki, bu uning barcha nazariy va ilmiy dasturlarini buzib qo'yadi" [1, 202].

A.Bolotnikov Xayyomning bir qancha ruboiylarini mundarija jihatidan tahlil qilib, uning zamirida shoirni "e'tiqodli ateist va materialist" deb ataydi va ta'kidlaydiki, "uning ruboiyoti mundariyasi barcha nozikligi bilan bu narsaga guvohlik beradi" hamda Xayyom ruboiylari mundarijasining ba'zi qirralarini ko'za va may obrazlari misolida ko'rsatib o'tadi. Xayyom ruboiylarida ko'za yasovchi shaxs obrazini ko'radiki, "ko'zasining boshi shoh boshiga va dastagi gado qo'lga o'xshaydi". Bu fikrdan keyin adabiyotshunos Xayyomning O.Rummer tarjima qilgan quyidagi ruboiyini keltiradi:

Тогда прильнул устами к чаше я,

Дабы познать источник бытия.

И мне уста ее шепнули: «Пей,

Пока ти жив! Жизнь коротка твоя».

A.Bolotnikov bu ruboiy zamirida Fitscheraldning o'z tarjimalarida Xayyomdan ma'yus shakkok inson yasaganligini eslaydi hamda Xayyom falsafasiga ta'sir etuvchi ushbu tarjima nuqsonlarini ta'kidlaydi [1, 204]. Bu olim Xayyomning ateistik qarashlarini isbotlash uchun uning ruboiyotidan may, go'zal qiz, mast do'stlar, musiqa va boshqa mavzularni misol keltiradiki, uning fikricha bularni "Qur'on mahkum etadi" [1, 205].

Uning nazarida "ruboiyotdagi ma'no shaffofligi va undagi obraz go'zalligi barcha majoziy sharhlarni inkor etadi" [1,205]. Bu asosda u xulosaga keladiki, Xayyom nigohidan adolatli va xiradmand Xudo g'oyasi hech qanday mantiqiy kuchga ega emas.

Shu tartib bilan, A.Bolotnikov Xayyom ruboiyoti mundariyasi va g'oyaviy xususiyatlarini faqat Sho'ro davri falsafasiga xos adabiyotshunoslik metodologiyasi bo'lgan materialistik va ideologik nuqtai nazaridan o'rganib, ko'proq ruboiylarning tarixiy, ideologik, falsafiy va ishtimoiy mohiyatini ochishga diqqat qaratgan.

O'tgan asrning qirqinchi va elliginchi yillarida rus sharqshunosligida Xayyom ruboiylarini tarjima qilish masalasi jiddiy tarzda o'rganilib, tarjima nusxalarini tanqidiy o'rganish bilan birga ularning mavzusi, mundariyasi va g'oyaviy xususiyatlari ham tahlil etilgan.

Bu borada V.N.Engelgard va P.N.Lozeevning maqolalarini misol keltirish mumkin. Xususan, P.N.Lozeevning "Umar Xayyom ruboiyotining ruscha tarjimalari" va "Umar Xayyom manbalarda" nomli maqolalarida bu mavzu yuzasidan izlanishlar olib borib, rus tilida tarjima qilingan shoir ruboiyoti to'plamlarini tadqiq etgan. Jumladan, P.N.Lozeev yuqorida tilga olingan maqolada 1948 yilda rus tilida tarjima qilingan va nashr etilgan "Xayyom ruboiyoti" nomli to'plamda shoir ruboiylarini mazmun jihatdan "Dunyo va uni anglash", "Inson", "Bahor, gullar va ishq", "Xudosizlik", "Ko'zagarga mehmonlik" nomli fasllarga ajratishni musbat hodisa sifatida baholamaydi va ta'kidlaydiki, nashr qiluvchilar aldoqchi g'oyalarga ishonib, shoirning yoshlik, kamolot davri hamda keksalik davri obrazlarini uyg'unlashtirganlar. Bu narsa Xayyomning hayotiy tajribalariga va uning hayotidagi voqeliklarga xos emas [5, 54].

P.N.Lozeev "Umar Xayyom manbalarda" nomli maqolasida ham shoir ruboiyotining mazmun-mundariyasiga e'tibor berib, uning she'riyatiga xos "isyonkorlik mundariyasi" [4, 75] xususida ham so'z yurtigan.

Tadqiqotchi bu ishni alohida ruboiylarning tahlili va ular ichidan ibratli so'zlar va maqollarni ajratish yo'li bilan amalga oshirgan. Uning xulosasi quyidagicha "Umar Xayyom ruboiyoti mundarijasining asosiy qismini hayotiy ishq, may va hayotning yaxshi damlari tashkil etadi; na balki Xudoga sadoqat va muhabbat, u bilan birlashishki, so'fiylar shu narsaga harakat qiladilar. SHoir bizni hayotning xursandchiligi va shodligiga etaklaydi zero, hamisha qadimgi tojik xalqi buni tashkilotchisi bo'lgan..." [4, 82].

SHuning zamirida bu tadqiqotchi Umar Xayyomni "etuk donishmand, moddiylik tarafdori bo'lgan faylasuf va erkin fikrlovchi shoir" [91,102] deb ta'riflab, uning insoniy va shoirlik siymosini o'z ruboiyoti mundariyasi va g'oyaviy xususiyatlari asosida aniqlaydi.

A.Bolotnikov va E.E.Bertels tadqiqotlaridan boshlab Xayyom ruboiyotining tarixiy va falsafiy manbalarini aniqlashga muhim qadam qo'yildi. Bu davrda falsafa ilmiga bag'ishlangan tadqiqotlar ham yuzaga kelgan edi. S.N.Grigoryanning «VII-XII asr O'rta Osiyo va Eron falsafasi tarixidan» nomli dissertatsiyasi bu yo'nalishda vujudga kelgan jiddiy tadqiqotlardan biri edi.

Bu tadqiqotchi mazkur dissertatsiyaning «Umar Xayyomning falsafiy, siyosiy va jamiyatga doir qarashlari» nomli bobida Xayyomning falsafiy fikrlarini ideal jamiyatning g'oyasi sifatida baholab, shu mavrida shoir ruboiyotining mundarijasi va g'oyasini tahlil etgan.

Bu tadqiqotchi Xayyomning ilmiy merosi va ruboiyotini tahlil etib, uni moddiylikni targ'ib qiluvchi shaxs sifatida talqin qiladi hamda shoir adabiy merosida ilgari surilgan g'oyalarni adolatli jamiyatning asosiy qomusi deb ta'riflaydi. Adibning ilmiy va adabiy merosini o'rganib quyidagi xulosaga keladi: "Xayyomning tinch va saodatli hayotga etishish yo'lidagi kurashlari o'rta asrlardagi peshqadam g'oyalarning shakllanishiga muhim ahamiyat kasb etgan. U o'z ruboiyotida o'limdan keyingi hayot, jannat va do'zax haqida so'z yuritdi. Agar islom olamidagi ba'zi mutaassiblar va tasavvuf ilmining vakillari bu dunyoning yaxshi tomonlarini rad etsalar, Xayyom bu hayotdan lazzatlanish, umrning har daqiqasini qadrlab, uni yaxshi o'tkazishga harakat qilish kerakligini o'qtiradi" [54, 120]. Bu olim quyidagi ruboiydan Xayyom narigi dunyoni e'tirof etmas ekan degan mazmunni ilg'ab oladi:

Никто не лицеизрел ни рая, ни геенны;
Вернулся ль кто-нибудь оттуда в мир наш тленный?
Но эти призраки бесплотные-для нас
И страхов и надежд источник неизменный.

(O. Rumer tarjimai) [2,120]

Tadqiqotchi narigi dunyodagi hayot, jannat va do'zaxni rad etuvchi ruboiyotni (Ham gapirad mully, cho qushchuyet ad; Poverte mne oni nepravdu gapirad) va Xayyom e'tirozlarini inson hayotidagi ma'naviy lahzalarni erga uruvchilaga qarshi talqin qiladi (Dux rabstva kroyetsya v kumirne i v Kaabe, Trezvон колоколов-язык смиренья рабий, i rabstva черная печать равно лежит. На четках и кресте, на церкви и михрабе) hamda Xayyom ruboiyotida u dunyo hayotiga nisbatan e'tiborsizlik g'oyasi borligini ta'kidlaydi [2, 120].

Bu olim "Xayyomning ishtimoiy zulmga qarshi kurashi"ni natijasiz deb ta'kidlab, "Xayyomning ruhiyatidagi tushkunlik"ga shu narsa omil bo'lgan deb ta'kidlaydi hamda shu mazmunni ifodalovchi ruboiylarni tahlil etadi. U yozadiki, "Xayyom ko'pincha ruboiylarida may haqida yozadi ammo, may u uchun shodlanish, lazzatlanish vositasi emas. U may yordamida qalbidagi tug'yonlar, dardli o'ylar, alanga olayotgan olovlarni o'chirishni xohlaydi". Bu kabi ruboiylar mundarijasini tahlil etishdan olim quyidagi natijaga erishadi: "Xayyomning may haqidagi so'zlari – bu osmondagi zulm qilguvchilar va erdagi xudolarga qarshi kurashdir" [2, 121].

Shunday qilib, S.N.Grigoryan garchi Xayyomning inson qadri va dunyo falsafasi haqidagi g'oyalarini to'g'ri topgan bo'lsa ham ammo, o'tgan asrning oltmishinchi yillariga xos ishtimoiy falsafa va diniy qarashlarga zid SHO'ro mafkurasi ta'siri ostida Xayyomdan bir xudosiz va mazhabsiz kofir inson qiyofasini yasaydi. Bu holat esa shoirning real hayoti va she'riyatining asl mohiyatidan ancha uzoqlashganligidan darak beradi.

Xayyom ruboiyoti tadqiqotining bu yo'nalishi rus sharqshunosligida anana tusiga kirib, keyinchalik turli shakl va usullarda davom etdi. Bu izlanishlar namunasi sifatida S.B.Morochnik va B.A.Rozenfeldlarning «Umar Xayyom» («Omar Xayyom») nomli tadqiqot ishini misol keltirish mumkin. Bu tadqiqotchilar Xayyomning ruboiylarini ulardagi ateistik va materiaklistik g'oya va mundarijasiga qarab boshqa sayyor ruboiylardan ajratish to'g'ri yo'l deb bilib, bir qator she'rlarini shu nuqtai nazardan tahlil etgan [2, 58].

S.B.Morochnik va B.A.Rozenfeld “materialistik fikr bayoni tamoilini” [2, 59] shoir ruboiyoti mundarijasining muhim tomoni sifatida ta’kidlab, Qiftiyning “bu she’riyatning ichi chaquvchi ilon va zalolatga ergashgan kishilarga qarshi” degan fikri va Najmiddin Roziyning Xayyomni “Falsafiy, dahriy va she’riyatida aks etganidek sarson va o’z ichki olamiga yo’qolgan inson” degan qarashlariga tayanib, shoir ruboiyotidagi g’oyalarni ateistik ruhda talqin qilgan. Ular xulosaga keladiki, “Xayyom ruboiyoti mundarijasi ko’proq moddiy dunyo sharoitini o’zida aks etgan. Undagi ilgari surilgan g’oya va qarashlar shariat qonunlariga qarshi bo’lib, shoir boqiy dunyoni emas, foni dunyo afzalliklarini vasf etadi. Mazkur tadqiqotchilar Xayyomning bunday qarashlarini ba’zi ruboiylari asosida ko’rsatib, ularga xos dinni inkor etuvchi mazmunlarni renesans davri va hatto XVII-XVIII asr materialistlarining mantiqiy qarashlaridan kuchliroq deb biladilar [2, 61-62].

SHu tartibda bu tadqiqotchilar Xayyom ruboiyoti mundarijasining dinga qarshi tomonlarini “qadimgi ateistlar merosi” qatorida muhim sanab, ularni o’rganadi. Ularning fikricha “Xayyom davridagi ilm inson hayotini o’zgartiradigan darajada rivojlanmagan edi. Agar ilm rivojlanganda o’lat, sil kabi kasalliklar odamlar hayotiga xavf solmas edi. YO ki dunyo mukammal yaratilgan bo’lsa nima uchun zilzila, yong’in va urishlar yuzaga keladi? Din bu narsaga o’z munosabatini bildirgan ya’ni, kasalliklar, yong’inlar ko’pincha manfaat yuzasidan vujudga keladi va qodir Alloh gunahkorlarni jazolaydi”. Bu olimlar shoirning ba’zi ruboiylari mundarijasidan xulosaga keladilarki, “Xayyom bu hayot qonuniyatlari ustidan kuladi” [2, 63] va e’tirozlarini oshkora bayon etadi. SHunday qilib, bu tadqiqotchilar Xayyom ruboiylari mundarijasidan mazhabiy ertaklarga barham berish mavzusini keltirib chiqaradilar. Bu mulohazalarni asoslash uchun quyidagi ruboiyni keltiradilar:

О, небо, к подлецам щедро твоя рука,
Им бани, мельницы и воды арыках,
А кто душою чист, тому лиш корка хлеба.
Такое небо-тьфу!-нестоит и плевка [2, 63].

Mazkur mavzuga doir Xayyomning o’nta ruboiyi tahlil etilgan. Tahlillar falsafiy ruhda amalga oshirilib, shariat qonunlari va diniy mutaassiblik muhiti haqidagi shoir qarashlari real tarzda ko’rsatilgan. SHu uslubda shoir ruboiyotidagi falsafiy fikrlar uning moddiy hayot, koinot borasidagi nazariyalarini ochiqalaydi. SHoir she’riyatidagi may, ko’za, hayot va o’lim mavzulari shu toifadagi nazariyalarni asoslovchi dalil sifatida ko’rsatilgan [2, 71].

S.B.Morochnik va B.A.Rozenfeld Xayyom ruboiyoti tadqiqi orqali uning ilmiy va moddiy mantiqini she’riyatidagi asosiy mavzularidan sanalgan may mavzusi bilan bog’liq deb ataydi. Ularning fikricha may suzadigan ko’za go’zal ma’shuqalar tanasining tuprog’idan yasalishi, may ichganda o’sha ma’shuqalarning go’zal chehrasi kishining ko’z oldiga kelishi o’tgan asrning elliginchi yillaridagi moddiy falsafa qonuniyatlari uchun yangi bir qarash sifatida o’rtaga chiqqan [2, 72].

Bu olimlarning fikricha o’lim mavzusi ham Xayyom ruboiyoti mundarijasida muhim ahamiyat kasb etgan. Shoir ruboiylarida bu mavzu ilohiy falsafa va ruhiy qonuniyat bilan emas balki, moddiy hayot o’zgarishlari natijasida vujudga kelish tasvirlangan. Bir qator ruboiylar tahlili natijasida tadqiqotchilar xulosa qiladilarki, Xayyom nazarida dunyo bir zarra asosida tasodufan vujudga kelgan. SHoir nazarida bu jarayon abadiy bo’lib, tana singari inson ruhi ham moddiy narsa va o’limdan so’ng u bo’lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, “hayot abadiyat oldida bir lahzadir”. Bu nuqtani tadqiqotchilar Xayyomning moddiylikni targ’ib qiluvchi muhim

g'oyasi sifatida e'tirof etib, uning tafakkur va moddiy abadiyatga bog'liq emasligini ta'kidlaydilar [2, 69-71] hamda quyidagi ruboiyni misol tariqasida keltiradilar:

Давно-до нас с тобой и дни и ночи были,
И звезды, как сейчас, на небесах кружили.
Не занешь как ступить на этот прах земной.-
Зрачками любящих его песчинки жили [2, 71].

Асл:

Пеш аз ману ту лайлу нахоре будаст,
Гарданда фалак низ ба коре будаст.
Ҳар чо ки қадам ниҳй ту бар рӯи замин,
Он мардумаки чашми нигоре будаст [3, 52].

S.V.Morochnik va B.A.Rozenfeld bu kabi ruboiylar mundarijasining tahlilidan quyidagi xulosaga keladiki, "Bu va bu kabi boshqa ruboiylarda Xayyom tirik va o'lik tabiat o'rtasidagi moddiy ashyoning borligini ta'kidlaydi. O'limdan so'ng barcha moddiy ashyolarki, bir vaqtlar bizni tanamiz ulardan tashkil topgan edi, buzilish natijasida tuproqqa aylanadi. Xayyom ruboiylarining ko'p qismini bir masala ya'ni, ko'za loydan yasalgan, unga may suziladi va bu ko'za bir vaqtlar hayajonga to'la tirik jism bo'lgan" [6, 71].

Xayyomning moddiylikni targ'ib qiluvchi nazariyalari zamirida tadqiqotchilar shoirning ruhoniylarga nisbatan nafrat tuyg'usi kuchli ekanligini ta'kidlaydi va bu mavzuni quyidagi ruboiylar asosida sharhlaydilar:

1.Блуднице шейх сказал: «Ты что ни день, пьяна.

И что ни час, то и есть другим заключена!»

Ему на то: «Ты прав, но ты-то сам таков ли.

Каким всем кажешься?- ответила она.

2.Хоть и пяница, о муфтий городской,

Степенен все же я в сравнении с тобой.

Ты кров людей сосещ, я лоз. Кто кровожадней

Я или ты скажи? Скажи не покрывай [2,74].

Bu olimlar yuqoridagi ruboiylar tahlili orqali Xayyomning dinga qarshi va haqiqatgo'ylikni targ'ib qiluvchi fikrlarini tavsiflab, shoirning munofiq va ikkiyuzlamachi ruhoniylarga nisbatan nafratini ko'rsatishga harakat qiladi. Ularning nazarida garchi Xayyom hayotning azaliy sirlarini bilishga harakat qilmagan bo'lsa ham, "bir qator ruboiylarida uning jahon sirlarini bilish uchun bahsga kirishganligi ma'lum bo'ladi". Bu mazmun quyidagi ruboiydan olingan:

Общаясь с дураком, не оберешься срама:

Поэтому совет ты выслушай Хайёма:

Яд, мудрецом тебе предложенный, прими,

Из рук же дурака непринимай бальзама [2, 81].

S.V.Morochnik va B.A.Rozenfeldlarning tadqiqotida inson va uning ilmiy qudrati tavsifi Xayyom ruboiylarida muntazam kuzatilishi aniqlangan. Xayyom inson ilmiga yuqori baho berib, "inson va uning ilmimi tabiatning eng buyuk yaratgan narsasi" [2, 81] sifatida baholaydi. Bu fikrni dalillash maqsadida Xayyomning Rumer tarjima qilgan quyidagi ruboiyi iqtibos qilinadi:

Общаясь с дураком, не оберешься срама:

Поэтому совет ты выслушай Хайёма:



Яд, мудрецом тебе предложенный, прими,
Из рук же дурака непринимай бальзама [2, 81].

Xulosalar

Bu tadqiqotchilar Xayyom ruboiylari mundarijasi va g'oyaviy xususiyatlarini tahlil etib, shoir nazmida inson moddiy hayotiga doir muhim konsepsiya yaratilganligini ko'radi. Bu tadqiqot usuli bilan Xayyom ijodiyotini uning hayoti bilan bog'lab, bu yo'lda insondo'stlik g'oyalari -

Перенбреги законом, молитвом и постом,
Зато делись, чем можешь, с голодным бедняком,
Будь щедр... Твоя награда-я сам порукой в том –
Теперь-земное счастье, бессмертне-потом.

-adolat, xalqparvarlik, saxovatmandlik, saodatli hayot va boshqalarni shoir ruboiylaridan alohida olib ko'rsatganlar, ulardan namunalar keltirib, yuqori baholaganlar. Ma'lum bo'ladiki, ba'zi ruboiylarda shoir "koinot adolatsizligi va berahmligini tanqid qilishdan erdagi adolatsizliklarni tasvir va tanqid qilishga o'tadi. Bu fikrni asoslash uchun quyidagi ruboiyni keltiradilar:

Тому, на чем столе стоит надтреснутый кувшин,
Со свежую водой и только хлеб один,
Увы, приходится предтем, кто ниже-гнутся
Иль называть того, кто равен-господин [2, 82].

SHunday qilib, adabiyotshunoslar S.B.Morochnik va B.A.Rozenfeld Xayyom ruboiyoti mundarijasida aniq g'oyani ko'rib, shoirning ijodiy mahoratini o'sha davr adabiyotshunosligi talabi sanalgan jamiyat ideologiyasi nuqtai nazaridan qator misollar asosida ko'rsatishga harakat qilganlar. Bu tadqiqot usuli Xayyom ruboiyoti mundarijasidan davr mafkurasiga xos motivlarni izlashga undagan va shu bois ruboiylardagi shoirona qarashlar poetik tahlil mezonlari asosida tahlil etilmagan. Garchi, tadqiqotchilar izlanishlar jarayonida davr ideologiyasi qobig'idan chiqmagan bo'lsalar ham, Xayyom ruboiyoti mundarijasi va g'oyaviy xususiyatlarini o'z muallifining tarjimai holi va hayotiy kechinmalari bilan bog'liq holda aniqlab, unga baho berganlar.

Adabiyotlar

1. Болотников, А. Омар Хайям (Философ – поэт – математик) / А. Болотников // Восток. Сборник второй. Литература Ирана 10-15 в. – Москва – Ленинград: АCADEMIA, – 1935. – С. 179 – 211.
2. Григорян, С. Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана 7 – 12 в / С. Н. Григорян. – Москва: Издательства Акад. Наук СССР, 1960. – 329 с.
3. Жуковский, В. Омар Хайям и "странствующие" четверостишия" / В. Жуковский // Сборник Ал-Музафарийе. – СПб, 1897. – С. 325 – 363.
4. Лозеев, П. Н. Омар Хайям в источниках / П. Н. Лозеев // Ученые записки. Филологическая серия. Выпуск 3, - Сталибад, 1953. – С. 57 – 102.
5. Лозеев, П. Н. Четверостишия Омара Хайяма в русских переводах / П. Н. Лозеев // Ученые записки. Филологическая серия. Выпуск 1. – Сталинабад, 1952. – С 41 – 65.
6. Морочник, С. Б., Розенфелд, Б. А. Омар Хайям – поэт, мислитель, ученный / С. Б. Морочник, Б. А. Розенфелд. – Сталинабад: Таджикгосиздат, 1957. – 209 с.



7. Mulloahmad, M. Andar shinoxti ruboiyoti asili Xayyom / Mirzo Mulloahmad // Umari Xayyom. Ruboiyot (Nusxahoi asil). – Xujand: Noshir, 2019. – S. 3 – 45.

BADIIY ADABIYOTDA TARIXIYLIK

Xamdamov Oybek Abdulxayevich

Namangan davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti

E-mail:oybek_a_x@mail.ru

***Annotatsiya:** Maqolada badiiy adabiyotda tarixiy mavzularda yaratilgan asarlarning ahamiyati va ijodkorning tarixiy asarlar yozish jarayonidagi e'tiborga olishi kerak bo'lgan jihatlar haqida so'z boradi. Tarixiy faktlarga asoslangan asar yaratish jarayonida tarixchi olim va ijodkor yozuvchi mehnati qiyoslangan. Jahon adabiyoti va o'zbek adabiyotidagi tarixiy romanlardan qiyosiy na'munalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Tarixiy roman, tarixiy fakt, tarixiy kolorit, badiiy to'qima, tarixchi olim, yozuvchi, zamon va makon, tarixiy shaxs, tarixiy yo'nalish.*

ИСТОРИЧНОСТЬ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Xamdamov Oybek Abdulxayevich

Наманганского государственного университета, докторант кафедры английского языка и литературы

E-mail:oybek_a_x@mail.ru

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы о значении произведений, созданных на историческую тематику в художественной литературе и их аспектах, которые должен учитывать автор в процессе написания исторических произведений. В процессе создания произведения на основе исторических фактов сопоставляются работы ученого-историка и писателя-творца. Приводятся сравнительные примеры исторических романов в мировой и узбекской литературе.*

***Ключевые слова:** Исторический роман, исторический факт, исторический колорит, художественная интерпретация, историк-ученый, писатель, время и пространство, историческая личность, историческая тенденция.*

HISTORISITY IN FICTION

Xamdamov Oybek Abdulxayevich

Namangan State University, doctoral student of the department of English language and literature

E-mail:oybek_a_x@mail.ru

***Annotation:** The article talks about the importance of works created on historical themes in fiction, and the aspects that the writer should take into account in the process of writing historical works. In the process of writing a work based on historical facts, the work of a historian scientist and a creative writer are compared. Comparative examples of historical novels and Uzbek literature are given.*

***Key words:** Historical novel, historical fact, historical color, artistic texture, historical scientist, writer, time and space, historical person, historical direction.*

Kirish

Tarixiy janrda yaratilga asarlar badiiy adabiyotda eng asosiy mavzulardan biri sanaladi. Tarixiy o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealar, yaqin yoki olis o‘tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan asarlar yaratish esa badiiy adabiyotning muhim vazifalari sirasiga kiradi. Jahon adabiyoti taraqqiyotida ham tarixiy roman alohida o‘rin tutadi. Chunki, tarixiy voqeahodisalarni haqqoniy, izchil, hujjat va manbalar asosida tasvirlash yozuvchidan katta mahorat talab etadi. G‘arb va Sharq badiyatida ham tarixiy roman o‘z mavqeiga egaki, bu turkumidagi romanlar qaysi yurt bo‘lmasin, o‘sha mamlakat o‘tmishidan darak beradi. Tarixiy romanlarni mutolaa qilish orqali ajdodlar boshidan kechirgan voqealar silsilasi avlodlar ko‘z o‘ngida gavdalanadi.

Adabiyotlar tahlili

Jahon adabiyotida tarixiy o‘tmish mavzusi U. Shekspir va F. Shshiert tragediyalari, V. Skott, J. Golsuorsi, L. N. Tolstoy va boshqa yozuvchilarning romanlarida katta mahorat bilan yoritilgan. O‘zbek ijodkorlaridan A. Qodiriy, Oybek, O. Yoqubov, P. Qodirov, Muhammad Ali kabilar tarixiy mavzuda asarlar yaratishda juda katta muvaffaqiyatga erishdilar. Badiiy adabiyotda tarixiylik masalalari borasida bir qator adabiyotshunos olimlar o‘z izlanishlarida munosabat bildirganlar. Ular qatoriga rus tanqidchisi V. G. Belinskiy, A. Dolinin, R. Bertlani nomlarini keltirish mumkin. Adabiyotshunos olim D. Quronov o‘zining “Adabiyot nazariyasi asoslari” kitobida adabiyotshunoslikka eng yaqin sohalar qatorida tarix fanini, tilshunoslik fanidan keyingi ikkinchi yaqin fan sifatida ta’kidlaydi. Taniqli adabiyotshunos va ijodkor Izzat Sulton o‘zining adabiyot nazariyasi kitobida, “Badiiy adabiyotni konkret bir tarixiy davrga aloqador ekanligini ta’kidlaydi. Qodiriyshunos olim B. Karimov va professor Abdulla A‘zamov tarixiy asarlar haqida qimmatli fikrlar bayon etganlar. Ular tomonidan badiiy adabiyotdagi tarixiylik borasida keltirilgan fikrlar va ma’lumotlardan maqola yozishda keng foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada badiiy asarlar tarkibiga kiritilgan tarixiy faktlar va ularning badiiy asardagi zamon va makon masalalaridagi o‘rni, tarixiy mavzularda yaratilgan asarlarning badiiy adabiyotdagi ahamiyati va ijodkorning tarixiy asarlar yozish jarayonidagi e’tiborga olishi kerak bo‘lgan jihatlari haqida so‘z boradi. Tarixiy faktlarga asoslangan asar yaratish jarayonida tarixchi olim va ijodkor yozuvchi mehnati qiyoslangan va qiyolash-taqqoslash, tahlil usullardan foydalanilgan. Tarixiylik borasidagi fikrlar tavsiflangan va muallif tomonidan ularga ilmiy munosabat bildirilgan.

Tahlillar va natijalar

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida tarixiy janrga shunday ta’rif berilgan: “Tarixiy mavzuda asar yozuvchi muallifdan tasvir etilayotgan davr hayotini yoki tarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini tarix hujjatlari (arxiv materiallari, xotiralar va h.k.) asosida o‘rganish, shu davrning tarixiy koloritini haqqoniy ifodalash, personajlar nutqida o‘sha davr kishilari tiliga xos xususiyatlarni aks ettirish talab etiladi”[1].

Ingliz tilidagi Britanika rasmiy saytida esa: “Historical novel, a novel that has as its setting a period of history and that attempts to convey the spirit, manners, and social conditions of a past age with realistic detail and fidelity (which is in some cases only apparent fidelity) to historical fact”[2]. “Tarixiy roman, tarixning bir davrini belgilaydigan va o‘tgan asrning ruhi, xulq-atvori va ijtimoiy sharoitlarini realistik tafsilotlar va sodiqlik (bu ba’zi hollarda faqat aniq qilib,



bo'rttirmasdan) bilan yetkazishga harakat qiladigan tarixiy faktlarga asoslangan roman" – degan ta'rif beriladi.

Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi haqida gap ketganda taniqli adabiyotshunos olim D. Quronov o'zining "Adabiyot nazariyasi asoslari" kitobida adabiyotshunoslikka eng yaqin sohalar qatorida tarix fanini, tilshunoslik fanidan keyingi ikkinchi yaqin fan sifatida ta'kidlaydi. "Adabiyotni jamiyatning badiiy tarixi deb atashlari bejiz emas." - deydi u. "Zero, agar har qanay asar o'z davrini muayyan darajada aks ettirar ekan, milliy adabiyot xazinasidagi asrlarda o'sha millatning tarixiy yo'li, taqdiri aks etadi. Bu esa adabiyotshunoslikning tarix fani bilan uzviy aloqada bo'lishini zaruratga, tabiiy va qonuniy holga aylantiradi. Muayyan bir davr adabiyotini yoki o'tmishda yaratilgan bir asarni tadqiq etayotgan adabiyotshunos o'sha davr ijtimoiy-tarixiy xodisalarini o'rganmog'i shart, aks holda u o'rganilayotgan davr adabiyotida kuzatilgan xodisalar mohiyatini ham, tahlil qilinayotgan asarning mazmun nozikliklarini ham to'la anglay olmaydi. Adabiyot xalqning badiiy tarixigina emas, milliy tafakkur tarixi hamdir" – deb yozadi ushbu kitobda[3. 22].

Yuqoridagi ta'riflarga asosan, barcha tarixiy romanlarda, o'tmishga sayohat qilinadi; ularning ba'zilarida qahramon noma'lum hududlarni bosib o'tishga, chegaralarni kesib o'tishga, urushlar olib borishga va milliy chegaralarni kengaytirishga yordam beradigan sayohatni boshidan kechiradi. Ba'zan qahramonning bunday harakati o'z vaqtida shunday harakatga aylanadiki, u jismonan oldinga harakatlanish va turli farqlarga qarshi turishga majbur qiladi. Ijodkor tarixiy mavzudagi asar yaratish jarayonida, ham tarix haqiqatiga tayanadi, ham badiiy to'qimadan samarali foydalanadi. Shu bois ham, tarixchilar bilan ijodkorlarning tarixiy fakt va materiallarga munosabatlari turlicha bo'ladi. To'g'ri, tarixiy makon va zamondagi voqea-hodisalarni fakt hamda materiallar asosida sinchiklab, batafsil o'rganish borasida tarixchi ham birday mashaqqat chekadi, ko'p mehnat sarflaydi. Ammo, ijodkor mehnati tarixchi mehnatiga nisbatan og'irroq va mas'uliyatliroqdir. Chunki, agar tarixchini, asosan, muhim tarixiy voqeaning mohiyati, mazmuni qiziqtirsa, ijodkor har bir kichik detalning haqqoniyliги borasida ham ko'p tashvish chekadi. Tarixchi ko'rganlarini, bilganlarini xolis, haqqoniylik bilan aks ettiradi. Ijodkor esa tarixiy faktlarga tayansa ham, baribir, asarda yangi bir olam yaratadi, bu olam ijodkor badiiy tafakkuri mahsuli bo'lib, unga o'z bahosini beradi. Ijodkorning o'tmishga munosabati o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Uning tarixiy manbalarni o'qishi, o'rganishi, o'tmishning makon va zamon manzaralarini chuqur his qilishi, anglashi, idrok etishi tufayli yuzaga keladi. Tarix haqiqati badiiy asarga shundayligicha kirib kelmaydi. U yozuvchi fantaziyasi bilan to'ldiriladi, muayyan g'oyaviy maqsadga bo'ysundirilishi barobarida, avvalo, ko'z o'ngimizda bir butun mavjudlik gavdalanishi kerak. Ijodkor tarixiy asar yaratish asnosida tarixiy shaxslar bilan birga shu shaxslar obrazini yorqin mujassamlantirish, tasvir etilayotgan davr manzarasini keng va atroflicha yoritish maqsadida to'qima qahramonlar obrazini ham asarga olib kiradi. Tarixiy mavzuda asar yozuvchi muallif o'z asarida tasvirlayotgan tarixiy davr yoki tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini yoritishidan oldin tarixga oid hujjatlar, arxiv materiallari, xotiralarni sinchiklab o'rganib chiqishiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari ijodkordan tasvirlanayotgan tarixiy davrning tarixiy koloritini haqqoniy ifodalash, personajlar nutqida o'sha davr kishilari tiliga xos xususiyatlarni aks ettirish ham talab etiladi. Yozuvchi yoki shoirning tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi, kitobxonlarni tarixiy o'tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o'z xalqining tarixiy o'tmishiga nisbatan hurmat tuyg'usini uyg'otish va shu yo'l bilan ma'rifatli avlodni tarbiyalash;

zamonidoshlarni tarixiy o'tmish voqealaridan, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratli tomonlardan saboq olishga undash; bugungi voqelikdagi ayrim noxush voqea va hodisalarga tarixiy o'tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir. Tarixiy voqelikning badiiy to'qima bilan qo'shilib ketishi kitobxonga yozuvchi tasvirlayotgan davr haqiqatini yanada aniqroq va yaqqolroq tasavvur qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham adabiy asardagi badiiy to'qimani boshqa hech bir vosita bilan almashtirib bo'lmaydi. Badiiy to'qimaning boshlanishi ijodiy niyatning tug'ilishidayoq yarq etib ko'zga tashlanadi.

Tarixiy o'tmish mavzui asosan nasrning roman, qissa va hikoya, dramaturgiyaning tragediya va drama, shuningdek, she'riyatning doston, ballada, lirik she'r kabi janrlarida yoritiladi. Jahon adabiyotida tarixiy o'tmish mavzusi U. Shekspir va F. Shshiert tragediyalari, V. Skott, J. Golsuorsi, L. N. Tolstoy va boshqa yozuvchilarning romanlarida katta mahorat bilan yoritilgan.

XIX asr ingliz adabiyoti tarixida Valter Skott alohida o'rin egallaydiki, uning ingliz romantizmining gullab yashnagan davriga oid tarixiy asarlari romantizmdan realizmga o'tishning boshlang'ich bosqichlarini belgilab berdi. Rus tanqidchisi V. G. Belinskiy: "Valter Skott yangi Yevropa san'atida tarixiy ijtimoiy yo'nalishni ochdi"[4.258] deya e'tirof etadi. U o'z fikrini davom ettirib, "Asr san'atiga tarixiy yo'nalish ochish zamonaviy hayotning sirini topish demakdir"[5.278], deya ta'kidlaydi. Valter Skott romanlari XIX asr ijtimoiy roman janrining rivojlanishiga muhim bosqich bo'ldi. Balzak uning uning tarixiy romanlarini badiiy mukammallik belgilari deb xisoblagan bo'lsa, Stendal uni zamonaviy roman yozuvchilarining otasi deb ta'riflaydi. Pushkin uni "Shotlandiya sehgari" [6.6] deb ataydi. Valter Skott hayoti davomida chinakam dunyo shuxratini boshidan kecirgan adabiyot tarixidagi birinchi yozuvchi edi. "Uning asarlari Parij, Stokgolm, Varshava, Milan, va Moskvada sabrsizlik bilan o'qiladi hamda tarjima qilinadi" deb yozgan edi rus yozuvchisi Nikolay Polevoy 1826 yilda. "Bu hali hammasi emas, matematik o'z masalasining yechimini qoldirib, Skottning romanini o'qib tugatishga kirishardi; Faylasuf o'zi uchun faqat mavhum va zerikarli izlanishlar bilangina tushunarli bo'lgan inson qalbining bunday sirlarini Valter Skott mahorat bilan ochganiga hayrtda qoldi"[7.7]. Yevropaning turli burchaklaridan ham yuz minglab kitobxonlar Valter Skottning tez fursatlarda bir nechta tillarga tarjima qilingan va ko'plab nashrlarda chop etilgan yangi asarlarini sabrsizlik bilan kutardilar. Rassomlar uning asarlarini madh etib rasmlar chizar, Bastakorlar esa musiqa bastalardilar. Yuzlab Yevropalik yozuvchilar "Valter Skott uslubida" roman yaratishga urindilar. Yarim asr davomida Valter Skott buyuk ingliz dramaturgi Uilyam Shekspir singari tarixni jonli ifoda eta olgan va kitobxonlarni xayratlantirgan tarixchi sifatida tanilib keldi[8.322]. Shuning uchun ham u ingliz adabiyotida "tarixiy roman asoschisi" deya tan olingan yozuvchidir.

O'zbek adabiyotida ham jadidchilik davrining ulug' namoyandasi sifatida tanilgan yozuvchi, shoir, dramaturg va apublisist, shuningdek o'zbek adabiyotida roman janri, tarixiy roman asoschisi Abdulla qodiriyning jadidchilik g'oyalari bilan sug'irilgan asarlari mana necha yillar bo'ldiki, xalq tomonidan sevib o'qilib, o'z muxlislrini qalbini ma'nan boyitib kelmoqda. Adib o'zining har bir asarida xalqning zabun holatidan kuyib so'zlaydi, millatni uyg'onishga da'vat etadi, fikrlashga chorlaydi. Ingliz adabiyotida Valter Skott, o'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy tarixiy roman asoschilari sifatida tan olindi.

O'zbek adabiyotida zamonaviy tarixiy asar birinchi marta Abdulla Qodiriy tomonidan yaratildi. Yozuvchining "O'tkan kunlar" romani bilan o'zbek adabiyotida tarixiy roman janri maydonga keldi.



Qodiriyshunos olim B. Karimov shunday yozadi, "Alohida ta'kidlash kerakki, Abdulla qodiriy yozgan asarlar xususida o'sha davrning Vadud Mahmud, Abdurahmon Sa'diy, Miyonbuzruk Solixov kabi munaqqidlari matbuotda turli yo'sinda fikr bildirishdi. Sotti Xusaynning "O'tkan kunlar" romani tanqidiga bag'ishlangan alohida kitobi bosildi. Oybek esa "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" nomli maxsus tadqiqot yozdi"[9.143]. Mustaqillikdan so'ng Qodiriy tarjimai xolining shu paytgacha oshkor etilmagan qirrlari yangi ma'lumotlar bilan to'ldirildi. Bunga yaqqol misol qilib Abdulla Qodiriyning to'ng'ich o'g'li Habibulla Qodiriy qalamiga mansub "Qodiriyning so'nggi kunlari" nomli xotira-qissasini olishimiz mumkin. Unda ilgari ma'lum bo'lmagan faktlar, qo'lyozmalar, hujjatlar, arxiv materiallari qayta tahlil qilindi.

Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asari to'g'risida adabiyotshunos olim Izzat Sulton shunday degan edi. "Biz "O'tgan kunlar"da XIX asrdagi o'zbek xalqi hayotining keng va haqqoniy manzarasini ko'ramiz: Otabek, Yusufbek hoji, Kumush va boshqalar orqali oddiy sarbon va shohi to'quvchidan tortib, xon saroyidagi amaldorlargacha bo'lgan xalqning hamma tabaqalari ko'z oldimizdan o'tadi. Biz faqat shu hayot manzarasini yozuvchi bilan birgalikda bevosita mushohada etish natijasidagina feodal o'tmishning "eng kir, qora" kunlar bo'lgani haqidagi haqiqatga yetamiz, romanning bosh g'oyasi vatanparvarlikka da'vat ekanini fahmlaymiz"[10.98-99].

Zero, tarixiy romanlar orqali xalqlar insoniyat tarixi to'g'risida juda ham qimmatli ma'lumotlarni oladilar. Bu haqda professor Abdulla A'zamovning O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripovning ijodida tarixiy haqiqat masalasi yuzasidan aytgan mana bu fikrlarini keltirish o'rinli:

"Odatda zamonning pastu-balandi bir necha usulda tarix sahifalariga muhrlanadi. Biri – arxivlardagi hujjatlarda, davriy matbuot sahifalarida, risolalarda aks etgan ma'lumotlarki, ular ko'pincha zamonasozlik ruhi bilan sug'orilgan bo'ladi. Bunday manbalar asta-sekin tarix sandig'ining tubiga cho'kib, unutila boradi, muayyan qismigina tarixshunoslarning tadqiqot ob'ektiga aylanadi.

Ikkinchisi – tarixni bevosita boshidan kechirgan, turli voqealarga guvoh bo'lganlarning xotiralari bo'lib, ular ham o'z ko'zi bilan ko'rmsagan, o'zi ishtirok etmagan avlodga ko'pincha ertak, rivoyat bo'lib tuyula boshlaydi.

Nihoyat, yana bir tarix bor. U ham bo'lsa, badiiy adabiyotda obrazli kechinmalar orqali o'z aksini topgan tarix bo'lib, keng ommaga qaratilgani bilan alohida ahamiyatga molik. Tarixning bu shakli kitobxon ko'z oldida davrni butun murakkabliklari, fojialari va iztiroblari bilan yorqin namoyon etish qudratiga, sehriga egadir"[11.3]

O'zbekiston xalq shoiri ijodiga nisbatan Abdulla A'zamov aytgan ana shu tarifda aytilgan tarixiylikni biz hammadan ham ko'p "O'tgan kunlar"da ko'ramiz, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Oybek "Qutlug' qon" romanida Qodiriy boshlab bergan tarixiy roman an'analarini rivojlantirdi va "Navoiy" romani bilan tarixiy-biografik roman janriga tamal toshini qo'ydi. Keyinchalik O.Yoqubov "Ulug'bek xazinasi", P. Kodirov "Yulduzli tunlar", Muhammad Ali "Sarbadorlar" romanlari bilan tarixiy roman janrini yangi bosqichga olib chiqdilar. Dramaturgiyada tarixiy mavzuda asar yozish tajribasini Fitrat "Abulfayzxon" tragediyasi bilan boshlab berdi. Keyinchalik shu janrda Uyg'un va Izzan Sultonning "Alisher Navoiy", Hamid Olimjonning "Muqanna", Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek", Abdulla Oripovning "Sohibqiron" singari tragediyalari vujudga keldi va bu asarlar tarixiy shaxs obrazini yaratishda dramaturgiyaning badiiy imkoniyatlari katta ekanini namoyish etdi. She'riyatda esa

turli davrlarda Rafik Mo‘minning "Qapchig‘ay", Oybekning "Navoiy" va "Hamza", Sulton Jo‘raning "Bruno", Usmon Azimning "Xalil Sulton", Azim Suyunning "Sarbadorlar" singari dostonlari yaratilib, ular tarixiy mavzudagi dostonlarning badiiy tamoyillarini belgilab berdi.

Xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki badiiy adabiyot ommaviylik xususiyatiga egaligi sabab, unda keltirilgan tarixiy faktlar keng omma tomonidan mutolaa qilinadi va shu tariqa ma‘lum bir hudud va xalqning konkret zamon bilan bog‘liq bo‘lgan o‘tmish sirlaridan tarix faniga unchalik qiziqmaydigan kitobxon ham xabardor bo‘ladi. Tarixchi mutaxassis olimlar tomonidan yaratilgan tarixiy faktlarga asoslangan ilmiy asarlar esa faqat shu soha vakillarinigina qiziqtiradi. Xonlik davridagi tarixiy voqealardan o‘zbek xalqining aksariyat qismi tarix kitoblarini o‘qib emas Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar" romanini qayta qayta o‘qish orqali xabardor bo‘lganlar. Tarixiy mavzudagi asarlar orqali kitobxonlar tarixiy o‘tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishadilar, ularda o‘z xalqining tarixiy o‘tmishiga nisbatan hurmat tuyg‘usi paydo bo‘ladi va shu orqali ijodkor ma‘rifatli avlodni tarbiyalash; o‘z zamondoshlarini tarixiy o‘tmish voqealaridan va tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratli tomonlardan saboq olishga undashdek muhim vazifani uddalaydi. Tarixiy mavzuda yaratilgan har qanday badiiy asar oradan har qancha vaqt o‘tmasin, ham badiiyligi sabab, ham ozida tarixiy faktlarni mujassam etganligi sabab o‘quvchilar e‘tiborini o‘ziga tortaveradi va shu sabab ular xorijiy tillarga to‘xtovsiz, qayta-qayta tarjima qilinadi.

Adabiyotlar

1. <https://aim.uz/kitoblar/ilmiy-o-o-quv-adabiyotlar/23208-o-zbekiston-milliy-ensiklopediyasi-t-harfi.html>
2. <https://www.britannica.com/art/historical-novel>
3. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2020. – B.22.
4. Белинский В.Г. Полное собрание сочинений. М.: Изд-во АН СССР, 1956. –Т.6.-С.258.
5. Белинский В.Г. Полное собрание сочинений. М.: Изд-во АН СССР, 1956. –Т.6.-С.278.
6. Скотт В. Собрание сочинений в двадцати томах.-М.Л.: Художественная литература, 1960. -Т.1.-С.6.
7. Долинин А. История, одетая в роман. –М.: Книга, 1988. –С.7.
8. Берт. Д. Вальтер Скотт. Берт. Д. Сто лучших литераторов. –М., 1999. –С. 322.
9. Каримв. Б. А. Қодирий(1894-1938). Ўткан кунлар. шарх //жаҳон адабиёти. 2013. -№4, - Б.143
10. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи нашриёти, 2005. – Б.98-99.
11. Аъзамов Абдулла. Юзма-юз. / Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. – Тошкент, 2011 йил, 18-февраль сони, - Б.3.



BADIIY MATN TARJIMASIDA MILLIYLIKNI AKS ETTIRISH MUAMMOLARI (XOLID HUSAYNIY ASARI “MING QUYOSH SHU’LASI” MISOLIDA)

To’xtanova Mumtozbeqim Ortiqali qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: tuhtanovamumtoza@gamil.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqola afg'on-amerika yozuvchisi Xolid Husayniyning “Ming quyosh shu’lasi” asari parchalari va uning rus va o'zbekcha tarjimalari haqida ma'lumot beradi. Maqolada asardagi ba'zi so'z, gap va jumalarning rus va o'zbek tillariga tarjima qilish jarayonidagi o'ziga xos jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:** milliylik, badiiy tarjima, so'z san'ati, asliyat tili, muqobil vosita, tarjima muammolari.*

THE PROBLEMS OF REFLECTION OF NATIONALITY IN THE TRANSLATION OF A LITERARY TEXT (IN THE EXAMPLE OF KHALED HOSSEINI’S WORK “A THOUSAND SPLENDID SUNS”)

Tukhtanova Mumtozbeqim
Phd student at Namangan state university
e-mail: tuhtanovamumtoza@gamil.com

***Annotation:** This article provides some pieces of the work of the Afghan-American writer Khaled Hosseini “A Thousand Splendid Suns” and its Russian and Uzbek translations. Translation of some words, phrases and sentences into Russian and Uzbek languages and the specific aspects of this process has been discussed in the article.*

***Key words:** nationality, literary translation, target language, source language, alternative, translation problems.*

ПРОБЛЕМЫ ОТРАЖЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОСТИ В ПЕРЕВОДЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ХАЛЕДА ХОССЕЙНИ «ТЫСЯЧА СИЯЮЩИХ СОЛНЦ»)

Тухтанова Мумтозбегим
докторант Наманганского государственного университета

***Аннотация:** В данной статье приведены некоторые фрагменты произведения афганско-американского писателя Халеда Хоссейни “Тысяча сияющих солнц” и его переводах на русский и узбекский языки. В статье рассмотрены особенности перевода некоторых слов, словосочетаний и предложения на русский и узбекский языки.*

***Ключевые слова:** национальность, художественный перевод, язык перевода, язык оригинала, альтернатива, проблемы перевода.*

Kirish

Tarjima murakkab jarayon bo'lib, o'zaro ko'p tomonlama bir necha xalqlar madaniyatlari va ularning tillari ishtirokida bo'ladi. Xalqlar hech qachon bir-birlaridan mutlaq ajralgan holda yashashlari mumkin bo'lmagani singari, ularning moddiy va madaniy

yodgorliklari, adabiyoti va san'ati ham hech qachon faqat bir milliy chegara doirasida "sof holda" saqlanib qolmagan. Ko'p asrlik an'anaga ega bo'lgan milliy adabiyotlarning hammasida ham tarjima o'ziga munosib o'rinni egallaydi. Badiiy tafakkur mevasi bo'lmish so'z san'atining tur va xillari, uslub va usullari rang-barang bo'lganidek, uning tarjimasida ham xilma-xil tadbirlar, yo'llar, usul va uslublar mavjud. Bu hol badiiy tarjima oldiga qo'shimcha ravishda yana bir qancha muammolarni ko'ndalang qilib qo'yadi. Tillar orasidagi sof lisoniy farq natijasida badiiy asar tarjimasida o'ziga xos milliy, intonatsiya, uslub va hokazo masalalar ham ko'ndalang bo'lib turadi.

Tarjimon o'zi o'girayotgan kitob matni ichra chegaralangandir. Asardan tashqariga chiqolmaydi, lekin qisqartirishga ham uning haddi sig'maydi. Qisqacha qilib aytganda, tarjimon mavjud narsani faqat tarjima qiladi. Lekin tarjima dargohi bu qadar chegaralangan bo'lishiga qaramay, u so'z san'ati jumlasiga kiradi. Buning sababi, tarjimon til sohasida ijod qiladi. Tilning asosiy qurilish materiali esa so'zdir. Badiiy adabiyot uchun g'oyatda muhim bo'lgan ko'rsatkichlar – badiiylik, obraz va obrazlilik, majoz va majoziylik – barchasi so'z zamirida yashiringan, so'zda o'z ifodasini topadi va so'z orqali reallashadi. Binobarin, so'z tanlash badiiy tarjimada birlamchi ahamiyatga ega. Biroq masalaning boshqa tomoni ham bor. Badiiy tarjimada asosiy gap alohida olingan biron so'z yoki jumlaning tarjimon qanday o'girganidagina emas, balki badiiy tarjimada asosiy mezon talqindir. Ushbu jarayon esa uch bosqichda: 1) *asl nusxani tarjimon qanday tushunishi*. 2) *asarning g'oyasi, avtorning maqsad-muddaosi va uning o'ziga xos uslubini qanday talqin qilishi*. 3) *so'z san'ati namunasi o'z ona tilida qayta tiklashda muqobil vosita, tadbir va tadorik topa olishi bilan amalga oshadi*.

Adabiyotlar tahlili

Ma'lumki, Xolid Husayniyning "Ming quyosh shu'lasi" asari o'zbek tiliga tarjimasini Rustam Jabborov, rus tiliga tarjimasini esa S.Sokolova tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, asar mohiyatini kitobxon-o'quvchilarga go'zal tarzda yetkazib berish uchun tarjimalar ustida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, ushbu asar tarjimalari ustida to'g'ri tadqiqot olib borish uchun kerakli adabiyotlardan foydalanish juda muhimdir. Bunda S.I.Vlaxov va S.P.Florinlarning "Непереводимое в переводе" (2006)[6]; G'aybulla Salomovning "Tarjima nazariyasiga kirish"(2015)[5] va Zohidjon Sadiqovning "Tarjima nazariyasi va amaliyoti"lari (2023)[3] tadqiqotimizda katta ahamiyatga egadir.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada ba'zi bir xos so'zlar, jummalarning o'zbekcha va ruscha tarjimalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Aniqki, badiiy asarni o'girishda asosiy omil original lug'atini tarjimachi-tilning muqobil-lug'ati bilan almashtirish emas, balki muallifning o'zligi, asar konsepsiyasi, ayni asrda aks etgan so'z san'atini qayta ifodalay olishdan iborat. Badiiy tarjimoni ilmiy tavsiflash eng qiyin xossasi shundaki, bunda so'zni-so'z bilan emas, balki ma'noni-ma'no, ohangni-ohang, obrazni-obraz, yumorni-yumor bilan berish muhim ahamiyatga egadir. Maqola qiyosiy-chog'ishtirma asnosida olib borilgan bo'lib, unda asliyat va tarjima matnidagi tipologik o'xshatishlik va farqlarni ko'rsatish, hamda tarjima usullarini aniqlashdan foydalanildi.

Tahlillar na natijalar

Tarjimada asl nushaning butun borlig'i, uning san'at asari sifatida xarakterlaydigan barcha asosiy belgilar – muallifni boshqa adiblardan yaqqol ajratib turadigan o'ziga xos ovozi, uslubi, "qalamining izi" aks etmog'i darkor. Voqea va manzarani miridan-sirigacha birma-bir tasvirlovchi romanist bilan aksariyat atigi birgina so'z, ramz, timsol, detal vositasida unutilmas

obraz, ta'sirchan g'oya yaratuvchi novellist asarlarining tarjimasiga nisbatan bir xil yagona tadbir qo'llab bo'lmasligi aniq. Yozuvchining asarida har bir so'z "otar" ekan, demak, mutlaqo har bir kalimani tarjima qilish lozim, aks holda tarjima "otmaydi". Shu bilan birga, vaqti kelganda, so'zni, jumlani, gapni "qurbon" qilmay, qo'shmasdan, o'zgartirmasdan tarjima qilib ham bo'lmaydi. Demak, tarjimon kimda, qayerda, qachon, nimani oqizmay-tomizmay saqlash keraku, qayerda, nimani qurbon berish, o'zgartirishni bilishi kerak.[4] Holid Husayniyning "Ming quyosh shu'lasi" asari o'zbekcha va ruscha tarjimalarida mutarjimlar iloji boricha afg'on hayoti tasvirini, muallif g'oyasini va obrazlarni o'z ona tilisiga tarjima qilib, o'quvchiga yetqizishga harakat qilishgan:

Asliyatda: *Mariam was five years old the first time she heard the word harami. It happened on a Thursday. It must have, because Mariam remembered that she had been restless and preoccupied that day, the way she was only on Thursdays, the day when Jalil visited her at the kolba. To pass the time until the moment that she would see him at last, crossing the knee-high grass in the clearing and waving, Mariam had climbed a chair and taken down her mother's Chinese tea set. The tea set was the sole relic that Mariam's mother, Nana, had of her own mother, who had died when Nana was two. Nana cherished each blue-and-white porcelain piece, the graceful curve of the pot's spout, the hand-painted finches and chrysanthemums, the dragon on the sugar bowl, meant to ward off evil.[1]*

Ruscha tarjimada: *Мариам было пять лет, когда она впервые услышала слово харамии. Судя по всему, случилось это в четверг. Уж очень не по себе ей было, она просто места себе не находила. Ведь по четвергам к ним приходил Джалиль. Чтобы скоротать время (вот-вот он появится, помашет издали рукой, подойдет, по колено в высокой траве), Мариам забралась на стул и взяла с полки матушкин китайский чайный сервиз, единственную память после бабушки, матушкиной мамы, которая умерла, когда Мариам было два годика. Нана, мама Мариам, надышаться не могла на бело-голубые фарфоровые чашки в птицах и хризантемах, на чайник с благородно изогнутым носиком, на сахарницу с драконом, призванным отгонять силы зла.[7]*

O'zbekcha tarjimada: *Марям илк бор «хароми» деган сўзни эшитганида беш яшар қизалоқ эди. Хулласи калом, бу ҳодиса пайшанбада юз берганди. Ўшанда унинг эс-ҳуши жойида эмас, ўзини қўярга жой тополмасди. Ахир пайшанба кунлари уларнинг ёнига Жалил келарди-да! Вақтни тезроқ ўтказиш учун (ҳадемай у узоқдан қўлларини силкитганча, тизза бўйи ўтларни босиб кела бошлайди) Марям стулнинг устига чиқиб олди ва тоқчадаги хитойи чинниларга қўл узатди. Бу чинни сервиз Марямнинг икки яшарлигида дунёдан ўтган бувисидан қолган ягона ёдгорлик бўлиб, ойиси уни кўз қорачигидек асрарди. Нана (Марям ойисини шундай атарди) қушлар ва хризантема гуллари тасвири туширилган пиёлаларни, тумшуги эгик чойнакни, ёвуз руҳларни қувадиган аждар нухаси солинган қанддонни, ҳатто ишлатишга ҳам кўзи қиймасди.[2]* Asar originaliga e'tibor qaratisla "haromi" va "kulba" so'zlarini yozuvchi ingliz tilida ekvivalent tarjimalarida emas, balki o'z ona tilidagi ekvivalent so'zlardan foydalanganligiga guvoh bo'lamiz. Buning sababi ushbu so'zlarning ingliz tili ekvivalentlari avg'on hayotini yorqin yoritib berolmasligidan va ifoda etolmaganidan asar muallifi o'z ona tilidan foydalangan. Va bu so'zlar o'zbek tilida ham o'z ma'nosini saqlab qolgan bo'lib, asarda keltirilgan ma'nolarda ishlatilindi, shu sababli ham bu so'zlarni o'zbek tilida qayta yaratishga hojat qolmaganligidan, ularning tarjimasini bir muncha yengillashadi. "Тоқчадаги хитойи чинниларга қўл узатди" jumladagi tokcha original matnda mavjud emas. Albatda tarjimon bu so'zni shunchaki

qo'shib qo'ymagan, mutarjim afg'on hayoti va sharoiti bilan yahshi tanishligi ko'rinib turibti. O'zbek tilidagi *tokcha* so'zi uy ichida devordan bo'rttirib chiqarilgan joyni anglatishi hech kimga sir emas, qadimda bu idish-tovoq terib qo'yish uchun foydalanilgan. Asar tarjimasida *tokcha* so'zining qo'shib qo'yilishi asarga yanada ko'rk va o'quvchiga milliylik ruhini bahshida etadi. Endi keying jummalarga e'tibor qaratsak: "The tea set was **the sole relic** that Mariam's mother, Nana, had of her own mother, who had died when Nana was two." – "Бу чинни сервиз Марямнинг икки яшарлигида дунёдан ўтган бувисидан қолган ягона ёдгорлик бўлиб, ойиси уни **кўз қорачигидек асради**." Ushbu gapdagi "**the sole relic**" iborasi o'zbek tiliga "**ko'z qorachigidek asrardi**" iborasiga tarjima qilingan. Ingliz tilidagi *relic* so'zi qadimdan yodgorlik bo'lib qolgan buyum va narsalarga ishlatiladi, *sole* so'zi esa *yagona* ma'nosini anglatib, bu ikki so'zni birlashtirgan holda esa tarjimon *ko'z qorachigidek asraydi* iborasini tanlagan. Buning sababi original matnda chinnilar ota-onadan qolgan yodgorlik deb tasvirlanyapti. Har qanday aziz va yodgorlik bo'lib qolgan narsa-buyumlarni inson ko'z qorachigidek asrab avaylashi tabiiy hol, bundan ko'rinib turiptiki *ko'z va qo'rachig'* inson uchun nozik va aziz hisoblanishi tufayli ham o'zbek tilida ushbu ibora qo'llaniladi. Ruscha matnda esa bu iborani "*единственную память*" deb to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilingan. Afg'oniston va O'zbekiston mintaqasida yahsovchi aholining aksariyati musulmonlar bo'lib, ular qadimdan bir-biriga yaqin millatligi ham sir emas. Shu sababli ham tilmoch uchun afg'on hayotini o'zbek tilida tasvirlash ancha qo'l kelgan.

Yana bir misol uchun "Ming quyosh shu'lasi"ning ikkinchi bobiga e'tiborni qaratsak:

Asliyatda: *To Jalil and his wives, I was a pokeroot. A mugwort. You too. And you weren't even born yet.* "What's a mugwort?" Mariam asked. "A weed," Nana said. "Something you rip out and toss aside." Mariam frowned internally. Jalil didn't treat her as a weed. He never had. But Mariam thought it wise to suppress this protest. "Unlike weeds, I had to be replanted, you see, given food and water. On account of you. That was the deal Jalil made with his family." Nana said she had refused to live in Herat. "For what? To watch him drive his kinchini wives around town all day?"[1]

Ruscha tarjimada: – Джалиль и его жены видели во мне что-то вроде чертополоха. Бурьяна-чернобыльника. Да и в тебе тоже. Ты ещё и родиться-то не успела, а уже удостоилась презрения. – Что такое чертополох? – спросила Мариам. – Сорная трава, – ответила Нана. Её надо пропалывать. И вон из поля. Мариам тайком насупилась. Чтобы Джалиль относился к ней как к сорняку! Да никогда такого не было! Но она почла за благо промолчать. – Другое дело, что меня как-никак надо кормить-поить. Ведь у меня на руках ты. Ну уж насчет этого он с семейством договорился. По словам Наны, в Герате она жить не захотела. – Чего ради? Смотреть, как он разъезжает по городу со своими женами?[7]

O'zbekcha tarjimada: – Jalil va uning xotinlari uchun men oddiy qichitqio't yoki ajriqdan boshqa narsa emasdim. Sen ham. Hali tug'ilmasingdan turib ularning nafratini qozongansan! Meni yedirib-ichirish boshqa masala edi. Axir, qo'limda sen bor eding! Keyin bu masalada u uyidagilar bilan kelishib olgan ko'rinadi. Nananing aytishicha, uning o'zi Hirotda qolishni istamagan. – Nima qilaman qolib? Xotinlarini olib, shaharni qanday kezishini tomosha qilish uchunmi?[2]

Original matndagi *"I was a pokeroot. A mugwort."* **Pokeroot** va **mugwort** soʻzlari insonga nisbatan qiyoslangan boʻlib, **pokeroot** soʻzi aslida zaharli oʻtga nisbatan, **mugwort** soʻzi esa dorivor oʻsimlikka nisbatan ishlatiladi. Oʻzbekcha tarjimasida esa ushbu soʻzlar **qichitqioʻt** va **ajriq** deb berilgan. Tarjimonning **qichitqioʻt** va **ajriq** soʻzlaridan foydalanganining sababi, oʻzbek tilida ushbu soʻzlar insonga nisbatan ishlatilganida nafratlantiruvchi, gʻazabni keltiradigan va keraksiz maʼnolarini anglatadi. Baʼzi hollarda esa tarjimon original matnda berilmagan boʻlsa-da baʼzi soʻzlarni gap maʼnosiga qarab kerakli soʻzlarni tarjima qilinayotgan tilga qoʻshib qoʻyishi mumkin: *"You too. And you weren't even born yet."* – **Sen ham. Hali tugʻilmasingdan turib ularning nafratini qozongansan!** Original matndagi *"Sen ham"* jumlasini – oldingi gapni davomi boʻlib, sen ham ular uchun **qichitqioʻt** va **ajriq** hisoblanasan degan maʼnoni anglatadi. Sen ham shunday hisoblanasan deb tarjima qilishning oʻrniga tilmoch yumshoqroq chiqishligi uchun tarjimon *"ularning nafratini qozongansan"* jumlasini qoʻshib jumla chegarasidan chiqqan, ammo bu bilan muallifdan, asardan, obrazdan uzoqlashmagan, aksincha, muallif talqiniga, maqsadiga yanada yaqinlashgan. Lekin baʼzi joylarda esa tarjimon jumalalarni yoki dialoglarni tarjima qilmay tushirib qoldirgan. Misol uchun original matndagi: *"What's a mugwort?" Mariam asked. "A weed," Nana said. "Something you rip out and toss aside. Mariam frowned internally. Jalil didn't treat her as a weed. He never had. But Mariam thought it wise to suppress this protest."*[1] jumlar oʻzbekcha tarjimasida berilmagan. Buning sababi, ushbu matn parchasi yosh bola va ona oʻrtasidagi suhbat boʻlib, undagi maʼno oʻzbek mentalitetiga toʻgʻri kelmaganidan, tarjimon ushbu parchani ortiqcha deb hisoblab tarjima qilmagan. Ammo ruscha tarjimasida *"–Сорная трава, – ответила Нана. Её надо пропалывать. И вон из поля. Мариам тайком насупилась. Чтобы Джалиль относился к ней как к сорняку! Да никогда такого не было! Но она почла за благо промолчать."*[7] deb toʻliq tarjima qilingan. Yuqorida berilgan original matn parchasining keyingi gaplaridagi baʼzi soʻzlar ham tarjima matnlarida tushib qolgan:

Asliyatda: *Nana said she had refused to live in Herat. "For what? To watch him drive his kinchini wives around town all day?"*

Ruscha tarjimada: *По словам Наны, в Герате она жить не захотела. – Чего ради? Смотреть, как он разъезжает по городу со своими женами?*

Oʻzbekcha tarjimada: *Nananing aytishicha, uning oʻzi Hirotda qolishni istamagan. – Nima qilaman qolib? Xotinlarini olib, shaharni qanday kezishini tomosha qilish uchunmi?* Original matndagi *"kinchini"* soʻzi *"A Thousand Splendid Suns Vocabulary"* ga koʻra haqoratomus soʻz boʻlib, *"kinchini – derogatory word meaning prostitute"* ni anglatadi. Ushbu maʼno oʻzbek mentalitetiga toʻgʻri kelmagani sababli ham tilmoch bu soʻzni tushurib qoldirgan. Ammo tarjimon *xotinlarini* oʻrniga *xotin-chalarini* degan jumla bilan boshlagani-da edi, original matndagi maʼnoga, obrazga yaqinlashgan boʻlar edi. Chunki oʻzbek tilida baʼzi narsalarga *-cha* qoʻshimchasini qoʻshish orqali soʻz maʼnosi kichiraytiriladi, lekin insonga nisbatan ishlatilganda esa kinoya va nafratni ifodalaydi.

Xulosa

Xulosa o'rnida ustozim tarjimashunos olim Zohidjon Sadiqovning fikrlarini keltirmoqchiman. "Tarjima nutq faoliyatining shunday birligiki, uni amalga oshirish jarayonida bir tilda yaratilgan matn nutq faoliyati maxsuli sifatida ikkinchi til vositalari bilan qayta yaratiladi. Tarjima qilish uchun esa ekvivalentlikka erishish maqsadida muayyan minimal (eng kichik) tarjima birligini tanlash talabi kelib chiqadi. Tarjima birligi bevosita tarjima jarayoniga taalluqli bo'lganligi bois u o'zgaruvchan xarakterga ega." [3] Badiiy matn tarjimasi ham adekvat tarjimaga erishish uchun tarjimondan uzoq vaqt, chuqur bilim va tafakkur, kop izlanishlar, va o'z o'rnida o'sha davr va makon madaniyati, turush-turmushi haqida yetarli tasavvurga ega bo'lishi talab qilinadi. Ayniqsa, badiiy tarjimada milliy xos so'zlarni to'liq o'rganib, tarjima qilinayotgan tilda ekvivalentlarini topa bilish so'ngra tarjima qilish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Khaled Hosseini, "A thousand splendid suns" – Bloomsbury Publishing Plc, 36 Soho Square, London W1D 3QY – 2007;
- 2) Xolid Husayniy, "Ming quyosh shu'las". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. Rustam Jabborov tarjimasi;
- 3) Zohidjon Sadiqov "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi timonidan nashrga tavsiva etilgan – Toshkent: Bookmany nashriyoti, 2023;
- 4) G'aybulla Salomov – "Tarjima nazariyasi asoslari" Toshkent – "O'qituvchi" – 1983;
- 5) G'aybulla Salomov – "Tarjima nazariyasiga kirish" Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2015;
- 6) С.И.Влахов, С.П.Флорин "Непереводимое в переводе" Изд.3-е, испр. И доп.– М.: "Р. Валент", 2006;
- 7) Халед Хоссейни – "Тысяча сияющих солнц": - Пер. с англ. С. Соколов – М.: Фантом Пресс; 2020.



SHIFO FENOMENOLOGIYASINING TIBBIYOT OLIMLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI

Axmedova Shaxodat Maxmutovna

Termiz davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: shaxodat@mail.ru

Аннотация. Kasallik, zaiflik va qarish bilan uchrashish insonning o'zi, tanasi, boshqalar va dunyo bilan tajribaviy munosabatlarini buzishi mumkin. "Sog'ayish" inson o'z dunyosini qayta integratsiyalash imkoniyatiga ega bo'lganda sodir bo'ladi, garchi kasallik tibbiy jihatdan davolanmasa ham. Tananing fenomenologiyasidagi ishlarga asoslanib, ushbu maqola odamlarning har biri og'riqli yoki shifoga muhtoj tanaga yo'naltirishning turli usullarini ifodalovchi bir qator "davolash strategiyalari" ni ko'rib chiqadi.

Калит so'zlar: moslashish, qarish, yengish, mujassamlash, salomatlik, kasallik, og'riq.

ИЗУЧЕНИЕ ФЕНОМЕНОЛОГИИ ЦЕЛИТЕЛЬСТВА УЧЕНЫМ ПО МЕДИЦИНЕ

Ахмедова Шаходат Махмутовна

преподаватель кафедры английского языка и литературы Термезского государственного университета

E-mail: shaxodat@mail.ru.

Аннотация. Столкновения с болезнями, нарушениями и старением могут нарушить эмпирические отношения человека с собой, телом, другими и миром. «Исцеление» происходит, когда человек способен реинтегрировать свой мир, даже если это состояние неизлечимо с медицинской точки зрения. Основываясь на работах по феноменологии тела, в этой статье исследуется ряд «стратегий исцеления», которые используют люди, каждая из которых представляет собой особый способ ориентации на болезненное или поврежденное тело.

Ключевые слова: адаптация, старение, преодоление, воплощение, здоровье, болезнь, боль.

STUDY OF HEALING PHENOMENOLOGY BY MEDICAL SCIENTISTS

Axmedova Shaxodat Maxmutovna

teacher of the department "English Language and Literature", Termiz State University

E-mail: shaxodat@mail.ru

Annotation. Encounters with illness, impairment, and aging can disrupt one's experiential relationship with self, body, others, and world. "Healing" takes place when the individual is able to re-integrate his or her world, even if the condition is not medically curable. Drawing on work in the phenomenology of the body, this article examines a series of "healing strategies" individuals employ, each representing a different way of orienting toward the painful or impaired body.

Key words: adaptation, aging, overcoming, incarnation, health, illness, pain.

Kirish

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda xorijiy tillar, xususan ingliz tiliga bo'lgan e'tibor yildan yilga kuchayib bormoqda. Shu nuqtai nazardan ingliz tilidagi ba'zi bir tushunchalarning tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilishi ushbu tilni yanada chuqurroq tadqiq etishga imkon

beradi. Mana shunday masalalardan biri tibbiyot sohasi bilan bog'liq bo'lgan "shifo" fenomenologiyasi bo'lib, ushbu sohaga oid tadqiqotchilarning izlanishlarini o'rganish bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

XV asrda yashagan shveysariyalik shifokor va faylasuf Paracelsus shifo tabibdan emas, tabiatdan keladi, degan va "shifokor fikrini ham bilish kerak" deb qo'shimcha qilgan. Buyuk Britaniyadagi Ekseter universitetining salomatlik va farovonlik bo'yicha faxriy professori Pol Dieppe shifo fenomenologiyasiga qiziqadi va hozirda bu mavzuda kitob yozmoqda. U shunday tushuntiradi: "Shifokorlar va davolash usullari jamiyatdagi insoniyat kabi qadimiydir va barcha madaniyatlar va mamlakatlarda mavjud. [1] Professor Dieppe hamkasblari Sara Goldingay, Sara Uorber va Emmylou Rahtz bilan turli tadqiqot loyihalarini amalga oshirdi va shifokorlar, qo'shimcha tibbiyot amaliyotchilari, tabiblar va jamoatchilik vakillari bilan suhbat o'tkazdi. [4]

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada mavzuni to'liqroq yoritib berish uchun taqqoslash, analiz, sintez kabi ilmiy-tadqiqot metodlari va usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar

Fenomenologiya deganda avvalambor nimani tushunamiz? Fenomenologiya - muayyan hodisani ko'rib chiqadigan va uni iloji boricha kamroq buzish yoki talqin qilish bilan tavsiflashga harakat qiladigan fan. Tadqiqotning fenomenologik usuli intuitiv, cheksiz, puxta, tavsifiy va ongli hayot hodisalarini oydinlashtirishdan iborat. Shifo - bu so'z aslida nimani anglatadi, ya'ni shifo deganda nimani tushunamiz? Bu an'anaviy tibbiyot tabiblardan nimani o'rganishi mumkinligini va shifo fenomenini aniqlash bo'yicha tadqiqot olib borayotgan Buyuk Britaniyaning Exeter universiteti professori Dieppe tomonidan berilgan savol. Asosiy muammo shundaki, "shifo beruvchi" yoki "shifobaxsh" atamalarining ma'nosi haqida umumiy tushuncha yo'q. Bir lug'atda "shifolash" "sog'lom yoki sog'lom bo'lish yoki qayta tiklanish jarayoni" deb ta'riflanadi va biz odatda yaralar yoki jarohatlar kontekstida "shifo" haqida gapiramiz. Biroq, "shifo" yoki shifolash (davolash) insonning aqliy, hissiy, jismoniy va ruhiy o'lchamlarini yanada birlashtiradigan hamda ong, tana va ruhni qayta birlashtiradigan yaxlit jarayon ekanligini tushunish bilan bog'liq bo'lgan murakkabroq ma'nolarni o'z ichiga oladi. Professor Dieppe: "Bu so'z hamma joyda mavjud: u aralashuv, holat, jarayon yoki natijani anglatishi mumkin va u har qanday muammolar, jumladan tabiat va yer, hayvonlar va odamlar haqida ham qo'llanilishi mumkin, - deydi. Mening qiziqishim alohida, bu esa odamlarni davolashga qaratilgan: bu nima, uni nima osonlashtirishi mumkin, uning sog'lom turnush tarzi bilan aloqasi va biz uni davolash ilmi bilan qanday integratsiyalashimiz mumkin", - degan fikrlarni, u shifolash yoki sog'lomlikni tiklash tushunchasi bilan taklif qiladi. [2]

Professor Dieppe va uning hamkasblari keng jamoatchilikning shifo haqida qanday fikrda ekanligini bilish uchun tadqiqot o'tkazish jarayonida jamiyat a'zolaridan qalam va qog'ozdan foydalanib, "shifo" so'zi ular uchun nimani anglatishini chizish va tadqiqotchilarga o'z chizmalarini tushuntirishni talab qildilar. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik odamlar shifoni tushuntirish uchun metaforalardan foydalanganlar va ular buni uchta asosiy model bilan tasvirlashgan. Kimdir shifoni quyosh kabi buyuk tashqi kuchdan kelib chiqqan holda tasvirlaydi va ko'pincha uni metafizik nuqtai nazardan ma'naviy o'lchovga ega deb ta'riflaydi, masalan, "qandaydir ong yoki sog'lom tana". Odamlarning taxminan uchdan bir qismi shifo boshqa odamlardan keladi deb ishonishgan va odamlarni davolayotganlarni tasvirlashgan. Chizmalar

ko'pincha qo'llarga qaratilgan va ba'zi odamlar shifo ikki tomonlama jarayon ekanligini ta'kidladilar. Kuchli tashqi kuchdan keladigan shifo g'oyasi ham tasvirlangan, bu-turli e'tiqod tizimlarida turlicha o'xshashliklarga ega, masalan, ruhoniylar kasallarni shifolash uchun xudoning shafosatini so'rashlari, shuningdek, shamanlar ruhlar olamiga kirishlari va kosmos energiyasini yo'naltiruvchi tabiblar bo'lishi mumkin. Bundan farqli o'laroq, shifolashning inson o'zida paydo bo'lishi haqidagi g'oya ham mavjud. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, odamlarning davolanishga bo'lgan qarashlari murakkab va nozik bo'lib, ko'p odamlar bir nechta qarashlarni tan olishadi. Professor Dieppening fikricha, klinik tibbiyot bundan saboq olishi mumkin: "Tizim va shifokorlar keng jamoatchilik tomonidan tushunilgan ushbu shifo jarayonlarini izlash, tan olish va ularga moslashishda sog'liqni saqlashda eng yaxshi natijalarga erishish mumkin". [3]

Boshqa bir tadqiqotda professor Dieppe va uning hamkasblari o'z mijozlarining demografiyasi, sog'lig'i muammolari va davolanish tajribasi haqida ko'proq ma'lumot olish uchun Buyuk Britaniya shifokorlari bilan bemorlar o'rtasida so'rov o'tkazdilar. Ishtirokchilarga Buyuk Britaniya shifo tashkilotlari konfederatsiyasi orqali kirishdi va natijalar tahlil qilindi. Mijozlarning to'rtidan uch qismi ayollar bo'lib, mijozlarning o'rtacha yoshi 56 yoshda edi. Yordam so'ragan odamlarning sabablari turlicha edi va mijozlarning uchdan ikki qismi bir nechta sabablarga ega edi. Bularning deyarli yarmi tashvish, ruhiy tushkunlik va stress kabi ruhiy salomatlik muammolarini, uchdan bir qismi esa mushak-skelet tizimining og'rig'i yoki bosh og'rig'i kabi surunkali og'riqlarni eslatib o'tdi. Mijozlarning 18 foizi yurak yoki o'pka kasalligi yoki saraton kabi o'ziga xos holatlar haqida, 11 foiz umumiy shifo va 10 foiz charchoq haqida gapirgan. 93% hollarda terapevt mijozlar shifo seansi davomida darhol shifo topganligini aytgan. Taxminan 57% mijozlar o'zlarini erkinroq his qilishlarini aytishdi. Professor Dieppening ta'kidlashicha, tadqiqotda ko'rsatilgan davolash amaliyotlari davolovchining to'g'ri harakati va muomala usuli muvaffaqiyatliroq bo'lganligi bilan bog'liq. Biroq, shifolash seansi paytida nima sodir bo'lishi haqidagi ko'plab sharhlar barcha shifo amaliyotlarida ko'plab odamlar tomonidan turlicha fikr berilgan. Tadqiqotda aytilishicha: "shifolash odatda mijozlar uchun ijobiy jarayon bo'lib, turli xil natijalar, jumladan simptomatik yengillik, salomatlikning yaxshilanishi va dam olishni anglatadi". Zamonaviy tibbiyot kasalliklarni tushunish va davolashda ulkan yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, bemorni butun shaxs sifatida ko'rishni yo'qotish xavfi bor. Professor Dieppening fikricha, ko'plab mijozlar tomonidan bildirilgan hissiy qarashlar ayniqsa qiziqarli va shifokor hamda mijoz o'rtasidagi o'zaro ta'sirning dalilidir, bu energiya oqimi bilan bog'liq shifo tushunchasiga mos keladi. [1]

Klinik uchrashuvlarda g'amxo'rlik qilish bo'yicha so'nggi tadqiqotlarda professor Dieppe va uning hamkasblari adabiyotlarni ko'rib chiqishdi va "shifokorlar insoniyatga bo'lgan qiziqishlarini va klinik ishlarida g'amxo'rlik kuchidan qanday qilib ongli ravishda foydalanishlari mumkinligi" haqida ko'proq ma'lumot olish uchun bemorlar bilan suhbatlashdilar. Dalillar shuni ko'rsatadiki, g'amxo'rlik bilan maslahatlashish uchun to'rtta element mavjud. Birinchisi, "shifokor ham, bemor ham o'zini xavfsiz his qilishi kerak". Bu bemor va shifokor o'rtasida iliq muhit yaratishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, g'amxo'rlikni bildiruvchi so'zlar va xatti-harakatlardan foydalanish va sezgirlikni ko'rsatish muhimdir. Bunga og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot kiradi, masalan, ko'z bilan aloqa qilish va tabassum. Uchinchi element ham xuddi shunday ulanish bilan bog'liq - "to'liq mavjud bo'lish va tenglik". Professor Dieppening fikricha, an'anaviy tibbiyot ulardan salomatlik haqida yana nimani o'rganishi



mumkinligini ko'rish uchun davolanishga yordam beradigan amaliyotlarning ta'siri bo'yicha ko'proq tadqiqotlar o'tkazish kerak. Ko'plab tadqiqotlar o'tkazish jarayonida shunday xulosaga kelindiki, shifokorlar bemor bilan uchrashishda diqqatni markazlashtirib, bemor bilan uchrashishga tayyorgarlik ko'rishlari kerak. Ushbu amaliyot ularga o'zlarining haqiqiy shaxsini boshqa odamga yetkazishga yordam beradi.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, tana fenomenologiyasiga asoslanib, ushbu maqolada odamlar tomonidan qo'llaniladigan "shifo strategiyasi" ni ko'rib chiqishga harakat qilindi, ularning har biri kasal yoki zaiflashgan tanani nishonga olishning o'ziga xos usulini ifodalaydi. Inson tanasining muammolarini "rad etish", "e'tiborsizlik", "obyektivlashtirish" yoki "yengish" strategiyalari orqali bartaraf etish mumkin. Aksincha, inson "qabul qilish", "tinglash", "do'stlik" yoki "guvohlik" kabi strategiyalar orqali tanada yengillikni qabul qilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Dieppe, P., Fussell, I., Warber, S.L. (2020). The power of caring in clinical encounters. *BMJ*, 371. – 234 p.
2. Dieppe, P., Goldingay, S., Warber, S.L. (2020). *The Handbook of Wellness Medicine*. Edited by Waguih William IsHak, Cedars-Sinai Medical Center and David Geffen School of Medicine, University of California Los Angeles (UCLA). ISBN 978–1–108–72205–6. – 145 p.
3. Rahtz, E., Child, S., Knight, S., Warber, S.L., Dieppe, P. (2019). Clients of UK healers: a mixed methods survey of their demography, health problems and experiences of healing. *Complementary Therapies in Clinical Practice*, 35, – pp. 72–77.
4. Rahtz, E., Warber, S.L., Dieppe, P. (2019). Understanding public perceptions of healing: an arts-based qualitative study. *Complementary Therapies in Medicine*, 45. pp. 25–32.



ONOMASTIC CLASSIFICATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Muydinova Nigora Usmonjonovna,
TUITFB Ferghana academic lyceum
glodiola80@mail.ru

Abstract: *This article deals with onomastic components of English and Uzbek phraseological units. It emphasizes on phraseological units with proper nouns and analyses their derivatives to determine onomastic elements in both languages.*

Key words: *common noun, proper noun, phraseological unit, elements, multiword item, onomastic component, derivatives*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRIKLARNING ONOMASTIK TASNIFI.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek frazeologik birliklarining onomastik komponentlari haqida so'z boradi. Har ikki tildagi onomastik elementlarni aniqlash uchun atoqli otlar ishtirokidagi frazeologik birliklarga urg'u beriladi va ularning hosilalari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *turdosh ot, atoqli ot, frazeologik birlik, elementlar, ko'p so'zli bo'lak, onomastik komponent, hosilalar.*

ОНОМАСТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются ономастические компоненты английских и узбекских фразеологизмов. Особое внимание уделяется фразеологическим единицам с именами собственными и анализу их производных для определения ономастических элементов в обоих языках.*

Ключевые слова: *имя нарицательное, имя существительное собственное, фразеологические единицы, элементы, многословная единица, ономастический компонент, производные*

Introduction

A proper noun is a noun indicating a particular person, a tame animal, country, city, river, or thing and is normally not anticipated by an article or other limiting modifier. In English, Uzbek and in many other languages, proper nouns are spelt with a capital letter. A proper noun, which is a single word, should be differentiated from a proper name, which may or may not consist of more than one word. Like other grammatical categories, the class of proper nouns has unclear limits. For example, a number of common nouns with unique denotation are close to proper nouns and are sometimes spelt with a capital letter (e.g., Fate, Nature) . On the other hand, a proper name can take on a metaphorical meaning and become a common noun: e.g., eponyms originating from a person's name (boycott > from the Irish landlord Captain Charles Cunningham Boycott; dahlia > from the Swedish botanist Anders Dahl; volt from the Italian physicist Count Alessandro Volta) or literary, biblical or mythological sources (malapropism > from the name of

the character Mrs Malaprop in Sheridan's play *The Rivals*; from the Greek goddess of love and beauty Aphrodite).

Literature analysis and methodology

The article discusses proper names used in phraseology. In the field of phraseology, different terms are used by different researchers to refer to a string of two or more words functioning as a whole and a single term may be used in reference to different phenomena. Granger and Meunier (2008: xix) attribute the lack of standardized terminology to the fact that phraseology has only relatively recently become established as a discipline in its own right. They explain that it deals with the study of word combinations rather than single words and that these multi-word units are classified into various subtypes on the basis of the following criteria: degree of semantic non-compositionality, syntactic fixedness, lexical restrictions and institutionalization. 'Idiom' is certainly a term that is widely used and the term most monolingual English dictionaries use (besides the term 'phrases') to introduce a section listing multi-word lexical items, whether semantically opaque or not, although they make no further typological classification. However, as Moon (1998a: 3-5) rightly points out, 'idiom' is an ambiguous term that she uses only occasionally to refer loosely to semi-transparent and opaque metaphorical expressions. She therefore prefers the term 'fixed expressions and idioms', which covers different kinds of phrasal lexemes, phraseological units, or multi-word lexical items, including idioms (ibid: 2). Gläser (1998: 125), on the other hand, defines an idiom as a dominant subtype within the all-embracing category of the phraseological unit, saying that an idiom is "a lexicalized, reproducible word group in common use, which has syntactic and semantic stability, and may carry connotations, but whose meaning cannot be derived from the meanings of its constituents". 'Phraseological unit' is another term that is increasingly used in phraseological research to denote a stable combination of words with a fully or partially figurative meaning (Kunin: 1970: 210

Results

In this article, the term phraseological unit (PU) is used to refer to a two- or multi-word lexical item whose syntax and lexis are fixed, which is conventionalized and whose meaning is not predictable from the meaning of its constituent words. The emphasis is on phraseological units with a proper name (either a toponym or an anthroponym) or its derivative, the aim being to investigate the degree of cultural specificity of such PUs. A PU can be regarded as culture-specific only in contrast to another language; consequently, this characteristic comes to the foreground when comparing two languages.

Discussion

Were investigated to pursue several aims. Firstly, to constitute which proper names form components of the English and Uzbek PUs under review. Secondly, to find how frequently they appear in English and Uzbek. Thirdly, to analyse the universality or cultural specificity of PUs in both languages, bearing in mind that PUs with onomastic components are very often so culture-specific that they exist in one culture only and consequently in only one language.

First of all, the proper names and their derivatives which are constituent elements of PUs were analysed to determine which onomastic components are used. It is evident from the PUs constituting the English and Slovene databases created for the purpose of this study that proper names and their derivatives can be divided into the following groups:

- 1) male names:
 - a) full forms:



English: Dennis, Godfrey, John, Paul, Peter, Simon

Uzbek: Oysha, Salima, Ilhom, Farhod, Omina, Akbar

b) hypocorisms:

English: Bill, Bob, Charley, Dick, Harry, Jack, Johnny, Larry, Mickey, Nick, Pete

Uzbek: Oybekjon, Sherzodbek (the endings to the male names "jon", "bek" have peculiarities)

c) originating in mythology or history:

English: Achilles, Croesus, Cupid, Damocles, Janus, Jove, Midas

Uzbek: Alpomish, Shiroq

d) originating in the Bible, Koran or other literary sources:

English: Adam, Aladdin, Cain, Don Juan, Hyde, Jekyll, Jesus, Job, Methuselah

Uzbek: Muhammad, Ibrohim, Mustafo, Hadicha, Imron, Omina

2) derivatives from male names:

English: Gordian, Pyrrhic (both of them are derived from mythological male names)

Uzbek: Alimov, Muydinov, Bohodirov, Sanjarbek o'g'li

3) male name + family name:

a) name and family name of a real person:

English: Gordon Bennett, Heath Robinson, John Hancock, Rube Goldberg

Uzbek: Avazbek Olimov, Ibrohim Sultonov, Odil Ahmedov

b) literary characters or cartoon characters:

English: John Bull, Johnny Canuck, Simon Legree, Peter Pan

Uzbek: Farhod, Otabek, Anvar, Tohir,

c) character from a song:

English: Jim Crow, John Dory

d) origin uncertain:

English: Davy Jones, Jack Robinson, Joe Bloggs, Joe Blow, Joe Doakes, John Doe

e) miscellaneous:

English: John Henry (believed to be a Western United States cowboy variation of John Hancock)

4) female names:

a) full forms:

English: Jane

Uzbek: Rano, Madina, Fotima, Nigora, Sevara, Nodira, Matluba

b) hypocorisms:

Uzbek: Dilnozahon, Mumtozbeqim, Nodirabeqim, Shahlohon (endings "hon", "oy", "beqim" to the female names have peculiarities)

c) originating in mythology:

English: Pandora

Uzbek: Tumaris

d) literary character:

English: Topsy

Uzbek: Shirin, Zuhra, Kumush, Layli

5) derivatives from female names:

6) female name + family name:

a) name and family name of a real person: Shahlo Azizova



- b) origin uncertain: Jane Doe (feminine form of John Doe)
- 7) family names:
 - a) family names of real people: Hobson, McCoy, Murphy, Parkinson, Scott
 - b) cartoon character, literary character, hero of a song: Blimp, Frankenstein
 - c) common British family name: Jones
- 8) derivatives from family names:
 - English: Freudian
 - Uzbek: Aliyeva, Sotvoldiyeva, Muqdinova
- 9) place names:
 - a) names of countries:
 - English: China, Brazil, England, Vietnam
 - Uzbek: Amerika, Yunoniston, Iroq, Misr
 - b) names of towns, cities, villages:
 - English: Acapulco, Bristol, Coventry, Damascus, Kilkenny, Newcastle, Rome
 - Uzbek: Damashq, Quva, Olti ariq, Marg'ilon

Conclusion

The frequency of onomastic components in PUs as presented above varies in that some onomastic components are more frequently used than others, and some are limited to one language only. Without any doubt, PUs with an onomastic element are often culturally specific because they refer to a unique denotatum belonging to the national culture. They absorb and accumulate cultural elements that are handed down and integrated into the cultural memory by permanent use of these phraseological expressions.

References

- 1) Gläser, Rosemarie. (1984). Terminological problems in linguistics, with special reference to neologisms. In Reinhard Rudolf Karl Hartmann (ed.), LEXeter '83 Proceedings (pp. 345-351) (Lexicographica Series Maior 1). Tübingen: Max Niemeyer Verlag.
- 2) Кунин Александр Владимирович. (1970). Английская фразеология: теоретический курс. Москва: Высшая школа.
- 3) Moon, Rosamund. (1998a). Fixed expressions and idioms in English: A Corpus based Approach. Oxford: Clarendon Press.
- 4) Ермолович Д.И. Имена существительные собственные в языковом стиле. – Москва: R. Valent, 2001. – 200с.
3. “Женщина в мифах и легендах” // Энциклопедический словарь. Автор: О.П.Алянская и др. – Ташкент, 1992. – 302 стр.
- 5) Кучешева И.Л. Лексико-семантический анализ английской фразеологии: лингвокультурологический подход // Иностранные языки в школе., 2008. – № 5. – стр.81-84.
- 6) Mamatov A.E. O'zbek iboralarining tuzilishi: . – Toshkent, 1999. – 56 b.
- 7) Melikyan A.A. Classification of biblical phrases in English based on conceptual models for transforming knowledge in semantic editing: Abstract of diss. of Candidate of sciences. – Пятигорск: PSIFL, 1998. – 21 стр.
- 8) Oxford Dictionary of Idioms. – Second edition. – Oxford: Oxford University press, 2004. – 340 p.
- 9) Alpomish. Tashkent, Sharq 1998. 400 b.



10) Adabiyot. 1-qism. Akademik litseyning 2 bosqich talabalari uchun darslik. Toshkent: "O'zbekiston milliy enciklopediyasi". 2018

TURLI TIZIM TILLARIDAGI YANGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.

Navruza Alieva Xabibullaevna (PhD)
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqola yangi frazeologiyaning qiziqarli dunyosidagi asosiy tushunchalarni taqdim etadi va tushuncha beradi. Maqolada ushbu lingvistik hodisaning ahamiyati ko'rib chiqiladi, shuningdek uni kompyuter dunyosidagi foydalanuvchilarning ijtimoiy hayotiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Ushbu maqolada kompyuter frazeologiyasining turli jihatlari, jumladan, Internet memlarining paydo bo'lishi, qisqartmalarning keng tarqalganligi, ijtimoiy media nutqida xeshteglarning o'rni va onlayn suhbatlarga kirib boradigan virusli iboralarning yaratilishi o'rganiladi. Shuningdek, ushbu lingvistik tendentsiyalarni shakllantiradigan madaniyat va avlod ta'siri tahlil qilinadi va yangi frazeologiya turli tizim tillari bo'ylab onlayn tajribani qanday aks ettirishi va shakllantirayotganini yoritadi.

Kalit so'zlar: neofrazeologizmlar, lisoniy manzara, raqamli davr, internet frazeologiya, dekodlash va navigatsiya, virtual qirollik, ijtimoiy tarmoqlar, internet frazeografiya.

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ НОВЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В РАЗНОСИСТЕМНЫХ ЯЗЫКАХ

Навруза Алиева Хабибуллаевна (PhD)
Преподаватель Ферганского государственного университета.

Yorning zulfi oldidagi g‘unchadek og‘zi ko‘ngilga sig‘maydi. Chunki oshiq ko‘ngli gul g‘unchasidek chok-chokidan so‘kilib, pora-pora bo‘lgan.

“Boburning she‘rlarida namoyon bo‘lgan ifoda uslubi uning shaxsi, dunyoqarashi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu holat esa lirik “men” orqali kitobxonga ham samimiy tuyg‘ular izhori sifatida yetkazilgan. Chunki har bir ijodkorning hayotga munosabati, voqelikka yondashish, davr va zamon muammolarini mushohada etishida uning shaxsiyati, o‘ziga xos olami namoyon bo‘ladi. Bobur voqelikka mavhum emas real yondashadi. U tahayyul kuch-quvvatini hayot sir-asrorini ochishga yo‘naltiradi. Shuning uchun uning she‘rlari odamni hayotdan uzilish yoki chetlanishga emas, dildan unga bog‘lanish, hayot zarbalarini mardona turib yengish, har qanday vaziyatda ham ma‘naviy kuchsizlikka yon bermaslikka rag‘batlantiradi”³¹.

Bobur she‘riyatining o‘ziga xos xususiyati unda shoir shaxsiyatining bo‘rtib turishidir. Uning asarlari tili, ifoda uslubi salaflari va zamondoshlari asarlaridan tamoman farq qiladi. Bu o‘ziga xoslikni ayrim adabiyotshunoslar hukmdorlarga xos betakalluflikka yo‘ysa, ba‘zilar uni Boburning turmush tarzi bilan bog‘lashadi. Bobur lirikasida vatan hajri, lirik qahramon va

³¹ Bekmirzayeva. X. Bobur she‘riyatida poetic obraz. – T.: Muharrir., 2013. 72-b

ma'shuqaning ichki dunyosi, umuman dunyo, hayot falsafasi, dinu diyonat, may, adolat, rashk, raqib kabi mavzular asosiy o'rin tutadi. Ular zamirida Boburning o'z hayoti, uning boshidan kechirgan real voqea-hodisalar tasviri yotadi.

Shoirning aksariyat g'azal va ruboiylarida aniq bir mavzu tevaragida so'z boradi va mantiqiy izchillikka qat'iy amal qilinadi. Natijada, ular kompozitsion yaxlitlik kasb etadi. Boburning konkret bir mavzuga bag'ishlangan yoki bir obrazni, yoxud muayyan bir holatni yorituvchi g'azal va ruboiylari, alohida-alohida fikrlar aytilgan, badiiy yetuk baytlardan tarkib topgan g'azallari, ya'ni maqtu' she'rlari ham shu tamoyil asosida bitilgan. Bobur aniq bir poetik obrazga bag'ishlab she'r bitadi. Uni har tomonlama talqin etadi. Fikrini aniq va tushunarli ifodalaydi. Binobarin, mavzu, obraz, g'oya birligi Bobur she'rlarining bosh xususiyatidir.

Bir zulfdin ko'ngul parishon bo'lma,
Bir yuzga ham asru, zoru hayron bo'lma,
Men sanga demanki, tarki ishq et, lekin,
Andoq qilkim, so'ngra pushaymon bo'lma. (76. b)

Shoirning mazkur ruboiysiga o'z ko'g'liga murojaatni ko'ramiz. Bunda ham yor ishqida kuygan Boburni ko'rishimiz mumkin. Mahoratli shoir o'z ko'ngli bilan mashuqa holati yani uning husnidan hayrat hissini tuyishi va undan o'ziga keladigan sitam haqida ajoyib suhbat qurgan. Mazkur suhbat asnosida lirik qahramon qiyofasida Boburning o'zini ko'radi. She'rdagi yor husni malohatiga hayrat ifodasi orqali lirik menning ichki kechinmasi tug'yonlarini bir qarashda kitobxon anglab olishi mumkin.

Bobur hazratlarining lirik qahramoni tasavvurimizda goh Allohga, goh ona yurtga, goh go'zal yorga oshiq bo'lib g'aydalanaveradi. Ko'pincha bu oshiq ham yaratganga, ham vatanga, ham real mahbubaga birday muhabbat bog'laganday taassurot uyg'otadi.

Noz uyqusidin biror zamon oyilg'il,
Guldek kulib, ey g'uncha dahan, ochilg'il,
Ko'nglumni iliglading cholib chang, ey yor,
Changindadurur ko'ngul navozish qilg'il.

Mazkur ruboiyda ham Bobur chang chalib ko'nglini olgan yorni qo'lida ko'ngli ekanligini va unga lutf ko'rsatishini tasvirlaydi. Shoir she'riyatida "lirik qahramon" ham "lirik men" ham deyarli Boburning o'zi. Bunday bo'lishiga esa albatta shoirning qisqa ammo asrga tatigulik umri davomida ko'rgan kechirganlari sabab bo'lgan desak xato bo'lmaydi. Lirik qahramon ham shoirning yoshi ulg'aygan sari komillikka erishib boraveradi. Boburning iste'dodini yana bir jihatdan anglab olish qiyin emas. Sababi shoir lirik qahramon "men"i ifodasini nafaqat timsollarga tayanib tarannum etadi balki ba'zi o'rinlarda ranglardan ham oqilona foydalanadi. Jumladan shoirning bir she'rida lirik qahramonning abgor holatini sariq rang yordamida ko'rsatib beradi:

Bu chehrai zardimdin uyolsang, netgay?
Rahmat nazarini manga solsang netgay?
Bir ishva bila ko'ngul berib Boburga.
Bir bo'sa bila ko'ngulni olsang netgay?

Umuman olganda Bobur she'riyati o'zining janr xususiyatlari, mavzu doirasi bilan o'zbek adabiyotining nodir namunalari qatoridan faxrli o'rin egallaydi. Ulardagi hayot va insonni qadrlash, go'zallikdan bahramand bo'lishga intilish haqida oshiq zamiriga yashiringan lirik

qahramonni – Boburning shaxsiy qarashlari orqali bilib olamiz. Shuning uchun ham Bobur she'riyatini ul zot yashab o'tgan murakkab davrning o'ziga xos badiiy ko'zgusi deyish mumkin.

Ey yor sen aylama tasavvur

Kim ko'nglini o'zga qildi Bobur.

Shoirning masnaviysidan keltirilgan baytdan ham anglab yetish mumkinki Bobur kitobxonga sevgan insoni bilan munosabatida o'z "men" nini lirik qahramon orqali ajoyib tarzda ifodalaydi. Aslini olganda ham badiiy adabiyotda shoir yoki yozuvchi lirik qahramon orqali o'z "men" ini ifoda etadi. Lekin buni barcha she'r va nasriy asarlarda shunday bo'ladi yoki bo'lishi kerak deb qarab bo'lmaydi. Bu shoir va yozuvchilarning mahorati va xoxish irodasiga bog'liq bo'ladi.

Boburning yana bir g'azalining bir baytida yor obrazi keltirilgan lekin uning to'g'risidagi so'zlar bevosita yorning o'ziga qaratilgan emas, bilvosita aytilgan. Lirik qahramon esa o'z ko'ngliga murojaat qiladi. G'ayrning so'zi o'ldiruvchi zahar bo'lganda ham yor lablarining hayotbaxsh sharbati bo'lsa, oshiqqa nima g'am:

Ey ko'ngul, gar g'ayr so'zi zahri qotildur, ne g'am,

Lablaridan sharbati "yuhyl izom"ing boride...

Yorning shirin so'zlari, qadam tashlashi, jamolining namoyishi oshiq ko'ngliga, uning ahvoli ruhiyatiga qanday ajoyib ta'sir bag'ishlashini esa quyidagi misralardan anglab olish mumkin:

Hadisu la'lu guftoru jamolingdin erur har dam

Tilim go'yo, so'zum rangin, ko'ngul xurram, ko'zum ravshan...

"Bobur xassos va nazokatli qalb egasi edi. Uning shu xususiyati ayrim ruboiylarida yaqqol innikosini topgan. Bunday ruboiyda o'z izzat-nafsini yerga urishga yo'l qo'ymaydigan, habibga esa sadoqatli bir insonni ko'ramiz. Ana shu ikki xususiyat bir-biri bilan ziddiyatga kirishadi. Bedard habib o'z sadoqatli va vafodor do'stining samimiy tuyg'ularini idrok eta bilmaydi. Bas, shunday ekan lirik qahramon uning qarshisida o'zini tubanlashtirishni istamaydi. Uning ko'ngli g'ururli, bunday nooshnolikdan uzoqlashish istagini bildiradi. Shunda o'sha habib o'z xatosini anglab, uni tuzatishni istab qoladi, lekin vaqt o'tgan. Endi bu bedard kimsa sadoqatli do'stni emas, balki uning izini ham gardini ham topolmaydi.

Bedard habib bilmadi dardimni,

Tufroqcha ko'rmadi ruhi zardimni.

Mendin necha ko'nglida g'ubori bo'lg'ay,

Ketgim muna, emdi topmag'ay gardimni!

Lirik qahramonning ichki kechinmalari, uning ruhiy holati, yuragini to'ldirgan dardlari ruboiylarida o'z aksini topib boradi. Bunday ruboiylarda oqibatli, vafoli do'stga xitobni, unga qalbni ochish istagini ko'ramiz. Shoir chin yuragidan chiqqan istaklarini do'stga izhor etadi".³² Bobur – yetuk san'atkor shoir. U Lutfiy, Navoiy singari buyuk so'z san'atkorlaridan ta'lim olib, ularning an'alarini davom ettirib rivojlantirgan shoirdir. Shoir she'riyatning badiiy soddaligi uchun kurashdi. Shoir yaratgan timsollar samimiyligi va tabiiyligi bilan kitobxonni hayratga soladi. Shoir badiiy sodda, ravon, musiqiy, tili boy va rangdor she'rlar yaratdi. Uning she'rlarida o'y va fikr, his va tuyg'u, tasvir va tavsif, so'z va musiqiylik bir-biri bilan uzviy bog'lanib ketadi; Insonning xilma-xil ichki kechinmalari, shodligi va qayg'usi, orzu va armon, tolei va taqdiri

³² Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi., - T.: Sharq., 2017.

o'ziga xos badiiy bo'yoqlar bilan tasvirlanadi, jonli obraz va portretlar yaratadi, tabiat manzaralari va turli lavhalarni rassom kabi chizib beradi. U har bir she'ridagi mazmunni, kayfiyatni e'tiborga olgan holda unga muvofiq shakl vazn qo'llaydi, ichki qofiyalardagi, so'z o'yinlaridan, intonatsiya va tovush tovlanishlaridan ustalik bilan foydalanadi. Masalan, janrning:

"Ko'nglumni chu ul pari olibtur,
Devona bo'lurg'a ne qolibtur".

Yoki:

"Sabo ul gul haramig'a guzar qil,
Mening holimdin ul gulag xabar qil"

– kabi misralari nihoyatda sodda, ravon va musiqiydir. "Bobur she'riyati, albatta, muayyan an'analar negizida ravnaq topgan. Biroq Boburning lirik qahramon qiyofasi va u qo'llagan timsollar an'anaviy she'rlarga qiyoslanganda nisbatan hayotiy, jonli va aniqdir. Boburning o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga qo'shgan hissasi uning, adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirish va uni yanada soddalashtirida namoyon bo'ladi"³³. Ana shu soddalashtirish uning lirikasini o'qishga tahlil qilishga kitobxonga qulaylik yaratib beradi desak xato bo'lmaydi. Xuddi shoir necha asrlar ilgari o'zidan qoladigan boy merosni keying avlodlari tili uchun tushunarli va qulay bo'lishini o'ylagandek go'yo deb hayratga tushadi kishi.

"Bobur she'riyatida ayrim hayot lavhalari o'z shoirona tasvirini topgan. Ularda biz shoir qalbining sevinch va shodliklarini, qayg'u va alamlarini, hayot quvonchi chaqiriqlarini, turmush zarbalari ostida his etgan tushkunlik va umidsizlik kayfiyatini sezamiz. Shunday ekan Bobur she'rlarini insoniy she'riyatning yuksak namunasi deb hisoblash mumkin"³⁴. Xullas Boburning she'rlari – shoirning tajimai xoli ekanligini yaxshi bilamiz. Shoir u orqali shoirona tilning teran tuyg'ularini tasvirlaydi, hayoti davomidagi voqea-hodisalar va to'qnashuvlar natijasida hosil bo'lgan tashvishu muammolarni so'zlaydi. Shoir ijod namunalari bilan tanishar ekanmiz, ko'z oldimizda Bobur siymosi badiiy ijodning xilma-xil va boy imkoniyatlaridan muvaffaqiyatli foydalanib kelgan va yuksak barkamollikka erishgan iste'dodli va ulkan san'atkor sifatida yaqqol gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бозорова.Н, Навоийнинг ижод олами мақолалар тўплами. //кўнгил тимсоли ва тасвир санъати// Т.: "Фан". 144-б
2. Bekmirzayeva. X. Bobur she'riyatida poetic obraz. – Т.: Muharrir., 2013. 22-б
3. Исхоқов. Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси., Т.: 1965. 76-б
4. Бобур.З.М. Бобур шеърятдан. – Т.: 1982. 42-б
5. Алишер Навоий. Ҳайратул аброр. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1991. 7-жилд
6. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi., Т.: 2017. 282-283 б

³³ Bekmirzayeva. X. Bobur she'riyatida poetic obraz. – Т.: Muharrir., 2013. 92-б

³⁴ Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi., - Т.: Sharq., 2017.



ONA TILI DARSLARIDA YOZMA NUTQNI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK VA METODIK MEZONLARI

Islomova Feruza Habibullayevna,
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi
Gmail: feruzahabibulloh@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablari ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini, xususan yozma nutq ko'nikmalarini takomillashtirishda yozma ish turlaridan biri sifatida amaliyotga kirib kelgan esse yozish ko'nikmalarini o'quvchilarga singdirishning psixologik va metodik mezonlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: esse, belgili shakl, grafika shakli, motiv, diqqat, iroda, qiziqish, idrok, tafakkur, tasavvur, xotira, nutqiy psixofiziologik faoliyat, psixologik jarayon

ПСИХОЛОГО-МЕТОДИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ НА ЗАНЯТИЯХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Ислимова Феруза Хабибуллаевна
Исследователь Ферганского государственного университета,
Gmail: feruzahabibulloh@gmail.com

Аннотация: В данной статье исследованы психолого-методические критерии формирования у учащихся речевых компетенций, в частности навыков написания эссе, которые вошли в практику как один из видов письменной работы в совершенствовании навыков письменной речи.

Ключевые слова: эссе, символическая форма, изобразительная форма, мотив, внимание, воля, интерес, восприятие, мышление, воображение, память, речь, психофизиологическая деятельность, психологический процесс

Islomova Feruza Xabibullayevna,
researcher of Ferghana State University,
Gmail: feruzahabibulloh@gmail.com

Annotation: In this article, the psychological and methodical criteria of inculcating students' speech competences, particularly essay writing skills, which have come into practice as one of the types of written work in the improvement of written speech skills, have been researched.

Key words: essay, symbolic form, graphic form, motive, attention, will, interest, perception, thinking, imagination, memory, speech psychophysiological activity, psychological process

Kirish

Yozma nutq murakkab jarayon bo'lib, u psixologik, pedagogik va metodik aspektlarda o'rganiladi. Yozma nutq ko'nikmasi o'quv faoliyatining asosiy qismi bo'lib, u shaxsning psixik jarayonlari aks etadigan va rivojlanadigan jarayondir. Bizga ma'lumki, o'quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon bo'luvchi uzluksiz jarayondir.

Ta'lim jarayoni o'quvchiga nimani va qanday qilib o'rgatishning oddiy va bir xil natijasi emas, balki sirdan ta'sir qildiriladigan shart-sharoitlarining oqibati hamda o'quvchining individual-psixologik xususiyatlariga bog'liq ravishda amalga oshiriladi. O'rganishga ijobiy munosabatda bo'lish o'quv materialini to'la-to'kis o'zlashtirishning muhim shartidir. Til oqilona, mantiqiy bilish vositasidir; til birliklari va formalari yordamida bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshiriladi; til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi; biz fikrni nutqda shakllantiramiz; tilni egallash va nutqni o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sadi.

Nutq jarayonida qanday vositalardan foydalanishni hisobga olib, u og'zaki (belgili shakl), yozma (grafika shakli) va kinetik (til va jestlar yordamida muloqot qilish) turlarga bo'linishi psixologlar tomonidan isbotlangan. O'quvchining yozishga munosabati uning yozishga diqqat qilishida, qiziqishida, qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun iroda kuchini sarflashga tayyor ekanligida ifodalanadi.

Adabiyotlar tahlili

O'quvchilarning yozma nutqini yozma ishlar orqali takomillashtirish va bu jarayonning psixologik asoslari I.Azimova, K.Mavlonova, M.Qurbonova, E.G'oziyev, N.Xayitbayeva, B.Sirliyev, A.Beknazarov, D Arziqulov. rus metodistlaridan N.A.Adelshinalar tomonidan o'rganilgan bo'lib, mazkur olimlarning ilmiy izlanishlari va chiqargan ilmiy xulosalariga asoslanib umumta'lim maktab o'quvchilarning yozma nutqini takomillashtirishga erishilgan. Yozma nutqni mukammal egallash, bu boradi o'quvchidan talab etiladigan psixologik xususiyatlar bu sifatlarni shakllantirish yo'llari L.S.Vigotskiy, N.A.Adelshina, I.Azimova, N.Xayitbayevalarning ishlarida tadqiq etilgan [1,2,3,4]. Ushbu tadqiqotlardagi ilmiy xulosalarga asoslanib, ushbu maqolada yozma nutqni hamda tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi yozma ish turi sifatida esse metodining psixologik va metodik asoslari ochib berilgan va tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada asosan empirik metoddan foydalanilgan. O'quvchilarning esse yozish orqali yozma nutq ko'nikmalari hamda tanqidiy fikrlash malakalarining rivojlanishi kuzatish, anketa-so'rovnoma o'tkazish, eksperiment metodlari asosida kuzatildi va xulosalar chiqarildi.

Tahlillar va natijalar

Yozma nutq ko'nikmasining psixologik asosini o'rgangan psixologlar o'quvchini yozishga undaydigan motivlar va motivatsiyalashni muhim deb hisoblaydilar. Yozish faoliyati motivlari deganda, o'rganish jarayonidagi bilimlarni ongli ravishda tushunib, o'rgangan bilimlarini, fikrlarini, g'oyalarini yozma tarzda ifodalashga undaydigan bosh sabab majmuyi tushuniladi. Ta'lim natijalarini aks ettirishning asosiy usullaridan biri bo'lgan yozish ko'nikmasi bir qator psixologik omillarga bog'liqdir. Bunday omillar avvalida, o'quvchining yozishga bo'lgan munosabati turadi. Bu munosabat diqqat, iroda, qiziqish, idrok, tafakkur hisoblanadi. Bular o'z navbatida, o'quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar – motivlar bilan mustahkam bog'liq bo'lib, bu motivlar bevosita o'quvchi shaxsining o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ma'lum bir bilish jarayonini amalga oshirish uchun (o'qib tushunish, yozish, eshitish) o'quvchidan diqqatli bo'lish talab etiladi. Ta'lim jarayoni maktab yoshidagi o'quvchilarning ongli, ixtiyoriy, kuchli barqaror, mustahkam, faol diqqatini rivojlantirishga qulay sharoit yaratadi.

Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar yechish, mashqlar bajarish, takrorlash, irodaviy zoʻr berish jarayonida diqqat tarkib topadi.[5]

Diqqat tushunchasiga bir qancha olimlar tomonidan turli taʼriflar keltirilgan. Diqqat bilish jarayonlarini (sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol va boshqalarni) vujudga kelish, rivojlanish va takomillashishning zaruriy shartidir. Bilish jarayonlarining birligi, barqarorligi, oʻzaro ularning uyqunligi, samaradorligi, mazmundorligi va tizimliliigi bevosita diqqatga boʻliqdir P.I.Ivanov diqqat ongni bir nuqtaga toʻplab, muayyan bir obyektga faol yoʻnaltirish ekanligini, diqqat insonning barcha faoliyatida ishtirok etishini taʼkidlaydi.[6]

K.D.Ushinskiyning taʼbiricha, diqqat ruhiy hayotimizning shunday eshigiki, ongimizga kiradigan barcha narsalar faqat shu eshik orqali oʻtib kiradi. Eshikdan tashqarida qolgan har qanday narsa ongimizga yetib bormaydi.

Yozish murakkab nutqiy psixofiziologik faoliyat hisoblanadi. Bu jarayonlar oʻquvchidan birinchi navbatda sogʻlom koʻrish qobiliyati, diqqat, iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi. Oʻquvchi faoliyatida qabul qilinishi kerak boʻlgan koʻplab maʼlumotlar boʻlishi tabiiy, shu sababli ulardan nafaqat ixtiyorsiz, balki ixtiyoriy va ixtiyoriydan soʻnggi diqqat ham talab qilinadi. Ixtiyorsiz diqqat toʻsatdan koʻringan yo eshitilgan narsa, ovoz natijasida beixtiyor hosil boʻladigan diqqatdir. Yozish faoliyatida esa asosan ixtiyoriy diqqat talab etiladi, yaʼni unda oldindan belgilangan qatʼiy bir maqsad asosida va ongli ravishda diqqatimizni maʼlum bir narsaga qaratishimiz talab etiladi. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatga qaraganda uzoq vaqt mobaynida davom etadigan diqqat turi boʻlib, u zoʻr berishlikni, yaʼni irodaviy kuch sarf qilishlikni talab etadi. Biror mashgʻulotga diqqat qilayotgan shaxsning bosh miya yarim sharining maʼlum bir qismida qattiq qoʻzgʻalish yuzaga keladi, miya yarim sharining qolgan qismlarida esa passiv holat kuzatiladi. Yaʼni maʼlum bir mavzudagi matn yaratayotgan oʻquvchi yozayotgan narsasidan boshqa voqea, shaxs, detalga nisbatan passiv munosabatda boʻlib, unda faqatgina yozish dominant (yetakchi) faoliyatga aylanadi. Shu oʻrinda taʼkidlash kerakki, aynan yozma nutq jarayonida chap miya yarim shari faollashishi olimlar tomonidan aniqlangan. Ixtiyoriy diqqat har doim ixtiyorsiz diqqat bilan almashinib turadi. Ixtiyoriy diqqat vaqtida odam tez charchaydi, chunki bu diqqat odamdan hamma vaqt iroda kuchini sarflashni talab etadi. Iroda kuchini sarflash orqali, yaʼni odam oʻzini majbur qilishi orqali diqqatni jamlashi odamni charchatadi. Ixtiyorsiz diqqatda esa majburiylik boʻlmaydi, shu sababli aqliy mehnat jarayonlarida ikkala diqqatning almashinib turishi foydali hisoblanadi. Oʻquvchining diqqatliliigi yoki diqqat qilmayotganini uning tashqi alomatlaridan bilinadi.

Yozishning, umuman aytganda, bilish faoliyatining keyingi psixologik asosi – iroda hisoblanadi. Psixologlar olib borgan tadqiqotlarda, oʻquvchining yozish faoliyati koʻp jihatdan irodaning tarbiyalanishiga bogʻliqligi koʻzga tashlanadi. Irodalilik taʼlimning zurur shartidir. Berilgan topshiriq asosida matn yozish uchun oʻquvchidan qiyinchiliklarni yenga olish, ishdan chalgʻitadigan narsalar bilan shugʻullanishdan oʻzini tiya olish, yozishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon boʻladigan iroda taʼlim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Taʼlimda iroda oʻquvchida maktab va uyda oʻtkaziladigan mashgʻulotlarga tayyor turishda namoyon boʻladi. Oʻquv materialiga boʻlgan diqqatning barqaror boʻlishida irodaviy zoʻr berishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Oʻquv materialini oʻrganish va eslab qolish oʻquvchining irodaviy zoʻr berishiga bogʻliq. Iroda oʻquvchilarning fikrlash faoliyatlarida - masalani yechishga, qoʻyilgan savolga javob topishga va hokazolarga intilishida namoyon boʻladi. Ular oʻquvchilarda koʻnikma va malakalarni hosil qilishda ham tarkib topadi. “Nima sababdan hamma oʻquvchilar

yoʻzish koʻnikmasini turlicha egallaydilar, baʼzilari tez va qoniqarli, baʼzilari esa juda yomon?” degan savol tugʻilishi tabiiy. Gap shundaki, kishining qiziqishi xotiraga aniq va kuchli taʼsir koʻrsatadi, yaʼni yaxshi esda olib qolishni taʼminlaydi. Psixologiyada qiziqish, bu shaxsning oʻzi uchun qimmatli yoki yoqimli boʻlgan muayyan narsa yoki hodisalarga nisbatan ijobiy munosabatida koʻrinadi. Oʻquvchilarga taqdim etilayotgan maʼlumotlar, matn yoki jadvallarning tushunarli boʻlishi, yoʻzish uchun berilayotgan mavzu yoki savol avvalo, oʻquvchi uchun qiziq va yangiligiga bogʻliq.

Tilshunos olim I. Azimova bu masalada shunday yozadi:

“Yozma nutqni rivojlantirish uchun tanlangan mashgʻulot mavzulari dars berilayotgan vaqt uchun dolzarb va oʻquvchi uchun qiziq boʻlishi kerak. Shunday mavzu tanlanishi kerakki, bolada oʻsha mavzu haqida fikr bildirish istagi kuchli boʻlsin. U xoh kecha boʻlib oʻtgan futbol matchi boʻlsin yoki mashhur serial boʻlsin. Mazkur masalalarga boʻlgan qiziqishdan bolaning kognitiv rivojlanishini taʼminlash uchun samarali foydalanish mumkin.” [3]

Qiziqish -yoʻzish bilan birga faoliyatning istalgan boshqa turida ham muvaffaqiyatga erishishning kalitidir. Agar odam qilayotgan ishiga qiziqish bildirsa, koʻnikma oʻz-oʻzidan hosil boʻladi. Bunda gap manfaatli qiziqish haqida borayotgani yoʻq. Faoliyat jarayoninig oʻzi shaxs tomonidan ahamiyatli va qiziqarli sifatida baholanishi kerak. Xususan, bu bolada ijod, oʻz fikrini bayon etish, intellektual mehnat asosiy oʻrinlarni egallaydigan maʼlum qadriyatlar tizimini tarbiyalashni nazarda tutadi. [7]

Shu oʻrinda aytib oʻtish lozimki, biz tadqiq qilayotgan esse usulida ham aynan mana shu qiziqish deb atalgan psixologik jarayon yetakchilik qiladi. Esse yoʻzish uchun berilgan mavzular oʻquvchini qiziqtiradi va beixtiyor yoʻzishga chorlaydi.

Masalan, “Hayotda qonun barchaga barobarmi?” “Agar meni tanqid qilishsa...” “Kasbimni toʻgʻri tanladimmi?”, “Yoshlik beboshlikmi?”, “Meni oʻylantirgan muammo”, “Men qayta-qayta oʻqiydigan kitob”, “Mahallamdagi odamlar va men”, “Mening doʻstlarim koʻpmi?” , “Ijtimoiy tarmoqlar va men” , “Yetmish yoshimda nabiramga qanday maktub yozaman?” kabi.

N. Xayitbayeva ilmiy kuzatishlariga tayanib shunday yozadi: “Insonda nutqning oʻz vaqtida shakllanishi haqida, uning sof va toʻgʻriligi haqida qaygʻurish, inson qaysi tilda nutqi shakllanayotgan boʻlsa, mana shu til normalarida namoyon boʻluvchi turli nuqsonlarning oldini olish va toʻgʻirlash muhim hisoblanadi. U yoki bu darajadagi nutq buzilishlari insonning barcha ruhiy rivojlanishlariga salbiy taʼsir etadi, uning faoliyatida, yurish -turishida aks etadi. Ogʻir nutqiy buzishlar aqliy rivojlanishga, ayniqsa, bilish faoliyati oliy darajalarining shakllanishiga taʼsir etishi mumkin. Bu nutq va tafakkurning chambarchas bogʻliqligi, ijtimoiy, jumladan nutqiy aloqalarning cheklanganligi bilan bogʻlangandir.” Tabiiyki, bu yozma nutq koʻrinishiga ham aloqadordir. [4]

Aksariyat metodik adabiyotlarda diktant ham yozma nutqni rivojlantirish usuli sifatida beriladi. Maʼlumki, nutq tafakkur bilan bogʻliq jarayon. Insho, bayon, esse kabi usullar fikrlash, tafakkurni ishga solish orqali yaratiladi. Diktantda esa faqat xotira imkoniyatlaridan foydalaniladi. Shu boisdan diktantni yozma nutqni rivojlantiruvchi usul sifatida koʻrsatilishiga qoʻshilmaymiz.

Demak, diqqat, iroda, qiziqish kabi psixologik jarayonlar ogʻzaki nutq kabi yozma nutqni amalga oshirish jarayonida ham muhim sanaladi.

Yoʻzish malakasining pedagogik asosini oʻrgangan olimlardan biri pedagog olim N.A. Adelshina oʻzining “Писменные компетенции школьников на старшем этапе



обучения” nomli maqolasida: “ Dastlab nutqning tinglash va soʻzlash koʻnikmalarini egallash lozim, keyin esa oʻqish va yozish”- deydi.

Bugungi kun ona tili taʼlimi oldiga ham oʻquvchida aynan shu 4 ta nutqiy koʻnikmani rivojlantirish masalasi qoʻyilgan.

Xulosa

Xulosa oʻrnida aytish kerakki, umumtaʼlim maktablari ona tili darslarida yozma nutqni oʻstirish vositasi sifatida yozma ish turi sifatida kirib kelgan esse yozma ishning boshqa turlaridan (bayon, insho, diktant) qoʻyilayotgan muammoning qiziqarliligi, oʻquvchi yoshiga mos ekanligi hamda erkin kompozitsiyali ekanligi, badiiy tafakkur talab etilmasligi bilan oʻquvchida beixtiyor yozishga qiziqish uygʻotishi bilan farqlanadi. Yozishga qiziqish uygʻotishning psixologik vositalaridan eng asosiysi ham oʻquvchida oʻqishga, yozishga qiziqish uygʻotishdir.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. - М.: Лабиринт, 1996. – Б. 414
2. Adelshina N.A. Писменные компетенции школьников на старшем этапе обучения” Изд «Грамота»-2017
3. Azimova I. Lisoniy malakalarni rivojlantirishning psixolingvistik asoslari .Oʻzbekiston: Global taʼlim va milliy metodika taraqqiyoti , Toshkent-2019
4. Xaitbayeva N. Yozma nutqni takomillashtirishning psixolingvistik asoslari. "Science and Education" Scientific Journal November 2020
5. Sirliyev B. N., Beknazarov A. A., Arziqulov D. N. Psixologiya: Maʼruzalar toʻplami. – Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005. – 136 b.
6. Gʻoziyev E Umumiy psixologiya ; Toshkent-“niversitet”-2002, 149 b
7. <https://baxtiyor.uz/oqituvchilar-uchun-hamma-narsa/oqituvchilar-uchun-interfaol-metodlar/>

NUTQ VA NUTQ SO'ZLASHNING LINGVISTIK ASOSLARI

Mansurova Feruzaxon Shukrullo qizi

Erkin tadqiqotchi

E-mail: feruz.m.sh@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola nutqning mazmuni, uning hayotimizdagi ahamiyati, nutq va til o'rtasidagi bog'liqlik va tafovutlarini yoritib yoritib beradi. Bundan tashqari, bir nechta tilshunos olim va yozuvchilarning nutq va til haqida keltirib o'tgan mulohazalari yoritilib beriladi. Tinglovchiga yetkazilayotgan ma'lumotlarni yana ham tushunarli va aniq bo'lishini ta'minlab beruvchi nutqning kommunikativ sifatlari keng izohlanadi. Shuningdek, maqolada nutqning turlari va ularning xususiyatlari, nutqning maqsadlari va notiqlik mahorati haqida batafsil yoritib beriladi. Bir so'z bilan aytganda, to'g'ri nutq va nutq madaniyatiga ega bo'lish inson egallashi kerak bo'lgan eng muhim jihat ekanligiga alohida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, nutqning kommunikativ sifatlari, og'zaki va yozma nutq, ichki va tashqi nutq, notiqlik mahorati, nutqning maqsadlari

Аннотация: В данной статье рассматривается содержание речи, ее значение в нашей жизни, связь и различия между речью и языком. Кроме того, освещаются мнения ряда лингвистов и писателей о речи и языке. Широко разъясняются коммуникативные качества речи, обеспечивающие, чтобы информация, доносимая до слушателя, была более понятной и точной. Также в статье подробно описаны виды речи и их характеристики, цели речи, навыки говорения. Словом, подчеркивается, что владение хорошей речью и культурой речи является важнейшим аспектом, которым должен овладеть человек.

Ключевые слова: культура речи, коммуникативные качества речи, устная и письменная речь, внутренняя и внешняя речь, ораторское мастерство, цели речи.

Abstract: This article discusses the content of speech, its significance in our lives, the relationship and differences between speech and language. In addition, the opinions of a number of linguists and writers about speech and language are highlighted. The communicative qualities of speech are widely explained, ensuring that the information delivered to the listener is more understandable and accurate. The article also describes the types of speech and their characteristics, the goals of speech, speaking skills. In one word, it is emphasized that the possession of good speech and culture of speech is the most important aspect that a person must master.

Key words: culture of speech, communicative qualities of speech, oral and written speech, internal and external speech, public speaking, speech goals.

Kirish


Nutq inson tafakkuri va ongi bilan chambarchas bog'liqligi sababli u kishi ruhiyatining turli jihatlarini, uning idroki, hissiyotining namoyon bo'lishida va kishi ongining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Har bir sohaning o'z madaniyati bo'lgani singari nutqning ham o'zaro turlari, madaniyati mavjud. Bular haqida batafsil yozishdan oldin nutq nima, uning tildan asosiy farqi nima degan savollarga javob topishimiz kerak. Til va nutq bir-biriga bog'liq dialektik

munosabatdagi hodisalardir. Nutq bu til orqali insonlar o'rtasida shakllangan aloqa shakli va ma'lum bir turmush tarzida tildan foydalanish, fikrni ifodalash va almashish jarayonidir. Buyuk yozuvchi Alisher Navoiy o'zining "Mahbub- ul- qulub" asarida ta'kidlaganidek: " Til shuncha sharafi bilan tilning qurolidir..." [1,72]. Darhaqiqat, nutq bu inson uchun o'ta muhim vazifani bajaruvchi tildan foydalanish jarayoni va u nutq a'zolarining harakati tufayli paydo bo'ladi. Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni me'yorlashga qaratilgan harakatlarigina emas, balki millatning umumiy madaniyatini ko'rsatish, odamlarda ma'lum bir "til didi" tushunchasini tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir. Kaykovus o'zining " Qobusnoma" asarida ham so'zni barcha hunarlar orasida ustun deb bilib, shunday deydi : " Bilgilkim, hamma hunardan so'z hunar yaxshi" [2, 29]. Bundan tashqari, tilshunos S. I. Ojegov nutq haqida gapirar ekan, "Yuqori darajadagi nutq bu o'z fikrini til vositalari orqali to'g'ri, aniq va ta'sirchan qilib ifodalay bilish qobiliyatidir", -deydi [3, 8]. Nutq va til uzoq tarixiy rivojlanish natijasida shakllangan dialektik birlikni bildiradi. Har bir kishining nutqi individual, o'ziga xos xususiyatlarga egadir; vaholanki, asosiy til unsurlari hisoblangan lug'at tarkibi va grammatik qurilishlar yakka shaxsgagina tegishli bo'lib qolmay, muayyan til jamoasiga tegishli hioblanadi. Lekin tilshunoslik nazariyasida til va nutq o'rtasidagi farq va o'xshashliklar haqida turli muhokamalar mavjud. Ba'zi olimlar til va nutqni sinonim sifatida ko'rishsa, ayrim tilshunoslar nutq tushunchasini til tushunchasidan turlicha farqlaydilar.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Darhaqiqat, shvetsariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur tilshunoslikning til va nutq haqidagi g'oyalariga ajralmas ta'sir ko'rsatdi. Uning g'oyalari tilshunoslikdagi ko'plab muhim o'zgarishlarga asos bo'ldi hamda u "nutq" va "til" tushunchalarini aniq ajratib berdi. Uning fikricha, til tayyor mahsulot, nutq esa aqlning individual harakatidir [4, 96]. Shuning uchun, F.de Sossyur tilni ijtimoiy hodisa sifatida, nutqni esa tilning shakllanishi uchun zarur bo'lgan individual hodisa sifatida bir-biriga zidlab ko'rsatgan. Qolaversa, ilmiy izlanishlarining boshida I.A. Boduen de Kurtene tilni psixik hodisa sifatida ta'riflagan. Tilshunos olim til- oddiy, eng boy va har bir shaxsning aqliy jarayonida doimiy mavjud bo'lgan narsa ekanligini ta'kidladi. Keyinchalik u tilni tafakkur bilan bog'liq bo'lgan psixo-ijtimoiy hodisa sifatida ta'rifladi, til yoki inson nutqi har xil odamlarning va butun bir guruh odamlarning dunyoqarashi hamda kayfiyatini aks ettirishini keltirib o'tdi. [5,134]. Bundan tashqari, V.A. Zvegintsev nutqni aloqa vositasi, tilni esa smeantik mazmun deb hisoblagan [5, 217]. Til va nutqning mohiyatini o'rganuvchi zamonaviy fan psixolingvistika deb atalib, u ikkita fan, ya'ni psixologiya va tilshunoslikning birikmasidan tashkil topgan. Aslida, har bir shaxsning nutqi individualdir va o'ziga xos xususiyatlarga ega; lekin tilning asosiy unsurlari hisoblangan lug'at boylik va grammatik tuzilma faqat shaxslarga tegishli bo'lmay, balki umumiydir, ya'ni ular umumiy holda muayyan til jamoasiga tegishlidir. Nutq inson tafakkuri, uning ongi bilan chambarchas bog'liqligi tufayli kishining fikrlari nutqda shakllanadi. Inson hayotida nutqning o'rni beqiyosdir, chunki shaxs ongining rivojlanishida, inson sezgilari, idroki, xotirasi, tafakkuri, his-tuyg'ulari, irodasi va boshqalarning namoyon bo'lishi va harakatlanishida nutq katta ahamiyatga ega. Aslida, nutq yozuvchi yoki so'zlovchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, u faqatgina til hodisasi emas, balki ruhiy hodisa ham hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda aytilmoqchi bo'lgan xabarning kitobxon yoki tinglovchiga aniq va ta'sirli yetib borishi va ularga ma'lum bir ta'sir o'tkaza olish qobiliyati tushuniladi.

Nutqning aniq, ravon va ta'sirli bo'lishi uchun ma'lum bir talablar qo'yiladi va bu talablar nutqning kommunikativ sifati hisoblanadi. Nutqning kommunikativ sifatlari quyidagilar:



Nutqning to'g'riligi – bu nutqning eng asosiy vazifasi bo'lib, agar bu sifat mavjud bo'lmasa, nutqning aniqligi ham salbiy ta'sir etadi. V. G. Kostomarov shunday deydi: “Nutqning to'g'riligi deyilganda, nutq madaniyatining zarur sharti sifatida adabiy tilning ma'lum bir normasiga qat'iy amal qiladigan, uning talaffuz, imloviy va grammatik normalarini egallay bilish tushuniladi” [6, 24]. Bundan kelib chiqib, nutq to'g'ri bo'lishi uchun ikki asosiy me'yorlarga, ya'ni urg'u va grammatik normalarga qat'iy amal qilish zarur. Inson so'zlayotgan paytida birgina urg'uning ko'chishi bilan so'zning boshqa ma'noga o'zgarib ketishi mumkin ekanligini ham yoddan chiqarmaslik zarur. Masalan, olma so'zida urg'u so'zning birinchi bo'g'iniga tushsa, harakat, ikkinchi bo'g'inga tushganda esa meva turini ifodalab keladi. Urg'u so'zning ma'nosiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan so'zlar har bir tilda mavjud ekani barchamizga ma'lumdir. Bundan tashqari, gap tarkibidagi ayrim so'zlarga tushadigan urg'u, bir so'z bilan aytganda, mantiqiy (logik) urg'uning nutqimizdagi ma'nolarni farqlashda xizmati katta. Hammaga ma'lumki, barcha tillarda qaysi ma'no nazarda tutilayotgan bo'lsa, o'sha ma'noni ifoda etib kelayotgan so'zga alohida urg'u berib talaffuz qilinadi va tinglovchi ham gapning mohiyatini oson anglab oladi. Masalan, “Ustozim o'tgan yili Angliya davlatiga bordi” gapida urg'uning o'rnini almashtirish orqali o'z nutqimizni tinglayotgan odamga kim borganligi, qayerga borganligi, qachon borganligi va nima qilganini alohida ta'kidlab o'tilsa bo'ladi. Bundan ma'lumki, so'z urg'usi kabi mantiqiy urg'udan foydalanishda adashsak, biz yetkazib bermoqchi bo'lgan ma'noni yetkazishimizda xatolikka yo'l qo'yishimiz mumkin. Buning oldini olish uchun, nutqimizning to'g'ri ifodalanishida so'z urg'usining o'z o'rnida ishlatilishiga ahamiyat berish muhimdir.

Nutqda grammatik normaga rioya qilish uchun esa kelishik qo'shimchalarini o'z o'rnida qo'llay bilish, ega, kesimni va ikkinchi darajali gap bo'laklarini moslashtirish, o'zak va qo'shimchalarni to'g'ri qo'shish va gap tuzishda xatoga yo'l qo'ymaslik zarur. Atoqli yozuvchi A. Qahhor qaratqich va tushum kelishigining e'tiborsizlik bilan ishlatilishini o'zining “San'atkor” hikoyasida asar qahramonlarining savodsizligini namoyon etishda shunday ustalik

bilan tasvirlagan: Pojarniy “gugurtni yerga tashlamang”, dedi. Rejissyorimiz esa “gugurtning yerga tashlamang, dedi” [3, 52].

Nutqning aniqligi – bu nutqning muhim sifatlaridan bo‘lib, fikrni yorqin ifodalash, nutqda ishlatilayotgan so‘z ma‘nolarini bilish demakdir. Agar notiq o‘zi yetkazib berayotgan nutqda predmetning mavzusini aniq bilsa, unga xos bo‘lgan so‘z ma‘nolariga e‘tibor qaratsa, demak, u nutqning aniqligiga erisha oladi. Ba‘zan nutq so‘zlayotgan paytda bir-biriga ma‘no jihatidan yaqin bo‘lgan so‘zlarni yaxshi tushunmaslik sababli nutqning noaniq ifodalanishi sodir bo‘ladi. Bunga misol qilib aytishimiz kerakki, Abdulla Qahhor yozuvchi Ma‘ruf Hakimning “Qahramonning o‘limi” hikoyasidagi ushbu jummalarni tahlil qilar ekan, “Botir beliga qator beshta bomba qistirib..”, “Qo‘liga bomba ushlagan holda ko‘chaga yugurdi...” yozuvchining bomba va granata so‘zlarini aniq farqlay olmaganligi natijasida o‘quvchiga noaniqlik keltirib chiqarishini tanqid qiladi [9; 55-bet]. Shu sababli, G‘arb mutafakkiri Aristotel: “Agar nutq aniq bo‘lmasa, so‘zlovchi maqsadiga erishmaydi”, - deydi. Xuddi shunday fikrni Kaykovus o‘zining “Qobusnoma” asarida: “Ey farzand, so‘zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so‘zlaganda ma‘noli gapir, bu notiqlik alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so‘zning qanday ma‘noga ega ekanligini bilmasang, qushga o‘xshaysan, bunday qushni to‘ti deydi! [3, 53]. Demak, notiq so‘zlayotganida o‘z nutqning asosiy predmetini yaxshi anglagan bo‘lishi, narsaning va tushunchaning aniqligiga e‘tibor berishi ahamiyatlidir. Shunday ekan, aniq nutqni yaratish so‘zlovchidan quyidagi muhim qoidalarga amal qilishni taqozo etadi:

- Nutqda ishlatiladigan har bir so‘zning ma‘nolarini aniq bilish;
- tilning sinonimik qatorlaridan eng mosini ajratib, nutqda qo‘llay bilish;
- omonimlarning xususiyatlarini bilish, chunki ularni yaxshi bilmaslik noaniqlikka olib keladi.
- paronimlarni ajrata bilish va talaffuzlariga e‘tibor qaratish;
- so‘zning ko‘p ma‘noligiga jiddiy ahamiyat berish va ularni nutqda qo‘llayotganda qaysi ma‘nosi nazarda tutilayotganiga ahamiyat berish;
- arxaik, varvarizmlar, kasb-hunarga oid, tor muhitda ishlatiladigan so‘zlarning ma‘nolarini faqatgina to‘liq anglagan holda ishlatish [3,58].

Nutqning tozaligi bu nutqning adabiy til me‘yorlariga va talablariga mos holda tuzilishi, turli xil tilga xos bo‘lmagan elementlardan holi bo‘lishidir.

Quyidagilardan o‘rinsiz foydalanish, asosan, nutq sofligining buzilishiga olib keladi:

- Varvarizmlar, ya‘ni chetdan kirib kelgan boshqa tilga oid so‘z va so‘z birikmalarni noo‘rin qo‘llash;
- vulgarizmlar, ya‘ni haqoratlash va qo‘pol so‘zlar;
- jargonlar, ya‘ni biror guruh vakillarining ko‘pchilikdan ajrab turish maqsadida ishlatadigan so‘zlar;
- mahalliy shevaga xos so‘z va iboralar;
- kantselyarizmlar, ya‘ni, ish qog‘ozlar, hujjat ishlari uchun ishlatiladigan so‘z va so‘z birikmalari.

Har bir so‘zlovchi o‘zining nutqini adabiy me‘yorlar darajasida bo‘lishiga harakat qilishi, yuqorida sanab o‘tgan so‘zlardan o‘rinsiz foydalanmasligi kerak. Lekin badiiy asarlarda varvarizm, dialektizm so‘zlaridan o‘rinli foydalanish yozuvchining badiiy-estetik qobiliyatini namoyish etish, ma‘lum g‘oyani ochib berish uchun ham xizmat qiladi. Insonlarning nutq

ishlatilishini nazorat qilmasligi oqibatida yuqorida keltirilgan so'zlardan foydalanishi nutq sofligining buzilishiga olib kelmoqda. Buning oldini olish uchun badiiy asarlarni ko'p o'qish, adabiy tilga hurmat bilan qarash maqsadga muvofiqdir.

Nutqning mantiqiyliги bu nutqimizda har bir so'zni qo'llashda predmetning mavzusiga mos kelishi va o'ziga xos ma'noni ifoda etishidir. Nutq tuzishda qilgan e'tiborsizligimiz ham nutq mantiqiyliгining bulishiga olib keladi. Masalan, fikrimizni ifodalash uchun noto'g'ri tanlagan lug'aviy birlik va grammatik jihatidan to'g'ri tuzilmagan gap ham tinglovchiga ifoda etilayotgan fikrning to'g'ri yetib bermasligiga sabab bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligi deganda og'zaki nutq jarayonida notiqning omma tushuna oladigan tilda gapira olishi va ularni ifodalanyotgan fikrga ishontira olishi tushuniladi. Nutqning ta'sirli bo'lishi uchun notiq tinglovchilarning bilim darajasini, yoshini ham inobatga olishi muhimdir, chunki yetarli bilimga ega bo'lmagan kishilar oldida ilmiy, rasmiy nutq so'zlash to'g'ri kelmagani kabi professional bilimga ega insonlar bilan muloqot qilyotgan paytda o'ta sodda nutqdan foydalanish o'rinsizdir. Tinglovchilarning vaziyatiga qarab nutq so'zlash, ularni ishontira olish ham notiqdan yuqori mahorat talab etadi.

Muhokama va natijalar

Insonning ijtimoiy, madaniy va psixologik hayotidagi nutqning o'rni haqida gapirar ekanmiz, nutq bir-biriga uzviy bog'liq ikkita asosiy turga bo'linishini ta'kidlash joizdir: og'zaki va yozma [8].


Og'zaki nutq xususiyatlari

- ohang, talaffuz, imo-ishora vositalari orqali amalga oshishi;
- qisqarishlar, gap bo'laklarining tushib qolishi;
- so'zlovchining ruhiyati, kayfiyati;
- vaziyatiga hamda nutqiy a'zolarining sog'lom ishlashiga bog'liq.

Yozma nutq xususiyatlari

- so'zlarning o'ta sinchkovlik bilan tanlab olinishi;
- grammatik jihatdan aniq, lekin murakkab shakllanganligi;
- adabiy til me'yorlariga amal qilish;
- imloviy va punktuatsion me'yorlar muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, nutq nutq a'zolarining harakati sababli paydo bo'ladi va o'z navbatida ichki va tashqi nutqqa ham bo'linadi. Insonlarning gapirmasdan fikrlashi va mulohaza qilishi ichki nutqdir. O'pkadan chiqqan havoning nutq a'zolariga ta'siri natijasida aniq tovushlar vositasida yuzaga chiqadigan nutq esa tashqi nutqdir. Nutq so'z va tafakkurning o'zaro bog'liqligiga namoyon bo'ladi va tinglovchiga nutqni izchil, aniq, mantiqiy va ta'sirli qilib yetkazishda notiqning o'rni beqiyos. Notiq idroki, bilimliligi, xotirasi va fikrini mazmunli yetkazib bera olish qobiliyati bilan boshqa insonlardan ajralib turuvchi shaxsdir. Notiqlik san'ati qadimdan sharq va g'arb mamlakatlarida qadimiy tarixga ega bo'lib kelgan jamiyat hayotiga ta'sir etuvchi yuqori nutqiy mahorat hisoblanadi. Bu mahoratga ega bo'lishimiz uchun nutq so'zlash qoidalariga ahamiyat berishimiz va nutqimizni maromiga yetkazib chiroyli ifoda etib berishimiz dardor. Nutq ta'sirli va ifodali bo'lishi uchun esa ifodali o'qishni o'zlashtirishning ahamiyati katta va bunda quyidagi fonetik vositalarning o'rni muhimdir.



Qo'llanish sohasiga qarab nutq badiiy, ilmiy va rasmiy rasmiy shakllarga ega bo'ladi. Har bir nutq ma'lum bir maqsadni ifoda etadi va nutq maqsadiga ko'ra asosan ushbu 4 turga bo'linadi:

- Ta'sir etib ishontirmoqlik;
- biror masalani tushuntirib berish;
- tiklovchilarda biror fikr tug'dirish;
- tinglovchilarning ko'nglini ochish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, nutq inson madaniyatining, jamiyat taraqqiyotining va millat kamolotining muhim jihati. Nutq odobi inson yoshligidan o'zlashtirishi kerak bo'lgan, shaxsning umummadaniy saviyasini belgilab beruvchi omildir. Nutqimizning qiziq bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollardan foydalanish juda muhimdir. Darhaqiqat, tibbiy ilmiy izlanishlarga ko'ra, inson ma'lumotni eshitgandan ko'ra ko'rib tasavvur qilsa, 25 marta ko'proq taasurot uyg'onar ekan. Nutqda bitta ma'noni anglatish uchun turli so'zlardan o'rinli foydalana olish so'zlovchining so'z boyligi ko'pligidan ma'lumdir. Tinglovchilarga tushunarli va ta'sirli bo'lishi uchun nutqda umumiy misollar bilan emas, aniq dalillar bilan gapirish ma'lumotning ishonchligini kuchaytiradi. Bundan tashqari, nutqda turli iboralar va hikmatli so'zlardan foydalanish uning yanada yorqin bo'lishiga xizmat qiladi. Til va nutq jamiyat hamda uning madaniyati bilan birgalikda yuksalib boradi. Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni me'yorlashga va boyitishga qaratilgan harakatlarga emas, balki millatning umumiy nutq madaniyatini ko'rsatish va insonlarda "til didi" ni shakllantirishga qaratilgan faoliyat hamdir. Qolaversa, har qanday holatda ham aniqlik, ta'sirchanlik, soddalik va ravonlik nutqning eng muhim belgilaridan bo'lib qolishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. –T. 1988, - 72 b.
2. Kaykovus. Qobusnoma. T 1968, - 29 b.
3. R. Qo'g'urov, E. Begmatov. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – T. 1992, 52-53 b.
4. Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. М., 1977, 96 - с.



5. Звегинцев В.А. Предложение и его отношение к языку и речи Изд. 3. URSS. 2007. ISBN 5-484-00699-6. Серия: Из лингвистического наследия В.А.Звегинцева. V.A. 2007. – С. 312 .
6. Костомаров В.Г. Наш язык в действии: Очерки современной русской стилистики. М.: Гардарики, 2005. С. 287
7. R. Rasulov, N. Husanov, Q. Mo'yudinov. "Nutq Mahorati" o'quv qo'llanma. 2006. 29-60 b
8. Elektron manba. <https://teletype.in/@liderlar1/dXHQ40as>

NEMIS, RUS VA O'ZBEK TILLARI SO'Z MA'NOSINING IJTIMOYIY KOMPONENTI

Ikramova Shahlo

Mirzo-Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti,
Xorijiy filologiya Fakulteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Tilshunoslikda so'z ma'nosining ijtimoiy komponenti tahlili muhim soha hisoblanadi. Mazkur maqolada nemis, rus va o'zbek tillarida qo'llaniladigan so'zlar, frazeologik birliklar, lingvistik terminlarning ijtimoiy komponentlari tahlil etiladi. Shuningdek tarjima muammolari haqida muhokama olib boriladi.

Kalit so'zlar: Frazeologik birlik, so'z, tarjima, til, komponent, lingvistika, metod, termin.

SOCIAL COMPONENT OF WORD MEANING OF GERMAN, RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES

Ikramova Shakhlo

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Independent researcher of the Faculty of Foreign Philology

Abstract: Analysis of the social component of word meaning is an important area in linguistics. This article analyzes the social components of words, phraseological units, linguistic terms used in German, Russian and Uzbek languages. Translation problems are also discussed.

Key words: Phraseological unit, word, translation, language, component, linguistics, method, term.

СОЦИАЛЬНАЯ КОМПОНЕНТА ЗНАЧЕНИЯ СЛОВ НЕМЕЦКОГО, РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Икрамова Шахло

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
Независимый научный сотрудник факультета иностранной филологии

Аннотация: Анализ социальной составляющей значения слова является важным направлением лингвистики. В данной статье анализируются социальные компоненты слов, фразеологизмов, лингвистических терминов, используемых в немецком, русском и узбекском языках. Обсуждаются также проблемы перевода.

Ключевые слова: Фразеологизм, слово, перевод, язык, компонент, лингвистика, метод, термин.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslik uchun turli tizim tillari, jumladan rus, o'zbek, tojik va nemis tillarini qiyosiy o'rganish dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan. Birinchi navbatda shuni aytish lozimki, nemis va o'zbek tillari bir-biridan tubdan farq qiladi: nemis tili german tillari guruhiga mansub bo'lib, hind- yevropa tillar oilasiga kiradi (140 til, 2,7 milliard so'zlashuvchi), o'zbek tili turk tillari oilasiga mansub (16 til, 180-185 million so'zlashuvchi). Nemistilida so'zlashuvchilar soni 130 millionga yaqin, o'zbek tilida tahminan 50 million [1]. O'zbek tiliga nisbatan rus tili nemis tiliga yaqinroq turadi. Yana shuni ham eslatib o'tmoqchimizki, rus tili nemis tili kabi hind-yevropa tillar oilasiga kiradi, ammo german tillariga emas, slavyan tillariga mansub; rus tilida 260 million odam muloqot qiladi. Shu tomonlarni hisobga olgan holda misollarni tahlil qilishda rus tiliga ham murojaat qilamiz.

Adabiyotlar sharhi

“Aspekte der phraseologischen Bedeutung”, ya'ni “Frazeologik ma'no aspektlari (tomonlari)” mavzusiga oid nemis tilidan o'zbek tiliga o'girishmasalalariga to'xtalamiz. Quyidagi gapni ko'rib chiqaylik [2]:

“Die semantische Struktur des Phraseologismus ist die Gesamtheit der ihm innewohnenden Bedeutungselemente, die zueinander in verschiedenen Beziehungen stehen.” – rus. „Семантическая структура фразеологизма есть совокупность присущих ему элементов значения, которые состоят друг с другом в различных отношениях“. - o'zb. “Frazeologizmning semantik strukturasi bu uning bir-biri bilan turlicha munosabatda bo'lgan ma'no elementlarining yig'indisi (jamlanmasi)dir”. Ushbu gapda “die Gesamtheit” so'zi rus tiliga “совокупность”, o'zbek tiliga “yig'indi, jamlanma” deb o'girildi. Gapning bir qismi, ya'ni “... der ihm innewohnenden Bedeutungselemente”, rus tiliga “присущих ему элементов значения” deb tarjima qilindi, o'zbek tiliga esa “uning ... ma'no elementlarining” deb o'girildi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Endi keyingi gapni ko'rib chiqamiz: “Vor allem sind die Beziehungen direkter Gegenüberstellung (semantischer Opposition), die zwischen bestimmten Bedeutungselementen eines Phraseologismus wirksam werden können, und zwar ...” – rus. “Это прежде всего отношения прямого противопоставления (семантической оппозиции), которые могут оказаться действенными между определенными элементами значения фразеологизма, а именно ...” – o'zb. “Bu avvalo frazeologizmning muayyan ma'no elementlari orasida ta'sir qilishi mumkin bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) qarama-qarshi (zid) qo'yish (semantik oppozitsiya) munosabatlaridir, ya'ni ...” [3].

Bunda nemis tilidagi gapning bir qismi, ya'ni “Beziehungen direkter Gegenüberstellung (semantischer Opposition)” rus tiliga “отношения прямого противопоставления (семантической оппозиции)” deb tarjima qilingan, o'zbek tiliga “to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) qarama-qarshi, zid qo'yish (semantik oppozitsiya) munosabatlaridir” deb o'girildi.

Gapning yana bir qismi “... , die zwischen bestimmten Bedeutungselementen eines Phraseologismus wirksam werden können” rus tiliga quyidagicha tarjima qilindi: “..., которые могут оказаться действенными между определенными элементами значения фразеологизма”; o'zbek tiliga gapning bu qismi quyidagicha o'girildi: “frazeologizmning muayyan ma'no elementlari orasida ta'sir qilishi mumkin bo'lgan munosabatlar”.

Shu yerda yana bir narsaga to'xtalish lozim: nemis tilida aniqlovchi ergash gapning boshida kelgan “die” nisbiy olmoshi rus tiliga “которые” deb tarjima qilingan. O'zbek tiliga

o'g'irilganda "die" nisbiy olmoshi "qaysiki" biriktiruvchi bog'lovchi bilan tarjima qilinishi yoki (misolimizdagi kabi) umuman tushirilib qoldirilishi mumkin [4].

Endi keyingi misolni ko'rib chiqamiz. Nemis tilida: „[Beziehungen] - zwischen verschiedenen Einzelbedeutungen (Sememen, semantischen Varianten) eines vieldeutigen Phraseologismus“ - rus tilida: „[отношения] - между различными отдельными значениями (семемами, семантическими вариантами) одногомногозначного фразеологизма“ – o'zbek tilida: „- ko'p ma'noli frazeologizmning turli ma'nolari (sememalari, semantik variantlari) orasidagi [munosabatlar].

Ushbu misolda „Beziehungen“ so'zi rus tiliga „otnosheniya“ deb o'girildi, o'zbek tiliga „munosabatlar“ deb. „Beziehungen“ so'zi ko'plik shaklda kelsa, rus tiliga „связи“ deb ham o'girilishi mumkin, ammo bizning fikrimizcha, ko'rilyotgan misolda „отношения“ / „munosabatlar“ deb tarjima qilinishi afzal.

Y.S. Stepanov fikriga ko'ra "konsept – bu inson ongidagi madaniy qadriyat va milliy madaniyatni ifodalab beradigan tushunchalar yig'indisi... va boshqa tomondan konsept –bu uning vositasida insonning madaniyatga kirishidir".[5, 43]

Konseptni olimlar turli maydon (zona)larga bo'lishadi:

a) asosiy maydon – intrazona va ekstrazona; qo'shimcha maydon – kvazizona va kvaziekstrazona;

b) asl ma'no (so'zning ichki jihati), passiv (tarixiy qism), zamonaviy (dolzarb va faol qism);

c) yadroviy maydon va periferik maydonlar.

Yadroviy va periferik maydonlarning mutanosibliği konsept strukturasi belgilab beradi. Tilshunoslikda konsept lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida qaraladi.

Konseptni har bir millat o'z dunyoqarashi va mentaliteti orqali tasavvur qiladi. Bu voqelik kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik jihatidan olamning lisoniy tasviri sifatida qaraladi. Biror konseptni mukammalroq o'rganish uchun shu konseptni turli tillarda solishtirib, uning turli millatlar madaniyati, kundalik hayoti va mentalitetida tutgan o'rnini aniqlash zarur.

Konsept termini lotin tilidagi conceptus –"tushuncha" so'zining kalkasi bo'lib, uning ikki tomonli xususiyati mavjud. Birinchisida madaniyat ko'rinishida insonning mental olamiga kirsam, ikkinchisida esa uning yordamida inson madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi. Birinchi bor bu termini XX asrning birinchi yarmida rus ilm-fanida faylasuf S. Askoldov qo'llagan. Olim konseptni bir qator noaniq predmetlar, harakatlar, voqeliklarni fikrlash jarayonida o'rnini to'ldiruvchi tafakkur shakli deb izohlaydi. S.A.Askoldov o'zining "Konsept va so'z" maqolasida "Konsept – fikrlash jarayonida bizni ayni bir turdagi ko'pdan ko'p predmetlarning o'rnini bosadigan fikriy hosila" – deb ta'rif bergan. [6]

Taxminan, o'sha vaqtlarda D.S.Lixachev konseptni til sohibining salohiyati, shaxsiy, professional va ijtimoiy tajribasidan kelib chiqib, qo'llaydigan va talqin qiladigan umumxulosaviy tafakkur birligi deb izohlaydi. Til sohiblarining tafakkuridagi aniq bir so'zning o'ziga xos turli ma'nolarining umumlashmasi, muloqot qilayotganlarga ular orasida mavjud so'zlarni tushunishdagi individual farqlarni bartaraf qilish imkonini beradi. D.S. Lixachev fikriga ko'ra, konsept til mohiyatidan paydo bo'lmaydi, balki so'zlovchining shaxsiy hayotiy tajribasi bilan o'zlashtirilgan bilimlari to'qnashuvi natijasida hosil bo'ladi va u obyektiv ma'noning tahlili va ma'noning minimal sarmazmun mohiyatidir. Konsept bu holatda D.S. Lixachev tushunchasiga asosan, muloqot tilida o'rindoshlik vazifasini bajaradi. [7,90]

Y.Stepanovning fikriga ko'ra, konsept – o'zida abstrakt, aniq assotsatsiyaga ega, emotsional baholovchi belgilar hamda tushunchaning zichlangan tarixini aks ettiruvchi g'oyadir. [8, 412]

A.Solomonik konseptga aniq bir maishiy mohiyat asosida yaratilgan ilmiy, abstrakt tushuncha ded qaraydi.[9]

V.I.Karasikning fikricha, konsept uch komponentdan – tushunarlilik, obrazli va qiymatdan iborat. V.I.Karasikning o'zi konseptga quyidagicha ta'rif beradi: konsept – inson ongida saqlanuvchi tajribaning anglangan, tiplarga ajratilgan fragmentlarni o'zida aks ettiruvchi mental ta'lim[10]; konsept ko'p o'lchamli mental ta'lim bo'lib, uning tarkibida obrazli-intuitiv, tushunchaviy hamda baholovchi qirralari yaqqol namoyon bo'ladi; "konsept bu insonning hayot tajribasidan parchadir". Konsept bu yashab o'tiluvchi axborot, konsept bu yashab o'tiladigan bilimlar kvantidir.

Konsept borasida o'zbek tishunoslari ham o'z mulohazalarini bildirganlar. Xususan, O'. Yusupov konseptni lisoniy birliklar, ya'ni so'z, gap, matnlar orqali yuzaga chiqaruvchi fikrlash jarayonining natijasi; inson ongida obyektiv borliq predmet va hodisalari haqidagi juda keng miqyosda mukammal, har tomonlama ma'lumot, tushuncha, tasavvurlarni o'zida tashishi, saqlashi, o'zgaga yetkazishi (berishi) bilan jamiyat a'zolarining predmet va hodisalarga bo'lgan munosabatini qayd etishi bilan o'ziga xos ekanligini yozadi.[11] J.Matnazarov esa uni tizimiy xarakterga ega, tuzilish jihatidan murakkab va tartibli, bir butun mental tuzilma sifatida baholaydi.[12, 22]

Konsept har bir xalq uchun alohida milliy o'ziga xos tushuncha hisoblanadi. Bir millat uchun konsept hisoblangan narsa, holat, tuyg'u boshqa bir xalq uchun konsept hisoblanmasligi yoki uning xususiyati, funksiyasi va qo'llanilish o'rni o'zgarishi mumkin. Bu esa o'z navbatida insonlar tafakkurida jonlanadigan milliy madaniyat hosilasiga borib taqaladi. U birgina so'z, ibora, gap, matn yoki qoliplashgan birikma, ya'ni maqollar vositasida tilda namoyon bo'ladi. Lekin har qanday lisoniy birlik konsept bo'la olmaydi. Konsept bo'la olishi uchun lisoniy birlik jamiyat ongida milliy xarakterni shakllantirishi lozim bo'ladi.

Konsept strukturasi tushuncha va obrazli elementdan iborat. Y.S.Stepanovning fikriga ko'ra, har bir konseptning tushunchali elementida quyidagi qatlamlar va komponentlar mavjud:

- 1) o'zida muhim belgini aks ettiradi;
- 2) bir yoki bir necha qo'shimcha va passiv belgilarni aks ettiradi;
- 3) o'zida konseptning ichki shaklini aks ettiradi.

Konsept tushunchasi o'rganish va tadqiq etish bo'yicha quyidagi fikrlarni bildiradi :

-so'zning sema tarkibini aniqlab (bunda izohli lug'atlardan foydalangan holda va so'zning kelib chiqish tarixiga nazar solgan holda tahlil qilinadi);

-sinonimik qatorni aniqlash orqali(bunda kalit so'z va unga ma'nodosh so'zlar bir-biriga solishtirilgan holda tahlil qilinadi);

-derivatsion (so'z yasalishi) tahlili orqali;

-maqol, matallarda va badiiy, ilmiy, falsafiy, publitsistik matnlarda qo'llanish holatiga ko'ra va shu kabi boshqa tahlillar natijasida, o'ziga xos metodlar orqali amalga oshiriladi.[13, 63]

Tilshunos A.P.Babushkin fikriga ko'ra, konseptning ba'zi turlari o'zgaruvchanlik xossasiga ega bo'lib, vaqt o'tishi bilan qayta-qayta shakllanishi ham mumkin.[14, 50]

Sh.Safarov "mantiqiy faoliyat hosilasi bo'lgan "tushuncha" va kognitiv tilshunoslikda keng miqyosda qo'llanilayotgan "konsept" atamalarini bir xil mazmunda qo'llash mumkinmi?"

– degan savolni o‘rtaga tashlar ekan, bu ikkala hodisa ham, so‘zsiz, tafakkur birligi sifatida namoyon bo‘lishi; ikkalasining ham boshlang‘ich nuqtasi voqealidagi predmet – hodisaning his qilinishi bilan bog‘liqligi, shuning uchun paydo bo‘lgan hissiy obraz dastlab har bir shaxsda alohida, individual ko‘rinishda bo‘lishiga urg‘u beradi. [15] “Ingliz tili lug‘ati”da esa konsept andaza, stereotip, umumqabul qilingan fikr, nuqtai nazar kabi tushunchalarga yaqin turishi qayd etilgan.[16, 176] “Konsept – bu inson ongidagi madaniyat yig‘indisi; insonning mental dunyosiga madaniyat tarzida kirgan narsa; madaniyat boyliklarining ijodkori.

Konsept – o‘sha jamiyatning ideologiyasi”dir [17] . V.N.Teliya “Konsept – bilimning hajmini kengaytirishga qaratilgan, biz obyekt haqida bilgan, tasavvur qilgan narsa” – degan mulohazani bildiradi. [18,94-97] G.G.Slishkin fikricha, “qanchalik konseptni ifodalovchi belgilar potentsial bo‘lsa, shunchalik konsept qadimiy bo‘ladi va o‘sha til jamoasida uning qimmatini ortadi”. [19,97] Rus tilshunosi V.A.Maslova esa bu atamani nisbatan keng tarzda “Konsept – bu lingvomadaniy o‘ziga xoslik qayd etilgan va muayyan etnomadaniy g‘oyalarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir” – deb talqin qiladi .

New world encyclopediya websaytida konseptga quyidagicha ta‘rif berilgan:

A concept is a constituent of thought or generalized idea, that designates common properties and characteristics abstracted from a number of instances. While ideas, perceptions, and "representations" have psychological implications, concepts have logical implications.[21,28]

Ya‘ni, kontsept - bu fikr yoki umumlashirilgan g‘oyaning tarkibiy qismi bo‘lib, u bir qator misollardan mavhumlashtirilgan umumiy xususiyatlar va xususiyatlarni belgilaydi. G‘oyalar, in‘ikoslar va “vakolatlar” psixologik ma‘noga ega bo‘lsa, tushunchalar mantiqiy ma‘noga ega.

Inson dunyoni tushunchalarni qo‘llash va ularni til bilan ifodalash orqali tushunadi. Shuning uchun, tushunchalar nazariyalari til falsafasi, aql falsafasi, kognitiv fan va psixologiya, shuningdek, ontologiya va gnoseologiya bilan chambarchas bog‘liq.

Masalan, quyidagi rasmda korrupsiyaga oid konseptlarning turlarini ko‘rishimiz mumkin:

CORRUPTION CONCEPTS



CURB MASS MEDIA
CORRUPTION



COMBAT COURT
CORRUPTION



STOP BUSINESS
CORRUPTION



PREVENT HOSPITAL
CORRUPTION



FINISH EDUCATIONAL
CORRUPTION



TRANSPARENT
DECISION MAKING



ACCOUNTABILITY
OF MASS MEDIA



ANTI-CORRUPTION
COURT



ANTI-CORRUPTION
FORUMS

Korrupsiya konsepti deganda nafaqat korrupsiyaning o'zi, balki bir qancha tushunchalar ham ko'z oldimizga keladi. Misol uchun: pora, poraxo'r, poraxo'rlik, pul, ta'magirlik, ko'zbo'yamachilik va boshqalar.

Konseptlar voqelikni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, konseptlar quyidagicha qabul qilinadi- qabul qilinadigan obyektlarni shu yoki boshqa ontologik turdagi deb tan olish uchun orttirilgan moyilliklar, hamda bu turdagi yoki boshqa turdagi obyektlar qanday ekanligini tushunish uchun va natijada bir qancha idrok etilgan ma'lumotlarning bir xil ekanligini anglash va ular bilan bir-biridan farq qiluvchi boshqa aqliy xususiyatlarni farqlash.

Konseptlarning shakli bo'yicha hosil bo'ladigan tushunishning mantiqiy harakatlari quyidagilardan iborat:

- qiyoslash, ya'ni ong birligi bilan bog'liq holda psixik obrazlarni bir-biriga o'xshatish;
- mulohaza yuritish, ya'ni turli ruhiy obrazlar ustidan orqaga qaytish, ularni bir ongda qanday idrok etish mumkinligi;
- mavhumlik yoki aqliy tasvirlar bir-biridan farq qiladigan hamma narsani ajratish.

Bizning aqliy tasvirlarimizni tushunchaga aylantirish uchun, shunday qilib, taqqoslash, aks ettirish va mavhumlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak, chunki tushunishning bu uchta mantiqiy operatsiyalari har qanday tushunchani yaratishning muhim va umumiy shartlaridir. Misol uchun, men archa, tol va jo'kani ko'raman. Bu narsalarni birinchi navbatda solishtirganda, ular bir-biridan tanasi, shoxlari, barglari va shunga o'xshash narsalarga ko'ra farq qilishini ko'raman; bundan tashqari, men faqat ularning umumiyligi, tanasi, shoxlari, barglarining o'zlari va ularning hajmi, shakli va boshqalardan mavhum bo'lgan narsalar haqida mulohaza yuritaman; Shunday qilib, men daraxt konseptiga ega bo'laman.

Konseptni lingvistik tushunishda uchta asosiy yondashuv mavjud. Birinchidan, keng ma'noda tushunchalar soniga leksemalar kiradi, ularning ma'nolari milliy til ongining mazmunini tashkil qiladi va ona tilida so'zlashuvchilarning "olamning sodda tasvirini" tashkil qiladi. D.S. Lixachev bunday tushunchalar jami tilning kontseptsiya sohasini tashkil qiladi, deb taklif qiladi [28, 287], unda millat madaniyati jamlangan. Ushbu yondashuvda hal qiluvchi omil leksik semantikada dunyoni kontseptuallashtirish usuli bo'lib, asosiy tadqiqot vositasi konseptual model bo'lib, uning yordamida kontseptsiya semantikasining asosiy komponentlari ajratib olinadi va ular o'rtasidagi barqaror aloqalar ochib beriladi. Ikkinchidan, tor ma'noda, tushunchalar orasida Yu.S. Stepanov va Neroznak lingvomadaniy o'ziga xoslik bilan belgilanadigan va u yoki bu tarzda ma'lum bir etnik madaniyatning tashuvchilarini tavsiflovchi semantik shakllanishlarni o'z ichiga oladi. [2, 78] Bunday tushunchalar jami kontseptsiya sohasini o'ziga xos yaxlit va tuzilgan semantik makon sifatida shakllantirmaydi, balki unda ma'lum bir qismni - kontseptual sohani egallaydi. Va nihoyat, tushunchalar soni faqat ro'yxati ancha cheklangan va milliy mentalitetni uning tashuvchilari dunyosiga o'ziga xos munosabati sifatida tushunish uchun kalit bo'lgan semantik shakllanishlarni o'z ichiga oladi.

Xulosa

Kontsept tushuncha va ma'no toifalari bilan bog'liq. Tushucha - bu berilgan nomga ega bo'lgan obyekt (denotat), ma'no - bu belgi tushunchasi, berilgan obyektga nom berish imkonini beradigan ma'lumot. Lingvokulturologik talqinda kontsept "prototip, geshtalt strukturasi"

Demak, konsept inson tafakkuriga hos mental birlik bo'lib, u inson ongi, xotirasidagi tashqi va ichki bog'lamlarni aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vyvyan Evans, Green M., The cognitive linguistics An Introduction, Edinburgh University Press, 2006, p3
2. Фесенко Т. А. Специфика национально культурного пространства в зеркале перевода: учеб. пособ. – Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г. Р. Державина, 2002. – 228 с.
3. Лихачёв Д. С. Концептосфера русского языка // Изв. РАН– СЛЯ. – 1993. – №1. – С. 3–9.
4. Гавриленко Н. Н. Теоретические и методические основы подготовки переводчиков научнотехнических текстов: монография. – М.: Изд-во РУДН, 2004. – 269 с.
5. Степанов Ю.С., Константы. Словарь русской культуры. М.: Академический Проект, 2001. - с.43
6. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология.-М:Academia. 1997.-с.267-280
7. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность: Антология. – М.: Academia, 1997.- с.90
8. Степанов Ю.С., Константы. Словарь русской культуры. М.: Академический Проект, 2001, -с.412
9. Соломоник А. Язык и знаковая система. М.,1992.- с.246
10. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты. Дискурс. М.: Гнозис, 2004
11. Юсупов Ў.Қ-Ма'но, тушунча, консепт ва лингвокултурология атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий амалий конференция материаллари.- Тошкент, 2011.-49-бет



12. Rasulov R., Umumiy tilshunoslik, T:2013 154-b, (kitobdagi ushbu ma'lumot O'.Q.Yusupovning "Kognitiv lingvistika haqida" maqolasidan olingan, 22-24-bb., T:2007
13. Степанов Ю . Концепты. Тонкая пленка цивилизации. М., 2007.-с63
14. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. Воронеж, 1996.- С.12,50-53
15. Сафаров Ш. С. Когнитив тилшунослик.-Жиззах: Сангзор,2006.- Б.91
16. Hornby, A. S., E. V. Gatenby,Oxford Advanced Learner`s Dictionary of Current English, Oxford University Press, London,, 1976, -p176
17. Степанов Ю . Концепты. Тонкая пленка цивилизации. М., 2007.-с 40
18. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М., 1996.-С.94-97
19. Г.Г. Слышкин, Лингвокультурный концепт как системное образование, Вестник ВГУ, Серия Лингвистика и межкультурная коммуникация, 2004.-с 97
20. Маслова В. А. Лингвокультурология. М., 2001.-С.28
21. Mill J.S., A System of Logic, Book IV, Ch. II ,Cambridge University Press, 2011
22. Shopengauer, "Sketch Ideal va haqiqat tarixi, L, 2000.
23. "Axloqiy ma'noda haqiqat va yolg'on haqida", Portativ Nitshe, 46-bet
24. www.newworldencyclopedia.org

POETICS OF THE NOVELS OF HERTA MÜLLER AND MULTICULTURALISM IN GERMAN MODERN LITERATURE

Mamatov Ravshanbek Rustamovich

Doctoral student (PhD) of Namangan State University

ravshanbek-mamatov@mail.ru

Abstract: *Multiculturalism is a term by which we can understand the cultures of several peoples living together in the same physical, geographical or social space. This article discusses multiculturalism in artistic terms in the works of German writer Herta Muller. In the works of Herta Muller, we can explore the life, culture and literature of the Romanian and German peoples through people like Leo Auberg and Irena.*

Keywords: *Creativity of Herta Muller, multiculturalism, Western literature, German literature, philosophy of Herta Muller.*

ПОЭТИКА РОМАНОВ ГЕРТЫ МЮЛЛЕР И МУЛЬТИКУЛЬТУРАЛИЗМ В СОВРЕМЕННОЙ НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Маматов Равшанбек Рустамович

Базовый докторант Наманганского государственного университета

ravshanbek-mamatov@mail.ru

Аннотация: *Мультикультурализм -это термин, под которым мы можем понимать культуры нескольких народов, живущих вместе в одном физическом, географическом или социальном пространстве. В этой статье обсуждается мультикультурализм в художественном плане в работах немецкой писательницы Герты Мюллер. В работах Герты Мюллер мы можем*



исследовать жизнь, культуру и литературу румынского и немецкого народов через таких людей, как Лео Ауберг и Ирена.

Ключевые слова: Творчество Герты Мюллер, мультикультурализм, западная литература, немецкая литература, философия Герты Мюллер.

GERTA MYULLER ROMANLARI POETIKASI VA ZAMONAVIY NEMIS ADABIYOTIDAGI MULTIKULTURALIZM

Mamatov Ravshanbek Rustamovich

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

ravshanbek-mamatov@mail.ru

Annotatsiya: Multikulturalizm-bu bir xil jismoniy, geografik yoki ijtimoiy makonda birga yashaydigan bir necha xalqlarining madaniyatlarini tushunishimiz mumkin. Ushbu maqolada nemis adibi Gerta Myuller asarlarida multikulturalizm badiiy jihatdan muhokama qilinadi. Gerta Myuller asarlarida Leo Auberg va Irene kabi insonlar orqali rumin va nemis xalqlarini hayoti, madaniyati va adabiyotini o'rganishimiz mumkin.

Keywords: Gerta Myuller ijodi, multikulturalizm, g'arb adabiyoti, nemis adabiyoti, Gerta Myuller falsafasi.

Introduction

The concept of "multiculturalism" is connected, first of all, with a number of political initiatives taken to address national issues in the postcolonial era of the late XX century, also associated with a lot of social upheavals that provoked an increase in the volume of migration flows. The term, which first appeared in Switzerland in the late 50s, was fixed in the political rhetoric of Canada as a direction in solving interethnic issues towards preserving and stimulating the development of ethnic communities - thus, the Official Act on Multiculturalism adopted in 1971 offered an alternative to the concept of merging various ethnic groups into a single whole with a common culture. However, as the sociologist G. Terborn, multiculturalism can be interpreted not only as a political term, but can be used more broadly - as an indicator of changes in a multinational society and as a philosophical concept [1,61].

Methods

The phenomenon that can be conditionally called the literature of multiculturalism" is connected, first of all, with the work of migrant writers who tell about their experience of collision and subsequent interaction with another culture. The multicultural context of literature, as S.P. Tolkachev notes, "assumes mainly a heterogeneous representation of cultural identity". The researcher believes that "in order to interpret and model one's self and its place in the world, in order to resist degrading or, conversely, unduly uplifting stereotypes of the "other", what happens in the space of intersection and overlap of knowledge and power"[2,1]. The multicultural line within a particular national literature is closely connected with the historical background. The collective guilt that has been haunting Germany throughout the second half of the XX century has made it an open and tolerant space for representatives of other cultures. D.A. Chugunov points to these properties as the reason for the development of multiculturalism literature in Germany: "The experience of tolerance and tolerance for other cultures on German soil proper has become the phenomenon of "multi-cults", characteristic of the social and literary development of the 1990 s. We observe all this in works 3. Lenz, I. Knoll, D. Derry, I. Schulze, Y. Hermann, K.



Wolf, V. Buescher, B. Schlink, V. Kaminer, etc. It is a multicultural society that is increasingly understood and described as the future of Germany" [3,13].

The Canadian researcher Adina Balint-Babos reviewed the work of Herta Muller within the framework of the "literature of migrants". In her work, the researcher refers to the works of Herta Muller and the French-Canadian writer Regina Robin, evaluating them in the context of multiculturalism. Balint-Barbos notes the increased role of migrant writers in the literary field, so recently they have often become laureates of literary prizes [4,155]. Last but not least, this is due to the exit of multiculturalism beyond the paradigmatic attitudes of postmodernism. Thus, literary multiculturalism focused on the fact that "philosophical postmodernism ignored such consequences of emigration as alienation and exclusion" [5,104].

It is worth clarifying that Balint-Babos considers the work of female writers within the framework of the "literature of migrants" - a broader concept than the literature of multiculturalism and includes literature that works with biographical elements aimed at a specific cultural background; literature of immigration, revealing topics related to the process of emigration and shocking experiences changes of the native country; exile literature marked by a turn to biographical, autobiographical literature, autofiction, essays and travelogues; diaspora literature. In addition to this definition, Balint-Babos identifies more specific essential features of emigrant literature. In her opinion, in the work of emigrant writers, much attention is paid to ambivalence, shift and movement, displacement of cultural, political and linguistic values that the writer brings to a new country, emphasizes his autobiographical basis.

Results

Thus, despite the similarity of the artistic method of Muller with the aesthetic attitudes of multiculturalism, there are a number of fundamental differences. So, for example, the processes occurring during the formation of a multicultural subject, its features arising from its being at the intersection of two or more cultures - marginality, fragmentation, being everywhere and nowhere, have a different basis for the characters - existential, closely related to the position in power regimes. It is also useful to recall the writer's response to the interpretation of her work as a sample of migrant literature, with a "foreign view" represented in it. For Muller, "Someone else's view" is not the result of a collision of the optics of one culture with another, but it is an existential sign of consciousness in a reality corrupted by the authorities. Polyglossia is present in Muller's prose as well as in the work of migrant writers, but it functions in a different dimension. National and cultural languages do not interact, but dissolve in the "melting pot" of the writer's idiosyncrasy. "Hesitation, metaphysical, emotional" as a metaphor in the work of migrant writers is also present in Muller, but even here the emphasis is shifted from cultural to existential. Nevertheless, the multicultural aspect in her work, its traces in the artistic method of Herta Muller are obvious: formal similarities and conceptual differences in the same situations can be considered as a kind of polemic of the writer with multiculturalist discourse. [6,145-156] In the novels "A Journey on One Leg" and "The Swing of Breath", Muller views power as a supracultural superstructure that splits a person, as an object of oppression, in two. Irena, the main heroine of the novel "Journey on One Leg", who emigrated from socialist Romania, feels her split after the identity imposed on her by the authorities of West Germany, which split her before that into ethnic (German) and political (victim of persecution by the secret police) subjects of law. Leopold Auberg, on the contrary, after a visit to a Russian elderly woman, feels a doubling of his personality, symbolically taking the place of her son exiled to the camps. But both Auberg and Irena, receiving the



experience of contact with another culture (although for Auberg it is secondary to the experience of imprisonment in a labor camp), do not receive a sense of reconciliation with him and retain their nomadic marginal nature.

Discussion

In her poetical essays, Muller describes the process of writing and the effects that arise during it: "everything becomes so confusing that I begin not to understand where things begin from the outside and where they end. Whether they are in me or I am in them". [7.33] Different from "life" and "thinking" - areas in which a person is permeable and understandable to himself - the occupation of literary creativity for a writer calls into question established boundaries and blurs them, and along with these boundaries, the "anthropic factor" loses its power, endowing things with certain utilitarian meanings. The person himself and his privileged position in relation to things is called into question. The "gap" within human subjectivity, in which the Other and otherness are generated, makes it vulnerable and unable to subordinate and conceptualize an extralegal reality. These intuitions in the pathological system of Muller and reflected in her artistic method and political science, bring her closer to some of the ideas of object-oriented ontology. This philosophical trend suggests abandoning metaphysical reductions by eliminating taxonomy, and suggests considering the world as an ontological anarchy in which "any privilege of a human approach to the world is rejected".[8,1] Like the actor-network theory of B. Latour, in the object-oriented ontology, "non-people" and people are considered as equal actors in social systems and relations. In a literary way, an object-oriented ontology can resist postmodernism and poststructuralism with its position on the "discursive construction of everything". It indicates that outside of the discourses and knowledge that a person produces and lives in, there is also an extra-linguistic reality that affects him, never grasped by human cognition. This position makes it possible to rehabilitate and rethink mimetic representation: now it can be presented not as an indicator of authenticity or as a product of a particular discourse, but to expose its own insufficiency, a gap that focuses on the opacity of the world. The essence of this approach "splits into a statement of the impossibility of getting rid of the human gaze and a call to end its privilege." The recognition of things for their active role in social relations, the inexhaustibility of the essence of a thing with the meanings attributed to it, the existential "eeriness" present in them, capable of experiencing their owners and thereby exposing their unlimited role as a tool and property, is also reflected in G. Muller's poetological research. Moreover, it indicates the inherent abilities of things to exercise power over a person and occupy a more advantageous position in the world. A person who becomes dependent on things is included in the "contents" of things, as memory carriers, and the algorithms of actions dictated by them.

Conclusion

These novels are highly regarded by World Scholars: „Herztier“, „Atemschaukel“, „Niederungen“, „Der Mensch ist ein großer Fasan auf der Welt“, „Reisende auf einem Bein“, „Der Fuchs war damals schon Jäger“, „Heute wär ich mir lieber nicht begegnet“. In each of these works one can find Hertha Müller's own philosophy. In each work, the life of the German and Romanian people can be explored by Herta Müller. Herta Müller was born in 1953 in Nitzkydorf in Romania in 1973-76 she studied German and Romanian philology in Timisoara. After completing her studies, she works as a translator in a machine factory. Her first book "Niederungen" was published by the publisher for four years after that and was only published in censored form in 1982. It was published in the original version in Germany in 1984. Herta



Müller came to Germany in 1987 from 1989 to 2001 she held visiting professorships at universities in England, America, Germany and Switzerland, and since 1995 she has been a member of the German Academy of Language and Literature, Darmstadt. Her best-known works include "Herztier" in 1994, "A Lady Lives in the Hair Knot" in 2000, "The King Bows and Kills" in 2003, "The Pale Gentlemen with the Mocha Cups" 2005, "Breathing Swing" in 2009. Herta Müller was awarded the Nobel Prize for Literature in 2009.

Atemschaukel was enthusiastically received by large sections of literary criticism and was nominated for the German Book Prize in 2009. In the same year, Herta Müller received the Nobel Prize for Literature for breathing swing. The committee's statement stated that the author draws landscapes of homelessness "by condensing poetry and objectivity of prose". Reviewers such as the poet Michael Lentz or the journalist and former Minister of State for Culture Michael Naumann described the novel as a masterpiece.

The novel "Atemschaukel" is divided into 64 short chapters, sometimes only a few lines long, with concise headings. The book is written from the point of view of the first-person narrator Leo, who 60 years later retrospectively tells about deportation, everyday life in the camp and returning to his hometown. Herta Müller's sentences are short and concise, often incomplete. Sometimes they consist of only two words, even a single word. Again and again the author alternates between the past and the present, which gives the text something timeless. Her style is pictorial and rich in metaphors. Nature and objects are personified as well as feelings – for example, hunger, which, as an "angel of hunger", dominates the thoughts and actions of the camp inmates and acts as a constant companion of the narrator. When the protagonist begins to write down his memories of the camp at the end, and thus finds a language for what he has experienced, this is to be understood as a commitment to language as a way of coping with life. As with Primo Levi, Paul Celan, Imre Kertesz or Ruth Krüger, in whose tradition Müller sees himself, writing and thus pronouncing the unspeakable is an effective strategy for surviving experienced trauma.

References

1. Терборн Г. Мультикультурные общества // Социологическое обозрение. 2001. - Т. 1. - № 1. - С. 61.
2. Толкачев С.П. Мультикультурализм в постколониальном пространстве и кросс-культурная английская литература [Электронный ресурс] // Информационно-гуманитарный портал «Знание. Понимание. Умение». 2013. № 1 (январь — февраль). URL: http://www.zpu-journal.ru/e-zpu/2013/1/Tolkachev_Multiculturalism-Cross-cultural-Literature/ (дата обращения: 03.08.2018).
3. Чугунов Д.А. Немецкая литература 1990-х годов: основные тенденции развития. 2006- С. 13.
4. Gunther P. Kein Trost, nirgends. Zum Werk Herta Mullers. 1989- S. 155.
5. Balint-Babos A. Multiculturalism and Literature in Europe and Canada: Herta Muller and Regine Robin // Multicultural Interactions: Canada and the World. Politics and Literature. - Ottawa: University of Ottawa, 2014. - P. 104.
6. См. Goizueta G.I. Raumfigurationen und Macht in Atemschaukel // Estudios Filologicos Alemanes. - 2013. - № 26. - Ps. 145-156.
7. Muller H. Der Teufel sitzt im Spiegel. 1991.- S. 33.



8. Харман Г. О замещающей причинности // Новое литературное обозрение -2012-№2. URL: <https://magazines.gorky.media/nlo/2012/2/o-zameshhayushhej-prichinnosti.html> (дата обращения: 03.08.2018).

«BOBURNOMA» MATNIDA O‘SH SHAHRI HAVOSINI TASVIRLASHDA ISHLATILGAN SAJ'LARNING INGLIZ TILIGA TARJIMALARIDA AKS ETTIRILISHI

Sherg‘oziyev Shuhrat Sheraliyevich

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, «Chet tillar» kafedrası tayanch doktoranti

e-mail: shuhratshergoziyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada «Бобурнома» матнида келган saj'larni ingliz tili tarjimlarida o'z xususiyatini qanchalik saqlab qolganligini ko'rib chiqamiz. Shuningdek O'sh shahri havosini ifodalashda ishlatilgan saj'larni ingliz va amerika tarjimonlari tomonidan ingliz tiliga qay shaklda tarjima qilganliklari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: saj, lingvopragmatika, mumtoz adabiyot, tarjima, yozma nasr, badiiy mahorati, iqlim, tadqiqot

ОТРАЖЕНИЕ САДЖОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ОПИСАНИИ ВОЗДУХА ГОРОДА ОШ, В ТЕКСТЕ «БОБУРНОМА» В АНГЛИЙСКИХ ПЕРЕВОДАХ

Шергозиёв Шухрат Шералиевич

Наманганский инженерно-технологический институт, докторант кафедры

«Иностранных языков»

e-mail: shuhratshergoziyev@gmail.com

Аннотация: В данной статье мы рассмотрим, насколько сажки в тексте «Бобурномы» сохранили свои характеристики в английских переводах. Также речь пойдет о том, как английские и американские переводчики переводили на английский язык саж, используемые для описания атмосферы Оша.

Ключевые слова: саж, лингвопрагматика, классическая литература, перевод, письменная проза, художественное мастерство, климат, исследования

REFLECTION OF THE SAJ'S USED IN THE DESCRIPTION OF THE AIR OF OSH, IN THE TEXT «BOBURNAMA» IN ENGLISH TRANSLATIONS

Shergoziyev Shuhrat Sheraliyevich

Namangan institute of engineering and technology, PhD student «Foreign

Languages» department

E-mail: shuhratshergoziyev@gmail.com

Annotation: The article will consider how the saj'i in the text of «Boburnama» have retained their characteristics in English translations. We will also talk about how English and American translators translated into English the saj' used to describe the air of Osh city.

Key words: saj, linguistic pragmatics, classical literature, translation, written prose, artistic skill, climate, research

Kirish

Bizga ma'lumki, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari xalqlarining og'zaki va yozma adabiyot manbaalarida keltirilganidek, o'zbek xalq og'zaki va yozma nasrining asosiy badiiylik jihatlaridan biri saj' san'ati hisoblanadi. Shunday ekan, bu badiiy vositalardan biri o'zbek adabiyotshunosligida saj' san'atini namoyon etsada, uning xalq nasri, mumtoz adabiyot prozasida tutgan o'rni va vazifalari ilmiy jihatdan to'la tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Muallif «Boburnoma» matnida ham o'sha davr tarixiy shaxslari, voqealari, hayvonot va o'simlik dunyosi, geografik va harbiy ma'lumotlarni saj'dan moxirona foydalangan holda tasvirlagan. Mana shu saj'lar ingliz tiliga tarjimalarida qay darajada aks etgani va shaklini saqlab qolgani muhimdir.

Adabiyotlar tahlili:

Saj' san'ati haqida tilshunos olimlar E.Bertels, V.M.Jirmunskiy, H.Zarifov, M.Shayxzoda, tadqiqotlarida va N. Mallayev, V. Abdullayevlarning «O'zbek adabiyoti tarixi» darsliklarida hamda H. Homidiy, Sh. Abdullayeva, S. Ibrohimovalarning «Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati»da o'rganilgan. O'zbek adabiyotiga oid saj' to'liq dastlab B.Sarimsaqov «O'zbek adabiyotida saj'» nomli kitobida fikr yuritilgan va Yo.Isoqovning «So'z san'ati so'zligi» kitobida u yoki bu munosabat bilan keltirilgan qisqa izohlarga duch kelamiz. O'zbek adabiyotida aynan «Boburnoma» asarida saj'larning qo'llanilishiga doir tadqiqot B.Sarimsaqov tomonidan chuqur o'rganilgan. D.Xoshimova tomonidan doktorlik dissertatsiya ishida esa saj' tarjimalarining umumiy nuqtai nazardan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Zahiriddin Muhammad Bobur badiiy mahorati va «Boburnoma» matnidagi saj' tarjimalarining lingvopragmatik xususiyatlari qay darajada ingliz tarjimonlari Leyden-Erskin, A.Beverij va V.Tekston tarjimalarida amalga oshirilganligini tarjimashunoslik nuqtai nazaridan ochib berishdir.

Tahlillar va natijalar

Asarda Farg'ona viloyatnining yetti shaharchasi haqida ma'lumot berib beshtasi Sayhun (Sirdaryo) daryosining janubiy qismida ikkitasi esa shimolida joylashganligini ta'kidlab o'tadi. Shimoldagi ikki shahar Andijon va O'shdir. «Boburnoma»dagi go'zal saj'larning aksariyati u yoki bu joyning tasviri va tavsifida uchraydi. Bunday o'rinlarda Bobur o'sha joyning ob-havosi, geografik sharoiti, o'simlik va hayvonot olami kabilar haqida qisqa, lekin to'liq xarakteristika beradi. Bunday tasvir va tavsifdagi saj' to'laqonli ritmik, semantik hamda evfonik funktsiyani bajaradi. O'rin-joy tasvirida Bobur ob'ektdagi ko'pgina belgi, xususiyat ichidan bir-ikki eng xarakterli, belgilovchi detallarni topib, ularni sodda yo'sinda saj'laydi» [1] Bobur shahar xaqida bir muncha ma'lumotlar yozib qoldirgan. Jumladan shahar aholisining yashash tarzi, joylashuv tabiiy joylshuv o'rni, aholisi, o'simlik olami, bog'lari va tabiiy boyliklari haqid yozadi. O'sh qo'rg'oning sharqiy janubida joylashgan Baroko'x tog'i haqida aytib o'takan Sulton Mahmudxon bu tog'ning cho'qqisida bir xujra soldirgani va 1497 yilda shu xujradan quyiroqda bir ayvonli xujra qurdiganini bildirib o'tadi. O'sh Bobur hayotida muhim o'rin tutgan shaharlardain biridir. «Bobur taxtga o'tirganida, O'sh shahrini boshkarishni Qosim Qavchinga topshirgan. Boburning Axmad Tanbal va Jaxongir Mirzoga qarshi olib borgan jang-jadallari qisman O'sh kasabasida yuz

bergan. Xususan, Axmad Tanbal asli O'sh kasabasidan bo'lgani sababli jangda yengilsa, ko'pincha shu tomondan panoh topgan. 1499 yil oxirlarida va 1503 yillarda Bobur O'sh shahri va Mozu (Modu) qo'rgonini egallash uchun qattiq janglar olib borgan.» [2] O'sh shaharchasi Katta shaharlarining eng muxim xususiyatlaridan biri albatta uning havosi bo'lib O'sh shahrining havosining musaffoligini ifodalashda saj'i mutavoziydan foydalanadi. «Farg'ona viloyatida safo va havoda O'sh chog'lik kasaba yo'qtur.» [3] Matnda keltirilgan misoldan ko'rishimiz mumkinki «safo va havoda» saj'i orqali O'sh shahrining xavosi naqadar tozaligi va Farg'ona viloyatida bu borada O'shga teng keladigan shahar yo'qligini yozadi. Safo so'zi [a. – tozalik, tiniqlik, soflik; samimiylik; xotirjamlik] [4] kabi lug'aviy ma'nolarga ega bo'lib O'sh ekologik jihatdan o'z davrida viloyatning eng toza havosiga ega bo'lgan. Shaharning havosi tozaligini ifodalangan saj'lar tarjimasini ko'rsatib berish maqsadida yuqorida keltirilgan parcha tarjimalarini tahlilda ko'rib yaiqamiz:

Leyden-Erskin tarjimasida: *In all Ferghana for healthiness and beauty of situation, there is no place equal to Ush* [5], (*Butun Farg'onada musaffo va go'zallik bo'yicha O'shga teng keladigan joy yo'q.*MT) Saj'ning tarjimada keltirilgan misolida ko'radigan bo'lsak «safo va havoda» saj'i tarjimada «healthiness and beauty of situation» shaklida keladi. Ko'rishimiz mumkinki matnda kelgan saj' tarjimada o'z shaklini yo'qotgan. Ma'no jihatdan oladigan bo'lsak O'shning joylashuv o'rniga nisbatan musaffo va go'zal kabi sifatlar berilib bir biriga yaqin bo'lgan so'lar ishlatilgan. Qaysidir ma'noda o'quvchi tasavvurida shaharning joylashgan o'rni uning havosi va go'zalligni ta'minlagan uyg'otadi.

Beverij tarjimasida: «*For climate and for pleasantness, no township in all Farghana equals Aush.*» [6], (*Butun Farg'onada iqlimi va yoqimliliği bo'yicha O'shga teng keladigan shaharcha yo'q.*MT) Tarjimadan ko'rishimiz mumkinki matnda kelgan «safo va havoda» saj'lari «for climate and for pleasantness» shaklida kelgan. Ya'ni e'tibor shahar havosiga emas balki iqlimiga va uning yoqimli ekanligiga qaratilgan. Farg'ona vodiysining iqlimi kontinental quruq bo'lib O'sh vodiyning sharqiy qismida joylashgan. Tog'li hududlarni hisobga olmaganda vodiyning deyarli barcha shaxar va hudularining iqlimi bixildir. Iqlim bir xil bo'lsada O'shning havosi vodiyning boshqa shaharlariga qaraganda toza va orombaxshdir. Beverij «safo» so'zini «for pleasantness» «havo» so'zini esa «for climate» sifatida tarjima qilgan bo'lishi mumkin. Tarjima qilingan jumlaning ma'no, mazmuni jihatdan va so'zlarni bir birini to'ldirishidan ham shaharning «safo va havoda» tengi yo'qligini o'quvchi osongina tushunadi. Bu o'rinda ta'kidlashimiz mumkinki matnda kelgan saj' tarjimada o'z shaklini yo'qotgan faqatgini har ikki so'zlar oldida «for « predlogini shlatgan holda biroz bo'lsada qofiyadoshlikni ta'minlagan «for climate and for pleasantness»

Yuqorida berilgan jumlaning Tekston tarjimasida: *In all of Fergana Province no town has air as good as that in Osh* [7], (*Butun Farg'ona viloyatida O'shdagidek havosi yaxshi shahar yo'q.* MT) Matnda kelgan «safo va havoda» saj'lari «has air as good as» tarzida ya'ni qiyoslovchi «as.. as» bog'lovchisidan foydalangan holda tarjima qilingan. Tekston Leyden-Erskin va Beverijdan farqli ravishda O'shning havosiga «yaxshi» sifatini beradi ya'ni faqatgina havosini ta'kidlab o'tadi, Leyden-Erskin va Beverij esa «healthiness and beauty of situation», «for climate and for pleasantness» tarzida berib matnda kelgan «safo va havoda» ikki so'zi bilan shahar havosiga nisbatan sajdan foydalanib mohirona tasvirlangan jumlaning yoritishga harakat qilishgan. Tekstonda esa bu tavsirlash jarayoni biroz oddiydek ko'ringan. Agar jumlada «butun Farg'onada» so'zlarini va qiyoslovchi bog'lovchini ishlatilganda edi o'quvchida bu shunchaki xavosi yaxshi shahar tushunchasi paydo bo'lishi mumkin. Tarjimon shu orqali O'sh havosini vodiyning boshqa shaharlariga nisbatan qiyoslab yaxshiligini keltirgan. Tarjima juda katta mehnat va tajriba talab

etadi. Tarjimon asar yozilgan xalq urf odatlari, xalq og'zaki ijodi va joylashuv o'rni haqida chuqur bilimga ega bo'lmog'i lozim. G'.Salomov ta'kidlaganidek: «Mutarjim judayam o'ziga xos layoqat, iqtidor. Iste'dod va bilim sohibi bo'lishdan tashqari, uning zakovatida deyarli barcha ijod ahlining faoliyatiga xos: tahlil, tasvir, tiynat yaratish, kayfiyat tugdirish va hatto maxsus «o'qiy bilish» sifatlari jamuljam. Tarjimonda yozuvchi va tanqidchidan, aktyor, rassom va olim mehnatidan ham nimadir bor. Bu shundan iboratki, tarjimon so'zshunos bo'lib tahlil qiladi, aktyor singari boshqaning (bu o'rinda-muallifning) qiyofasiga kiradi va ayni vaqtda o'zligini saklaydi, «o'lik «matn orasidan muallifning jonli siyomosini va qalbini qidiradi. Xullas, gap orqasidan quvmaydi, balki ma'no, kuy, ohang, bo'yoq izlaydi...» [8]

Xulosalar

Har qanday tarjimini u yoki bu tarzda ijodiy faoliyat sifatida qabul qilib badiiy asarlar tarjimasini ham san'at turlaridan biriga kiritsak bo'ladi, chunki u o'ziga xos yondashuv, badiiy mahorat va ulkan iste'dodni talab qiladi. Tarjimonlar oldida turgan muammolardan biri bu o'zga jamiyat maganiyati, urf-odatlari va tiliga xos bo'lgan xususiyatlarni o'z tiliga tarjima qilishda aynan asliyatga mos yoki unga yaqin bo'lgan so'z va iboralarni qo'llay olishdir.

«Boburnoma» mumtoz asar, uning o'rganilishi lozim bo'lgan qirralari juda ko'p va yana bir qancha tadqiqotlarga ob'ekt bo'lib xizmat qiladi. «Boburnoma»da saj'lar juda keng talqin etilgan. Bularning ingliz tilidagi tarjimalari tadqiqi ham ilmiy tadqiqot ishi uchun asos bo'la oladi. «Boburnoma» asaridagi saj'larning lingvistik xususiyatlari, tarjima qilish tamoyillari va mezonlari, tahlili kelgusida yangi ilmiy tadqiqot ishlari olib borish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sarimsaqov B. O'zbek adabiyotida saj' . – Toshkent:Fan, 1978. –B.123.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – Toshkent, «Sharq» 2014
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma» -Toshkent «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2002
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi «Davlat ilmiy nashriyoti». Toshkent. 2006.
5. Leyden J., W.Erskine. Memoirs of Zehired-din Muhammed Babur, Emperor of Hindustan.– Edinburg, 1826.
6. Beveridge A.S., The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiru'ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette, Susannah Beveridge. 2 Vols, – London, 1922; Repr, in one Volume, – London, 1969; – New Delhi, 1970; – Lahore, 1975.
7. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor, Translated, Edited, and, Annotated by Wheeler M., Thackston. – New York & Oxford, 1996
8. G'aybullloh as Salom. Tarjima nazariyasi va amaliyotidan ma'ruzalar matni va chizgilar. Toshkent. O'zMU. 2003 .B.-8

SPORT SHARHLARIDA YUZAGA KELUVCHI FONOSTILISTIK VOSITALAR TAHLILI

Ozbekiston Milliy universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti

Dotsent, PhD., Sarimsokov Xurshid Abdimalikovich

Annotasiya: Ushbu maqolada sport sohasiga doir sharhlarning leksik birliklari fonostilistik jihatdan amaliy tahlilga tortilgan va stilistik vositalarning paydo bo'lishiga qayd etilgan. Ularning o'ziga xos lingvistik xususiyatlariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: onomatopeya, alliterasiya, stilistika, sharh, lug'at, emotive birlik, tahlil.

ANALYSIS OF PHONOSTYLISTIC MEANS APPEARING IN SPORT COMMENTARY

Abstract: Abstract: In this article has been analyzed the lexical units of sport commentaries through phonostylistic way from a practical point of view, and has been noted the emergence of stylistic tools. The main focus is directed to their unique linguistic features.

Key words: onomatopoeia, alliteration, stylistics, commentary, vocabulary, emotive unit, analysis.

АНАЛИЗ ФОНСТИЛИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В СПОРТИВНОМ КОММЕНТАРИИ

Аннотация: Аннотация: В данной статье фоностилистическим путем проанализированы лексические единицы спортивных комментариев с практической точки зрения, а также отмечено появление стилистических средств. Основное внимание направлено на их уникальные языковые особенности.

Ключевые слова: ономапоея, аллитерация, стилестика, комментарий, лексика, эмотивная единица, анализ.

Bugungi zonaviy sport jurnalistikasi, soha jurnalistlari, sharhlovchilaridan tilshunoslikning tarkibiy qismi bo'lgan stilistika ya'ni uslubshunoslikka doir, jumladan, metafora, metanimiya, efimizm kabi stilistik vositalardan amaliyot jarayonida muntazam qo'llay bilishni talab qiladi. Har bir qayd etilgan vositalardan foydalanish soni jihatdan yoki foiz ko'rsatkichlari bo'yicha maqola, eshittirish yoki sharhlash jarayonida tabiiy ravishda farq qiladi. Ushbu maqolada sport sharhlarining lingvistik, stilistik fonetik jihatdan e'tibor qaratamiz.

Onomatopeya - onomatopoeia. Ingliz tili kabi o'zbek tilida ham onomatopeya tarzida qo'llaniladi. Mazkur stilistik vosita tabiat, inson yoki hayvon tomonidan yaratilgan, tasvirlangan tovushga nisbatan fonetik jihatdan taqlid qilish orqali yoki o'xshash so'zdan foydalanish, yaratish orqali vujudga keladi. Chog'ishtirilayotgan tillarga doir sharhlarda mavjud va muxlislarga jonlilik, hayajon, estetik zavq taqdim etadi. I.R.Galpirin bu vositani ikki turda tasniflab, ularni bevosita va bilvosita onomatopeya deb nomlagan.

Sharhlash jarayonida sharhlovchi ongida aks etuvchi birlikning nutqda vujudga kelishi mazkur bevosita onomatopeya hisoblanadi. Masalan, To'p bilan Jaka, buuum! Gol (O.Tolipov, Sporting va Arsenal. 9.03.23. 61 min.)! Mazkur misolda buum – zarbaning tovushiga nisbatan qo'llanilib, zarba ma'nosini bermoqda. **Ingliz tilida:** Erling Haaland, *baang*, two -nil. Pretty much *irresistible* this guy (P.Drury. MC 3-1 Leicester. 13 min. 15.04.23)! – **tarj.:** Erling Xolland, *baang*,

ikkiyu-nol! Bu misolda esa баҢГ - zarbaning tovushiga nisbatan taqlidan zarba ma'nosini bermoqda. *Onomatopeya* garchi o'zbek tilidagi sharhlarda mavjud bo'lsada, A.Hojiev: "Hayvon, qush tovushlariga taqlid va shularga taqlidan so'z hosil bo'lishi"³⁵, deya qayd etgan. Lingvistik jihaatdan bu birliklar faqat taqlid so'zlar sifatida o'rganilgan. Biroq sport sharhlaridagi dalillar buni inkor etmoqda.

Tahlillarimiz natijasida onomatopeya ingliz tili sharhlarida o'zbek tiliga nisbatan faolroq. Boisi zamonaviy ingliz sport sohasida yuzdan ortiq sport turlari jonli yoki yozib olingan tarzda sharhlanadi. Shunday ekan stilistik birliklarni quyidagicha taqdim etishni joiz deb bildik.

onomatopeya	turi	ma'no nisbati
<i>boom</i>	<i>futbol, kriket, basketbol</i>	<i>kuchli zarbaga</i>
<i>swoosh</i>	<i>futbol, basketbol, bilyard</i>	<i>yumshoq, nozik xarakterga</i>
<i>crash</i>	<i>regbi, avtopoyga</i>	<i>to'qnashuvga</i>
<i>swish</i>	<i>kamondan o'q otish</i>	<i>aniq, to'g'ri xarakterga</i>
<i>whack</i>	<i>golf, tennis</i>	<i>kuchli zarba</i>
<i>thud</i>	<i>kurash, gimnastika</i>	<i>qattiq yiqilishga</i>

Bilvosita onomatopeya tovush yoki ovoz chiqaradigan voqelik uchun qisman urg'u berib, bir oz eslatib o'tishni talab qiladi. Bu stilistik vosita, asosan, adabiy matnlarda uchraydi. Ingliz bidiiy adabiyotida bu jarayon "echo-writing" - "aks-yozuvi" deb nomlanadi. Masalan, "And the silken, sad, uncertain rustling of each purple curtain" (E.A.Poe). Ushbu misolda - s tovushi *rustling* - *shivirlamoq* so'zida s nisbatan qo'llanilmoqda. Sportga doir sharhlarda juda kam uchraydi.

Alliterasiya - alliteration. Ushbu stilistik vosita nazmiy adabiyot tarkibida barqaror bo'lib, she'riy misralarning har bir qatori boshida bir hil undosh tovushlarning hamohang takrorlanishi natijasida hosil bo'ladi. Q.Musaevning takidlashicha alliterasiya nutq jarayonida muallif fikrlarini vazniy tarzda taqdim etib, ifodalanishi noodatiy hissiy muhit yaratadi va tovushlarning takroriy kompozitsiyasi o'quvchiga yangi hislarni vujudga kelishiga turtki beradi. O'zbek tilida alliterasiya saj tarkibida o'rganiladi. Tahlillarimiz natijasida adabiyot va sharhga doir manbalarda tashqi va ichki alliterasiya stilistik jarayonlari kuzatildi. Tashqi alliterasiya nasrda ko'proq uchrasa, ichki alliterasiya sharhlarda ommabop hisoblanadi.

Bugungi zamonaviy sharhlovchilar muxlislarga hissiyotga boy sharhni taqdim qilish maqsadida ichki alliterasiyani sharh tarkibiga olib kirishdi. Masalan: 1) *So'ngi tur qahramoni, Seltani saqlab qoldi* (X.Hamidov, Selta 2-1 Barselona. 71 min. 04.06.23); 2) *Agarda, Ake to'pni uzoqlashtirmaganida havfli vaziyat bo'lishi mumkin edi. Hakam hushtak chalmayapti. Demak davom etamiz* (X.Hamidov, Inter 0-1 MS. 8 min. 10.06.23). "Ta'kidlangan so'zlarning boshlang'ich tovushlarini xuddi shunday qator qayta takrorlash, gapni vazniy birlik sifatida birlashtiradi"³⁶.

Ingliz tili sharhlarida alletirasiya o'zbek tiliga nisbatan faolroqdir. Ushbu birliklar deyarli barcha sport turlarining inglizcha sharhlar tarkibida uchraydi. Masalan, *He sprints swiftly down the sideline, leaving opponents in his dust* (M. Costello, Mo Farah 5000 m. 2016 Rio. Radio 5 Live BBC) – **tarj.:** *u tezlik yon chiziqdan pastga yugurib, raqiblarini changida qoldirib ketdi; The champion is*

³⁵Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Давлат илмий нашриёти, Т.: 2002, 174 б.

³⁶I.R.Galperin, Stylistics. Higher school Publishing house. Moscow, 1971.- 123 p.

dancing, dazzling, and dominating in the ring (J.Rogan I.Adesanya vs A.Pereira. 12.11. 2022. UFC 281). – tarj.: *chempion raqsga tushmoqda, ko`zni qamashtirmoqda va ringda hukmronlik qilmoqda; The City is slick, speedy, slippery at times untouchable* (P.Drury, MC vs MU, 8 min. 2.10.2022) - tarj.: *shaharliklar silliq, tez, sirpanchiq ba`zan tutib bo`lmaydigan.*

Ikki til sharhlarini chog`ishtiruv tahlillari shunga olib keldiki, ingliz tili sharhlarida alliterativ terminlar ham yaratilgan, demak nazariy jihatdan sharh tarkibida alliterasiyaning qo`llanishi o`zbek tiliga nisbatan ancha ilgari boshlangan. Ularni quyidagicha tahlilga tortdik.

Alliterativ terminlar tasnifi

alliterativ termin	takroriy fonema	sharhdagi ma`noviy qo`llanishi	sport turi
<i>power play</i>	<u>p</u>	xokkeyda bir jamoa jarima tufayli son jihatdan ustunlikka ega bo`lgan vaziyatni tasvirlash uchun ishlatiladi.	<i>xokkey</i>
<i>golden goal</i>	<u>g</u>	xokkeyda qo`shimcha vaqtda kiritilgan hal qiluvchi golni tasvirlash uchun ishlatiladi.	<i>xokkey</i>
<i>tackle time</i>	<u>t</u>	futbol yoki regbi sportida raqibga qarshi mudofaa harakatini tasvirlash uchun ishlatiladi.	<i>futbol, regbi</i>
<i>home run hero</i>	<u>h</u>	beysbolda boshlang`ich nuqta (uy)ga g`alaba ochkosini qo`lga kiritib o`yin qahramoniga aylangan o`yinchini tasvirlash uchun ishlatiladi.	<i>beysbol</i>

Masalan, *When you take penalties against Colorado their power play is on fire* (R.Hahn, SJ - Colorado 13. 11. 2021) – tarj.: *Agar Koloradoga qarshi jarima ustunligi bilan o`ynasangiz, ular pover play (bir kishi kam bo`lib o`ynash) ni yondiradi.*

Mazkur lingvistik jarayon, ya`ni stilistik alliterasiya orqali sof o`zbekcha terminologik birliklarning vujudga kelishi o`zbek tilida deyarli uchramaydi, biroq sharh jarayonida o`zlashmalar sifatida qo`llanishini inkor etib bo`lmaydi.

Qofiya - рхйме. Nazariy jihatdan she`riy misralar tarkibida ohangdosh so`z yoki so`z birikmalarining izchil takrorlanib kelishi qofiyadir. Qofiya she`rning mazmuni, janri, shakli va kompozitsiyasida muhim o`rin egallaydi. Qofiya hosil qiluvchi so`zlarning ohangdoshligi talaffuzda qatorlarning uyg`unligi taqdim etadi³⁷. Zamonaviy sharhlovchilar muxlislar e`tiborini ushdash maqsadida o`z sharhlarida ham qofiyaviy so`zlardan foydalanmoqda. Nasriy asarlarda qofiyaning bir necha uslubiy ko`rinishi mavjud, jumladan *full* - to`liq va *incomplete* - to`liqsiz qofiya.

To`liq qofiya nazariy va amaliy jihatdan bir tovush farqi bilan qo`llanuvchi, qolgan qismning harfi, bo`g`ini paralel keluvchi ohangdosh so`zlar sanaladi.


O`zbek tili: *topdi - chopdi; kutdi - tutdi; yashirdi - oshirdi; poyladi –joyladi; urdi - surdi.* **Ingliz tili:** *might - night; grace - race, ball - hall; yell - hell* kabi ohangdosh leksik birliklarni ko`rsatish mumkin.

³⁷Умуров Х., Адабиёт назарияси. -Т.: Шарк, 2002. -256 б.


To'liqsiz qofiya sharhlarda juda ommabop bo'lib, o'lar undosh yoki unlilar o'xshashligi bilan xoslanadi. Masalan, **o'zbek tili:** *xato - sado; falokat - harakat; o'ninchi - o'yinchi; bong - jang.* **Ingliz tili:** *finesse - distress; aim - flame; deliver - shiver; joke - hook* kabilar.

Qofiyada jarayonining takroriy so'zlardan farqi shundaki, ushbu lingvistik jarayonda leksik birliklar vazniy tovushlar paralel ravishda to'rt hil modelda qo'llaniladi. I.R.Galperin ularni: *couplet, triple, cross, frame* kabi turlarini qayd etadi. Bular asosan nasriy vaznlar sanalib, o'zbek tilida ilk bor arab adabiyotshinosi tomonidan taqdim etilgan Xalil ibn Ahmadning "Kitob al-aruz"i qayd etilgan aruz adabiy nazariyasida tarkibida o'rganiladi³⁸.

I.R.Galperin yuqoridagi qofiya turlaridan tashqari *internal rhyme* - ichki qofiyalanish modeliga to'htaladi. Mazkur modelda qofidosh so'zlar misra oxirida emas, balki sodda va qo'shma gaplar tarkibida keladi. Sharh jarayonida, aynan, ichki qofiyalar sharhlar tarkibida muxlislar e'tiborini jalb qilib she'riy o'ynoqilik, estetik zavq taqdim etadi. O'zbek tili misolida: *Loutaro yaxshi hudud topdi, lekin pasda sal shoshdi* (X.Hamidov, MC 1-0 Inter, 28 min., 10.06.2023)




Ushbu sharh ikki sodda gapdan iborat qo'shma gapdan foydalanilgan va stilistik jihatdan to'liqsiz qofiya ichki qofiyalanish tarkibida kelayapti. Ingliz tili sharhlarida ham qofiya gaplar tarkibida keladi va lingvistik jihatdan to'liq yoki to'liqsiz ichki qofiyalanish jarayoni kuzatiladi. Masalan, 1) *Kloop can spend another long night on the Iron Throne, but loose and Liverpool's quest for glory in the north* (P.Drury, Liv. 2 - 0 Newcastle, 4 min. 3.3.2018) -**tarj.:** *Klop yana bir uzoq tunni temir taxt ustida o'tkazadi, ammo mag'lubiyat va Liverpool shaokati shimoldan qidiradi;* 2) *Just when you think, he has done beautiful thing* (A.White, Barcelona 3-0 Liverpool, 81 min. 01.05.2019) -**tarj.:** *Siz o'ylaganingizda, u chiroyli ish qildi;* 3) *It is such a pretty goal because it's the City goal* (P.Drury, MC vs MU, 8 min. 2.10.2022) - **tarj.:** *Bu juda chiroyli gol, chunki bu shaharliklar goli.- mapж.*



Tahlillarimiz natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, qofiyaning nazariy asosiga ko'ra, yagona tovush (harf) takroriga asoslanadi va bu harf raviy (arabcha - qofiyadagi undosh tovush) deb ataladi. Raviy so'z o'zagi, yasama so'zlarda negiz oxiridagi undosh, cho'ziq unli, ba'zan esa qisqa unlilarning aynan takrorlanishi tufayli yuzaga keladi, vazniy struktura asosida raviy gap

³⁸Тўйчиев У., Ўзбек поэзиясида аруз системаси, Т.:, 1985. 84 с.

oxirida keladi. Tipologik jihatdan o'zbek tili gap strukturasi COB modeliga mansub va bir gap tarkibida ikki kesim, albatta, qo'shma gapni hosil qiladi, bu esa sodda gaplar tarkibida qofiyani yasalishi murakab ekanligidan dalolatdir. Aksincha, ingliz tili sharhlarida raviiy ikkinchi darajali bo'lak bo'lishi ham mumkin. Chunki tipologik jihatdan ingliz til strukturasi SVO modeliga asoslanganligi bois bu jarayon sharh tarkibida mavjud. Masalan, *Now, it is Mahrez a star in Paris in the last year* (P.Drury, MC 4-3 RM. 2 min. 26.04.2022).



Demak anglashiladiki, *qofiya* faqat nasriy adabiyot sohasigagina tegishli bo'lib qolmasdan, turli ko'rinishdagi nutqiy ijodiy jarayonlarga ham xos deyish maqsadga muvofiq.

Sport sharhlarida fonetik ekspressiv yoki stilistik lvositalarning lingvistik xususiyatlari ko'pincha o'yinning hayajon, ehtirosli va shiddatiligini oshirish uchun ishlatiladi. Sharhlovchilar sharhning hayajonli onlarida, masalan, kulminasion vaziyat (gol, nokdoun, finish) namoyish etilganda o'z ovozi ko'taradilar. Bu o'yin va tomoshabin o'rtasida ishtiyoq, zavq oshirib o'zaro sinxronlikni ta'minlaydi. Umuman olganda, sport sharhlaridagi fonetik ekspressiv vositalarning bu lingvistik xususiyatlari namoyish etilayotgan sport turining his-tuyg'ulari, munosabati va shiddatini etkazish orqali tomoshabinlarni o'ziga jalb etish va o'yin xalq orasida estetik qiymatini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Musaev Q., English Stylistics. Adolat. Tashkent:-2003. 312 p.
2. Kvetko, P., English Lexicology in Theory and Practice. Trnava: Univerzita. Cyrila a Metoda. 2009. 47 p.
3. I.R.Galperin, Stylistics. Higher school Publishing house. M.:1971.- 56 p.
4. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Давлат илмий нашриёти, Т.: 2002, 174 б.
5. Умуров Х., Адабиёт назарияси. -Т.: Шарқ, 2002. -256 б.
6. Тўйчиев У., Ўзбек поэзиясида аруз системаси, Т., 1985. 84 с.



GENDER TAFOVUTNING TIL VA MULOQOTGA TA'SIRI TAHLILI

Nazarova Gulbahor Pirmanovna

Buxoro davlat universiteti, ingliz adabiyotshuosligi va tarjimashunoslik kafedrasida dotsenti

Email: gulbakhornazarova826@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq va muloqot jarayonida talaffuz, intonatsiya, lug'at va nutq uslubidagi gender farq masalalari ingliz tili misolida o'rganilgan hamda olib borilgan tadqiqot natijalari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: gender farq, muloqot, til, talaffuz, intonatsiya, lug'at va nutq, so'z tanlovi

АНАЛИЗ ГЕНДЕРНЫХ РАЗНИЦ В ЯЗЫКЕ И ОБЩЕНИИ

Назарова Гулбахор Пирмановна

Бухарский государственный университет, доцент кафедры английского литературоведения и переводоведения

Email: gulbakhornazarova826@gmail.com

Аннотация: В данной статье на примере английского языка изучаются вопросы гендерных различий в произношении, интонации, словарном запасе и стиле речи в процессе общения и обсуждаются результаты исследования.

Ключевые слова: гендерные различия, общение, язык, произношение, интонация, словарный запас и речь, выбор слов.

ANALYSIS OF THE GENDER DIFFERENCE ON LANGUAGE AND COMMUNICATION

Nazarova Gulbahor Pirmanovna

Associate Professor of the Department of English Literature and Translation Studies, Bukhara State University

Email: gulbakhornazarova826@gmail.com

Abstract: In this article, the issues of gender differences in pronunciation, intonation, vocabulary and speech style in the communication process are studied on the example of the English language and the results of the research are discussed.

Keywords: gender difference, communication, language, pronunciation, intonation, vocabulary and speech, word choice.

Kirish

Gender farqning tilga ta'siri masalalari 1970-yillarning boshidan boshlab sotsiolingvistikaning sohasida o'rganilayotgan tadqiqotlardan biriga aylandi. Bu sohada olib borilgan qator izlanishlar erkak va ayol nutqida so'z boyligi, ohangi, sintaktik tuzilishi va nutq uslubi jihatidan aniq farq borligini isbotladi. Qolaversa, shu davrdan boshlab tilshunoslik fanida til hodisasini jamiyat va uning a'zosi bo'lgan xalq bilan bog'liq holda tasvirlash an'anasi vujudga kelgan.

Bundan tashqari, gender tafovut masalalari sotsiolingvistikadan tashqari, bir qator boshqa fanlar sohasida ham o'rganilib kelinmoqda. Jumladan, ushu masala antropologlar, folklingvistiklar grammatikashunoslar hamda dialektologlar tomonidan ham chuqur tadqiq

etilgan. Ta'kidlash joizki, feministik lingvistik tadqiqotlar jarayonida gender va til masalalari turli xil modellar (framework) asosida o'rganilgan va ushbu modellar gender farqning tilga ta'sirini turli nuqtai nazardan tadqiq etishga imkoniyat yaratgan. Ushbu sohada tadqiqot olib borgan bir qator tilshunoslar, sotsio-lingvistlar hamda feminist lingvistlarning tadqiqot xulosalari asosida salmoqli natijalarga erishilgan.

Adabiyotlar tahlili

Ayollar nutqining spetsifikasi borasidagi ilk izlanishlar o'sha davr stereotiplari hamda xurofotlari ta'sirida o'rganilgan va ko'p hollarda til o'zgarishlarida ayollar nutqining roli ijobiy deb qaralmagan. Daniyalik grammatikashunos O.Jespersen o'zining "Language: Its Nature, Development and Origin" kitobidagi bir bobni ("The Woman") ayollar nutqi tahliliga bag'ishlagan.

Lakoff R, Tanin D, Kameron M³⁹ kabi taniqli tilshunoslar esa, sotsiolingvistika tadqiqotlari nuqtai nazaridan o'z tadqiqotlarida talaffuz, intonatsiya, lug'at va nutq uslubidagi gender farqlarni o'rganib, bu farqlarning kelib chiqish omillarini hamda ushbu omillarning o'zgarish sabablarini tahlil qilgan. Til va gender tadqiqotlar borasida ilk feministik nashrlardan biri Robin Lakoffning "Language and Woman's Place" kitobi 1975 yilda nashrga chiqqan hamda 2004 yillarda qayta nashr qilingan. Ushbu kitobda Lakoff ayollar nutqini "o'ziga xos"liklarini tahlil qilib, nafaqat ayollar nutqining xususiyatlari, balki, ayollar haqida gapirilgandagi til vositalari haqida ham to'xtalgan.

Muloqot jarayonida hayotiy tajribalarga asoslangan hazilomuz hikoyalardan foydalanish strategiyasi ko'proq ayollarga xos bo'lib, erkaklarga nisbatan ko'p ishlatiladi va bu orqali ayollar suhbatdoshiga pozitiv taassurot qoldirish maqsadida amalga oshiriladi. Suhbat davomida hazil yoki hayotiy latifalardan foydalanishning bir necha fiksiyalari aniqlangan. Jennifer Hayning fikricha, ayollar shaxsiy hayotidagi hazilomuz voqealarni aytib berish suhbatdoshi xoh erkak xoh ayol bo'lmasin, ular orasida hamjihatlikni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Muloqot paytida o'zini aqlli ko'rsatishga intilish ko'proq erkaklarga xos bo'ganligi sababli, ular ko'p hollarda raqobatlashishga qaratilgan bo'ladi. Ushbu borada Holmes va bir qator tadqiqotchilar olib borgan tadqiqot natijalari ham e'tiborga molik. Turli xil yi'g'ilish va tadbirlarda erkak va ayollar muloqoti kuzatilganda, uning qatnashuvchilari qaysi jins vakillari ekanligiga ham bog'liq ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada gender tafovutning til va muloqotga ta'sir omillari tahlil ostiga olinib, ingliz tilini ona tili sifatida foydalanuvchilar orasida o'tkazilgan kichik so'rovnomada natijalari muhokama qilinadi.

³⁹ Lakoff, R. Language and Woman's Place. Language in Society, 2(1), New York: Harper and Row. 1975; Cameron, D. Gender and Language Ideologies. Oxford: Blackwell. 2003; Tannen, D. Gender and Conversational Interaction. Oxford University Press. 1993;

Tahlillar va natijalar

Til va muloqotda erkak va ayollar nutqi orasida farqning mavjudligi va buning asosiy omillari, ularning jamiyatdagi o'rni va roli bilan chambarchas bog'liq ekanligi xususida bir necha sotsiologik tadqiqotlarda o'rganilgan. Muloqotda gender farqlarni o'rganish jarayonida tilning eng faol elementi so'zlar bo'lganligi sababli, erkaklar va ayollar nutqidagi farq so'z tanlovida ham ko'rinadi. Bu borada Lakoffning ayollarning so'z boyligi erkaklardan ustun turishini ta'kidlovchi fikr e'tiborni tortadi. Tilshunosning ta'kidlashicha, jamiyatda ayollar erkaklar kam vaqtini sarflaydigan faoliyatlar, masalan, xarid qilish, sovg'a tanlash kabilarga ko'proq vaqt sarflaydi. Sovg'a tanlaganda yoki kiyim xarid qilganda ayollar rangga ko'proq e'tibor berishadi va erkaklar lug'at boyligida bo'lmagan ranglar aynan ayollar nutqida kuzatiladi. R. Lakoffning ta'kidlashicha, ayollar nutqining xususiyatlari: 1) so'z tanlovi va ulardan foydalanish darajasi; 2) sintaktik qoidalar hamda 3) ohang va boshqa suprasegmental nutq vositalarida ko'rinadi. Bundan tashqari, R.Lakoff tadqiqotlarida muloqot davomida gender farq "particles", ya'ni, nutq "qo'shimcha so'z" larini ko'proq ayollar nutqida uchratish mumkinligini aniqlagan. ⁴⁰ Uning fikricha, "qo'shimcha" so'zlar grammatikashunoslar tomonidan "meaningless part" (ma'no anglatmaydigan) so'zlar sifatida belgilangan, ammo bu so'zlar ijtimoiy kontekstda so'zlovchining aytilayotgan fikriga bo'lgan o'z munosabatini ifodalashda o'ziga xos ma'no anglatadi.⁴¹

Ta'kidlash joizki, yuqorida keltirilgan Lakoff tadqiqotlari natijalari ancha avval amalga oshirilganligi hamda jamiyatda sodir bo'lgan o'zgarishlar sababli kundalik muloqotda gender farqning mavjudligi darajasi o'zgarishga uchragani mumkin. Ushbu fikrimizni aniqlash maqsadida ingliz tilini ona tili sifatida so'zlovchilar bilan so'rovnoma o'tkazdik. So'rovnomaga asoslangan kichik tadqiqotning asosiy maqsadi til va muloqotda gender farq masalasi qanchalik voqelikka yaqin ekanligi, vaqt va zamon o'zgarishi gender farqda ham qanchalik ta'sir ko'rsatganligini o'rganishdir. So'rovnomada AQShning Michigan davlat universiteti talabalari hamda professor-o'qituvchilari ishtirokida o'tkazildi. O'n ikki savoldan tashkil topgan anketa-so'rovnoma tadqiqot instrumenti sifatida qo'llanildi va uning natijalari quyidagi jadvalda berilgan. So'rovnomada jami o'n uch kishi qatnashdi. Jadvalda so'rovnoma qatnashchilari uch guruhda berilishiga qatnashchilardan besh nafari erkak yoki ayol ekanligini belgilamaganligi sabablidir.

Findings and Analysis Findings of Participants' multiple-choice questions

Table 1. Different types of language use
Participants: 13

Questions	Male (%)	Female (%)	Not indicated
Number of participants	1	7	5
What type of language do you usually use in a conversation?	1(7,6%) -formal 0-informal	0-formal 7 (53%)-informal	1(7%)-formal 3(23%)-informal

⁴⁰ Lakoff. R. Language and Women's Place. Oxford University press.2004. P. 44

⁴¹ Lakoff. R. Language and Women's Place. Oxford University press.2004. P. 44



In a conversation do you talk	0-loudly 1(7,6%)-softly	6(46%)-loudly 1(7,6%)-softly	2(15.3%)-loudly 3(23%)-softly
In a conversation, do you use hedges? (Sort of, I mean, actually, really, well...)	1(7,6%)-yes 0-no	7(53%)-yes 0-no	5(38%)-yes 0-no
In a conversation, do use tag questions? (... isn't it? don't you?)	1(7,6%)-yes 0-no	4(30%)-yes 3(23%)-no	4(30%)-yes 1-no
Do you use taboo or slangs in your speech? ("Hell", "Damn", "God damn it")	1(7,6%)-yes 0-no	6(46%)-yes 1(7,6%)-no	2(15,3%)-yes 2(15,3%)-no 1-sometimes
Do you use intensifiers like "so", "such", "pretty", "quite" in your speech?	1(7,6%)-yes 0-no	4(30%)-yes 3(23%)-no	7(53%)-yes 0-no
In a conversation, do you use minimal pairs? (yeah, mhm, right)	1(7.6%)-yes 0-no	7(53%)-yes 0-no	4(30%)-yes 1-no
In a conversation, do you use the phrase "oh, my goodness"?	1(7,6%)-yes 0-no	5(38%)-yes 2(15,3%)-no	3(23%)-yes 2(15,3%)-no
Do you wait for your turn in a conversation or you interrupt?	1(7,6%)-I wait my turn 0-I interrupt	7(53%)-I wait my turn 0-I interrupt	3(23%)-I wait my turn 1(7,6%)-I interrupt 1(7,6%)-both
Do you tell jokes in a conversation?	1-yes 0-no	6-yes 1-no	4-yes 0-no 1-sometimes
Which sentence given below do you prefer to use for asking something?	1(7,6%)-Hand me the <i>Sport Magazine</i> by the sofa! 0-Please, will you hand me the <i>Sport Magazine</i> by the sofa?	3(23%)-Hand me the <i>Sport Magazine</i> by the sofa! 3(23%)-Please, will you hand me the <i>Sport Magazine</i> by the sofa? 1(7,6%)-not answered	5(38%)-Hand me the <i>Sport Magazine</i> by the sofa! 0-Please, will you hand me the <i>Sport Magazine</i> by the sofa?
In the following dialogue, who is A and who is B? Write your choice.	1(7,6%)-Correct answer	7(53,8%)-Correct answer	4(30,7%)-Correct answer 1(7,6%)-teacher/another teacher



So'rovnomaning e'tiborga molik natijalari sariq rang bilan belgilanib, muhokama qilindi. Masalan, nutqda to'siq so'zlarning ishlatilishi darajasi ikkala jins vakillarida ham tasdiq javob bilan belgilangan. Lakoff o'z tadqiqotlarida esa, ayollar nutqi spetsifikasini tadqiq qilish jarayonida "hedges", ya'ni, nutq "to'siq" (sort of, I mean, actually, really, well) larini ayollar nutqida erkaklarga nisbatan tez-tez uchratish mumkinligini ta'kidlagan.⁴² Bundan tashqari, "taboo" (taqiqlangan) hamda "intensifiers" (kuchaytiruvchi) so'zlardan foydalanish ikkala jins vakillarida ham tasdiq javob bilan berilgan. Bunday nutq namunalari erkaklarda juda kam uchraydi, chunki ular muloqot davomida ayollarga nisbatan dadil gapirishga moyil degan xulosalar Lakoff tadqiqotlarida aks ettirilgan. Ammo so'rovnoma tadqiqotimizda bu o'z isbotini topmadi.

"Qo'shimcha" so'zlar tanlovida ham ayollar muloyimlik va xushmuomalalik xususiyatlarini saqlash maqsadida erkaklarga zid ravishda "oh dear", "goodness", "oh fudge" kabi "qo'shimcha" so'zlardan foydalanishadi. Erkaklar nutqida esa, "shit", "damn", "hell", "god damn you" kabi "qo'shimcha" so'zlar faol lug'atlaridandir. Ushu xulosalar ham Lakoff tadqiqotlarda keltirilgan. Ammo so'rovnomamizda ayollar ham u turdahi so'zlardan faol foydalanishi qayd etilgan.

Xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish joizki, insoniyat tildan shaxsiy yoki ijtimoiy qadriyatlarni aks ettiruvchi muayyan maqsadga erishish uchun foydalanadi va ijtimoiy muhit tufayli tildan foydalanishning cheklanishi asosan gender farqini keltirib chiqaradi. Ijtimoiy konteksts gender va tilning o'rtasidagi muhim bog'liqlik hisoblanadi. Suhbatdoshning muloqot davomidagi so'zlashuvi kishilarning ijtimoiy muhitdagi bajaradigan roli bilan ham farqlanadi. Ijtimoiy muhitdagi rol esa jamiyatdagi o'zgarishlar sababli o'zgarishi va shu asosda muloqotda gender farqning ham o'zgarishi muayyandir.

Adabiyotlar

1. Cameron, D. Gender and Language Ideologies. Oxford: Blackwell. 2003
2. Coates Jennifer. Women, Men and Language. Pearson, Longman. 2004
3. Coates Jennifer. Women, Men and Everyday talk. Palgrave, Macmillan. 2013
4. Karlsson, S. Gender-related Differences in Language Use. 2007
5. Lakoff, R. Language and Woman's Place. Language in Society, 2(1), New York: Harper and Row. 1975
6. Ning, H., & Dai, X. On Gender Difference in English Language and Its Causes. *Asian Social Science*, 6(2), 2010.
7. Tannen, D. Gender and Conversational Interaction. Oxford University Press. 1993.
8. Tannen, D. You just don't understand: Women and men in conversation. New York: Ballantine. 1990.

⁴² Lakoff, R. Language and Women's Place. Oxford University press. 2004. P. 79



MIRZO ANVAR OBRAZIDA YOZUVCHI RUHIYATI

Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU, O'zbek adabiyoti 10.00.02 ixtisosligi bo'yicha
2-bosqich Tayanch doktoranti

ismonovayorqinoy@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani tahlilga tortilgan. Yozuvchining badiiy tili, uslubi, obrazga ko'chgan yozuvchi ruhiyati, Anvar obrazidagi yozuvchiga hos hislatlar, adabiyotshunos olimlarning bu boradagi fikr-mulohazalari, tadqiqotlari haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: mehrob, roman, obraz, personaj, qahramon, adabiyotshunos, badiiy til, yozuvchi ruhiyati, uslub.

ДУХ ПИСАТЕЛЯ В ОБРАЗЕ АНВАРА

Исмонова Ёқиной Абдумуталиб кизи

Докторант Ташкентского государственного университета узбекского языка и
литературы имени Алишера Навои

ismonovayorqinoy@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется роман «Скорпион с алтаря» Абдуллы Кадири. Обсуждаются художественный язык писателя, стиль, перенесенная в образ писательская ментальность, чувства, свойственные писателю в образе Анвара, мнения и исследования литературоведов на этот счет.

Ключевые слова: алтарь, роман, образ, персонаж, герой, литературовед, художественный язык, писательское мировоззрение, стиль.

THE SPIRIT OF THE WRITER IN THE IMAGE OF ANVAR

Ismanova Yorqinoy Abdumutalib KIZI,

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi,
Foundation doctoral student, majoring in Uzbek literature 10.00.02,

E-mail: ismonovayorqinoy@gmail.com

Abstract: This article analyzes Abdulla Qadiri's novel Mehrobdan Chayan. The writer's artistic language, style, the writer's mentality transferred to the image, feelings characteristic of the writer in the image of Anvar, the opinions and researches of literary scholars in this regard are discussed.

Key words: altar, novel, image, character, hero, literary critic, artistic language, writer's mentality, style.

Kirish

Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani juda ko'plab adabiyotshunos olimlar, yozuvchi, tadqiqotchilar va hatto tanqidchilar tomonidan tahlil va talqin qilingan. Chunki har bir adabiyot ihlosmandi borki, ushbu asar uning e'tiboridan chetda qolib ketmaydi, albatta. "Mehrobdan chayon" yolg'iz Julqunboyning ikkinchi asari emas, balki yangi o'zbek adabiyoti uchun ham ikkinchi roman edi. Hamza Hakimzodaning "Milliy ro'mon" nomli kichik bir asari bo'lsa-da, unga bu

kungi ro'monchilik sharoitida ro'mon demak tog'ri bo'lmasdi. Yangi ro'mon va hikoyalarg'a mushtoqchanqoq bo'lg'on davrimizda "O'tkan kunlar"i bilan tanilg'on Julqunboyning "Mehrobdan chayon"i juda ham shoshilib kutilar edi va juda ahamiyat bilan qarshilang'oni-da ko'rildi".⁴³

Ijodkor ruhidagi kechinmalari, iztiroblarni anglay olsak, uning asari tub mohiyatiga shu qadar kira olamiz. Zero, har bir asar ortida ijodkor ruhiyati mujassam. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida ham adib ruhiyatini ko'rishimiz mumkin. Vaholanki, adabiyotshunos olimi Sanobar To'laganova shunday deydi: **"Mehrobdan chayon"da o'zini ko'ndirgan va shu bilan birga, niyatini so'z ortiga yashira olgan yozuvchi ruhini his qilish qiyin emas. Yozuvchi bu o'rinda o'z "men"iga bir qadar yaqinlashadi"**.

Abdulla Qodiriy yoshligidan bilimga chanqoq, zehni o'tkir bola bo'lgani hammaga ma'lum. Asarning bosh qahramoni bo'lmish Anvar obrazida esa biz qaysidir ma'noda muallifning bolaligini, ruhiyatini ba'zi o'rinlarda esa aynan o'zini ko'rishimiz mumkin. **"Abdulla Qodiriy tarjimai holiga nazar tashlasak, uning bola yoshidan e'tiboran to'g'ri yo'lga yo'nalganiga amin bo'lamiz. Mazkur yo'l tarzida biror yolg'on, va'daga xilof, omonatga xiyonatni uchratmaymiz. Faqat to'g'ri tarbiya, pokiza risq, halol mehnatni ko'ramiz. Bobur taxtga o'tirgan yoshida tirikchilik vajidan boy xizmatiga kirgan Qodiriy ko'p o'tmay xo'jayinining e'tiboriga tushadi. Boy uni zamonasining e'tiborli bir maktabiga o'qishga qo'yadi. 18 yoshida ham eskicha, ham yangicha bilimlarni mukammal egallagan Abdulla Rasulmuhammadboyning tijorat ishlarini yuruta boshlaydi. Hamida axloqi bilan bu boyga ham ma'qul keladi. Natijada Rasulmuhammadboy katta qizi Rahbaroyni Abdullaga nikohlab beradi."**⁴⁴

"Mehrobdan chayon" romanida ham Anvar yoshligidan boqib, katta qilib tarbiyalagan tutingan otasi tomonidan kuyov qilib olishga loyiq topiladi. Ya'ni ustoz Solih mahdum o'z qizi Ra'no bilan Anvarni nikohlab qo'ymoqchi bo'ladi.

Anvar tug'ilganidan hayot achchiqlarini totib ulguradi. Uning dunyoga kelishi ota-onasi tomonidan hursanchilik bilan kutib olinmaydi va hatto 20 kunlab ismsiz qolgan bolaga 12 yoshli opasi Nodira tomonidan ism qo'yiladi. Nodira mahallasidagi mahdumning bolasiga havas qilgan va uning ismini ukasiga qo'ygan. Buni qarangki, kelgusida Anvar ham taqdir taqazosi bilan aynan mahdumga asrandi farzand bo'ladi. Kambag'allik va qiyinchilikda o'sgan Anvar 6 yoshida onasidan ayriladi. Ungacha esa otasi va 2 akasidan ham ayrilgan edi. 12 yoshda Anvar 3 oilani ko'rib ulguradi va opasining iltimosi bilan mahdumning oilasiga asrandi o'g'il bo'lib qoladi. 11 yoshida savodi chiqqan va 13 yoshida maktab programmasini tugatib, 15 yoshida arab, fors tillarini mukammal bilgan.

Anvar tezda atrofdagilarning mehrini va e'tiborini qozonadi. Sadoqati, samimiyligi va ziyrakligi bilan xon mirzaboshisining nazariga tushgan Anvar hatto o'rda xizmatiga ma'qul ko'riladi. Muhammad Rajabbek taklifi bilan Hisobni o'rgangan va bunga mirzaboshining shaxsan o'zi bosh bo'lgan.

"Andisha, uyat, or-nomus, vijdon tushunchalari Qodiriy romanlarining ma'naviy ustunlaridir", degan edi X. Sultonov. Ayni shu fikrga mutanosib muallif zehnli, o'qimishli, sabr va matonatli, sadoqatli, mard-jasur, har qanday vaziyatda og'ir bosiq va oliyjanob bo'lgan Anvar obrazi orqali komil inson siymosini yaratgan.

⁴³ Miyon Buzruk. O'zbek adabiy tanqidi. Mehrobdan chayon. -Toshkent: "Turon-iqbol", 2011. – B.12-13.

⁴⁴ Uzoq Jo'raqulov. Qodiriy va roman tafakkuri. Monografiya. Toshkent: "Nurafshon business", 2020. – B.4.

“Abdulla Qodiriy millat taraqqiyotini halol mehnat qilib, halol luqma yeb, shariat asosida yashagan oila va u tarbiya etgan farzandlarda ko’radi”, -deydi Uzoq Jo’raqulov. Zero, Qodiriy aynan manashu jihatni Anvar obrazi orqali ko’rsatib bermoqchi bo’lgan. To’g’riso’z, vijdoli, iymonli va hamisha halol bo’lgan Anvar va uning seviklisi Ra’no obrazlari, ularning o’rtasidagi bo’lajak turmush aynan adib orzu qilgan oila edi.

Anvar sadoqat va vafoda ham hammaga o’rnak bo’lgudek. U atrofidagi do’stlariga, yor-u birodarlariga hamisha chinakam sadoqatini ko’rsatib kelgan. Buni biz uning Ra’noga bo’lgan sevgisida, tug’ilgan chog’idan unga nafaqat mehr berolmagan balki ism qo’yishga ham vaqt topolmagan ota-onasiga bo’lgan muhabbatida, undan doim manfaat kutadigan ustoz Solih mahdumga bo’lgan hurmatida, do’sti Sultonolini qutqarish uchun hatto o’z o’lim yoqasiga tik borganida ko’rishimiz mumkin. Uning bolaligi boshqa bolalarning hayotidan farq qilgan. Garchi do’stlari kam bo’lsa ham chin do’stlik nima ekanligini yaxshi bilgan va bola chog’idan “chin do’st” maqomiga erisha olgan. Yozuvchi buni asarning “Chin o’rtoq” bobida shunday chiroyli tasvirlab berganki, har qanday inson atrofida albatta, Anvardek do’sti bo’lishini orzu qiladi. Anvar avvalo, qalbiga, o’zligiga sadoqatlidir. Zero, o’zlikka sadoqat – butun millatga sadoqatdir.

Shu o’rinda Anvar obraziga Abdurahmon obrazini taqqoslashimiz mumkin. Anvar Salim bo’yoqchining yetimi, faqir bir oiladan chiqqan bola. Abdurahmon esa ulamolar naslidan, otasi ham ziyoli, amakilari esa Buxoroning katta mudarrislaridan bo’lgan. U ham 15 yoshgacha Solih mahdumning qo’lida ta’lim oladi. Lekin bu ikki yigitning biri xalq sevgan va hatto xon nazariga tushgan mirzaboshi bo’lgan bo’lsa, ikkinchisi ichi qora, ig’vogar, 18 yoshga yetmay ko’plab nomaqbul ishlarga qo’l urgan, ohir oqibatda esa “mehrobdagi chayon”ga aylangan. Abdurahmon obrazi orqali adib ayrim hudbin, qallob, hasadgo’y, munofiq, e’tiqodsiz va tuban kimsalarning asl yuzlarini ochib berishga va ularning muqaddas dargoh – sajdagohdan turib turli jirkanch ishlarga qo’l urganliklarini ko’rsatib berishga muvaffaq bo’lgan.

Asar nomi “Mehrobdan chayon” deb atalishi ham bejizga emas. Mehrob - bu masjid ichidagi sajdagoh joyidir. Chayonning ishi esa hammaga ma’lum bo’lganidek, faqat chaqish, zaharli nishini kimgadur urish va jarohat yetkazishdir. Ushbu asardagi “chayon” ya’ni Abdurahmon ham o’z nomiga munosib faqat va faqat yomonlik ketidan quvgan razil bir kimsadir. Bu borada unga sherik bo’lgan Shahodat mufti va Kalonshoh mirzolar ham bor. Bu obrazlar ham garchi sajdadan bosh uzmaydigan, o’zicha “xudogo’y” bo’lishsada, aslida qalbi ig’vo va razolatga to’la kimsalardir. Ularni ham “mehrob chayonlari” deb atasak mubolag’a bo’lmaydi.

Anvar hamisha haqiqatga tik boqadigan, hech qachon vijdoniga hiyonat qilmaydigan chin o’zbek o’g’loni timsolidir. U o’lim bilan ro’paro kelganda ham boshini egmagan. Hatto Xonni adolatli bo’lishga da’vat qiloladigan darajada mard, jasur va jur’atli bo’lgan. Buni biz xon va Anvarning suhbatida ko’rishimiz mumkin.

– Men sizdan marhamat so’rab kelgan emasman, - dedi iljayib Anvar. – O’zimni o’limga berib, bir gunohsizni qutqarish uchun kelganman.

– Pusulmonchilik qilg’ansan-da?

– Albatta, - dedi Anvar, - boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutib pusulmonchilikdan chiqqach, men pusulmonlik bilan o’lishni o’bdan bildim.

Anvarning o’limga tik boqishi, hamisha iymoniga mustahkamligi ham yozuvchining harakteriga yaqindir. Masalan, Qodiriyning suddagi nutqida **“jazoyingizdan qo’rqub emas, balki, vijdonim, iymonim tazyiqi ostida so’zlayman”,** deyishi fikrimiz dalilidir. Qolaversa,

tergov (1926, 1937) jarayonidagi yozuvchining o'zini tutishi, jon talvasasi umidida o'zgalarning panasiga berkinmagan, "xo'rlikdan o'lim tansiqligini" baralla ayta olishi uning iymon-e'tiqod qo'rg'oni mustahkamligidan dalolat. Yozuvchining mazkur fikri uni yanayam yaqindan bilishimizga ko'mak beradi: "O'z butunlig'ini saqlay olmag'an boshqag'a yeng bo'la olmaydir. Shaxsiy butunlik, mustaqil shaxsiyat qullik bilan ziddir. Shaxsiy butunlig'i bo'lmag'an, ya'ni o'zida haqiqatni ixtiyorsiz odamlar jamiyat uchun foydalik va chin ag'zo bo'la olmaslar".⁴⁵

– Faqat siz iflosliq natijasida kulasiz, men... Men to'g'riliq samarasini o'laman, siz iflos vijdon bilan g'olibsiz, men sof vijdon bilan mag'lubman... Meni dor ostig'a kim keltirdi? Vijdon emasmi, taqsir?! Sizni bu yerda kim tomoshabin qildi. Iflosliq emasmi, taqsir?!

Bu yerda ham Anvarning sof vijdoni oldida hamisha boshi tik va ichi qora razil kimsalarga nisbatan nafratini ko'ramiz.

– Menim holimni ko'ringiz, domla, - dedi Anvar kulgan yuzda, - qo'lim bog'langan, ustimda xanjar yaltiraydi. Lekin men kulaman... Nima uchun bunday, taqsir? Chunki vijdon rohatda, jon tinch, yurakda ishq... Durust, men ko'milgach, qabrim ustida ko'ksi dog'liq qizil lolalar ko'karar... Nimadan bu? Bu – sizning kabi tubanlar solg'an iz...

Anvar kabi tozaqalb insonlar uchun vijdon pokligi hatto o'lim bilan yuzma-yuz kelganda ham jonning huzuri bilan tengdir. Shu o'rinda Umarali Normatovning **"Qodiriyning so'nggi iltijosi. Adib hayotining o'qilmagan sahifalari"** maqolasidan bir parchani keltirib ketsak: "Men to'g'rilik orqasida bosh ketsa "ix" deydigan yigiy emasman... Ko'nglida shamsi g'uboroti, teskarichilik maqsadi bo'lmog'on sodda, go'l, vijdonlik yigitga bu qadar xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha ma'naviy o'lim bilan o'ldirildim. Endi, jismoniy o'lim menga qo'rqinch emasdir". Bu beqiyos jasur siymoning oradan o'n ikki yil o'tib, raqiblari qarshisida: "Men – o'limga tayyorman. Buyrug'ingni beraver!" deya ko'ksini o'qqa tutib berishi kishida zarracha shubha tug'dirmaydi, aksincha, adib tabiatiga xos ayni haqiqatni yana bir karra tasdiqlaydi.

Ko'rib turganingizdek, Qodiriydagi shijoat, mardlik-jasurlik, o'zlikka bo'lgan hurmat, o'limga tik boqish, iymon-e'tiqod, adolatni hushlash, nohaqlikdan jirkanish kabi insoniy tuyg'ularning bari Anvarda ham mujassam. Bu esa go'yo yozuvchi ruhiyati obrazga yaqqol ko'chganini ko'rsatadi.

Abdulla Qodiriy har qanday vaziyatda o'z "men"ini saqlay olgan. Katta ma'nodagi Haqiqatga sodiq, maslagida sobit qolish yozuvchining hayotidagi muhim javhari bo'lib qolgan. O'z davriga sig'magan, hammabop bo'lishdan chekingan, iymoni but isyonkor shaxs ruhiyati ijodkorning jamiki asarlarida bosh belgi – o'zak yadroni tashkil qilgan. Xuddi "O'tkan kunlar" dagi Otabek va "Mehrobdan chayon" da Anvar obrazlari kabi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" Toshkent-2019.
2. Bahodir Karimov. "Abdulla Qodiriy ijodining yangicha talqinlari" maqolasi.
3. Hotam Umurov. O'zbek adabiy tanqidi. O'zbek romanida psixologizm printsiplari, shakllari va vositalari. – Toshkent: "Turon-iqbol", 2011. – B.238
4. Izzat Sulton. O'zbek adabiy tanqidi. Abdulla Qodiriy va uning "Mehrobdan chayon" romani. – Toshkent: "Turon-iqbol", 2011. – B.70.

⁴⁵ Sanobar To'laganova. Abdulla Qodiriy qomusi.



5. Miyon Buzruk. O'zbek adabiy tanqidi. Mehrobdan chayon. -Toshkent: "Turon-iqbol", 2011. – B.12-13.
6. Sanobar To'laganova. "Abdulla Qodiriy qomusi" maqolasi.
7. Umarali Normatov "QODIRIYNING SO'NGI ILTIJOSI. Adib hayotining o'qilmagan sahifalari" maqolasi.
8. Umarali Normatov. "Qodiriy haqida qaydlar" maqolasi.
9. Uzoq Jo'raqulov. QODORIY VA ROMAN TAFAKKURI. Monografiya. Toshkent. "Nurafshon-business" 2020.

LINGVOPRAGMATIKA SOHASINING PAYDO BO'LISHI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA O'RGANISH OBYEKTI

Ashurova Muhayyo Sanjarbek qizi
Erkin tadqiqotchi

ADCHTI ingliz tili amaliyoti kafedrası o'qituvchisi

E-mail: mohinabonu9414@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikning dolzarb masalalarga boy sohalaridan biri lingvopragmatika yoki pragmalingvistikaning paydo bo'lish tarixi va rivojlanish bosqichlarini o'rganadi. Shuningdek, maqolada tilshunoslikning ushbu sohasining asosiy vazifasi va o'rganish obyektlari ham tadqiq etiladi. Turli ilmiy tadqiqot ishlarining xulosalariga asoslanib, lingvopragmatika o'zining uzoq yillik rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, zamonaviy tilshunoslikda ham muhim ahamiyatga ega ekanligi va yangi sohalarini o'z ichiga qamrab o'zining tadqiqot obyekтини kengaytirib borayotganligi aniqlandi. O'rganishlar natijasida pragmalingvistikaning bugungi tadqiqot obyekтини hisobga olgan holda sohani chuqurroq o'rganish va yangiliklar kiritish kerakligi borasida xulosa va takliflar berildi.

Kalit so'zlar: pragmatika, pragmalingvistika, lingvopragmatika, nutq akti, lisoniy ta'limot, lisoniy birlik, kommunikativ faoliyat, semantik bilim, deyxsis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika, lingvistik tahlil.

THE EMERGENCE OF THE ASPECT OF LINGUOPRAGMATICS, THE STAGES OF DEVELOPMENT AND OBJECT OF STUDY

Abstract: This article investigates the history of emergence and stages of development of linguopragmatics or pragmalinguistics, one of the topical areas of linguistics. The main task and object of study of this field of linguistics are studied in the article. Based on the conclusions of various scientific researches, it was found that linguo-pragmatics has long-term development stages, is important in modern linguistics, and is expanding its research object to include new fields. As a result of the studies, conclusions and suggestions were made regarding the need for a deeper study of the field and introducing innovations, taking into account the current research object of pragmalinguistics.

Key words: pragmatics, pragmalinguistics, linguopragmatics, speech act, linguistic theory, linguistic unity, communicative activity, semantic knowledge, deixis theory, discourse theory, pragmasemantics, pragmastylistics, linguistic analysis.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ АСПЕКТА ЛИНГВОПРАГМАТИКИ, ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ И ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье рассматривается история возникновения и этапы развития лингвопрагматики или прагмалингвистики, одного из актуальных направлений языкознания. В статье исследуются основная задача и объект изучения данной области языкознания. На основании выводов различных научных исследований установлено, что лингвопрагматика имеет длительные этапы развития, занимает важное место в современном языкознании и расширяет объект своего исследования за счет включения новых направлений. В результате проведенных исследований сделаны выводы и предложения относительно необходимости более глубокого изучения области и внедрения инноваций с учетом актуального объекта исследования прагмалингвистики.

Ключевые слова: прагматика, прагмалингвистика, лингвопрагматика, речевой акт, лингвистическая теория, языковое единство, коммуникативная деятельность, семантическое знание, теория дейксиса, теория дискурса, прагмасемантика, прагмастилистика, лингвистический анализ.

Kirish

Lingvopragmatika tilga kommunikativ yondashuvi bilan tilshunoslikda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, til aloqa vositasi sifatida qabul qilinadi va tilning kommunikativ vazifasi uning asosiy vazifasi deb tan olinadi. Tilshunoslik tarixida inson nutqiy faoliyati bilan bog'liq masalalarni o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etib kelmoqda. Lingvistika sohasida ushbu masalalar lisoniy ta'limot asosi hisoblanadi. Ma'lumki, nutqda insonning fikri bilan birga uning ruhiy olami ham o'z aksini topadi. Shuning uchun inson nutqini o'rganish uning ma'naviy olami bilan tanishish imkonini beradi. Pragmalingvistika o'zining uzoq yillik rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, yillar mobaynida ushbu soha buyuk tilshunos olimlar tomonidan yanada chuqurroq o'rganilib, uning tadqiqot obyekti kengaytirib borildi. Jumladan, Amerikalik olimlar Ch. Pirs va Ch. Morris "pragmatika" ni alohida bo'lim sifatida amaliyotga kiritgan bo'lsa, J.R.Ostin, J.R.Serl va Z.Vendler, Pola Grays, L.Linskiy, P.F.Stroson I.Bar va boshqa olimlar pragmalingvistika sohasi rivojiga o'zining beqiyos hissasini qo'shdi. O'zbek tilshunosligida ham Sh.Safarov, M. Hakimov va O.Ahmanova kabi qator tilshunos olimlar pragmalingvistika sohasida o'z ilmiy izlanishlarini olib bordi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga tegishli kommunikativ niyat va nutqiy vaziyatning ta'siri bilan aloqador masalalar bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning nazariy va amaliy tarmog'i – pragmatika deb nomlanadi [2, 5]. Pragmatika yunoncha "pragma, pragmatos" so'zlaridan olingan bo'lib "ish", "harakat" ma'nolarini bildiradi [2, 12]. Bu atama aslida falsafiy tushuncha bo'lib, u Sokratdan oldingi davrlarda ham qo'llanishda bo'lgan va keyinchalik uni J.Lokk E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o'zlashtirganlar. Shu tariqa falsafada pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri XIX-XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30-yillarida pragmatizm g'oyalarining keng targ'ibi aniq sezila boshladi. Pragmatika haqidagi asosiy g'oya amerikalik olim Ch.Pirs tomonidan o'rtaga tashlangan va yana bir amerikalik olim Ch. Morris Pirsning g'oyalarini rivojlantirib "Pragmatika" terminini semiotika bo'limlaridan birining nomi

sifatida amaliyotga kiritgan [6, 41]. Shuningdek, pragmatikaning yangi tadqiqot obyekti sifatida yuzaga kelishi va ajratilishi J.R.Ostin, J.R.Serl va Z.Vendlerlarning 60-70-yillardagi mantiqiy-falsafiy qarashlari asosida yuzaga kelgan nutqiy akt, Pola Graysning ma'noning pragmatik tahlili va L.Linskiy, J.R.Serl, P.F.Strosonlarning referensiya nazariyalari bilan ham bog'liqdir. J.R.Ostin, J.R.Serl va Z.Vendlerlarning nutqiy akt nazariyasi ta'limoti ta'sirida lingvistik pragmatika (pragmalingvistika)ning shakllanishi uchun ma'lum asoslar yaratildi [2, 172]. Chunki nutqiy akt tushunchasi mohiyatiga ko'ra so'zlovchi nutqida kommunikativ niyat aks etadi. Nutqiy aktlar yig'indisi nutqiy mazmunni tashkil etadi. So'zlovchining munosabati esa nutqiy aktlar vositasida shakllanadi. Bunda inson tilining ibtidoiy shakllanishidan tortib to uning murakkab mazmuniy tuzilishiga qadar bo'lgan lingvistik xususiyatlari nutqiy akt muommalari sifatida talqin etiladi.

Nutqiy akt nazariyasiga xos har bir tadqiqiy talqinda nutq subyekting olamni bilish va his qilishdagi tasavvur ko'rsatgichlarining nutqdagi darajalari hisobga olinadi. Nutqiy akt nazariyasiga xos mana shunday tadqiqiy talqin lingvistik pragmatika tarmog'ini shakllanishi uchun asosiy me'zon vazifasini bajaradi [2, 173].

Pragmalingvistika tilshunoslikning yangi mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 60-70-yillarida shakllandi. 1970-yilda Dordrext shahrida bo'lib o'tgan "Tabiiy tillar pragmatikasi" (Pragmatics of natural languages) mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi ma'ruzalar to'plamining muharriri, Tell-Aviv universitetining professori I.Bar – Hillelning "So'z boshi" da qayd qilishicha, anjuman ishtirokchilari "Tabiiy til vositasida bajariladigan muloqotning pragmatik xususiyatlari ushbu muloqotning sintaktik va semantik xususiyatlari kabi lingvistik nazariyasi doirasida o'rganilishi lozim" degan xulosaga kelishdi. Pragmatikaning "Qayta tug'ilish davri" deb e'tirof etilgan xuddi shu paytdan boshlab, tilshunoslik sohasida haqiqiy pragmatik ko'tarilish yuzaga keldi [6, 56].



Tahlil va natijalar

Bu darajada jadal rivojlanib borayotgan fan yo'nalishining to'lig'icha shakllanishi, o'zligini ajratib olishi uchun uning predmetini, asosiy tushunchalari va tamoyillarini aniq belgilab olish zaruriyati vujudga keldi. Zero, lisoniy birliklar pragmatik xususiyatlari, ularning lingvopragmatik tahlili haqida gapirishdan oldin "Pragmalingvistika nima bilan shug'ullanadi?", "Uning tadqiqot obyekti va predmeti nimadan iborat?" va "Pragmatikaning asosiy tushunchalari va tamoyillari qaysilar?" kabi savollarga javob topishimiz darkor.


G.Klaus pragmalingvistikaning predmetini aniqlashga birinchi bor ahd qilganlardan biri edi. U pragmatikani "belgilar va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi hamda qabul qiluvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi" fan sifatida ta'riflaydi [6, 57]. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, pragmatikaning predmetini aniqlashda G. Klaus ham boshqa semiotiklar kabi belgi va uni idrok etuvchi – interpretator munosabatidan uzoqlashmaydi, hatto uning "pragmatika dastlabki o'rinda lisoniy belgilarning psixologik va sotsiologik tomonlarini o'rganuvchi nazariyadir" degan xulosasi ham pragmatika tushunchasini tor ma'noda tavsiflashdan boshqa narsa emas. So'zsiz, muloqot jarayonining asosiy maqsadi axborot uzatish va qabul qilishdir. Lekin muloqot maqsadi oddiygina axborot almashish bilan chegaralanib qolmaydi, axborot uzatishdan "hamkor"ga ta'sir o'tkazish, uni biror narsaga ishontirish, bo'ysundirish, harakatga undash maqsadi kutiladi. Bundan tashqari, aloqa vositasi bo'lmish belgilar so'zlovchi tomonidan o'z maylini,birovni yoki biror narsani yoqtirishini,

noroziligini, hayratini va boshqa ruhiy tuyg'ularini izhor etish uchun ham qo'llanilishini bilamiz [6, 58].

Semiotiklarning barchasi semiozis uch qismdan iborat ekanligini va bu qismlar o'zaro bog'liqlikda ekanligini e'tirof qilishadi va ularnu yagona bir semiotic doirada (uchburchak yoki to'rtburchakda) tasvirlashadi [6, 51]. (1 - shakl). Ammo G.Klaus boshqa tilshunoslardan farqli ravishda, semiotik nuqtai nazardan tilning to'rt yo'nalishini ko'rsatib o'tdi. (2-shakl) Sintaktika belgi bilan belgi o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Semantika moddiy olamni aks ettiruvchi tushunchalar nuqtai nazaridan belgi ma'nosini o'rganadi. Sigmatik yo'nalish belgi va predmet o'rtasidagi o'zaro munosabatni o'rganadi. Pragmatika esa belgining insonga, uning fikrlash uslubiga, ahloqiga, his-tuyg'ulariga ta'sirini o'rganadi [1, 3].



Keyinchalik tilshunoslarning 12-xalqaro konferensiyasida J.Layonz (Vena,1977) pragmalingvistikaning predmetini aniqlash va uning ta'rifini berishga harakat qildi: "Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi so'zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo'llanilishini tavsiflaydi. Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqatdagi rolini aniqlash bilan shug'ullanadi, deyish demakdir" Ushbu ta'rifning asosida lisoniy harakatdagi ko'zlanayotgan maqsad va unga erishish vositasi o'rtasidagi munosabat turibdi [6, 68].




Ushbu "sabab – motiv – maqsad" zanjiri nutqiy faoliyat rejasini shakllantiradi va uning voqelanishini ta'minlaydi. Xuddi shu narsa A.Kasherni pragmalingvistik tahlilning asosiy maqsadini "qo'yilgan maqsadga erishishda lisoniy to'rt vositalardan foydalanishni ta'minlovchi insonga xos bo'lgan qobiliyat qoidalarini" yoritish va tushuntirish deb tasvirlashga sabab bo'ldi [6, 69].

Tilshunos olim V.V.Petrov pragmalingvistika va uning obyekti haqida shunday qarashlarini ifodalaydi: "Inson qaysidir tilga xos semantik bilimlarsiz so'zlashi yoki anglashi mumkin emas, ammo o'sha tilga xos semantik bilimlar egasi bo'lishning o'zi ushbu tilda so'zlash va anglash uchun kifoya qiladi degani emas. Masalan, musiqali pyesa mazmunidan ogohlik uning ijrosi uchun yetarli bo'lmaydi, buning uchun,eng asosiysi, ijro mahorati, layoqatiga ham ega bo'lishi kerak" [4, 142]. So'zlash va anglash jarayoni ham huddi shunday. To'g'ri va aniq so'zlash uchun hammaga tushunarli bo'lgan semantik bilimlarning o'ziningina bilish yetarli emas, buning uchun individual strategiyaga mahoratiga ham ega bo'lish kerak. Inson tildagi barcha

semantik ilmlarni bilish bilan birga ularni o'z maqsadi yo'lida tanlay olishi va ifodalash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Tildagi ayni mana shu jihatlarni pragmalingsvistika o'rganadi.

Pragmalingsvistikaga berilgan ta'riflar, uning predmeti tavsifi haqidagi fikrlar tuli-tuman bo'lsada, bu boradagi ustuvor g'oyalarda ko'plab tilshunoslar hamfikrdirlar [6, 75]:



Bularning barchasi pragmalingsvistikaning alohida sohalari uchun tadqiqot predmeti bo'la oladi. Masalan lisoniy muloqot tizimi nutq subyekti nuqtai nazaridan tadqiq qilinganda, e'tibor nutqiy akt turlarining mazmuni, diskurs tuzilishida muloqot maqsadining o'rnini, tagma'noning ifoda topishi va muloqot ishtirokchilarining mental qobiliyati kabi hodisalarga qaratiladi. Tadqiqot nutq adresati nuqtai nazaridan bajarilayotgan bo'lsa, asosiy e'tibor nutqiy aktning pragmatok ta'sirini aniqlashga qaratiladi [6, 75].

Yuqoridagi holatlarda tadqiqotning asosiy obyektini nutqiy akt va u orqali yetkazilayotgan axborot hamda ushbu axborotni tushunib, ma'no jihatdan idrok etilishi hisoblanadi.

O'zbek tilshunosi Sh.Safarov pragmatika va pragmalingsvistikaga berilgan ta'riflarni umumlashtirib quyidagi fikrni bildirdi: "Pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasida muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi. Ushbu qoidalar kommunikatsiya shart - sharoitlariga nisbatan, keng ma'nodagi kontekst sifatida o'rganiladi. Lisoniy hodisalarning bu yo'sindagi tahlili ularning qo'llanishidagi u yo ki bu muhitda mavjud bo'lgan to'siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi. Lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo'llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lison tahliliga pragmalingsvistik yondashuvning poydevoridir. Aminmizki, pragmalingsvistikaning xuddi shu yo'nalishdagi taraqqiyoti nazariy tilshunoslik va amaliy kommunikatsiya o'rtasida mavjud bo'lib turgan "uzilish"larni bir oz toraytiradi." [6, 76].

Pragmalingsvistika tadqiqot predmetining keng miqyosda tasavvur etilishi ushbu sohaning turli yo'nalishlarda taraqqiy etishini taqazo etadi. Natijada pragmalingsvistikaning nutqiy akt nazariyasi, deyxsis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi o'z ichki sohalari yuzaga keldi. (3-shakl)

Bu sohalarning farqi, birinchi navbatda, pragmalingsvistikaning umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismni batafsil yoritilishi va o'rganilishida namoyon bo'ladi.



3-shakl

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda pragmalingvistika sohasi nima sababdan dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda? Inson kommunikatsiyaga kirishar ekan, uning ushbu faoliyatdan birorta ko'zlagan aniq maqsadi mavjud bo'ladi. Bilamizki inson lingvopragmatik bilimlardan tashqari o'ziga xos semantik bilimlarning egasi ham hisoblanadi. Shuningdek, inson so'zlarning ma'nosini bilish bilan birga ularni bir-biriga bog'lash, jumlar tuzish ya'ni sintaktik bilimlarga ham egadir. Lingvopragmatika esa yuqorida ta'kidlangan semantik va sintaktik bilimlarni ya'ni so'zlarni bir biriga bog'lash orqali kelib chiqadigan asosiy ma'nolarning amalda qo'llash usullarini o'rganuvchi soha demakdir. Ya'ni inson tildagi barcha semantik va sintaktik ilmlarni bilish bilan birga ularni o'z maqsadi yo'lida tanlay olishi va ifodalash imkoniga ega bo'lishi lozim. Lingvopragmatika kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuv jarayoniga xos verbal va noverbal munosabatining mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Pragmalingvistikaning rivoji u bilan uzviy bog'liq bo'lgan fanlarning ham rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida ,lingvopragmatik tadqiqotlar doirasini yanada kengaytiradi va bu doiraga lisoniy voqelikdan tashqari, muloqot muhiti bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy hodisalar tizimini kirtishga undaydi. Shuning uchun ham bu soha bugungi kunda tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, lingvopragmatikani ichki sohalarga bo'lib, umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismni batafsil yoritilishi orqali ushbu sohani yanada aniqroq va mukammalroq o'rganish uchun zamin yaratiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ахманова О., Магидова И. Прагматическая лингвистика, прагмалингвистика, лингвистическая прагматика//вопросы языковедения. – М.,1978. №3. – С44-235.
2. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistika asoslari. – Toshkent, 2013.
3. Madvaliyev A., Solijonov Y. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2000.



4. Петров В.В. Философия Семантика Прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI – М.,1985. - С.474.
5. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiya markazi, 2010. – 327 b.
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. - 318 b.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Pragmatika>

UDK 316.77; 070

JURNALISTIKA VA BLOGERLIKDA MATN BILAN ISHLASH TARTIBI

Murodova Nilufar Karomatovna

O‘zbekiston Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jurnalistika hamda blogerlik faoliyatida matn bilan ishlashdagi etiket qoidalari, mezonlari va ular o‘rtasidagi farqli jihatlarini, ya’ni jamiyat uchun berayotgan axborotlarning to‘liqligini, ishonchliligini va tezkorligini tizimli-tahliliy ko‘rinishda ko‘rib chiqqanmiz. Shu asnoda, jurnalistika hamda blogerlik faoliyatida matn bilan ishlash tartibini ham nazariy ham amaliy ko‘rinishlari yoritib berilgan.

Shuningdek, bugungi kunda ijtimoiy hayotimizda jurnalistika va blogerlik faoliyatining muhim jihatlarini, jamiyatdagi o‘rni, ahamiyati hamda axborotlashuv jarayonlari haqida ham ilmiy-nazariy fikr-mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: jurnalistika, blogerlik, etiket qoidalari, mezonlari, tizimli-tahliliy, matn, nazariy, amaliy, ijtimoiy hayot, muhim jihatlarini, jamiyatdagi o‘rni, ahamiyati, axborotlashuv jarayonlari, ilmiy-nazariy fikr-mulohazalar

РОЛЬ ПАРАЛЛЕЛЬНЫХ КОРПУСОВ В КАК РАБОТАТЬ С ТЕКСТОМ В ЖУРНАЛИСТИКЕ И ВЕДЕНИИ БЛОГА

Аннотация: В данной статье мы рассмотрели правила этикета и критерии работы с текстом в журналистике и блоггерстве, а также различия между ними, то есть полноту, достоверность и скорость предоставления обществу информации в системном и аналитическом виде. способ. При этом освещаются как теоретические, так и практические аспекты работы с текстом в журналистской и блоггерской деятельности.

А также научно-теоретические мнения о важных аспектах журналистской и блоггерской деятельности в нашей современной общественной жизни, их роли и значении в обществе и информационных процессах.

Ключевые слова: журналистика, блоггерство, правила этикета, критерии, систематически-аналитический, текст, теоретический, практический, общественная жизнь, важные аспекты, место в обществе, значимость, информационные процессы, научно-теоретические мнения

HOW TO WORK WITH TEXT IN JOURNALISM AND BLOGGING.

Annotation: *In this article, we have considered the rules of etiquette and criteria for working with text in journalism and blogging, as well as the differences between them, that is, the completeness, reliability and speed of information provided to the society in a systematic and analytical way. In this context, both the theoretical and practical aspects of the procedure for working with text in journalism and blogging activities are highlighted.*

Also, scientific-theoretical opinions about the important aspects of journalism and blogging activities in our social life today, their role and importance in society, and the processes of information dissemination have also been brought up.

Keywords: *journalism, blogging, etiquette rules, criteria, systematic-analytical, text, theoretical, practical, social life, important aspects, place in society, importance, information processes, scientific-theoretical opinions.*

Kirish

Rossiyalik lingvistlar orasida kompyuter kommunikatsiyasining muloqot tizimidagi o'rnini chuqur tahlil qilish, shuningdek, "muloqot", "diskurs" tushunchalarini talqin etish va kompyuter diskursining konstitutiv belgilarini ta'riflashga urinish ilk bor E.N.Galichkina⁴⁶ tomonidan amalga oshirildi. Tadqiqotchining fikricha, diskurs murakkab hodisa bo'lib, uni ko'rib chiqishga bir nechta yondashuv bo'lishi lozim. Kommunikativ jihatdan diskurs verbal muloqot sifatida namoyon bo'ladi; semantik tuzilish nuqtai nazaridan matnning gap darajasidan yuksakroq parchasi sifatida gavdalanadi.

Jurnalistlar sodir bo'layotgan voqea-hodisani tasvirlashdan ko'ra, ko'proq virtual haqiqatni yaratadilar. Hech qanday empirik hodisa jurnalist insonga yetkazib berayotgan narsa bo'lib chiqmaydi. Hodisalar yoritib beriladi, tabiiyki, izohlash va ko'p hollarda baholash ham ifodalanadi. Izohlash va baholash jurnalist bu hodisani qay darajada tushunganligi, bundan nimani tushunganligi va nima ko'rganligiga qarab amalga oshiriladi⁴⁷.

Jurnalistning blogerdan farqli jihatlaridan yana biri shu. Bloggerlik faoliyatida voqea-hodisa avval e'lon qilinadi, keyin manbasi ko'rsatiladi. YA'ni blogger berayotgan xabarining haqiqatligini ikkinchi o'ringa qo'yadi va birinchi o'rinda tezkorlikka ahamiyat beradi. Shuning uchun ham ko'p hollarda jurnalist materiali xoh u matn, xoh video ko'rinishida bo'lsin, batafsil yoritilgan holda blogger postidan so'ng e'lon qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Jurnalist va yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning fikricha: "Axborot globallashuvi nafaqat dunyoni, unga qo'shib odamlarni, milliy qadriyatlarni va tabiiy, milliy jurnalistika qiyofasini jiddiy o'zgartirdi. Shuning barobarida zamon jurnalistlar zimmasiga o'zlarini va o'z millatini madaniy inqirozlardan asrab qolish mas'uliyatini yuklamoqda. Bunday yuksak mas'uliyatni esa o'z kasbining barcha sir-asrorini, jumladan, kasb odobini mukammal egallagan jurnalistlarga teran idrok etishlari, samarali faoliyat yuritishlari mumkin"⁴⁸.

⁴⁶ Галичкина Е.Н. Специфика компьютерного дискурса на английском и русском языках. Дис. ...канд. филол. наук. - Астрахань, 2001.

⁴⁷ D.M.Teshabayeva, G.X.Bakiyeva, M.I.Isroil, L.I.Toshmuhammedova, M.CH.Nuritdinova. Medialingvistika va tahrir. - T.: "O'zbekiston", 2019. - B. 92.

⁴⁸ Do'stmuhammedov X.N. Jurnalistning kasb odobi muammolari: nazariy-metodologik tahlil (Mustaqillik davri o'zbek matbuoti faoliyati misolida. 1991–2008 yillar): Filol. fan. d-ri. ...diss.avtoref. – T.: O'zMU, 2008.

Jurnalistik matn bir qator belgilardan iborat bo'lib, unda u yoki bu meyorda jurnalistni o'rab turgan olam interpretatsiyasi xususiyati mavjud bo'ladi. Yana shu bilan birga, jurnalistik matnda mavjud ta'sir kuchiga erishish uchun yetarli ma'lumotlarni to'plash kerak, bunday xususiyatlar sifat ma'lumot qabul qilish samaradorligini oshiradi.

Yozuvchi Abdulla Qahhor: "Yozuvchi so'zni tonnalab yig'ishi, ammo gramlab sotishi (sarflashi) kerak" degan. Ahmadjon Meliboyev esa "Bu gap jurnalistikaga ham tegishli. Katta ijod maydoniga otlangan odamlarning ko'pi jurnalistikada toblanishgan", deya qo'shimcha qiladi.⁴⁹

Nazariy ma'lumot

Bloger matnidan ko'ra, jurnalist matnida so'zga nisbatan hurmat bo'ladi. Keyingi davrlarda bu blogerlar matnida ham aks etishi mumkin. Yana shuni yoddan chiqarmaslik lozimki, u blogpost bo'ladimi, jurnalistik matn unda mantiq bo'lishi kerak. Adabiy xodim, jurnalist, ayniqsa, muharrir uchun mantiq ilmini puxta bilish muhim ahamiyatga molik. Mantiq ularning faoliyatida nihoyatda chuqur va takomillashgan, shuningdek puxta egallangan vosita bo'lib xizmat qiladi. Har qanday matni - u xoh adabiy asar matni bo'ladimi, xoh ommaviy axborot vositalari matni bo'ladimi, uni malakali mutaxassis sifatida baholay olish talab etiladi.

Bloger uchun esa muharrir yo'q. U o'zi jurnalist yoki yaxshi muharrir bo'lishi kerak. Jurnalist matn bilan ishlasa, bloger blogpost bilan ishlaydi. Postining uslubi, tili, imlosi va shu bilan birga mantiqiy izchilligini izga solish bilan shaxsan o'zi shug'ullanadi. Shunday blogerlar borki, mutaxassisligi adabiyot yoki jurnalistikaga yaqin bo'lmasa-da postidan xato topish qiyin. Shunday blogerlardan biri bu - platforma.uz telegram kanali yurituvchisi. Ilmiy tadqiqot ishida teleram-bloggerlar faoliyati obyekt qilib olingan bo'lib, platforma.uz ham o'rganish va tahlil qilishga arzigulik blogkanallardan. Quyida ushbu kanaldan post keltirilgan:

Portlayotgan gaz ballonlari: muammoning ildizi qayerda⁵⁰?

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda Sirdaryo viloyati Yangiyer shahrida joylashgan "A.Jomiy" MFY hududida "Nexia-3" avtomobili gaz balloni portlab ketgani aks etgan foto va videolar tarqaldi. Shunchaki dahshat, mashina sochilib, deyarli yo'q bo'lib ketgan. Qolmishiga yonidagi avtoulavlarga ham ziyon yetgan.

Bilasizmi, mana shu gaz ballonlarining portlashi bilan bog'liq holat bizda tez-tez takrorlanadi. Juda jiddiy muammo. Shunga qaramay, bu masala e'tibordan chetda qolaveradi. Avariyalar haqida esa hamma kuyunchak.

Men texnika xavfsizligi mutaxassisi emasman. Ammo ayrimlar "bunday holatlar kapron gaz ballonlari taqiqlanib, o'rniga yoppasiga metall gaz ballonlariga o'tilganidan keyin (kimningdir biznesi bo'lsa kerak-da) nisbatan ko'paydi. Kapron ballonlarda bunday holat kuzatilmadi, kuzatilsa ham zarar yetkazish ko'lami hozirgichalik jiddiy bo'lmasdi", degan fikrda.

Muammoga sabab bo'layotgan muhim omillar qatoriga, shubhasiz, gaz ballonini vaqtida tekshirtirmaslik, ko'proq yuraman deb 200 dan ortiqroq bosimda gaz quydirish, hali gazi tugab-tugamay ustiga "zaprovka" qildirish kabilarni kelirish mumkin. Har holda bilgichlar shunday deydi.

Taklif qilgan bo'lardimki, eng zo'r mutaxassislardan, kerak bo'lsa xorijlik ekspertlarni ham jalb qilib, bitta komissiya tuzilsa-da, bizdagi mana shu tizim chuqur o'rganilsa. Kapron yaxshimi yoki metall ballon,

⁴⁹ Ahmadjon Meliboyev. Jurnalistika: kasb, ijod, mahorat 100 savolga 99 javob. – T.: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2015. – B. 6.

⁵⁰ <https://t.me/platformauzb/5815>

buniyam aniqlashtirsa, gaz ballon o'rnatadigan ustaxonalarni borib ko'rsa, rostdan standartlarga amal qilishyaptimi? Gaz quyish shahobchalarini o'rgansa.

Bundan tashqari, haydovchilarga yoqmasa ham aytaman, shu gaz "zapravka"larda gaz quyishning eng yuqori cheklangan bosim miqdori 150 qilib qo'yilsa. Undan oshirganlarga keskin chora ko'rilsa. Haydovchi akalar, mayli, kamroq masofa yurarsiz, lekin ko'nglingiz ancha to'q bo'ladi. Yo'lovchilar ham yurak hovuchlab o'tirmaydi. Qolaversa, hozir "zapravka" qilish muammo emas, har qadamda metan bor...Takror bo'lsa-da, aytish kerak, bu masalaga befarq qarab bo'lmaydi... Yaratganning o'zi asrasin!

Bloger yuqoridagi posti orqali bir mavzuga ham munosabat bildirgan, ham yechim qidirgan. Endi shu mavzuda jurnalistning tahlilini kuzatsak:

Samarqandda gaz ballonlari portlashi ortidan kelib chiqqan yong'in haqidagi xabarning yangi tafsilotlari paydo bo'ldi.⁵¹

Unga ko'ra, xonadon egasi yerosti quvuri orqali tabiiy gaz tarmog'iga noqonuniy ulangan va gaz ballonlarga maishiy gaz to'ldirib berish bilan shug'ullanib kelgan.

Samarqandda gaz ballonlari portlashi ortidan yong'in kelib chiqqani aytilgan xabarga aniqlik kiritildi. Qayd etilishicha, gaz ballonlari 20 ta emas, balki jami 43 ta bo'lgan va xonadon egasi yer ostidan noqonuniy gaz trubasini o'tkazib, maishiy gaz ballonlariga gaz to'ldirish bilan shug'ullanib kelgan.

2021 yil 18 yanvar kuni Samarqand tumanida joylashgan xonadonlarning birida yong'in sodir bo'lgani va natijada uyning 50 kv.m. maydoni, darvozaxonada turgan 2021 yilda ishlab chiqilgan davlat raqamsiz "Damas" rusumli avtotransport vositasi hamda yerto'lada mavjud bo'lgan 20 dona maishiy gaz baloni yorilib yaroqsiz holga kelgani haqida ma'lum qilingan edi.

Samarqand viloyati prokuraturasining ma'lum qilishicha, yong'in sodir bo'lgandan so'ng voqea joyi tumani IIB TB tomonidan qo'shimcha ko'zdan kechirish davomida uyda yaroqsiz xolga kelgan 20 ta gaz ballonlardan tashqari yana 23 dona gaz ballonlar borligi, shuningdek, O.N.ning yashash xonadonning orqa qismidan yer osti quvuri orqali tabiiy gaz tarmog'iga noqonuniy ulanganligi va ushbu tarmoqqa gaz tortish uskunasini (nasos) o'rnatilganligi aniqlangan.

Fuqaro O.N. o'z ko'rsatuvida xususiy korxonada tuzilgan kelishuvga asosan o'zining avtomashinasida korxonaga tegishli gaz ballonlarga maishiy gaz to'ldirib, yetkazish bilan shug'ullanishini, voqea sodir bo'lgan kuni yashash uyida elektr simiga lampochka patronini o'rnatayotgan vaqtda chaqnash sodir bo'lib yong'in kelib chiqqanligini, shundan so'ng uyda bo'lgan gaz ballonlardan bir nechta portlab ketganligini bayon qilgan.

Olingan ashyoviy dalillar bo'yicha X. Sulaymonova nomidagi Ekspertiza Markaziga sudga oid yong'in ekspertizasi tayinlangan.

Yong'in va uning natijasida kelib chiqqan gaz ballon portlashi natijasida jarohatlanganlar mavjud emas.

Holat yuzasidan Samarqand tuman IIB TB tomonidan tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borilmoqda. Tergovga qadar tekshiruv harakatlari tuman prokuraturasi tomonidan nazoratga olingan.

Ushbu materialda jurnalistik yondashuv yaqqol ko'zga tashlanadi. Xabarda aniqlik, faktlarga tayanganlik va xulosa mavjud. Jurnalist voqeaga munosabat bildirmasdan, uni dalillar asosida yoritib bergan. Bloger matnida esa birinchi o'rinda shaxsiy munosabat kuzatiladi. Jurnalistning holatga munosabat bildirishi bu kasb qoidalariga to'g'ri kelmaydi. Chunki hissiyotga berilib, auditoriyaga xabar yetkazish kasb etikasiga zid hisoblanadi.

⁵¹ <https://uznews.uz/uz/posts/7092>

Biroq ular shunchaki birlashtirilmasligi, balki turli vositalar bilan o'zaro bog'lanishi, natijada yaxlit asarni tashkil qilishi lozim. *"Matn yaxlitligi uning alohida elementlarida ko'rinmagan xususiyatlarga ega bo'lib, bu holat o'sha tarkibiy qismlarning bog'langanligi natijasida yuzaga keladi"*.⁵²

Ayrim holatlarda yuz bergan voqea haqida jamoatchilikni xabardor qilish, boshqa holatlarda voqealarni tahlil qilish, ba'zan esa o'quvchiga biror g'oyani yetkazish muhim bo'ladi. Har qaysi holatda ham jurnalist g'oyani bayon qilishga kirishishdan oldin uning shaklini, ya'ni kompozitsiyasini tanlashi kerak. Shakl – jurnalist bayon qilmoqchi bo'lgan g'oyaning matn muhitida shakllanish va rivojlanish dinamikasidir. Shunday ekan, jurnalistik materialning barcha elementlari o'rtasidagi sifat va miqdor balansi muallif g'oyasini mantiqiy izchillikda yoritish uchun xizmat qiladi. *"Kompozitsiya, – deydi E.P.Proxorov, – bu, avvalambor, muallif tomonidan ilgari surilayotgan fikr, g'oya, voqelik, vaziyat va qarashlarning jurnalistik asarda o'zaro bog'liqda joylashtirilishidir"*.⁵³

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotimizda kuzatuv, blogkanallarni o'rganish, solishtirish, tizimli tahlil, kontent analiz, sotsiologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Blogerlik faoliyatida asosan xabar va tahliliy materiallar ko'p e'lon qilinadi. Yuqoridagi kompozitsiyaga esa davletovuz kanalidagi quyidagi muammoli postni misol keltirish mumkin:

Bankomatlarda naqd pul muammosi kuzatilmoqda⁵⁴

Ijtimoiy tarmoqlarda bankomatlarda naqd pul muammosi yuzaga kelayotgani haqida xabarlar ko'paydi (<https://t.me/muxbir1/16276>). Masalan, yuqoridagi suratda (<https://t.me/xolisfibr/3024>) odamlar Xalq bankining Chiroqchi filiali oldidagi bankomatdan pul yechish uchun naobatda turishibdi. Bunday xabarlarni boshqa hududlarda ham eshitish mumkin (<https://t.me/davletovuztw/141>). So'rovlarda ham tasdiqlashyapti (https://t.me/rost_24uz/5038).

Iqtisodchilarning yozishicha (https://t.me/the_bakiroo/4822), mavsumiy iqtisodiy faollik oshib borayotgani, pul o'tkazmalari miqdorining keskin oshayotgani hamda mablag'larni dollar yo rublda emas, so'mda olishni ma'qul ko'rishayotgani ham asosiy omillardan hisoblanadi. Bundan tashqari, banklarda naqd pul chiqimi ortayotganiga qaramay naqd pul kirimida o'sish kuzatilayotgani yo'q. Oxirgi masala davlat banklarining bankomatlarni naqdlilik bilan to'ldirishda, taqsimot va tarmoq boshqaruvida texnik va logistik jihatdan ortda qolayotganiga borib taqaladi.

Bu yerda blogger muammoni cho'zib o'tirmasdan, qisqa izoh bilan ham kirish, ham muammo, ham yechimni ko'rsatib bergan. Bugungi kun auditoriyasi 4 yoki 5 qator matnni o'qishga zerikadi. Zamonaviy jurnalistikaning bir bo'lagi deya e'tirof qilinayotgan bloggerlik bugungi kun o'quvchisining istagi bilan yashamoqda.

Xulosa va takliflar

An'anaviy tahririyatda vazifalar (jumladan, mavzular) xodimlar o'rtasida bo'lingan bo'lsa, blogger ko'p hollarda bir o'zi tahririyat vazifasini bajaradi. O'z nuqtai nazarini bayon etishda bloggerlarning imkoniyatlari kengroq. Ular bevosita interfaol shaklda ko'proq ishlaydilar, matn bilan birga foto va videoyozuvlarni taqdim etadilar, yangiliklar bloklarini tuzadilar. Bloggerlar

⁵² Кайда Л.Г. Эффективность публицистического текста. М., 1989. 16-б.

⁵³ Прохоров Е.П. Искусство публицистики. М., 1984. 345-б.

⁵⁴ <https://t.me/davletovuz/15102>

ijodida jurnalistikaning turli vazifalarini birlashtirish hodisasi uchrab turadi, ya'ni ular rasmiy materiallarni kamroq sharhlaydilar. Ammo rasmiy OAV esa ulardan iqtiboslar keltirib turadi.

Zamonaviy virtual jurnalistika uchun hozirda bu odatiy hol bo'lib qolgan. Bugungi kunda bir jurnalist ikki maqomda ish olib borishi tabiiy bo'lib qolmoqda, professional xodim va blogger. Chunki ayrim tahririyatlar jurnalistning erkin fikrini o'tkazmaydi, shunda ular shaxsiy pozitsiyalarini blogger sifatida bildirishga intiladilar. Ko'p jamiyatlar hayotida bir noodatiy manzara, ya'ni davlat yoki jamoatchilik vakillarining keng ommadan ayrim axborotni yashirishga urinishlari kuzatiladi. Bunday vaqtlarda bloggerlar yangilik haqida bilganlaricha gapirib, yetakchilikni qo'lga oladilar. Bunday holatda hatto professional jurnalist yoki nashrlar, boshqa manba yo'qligi sababli, blogger uzatgan axborotdan foydalanishga majbur bo'ladi.

Bugungi kundagi "blog" tushunchasi inglizcha "web log" - "vebkundalik" birikmasidan kelib chiqqani ko'pchilikka ma'lum bo'lsa kerak. Bu ibora boshida "web log", keyinroq "weblog" holida qo'llanilgan bo'lsa, ko'p o'tmay "blog" holiga kelgan. Afsuski, bugun jamiyatimizda ko'pchilik bloggerlikni juda tor ma'noda tushunishadi. Ko'pchilik blogger deganda faqat jamiyatdagi kamchiliklarni aytib, tanqid qiluvchi shaxsni, blog deganda esa facebook profili, telegram kanalini tushunishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Ommaviy axborot vositalari faoliyati sohasidagi meyoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. – T., 2009. http://www.lex.uz/ru/law_collektion/3241.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 30 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2021.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 47-B.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. "Xalq so'zi", 2018-yil 28-iyun.
6. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni. www.lex.uz/pages
7. Kayda L.G. Effektivnost publitsisticheskogo teksta. M., 1989. 16b.
8. Proxorov YE.P. Iskusstvo publitsistiki. M., 1984. 345-b
9. Ahmadjon Meliboyev. Jurnalistika: kasb, ijod, mahorat 100 savolga 99 javob. T.: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2015. B. 6.
10. D.M.Teshabayeva, G.X.Bakiyeva, M.I.Isroil, L.I.Toshmuhammedova, M.CH.Nuritdinova. Medialingvistika va tahrir. - T.: "O'zbekiston", 2019. B. 92.
11. Do'stmuhamedov X.N. Jurnalistning kasb odobi muammolari: nazariy-metodologik tahlil (Mustaqillik davri o'zbek matbuoti faoliyati misolida. 1991–2008 yillar): Filol. fan. d-ri. ...diss.avtoref. – T.: O'zMU, 2008
12. <https://t.me/davletovuz/15102>
13. <https://uznews.uz/uz/posts/7092>
14. <https://t.me/platformauzb/5815>

KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA AYOLLARGA SALBIY MUNOSABAT BILDIRUVCHI MAQOLLAR

Mirhamidova Noila

O'qituvchi,

Koreya tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti kafedrası,

Koreyashunoslik fakulteti,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Abstract: Mazkur maqolada koreys va o'zbek tillaridagi ayollarga salbiy munosabat bildiruvchi maqollar tadqiq etildi. Bunday maqollarda ayolning xatti-harakati qoralangan bo'lib, ularda jamiyatning ma'lum bir mafkurasi namoyon bo'ladi. Maqolada har ikki xalq maqollaridagi ayolni tasvirlash uchun ishlatiladigan o'xshash tasvirlar, bir xil sifatlarning salbiy yoki ijobiy ma'noda qo'llanilishi, ayol obrazining umumiy va farqli jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ayol, erkak, maqol, salbiy, ijobiy, xarakter, xulq-atvor.

Аннотация: В данной статье были изучены корейские и узбекские пословицы с негативным отношением к женщинам. В таких пословицах осуждается поведение женщины, в них проявляется определенная идеология общества. В статье анализируются схожие образы, используемые для описания женщины в обеих народных пословицах, употребление одних и тех же прилагательных в отрицательном или положительном смысле, общие и разные стороны образа женщины.

Ключевые слова: женщина, мужчина, пословица, негатив, позитив, характер, поведение.

Abstract: In this article, Korean and Uzbek proverbs with a negative attitude towards women were studied. In such proverbs, the behavior of a woman is condemned, and a certain ideology of the society is manifested in them. The article analyzes the similar images used to describe women in both folk proverbs, the use of the same adjectives in a negative or positive sense, common and different aspects of the image of a woman.

Keywords: female, male, proverb, negative, positive, character, behavior.

Kirish

Maqollar qisqa va lo'nda, obrazli, aforistik va majoziy, mantiqiy tugallangan, chuqur ma'noli, didaktik mazmundagi hikmatli iboralardir. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Shuning uchun ular bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga katta hissa qo'shadi.

Maqol – [arabcha-maqola, kichik asar; so'z, nutq] hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda, pand-nasihath mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli iborali gap⁵⁵.

⁵⁵ Madvaliyev A. va boshqalar. O'zbek tili izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston, – 2021. – B. 315.

Maqollar inson tafakkuri bilan chambarchas bog'liq. Uzoq vaqt davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan maqollarda xalqning fikr-mulohazalari, kechinmalari, bilimlari mavjud bo'lgani uchun ham ularni o'sha xalqning qimmatli xazinasi deyish mumkin.

Frensis Bekon ta'kidlaganidek: "Biron xalqning maqollarida siz o'sha xalqning iste'dodi, aql-zakovati va ruhini topishingiz mumkin"⁵⁶. Maqollar aforistik jihatdan qisqa, zukkolik va hazil bilan yo'g'rilgani uchun ulardan nafaqat savodxonlar, balki o'qish va yozishni bilmaydigan aholi qatlami ham keng foydalana oladi. Shu bois, har bir millatning ma'naviyati va qadriyatlarini anglash uchun, avvalo, o'sha xalqning paremiyalar fondiga e'tibor qaratish lozim.

Umuman, maqol va matallar har qanday lingvojamoaa vakillarining lingvistik va ekstralingvistik bilimlarining qimmatli xazinasi bo'lib, so'zlovchilarning dunyoqarashini aks ettiradi.

Natijalar va muhokama. Maqol va matallarda ayol xulq-atvorining ijobiy va salbiy tomonlari namoyon bo'ladi. Ayollar bilan bog'liq maqollardagi ijobiy tomonlar, odatda, uning onalik, uy bekalik rollarini ta'kidlash orqali yuzaga chiqadi. Ayol obrazining salbiy tomonlari, asosan, ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq bo'lib, bu uning bir talay (sergap, injiq, yolg'onchi, ayyor, xavfli, befahm, nodon va boshqa) qusurlariga ishora qiladi. Bunday maqollar orqali erkaklar tabiiy ravishda ayollarning bo'ysunishini abadiylashtirish yoki yanada mustahkamlashga intiladi. Ushbu maqola doirasida biz faqat ayolga salbiy baho berilgan koreys va o'zbek maqollarini tahlilga tortdik.

Koreys maqollarida ayollarning sergapligidan ehtiyot bo'lishga da'vat qilinadi. Quyidagi misollarlarga e'tibor qaratamiz:

암탉이 울면 집안이 망한다 [amtalgi ulmyeon jibanimanghanda]

Tovuq qichqirsa, oila buziladi.

계집의 입막기는 냇물 막기보다 어렵다 [gyejibui ibmaggineun naesmul maggiboda eolyeobda]

Ayolning sukunati oqimni to'sishdan ko'ra qiyinroq.

여자가 말이 많으면 장맛이 쓰다 [yeojaga mali manheumyeon jangmas-i sseuda]

Ayol ko'p gapirsa, qaylaning ta'mi achchiq bo'ladi.

Bevosita o'zbek tiliga kelsak, sergap ayollar uchun *Elakka kirgan ayolning ellik ogiz gapi bor* maqoli qo'llaniladi. Aslini olganda, mazkur maqol orqali o'zbek ayolining xushmuomaligi, odobi, qolaversa, so'zga chechanligi namoyon bo'ladi. Odatda, qoshnikiga elak so'rab chiqqan ayol gapini birdaniga "Elagingizni berib turing" deb boshlamaydi. Muddaoga o'tisidan avval uzoq daromad qiladi, hol-ahvol so'raydi, uy-ichilarning ahvoli bilan qiziqadi. O'zbek nuqtqiy odatiga ko'ra, hol-ahvol so'ramasdan to'g'ridan- to'g'ri maqsadga o'tish hurmatsizlik sanaladi. Binobarin, bu o'inda rus olimlari V. Nalivkin va M. Nalivkinalarning *Elakka kirgan ayolning ellik ogiz gapi bor* maqoli haqidagi quyidagi izohlarini keltirish ayni muddao bo'ladi: "Sart ayollari, hatto ish bilan band bo'lganlarida ham bir joyda bir necha soat hich kim bilan gaplashmay, jim o'tira olmaydilar. Agar ayolning uyiga biror odam kelmasa, uning o'zi qo'shnisidikiga chiqib, birpagina bo'lsa ham u yoq bu yoqdan gaplashib qaytadi... Ularning gapi maqollar, iboralar, qochiriqlar, ba'zan esa o'ynoqi, mazmunli ertak va latifalarga boy bo'ladi. Bularni gap orasiga yedirib yuborishga ularning hammasi usta bo'ladi. Gapni topib gapirish, berilgan savollarga yoki tashlangan

⁵⁶ Sreechinth C. Thoughts of Greatest Western Thinkers. – UB Tech, 2016. – P. 116.

luqmalarga o'rinli javob qaytarish va suhbatdoshini gapga solib qo'yishni ular o'zlari uchun faxr deb biladilar..."⁵⁷.

"Sergaplik ayollarning nutqiy faoliyatiga xos xususiyat" deb iddao qilishda xatolik bor. Boshqacha qilib aytganda, savol tug'ilishi mumkin: erkaklarga sergaplik xususiyati xos emasmi? Albatta, erkaklarga ham sergaplik xususiyati xosdir. Biroq, erkaklarning suhbatlari "sergaplik" emas, balki "muzokara" yoki "suhbat" deb ataladi. Ayollarning sergapligi oila doirasidagi, ayollar bilan yoki do'stlar bilan bo'ladigan suhbatlarda ko'proq kuzatiladi. Erkaklar esa aralash jinsli suhbatlarda yoki sohaga oid suhbatlarda ko'proq gapirishadi.

Bir qator tadqiqotlarda kuzatilishicha, masalan, seminar, davra suhbatlari va yig'ilishlar (Eakins & Eakins, 1979; Edelsky, 1981; Xolms, 1988), televideniya ommaviy munozaralar va mahkama muhokamalari (Strodtbeck & Mann, 1956), shuningdek, turli darajadagi o'qituvchilarning darslarining (Spender, 1982), asosan, erkaklar tomonidan olib borilishi qayd etilgan. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, ushbu tadqiqotlarning aksariyati rasmiy va ommaviy muhitda o'tkazilgan bo'lib, bunday muhitda suhbatni olib borish juda qadrlanadi va o'z navbatida ma'ruzachi maqomining yuksalishiga imkoniyat beradi. Shu bois, "Ayollar haqiqatan ham sergapmi?" degan savoldan ko'ra, "Nega erkaklar ayollarni sergap deb o'ylaydi?" degan savol muhimroq hisoblanadi. Bunga javob sifatida "Silence is the best ornament of a woman" (Sukunat – ayolning eng yaxshi bezagidir) ingliz maqolidagi sokin ayol obrazining jamiyatda ideal sifatida qabul qilinganini ko'rsatish mumkin⁵⁸.

Demak, "sergaplik" so'zini erkak va ayol har xil ma'noda tushunadi va talqin qiladi. Odatda, sergap ayol ham xuddi erkak kabi gapira oladi. Shu sababli sergap ayollarning salbiy stereotipining adolatsizlik namunasi ekanligini ta'kidlash kerak. Aslida ayollarning sergapligi – bu erkaklarga xos nuqtayi nazardan kelib chiqadigan lisoniy gender diskriminatsiyasi hodisasi hisoblanadi.

Koreys jamiyatidagi mafkura erkaklarning ustun deb, ayollarga esa past nazar bilan qaralib, ular, albatta, erini aytganlarini qilish kerak degan qarashlarda o'z aksini topgan. Qadimdan erkaklarning ayollarni hukmronlik va bo'ysunish obyektiga aylantirishga urinishini "Tovuq qichqirsa, oila buziladi" maqoli misolida yaqqol ko'rish mumkin. Bu maqolda "tovuq" oila boshlig'i, uy ishlariga mas'ul bo'lgan uy bekasining majozidir.

"Tovuq qichqirsa, oila buziladi" maqolining asosida aslida xo'rozning (erkak-oila boshining) tongni e'lon qilib qichqirishi yotadi. Darhaqiqat, tovuq emas, xo'roz baland ovozda tong otishini e'lon qiladi. Bu yerda "qichqirish" tovush chiqarish harakati oila a'zolariga buyruq berishni anglatadi. Unda oilani to'g'ri saqlash uchun oilaning boshlig'i erkak bo'lishi kerakligi, agar oilani ayol boshqarsa, oila muqarrar ravishda halokatga yuz tutishi haqida so'z boradi. Bu o'rinda nafaqat "oila", balki keng ma'noda jamiyat, yanada kengroq ma'noda esa mamlakat nazarda tutiladi.

Ko'rinadiki, koreys muloqotidagi "Tovuq qichqirsa, uy buziladi" maqolining zamirida ayollarni kamsitish, umuman, lisoniy gender diskriminatsiyasi yotadi. Tovuqni ayolga

⁵⁷ Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань : Типо-лит. Имп. Казан. ун-та, 1886. - [4], 244 с.

⁵⁸ 김옥동. 속담의 성차별과 전디 번역. 통번역학연구 제 16 권 4 호, - 2012. - 112~126 쪽.

qiyoslovchi va ayollarni uydan tashqariga chiqishdan ogohlantiruvchi maqol faqatgina Koreyada kuzatilmasdan, balki aksariyat xalqlarning lingvomadaniyatiga xos bo'lgan universal hodisadir.

Tovuq – aksariyat lingvomadaniyatlarda urishqoq parranda hisoblanadi. Jumladan, xitoy tilida “tovuq” (野鸡) so'zi ko'chma ma'noda yengiltak ayollarga nisbatan qo'llaniladi⁵⁹. O'zbek lingvomadaniyatida ham tovuq majoziy obrazidan haqoratlash, ayniqsa, ayollarni kamsitish ma'nosida foydalaniladi. Masalan, “ahmoq”, “kaltafahm” ma'nosida *tovuq miya* iborasi qo'llaniladi”:

Koreys va o'zbek maqollarida ayol butunlay erkakka bog'liq, unga tegishli arziyas mavjudot sifatida baholanadi. Shu bois ayol qiyofasini tasvirlashda hayvon va parrandalar sinfi: tovuq, tulki, ekchi (serka), sigir (g'unajin) va h.k.lardan unumli istifoda etilgani kuzatiladi. Chunonchi, ayol aqliy qobiliyatlarining cheklanganligini yuqoridagi “tovuq” komponentli maqollarda ham ko'rib o'tildi.

Aksariyat lingvomadaniyatlarda ayolning xarakterini tasvirlashda tulki obrazidan keng foydalaniladi. Tulki obrazi, asosan, ayol kishining hiylakorligi, makkoraligini ifodalashga xizmat qiladi. Shu bois mazkur obraz maqollarda ham faol qo'llaniladi. Masalan, koreys tilidagi 여자가 늠으면 여우가 된다 [yeojaga neulg-eumyeon yeouga doenda] – *Ayol qariganda tulkiga aylanadi*, o'zbek tilida *Bir xotinning hiylasi qirq ehsakka yuk bo'lar* shular jumlasidandir.

O'zbek o'g'zaki ijodi an'analarida ayollar odamni yo'ldan ozdirishga qodir xavfli mavjudotlar sifatida ham ko'z oldimizda paydo bo'ladi. Buni Shaytonga dars beradi, ilonni inidan chiqaradi iboralarida, shuningdek, *G'unajin ko'zini suzmasa, buqa ipini uzmaydi* maqoli vositasida ko'rishimiz mumkin. Bu o'rinda keltirilgan maqol ayollarga jinsiy aloqa obyekt sifatida qarash va ularni yengiltak deb kamsitishning yaqqol namunasi. Shuningdek, ayolga ishonchsizlik ham erkaklarning odatiga aylangan. Binobarin, o'zbek tilida *It – vafu, xotin – jafu* maqoli bilan xotin kishining bevafoqlik ifoda etiladi.

Ayolni andishasizlikda ayblab, unga dakki berish ma'nosida esa *Xotin erka bo'lsa, eriga serka bo'lar* maqoli qo'llaniladi.

Ayollar erkaklar nazdida ahmoq, aqli past hisoblanadi. Binobarin, “ayollar ko'p ishlarda shoshib, kalta o'ylab ish qilishadi” degan fikr *Sochi uzun, aqli kalta* maqoli vositasida berilib, ayollarni kamsitishda keng qo'llaniladi.

Ayollarga ishyoqmas, dangasa deb salbiy munosabat bildirish esa quyidagi maqollarda o'z aksini topganini ko'rish mumkin:

여자 셋이 모이면 접시가 깨진다 [yeoja sesi moimyeon jeobsiga kkaejinda]

Uch ayol yig'lsa, idish-tovoq sinadi

O'zbek tilida: *To'rt xotin bir bo'lsa, kasbi o'lan aytish.*

Xotinning qadrsizligi, unga nisbatan past nazar bilan qaralishiga misol tariqasida quyidagi maqollarni keltirish mumkin:

마누라와 말은 넓적다리 아래다 [manulawa mal-eun neolbjeogdali alaeda]

Xotin va ot sonda pastda.

O'zbek tilida: *Xotin yo'lda, bola belda.*

Qayd etilganlar bilan birga, ayolga nisbatan kuch ishlatish, kaltaklash, urush singari harakatlarni oqlash uchun ishlatiladigan maqollar ham keng tarqalgan. Masalan, koreys xalqining 여자과 북어는 두드릴수록 맛이 난다 *Ayol bilan mintay baliqni qancha ko'p urgan sari ta'mi*

⁵⁹ Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent: ToshDShI, 2017. – B. 179-180.

chiqadi. 여자는 사흘을 안 때리면 여우가 된다 [yeojaneun saheuleul an ttaelimyeon yeouga doenda] – *Ayolni uch kun urmasa, tulkiga aylanadi* maqollariini yoki musulmonlik mohiyatini to'g'ri tushunib yetmagan ayrim o'zbek erkaklarining nutqida ayollarni o'ta kamsitish, xo'rlash ma'nosida *Xotinni urish musulmon erkak uchun ham farz, ham qarz, Erkak degani ayolini urib turish kerak bo'lmasa shayton egallab ketadi* kabi maqollarning qo'llanilishini kuzatish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, koreys va o'zbek paremiologik fondida ayol kishini salbiy baholovchi o'xshash ko'plab maqol va matallar mavjud. Umuman, maqollarda aks ettirilgan madaniy qadriyatlarning bir xil ekanligini ta'kidlash mumkin. Har ikki tilning maqol va matallarida ayol ko'p gapiradigan, nodon, ahmoq, ayyor, yengiltak, ishonchsiz, andishasiz, erka, ishyoqmas, qolaversa, erkaklarni mohirona manipulyatsiya qilidigan obraz sifatida namoyon bo'ladi.

Maqollar tahlili shuni ko'rsatadiki, koreys va o'zbek dunyoqarashida ayol narsa, buyum, erkakning mulki sifatida qaraladi. Ayol erkaklarga qaram bo'lgan quyi mavjudot hisoblanadi. Shuning uchun ayol hayvonlar bilan taqqoslanadi va bu taqqoslash ikkala madaniyatda ham o'xshashdir. Binobarin, ayol aksariyat maqollarda tovuq, tulki, serka, g'unajin va h.k. hayvonlar bilan taqqoslanadi.

Bunday noto'g'ri munosabat uzoq vaqt davomida jamiyatda erkaklar hukmronlik qilgan patriarxal tizim kuchiga bog'liq bo'lgan. Patriarxal tizim an'analariga ko'ra, ayolning o'rni doimo uyda, o'choq, qozon-tovoq yonida, erkak esa ro'zg'or tebratuvchi, boquvchi sifatida ko'rilgan. Shuningdek, koreys jamiyatida hozirga kunga qadar androsentrik konfutsiychilikning ta'sirida lisoniy gender kamsitishning kuchli ekanligini ham alohida ta'kidlash lozim.

Umuman, maqol va matallarda ayol obrazining salbiy aks etishi erkaklar ayollardan nimalar kutishlarini tasvirlaydi, shuningdek, erkaklar tomonidan boshqariladigan jamiyatni ulardan nimalarni kutishini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madvaliyev A. va boshqalar. O'zbek tili izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston, – 2021.
2. Sreechinth C. Thoughts of Greatest Western Thinkers. – UB Tech, - 2016.
3. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent: ToshDShI, 2017.
4. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань : Типо-лит. Имп. Казан. ун-та, 1886.
5. 김옥동. '속담의 성차별과 전더 번역'. 통번역학연구 제 16 권 4 호, - 2012.



FERMER XO'JALIGI NOMLARI XUSUSIDA

Nozima Nuriddinova,
Namangan davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada fermer xo'jaligini ifodalovchi ergonimlarning lisoniy xususiyatlari dalillar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: ergonim, qishloq xo'jaligi, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, shirkat xo'jaligi, nominatsion-motivatsion.

Annotation: In this article, on the basis of actual data, the linguistic features of ergonyms denoting the economy are highlighted.

Keywords: ergonim, agriculture, farm, company farm, nominative-motivational.

О НАЗВАНИЯХ ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВ

Нозима Нуриддинова, независимый исследователь
Наманганского государственного университета

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы языковых особенностей эргонимов, обозначающих хозяйство, на основе фактических данных.

Ключевые понятия: эргоним, земледелие, ферма, фермерское хозяйство, номинативно-мотивационный, сельское хозяйство.

ABOUT THE NAMES OF FARMS

independent researcher, Namangan State University

Annotation: this article deals with the issues of linguistic features of ergonyms denoting the economy, based on actual data.

Key concepts: ergonym, agriculture, farm, farming, nominative-motivational, agriculture.

Kirish

Ergonim – faoliyat yuzasidan uyushgan kishilar jamoasi, shuningdek, muassasa, tashkilot va korxonalarining atoqli oti [1, 40]. Ergonimlar sirasiga inson mehnat faoliyati bilan bog'liq joylar: korporatsiya, tashkilot, korxonona, muassasa, zavod, fabrika, firma, fermer xo'jaliklari, bank, magazin, univermag, gastronom, do'kon, market, supermarket va aptekalarning maxsus atoqli nomlari kiradi. Fermer xo'jaliklari ham kishilar mehnat qiladigan qishloq xo'jaligi sohasiga xos mehnat jamoasining nomi sifatida ergonimlar sirasiga mansubdir.

Adabiyotlar tahlili

Jahon, jumladan, rus tilshunosligida ergonimika va Volgograd, Yekaterinburg, Ijevsk, Maxachkala, Moskva, Omsk. Perm, Ufa hududlari ergonimiyasining leksik-semantik, struktural-tipologik, nominatsion-motivatsion xususiyatlari G.N.Aliyeva, A.B.Bespalova, B.D.Bondaletov, A.E.Guntova, G.A.Donskova, A.M.Emelyanova, I.V.Kryukova, N.N.Lesoves, N.V.Nosenko, A.V.Superanskayalar tomonidan tadqiq etilgan, biroq o'zbek tilshunosligida ergonimlar,

xususan, fermer xo'jaliklarini ifodalovchi ergonimlar to'planmagan hamda maxsus tadqiq etilmagan.

Tahlil va natijalar

Fermer (ingl. *farmer*) o'ziga qarashli yoki ijaraga uzoq muddatga olingan yerda ziroat, chorva, parranda mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanuvchi mayda yoki o'rtacha qishloq xo'jalik korxonasi egasi [2, 340].

Fermer xo'jaligi esa xususiy yoki ijaraga uzoq muddatga olingan yerda ziroat, chorva, parranda mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'illanadigan xo'jalik. Fermer xo'jaligining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va faoliyat ko'rsatish tartibi turli mamlakatlarda turlicha bo'lib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanish darajasi va xususiyatlari, shuningdek, mehnatdan va yerdan foydalanish sharoitlari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini industrilash va ixtisoslashtirish darajasi, kapital hajmi va omillar bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda dastlabki fermer xo'jaligi O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 3-iyulda qabul qilingan "Dehqon xo'jaligi to'g'risida" qonuniga muvofiq, dehqon xo'jaligi shaklida tashkil etildi, dastlab yirik qishloq xo'jaligi korxonalari tarkibidagi ichki va mustaqil yuridik shaxs sifatidagi fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatdi.

Dastlab *fermer xo'jaligi* indikatorini o'rnida *dehqon xo'jaligi*, *shirkat xo'jaligi* indikatorini qo'llanilgan. Biz mustaqil izlanishlar asosida Namangan viloyatidagi: "Oydin", "Yulduz", "Bog'bon", "Marvarid", "Parivash", "Humo", "Xotira bog'i", "Quyonoqquildi", "Burgut tirnog'i", "Mustaqillik", "Sabr", "Sayhun", "Sariq suv sabosi", "To'qqiz uy chegarasi", "Nihol", "Fayzli zamin balig'i", "Shafron", "Bahoriston ko'klami", "Kosonsoy yoz ifori", "Ikromjon oq oltin tolasi", "Mega fruits agro", "Namangan great big fish", "Sharq gold frutis", "Do'stlik", "Baxt", "Yangi asr", "Xislat", "Namangan agro meva eksport", "Qanoat", "Green garden agro eksport", "Sahovat kumush tola", "Yuksak ishonch iftixlori", "Aziz yer ne'mati", "Unumdor zamin mo'jizasi", "Soflik bog'i", "Orxideya", "Faxriy", "Iqbol", "Ulug' maqsad sari-komil qadam", "Rizq", "Xolis", "Gulshan toifa uzumi", "Chortoq musaffo tongi", "Barokat", "Best-fishing", "Moviy samo", "Asl bog'lar kabi 1000 dan ziyod fermer xo'jaligi nomlarini to'pladik.

Fermer xo'jaligi nomlarini semantik jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Dehqonchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini ifodalovchi ergonimlar: "Serhosil" fermer xo'jaligi (Pop t.), Beruniy oq oltin fermer xo'jaligi (Pop t.), Oq oltin yangi davr fermer xo'jaligi (Namangan t.), Firdavs oltin tolasi fermer xo'jaligi (Namangan t.), Ulug' ne'mat fermer xo'jaligi (Chust t.), Do'stlik serhosil zamin fermer xo'jaligi (Chust t.) kabi.

2. Bog'dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini ifodalovchi ergonimlar: *Mashrab polvon bog'i fermer xo'jaligi* (Pop t.), *Mashriq zamin mevalari fermer xo'jaligi* (Pop t.), *Alisher yashil bog' fermer xo'jaligi* (Pop t.) kabi.

3. Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini ifodalovchi ergonimlar: *Vodiy sof zamin chorvasi fermer xo'jaligi* (Kosonsoy t.), *Musaffo fayz chorvachilik fermer xo'jaligi* (Namangan t.), *Namangan yosh sahovatli chorvador fermer xo'jaligi* (Namangan t.) kabi.

4. Baliqchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini ifodalovchi ergonimlar: *Navro'z baliqchi fermer xo'jaligi* (Pop t.), *Fayzli baliqlar fermer xo'jaligi* (Mingbuloq t.), *Serbaraka baliqlar fermer xo'jaligi* (Mingbuloq t.), *Ko'ldagi gavhar fermer xo'jaligi* (Mingbuloq t.), *Best fishing fermer xo'jaligi* (Chust t.), *Chust chorva baliq savdo fermer xo'jaligi* (Chust t.) kabi.

5. Parrandachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini ifodalovchi ergonimlar: *Chust parrandachilik fermer xo'jaligi* (Chust t.), *Bo'ston nihol parranda fermer xo'jaligi* (Chust t.), *Kushon oltin*

parranda fermer xo'jaligi (Kosonsoy t.), Jiydakapa parranda fermer xo'jaligi (Uychi t.) Orzu zamin parrandasi fermer xo'jaligi (Namangan t.) kabi.

5. Asalarichilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini ifodalovchi ergonimlar: *Ubaydullo asalarichi fermer xo'jaligi* (Pop t.), *Shoyabek asali fermer xo'jaligi* (Uchqo'rg'on t.), *Asal Zebo fermer xo'jaligi* (Chust t.), *Yangiqo'rg'on asallari fermer xo'jaligi* (Yangiqo'rg'on t.) kabi.

6. Ipakchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini ifodalovchi ergonimlar: *G'urumsaroy ipakchilik fermer xo'jaligi* (Pop t.), *"Kumush tola" fermer xo'jaligi* kabi.

Fermer xo'jaliklari asosan, quyidagi motivlar asosida nomlangan:

1. Muayyan shaxsga tegishlilik motivatsiyasi asosida nomlangan fermer xo'jaliklari. Bunday fermer xo'jaliklari shaxs, ya'ni fermer xo'jalik egasi yoki uning yaqinlari: bobosi, otasi, onasi, rafiqasi, farzandlari, nabirasi ismi bilan atalgan: *"Yulduz"*, *"Ayubxon, Anasxon, A'zamxon"*, *"Hoshimxon ota"*, *"Mubina, Muslima, Muxlisa"* kabi. Masalan, *"Mubina, Muslima, Muxlisa"* ergonimi fermer xo'jaligi rahbarining qizlari ismidan olingan, *"Hoshimxon ota"* ergonimi fermer xo'jaligi rahbarining otasiga bo'lgan mehr-u muhabbati natijasida vujudga kelgan.

2. Joylashish o'rni motivatsiyasiga asosida nomlangan fermer xo'jaliklari: *"Kosonsoy yoz ifori"*, *"Chortoq musaffo tongi"*, *"Gulshan toifa uzumi"*, *"Gigant fishing"*, *"Chust dehqoni"*, *"Mingbuloq asl baraka chorva"*, *"Intizor-Pop"*, *"Uychi niholi"*, *"Mashad sohibkori"*, *"Varzik chorbog'"*, *"Jiydakapa parranda"* kabi.

3. Ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi yo'nalishiga nisbat berish motivatsiyasi asosida nomlangan fermer xo'jaliklari. Masalan, *"Ikromjon oq oltin tolasi"*, *"Namangan agro meva eksport"*, *"Saxovat kumush tola"*, *"Gulshan toifa uzumi"*, *"Mingbuloq asl baraka chorva"*, *"Jiydakapa parranda"* kabi.

4. Antroponimlar asosida tarkib topgan fermer xo'jaliklari. Masalan, *"Gulniholbonu"*, *"A'zamjon"*, *"Tursunboy olma bog'i"*, *"Amirxon, Rayhon mevalari"*, *"Gulnora uzumzori"*, *"Hamidullo anorzori"*, *"Nodirbek baliqlari"*, *"Samandar oltinlari"*, *"Sadoqat mevalari"*, *"Dildora donlari"* kabi.

5. Ixtisoslashgan faoliyat turini metaforik ifodalash motivatsiyasi asosida nomlangan fermer xo'jaliklari: *"Marvarid"*, *"Parivash"*, *"Burgut tirnog'i"*, *"Saxovat kumush tola"*, *"Aziz yer ne'mati"*, *"Unumdor zamin mo'jizasi"*, *"Moviy samo"* kabi. Masalan, ergonimga lug'aviy asos bo'lgan forscha *marvarid* (f. *dur, inju*) so'zi aslida *ba'zi mollyuskalarning chig'anog'idan olinadigan oq, sarg'ish, qizg'ish, ba'zan qora qimmatbaho donacha* [3,542]. ma'nosini anglatadi. Yetishtirilgan bug'doy, arpa donlarini marvaridga o'xshatish asosida fermer xo'jaligi shunday nomlangan.

"Saxovat kumush tola" fermer xo'jaligini nomlashda ham shunday holatni kuzatishimiz mumkin. Ergonimga *saxovat* va *kumush tola* lug'aviy birliklari asos bo'lgan.

Saxovat (a. *qo'li ochiqlik, oliyhimmatlik, saxovatlilik*) so'zi quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. Baland himmatlilik, sahiylik.

2. Tabiiy boylik; mo'l hosil; to'kinlik, mo'llik[4, 464].

Har qanday tilda xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti aks etgan bo'ladi. Jumladan, ergonimlarga nazar solsak unda kishilarning ijtimoiy madaniy qarashlari nechog'lik aks etganini, tilimizning lingvokulturologik ahamiyatini kuzatamiz.



Xulosa

Manbalarni to'plash jarayonida nomlarning o'zbekcha so'z va birikmalar bilan ifodalanishidan tashqari, chet tili unsurlari ham ustunlik qilayotganini ko'ramiz. Fermer xo'jaliklarini nomlashda ham shunday nomlarni kuzatishimiz mumkin. Masalan, "Green hous plus", "Mega fruits agro", "Namangan great big fish", "Isparon livestock and green hous", "Sharq gold frutis", "Wiwe crowing valley", "Green garden agro eksport", "Orxideya", "Modern fish lake", "Best-fishing" kabi.

Fermer xo'jaliklarining nomlarini tartibga solish, o'zbek tilining me'yor va mezonlariga solish dolzarb vazifalardan biridir. Bu jarayonda quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi. Obyektning tabiiy-geografik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy xususiyatlari, ixtisoslashgan soha va yo'nalishiga mos, milliy-lisoniy ruh ifodalovchi, aniq, tushunarli, shaklan qisqa, lo'nda, asosan, bir, ko'pi bilan ikki yoki uch so'zdan iborat, esda yaxshi va oson saqlanib nom tanlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 4-ж.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 2-ж.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 3-ж.

O'ZBEK MUMTOZ SHE'RIYATIDA QOSIDGA MUROJAAT AN'ANASI.

Mardanov Rahim G'aybulla o'g'li

Jizzax politexnika institut. O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Gmail: rahimmardanov42@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy mumtoz adabiyotimiz xususan, she'riyatida qosid timsoli qo'llanilishining ildizi, adabiyotimiz xazinasidan o'rin olgan she'riy asarlar muayyan bir sana bilan chegaralangan bo'lishiga qaramay, ancha uzoqlarga borib taqalishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Qosid, mumtoz, timsol, she'riyat, xabarchi, uyg'onish davri, lirik qahramon, she'riy asarlar.

ТРАДИЦИЯ ОБРАЩЕНИЯ К ПОЭТУ В КЛАССИЧЕСКОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ.

Марданов Рахим Гайбулла угли

Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы Джизакского политехнического института

Gmail: rahimmardanov42@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются истоки использования образа пророка в нашей национальной классической литературе, в частности в поэзии, несмотря на то, что поэтические произведения, вошедшие в сокровищницу нашей литературы, ограничены определенной датой, они вернуться далеко назад.



Ключевые слова: Пророк, классик, символ, поэзия, посланник, Возрождение, лирический герой, поэтические произведения.

THE TRADITION OF ADDRESSING THE POET IN CLASSICAL UZBEK POETRY.

Mardanov Rahim G'aybulla o'g'li

Jizzakh Polytechnic Institute. Teacher of the Uzbek language and literature department

Gmail: rahimmardanov42@gmail.com

Annotation: In this article, the roots of the use of the image of the prophet in our national classical literature, particularly in poetry, are discussed, despite the fact that the poetic works included in the treasury of our literature are limited to a certain date, they go back a long way.

Key words: Prophet, classic, symbol, poetry, messenger, renaissance, lyrical hero, poetic works.

Kirish

Navoiy g'azaliyotining lirik qahramonlari haqida so'z ketganda, asosan, oshiq va ma'shuqa obrazlaritilga olinadi. Haqiqatdanham, shoirning ishqiy mavzudagi g'azallarida oshiq va ma'shuqaning turli holatlari yorqin bo'yoqlarda tasvirlangan. Adabiyotshunos olim A.Hayitmetov ta'kidlaganidek, "Navoiy ishqiy g'azallarining yarmidan ko'pi oshiqning ichki kechinmalarini, uning hijron azoblarini, dard-alamlarini, orzu-armonlarinikuylashgabayg'ishlangan"[1]. Bunga qo'shimcha qilib aytishimiz mumkinki, ma'shuqadan ayro tushib, hajr o'tida yongan oshiq o'z holatining qanday ekanligini yoriga etkazish uchun uchinchi bir shaxsga ehtiyoj sezadi. Mumtoz adabiyotimizda ana shu ehtiyoj tufayli, ya'ni oshiqdan ma'shuqaga xabar etkazish uchun ular o'rtasida turadigan xabarchi – qosid timsoli yaratilgan. Qosid – 1. Elchi, xabarchi. 2. Qasd qiluvchi, niyat etuvchi[2].

"O'zbek tilining izohli lug'ati" da quyidagi ta'rifni o'qiymiz:

Qosid – (arabcha, قاصد – jo'nab ketayotgan; intiluvchi, qasd qiluvchi; xabarchi, elchi, chopar) esk.kt. 1. ayn. xabarchi. 2. Qasd qiluvchi, intiluvchi[3].

Biz berilgan bu ta'riflardan so'zning birinchi ma'nosiga diqqatni qaratamiz.

Demak, qosid tushunchasi bir kishidan ikkinchi kishiga xabar olib boradigan kishini anglatarkan, adabiyotimizda bu timsolning shakllanishi, tadrijiyati, asar g'oyasini bayon qilishdagi hamda badiiyatidagi o'rnini tahlil va talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Navoiyning dunyoqarashi, ijod va go'zallikka bo'lgan estetik munosabati, falsafiy va filologik qarashlari, poetik mahorati, ijodiy metodi va uslubi, adabiy muhit bilan aloqasi va uning shoir faoliyatiga ta'siri o'zbek va xorij olimlari tomonidan sermahsul o'rganilgan. E.E.Bertels, Oybek, S.Ayniy, M.Shayxzoda, A.Qayumov A.Hayitmetov, N.Mallayev, A.Rustamov. S.Erkinov, T.Jalolov, Y.Ishoqov, A.Valixonov, A.Shomuhamedov, A.Hojiahmedov, S.G'aniyeva, A.Mirzayev, S.Ivanov, Ali Asqar Hikmat, Rukniddin Humoyun Farrux, N.Komilov, I.Haqqul, M.Imomnazarov, M.Muhiddinov, Sh.Sirojiddinov, A.Erkinov, S.Olim kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari navoiyshunoslikka qo'shilgan bebaho hissadir. Shuningdek, XXI asrning birinchi o'n yilligida navoiyshunoslar orasida D.Salohiy, N.Bekova, D.Yusupova, Z.Mamadaliyeva, M.Tojiboyeva, E.Nasrullayev, S.O'tanova singari olimalarning tadqiqotlari katta avlod navoiyshunoslar boshlagan xayrli ishning munosib davomi bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Biroq yuqorida qayd etilgan tadqiqotchilarning ishlari orasida Navoiy ijodidagi muayyan

bir timsol tadqiqiga maxsus bag'ishlangan monografik tadqiqotlar nihoyatda kamsonli, mavjudlari ham boshqa bir mavzuni ochib berishga xizmat qilishi maqsadida yo'l-yo'lakay zikr etib kelingan. Jumladan, N.Komilov, E.Shodiyev, D.Yusupova, L.Zohidov kabi olimlarimizning ilmiy izlanishlari Navoiy ijodidagi timsollarning ma'lum bir jihatlari tadqiqiga bag'ishlangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada milliy mumtoz adabiyotimiz xususan, she'riyatida qosid timsoli qo'llanilishining ildizi, adabiyotimiz xazinasidan o'rin olgan she'riy asarlar muayyan bir sana bilan chegaralangan bo'lishiga qaramay, ancha uzoqlarga borib taqalishi haqidagi fikrlar muhokama qilinadi.

Tahlillar va natijalar

Milliy mumtoz adabiyotimiz xususan, she'riyatimiz xazinasidagi manbalar o'rganilganida, qosid timsolini an'anaviy va azaliy timsollarsirasiga kiritish mumkinligiga amin bo'ldik.

Farg'ona viloyati Uchko'prik tumanida qizning ota-onasining mahalladagi obro'yi, hurmati, qizning oyoq olishi bilan qiziqqanlar. Yigit bilan qiz bir mahalladan bo'lsa, yigitning onasi ularning hovlisiga bemalol kirib-chiqib yurgan. Ana shunda qizning chevarligi, oshga sabzi to'g'rashiga ahamiyat bergan. Do'ppi, palak tikishini kuzatgan. Chunki kashta tika oladigan qizlar sabr qanoatli, bag'ri keng bo'ladi, degan aqida bor. Ana shu kuzatuvdan o'tgach, endi yigit tomon bir maxsus ayol tanlaydi. Bu ayol yigitning amma, xolasi yoki oilaning hamfikrlaridan bo'lishi mumkin. Bu ayol tong sahar kelib qiz yashaydigan xonadon darvozasi qay mahal ochiladi, uni kim ochadi, qiz ko'chani supuradimi, yo'qmi, suvni qanday sepadi, supirayotganda chap qo'li bilan ko'ksini ushlab turadimi yo'qmi, supurindini qanday oladi, uni kulga aralashtiradimi yo'qmi, kabi eng mayda ikir-chikirlargacha kuzatadi. Ana shundan keyin yigit taraf bir qarorga kelgach, o'sha kuzatuvchi ayol sahar kelib qizning darvozasi ostini rayhon bilan supuradi. Qiz ziyrak bo'lsa kimdir ostonani supurib ketganini ilg'aydi va darhol onasiga aytadi. Ertasi ular o'sha supurayotgan ayolni "ushlab olishga" harakat qiladilar. Va uni ichkariga taklif qiladilar. Ayol ichkariga kirib bir piyola choy ichadi va kuni belgilanganda sovchi bo'lib kelishadi. Farg'onada sovchi ayollar tutning novdasidan to'qilgan savatga o'n yoki o'n ikkita non, meva-cheva solib boradilar.

Samarqand viloyatining Urgut tumanida kelinning kashtado'zligi, chevarligi bilan qiziqsalar, Andijonning Shahrixon va Baliqchi tumanida qizlarning choyshab, sochiq, quroq qilishi, to'n, nimcha, kamzul, parpasha to'n, qiyiq, do'ppi tikish san'ati bilan qiziqadilar. Buning uchun yigitning ammasi yoki xolasi qizga biror narsa tikish, to'qishga buyurtma beradi. Shu bilan qizning chevarligi, odob-muomalasini ham bilib oladilar. Toshkent shahrida esa butunlay boshqacha. Ya'ni "qiz ko'rdi"ga kelgan ayollar oldiga bo'lajak kelin dasturxon yozadi, non-choy keltiradi. Shu bilan uning oyoq olishi, muomalasi, odob-axloqi sinaladi.

Rozilik alomati. Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida yigit taraf qizni ko'z ostiga olsalar biror bir yig'in, to'y-hashamlar chog'i yigitning onasi qizning onasidan o'smoqchilab ma'lumot olishga harakat qilishgan. Bu xalqda "og'zini iskadi" deb atalgan. Yigitning onasi qizning onasining chehrasidagi o'zgarishga diqqat qaratgan. Uning ko'z qarashlari, chehrasidagi u yoki bu tomonlama o'zgarishdan ichki fikrini uqishga harakat qilingan. Qizning onasining qiyofasida rozilik ifodasi balqisagina chinakam niyatni oshkor qilgan va erkak sovchi jo'natilgan. Sovchi gapni birdan boshlamay "Qarindosh bo'lgani keldik", "Bir yomonimizga bir yaxshingizni

so'rab keldik", "Hovlingizdan gul olgani keldik" kabi o'xshatishlar bilan niyatni bildirgan. Qiz tomon roziligini so'z bilan bildirmagan. Sovchining oldiga osh olib kirsalar bu rozilik alomati sanalgan. Shundan keyingina ayol sovchilar kelishgan. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki Samarqand viloyatining Paxtachi, Pastdarg'om, Nurobod tumanlari, Buxoroning Romiton tumanlarida ham rozilik alomati sifatida osh damlanadi. Surxondaryo viloyatining Qumqurg'on tumanida esa har ikki holatda ham osh damlab kiriladi. Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida mezbonlar o'zlari uchun osh pishirayotgan bo'lsalar ham norozi bo'lsalar sovchi oldiga osh keltirilmaydi. Sovchining kovushi kiyishga shay qilib qo'yilishi ham norozilik alomatidir. Bunday holatda o'sha sovchilar bu xonadonga qaytib kelishmaydi.

Axborotchilarimiz bergan ma'lumotlarga ko'ra Andijon, Shahrixon shaharlari, Qashqadaryoning Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' tumanlari, Jizzaxning Zomin tumani, Farg'ona viloyatining Dang'ara tumanida ayol sovchilar tugunidagi non va qandning almashtirilishi rozilik alomati bo'lgan. Demak bu hududlarda ish ayol sovchilarning tashrifi bilan boshlanadi.

"Ayrim joylarda qiz taraf rozilik bildirganligini anglatish uchun sovchilarni yaxshi taom bilan siylaydi. Bu odat "og'iz moylandi", deyiladi [2; 97]. "Nurotada qiz tomon sovchilarga rozilik alomati sifatida, odatda, oq ro'molga tugilgan ikkita non, qatlama yoki ro'molcha beriladi. Bu udum Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida "oqlik oldi", Jizzax viloyatida "tilla sanadi", Samarqand va Sirdaryo viloyatining ayrim tumanlarida "oqlik berdi", deb atalsa, Nurotada esa "non sindirdi" yoki "ro'molcha berdi" deb, shu hududda istiqomat qiladigan tojiklarda (bu yerda tojik millati vakillari ham qadimdan istiqomat qilib kelishadi) esa "safedgiri" (oqlik oldi) deb ataladi [6;30].

Folklorshunos A.-M.N.Mollayevning ta'kidlashicha, qo'miq xalqida qiz tomon o'z qarorini aytishga aslo shoshmaydi, obro'sini saqlaydi. Yigit tarafdin obruli, ishonchli kishi – "arachi" qiz tomonga yuboriladi. Uning vazifasi qizning ota-onasining bo'lajak kuyov taraf haqidagi fikrini bilishdir. Agar yaxshi fikr aytsalargina qiz tomonga "gilechi" sovchilar yuboriladi [8;8].

M.Murodova o'zbek nikoh to'ylari marosim folklorining lokal xususiyatlari haqida fikr yuritar ekan, "Samarqand viloyati tumanlarida sovchilarning ilk bor kelishi "eshik ochar" deyilsa, qayta-qayta qatnashi "kovush yirtar" deb yuritilgan. Paxtachi tumani Suluvqo'rg'on qishlog'ida sovchilarning ilk bor tashrif buyurishini "go'sala (ya'ni urg'ochi buzoq) izlab kelibdilar", "yitik (ya'ni yo'qotilgan narsa, kishi) axtarib kelibdilar" [7;12], deb ta'kidlaydi.

Sovchilik nikoh to'yi marosimining ibtidosi hisoblanib, bu borada qator tadqiqotlarda fikr-mulohazalar bildirilgan bo'lib, "sovchi" so'zining etimologiyasida yaxshilik, ezgulik, xushxabar yetkazish ma'nolari yotadi.

Sovchilik haqida buyuk turkshunos mutafakkir Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida "Sawchi – kelin va kuyov orasida bir-biriga xat-xabarlar eltuvchi" [14;168], "gazig'chi" – qudalar orasida xat-xabar tashib yuruvchi (sovchi – o'g'uzcha)" [14;63]deb ta'kidlangan. S.Ye.Malovning fikricha, savey Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarida "xabarchi", nanay tili dialektida savey "xabar bermoq, ma'lum qilmoq" ma'nolarini bildiradi [5;420]. Qolaversa, S.Ye.Malov *sapcy, savcy* so'zlarini *savey* so'zi bilan solishtirib qadimda "yetaklovchi, notiq" ma'nolarini anglatishini yozadi [5;418-420]. V.V.Radlovning fikricha, *cavchi* uyg'ur va chig'atoy tilida "payg'ambar" ma'nosini berishini ta'kidlaydi [9;431-432]. Aynan Mahmud Qoshg'ariy "saw" – ilgari xabarlar, yangiliklar yetkazuvchi. Shundan olib *naibi* – payg'ambarga

savchi deyiladi [14;168], deb fikr bildiradi. Demak, sharqshunos V.V.Radlov Mahmud Qoshg'ariy fikriga tayangan ko'rinadi. C.Ye.Malovning ta'kidlashicha, tarixiy so'z bo'lgan sovchi *sov* ildizidan olinib, -chi affiksi qo'shilgan. Qadimgi turkiy manbalarda qo'llanilgan *sav*, *sar*, *sav* so'zlarining ma'nosi "nutq, xabar, so'z, xabar bermoq" ma'nolarini anglatgan [5;420].

Qozoq olimasi R.Sizdikovaning fikricha "savchi"/"javchi" so'zining asosida turadigan "sav" elementi turkiy tillarda "so'z" ma'nosini bildiruvchi "soz/sau" o'zagiga bog'lanadi [10;77]. O'zbeklarda (javchi), qozoqlarda "jarchi" (yauchi, xalis adam), qirg'izlarda "jauchi", qoraqalpoqlarda "jausho'", turkmanlarda "guda", savchu" deb nomlangan [3;100].

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, sovchilik tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Qadimda urug' va qabilalar o'rtasida qiz uzatib, o'g'il uylantirish marosimlarida o'sha elu elatlarning bir-birlari bilan tinch, omon-omon ittifoq tuzishlarida ham sovchilar muhim vazifani bajargan bo'lsalar, ehtimol. Sovchining tanlanishiga katta e'tibor qaratilishi fikrimizni dalillaydi.

Sovchining tanlanishi. Qoraqalpog'istonning Elikqal'a, Buxoro viloyatining Romiton, Surxondaryoning Qo'mqo'rg'on, Qashqadaryoning Qamashi, Chiroqchi tumanlari va Samarqandning shahar tumanlarida, Bulung'ur, Nurobod tumanlarida, Xorazmning ayrim tumanlarida erkak kishi, Qashqadaryo viloyatining Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Samarqand viloyatining Urgut, Namangan viloyatining Norin, Toshkentning shahar tumanlarida, Jizzaxning Zomin, vodiyning deyarli barcha tumanlarida ayollar sovchilikka borishadi. Surxondaryoda sovchilikka bir nikohli, qo'sha qarigan, bama'ni qarindosh, mahalla oqsoqoli, kuragi yerga tegmagan polvon, ko'pkarida mohir uloqchi tanlanadi.

"Farg'ona vodiysi qipchoqlarida sovchilik qiluvchi shaxs oq va qizil ot mingan holda qiz yashaydigan xonadonga borgan. Sovchilar bu ezgu maqsadda hech qachon qora otdan foydalanmaganlar. Chunki qora otda borish ish bitmasligiga sabab bo'ladi, deb hisoblaganlar" [1;89 b.].

Qozoqlarda sovchilikka borayotgan kishi shimining bir poychasini etigi ustiga tushirib, ikkinchi poychasini esa etik ichiga tiqib olgan. Odatda kiyinish tartibining buzilishi borilayotgan xonadondagi tinchlikni buzish, ya'ni shu xonadon qizini kelin qilish uchun sovchi bo'lib kelishganiligini anglatgan [3;100]

"Qorategin va Darvoza tojiklarida sovchilarning tashrifi ma'qul bo'lsa, ularning qo'llariga iliq suv, agar aksi bo'lsa, sovuq suv quyib kuzatishgan [4;78].

"Qashqadaryo vohasining qipchoq, qutchi, chuyut urug'iga mansub etnik guruhlarda sovchilar qiznikidan qaytib kelishganda ularni "bo'rimi yoki tulkimi?" deb qarshi olishgan. Agar ular qiz tomonning roziligini olib qaytgan bo'lsalar "bo'ri", rad javolbi berilgan bo'lsa "tulki" deb javob qaytarilgan [11;42].

L.Xudoyqulova dissertatsiya ishida "Odatda, o'troq aholi o'rtasida qiz tanlash, ro'mol tashlash jarayonlarida ayollar faol ishtirok etishsa, bevosita sovchilikning o'zida erkaklar qatnashishgan. An'anaga ko'ra tanlangan qiz xonadoniga ayollarning "og'iz islash" uchun borishi "makiyon sovchi" deyilgan. Ayollar masalani hal qilib bo'lishgach, ya'ni qiz tomonning roziligi ma'lum bo'lgach, uch nafar erkak kishi – yoshi ulug', obru-e'tiborli, o'zidan tinib-tinchib ketgan kishilar sovchilikka yuborilgan" [12; 89]

Qo'loq tishlalar. Mamlakatimizning Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax viloyatlarining ayrim tumanlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida qadrdon oilalarda ikki jinsli go'dak dunyoga kelsa, bobo, buvilari, ota-onalari quda bo'lamiz, deb ahd paymon

qilishadi. Bu “beshik kerti”, yoki “quloq tishlalar” deb nomlanadi. Jizzaxning G’allaorol tumanida o’g’il chaloq tomondan ayollar dasturxonga non, qand qurs tugib boradi. Agar xonadon egalari chaqaloq yotgan beshik ustidan bu sochqilar sochilishiga ruxsat bersa, qudalikka rozili ekanliklarini bildiradi. Ilgari Qoraqalpog’istonda ham ota-onaning roziligi bilan chaqaloqlarga non sindirilgan. Axborotchimiz Ellikqal’a tumani Tozabog’ ovul fuqarolar yig’ini Oqtola ko’chasida yashovchi Raziya Yerekeyevaning bergan axborotiga ko’ra chaqaloqlarga non sindirish marosimi uchun o’g’il tomon qiz tomonga o’n, yigirma, o’ziga to’q oilalar o’ttiz jonliq, masalan, qo’y, echki, sigir, tuya, ot jo’natgan.

Qashqadaryo vohasi hududida istiqomat qilgan o’zbek qarlug’lar shevasida bu udum “beshik karda” deyiladi. O’g’il farzand ko’rgan ona qizaloq dunyoga kelgan oilani muborakbod etgani borganida ro’molchasi yoki ko’ylagining yengi bilan qiz tug’ilgan xonadon ostonasini supirgan” [13;140].

Tarixchi olim G.Tosheva o’z dissertatsiyasi ilovasida “Etak bog’latti” udumi haqida ma’lumot beradi. Olimaning yozishicha, “Etak bog’latti” (Koson, Qarshi) – o’g’il va qiz bolaning yoshlikdan o’zaro atashtirib qo’yilishi. O’zaro do’st va yaqin o’rtoqlar xonadonlarida o’g’il va qiz farzandlar dunyoga kelganda, ularning egnidagi kiyimining etaklarini bir-biriga bog’laganlar. Bu odat ular balog’atga yetganda o’zaro turmush qurishlari lozimligini ifoda etgan [11;175]. Olimaning ta’kidlashicha go’daklarning etak uchlari tugiladi va tugun o’rtada qoldirilib kesiladi. Ana shu tugun yoshlar balog’atga yetguncha saqlanadi [11;175].

Folklorshunos L.Xudoyqulovanning ta’kidlashicha “Surxon vohasining Denov tumanida bu odat etak yirtar deyilgan. Bola tug’ilganda kelin qilishni niyat qilgan oila qiz farzand tug’ilgan xonadonga kelib chaqaloqqa kiygizilgan ko’ylakning etagini irim qilib yirtib qo’ygan. O’sha qiz bola voyaga yetganda uning etagini yirtgan oila tomonidan el belgisi, deb nomlangan marosim o’tkazilgan [12;88].

Sovchilik jarayoni bilan bog’liq udum respublikamizda turlicha nomlar bilan ataladi. Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax viloyatining dasht hududlarida “jovchilik”, “kalish jirtar”, “eshik ochar”, Andijon viloyatida esa “eshik supurdi”, “ro’mol tashladi” deb yuritiladi.

Xulosa o’rnida ta’kidlash kerakki, sinov va sovchilik udumlarining ildizlari qadimgi davrlarga taqalib, ular ajdodlarimizning hayotiy tarjibasi, turmushdan chiqargan xulosalari bilan bog’liq ravishda paydo bo’lgan va shakllanib, rivojlanib borgan. Ularni davrlarga bo’lib tahlil qilish esa folklorshunoslikning galdagi vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – 274 б.
2. Жўраев М., Худойқулова Л. Маросимнома. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2008. – 165 б.
3. Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. – Ленинград: Наука, 1969. – 240 с.
4. Кисляков Н.А. Семья и брак у таджиков по материалам конца XIX – начало XX века. – Москва-Ленинград, 1959. – 269 с.
5. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – Москва: Наука, 1951. – 431 с.



6. Муродова М.Ш. Ўзбек никоҳ тўйи фольклорининг жанрлар таркиби ва бадиияти (Ўрта Зарафшон воҳаси материаллари асосида): фил.ф.бўйича фалсафа доктори дисс. – Тошкент: ЎзФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти, 2018. – 149 б.
7. Муродова М.Ш. Ўзбек никоҳ тўйи фольклорининг жанрлар таркиби ва бадиияти (Ўрта Зарафшон воҳаси материаллари асосида): филол.ф.б.фалса.докт.дисс.автореферати. – Тошкент: ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти, 2018. – 53 б.
8. Моллаев А.-М.Н. Свадебно-обрядовый фольклор кумыков и его сценическое воплощение: общенациональное и локально-специфическое: автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Махачкала: Ин-т яз., лит. и искусства им. Г.Цадасы, 2012. – 22 с.
9. Радлов В.В. Опыт словаря тюрских наречий. Т.3 Ч.1. – Петербург, 1905. – 1141 с.
10. Сыздыкова Р. Создер сойлейди. – Алматы: Санат, 1994. – 77 с.
11. Тошева Г.С. XX асрда Қашқадарё воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари: тарих фанлари номзод.дисс. – Тошкент: Тошкент: ЎзФА Тарих институти, 2002. – 136 б.
12. Худойкулова Л.А. Сурхондарё тўй маросим кўшиқлари: фил.ф.ном.дисс. – Тошкент: ЎзФА Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти, 2011. – 157 б.
13. Шаниязов К. Узбеки-карлуки. – Ташкент: Фан, 1964. – 161 с.
14. Қошғарий, Маҳмуд. Девону луғатит турк. Уч жилдлик. 3 жилд. / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1963. – 453 б.
15. Қорабоев У.Ҳ. Ўзбек халқи байрамлари. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 240 б.



JAHON TARJIMASHUNOSLIGIDA TARJIMA TUSHUNCHASIGA MUNOSABAT MASALASI

Sadiqova Salima Zohidovna
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
sadikovalima986@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada jahon tarjimashunosligida tarjima tushunchasining kelib chiqishi, unga boʻlgan munosabatlarning tadrijiy tarixi va bugungi kundagi holati masalasiga tavsifiy va tahliliy munosabat bildirilgan boʻlib, unda tarjimashunoslikning muhim muammosi mavjud adabiyotlar misolida tahlil etiladi

Kalit soʻzlar: Tarjima, tarjimashunoslik, qayta yaratish, tushuntirish, izohlash, sharhlash, tavsiflash

К ПРОБЛЕМЕ КОНЦЕПЦИИ ПЕРЕВОДА В МИРОВОМ ПЕРЕВОДЕ

Садикова Салима Зохиловна
докторант Наманганского государственного университета
sadikovalima986@gmail.com

ON PROBLEM TO THE CONCEPT OF TRANSLATION IN WORLD TRANSLATION

Sadikova Salima Zokhidovna
Doctoral student of Namangan State University
sadikovalima986@gmail.com

Аннотация: В статье представлен описательно-аналитический подход к вопросу о происхождении понятия перевода в мировом переводоведении, поэтапной истории отношения к нему и его современному состоянию, а также анализируется важная проблема переводоведения на примере существующей литературы.

Ключевые слова: Перевод, переводоведение, воссоздание, объяснение, интерпретация, описание

Abstract: The article presents a descriptive and analytical approach to the issue of the origin of the concept of translation in world translation studies, the gradual history of relations to it, and its current state, and an important problem of translation studies is analyzed on the example of existing literature.

Key words: Translation, translation studies, re-creation, explanation, interpretation, description

Kirish

Tarjima tushunchasining paydo boʻlish ibtidosi (boshlanishi) paytlarida mazkur masalaga soddagina tarzda qaralgan. Qadimgi Rim tarjimoni avvalo oʻz ona tillarini boyitish vositasi deb bilganlar. Bir necha asrlar davomida tarjima qilishda soʻzni soʻz bilan yoki maʼnoni maʼno bilan tarjima qilish muammolari diqqat markazda boʻlib, bunda aniqlik va erkinlik masalasi kun tartibiga qoʻyilgan. Odamlar turli tillarda gaplashishni boshlagan paytlaridan beri ogʻzaki (tilmochlik) va yozma tarjima turli millatlar oʻrtasidagi siyosiy va iqtisodiy, sayyohlik safarlari hamda turli hokimiyatlarni qoʻlga kiritishda, shuningdek, mazkur sohalarda yuzaga kelgan

falsafiy, ilmiy, adabiy va diniy tafovutlardagi lisoniy to'rsiqlarni engib o'tishga xizmat qilib kelgan.

Adabiyotlar tahlili

Germaniyada muntazam nashr etib kelinadigan "Der grosse Brockhaus" (Katta Brokxaus) qomusi) [1] da keltirilishicha, tarjima – bir tilda og'zaki yoki yozma shakldagi ifodaning boshqa tilga o'tkazishdir. Dunyoga mashhur ingliz tilida chop etiladigan "Encyclopaedia Britannica" (Britanika qomusi)da shunga o'xshabi ketadigan quyidagi fikrni bildiriladi:

"Translation, the act or process of rendering what is expressed in one language or set of symbols by means of another language or set of symbols" (tarjima – bir tildagi belgilar sistemasi vositasida ifodalangan jarayon natijasining boshqa tildagi belgilar sistemasi bilan qayta ifodalashdir).

Brokxaus qomusining keyingi nashrida bir qadar o'zgargan ta'rifni kuzatishimiz mumkin:

„Tarjima – bir tilda og'zaki yoki yozma ifodaning (asliyat tilida) boshqa bir tilga tarjimon tomonidan (og'zaki yoki yozma tarzda) o'tkazib berishdir. Bunda asliyatdagi ma'noning muayyan bo'lsada yo'qolishi sodir bo'lishi ham mumkin. Mazkur jihat tarjimonning asliyatdan olgan tasavvurlariga ko'ra aynan berishilishi yoki erkin ijodiy tarjimada (she'riy) qayta ifodalanishi ham sodir bo'ladi.“ – deyiladi [2].

Meyers Lexikon (Mayers lug'ati)da qayd etilishicha [3], - tarjima bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratish bo'lib, u og'zaki yoki yozma tildagi matnni boshqa tilga o'tkazish bilan kommunikativ muloqot hosil qilishning bir shaklidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada izohlash, tavsiflash, qiyosiy tahlil, chog'ishtirish kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi. Bunda, asosan, jahon tarjimashunoslik maktablari tajribalari va unda faoliyat ko'rsatgan olimlarning tadqiqotlariga munosabat bildirilib, ularning tarjima tushunchasiga nisbatan aytgan fikrlari tavsiflandi va turli mamlakatlardagi olimlarning qarashlari o'zaro solishtirildi.

Tahlillar va natijalar

Bugungi kunga kelib, zamonaviy Brokhaus qomusiy lug'atida shunday ta'rifni ko'ramiz [4]:

1. *Kompyuter lingvistikasi*: Tarjima bir tabiiy (asliyat tili) og'zaki yoki yozma til kompleksidan boshqa bir tilga kompyuter yordamida o'girishdan iborat jarayondir. Bunda asos e'tibori bilan avtomatik, mashinaviy yoki kompyuter yordamidagi tarjima amalga oshiriladi.

2. *Filologiya*: bir tildagi yozma matnni boshqa tilda qayta yaratishning shakli bo'lib, u muayyan ekvivalentlik (muqobillik)ni talab etadi. Bunda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish *interlingual* hodisa bo'lib, ayni paytda bir tilning ichida *intralingual* yoki *intersemiotik* (bir til ichidagi til belgilarining shu tilning o'tmishidagi til belgilari bilan almashtirish) sodir bo'ladi. Masalan, qadimgi nemis tilidan hozirgi nemis tiliga o'girish. Bunda lahja (dialekt)lararo tarjima ham amalga oshirilishi mumkin. Tarjimaning umumiy ma'nolari yoki unga yaqin bo'lgan tushunchalar sifatida interlinearlik, qayta ishlash, qayta yaratish (adabta'riya) yoki yangi matn yaratish kabilar ham qo'llaniladi.

Demak, tarjima tushunchasiga nisbatan "o'tkazish", "qayta yaratish", "qayta ijod qilish" yoki "kommunikatsiya shakli" kabi tavsiflar qo'llanilib, ular bir necha asrlardan beri davom etib kelmoqda.

Turkiy tillarning ilk yozma obidasi 1069 yilda yaratilgan **YUsuf Xos Hojib**ning “Qutadg’u bilig” [5] asarida ilk bor tilmaç (tilmoch) soʻzini uchratamiz. Mazkur soʻz aslida bundan ham qadimiyroqdir. Germaniyalik olim, professor F.Klugening “Nemis tilining etimologik lug’ati” da shahodat berishicha, nemis tilidagi Dolmetschen (ogʻzaki tarjima) soʻzining kelib chiqishi eramizdan avvalgi 2-asrga mansub mitan tilidagi talami coʻzidan olingan boʻlib, uning ibtidosi shimoliy Turkiya tilidagi tilmaç soʻziga borib taqaralar ekan. Uning maʼnosi turli tillarda gaplashuvchi ikki tomonni oʻzaro kelishtiruvchi vositachi kishi maʼnosini ifodalaydi. Olimaning taʼkidlashicha, ushbu soʻz magiar (venger) urugʻlaridan 13-asrlarga kelib, Oʻrta nemis tili lahjalariga kirib kelgan va tolmetische koʻrinishini olgan ekan [6]. Maʼlumki, nemis mutafakkiri Martin Lyuter “Injil”ni lotin tilidan nemis tiliga xalq tiliga yaqinlashtirib tarjima qilgan. Uning 1530 yilda yozilgan mashhur “Tilmochning maktublari” deb ataluvchi xatlarida ogʻzaki tarjimaning yozma ifodasi haqida fikr yuritiladi. Keyinchalik yana bir nemis olimi Fridrix SHlaermayer 1813 yilda tilmochlikdan farqli ravishda fan va sanʼat sohasida ham yozma tarjima mavjudligini qayd etadi [7]. Hozirgi nemis tilida Dolmetschen faqat ogʻzaki tarjimoni, Übersetzung esa, yozma tarjimoni anglatib kelmoqda [8].

Tarjima tushunchasining maʼnosi va uning jamiyatda tutgan oʻrni masalasida yunon-rim davri alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrni oʻrganishning ahamiyat shundaki, aynan shu paytlarda tarjima yaxlit ijtimoiy konceptiya sifatida shakllangan. Tarjimaga boʻlgan ana shunday munosabatning koʻp jihatlari bugungi kungacha ham saqlanib kelmoqda. Rimliklar tomonidan Yunonistonning egallanishi lotin tilining yanada boyishiga xizmat qildi. Antik davr tarjimonlari aslyat matnini tarjima oʻquvchisi qiziqishlaridan kelib chiqib, tarjimada turli oʻzgartirishlar qilishga jurʼat qildilar. Jumladan, aslyatni tarjima qilishda original matnga nisbatan muqobilroq tarjimoni amalga oshirish boʻyicha musobaqa tashkil qildilar, shuningdek, aslyatga tarjimada nimanidir qoʻshdilar yoki aksincha ixchamlashtirdilar hamda aslyat matnini bir qadar zamonaviylashtirdilar. Antik davrning klassik tarjimonlaridan eng mashhuri Цицерон boʻlgan. Uning tarjima konceptiyasida aslyat matnini shunchaki tarjimada maʼnoviy oʻgirib qoʻyishgina emas, balki tarjimon bir notiq sifatida oʻz tinglovchilariga taʼsir eta oladigan darajada tarjima qilishi kerak. U soʻzma-soʻzlikdan qochib, maʼnoni maʼno bilan qayta yaratishni talab qilgan. Цицеронning tarjimaga munosabatida avvalo falsafiy terminlarni tushunarli tarzda oʻgirishga ahamiyat qaratib, aslyatdagi atamalarni tarjimada aniq ifodalash uchun turli izoh va sharhlardan foydalangan [8].

Antik davr tarjima tamoyillariga quyidagi usullarni kiritish mumkin: 1. **Aslyatdagi soʻzni tarjimada unga muvofiq keladigan yangi neologizm bilan almashtirish**. Masalan, O.Voss tomonidan Homerning Odisseya asari tarjimasida asar qahramoni Nausikaa timsoli tasvirida yangi sifatlashlar kiritilgan. 2. **Aslyat maʼnosini qayta yaratishda yangi soʻzlar kiritish**. Masalan, yunon xudolari nomlaridan biri boʻlmish Epistachni lotincha Merkuriy bilan tarjima qilingan. 3. Yunon tilidagi ayrim ekzotizmlarni tarjima qilmay, **transkriptiyalash** holatida shundayligicha qoldirish. 4. Yoki koʻplab lotincha soʻzlar bilan **parafrazalash** (maʼnosini tushunarli tarzda qayta ifodalab chiqish).

Tarjima tafakkuri taraqqiyotida Injilni boshqa tillarga oʻzigirilishi sababli bir qator yangiliklar paydo boʻla boshladi. *Interlinear tarjima* tushunchasi shu bilan bogʻliqdir. Yaʼni, buning maʼnosi shundaki, oʻsha paytlarda muqaddas bu kitobni boshqa tillarga tarjima qilganda aniqlikning maksimal darajada talab etilishi boʻlgan. Yunon tarjimoni **Heronimus** (348-420) tarjima amaliyotidagi soʻzma-soʻzlikka qaytʼiy amal qilishni tanqid ostiga oldi. Ushbu tamoyilni

15-asrga kelib Evropada, aniqrog'i Germaniyada lotincha Injilni nemis tiliga o'g'irgan Martin Lyuter rivojlantirdi. Asliyatni tarjima tiliga o'ganganda tarjima matni uning o'quvchilariga tushunarli bo'lishi uchun, avvalo, xalq tiliga yaqin matn yaratilishi lozimligi ilk bora ta'kidlandi va tarjima amaliyotiga kiritildi. Bunday tamoyil Lyuter sababli *nemischalashtirilgan tarjima* degan nom oldi. Uning muallifi **Martin Lyuter** bu haqda shunday deydi:

“Tarjimon o'zga xalq matnini o'z tiliga o'girishdan avval o'sha xalq onalarining uyda qanday gaprishlari, bolalari ko'chalarda qanday so'zlashishlari, otalar bozorda va ish joylarida qanday muloqot qilishlarini bilib olishi, haqiqiy tilni ana shundardan o'rganish kerak va shundan keyingina tarjima bilan shug'ullanish lozim [9].”

Xulosa

Tarjimaning usul va metodlariga Evropada o'zgacha qarashlar paydo bo'lganligini alohida ta'kidlash kerak. Jumladan nemis va ingliz tilli tarjimaganoslik hududlarida tarjima mohiyatida asliyatdagi so'z ma'nosini qayta ifodalashda “erkin”lik yotib, uni tarjima tiliga mumkin qadar yaqinlashtirish bo'lib, uni keyinchalik *fuqarolashtirilgan tarjima* deyila boshlandi. Bunga qarama-qarshi tura oladigan yana bir tarjima tamoyili esa asliyatdagi so'zga “sodiq”likka asoslanib, uning nomi *xorijiyashtirilgan tarjima* deb atala boshlandi. SHundan keyin imkon qadar aniqlikka erishish uchun so'zma-so'zlikka amal qilish, ma'noni mukammal ifodalash uchun erkinlikdan foydalanish kerak, - degan umumiy xulosaga kelindi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Der grosse Brockhaus. 16. Auflage, Wiesbaden, 1957. Bd. XI, S. 714.
2. Macromedia. In English. London. 1973, vol. 10, p. 93.
3. Meyers Enzyklopädisches Lexikon, Mannheim/Wien/Zürich 1979, Bd 24, S. 76.
4. Brockhaus Enzyklopädie, 19 Auflage, Wiesbaden, 2005, Bd 22, S.542.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Hozirgi o'zbek tiliga tavsif va transkripsiya muallifi Q.Karimov. – Toshkent: Fan, 1971. 47 b.
6. Kluge F. Etimologisches Wörterbuch der deutschen Sprache, Berlin: Walter de Gruyter, 1975. S.137.
7. Schleiermacher Friedrich (1913). Über den verschiedenen Methoden des Übersetzens. In. Störig, 1969. S. 39.
8. Stolze Radegundis. Übersetzungstheorien. Eine Einführung. 6-Auflage, Narr Verlag, 2008.
9. Störig, Hans Joachim (1969). Das Problem Übersetzens. Darmstadt.Wissenschaftliche Buchgesellschaft.S.14-32.



TURIZM TERMINOLOGIYASINING PARADIGMATIKASIGA DOIR

Gavharoy Isroiljon qizi
ADCHTI, Ingliz tili o'qitishning integrallashgan
kursi kafedrası F.f.f.d.(PhD) dotsenti
gavharoy7575@mail.ru;

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm terminlarining paradigmatikasi haqida ilmiy tadqiqot natijalari yozilgan. Turizm terminlarining paradigmatik shakllanishidagi ilmiy qarashlar tahlil qilingan va misollar bilan dalillangan. Terminologik tizim uchun an'anaviy yo'nalishda u qaysi til terminologiyalarining shakllanishini, birinchi navbatda, tirik tilining zamonaviy terminologik massivlarini tuzishda ba'zi tarixiy jarayonlarning rolini ahamiyatli ekanligini alohida ta'kidlagan.

Kalit so'zlar: diaxron, turizm, termin, terminologiya, konseptual, ochiqlik, bo'linuvchilik, ierarxik, butun-bo'lak va jins-tur munosabatlar, substantsionallik, semantik, formal, pragmatik xususiyatlar.

ON THE PARADIGMATICS OF TOURISM TERMINOLOGY

Gavharoy Isroiljon kizi, (Ph.D) docent
ADCHTI, Department of the Course of
Integrated Skills in Teaching English
gavharoy7575@mail.ru;

Abstract: In this article, the results of scientific research on the paradigm of tourism terms are written. Scientific views on the paradigmatic formation of tourism terms are analyzed and proved with examples. In the traditional direction for the terminological system, he emphasized the importance of the formation of language terminologies, first of all, the role of some historical processes in the formation of modern terminological arrays of the living language.

Key words: diachronic, tourism, term, terminology, conceptual, openness, division, hierarchical whole-part and gender-type relations, substantiality, semantic, formal, pragmatic features.

О ПАРАДИГМАТИКЕ ТУРИСТСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Гавхарой Исроилжон кизи, (Ph.D) доцент
АГИИЯз, Кафедра интегрированное обучение английскому языку
gavharoy7575@mail.ru

Аннотация: В данной статье изложены результаты научного исследования парадигмы туристских терминов. Анализируются и обосновываются на примерах научные взгляды на парадигматическое формирование туристских терминов. В традиционном для терминосистемы направлении он подчеркивал важность формирования языковых терминологий,

прежде всего роль некоторых исторических процессов в формировании современных терминологических массивов живого языка.

Ключевые слова: диахрония, туризм, термин, терминология, концептуальность, открытость, деление, иерархичность. цело частные и родовые отношения, субстанциональность, семантические, формальные, прагматические признаки.

Kirish

Tilni o'rganishiga ilmiy yondashuvlarning eng umumiy tamoyillarini yodda tutadigan bo'lsak, butun majmua tilshunosdir. Tushunchalar, maktablar va tendentsiyalarni shartli ravishda 3 ta ilmiy paradigmaga qisqartirish mumkin. Ushbu paradigmalarning birinchisi, *genetik (yoki tarixiy, evolyutsion)* tarixiylik tamoyiliga asoslangan maktablar va tendentsiyalarni birlashtiradi va tilni butun voqelik kabi uning paydo bo'lishi va rivojlanishida, ya'ni vaqt o'tishi bilan qaytarib bo'lmaydigan, yo'nalishli o'zgarishida genetik rivojlanishga muvofiq tilning o'ziga xos qonuniyatlari va uning faoliyat ko'rsatish shartlari, ilmiy tarixning shakllanishini hisobga oladi. Tilda XIX-asrning birinchi choragiga, o'sha davrning falsafiy va umumiy ilmiy muhitiga qarzdor. O'shandan beri, tarix ichida paradigma bir qator yondashuvlarni o'zgartirdi; birinchisi: tarixning o'zi, til - ya'ni bugungi kunda faqat tilshunoslardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Paradigmalar asrimizning birinchi choragida o'z monopoliyasini yo'qotib, tilga yagona ilmiy yondashuv deb hisoblanadi. Tildagi tarixiylik tamoyili-II konkret-empirikga o'tgan davr tavsiflari, ham tabiat tarixi, ham madaniyat tarixiga taalluqli universal tushuntirish va tartiblash kategoriyasi sifatida ishlaydigan jarayonlar munosabati edi.

Ikkinchi tilshunos. *taksonomik paradigma (yoki - uning ichidagi yondashuvlarning almashinish tartibida - inventar, tizimli, so'ngra 20-asrning o'rtalaridan boshlab tizimli yoki tizimli)* o'z bayrog'i ostida o'sha olimlarni to'pladi, ular bilan birga. tilning evolyutsion jihati, ichki jihati tashkiliy jihati murakkab lisoniy yaxlitlik qurilmasi (vaqt omilidan abstraksiyada), lisoniy birliklarni aniqlash va guruhlash, ularning sistematikasi va tasnifi, bu birliklarni ajralmas butunlikka birlashtirish tizimi.

Uchinchi tadqiqot. Til tadqiqotlaridagi so'nggi o'n yilliklarda shakllangan *antropotsentrik (kommunikativ, funktsional, kommunikativ-pragmatik yoki oddiygina pragmatik) paradigma* faollik tamoyiliga asoslanadi va sub'ekt tomonidan tildan muvaffaqiyatli foydalanishni ta'minlaydigan omillarning ustuvorligini e'lon qiladi. aloqa. o'z maqsadlariga erishish uchun harakatlar.

Uchalasining har biri tilshunos nomi bilan atalgan. paradigmalar tilning predmet sohasi chegaralarini, til qismlari nisbatini tushunish uchun o'ziga xos yondashuvni taklif qiladi. hodisa murakkab va qarama-qarshi bir butun sifatida, ularning tilshunosning joylashuvidagi ahamiyati. bilim, o'zining mazmun-kontseptual apparatini, o'ziga xos tadqiqot usullari va tartiblarini ishlab chiqadi. Yo tarixchilik tamoyilini, yo tizimlilik tamoyilini, yoki tarix yo'nalishini aniq belgilab beruvchi faoliyat tamoyilini birinchi o'ringa olib chiqish. XIX-XX-asrlarda tilshunoslikning rivojlanishi bir tilshunosni almashtirish jarayoni emas. Paradigma boshqacha, ulardan birining paydo bo'lishi ikkinchisining yoki boshqalarning yo'qolishiga olib kelmaydi. Til hodisasiga qarashlarda faqat urg'uning o'zgarishi kuzatiladi, bu hodisaning evolyutsion, so'ngra tashkiliy, so'ngra funktsional tomonlari birinchi o'ringa chiqadi. Til voqeligining bu jihatlarini o'rganuvchi fanlar o'rtasida yangi aloqalar o'rnatilib, rivojlanib bormoqda.

Metod

Tadqiqot mavzusini yoritishda kognitiv, differentsial-semantik va komponent tahlil, shuningdek, kontseptual, chog'ishtirma, distributiv, transformatsion va lingvostatistik metodlar qo'llanilgan.

Baxs va mulohaza

TTST (turizm terminologiyasi system tahlili) da turizm terminlarini ham alohida semantik maydon sifatida o'rganilishi mumkin. Bu semantik maydon:

a) *ochiqlik belgisiga ega*, chunki zamona zayli bilan unda yangi terminlar paydo bo'lib, iste'molga yaroqsizlari chetga chiqib turadi;

b) *bo'linuvchilik xususiyatiga ega*;

v) *ierarxik munosabatda bo'ladi*;

g) *butun-bo'lak va jins-tur munosabatlari mavjud bo'ladi*;

d) *substantsionallikka ega*, ya'ni TT (TT-keyingi o'rinlarda turizm terminologiyasi yoki terminosistemi) terminlari semantik maydoni ham o'zida narsa va hodisalar, voqealar, shaxslar, ularga xos bo'lgan belgi-xususiyatlar bevosita kuzatishdagi so'zlar orqali reallashadi.

TT ga oid mavzuiy guruhni bir-biri bilan bog'liq bo'lgan to'rt kategoriyaga ajratish mumkin:

a) ob'yekt— TT nomlari va soha nomlari, masalan: Islamic buildings — Islomiy binolar, Turquoise dome — Turkiy gumbaz, Desert citadels — Cho'ldagi qo'rg'on (karvonsaroy)lar, Fortified palaces— Qal'a-saroylar, Ark (fortified citadel) — Ark, Shahrstan (inner city) — Shaxriston, Rabad (suburbs) — Rabot, Masjid (mosques) Masjid, Guzar (local mosque) — Guzar -mahalliy masjid (mahalliy aholi hordiq olish, savdo qilish yo boshqa ishlar bilan to'planadigan joy tushuniladi), Jami masjid (Friday mosque) — Jome' masjid, Medressas— Madrasa, Aivan (or aiwan; arched portals) — Ayvon kabi terminlar;

b) sub'yekt — jarayonni boshqaruvchi shaxs nomlari, masalan: *Day-visitor-same-day— kunlik tashrif buyuruvchilar, visitor-excursionist — ekskursant-mehmon, courier — kur'er, tour operator — turoperator, tour agent — turagent, guider — gid*;

v) funktsiya — jarayon nomlari; masalan: *entry requirements — mamlakat (hududiga)ga kirish talablari, proof of citizenship — fuqaroligini tasdiqlovchi hujjat, generating country — sayyoh yetishtirib beruvchi mamlakat, receiving country — sayyoh qabul qiluvchi mamlakat*;

r) vosita — narsa — qurol nomlari, masalan: *double bed — ikki kishilik krovat, single bed— bir kishilik o'rin (joy), triple room — uch kishilik xona, dish of the day — kunning mazsus taomi*.

TT ning terminologik maydonda tilshunoslikka oid bo'lgan barcha terminlar funktsional-semantik jihatdan birlashadi. Terminologik maydon umumiylik va xususiylik kriteriysiga ko'ra **umumiy terminologik maydoni** (muayyan bir fan sohasiga yoki kasb-hunarga oid bo'lgan, umumlashgan terminlar) va **xususiy terminologik maydoni** (muayyan kasb-hunar doirasidagina qo'llaniladigan, umumlashmagan, milliy terminlar) turlariga bo'linadi. Umumiy terminlarga xalqaro termin darajasiga ko'tarilgan *atom, volt, morfema, dizayn*, kabi terminlar kiradi. Xususiy termin maydonga faqat bir kasb-hunar doirasidagina qo'llaniladigan milliy terminlar kiradi, masalan o'zbek milliy hunarmandchiligi bo'yicha *zardo'st, kosib, duradgor, maxsido'st, pichoqchi, kulol* kabilar; milliy terminlar, masalan: *zarto'n, atlas, beqasam, adras, parnji, chachvon, yaktak, kamzul* kabilar termin maydondan tashqarida oddiy so'z sifatida faoliyat ko'rsatadi. TT orasidagi paradigmatic hamda sitagmatik munosabatlar quyidagicha belgilanadi.

Jadval 1. TT orasidagi paradigmatic hamda sitagmatik munosabatlar

Paradigmatik munosabatlar	Qaysi belgiga asoslanishiga ko'ra
Formal paradigma	Shakl belgisiga ko'ra o'xshashlik munosabati
Semali paradigma	Ma'no belgisiga ko'ra, uyadoshlik munosabati
Funksional (functional) paradigma	Vazifa bajarishiga ko'ra, vazifadoshlik munosabati
Struktural paradigma	Qurilish (tuzilish) belgisiga ko'ra, structural munosabatlar

Paradigmatik munosabat biror belgiga nisbatan belgilanadi va qaysi belgiga asoslanishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1) **Formal paradigma (shakl belgisiga ko'ra, o'xshashlik munosabati)**; Formal paradigmadagi shakl belgisi asosida o'xshashlik munosabati yuzaga keladi. Umumiy sema asosida yig'ilgan paradigma semal paradigmani tashkil qilib, unda uyadoshlik munosabati shakllanadi. Vazifa bajarishiga ko'ra bir xil belgiga ega bo'lgan terminlar funksional paradigmani hosil qiladi va unda vazifadoshlik munosabati namoyon bo'ladi. Arxitektura qurilish dizayni terminlari qurilish belgisiga ko'ra struktural paradigmaga birlashadi va ular struktural munosabatda bo'ladi. Masalan: Toq (or tak; covered crossroad bazaars), Mehrob- Mihrab, Hujra (cell-like living quarters for students and teachers), Xonaqo - Khanaka (prayer cells or entire buildings), Darsxona -Darskhana (lecture room), Mozor - Mazar (mausoleum), Zuyoratxona - Ziaratkhana (prayer room), Minora - Minarets, Go'rxona - Gurkhana (tomb) kabi leksemalarning bitta uyaga birlashtiruvchi umumiy ma'no arxitektura (me'morchilik)- bino qurilishi semasi bo'lsa, ular ichidan Islamic buildings – Islomiy binolar, Fortified palaces - Qal'a saroylar kabi leksik birliklar qurilish makoni umumiy ma'nosi ostiga birlashadi. Turquoise dome – Turkiy gumbaz, Desert citadels – Cho'ldagi qo'rg'on (karvonsaroy)lar, Fortified palaces— Qal'a-saroylar, Colored tilework – Rangli g'ishtinsozlik, Pishtak - Peshtoq, Ark (fortified citadel) – Ark, Shahrstan (inner city) – Shaxriston, Rabad (suburbs) – Rabot, Masjid (mosques) Masjid, Guzar (local mosque) – Guzar -mahalliy masjid (mahalliy aholi hordiq olish, savdo qilish yo boshqa ishlar bilan to'planadigan joy tushuniladi), Jami masjid (Friday mosque) – Jome' masjid, Medressas— Madrasa, Aivan (or aiwan; arched portals) – Ayvon kabi leksik vositalar esa, qurilish jarayoni natijasi umumiy ma'nosi ostida birlashadi.

2) **Semali paradigma (ma'no belgisiga ko'ra, uyadoshlik munosabati)**. Bu paradigmatik semadada bir butunning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'xshashlik belgilari tushuniladi. O'xshashlik belgilarini yuqorida aytib o'tilganidek, 3 turga bo'linadi:

1. **Semantik o'xshashlik** (ma'no jihatdan yaqin bo'lgan leksemalar) - *Animator, social director, cruise director, cruise officer, entertainments director, activities host(-ess)* terminlarining barchasi sayohat chog'ida ko'ngilochar dastur tuzuvchi mas'ul shaxslarni ifodalovchi terminlardir.

2. **Formal o'xshashlik** (tuzilishi jihatdan o'xshash bo'lgan leksemalar), *Day visitor, same-day visitor, excursionist* terminlari ostida ham inglizabon madaniyatlar vakillari bir xil shaxsni tushunishadi (bir kunda sayohatni yakunlab, oz yashash manziliga qaytadigan shaxs). Shu kabi, *sunbathing/sunbaking, tramping/trekking, thermal springs/hot springs, hotel industry/lodging industry, holiday insurance/travel insurance, urban tourism/city tourism, spouse fare/companion fare, dual-career families/two-income families, duplicate reservation/double booking, factory tourism/industrial tourism, departure tax/exit tax, all-expense tour/all-in tour, boarding pass/embarkation card, camper/caravan/recreational vehicle, layover/stopover, air hostess/flight attendant, baggage/luggage, flying boat/seaplane* va boshqa juft ko'plab so'zlar juftligi bir-biriga o'zaro tuzilishi va ma'nodoshligi bilan o'xshash hisoblanadi.

3. *Funksional o'xshashlik (vazifa bajarishiga ko'ra o'xshashlik)*, masalan: *turagent – turistlarni jalb etish, joylashtirish, rasmiy hujjatlar bilan ishlovchi shaxs; turoperator-turistlarga sayohatni tashkillashtiruvchi, ichki imkoniyatlarni yaratuvchi, jarayonni boshqaruvchi shaxs*, kabi vazifa bajarish nuqtai-nazaridan o'xshahs terminlarni oz ochiga oladi.

3) Funksional paradigma (vazifa bajarishiga ko'ra, vazifadoshlik munosabati); *turagent, turoperator, turistik menejment-* turistlarni qabul qiliuvchi va turistik jarayonni tashkil etuvchilar hisoblansa; *turistik tashkilot, turistik muassasa, turistik makon, turistik zona* kabilar turizmni, aynan amalga oshiruvchi makon sifatida namoyon bo'ladi.

4) Struktural paradigma (qurilish belgisiga ko'ra, struktural munosabat)

Struktural tuzilishiga ko'ra, terminlari munosabati quyidagi bir o'zakli: *tur, turizm, turagent, turoperator, turist, turbaza* kabi leksemalarida yaqqol ko'rinadi.

Natija

TTST ga oid terminlar sintagmatik munosabatlarining quyidagi turlari kuzatiladi:

a) *sub'ekt va predikat munosabati (predikativ)*, masalan: *turist* va *turizm* terminlari orqali sayohat qilish, dam olish, biznes rejani amalga oshirish, o'qish, davolanish, ziyorat qilish, sayr-piyoda, avtomobilda, poezdda, kemada, samolyotda v.h., sport musobaqasida qatnashish, biror turdagi o'simlik yetishtirish sirlarini o'rganish yoki o'rgatish, ekologik muvozanatni kuzatish, tahlil qilish kabilar tushuniladi;

b) *belgi va predmet munosabati (atributiv)*, masalan: *naqshinkor kubba, Turkiy gumbaz, nafis naqshli o'yma peshtoq, guldor do'ppi, o'tkir pichoq, jimjimador kashta, amirkon maxsi*, va hokozolar belgi bilan harakat munosabati (relyativ); M.Alievaning fikricha,[Aliyeva M.:2018,-b.35.] masalan: Atlas nomlarini sintagmatik munosabatda olganimizda, quyidagi ma'noviy maydon hosil bo'ladi: 1. Gazlama nomlari: *bargikaram, yahudiy, sakkiz tepki* kabi. Masalan: bir kiyimlik sakkiz tepki, bargikaram naqshi, gazlamani yirtmoq, atlasni ilintirmoq. 2. Shaxs nomlari: *to'quvchi, bo'yoqchi, rangrez, kudunglovchi, arqovlovchi* kabi. Masalan: *Usta to'qidi, rangrez bo'yadi*. 3. Jarayon nomlari: *bo'yash, to'qish, tekislash, quritish, oxorlash* kabi. Masalan: *gazlamalar quridi, adras tekislandi, mato oxorlandi*. 4. Narsa-qurol nomlari: *hovoncha, mis qozon, dastgoh, kudung* kabi. Masalan, gazlama kudung bilan tekislanadi, adras dastgohda to'qiladi. Ko'rinadiki, jarayon nomlari asosiy munosabat turlarini belgilovchi omil vazifasida kelar ekan. Masalan, to'quvchi to'qidi (shaxs nomi bilan), adras quridi (gazlama nomi bilan), kudungda tekislandi (narsa-qurol nomi bilan). Shaxs nomlari, narsa-qurol nomlari va gazlama nomlari bevosita jarayon nomlariga bog'lanadi.

z) *ob'yekt va harakat o'rtasidagi munosabat (ob'yektli)*, masalan: *Air carrier* yo'lovchi, pochta va yuk tashuvchi samalyotni ham, shu faoliyat bilan shug'ullanuvchi havo yo'li kompaniyasini ham ifodalab keladi. *Gangway* termin-leksemi qoshma so'z hisoblanib, tarkibiy komponentlaridan (so'zma-so'z tarjimai *bezorilar/to'da yo'li* ma'nolasi tushuniladi) quyidagi ma'nolar anglashiladi: 1) auditoriyadagi o'rindiqlar qatori orasidagi yo'lak; 2) yo'lovchilarni kema bortiga chiqarish/tushirishda qo'llanadigan qiyalik; 3) samolyotga yuklarni ortish/tushirishga imkon beradigan g'ildirakli zina kabi, biroq *Cabin* atamasi yuqori polisemantik ko'rsatkichga ega: 1) *yozgi uy (dacha) singari kichik, sodda boshpana*; 2) *sohil yoki hovuz bo'yidagi sodda xona yoki unga o'xshash tuzilma*; 3) *yopiq lift*; 4) *kemadagi tunash xonasi*; 5) *samolyotning yo'lovchilarga mo'ljallangan ichki hududi* kabi ifodalanadi.

Xulosa

Shuningdek biznes turizm (keyingi o'rinlarda - BT) yoki biznes sayohat turizmi doimo rasmiy va norasmiy sayohatlar orqali mamlakat ichida yoki mamlakat tashqarisiga; u davlatdan bu

davlatga amalga oshadigan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat. Turizm bo'yicha sayohatlar individual yoki jamoa bo'lib amalga oshiriladi, rasmiy sayohatlar ish joyidan sayohat harajatlari uchun to'lov qilinadi. Bu sohaning to'rtta qismi mavjud: mehmondo'stlik sanoati (mehmonxonalar, restoranlarni (Destination and Hospitality) o'z ichiga oladi):

- 1) *Oziq ovqat va ichimliklar (Gastronomik turizm (Gastronomic tourism)) – milliy va boshqa davlatlar ovqatlari va ichimliklari (food and beverages);*
- 2) *Sayohat va sayyohlik (travel and tourism);*
- 3) *Yashash joyi bilan ta'minlash (lodging, accommodation);*
- 4) *Rohatbaxsh dam olish usullari va sharoitlarini yaratish (recreation) kabi soha yonalishlari orqali mavzulashgan va yaqinlashgan ma'nolar uyg'unlashadi.*

Yuqorida ko'rib o'tilgan tadqiqot ishlari tahlilidan ma'lum bo'ladiki, turizm terminologiyasi jahon, o'zbek tilshunosligida ilmiy tadqiqot darajasida o'rganilgan. Turizm terminosistemasining shakllanish davrlari aniqlab chiqilgan.

O'zbek tilida turizm terminologiyasi ilk shakllanish bosqichida bo'lib, soha rivoji natijasida uning tarkibi yangi maxsus birliklar bilan boyib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar royhati:

1. Алиева М.О., Ўзбек миллий газлама дизайнерлик терминларининг семантик-грамматик тадқиқи, Автореф. дисс... (PhD) –Андижон, 2018 йил. – Б. 35.
2. Алексеева О.В. Когнитивные аспекты диахронического исследования терминологии строительных материалов: Автореф. Дис... канд. филол. наук. – М., 1994. – 22 с.
3. Бабушкин А.П., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика и семасиология. – Воронеж: ООО «Ритм», 2018. – 229 с.
4. Виноградова, Людмила Валерьевна, Терминология туризма английского и русского языков в синхронном и диахронном аспектах : автореферат дис. ... кандидата филологических наук : 10.02.19. –С 18.
5. Gavharoy Isroiljon qizi F.f.f.d. (PhD) dissert. "Binmes turizm terminlarining kognitiv ba lingvokulturiologik tadqiqi", 2022, - Namangan, 178b.
6. Володина М.Н. Когнитивно-информационная природа термина. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 2000. – 128 с.
7. Казарина С.Г. Типологические характеристики отраслевых терминологий. – Краснодар: Изд-во КубГМА, 1998. – 272 с.
8. Кутина Л.К. Языковые процессы, возникающие при становлении научных терминосистем // Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. – М., 1970. – С. 89-94.
9. Кияк Т. Р., Лингвистические аспекты терминоведения: Учеб. пособие; М-во высш. и сред. спец. образования УССР Учеб.-метод. каб. по высш. образованию, Черновиц. гос. ун-т. - Киев : УМКВО, 1999. - 103с.
10. Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. – Toshkent, 2011.
11. Рахимбердиев Б.Н. Эволюция семантики экономической терминологии русского языка в XX веке: Автореф. дис... канд. филол. наук. – М., 2003. – 24 с.
12. Шанский Н. М. «Лексикология современного русского языка» монография, МГУ, 1998,- Москва, 180с.



13. Шарафутдинова Н.С. Формирование отраслевой терминологии на базе логико-семантической категории субстанциальности: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ульяновск, 1999. – 20 с.

ONOMASTIKONLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Baxtiyorova Maftuna Baxtiyorovna
Toshkent, O'zbekiston
Gmail:maftunabakhtiyorovna.phd@gmail.com

Annotatsiya. So'nggi paytlarda tilshunoslikda til faqat muloqot vositasi sifatida emas, millatning madaniy ko'rsatgichi sifatida qaraluvchi tadqiqotlar juda ko'plab olib borilmoqda. Bu kabi tadqiqotlar xalq madaniyatining eng nozik qirralaalri uning o'ziga xos bo'lgan tilida namoyon bo'lishi to'g'risidagi tasavvurlarga asoslanadi. Bunday yondashuvlardan kelib chiqib, til nafaqat millatning zamonaviy mentaliteti, shuningdek, oldingi davr odamlarining dunyo, jamiyat, va o'zlari haqidagi fikrlarini ham tahlil etishni talab etadi. Maqolada badiiy asarlarda berilgan onomastikonlarning lingvomadaniy xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: lingvomadaniyatshunoslik, atoqli ot, badiiy onomastikon, konnotatsiya, madaniyat, realiya.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОНОМАСТИКОНОВ

Ташкент, Узбекистан
Gmail:maftunabakhtiyorovna.phd@gmail.com

Аннотация. В последнее время в лингвистике проводится множество исследований, которые рассматривают язык не только как средство общения, но и как культурный показатель нации. В основе подобных исследований лежит идея о том, что самые тонкие стороны культуры народа проявляются в его уникальном языке. На основе таких подходов язык требует анализа не только современного менталитета нации, но и мыслей людей предыдущей эпохи о мире, обществе и самих себе. В статье раскрываются лингвокультурные особенности ономастиконов, представленных в художественных произведениях.

Ключевые слова: лингвокультурология, имя собственное, художественная ономастика, коннотация, культура, реалии

LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS OF LITERARY ONOMASTICONS

Tashkent, Uzbekistan
Gmail:maftunabakhtiyorovna.phd@gmail.com

Abstract. Recently, many studies have been conducted in linguistics, which consider language not only as a means of communication, but as a cultural indicator of the nation. Such studies are based on the idea that the most subtle aspects of the people's culture are manifested in its unique language. Based on such approaches, language requires an analysis of not only the modern mentality of the nation, but also the

thoughts of the people of the past times about the world, society, and themselves. The article reveals the linguistic and cultural features of the onomasticons given in the literary works.

Key words: *linguaculturology, proper noun, literary onomasticon, connotation, culture, realia*

Kirish

Onomastik material juda katta madaniy salohiyatga ega bo'lishiga qaramay, onomastika lingvomadaniy aspektida yetarli darajada o'rganilmagan. E.L.Berezovich ta'kidlaganidek, atoqli otning madaniy va tarixiy qiymati haqidagi axborotni e'lon qilishning o'zi yetarli emas, balki onomastikondan madaniy va tarixiy ma'lumotlarni olish metodologiyasi, shuningdek, bu ma'lumotlarni tavsiflash va talqin qilish metodologiyasini ishlab ham chiqish kerak [1]. Ma'lumki, madaniyatlararo va tillararo muloqot uchun til qoidalarini o'rganish yetarli emas, boshqa xalq madaniyati haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, o'sha tilda so'zlashadigan odamlarning milliy va madaniy xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish kerak. Atoqli otlar ma'lum ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy doirada paydo bo'ladi. Lingvomadaniy nuqtai nazardan, haqiqiy hayotdagi va badiiy adabiyotdagi ismlar bir-biriga ma'lum darajada o'zaro ta'sir qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Adabiy personajni aniqlash uchun maxsus yaratilgan antroponimlar, xuddi J.Barri qalamiga mansub "Piter Pen" ertagi qahramoni Vendining nomi bilan sodir bo'lganidek, real hayotda foydalanishga o'tishi mumkin, va aksincha, haqiqiy onomastikon onimlari asarning xayoliy badiiy makonida ishlatilishi mumkin [2].

Bunday holda, antroponimlar matnning ma'lum bir madaniyat bilan bog'laydigan tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'ladi [Bertiy. 2003: 151]. Asardagi atoqli otlar milliylikni yaratishda ishtirok etadi, o'quvchiga hissiy va estetik ta'sir qiladi, uni boshqa, unga begona bo'lgan madaniy dunyoga jalb qiladi.

Antroponimlarni lingvomadaniy jihatdan o'rganganda, "madaniyat kategoriyalarida ma'noning denotativ yoki majoziy motivatsion jihatlarini talqin qilish" bo'lgan madaniy ma'noga alohida e'tibor qaratish lozim [3].

Tadqiqot metodologiyasi

Lingvomadaniyatshunoslik doirasida onimlar lingvokulturonimlar, ya'ni bevosita yoki bilvosita stilistik shaklda milliy madaniyat xususiyatlarini to'liq, yorqin va adekvat aks ettira oladigan lingvistik birliklar sifatida o'rganiladi. Onomastikon insoniyat jamiyatining lingvistik tizimining bir qismi bo'lganligi sababli, uni shakllantirishi va belgilashi, shu bilan turli madaniyatlarni bir-biridan ajratib ko'rsatishi mumkin. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, ismning shakli, ism shakllanadigan onomastik me'yorlar bizni u yoki bu antroponim qaysi madaniyatga tegishli ekanligini tushunishga undaydi [4].

Tahlillar va natijalar

Atoqli ot inson turli buyumlarni farqlaydigan va ularni nomlay boshlagan qadim davrlarda paydo bo'lgan. Bunda u yo farqlovchi xususiyatlari, yoxud atalayotgan buyumning vazifasi, yoxud ko'zga tashlanuvchi belgilari va boshqalarni ifodalashga harakat qilgan, boshqacha qilib bilan aytganda, nomlanayotgan so'zni qaysidir usul bilan ajratib ko'rsatishga harakat qilgan. So'zning ayni xususiyati umuman nominativ vazifani bajaruvchi ism sifatida atoqli otga nisbatan alohida dolzarblikka ega bo'ladi, chunki ular ixchamlashtirilgan ramziy shaklda ifodalangan predmet nomlanishi haqida ma'lumotni o'z ichiga oladi. Bundan kelib

chiqadiki, onimlarni lingvomadaniy ma'lumotni tashuvchi sifatida o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'z navbatida madaniyatdagi umumiy jarayonlarni va an'analarni aks ettiradi. Til birliklari sifatida onimlar quyidagi muhim funksiyalarni bajaradilar: nominativ, identifikatsiyalovchi va differentsiyalovchi. Aytib o'tilgan asosiy funksilardan tashqari olimlar quyidagi ikkinchi darajali funksiyalarni ham ajratib ko'rsatadilar; ijtimoiy, hissiy, kumulyativ, "qatorga kiritish" funksiyasi, ekspressiv, estetik, stilistik.

Lingvomadaniy jamoaning tili uning moddiy va ma'naviy madaniyati bilan birlashadi. Eng qadimgi mifologik tafakkur sinkretizm, ya'ni, obyekt va uning nomining birligi, bir-biridan ajralmasligi bilan xarakterlanadi. Birinchi (qadimiy) atoqli otlardan "tabiatan" nomlar (nomlash) sifatida foydalanilgan, ular faqat ma'lum bir mavzu bilan bog'liq edi: A.Gardiner terminologiyasida bu "mujassamlangan" xarakterga ega bo'lgan ismlardir. Toponimning geografik ma'nosi uning bevosita, majburiy ma'nosi hisoblanib, ushbu ma'nosiz toponimning o'zi ham bo'lishi mumkin emas.

Mumtoz ingliz adabiyotida personajning maqomi har doim ijtimoiy-tarixiy sharoit, ijtimoiy-madaniy vaziyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy va mulkiy holatining ko'rsatkichi sifatida o'rganilgan. Misol tariqasida, J.Apdaykning "Of the farm" (Ferma haqida) hikoyasini oladigan bo'lsak, "the stiffish Park Avenue couple"ning lakonik tavsifida oddiy va takabbur turmush qurgan juftlikning yuqori ijtimoiy mavqeiga ishora mavjud.

Toponimiya bilan bog'liq obro'-e'tibor belgisi o'zgaruvchidir: nufuzli manzil g'oyasi vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Agar XIX asr oxiri - XX asr boshlarida odamlarning "amerika orzusi" uchun sanoat shaharlariga bo'lgan istagi katta xarakterga ega bo'lgan bo'lsa (urbanizatsiya davrining bunday ijtimoiy holati, masalan, T.Drayzer tomonidan "Baxtiqaro Kerri" romanida tasvirlangan), XX asr o'rtalariga kelib vaziyat o'zgardi.

Badiiy (yoki estetik) onomastika, qoida tariqasida, atoqli otlarning shakllanishi va faoliyatining milliy an'alariga asoslanadi, bu o'quvchiga makon va zamon haqidagi ma'lumotlar (harakat joyi, vaqti, voqealar ishtirokchilarining ijtimoiy mavqei va boshqa ma'lumotlar)ni beradi, ma'lumki, makon va zamon tushunchalari lingvomadaniyatshunoslikning asosiy kategoriyalari hisoblanadi.

"Gapiruvchi" nomlar ramziy belgilarni ifodalash xususiyatiga egadir. Ramziylik belgisining til birliklariga tegishli ekanligi haqidagi fikr semiotika asoschilari Ch.Pirs va Ch.Morrislar tomonidan ilgari surilgan edi. Biroq, bu g'oyalar belgining erkinligi (tilning tizimlilik tabiati g'oyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan boshqa fundamental pozitsiya) haqidagi Sossyur pozitsiyasining dominantlik qilishi tufayli "unutilib" qoldi. Sh.Balli, Sossyurning "Umumiy tilshunoslik kursi" noshirlaridan biri, tilda belgining erkin faoliyat yuritish doirasini cheklash va motivatsion belgilar doirasini kengaytirishga intildi. Agar til yordamida odamlar nafaqat fikrlarni, balki muhokama qilinayotgan obyektga nisbatan his-tuyg'ularni, munosabatni ham ifoda etishsa, buning uchun ishlatiladigan so'zlarni "nomotivatsion", ya'ni ta'sir etish xususiyatidan xoli deb bo'lmaydi. Avvalo, bu majoziy ma'nolar, polisemiya kabi tushunchalarga taalluqli [5].

Onimik leksika har qanday tabiiy til lug'atining ajralmas qismi, tizimning kichik tizimchasi. Atoqli otlarning asosiy qismi tabiiy tilga tegishli bo'lib, ulardan faqat ba'zilar sun'iy yaratilish mahsulidir. Tabiiy nominatsiya obyektning xususiyatlarini o'z-o'zidan ko'rib chiqish, xalq tajribasiga asoslangan amaliy sinov, noma'lum mualliflik, bugungi kun nuqtai nazaridan nominatsiyaning jamoaviyligi bilan bog'liq. Sun'iy ravishda yaratilgan nomlar esa

to'g'ridan-to'g'ri hukmron mafkuraga bog'liq, uni aks ettiradi va ifodalaydi. Sun'iy ravishda yaratilgan nomlar onimlarning har qanday toifasida mavjud, ularning soni ko'p, masalan, astronomiya, germatonimiya, zoonimiya kabi sohalarda ular o'z tizimlarini yaratadilar. Sun'iy onimik lug'at guruhlarida lingvokulturologik shartlilik, ergonimlar hamda belgilar aniq va ravshan namoyon bo'ladi.

Xulosalar

Badiiy onomastikonlarning lingvomadaniy xususiyatlari haqida yuqorida aytilganlarga asoslanib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Xalqning madaniy va tarixiy tajribasini maksimal darajada o'zida mujassam etgan onomastikonlar kommunikativ kompetensiyani tashkil etuvchi kognitiv tuzilmalarda muhim o'rin tutadi.

Avvalo, o'zbek tilidagi nomlash tizimi lingvistik jihatdan o'ziga xosdir: boshqa ko'plab xalqlardan farqli o'laroq, u uch tarkibiy qismdan iborat – shaxs ismi, familiyasi va otasining ismi (Maftuna Baxtiyorovna Baxtiyorova, Ilhom Mahmudovich Karimov). Biroq, bu uch qismdan iborat shakl rasmiy bo'lib, faqat hujjatlar va bibliografiyada, ko'pincha qisqartma ko'rinishida, bosh harflar shaklida ishlatiladi (M.B. Baxtiyorova yoki Baxtiyorova M.B.).

Bundan tashqari, yuqorida aytib o'tilganidek, ko'pchilik (ayniqsa bolalikda) o'z laqablariga, san'at ahli esa taxalluslarga ega bo'ladilar. Bu nutq odob-axloqi doirasida, turli xil nutq vaziyatlarida (tanishlar, do'stlar, qarindoshlar, hamkasblar, bolalar, boshliqlar va boshqalarga murojaat qilishda – ya'ni rasmiy va norasmiy sharoitda) nomlashning murakkab tizimini yaratadi, bu madaniyati o'zgacha bo'lgan ba'zi xorijiy mamlakatlardan keskin farq qiladi. O'zbek tili va o'zbek madaniyatiga rus tilidan kirib kelgan kattalarni ismi va otasining ismi bilan nomlash, chet elliklar uchun noodatiy holdir va "otasining ismi" tushunchasining o'zi ko'plab madaniyatlarga begona.

Ismlar, ma'lum guruhlardan tashqari, individual, ya'ni, faqat ularning o'ziga xos bo'lgan ma'lumotlarga ham ega (konnotatsiya). Shaxsiy ma'lumotlar odatda lingvistik bo'lmagan xususiyatga ega (foydalanish amaliyoti, tarixi, ona tilida so'zlashuvchilar bilan aloqasi va boshqalar tufayli) va ism yoki familiyaning leksik foniga bevosita bog'liq. Ularning milliy va madaniy o'ziga xosligi quyidagilarga bog'liq:

A) maqollar, matallar, aforizmlarda foydalanishiga ko'ra: (Ali desang, Vali deydi; Sulaymon o'lib, devlar qutuldi);

B) xalq ertaklarida qo'llanilishiga ko'ra (*Zumrad, Qimmat*);

C) badiiy adabiyotda qo'llanilishiga ko'ra-mashhur personajlarning pretsedent nomlari (*Farhod, Shirin, Otabek, Kumush*);

D) tarixiy shaxslar nomlari bilan uyg'unligiga ko'ra: (*Iskandar, Temur, Naqshband*) va boshqalar, shoirlarning nomlari (*Furqat, Mahzuna, Bobir*), va hokazo.

2. Onomastik leksika shifrlanadigan va tavsiflanadigan belgilar va ramzlardan iborat. Onomastik hudud til va madaniyat tizimining muhim elementi bo'lib, etnosning milliy madaniyatini tushunishga yordam beradi.

3. Onomastik birliklar pretsedent hodisalarning muhim tarkibiy qismidir. Pretsedent onimlar lingvistik va madaniy hamjihatlikda muayyan vaziyatlar va fazilatlar to'g'risida shakllangan tipik g'oyalarni o'zida mujassam etgan va ona tilida so'zlashuvchilarning ekstralingvistik bilimlariga murojaat qilishga xizmat qiladi.



5. Onomastik leksikaning murakkab va ko'pqirrali tizimi tadqiqotchilarga uni denotativ mansublik (antroponimiya, toponimiya, ergonimiya va boshqalar) nuqtai nazaridan ajratish qanchalik zarur bo'lsa, foydalanish sohalari (real, estetik va boshqalar) bo'yicha ham ajratish shunchalik zarurligini taqozo qiladi.

6. Onomastik leksika tabiiy ravishda realiyalarga tegishlidir (ekvivalenti bo'lmagan leksika). Tarjima tilida allyuziv realiyalarni uzatishda, ushbu nomlarda mavjud bo'lgan birliklarning manbai tarjima qiluvchi uchun ma'lum bo'lishi juda muhimdir.

7. Antroponimlar badiiy matndagi ijtimoiy-madaniy va pragmatik ma'lumotlarni kodlaydi. Badiiy matndagi atoqli ot matn ichidagi va matnlararo onimlar tabiatining nutqni to'plash qobiliyati tufayli ulkan konnotativ va ekspressiv salohiyatini amalga oshiradi.

8. Badiiy onomastika milliy onomastikaning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va shu bilan birga unga teskari ta'sir ko'rsatishi ham mumkin, bu onomastik birliklar pragmatik tarkibining murakkab tizimini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Березович Е. Л. Язык и традиционная культура: этнолингвистические исследования. – Москва: Индрик, 2007. – 599 с.
2. Butler J.O. Name, Place and Emotional Space: Themed Semantics in Literary Onomastic Research. PhD thesis. – Glasgow, 2013. – 243 p.
3. Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – Москва: Флинта –Наука, 2007. – 296
4. Суперанская А. В. Теория и методика ономастических исследований. – Изд. 3-е. – Москва: ЛИБРОКОМ, 2009. – 365 с.
5. Gardiner A.H. The theory of proper names. – Oxford University press, 1957. – 78 p.



INGLIZ VA O'ZBEK TOPISHMOQLAR MAKROMAYDONINIG KLASSIFIKATSIYASI

Abdujabborova Shohista Adiljonovna, Andijon Davlat Chet tillar Instituti

Ingliz tili amaliyoti kafedrası o'qituvchisi

Email: abdujabborovashohista645@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek tilshunosligida topishmoqlarning turli mezonlarga asosan klassifikatsiyalanishi, uning sintaktik strukturasi ko'ra tasnifi haqida so'z yuritiladi. Xususan, topishmoqlarda gaplarning struktural-semantik munosabatlariga ko'ra turlarini shakliy va mazmuniy paradigmlarini belgilash yorqin misollar orqali izohlanadi. Ushbu planda chog'ishtirilayotgan tillar o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarini ochib berish xalq topishmoqlari misollari kesimida yoritiladi.

Kalit so'zlar: topishmoq, makromaydon, klassifikatsiya, sintaktik-struktura, metaforizatsiya, kommunikativ maqsad, soddá sentensema, qo'shma sentensema, tekstema, konstruksiyasi, paradigma.

CLASSIFICATION OF THE MACROFIELD OF ENGLISH AND UZBEK RIDDLES

Abstract. The article discusses the classification of riddles based on different criteria in English and Uzbek linguistics, and their classification according to their syntactic structure. In particular, the definition of formal and substantive paradigms of the types of sentences according to their structural-semantic relations in riddles is explained through vivid examples. In this plan, revealing the similarities and differences between the different languages will be covered in the section on examples of folk riddles.

Keywords: riddle, macrofield, classification, syntactic structure, metaphorization, communicative purpose, simple sentence, compound sentence, textme, construction, paradigm.

Kirish

Ingliz va o'zbek xalq topishmoqlarining struktural-semantik hamda sintaktik xususiyatlarini tadqiq qilish adabiy til va xalq tilining ayrim hodisalaridagi izomorfik va allomorfik jihatlari haqida to'liq tasavvurni yuzaga kelishida tirkak vazifasini o'taydi. Topishmoq eng arxaik folklor va adabiy janrlardan biridir. Topishmoqning maqsadi adresatning zukkoligi va mantiqiy-fikrlashini sinashdan iborat. Jumboqning javobini izlash jarayoni aqliy faoliyatni faollashtiradi, majoziy va assotsiativ parallelliklarni qurish qobiliyatini shakllantiradi, moddiy dunyoning turli ob'ektlari va voqeliklarini taqqoslash, ular orasidagi o'xshashlik va farqlarni ajratib ko'rsatish qobiliyatini rivojlantiradi [9, 290].

Tadqiqot metodologiyasi

Ingliz tilida metaforizatsiyaning leksik-semantik holati yuzaga keladigan topishmoqlar talaygina. Bu topishmoqlarda ba'zi leksik bo'laklar semantik siljish/o'zlashtirishga uchraydi va shu orqali yashirin ma'nolarni paydo qiladi. Ularning ma'nolari nihoyatda chuqur mulohaza talab, keng fikrlashga yo'naltiruvchi, kuchli semalardan tashkil topgan denotatlar yig'indisi bo'lishi mumkin. Ma'no kompozitsiyasi aniq bo'lmasligi tabiiy. Buning o'rniga, ular topishmoqning so'z va uning referenti o'rtasidagi munosabatni o'rnatish qobiliyatini sinashga undaydi:

Seven brothers

Five work all day

the other two

just play and pray. What are the names of the brothers?

Answer: The days of the week. Monday, Tuesday, Wednesday, Thursday, Friday; the work days. Saturday; play. Sunday; pray

Yetti aka-uka

Beshtasi kun bo'yi ishlaydi

qolgan ikkitasi

faqat o'ynaydi va ibodat qiladi. Aka-ukalarning ismlari nima?

Javob: *Haftaning kunlari. Dushanba, Seshanba, Chorshanba, Payshanba, Juma; ish kunlari. Shanba; o'ynaydi. Yakshanba; ibodat qiladi.*

Mazkur topishmoqda *Haftaning kunlari* tasvirlangan bo'lib, obrazli metafora orqali topishmoqning yashirin denotati qo'llanilgan. Topishmoqda *seven brothers* obrazli real denotat yetti xafta kunlariga ishora qiladi. *Five work all* xaftaning asosiy ish kunlariga ikki yoqlama aloqadorlikni ta'minlaydi. *The other two*

just play and pray esa yashirin topilishi kerak bo'lgan javobga eng yaqin bo'lgan semantik ma'no doirasini tashkillashtiradi hamda *Shanba* va *Yakshanba* dam olish kunlari ekanligiga yashirin holda bilvosita turtki beradi.

Muhokama va natijalar

Topishmoqlar chuqur tahlil va cheksizlik makromaydonni qamrab olishini inobatga olgan holda izlanuvchilar ko'p hollarda uning bir tomonlama yo'nalishi va klassifikatsiyasi asosida tadqiq olib boradilar. Masalan, X.Abdurahmonov topishmoqlarning sintaktik xususiyatlarini topishmoqdagi quyidagi masalalar orqali kuzatgan [1, 5]: 1) atov gap 2) gapning kesim birliklari 3) partselyatsion birliklar 4) izohlovchi konstruksiyali gaplar 5) sintagma 6) gap bo'laklarining ifodalanishi 7) sintaktik parallelizm.

M.Saparniyazova esa topishmoqlarda gaplarning struktural hamda semantik munosabatlariga ko'ra ularning sodda va qo'shma gap shakllariga e'tiborini qaratgan [8, 124]. J.Abdullayev topishmoqlarning leksik xususiyatlarini *besht* turga ajratadi: xalq topishmoqlari leksikasining iste'mol doirasiga ko'ra tavsifi, leksik qatlamlar bo'yicha tavsifi, xalq topishmoqlari leksikasi va jonli xalq tili leksikasining o'zaro munosabati, topishmoqlarning shakl va ma'no miqdoriga ko'ra tavsifi, topishmoqlarning semantik-tematik tavsifi [2, 116]. S.Kondrasheva topishmoqlarning tematik guruhini oydinlashtiradi hamda *to'rtta* asosiy mavzuni aniqlaydi [4, 7]: 1) Tabiat 2) Kundalik hayot 3) Harbiy ishlar 4) Ma'naviy hayot.

N.Fayzulinna rus, tatar va ingliz topishmoqlarining sintaktik xususiyatlarini *uch* xil (sodda, qo'shma va murakkab komponent) ko'rinishda izohlaydi va ingliz xalq topishmoqlari korpusida eng unumli model bu - bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gap bo'lib, ingliz tilidagi yordamchi so'zlar (*yet, still*) konstruksiyasining muvofiqligi bilan bog'liq ekanligini e'tirof etadi [10, 38].

I.E.Olaosun va J.O.Faley ingliz topishmoqlarining kognitiv-semantik mohiyati to'g'risida fikr yuritadilar hamda topishmoqning *to'rt* yetakchi maydonlari - *Mantiqiy semantik maydon* (*Logical Semantic Space*), *Metaforik maydon* (*Metaphorical Space*), *Shaxsiy tajriba maydoni* (*Personal Experiential Space*), *Lingvistik makon* (*Linguistic Space*) bilan uzviy aloqadorlikni tekshiradilar [5, 65].

Tushuniladiki, topishmoqlarni tasniflash turli mezonlarga asoslanadi, uning turlari nihoyatda katta maydon (makromaydon) ni tashkil etadi hamda ularning bari «topishmoq» deb atalmish soyabon ostida birlashadi. Bizning izlanishlarimiz natijasi o'laroq ular quyidagilar:

➤ sintaktik struktura

- kommunikativ maqsad
- kognitiv-pragmatik jihat
- stilistik xususiyat
- leksik xususiyat
- illyustrativ-obrazli tur
- semantik-tematik qiyofa
- topishmoqning javob turi



1-rasm. Topishmoqni turli mezonlarga asosan klassifikatsiyalanishi

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, topishmoq yakdil nutq turi bo'lib, unda konseptual uyg'unlik mavjud. Topishmoqning klassifikatsiya makromaydonining tuzilishi nihoyatda keng majmuaviy kategoriyani tashkil etadi va unda sintaktik, stilistik, struktur-semantik, konitiv-pragmatik, kommunikativ va h.z. yadrolarga eka eganligi bilan ajralib turadi. Topishmoqni eng ustun tomoni inson uchun muhim bo'lgan aql sistemasini charxlab turishi va uni lisonda yuzaga chiqarib bera oladigan kognitiv lingvistik g'oyalarni aks ettirishidir. Boshqa tomonlama esa, topishmoqlar o'zlarining rang-barang qiyofasi bilan insonga kulgi, zavq, ko'tarinki kayfiyat va mantiqiy fikrlashga motivatsiya bera olishi mumkin bo'lgan olam, deyishimiz mumkin.

Ingliz topishmoqlarini tuzilishi nuqtai nazaridan A.A.Rijenkova va Ye.R.Zaxarevich ularni *uch* turkumga ajratadi [6, 37]:

1. Sodda gap shakliga ega bo'lgan topishmoqlar (eng ko'p tarqalgan turkum), 2. Murakkab gap shaklidagi topishmoqlar 3. Matn shakliga ega bo'lgan topishmoqlar.

Saitbaeva M.N.ning xalq topishmoqlarining sintaktik xususiyatlarini tahliliga ko'ra, o'zbek topishmoqlari turli gap konstruksiyalarini: sodda gap – monopredikativ konstruksiyalar, qo'shma gap – polipredikativ konstruksiyalarni namoyon etadi [7, 8]. O'zbek xalq topishmoqlari doirasidagi qo'shma gaplar ma'lum bir monotonlik bilan ajralib turadi - bular ko'pincha bog'lovchisiz konstruksiyalar bo'lib, ularda ot-kesimning tabiatiga qarab, turli xil ma'nolar ifodalanadi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2881 ta o'zbek xalq topishmoqlarining 929 tasi ot-kesim bilan tuzilgan konstruksiyalar bilan ifodalangan. Bu shuni anglatadiki, 96 % hollarda o'zbek xalq topishmoqlar ot-kesimli bog'lovchisiz konstruksiyalar bilan ifodalanadi, bu konstruksiyalarning aksariyati kesimda ifodalangan predikativ affiksli klishe konstruksiyalar bo'lib, ularning nominal qismi esa so'roq olmoshi bilan qo'llaniladi. Eng faol ot-kesimli topishmoqlar orasida kesimi *bor* va *yo'q* so'zlari bilan ifodalangan topishmoqlardir [7, 8].

A. Ziyaev til birliklariga o'zgacha yondashgan holda quyidagi munosabatni bildiradi: Turli tizimdagi zamonaviy ingliz, o'zbek va rus tillarida deintensifikatsiya kontseptual makrosemantikasini ifodalovchi, ya'ni voqealantiruvchi til sathlarining birliklari qiyosiy-tipologik taxlili asosida shu narsa aniqlandiki, mazkur kontseptual semantika til birliklarining quyidagi invariant turlari orqali tizimli asnodda ifodalangan ekan: 1) fonema (to'g'rirog'i, morfofonema); 2) morfema; 3) leksema; 4) sintaksema: a) frazema; b) sentencema); 5) frazeoema; 6) tekstema (diskursema) [3, 95].

Prof. G'.M.Hoshimov gapni sentencema deya ta'riflaydi: "Gap bir yoki undan ortiq ega – kesimli tarkibga ega bo'lgan sintaktik birlik bo'lib, u ma'lum voqelikni o'zida aks ettiradi" [11, 80]. Senteseimalarni (gaplarni) shartli ravishda quyidagi turlarga bo'lamiz: *sodda sentencema va qo'shma sentencema*: a) Sodda sentencema (gap). Aniq bir fikrni ifodalab, bitta ega-kesimlik munosabatidan tashkil topgan gap *sodda gap* deyiladi. Misol uchun, o'zbek tilida: *Chiroyli rasmni juda qimmat narxga sotib oldi*. Ingliz tilida: *She bought a beautiful picture in very high price*. b) Qo'shma sentencema(gap). Ikki yoki undan ortiq ega-kesimlik munosabatiga ega bo'lgan gapni *qo'shma gap* deyiladi. Misol uchun, ingliz tilida: *If it was only the other way! If it was I who were to be always young, and the picture that were to grow old!* O'zbek tilida: *Qani edi, biror boshqa yo'l bo'lsa! Qaniydi men har doim yosh bo'lsam-u, o'rnimga rasm keksaysa*.

Shu jihatdan, bizningcha, topishmoqlarning 1) sintaktik strukturasi *to'rt* xil bo'lib, ularning har bir turiga xos shakliy va mazmuniy paradigmalarni belgilash chog'ishtirilayotgan tillar o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarini ochib beradi:

1. Sodda sentencema bilan ifodalangan topishmoqlar;
2. Qo'shma sentencema bilan ifodalangan topishmoqlar;
3. Aralash qo'shma sentencema bilan ifodalangan topishmoqlar;
4. Tekstema bilan ifodalangan topishmoqlar.

2 - rasm. Topishmoqlarning sintaktik strukturasi ko'ra tasnifi

Sodda sentensemali topishmoqlar (SST)	Qo'shma sentensemali topishmoqlar (QST)	Aralash qo'shma sentensemali topishmoqlar (AQST)
<p>Ingliz tilida:</p> <p><i>What has a bottom at the top?</i> (Your legs)</p> <p>O'zbek tilida:</p> <p><i>Ikki og'ayni bir-birini ko'rmaydi.</i> (Ko'z)</p>	<p>Ingliz tilida:</p> <p><i>What has many keys but can never open a lock?</i> (A piano)</p> <p>O'zbek tilida:</p> <p><i>Onalari tokchadan tushsa, bolalari yugurib keladi.</i> (Choynak, piyola)</p>	<p>Ingliz tilida:</p> <p><i>If you've got it, you'll want to share it but once you've shared it, you haven't kept it. What is it?</i> (A secret)</p> <p>O'zbek tilida:</p> <p><i>Suv desam, suv emas, Shildiraydi bir narsa. O't desam, o't emas, Yiltiraydi bir narsa. Boshiga bo'rkini olib, Bo'rkillaydi bir narsa.</i> (Samovar)</p>
Tekstemali topishmoqlar (TT)		
<p>Ingliz tilida:</p> <p><i>Sometimes it glitters, but often not; May be cold, or may be hot! Ever changing though the eye can't measure, concealed within are many treasures. Some find safety beneath its gate, while some may die beneath its weight! Old and broken, it brings forth life.</i> (Rock)</p>	<p>O'zbek tilida:</p> <p><i>Chiroq tubi yiltiroq, Uning ham oti bog'lon qiz. Qamish boshi qaltiroq, Uning ham oti bog'lon qiz. Suv ichida birqilloq, Uning ham oti bog'lon qiz. Qora yog'och putoqsiz. Uning ham oti bog'lon qiz. Bovlon qo'zi suyaksiz, Uning ham oti bog'lon qiz.</i> (Yashin, nayza, qurbaqa, soch, ona siynasi)</p>	

Xalq topishmoqlari orasida *sodda yoyiq sentensemali topishmoqlar* konstruksiyasi ham mavjud. Bunda gapning ikkinchi darajali bo'laklari yordamida topishmoq javobi haqidagi tegishli ma'lumotlarni topishmoq matnida berilishi natijasida topishmoq topuvchiga qo'shimcha axborot, javob uchun esa qo'shimcha denotatlarning sinonimik, antonimik, polisemik shakllarini to'ldirib kelish uchun imkoniyat bo'ladi, deb izohlashimiz mumkin. Misol uchun:

Bir supada besh bola. (Qo'l, barmoqlar)
Sandiq to'la oq sadaf. (Og'iz, tish)



Ko'k kosani to'ntardim. (Osmon)
Ko'k ko'ylakka g'o'za yoydim. (Osmon, yulduzlar)
Uzoq tog'da o't yonar. (Quyosh)
Oqqina tovuq xirmon sochar. (Qor)
Qo'lsiz, oyoqsiz gul soladi. (Sovuq, deraza qirovi)
Ariqdan oyna oldim. (Muz)

Ko'rinib turganidek, yuqoridagi har bir topishmoqda javobga tegishli qo'shimcha ma'lumotlar berilmoqda. Jumboqlanayotgan predmetning sifatlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi bir necha sintaktik birliklari axborotni to'g'ri tushunilishi uchun ko'makchi vazifasini o'tamoqda. *Uy ichida qizil go'sht. (Til)*. Bu topishmoqda *uy* leksemasi *og'iz* ni ifodalaydi, *qizil* rang sifatlanmish tipidagi birlik *tilning* birlamchi ma'lumotlaridan birini beradi, *go'sht tilga* nisbatan metaforani qo'llanilganligini unda ham *tilga* yaqin bo'lgan o'xshashliklar mavjudligini kuzatish mumkin.

Ingliz tilida misollar:

<i>I'm a source of night in the sky.</i>	<i>Answer: The moon.</i>
<i>What is the longest word in the dictionary?</i>	<i>Answer: Smiles.</i>
<i>How many seconds are there in one year?</i>	<i>Answer: 12</i>
<i>Teddy bears are never hungry. Why?</i>	<i>Answer: Because they're always stuffed!</i>
<i>What has a bottom at its top?</i>	<i>Answer: A leg.</i>
<i>What building has the most stories?</i>	<i>Answer: The library</i>
<i>I sit between the eyes and the mouth. What am I?</i>	<i>Answer: Nose.</i>
<i>Which letter of alphabet has more water?</i>	<i>Answer: C</i>
<i>How many sides does the circle have?</i>	<i>Answer: It doesn't have any sides</i>

Ko'rib turganimizdek, *I'm a source of night in the sky* topishmog'ida *oy* haqida birlamchi hamda ikkilamchi ma'lumotlar yaqqol seziladi. *Moon* o'rnida *I* birinchi shaxsni ifodalanishi, *night* birinchi mazmuniy signal so'zligi, ya'ni tunda oy hukmronlik qilishi hammaga ma'lum, *in the sky* ham hol vaziyatidagi deskripsiya, bunda o'ying joyi osmonda ekanligi barchaga tanish holat bo'lib jumboqlanayotgan predmet haqida to'g'ri tushunilishi uchun bir qancha belgilar yordamida aniq vaziyatni ko'rsatish mumkin. *Source* esa aynan ikkinchi darajali, jumboqlanayotgan predmetga ishora qiluvchi, o'zida tunning manbasi sifatida qo'llanilgan pozitsiyani qamrab oluvchi metaforik atamadir.

Xulosa

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek tilida topishmoqlarning sodda sentensema konstruksiyasi nihoyatda keng va faol topishmoqlar shaklini o'zida mujassam etsa, ingliz tilida bu qurilish nisbatan kam uchraydi. O'zbek tilida uning yoyiq tipik shakllari, ya'ni to'ldiruvchi, aniqlovchi, o'rin holi gap bo'laklarining qo'llanish imkoniyatlari keng bo'lib, asosan o'rin holi + ega + kesim qolipi ko'p kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов Х. Содда гап синтаксиси хусусиятларини ўрганишга доир. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – 200 б.
2. Абдуллаев Ж.Х. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди дис. - Т., 1994. – 114 б.
3. Ziyaev A. Turli Tizimli Tillarda "Deintensifikatsiya" Kontseptual Semantikasi Verbalizatorlarining Kognitiv Tipologiyasi // Samarqand ilmiy axborotnomasi. Filologiya 2018-yil, 4-son. – B. 95.



4. Кондрашева С.С. Языковая картина мира в английской загадке: автореф. дис. к. филол. н. – Волгоград, 2017. – 20 с.
5. Olauson I.E., Faleye J.O. A Cognitive Semantic Study of Some English Riddles and Their Answers in Amidst a Tangled Web // Asian Journal of Social Sciences & Humanities. - Leena and Luna International, Oyama, Japan. Vol. 4 (2) May 2015. – P. 65-68.
6. Рыженкова А.А., Захаревич Е.Р. Лингвокультурологические особенности английской загадки // Филологический аспект: международный научно-практический журнал. Нижний Новгород: Научно-издательский центр «Открытое знание», 2021. №10 (78). – С. 35-46.
7. Саитбаева М.Н. Именное сказуемое в узбекских народных загадках: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 135 с.
8. Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 124 б.
9. Струкова Т.В. Использование познавательно-эвристического потенциала жанра загадки в преподавании русского языка как иностранного // Учение записки Орловского государственного университета. № 1 (94), 2022 г. Scientific notes of Orel State University. Vol. 1 – no. 94, 2022. – С. 290-293.
10. Файзулинна Н.И. Лингвокогнитивная модель народной загадки: образно-структурный аспект (на материале русского, татарского и английского языков). автореф. дис. док. филол. н. – Казань, 2019. – 42 с.
11. Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономии в когнитивной лингвистике // Систем-структур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70-йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарканд, 2010. – Б. 78-83.

LI MUNYOLNING “QAQ Nus QUSHI” HIKOYASIDA USTOZ–SHOGIRD MUNOSABATLARINING BADIY TALQINI

Karimov Nodirbek Shuhrat o‘g‘li

Mustaqil tadqiqotchi,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada adib Li Munyol qalamiga mansub “Qaqnus qushi” hikoyasi tahlilga tortilgan bo‘lib, unda ustoz–shogird munosabatlari konfutsiychilik ta‘limoti bilan ochib berilgan. Yozuvchi qahramonlar holatini berishda tabiat tasviridan mohirona foydalangan. Xususan, Li Munyol bosh qahramonni bambukka o‘xshatgan. Hikoya kompozitsiyasi 5 qismga bo‘lib o‘rganilgan. Erta yetim qolgan shogirdining, ota–onasi haqidagi haqiqatdan boxabar bo‘lishi, ustoz bilan munosabatlarning keskinlashuvi natijasida boshidan kechirgan ko‘plab voqealar silsilasida namoyon bo‘luvchi mumtoz koreys nasrida mavjud an‘analarga qayta murojaat qilingan.

Kalit so‘zlar: Ko Chjuk, moviy dengiz, ajdaho, ustoz va shogird, Ode tog‘i, Sok Tam, surat.

Аннотация. В данной статье анализируется рассказ писателя Ли Мун Ёля “Птица Гарруда”, в котором раскрываются отношения между учителем и учеником с конфуцианским учением. Писатель умело использовал изображение природы, чтобы передать положение героев. В частности, Ли Мун Ёль сделал главного героя похожим на бамбук. Композиция рассказа изучается в 5 частях. К существующим традициям вернулась классическая корейская проза, проявляющаяся в чередѣ событий, в которых осиротевший ученик узнает о своих родителях, и натянутых отношениях с учителем.

Ключевые слова: Ко Чук, синее море, дракон, Наставник и ученик, гора Ода, Сок Там, фото.

Abstract. This article analyzes the story of the writer Yee Mun–yeol “The Golden Phoenix”, which reveals the relationship between a teacher and a student with Confucian teachings. The writer skillfully used the image of nature to convey the position of the characters. In particular, Yee Mun–yeol made the main character look like bamboo. The composition of the story is studied in 5 parts. Classical Korean prose has returned to existing traditions, manifesting itself in a series of events in which an orphaned student after had hot information about his parents and a strained relationship with a teacher.

Keywords: Ko Chuk, blue sea, the dragon, teacher and student, Ode mountain, Sok Tam, photo.

Kirish

Li Munyol qalamiga mansub hikoyalarda koreys nasri qiyofasi o‘zgardi, uning mazmun–mohiyati davr ijodkorlari asarlaridan tubdan yangi shaklga kirdi. Davr o‘zgarishi bilan bog‘liq ravishda yangilanayotgan badiiy tafakkur muallif ijodida yangicha talqin qilindi. Ma‘lumki, har bir davr voqeligi

badiiy mazmunida millat muammosi aks ettiriladi. Muallifning “Qaqnus qushi” shunday asarlar sirasiga kiradi.

Hikoyaning qisqacha syujeti quyidagicha: insoniy qadriyatlar falsafasi asar bosh qahramoni–taniqli rassom va xattot Ko Chjuk taqdiri orqali majoziy ifodasini topgan. Uning iqtidori shogirdlikka tushgan ilk kunlardan boshlab namoyon bo’ladi. Ustoz shogirdiga ijodda yuksak ruh his etilmas ekan, tasvirlar shunchaki bo’yoqlardan iborat bo’lishini uqtiradi. Vaqt o’tib shogird mashhur rassom darajasiga ko’tarilsa ham, umrining so’nggi daqiqalarida ustoz aytgan yuksak ruhni tuymaganligi, erishgan shuhratining o’tkinchi ekanligini anglab yetdi. Yaratgan asarlarining barchasini to’plab, unga o’t qo’yganida olov uchqunlarida butun hayoti davomida intilib yashagan o’sha buyuk his–qaqnus qushi gavdalanadi.

Hikoya voqealari XX asrning birinchi yarmining so’nggi, ikkinchi yarmining dastlabki yillarida Janubiy Koreya provinsiyalarining birida bo’lib o’tadi. Adib voqea joyini mavhum qoldiradi. Hikoya davomida bosh qahramonning mashhurlik sari intilishlari tasvirlangan. Ota–onasidan erta yetim qolgan bosh qahramon amakisi tomonidan zamonasining eng mashhur xattoti, olimga shogirdlikka buriladi. Aslida amakisi bolani iqtidori uchun emas, balki olimning uy ishlarida yordamlashish bilan birga kunini o’tkazishini maqsad qilgan edi.

Asosiy qism

Ustoz boladagi ayricha iqtidorni tezda anglab yetdi, ammo, *“azob–uqubatsiz iqtidorlik bola qalbining haqiqiy asoslar sari yo’liga to’siq bo’ladi”* [1], deb o’yladi. Ustoz shogirdiga o’z ishining ustasi bo’lish uchun quyidagilarni bir umr qulog’iga quyib olishini talab qildi:

“... moviy dengizga otilib, ajdohani yulib oladigan va ko’kka o’qday otiladigan qaqnus qush kabi shijoatli bo’l; xushbo’y hid anqitib, daryodan shoshilmay kechib o’tayotgan fildek qat’yatli bo’l” [2].

Ustozning shogirdiga bergan saboqlarining mohiyati quyidagi satrlarda o’z ifodasini topdi:

“... ijodda yuksak ruh namoyon bo’lmas ekan, rasmdagi qora rang shunchaki qora siyoh, oqi esa shunchaki qog’oz bo’ladi” [3].

Yillar o’tgan sari shogird iqtidori tufayli zafarlar quchdi, nafaqat mamlakatda, balki boshqa o’lkalarda ham mashhurlikka erishdi. Ammo ustoz aytgan qaqnus qushi na tushiga kirar, na o’ngida gavdalanar, hatto tasavvuriga ham sig’mas edi. Shon–shuhratlarga ko’milgan shogird qaqnus qushining mavjudligiga shubhalandi. Umr poyoniga yetdi, o’lim sharpasi uni to’shakka mixladi: bosh qahramon dunyoviy lazmatlarning bebaqoligini anglab yetdi. Hikoya muqaddimasidagi qaqnus qush ramzi qahramonning butun hayotiga, uning taqdiriga ishoradir:

“Ko Chjuk atrofga boqar ekan, boshini ko’tardi: xona havosi bu xiyol harakatga anqib turgan qora siyoh isining epkini bilan javob qaytardi. Ehtimol, qadimda olxo’rizorlar shunday hid taratganmikin? Yoki tepasida ajdaho va qaqnuslar o’ynoqlagan ertaknamo maysazorlar?” [4].

Hikoya syujeti ustoz–shogird munosabatlarining rivoji asosiga qurilgan. Hikoya uchinchi shaxs tomonidan bayon qilinadi. *“Uchinchi shaxs tilidan hikoya qilish ichki dunyo tasviri bobida kengroq imkoniyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bunda muallif kitobxonni hech qanday cheklovarsiz personaj ichki*



dunyosiga olib kiradi va ruhiyat iqlimlarini chuqurroq, batafsilroq ko'rsatadi. Qahramon qalbida muallif bilmaydigan sir yo'q-u qahramon haqida hamma narsadan voqif, muallif ichki jarayonlarni miridan-sirigacha tahlil qilishi, tuyg'ular, fikrlar, kechinmalar o'rtasidagi sabab-shart aloqalarini izohlashi ham mumkin" [5].

Syujet rivojida ahamiyatga molik bo'lmagan batafsil tasvir hamda inson ruhiy holati o'rtasida kontrast seziladi: muallif uchun syujet birinchi darajali emas, u uchun inson his-tuyg'ulari, tashvishlari muhimdir.

Asar syujetidan kelib chiquvchi kompozision qurumdagi har bir tasvir, tafsilot asosiy voqeaga olib boruvchi muayyan bosqich vazifasini bajaradi. Yozuvchining erkinlik ruhi yetakchilik qiluvchi bu hikoyada inson tabiatining tilimlari, sinoatlariga alohida urg'u beriladi, qalamga olinayotgan voqealar avval qalbdan aks-sado berishi, so'ng ongni junbushga keltirishi lozim. Hikoya kompozitsiyasi quyidagicha tuzilgan: 1. Ustoz va shogird uchrashuvi; 2. Ustoz va shogird o'rtasidagi ilk ziddiyat; 3. Ustoz va shogird o'rtasidagi davomiy ziddiyat; 4. Bosh qahramon ongidagi ikki qutb: qaqnus bilan uchrashuv; 5. Hayot va o'lim konsepti.

Yozuvchi Ko Chjuk obrazining estetik vazifasini-inson ongining o'sishi, o'z o'tmishiga nisbatan isyon qilishi, Ustoz o'g'itlarini tan olishi uchun mashaqqatli hayot yo'lini bosib o'tishi, hayot va o'lim mohiyatini anglashida ko'rsatadi.

Ko Chjuk qalbida ustozga nisbatan ham muhabbat, ham nafrat tuyg'ulari kurashardi. Ustoz hayoti xuddi *"tog' yonbag'irlarida ohista suzayotgan bahoriy bulut soyasiga, yoz shamoli esib, supurgan hovliga, tog' darasidagi ovloq kuzgi irmoqlarga, qor yog'ib o'tgandan keyingi qishki osmondek tiniq, beintiq sokin, ma'yus va yolg'izlik"* [6] ka o'xshardi. Ustozning mana shunday sirli hayoti shogirdi qalbida cheksiz hurmatni uyg'otadi. Ustoz xarakterini ochishda muallif tabiat hodisalar, ayniqsa, mavsumlarga xos peyzaj tasviridan unumli foydalangan, ustozga berilgan ta'riflar yig'indisi o'zida hayot konsepsiyasini jamlaydi.

Dastavval ustoz Ko Chjukni shogirdlikka olishni rasmiy e'lon qilmadi [7]. Birinchi tanishgan kunlaridan boshlab u Ko Chjukka sovuq munosabatda bo'ldi, hatto shogirdlari bilan birga shug'ullanishga izn bermadi. Shogird ustozga yordam berishi uchun xo'jalik ishlarini ham yurtia boshladi. Lekin bu ustoz-shogird munosabatlarini yanada chigallashtirdi.

Li Munyol ustoz obrazida qalbnig buyukligi, g'ururlik hissi, ijodkor nafsoniyati kabi xislatlarni ochib berish uchun psixologizmning ichdan ko'rsatish tamoyiliga amal qiladi. Bu ustoz obrazining keng ko'lamda ochilishiga imkon beradi.

Yozuvchi qahramon botinida kechayotgan to'qnashuvlarni, his-tuyg'ularni, ustoziga bo'lgan munosabatini Me Xyan (Olxo'ri hidi) ismli kisen bilan tanishuvida shunday chizadi:

"Har qancha xotirjam va pinagini buzmayotgandek tutishga harakat qilsa-da, mo'yqalam tutgan qo'li titrar va u o'zini iroda qila olmasdi. Surat g'alati chizildi. Buning sababi ustozini tark etgani uchun uning oldidagi aybdorlik hissimi-bilmadik; ammo mo'yqalamni qizning ichki yubkasiga surkayotgan Ko Chjukning xayoliga kisen qiz ismining ramziy ma'nosi emas, qachonlardir Sok tam tomonidan solingan olxo'ri-qurigan qiyshiq daraxt, singan ingichka shoxlardagi ikki-uchta ayanchli g'uncha keldi. Xuddi ustozni uslubiga xos tagso'z: "Olxo'ri butun umri bo'yi sovqatsa ham, hidini sotmaydi" [8].



Yolg'iz, ayanchli va sovuqda qolgan olxo'ri–bu aynan shu paytdagi ustozning holatiga qiyoslanadi. Muallif kitobxon diqqatini ustozning haqiqiy iste'dod egasi ekanligini ko'rsatishni hikoya avvalida, shogirdning muhabbatida jalb etgan edi. Kisen bilan ishqiy munosabatlar natijasida dunyoga kelgan qizchasiga Chxu Su–Kuzgi suvlar ismini berganida shogirdning xayolidan o'zining shaffof va musaffoligi bilan yurakni zirqiratuvchi tog' irmoqlari suvi–ustozga berilgan ta'rif o'tdi.

Ustoz va shogird o'rtasida yuzaga kelgan ilk ziddiyat orqali muallif bosh qahramon fe'liga ta'sir ko'rsatgan ulkan imkoniyat–iqtidorining yuksalishi, ammo tezda inqirozga uchrashi, rassom va xattotlikning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rsatishni maqsad tutadi:

“Bu davrda Ko Chjukning rangtasvir va xattotlikdagi mahorati eng oliy yetuklik darajasiga yetdi, u asta–sekin mashhurlikka erisha boshladi. To'g'ri, turli fikrlar mavjud, ammo ba'zi birovlar hozirga qadar Ko Chjukning bevosita o'sha davrdagi iste'dod va ilhom ufurib turgan ishlari uning eng yuksak yutuqlaridan biri deb hisoblaydilar. Biroq uning o'zi bu ishlarda qandaydir soxtalikni his qila boshladi–bu uyiga o't tushgan odamning boshpanasizligi va tushkunlik tuyg'usiga o'xshab ketardi” [9].

Iste'dodi barchaga ma'lum bo'lgan, chizgan rasmlari boshqa o'lkalarda ham mashhur bo'lgan, ammo bularning barchasi soxta tuyulgan bu hislarning ortida uning qora siyoh va qog'ozlar dunyosi qa'riga cho'kib ketgan yoshligi turardi. Yoshlik, orzu–umidlar, intilish va muhabbatning sarobga aylanishi dunyoning o'tkinchiligini yodga soldi. Uning bu holatini muallif tabiat tasvirida mohirona chizadi:

“Endi esa uning hayoti kech kuz shamoli va yomg'iri ostida shoxda yolg'iz, ayanchli titrab, qaltirab trgan sarg'aygan yaproqqa o'xshardi: o'zi ko'zlagan, uning uchun hamma narsani qurbon qilgan maqsadi esa tog' cho'qqilari zanjiri uzra ko'prikkdek egilgan kamalak singari olisda qolgan edi” [10].

Bu vaqtda kimdir vatanini ozod qilish uchun jonini qurbon qilgan, kimdir tinimsiz tashvishlar bilan vatandoshlariga ilm nurini taratar, kimdir amaliy bilimlar egasi sifatida o'zini jamiyatga baxshida qilar, Ko Chjuk esa buyuk rassom va xattot bo'lsa–da, iste'dodining ma'nisini anglab yetmas edi.

Yuqorida hikoya kompozitsiyasini besh qismga bo'lgan edik. Birinchi qism, ya'ni Ko Chjukning bolalik xotiralari, erta yetim qolishi, amakisining tarbiyasiga olinishi, amakisining Manjuriyaga jo'nat ketishi sababli ustoz Sok Tamning uyiga kelishi hikoyaning ekspozitsiya bo'lsa, ilk inqirozga uchrashida hikoyaning tuguni qo'yilgan.

Ko Chjukning ustoz va iste'dod o'rtasida chorasiz qolishi, arang nafas olib yotgan ustozining o'jarligi g'ashiga tegishi, haqiqiy rassom ruhi erishishni orzu qiladigan hikmatli baytlar g'azabini qo'zitishi ustoz va shogird o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishiga sabab bo'ldi. Arosatda qolgan bosh qahramon psixologik olamini ochib berish uchun muallif uni yana ustoz oldidan katta hayotga ko'chasiga chiqaradi. Bu safar Ko Chjuk ustozini u amal qilgan qat'iy odatlarda ayblaydi va natijada o'ziga otilgan siyoh qopqog'idan yorilgan peshanasini silagancha ustoz ostonasini ikkinchi marotaba tark etadi.

Avval o'zini ustoz haydab solganiga ishongan bosh qahramon pala–partish rasmlar chizdi, sotilgan rasmlar puliga aysh–ishrat qildi. Bunday turmush tarzini o'ziga xos deb bildi, ustozidan o'ch olgandek bo'ldi. Oradan ancha vaqt o'tib u o'z xatosini anglab yetdi: unga quvonch bag'ishlagan dunyoviy yutuqlar



uning orzulari bilan mos kelmasdi, unga yo'l xarajatlari yoki mo'yqalami uchun sarflangan pullar xuddi sadaqaga o'xshardi, unga yog'ilgan maqtovlar bozordagi kvandelarga dalda beradigan baqir-chaqirlardan farq qilmasdi. Yozuvchi ta'biri bilan aytganda: *"Bularning hammasi Ko Chjukka dengiz suvidek ta'sir qilardi: qancha ko'p ichsang, shuncha tomog'ing quriydi..."* [11].

Mana shu tarzda hayot kechirayotgan Ko Chjuk achchiq haqiqat bilan yuzma-yuz keldi: u otasining ashaddiy ishrostarparast bo'lgani, oilaning butun mol-mulkini ko'kka sovurib, hatto o'z sog'lig'iga zarar yetkazganligi sababli erta hayotdan ko'z yumgani, onasi esa erining ta'zim marosimlarini ham to'liq bajarmay, qo'shnisi bilan qochib ketgani haqida bilib qoldi. Bu haqiqat uni yanada telba qildi: avvallari ustozlari oldidagi burch, namunali shogird bo'lish ishtiyoqi, yuksak maqsadlari sari olg'a intilish hissi uni biroz jilovlab turgan edi. Qaynoq qon o'z ishini qildi, ya daydishda, mayxo'rlik qilishda davom etdi.

Bu vaqtda yapon ma'murlari shavqatsizligi yanada kuchaygan bo'lib, mamlakatda soliqlar oshgan, ochlik va qashshoqlik borgan sari xalq ahvolini quritardi. Ammo Ko Chjukning lazzatlanish va shahvoniy hirsini chegara bilmasdi. U *"qo'shnisining yonayotgan uyida loviya qovurib oladiganlar"* dan biriga aylangan edi. Ustozlari shogirdlikka olmagan pallada bir necha yil davomida saboq olgan ustozlari Un Gok bilan uchrashuv va uning:

"- Qoyil! Ota-onasiz, ustozsiz, oilasiz yolg'iz g'arav [12] Ko Chjuk haqir qariyani tanishni lozim topdi" [13], degan so'zlari uni larzaga keltirdi.

Muallif bosh qahramonni bambukka o'xshatadi. Buning sababi ustoz-shogird o'rtasidagi so'nggi to'qnashuvda oydinlashadi:

"Avval boshdan sening razil suyakligingni sezardim! Yo'qol! Sening joying bozorda-laohalarni chaplash. Sen o'zingni rassom qilib ko'rsatmoqchi bo'lib, shuncha yil qo'limda o'qiding-endi senga har qanday bo'yoq surkashingga, balkim, bir qopdan guruch berishar!..." [14].

Ko Chjuk o'ta iqtidorli inson. Ammo u xattotlikning qoidalarini o'qimagan, biroq harf oraliqlari, nisbatlarni, mo'yqalamni aylantirish uslublarini yaxshi biladi. U tug'ma iste'dod sohibi, ammo osonlik bilan erishgan muvaffaqiyatlari uning haqiqiy rassom bo'lishiga to'sqinlik qildi. Muallif o'z fikrini dalillash uchun ustoz tilidan quyidagi jumlaning keltiradi: *"Inson emasga-ta'lim bermayman"* [15].

Aslida daydi hayot, muttasil qiynoqqa olayotgan savollar, noshudlar aytgan tasannolar, nozik didli boyvachchalarning sadaqalari ham uning qalbidagi bo'shliqni to'ldira olmagan edi. Bosh qahramon tubanlik jarligidan o'zini qutqarish uchun, yalt etgan cho'g'dek gulxan-Ode tog'iga yo'l oldi. O'zini ma'nan qashshoq sezgan shogird ustoz oldiga borishi kerakligini tushunib yetdi. Shu sababli bosh qahramon muhim qaror qabul qilish oldidan uni darvishxonaga-poklanishga yo'llagan muallif uni zuhurida paydo bo'lgan o'zgarishlarga ishora qiladi. Yillar davomida qatlanib qolgan dunyoviy kir, eski dilsiyohliklarning keti ko'rinmasdi. Bu yozuvchining: *"Bahor eshik qoqdi, lekin Ko Chjuk hech ruhiy orom olmayotgandi"* [16], degan satrlarida yanada oydinlashadi. Moddiy hayotda maishat olamiga g'arq bo'lgan bosh qahramonning bunday psixologik tasviri uning botinidagi isyonni ko'rsatadi.

O'z aybini tan olgan bosh qahramon, aybini kechirishi uchun ustozlari oldiga borishga jur'ati yetmaydi, ilk bor unda qo'rquv hissi paydo bo'ldi. Muallif obyektiv hayot tasvirida uning kamchiliklarini



yoritadi, ammo hukm chiqarishga shoshilmaydi. Agar Ko Chjuk ustozlari o'g'itlariga amal qilganida edi, bunday iztiroblar qurshovida qolmasligini kitobxonning o'zi tushunib yetadi.

Ko Chjuk ibodatxona orqasidagi devor bezagiga ko'zi tushganida, o'zining notavonligiga yana bir bor amin bo'ldi:

“Oltin qanotli qush. Uning boshida “Istaklar ijrosi duri”. U olov purkaydi va ajdohalarni yeydi. U hamma tomonidan dengizlar bilan qurshalgan Sumeru tog'ida yashaydi. Bu qush–Budda qonunini qo'riqlaydigan sakkizta ilohning beshinchisidir. Uni yana Oltin qush yoki Ajoyib qanotli qush deb ham atashadi” [17].

Bosh qahramon yodiga “Oltin qush dengizni teshib o'tmoqda” bayti tushdi. Shu kunga qadar Oltin qanotli qush faqat majoz, ustozining qat'iyatli, orasi katta–katta ochib yoziladigan dastxati bilan bog'liq qandaydir kuch ramzi edi. Rangi o'chgan bezakdagi boshi lochinnikidek, tanasi odamniki, qanotlari tilli tusli–Qaqnus qushi qayta tirildi. Ko Chjuk tafakkurida ulug'vor qush oltin qanotlarini silkitib, yuksak osmonga parvoz qildi, to'satdan pastga toshdek otilib, dengiz to'lqinlarini yorib o'tdi, tipirchilayotgan ajdahoni changallab oldi. Va nihoyat u ustozining “Agar sen hech bo'lmasa bir marotaba mo'yqalaming chizgan bitikda hayotni ko'ra olsang–maqsadingga erishgan bo'lasan” [18], degan o'g'itlarining mohiyatini anglab yetdi.

Qaqnus qush bilan uchrashuv bosh qahramon ongidagi ikki qutb–ichki va tashqi kurashda muallif falsafasi, hayot haqidagi mushohadalari, estetik tafakkuri anglashiladi. Xatolarini to'la idrok etgan qahramon uni tuzatish uchun ortga qaytdi.

“Insonning tabiiy tug'ma qobiliyati tabiat deb ataladi nomlanadi. Shu tabiatga muvofiq harakat qilish yo'l deb ataladi. Mazkur yo'lning tamoyillariga asoslanib barkamollikka intilish ta'limot deyiladi” [20].

Xulosa

Ustoz Sok Tam yuksak san'at mohiyatini anglagan, haqiqiy yo'lga chiqqan va shogirdlar tayyorlashda o'z tamoyillariga ega bo'lgan chinakam e'tiqodlarga amal qilganlardan eng oxirgisi bo'lib qoldi. Ko Chjuk o'z davrining andozalariga ko'ra haqiqiy rassom edi, ammo ustoz Sok Tam nazarida u no'noq bo'yoqchidan ortiq kimsa emasdi.

Li Munyol mazkur hikoyasida mumtoz koreys nasrida mavjud an'analarga qayta murojaat qilish orqali millat ruhiyatida kechayotgan o'zgarishlarni yuksak mahorat bilan badiiy haqiqatga aylantirdi. Hikoyada voqealar ketma–ketligi, yozuvchining badiiy niyati, bosh qahramon borlig'ini tasvirlashdagi mahorati, ustoz–shogird botinidagi ruhiy holat–san'at insoniy qadriyatlar va oliy maqsadlarning eltuvchisi ekanligini mantiqiy dalillaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 283 쪽.
2. 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 377 쪽.
3. 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 400 쪽.
4. 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 369 쪽.



5. Ботирова Ш.И. Ҳозирги ўзбек романларида бадиий психологизм. – Қарши. 2019. – б. 88.
6. 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 379 쪽.
7. Корейда конфуцийчи олимлар янги шогирд олишларини расмий эълон қилишган. Ҳатто тантанали маросим ҳам ўтказилган.
8. 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 390 쪽.
9. 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 405 쪽.
10. 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021.
11. 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 413 쪽.
12. Гаров–бамбук. Пояси қаттиқ, бўғим–бўғим, ичи ковақ, қамишга ўхшаш тропик ўсимлик. Сижо шеърлятида бамбукка характери собит, бир сўзли инсонлар қиёсланган. Бу ерда муаллиф бош қахрамонни характери қаттиқлиги, аммо ичдан бўшлиғига бамбукка қиёслаган.
13. 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 416 쪽.
14. 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 416 쪽.
15. Бу сўзлар Шарқий Цзинь даврида машҳур хаттот номига сазовор бўлган, донишманд Ван Си–чжи (321–379) га тегишлидир.
16. 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 410 쪽.
17. 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 418 쪽.
18. 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 418 쪽.
19. 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 420 쪽.
20. Исматуллаева Н. Конфуций асарларидаги ижтимоий–фалсафий атамалар семантикаси ва уларнинг таржимада берилиши. Монография. “Nodirabegin” нашриёти. – Тошкент, 2020. – б. 71.

UDK: 811.581.11

TILSHUNOSLIKDA EKVIVALENTSIZ LEKSIKANING O'RGANILISHI XUSUSIDA

Arifova Umida Abdumalikovna

Xitoy tili o'qituvchisi,

O'zbekiston Jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikda ekvivalent va ekvivalentsiz leksika masalalarini ko'rib chiqadi. Jumladan, tilshunoslarning bu dolzarb masala yuzasidan bildirgan fikrlari, tarjimashunoslikka oid o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish xorijiy tillarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Ikki tilni chog'ishtirish bilan u yoki bu tilning lug'at boyligi borasida to'g'ri hulosaga kelib bo'lmaydi. Sababi muayyan tushunchaga nom berish tilga ta'sir etadigan lingvistik va ekstralingvistik omillarga bog'liq bo'ladi.

Kalit so'zlar: ekvivalentlilik, ekvivalentsiz leksika, lakuna, realiya, tasodifiy lakuna, transliteratsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы эквивалентной и безэквивалентной лексики в языкознании. В частности, по мнению лингвистов по этому актуальному вопросу, изучение конкретных аспектов переводоведения приобретает все большее значение при изучении иностранных языков. Концепция зависит от лингвистических и экстралингвистических факторов, влияющих на язык.

Ключевые слова: эквивалентность, безэквивалентная лексика, лакуна, реалия, случайная лакуна, транслитерация.

Abstract: This article examines the issues of equivalent and non-equivalent lexis in linguistics. In particular, the opinions expressed by linguists on this topical issue, the study of the specific aspects of translation studies is gaining importance in the study of foreign languages. It is impossible to come to a conclusion. The reason is that the naming of a specific concept depends on linguistic and extralinguistic factors that affect language.

Key words: equivalence, non-equivalent lexicon, lacuna, realia, accidental lacuna, transliteration.

Kirish

Mamlakatimizda so'nggi yillarda dunyo mamlakatlari bilan integratsiyalashuvi jarayonida kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari, umumlisoniy belgilari, madaniyatlararo muloqotda verbal va noverbal vositalarning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish xorijiy tillarning o'rganishning dolzarbligiga aylanib bormoqda. Shu jumladan ilm-fan va texnologiyani shiddat bilan rivojlanib borayotganligi, hayotimizga chetdan ko'plab yangi tushuncha, so'z va iboralar, tarjimashunoslikka oid yangi atamalar kirib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Tilshunoslikda ekvivalent tushunchasi XIX asrning 60-yillarida fransuz tili tilshunosligi bilan bog'liq tushuncha sifatida qabul qilingan. Bu termin rus tarjimashunosligiga XX asr o'rtalarida A.D.Shveyser tomonidan kiritilgan bo'lib, bir muncha murakkab termin sifatida qaraladi. Tarjimashunoslikda ekvivalent va ekvivalentsizlik darajalariga oid ishlarda tadqiqotchilarning qarashlari turlicha [1].

Masalan, V.N.Komissarovga ko'ra ekvivalent- bir nutq birligi bajaradigan funktsiyani bajara oladigan boshqa nutq birligidir. "Ekvivalent" tushunchasi, deb yozadi olim, - tarjimaning muhim

xususiyatlarini ochib beradi va hozirgi tarjimashunoslikning markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi [2, 134]. Ammo, V.Vinogradov, A.D.Shveyser, Ya.Resker, N.K.Garbovskiy, A.O.Ivanov va boshqa olimlarning ekvivalentlikka yondoshuvlari bir-biridan sal bo'lsa-da farq qiladi.

Asosiy qism

Ekvivalentlik nazariyasi tarjima jarayonida tillararo xoslashuvning eng samarali variantlarini izlab topish va tarjima faoliyatiga tadbiiq etish asosini shakllantiradi. Asliyat tili bilan tarjima tili o'rtasida o'rnatilgan munosabatlarning aksi ekvivalent munosabatlarda namoyon bo'ladi. Ekvivalentlik xususida yana shuni ta'kidlash kerakki, agar hozirgi tarjima nazariyasi haqiqatdan ham XX asr o'rtalarida paydo bo'lgan bo'lsa, uning asosiy kategoriyasi sanalgan "ekvivalentlik"ning ham u bilan bir paytda yuzaga kelganligi o'z- o'zidan anglashiladi [1, 61].

"Ekvivalentlik" terminida mujassam bo'lgan tushunchaning mazmuni, turli yo'nalishda ish olib boruvchi tadqiqotchilarning unga munosabatini aniqlash va tarjimada ekvivalentlik tushunchasiga juda yaqin turadigan boshqa bir tushuncha – adekvatlik, ishonchlik, to'g'rilik va aniqlik tushunchalari orasidagi o'zaro munosabatni ham belgilab olishni taqozo etadi. Rus tilida ekvivalentlik atamasi o'zining lug'aviy ma'nosiga ko'ra, bir narsaning boshqasiga nisbatan teng qiymatli, teng ma'noli, teng kuchga ega, uning o'rnini to'la bosa oluvchi narsa demakdir.

Fanda ekvivalentlik haqidagi tasavvurlar bir hil bo'lmagan. Ba'zi hollarda esa bu borada tamoman qarama-qarshi tasavvurlar ham yuzaga kelgan. Masalan, S.Vlaxov "ekvivalentlik" deganda mazmun doirasida ikki tilning tegishli birliklari semantika, konnotatsiya, fo'n o'rtasida to'liq o'xshashlikni nazarda tutgan bo'lsa [3, 8], R.Leviskiy esa, - "ekvivalentlik" va "adekvatlik" atamalarini bir biri o'rniga ishlatish mumkin deb hisoblaydi [4, 3]. V.G.Kostomarov "adekvat tarjima"ning to'laqonli tarjima, ekvivalentlikni esa tenglik birliklarining mazmun jihatidan umumiyliigi sifatida tushunilishi kerakligini aytadi.

Dunyo tilshunoslari ekvivalentlik sohasini o'rganibgina qolmay, balkim tildagi ekvivalentsiz ya'ni, muqobilsiz leksikani ham o'rganishga alohida e'tibor qaratishgan. Bu borada qarama qarshi fikrlar yuzaga kelgan.

Rus tishunoslari Kostomarov V., Bazylev V.N.larning ta'kidlashicha, ekvivalenti bo'lmagan so'zning lug'at qatlamini hech qanday xorijiy til leksik tushunchalari bilan taqqoslab bo'lmaydigan so'zlar deb belgilaydi [2, 56].

Chet tillariga ekvivalent bo'lmagan so'zlarni olishimiz mumkin, chunki har qanday til chet el madaniyatining voqealiglarini bildiruvchi leksik birliklar qatlamiga muhtoj. "Kerakli so'zlar" boshqa tillarga o'zlashtirilgan.

Biroq voqelik va istorizm turkumiga kirmaydigan ko'pgina so'zlarning boshqa tillarda ham to'liq ekvivalenti yo'q. Bu denotativ yoki konnotativ semantikadagi farqlarga bog'liq. Masalan, ruscha qiz va qiz otlari, bir tomondan, ularning inglizcha ekvivalenti qiz, ikkinchi tomondan, ma'no doirasiga ko'ra farqlanadi. Teskari misol: rus tilidagi ikkita inglizcha so'zlar bank "daryo qirg'og'i" va qirg'oq "dengiz qirg'og'i" bir so'zga mos keladi. Bu nafaqat otlarni qamrab oladi: masalan, rus tili rang spektrida ikkita rangni ajratib turadi - ko'k va ko'k, ikkala belgi esa milliy tilning bir qismidir. Dunyoning boshqa ko'plab tillarida ular bitta so'zga mos keladi (masalan, ingliz ko'k, frantsuz bleu /-e).

Ma'noning hissiy-baholovchi komponenti farqlanadi, masalan, rus tilidagi quyosh ot va tojikcha bir xil ma'noga ega oftob so'zi farqlanadi: yilning muhim qismini jazirama quyosh ostida yashaydigan tojiklar buni nafaqat shunday deb qabul qiladilar. Orzu qilingan, hayotga olib

keladigan, lekin ayni paytda dushman, shafqatsiz degan ma'nolarda qo'llanilgan [5]. Har bir so'z zamonaviy semantikaga uning qo'llanish tarixini, kontekstini va ushbu tilda so'zlashuvchi xalqlarning dunyoqarashi va madaniyatida alohida o'rin tutadi. Shunday qilib, his-tuyg'ularning nomlari turli tillarda o'ziga xos semantika va konnotatsiyalarga ega. Ruscha melanxolik so'zining Evropa tillarida to'liq ekvivalenti yo'q: masalan, shunga o'xshash psixologik holatlar uchun inglizcha nomlarning har biri faqat taxminan uning ma'nosi va madaniy kelib chiqishini bildiradi.

Alohida muammo - bu frazeologiyaning, birinchi navbatda, idiomalar toifasining tarjima qilinishi, chunki ular o'zlarining majoziy semantikasida madaniy xususiyatlar, dunyoqarash xususiyatlari va ona tilida so'zlashuvchilarning qadriyat yo'nalishlarida jamlangan [6].

Aksariyat tadqiqotlarda lakunarlikni tilda leksemalashtirilmagan so'zga ikkinchi tilda so'z birikmasining muvofiq kelishi deb tushuntiriladi. Bizningcha, har doim ham biror tilda so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan har qanday tushunchani so'z birikmasi orqali berib bo'lmaydi, chunonchi, lakunarlikni yuzaga keltiruvchi tushunchalar turli vositalar yordamida ifodalanishi mumkin [7].

I.A. Sternin, Z.D. Popova, M.A. Sterninalar o'z ishlarida lacunar birlik birikmasini ekvivalenti bo'lmagan birlik ifodasi bilan beradilar. "Ekvivalenti bo'lmagan birlik - bir tilda mavjud bo'lgan, biroq ikkinchi tilde uchramaydigan birlikdir. Lakuna - bu bir tilda mavjud bo'lmagan birlikning boshqa bir tilda mavjud bo'lishidir. Ekvivalenti bo'lmagan birlik va lakunalar doim juftlikda namoyon bo'ladi. Agar bir tilde lakuna mavjud bo'lsa, chog'ishtirilayotgan tilda ekvivalentsiz birlik mavjud bo'ladi yoki aksincha [7, 12]. Masalan, xitoy tilida 零食 *lingshi* (so'zma so'z "nol yemak" deb tarjima qilinib, qorinni to'ydirish maqsadida emas, balki ermak uchun iste'mol qilinadigan mahsulotlar. Masalan, pista, yong'oq, qarsildoq, kartoshka va b.) degan so'z bo'lib, rus tili uchun bu lakuna, xitoy tili uchun rus tili fonidagi ekvivalentsiz birlik hisoblanadi [8, 206].

Xitoy tilshunoslari lakunalar misolida ekvivalentsiz leksikani turli hil ta'riflar berishgan. Masalan, xitoyshunos olim Hu Wen Zhong lakunalarni quyidagicha tariflaydi: Madaniyat va tildagi tafovutlar sababli, bir tilda mavjud so'z uchun boshqa tilda ekvivalent yoki muqobil so'z bo'lmasligi mumkin. Bunday hodisani leksik bo'shliq deb atagan. Nomuqobillik hodisasini tahlil qilgan yana bir xitoylik tilshunos Zhang De Xing o'z maqolasida turli madaniyatlarda tafovutlarning o'xshash tomonlariga nisbatan ko'pligi, ilmiy terminologiyani kam uchrashi, shuningdek, xitoy va ingliz tillaridagi leksik ma'nolarning noekvivalentlik, nomuqobillik jihatlarini qayd etadi [7, 13].

Ekvivalent bo'lmagan grammatik birliklar maxsus grammatik tarjima muammolari sifatida mavjud. Biroq tarjima nazariyasiga oid aksariyat zamonaviy nazariy ishlar va qo'llanmalarda grammatik muammolar umuman yoritilgan emas. Buning sababi, tarjimon bir tilning grammatik ma'nolarini boshqa til yordamida ifodalashda hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Agar ular paydo bo'lsa, g'alati darajada, bu qiyinchiliklar kichikdir. Gap shundaki, har qanday tilning grammatik tuzilishi u yoki bu tarzda mantiqiy aloqalar tizimini aks ettiradi, ular yordamida biz atrofimizdagi olamni idrok qilamiz va tasvirlaymiz. Ushbu mantiqiy aloqalar tizimi universaldir va tilning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq emas. Ekvivalent bo'lmagan grammatik birliklar maxsus grammatik tarjima muammolari sifatida mavjud. Biroq tarjima nazariyasiga oid aksariyat zamonaviy nazariy ishlar va qo'llanmalarda grammatik muammolar umuman yoritilgan emas. Buning sababi, tarjimon bir tilning grammatik ma'nolarini boshqa til yordamida ifodalashda hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi [7, 13]. Bularning barchasi bilan grammatika

sohasida lingvistik kompetentsiya emas, balki tarjima sohasida yotadi va tarjima qarorlarini talab qiladigan alohida holatlar mavjud. Ushbu turdagi muammolar o'rganilgan tilda berilgan grammatik ma'no mavjud bo'lmagan (aniq bo'lmagan) hollarda paydo bo'ladi, ya'ni. tarjimada ekvivalent bo'lmagan grammatik birlikdir.

O'rganilayotgan tilda tegishli leksik ekvivalentiga ega bo'lmagan manba tilning leksik birliklari ekvivalent bo'lmagan lug'at deyiladi. Asl tilning leksik birligining ekvivalent emasligi deganda uning o'rganilayotgan tilning leksik tizimida o'xshashi yo'qligi, ya'ni bunday "tayyor so'z" yoki olinishi mumkin bo'lgan barqaror iboraning mavjudligi tushuniladi. tarjimada o'z o'rnida almashtirilgan.

Ekvivalent bo'lmagan lug'at - bu tillardan birining "boshqa tilning leksik birliklari orasida na to'liq, na qisman ekvivalenti bo'lmagan" leksik birliklaridir [9].

L.S.Barxudarov leksik birliklarni ekvivalent bo'lmagan lug'at sifatida uchta katta toifaga ajratadi.

Realiya – boshqa tilda so'zlashuvchi kishilarning amaliy tajribasida mavjud bo'lmagan narsa, tushuncha va vaziyatlarni bildiruvchi so'zlar, masalan, milliy oshxona taomlari, xalq kiyimlarining turlari, ya'ni moddiy va ma'naviy madaniyat ob'ektlari nomlari kiradi.

Tasodifiy lakuna - boshqa tilning leksik tarkibida biron bir sababga ko'ra mos kelmaydigan tillardan birining leksik birliklaridir. Bularning barchasi bilan grammatika sohasida lingvistik kompetentsiya emas, balki tarjima sohasida yotadi va tarjima qarorlarini talab qiladigan alohida holatlar mavjud. Ushbu turdagi muammolar o'rganilgan tilda berilgan grammatik ma'no mavjud bo'lmagan (aniq bo'lmagan) hollarda paydo bo'ladi, ya'ni. tarjimada ekvivalent bo'lmagan grammatik birlikdir. Masalan, rus tilida artikl kabi nutqning bunday qismi yo'q va odatda ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilishda ma'noni ochishga murojaat qilish shart emas.

Transliteratsiya – bu chet tilidagi so'zni o'zlashtirish bo'lib, u so'ngra maqsadli tilning harflari bilan yozma ravishda tasvirlanadi va og'zaki nutqda maqsad tilining talaffuz qobiliyatiga qarab talaffuz qilinadi. Transliteratsiya atamaning asl tilda tanishligiga mos keladigan leksik qisqalikni saqlab qolish va shu bilan birga, aytilgan narsa yoki tushunchaning o'ziga xosligini ta'kidlash muhim bo'lganda zarur bo'ladi.

Transliteratsiyaning ekvivalent bo'lmagan lug'atni tarjima qilish usuli sifatida afzalligi uning ishonchliligidir. Yangi, notanish va hali yetarlicha o'rganilmagan hodisani bildiruvchi so'zni transliteratsiya qilish orqali tarjimon mohiyatan uning faqat "tovush qobig'ini" yetkazadi. So'zning mazmun tomoni faqat kontekst orqali ochiladi. Shunday qilib, tarjimon yangi tushunchani talqin qilishdan, shuningdek, noto'g'ri talqin qilish xavfidan qochadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, har qanday tilning grammatik tuzilishi u yoki bu tarzda mantiqiy aloqalar tizimini aks ettiradi, ular yordamida biz atrofimizdagi olamni idrok qilamiz va tasvirlaymiz. Ushbu mantiqiy aloqalar tizimi universaldir va tilning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq emas. Ekvivalent bo'lmagan grammatik birliklar maxsus grammatik tarjima muammolari sifatida mavjud. Biroq tarjima nazariyasiga oid aksariyat zamonaviy nazariy ishlar va qo'llanmalarda grammatik muammolar umuman yoritilmagan. Buning sababi, tarjimon bir tilning grammatik ma'nolarini boshqa til yordamida ifodalashda hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hamidov X. O‘zbek qissa va romanlari turk tilida [Monografiya]. –Toshkent: EFFECT-D, 2022.
2. Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода. – М.: Международное отношение, 1980.
3. Влахов С.И, Флорин С.П. Непереводимые в переводе. – Москва, Валент, 2021.
4. Левицкая Т.Р. Проблема перевода. – М.: Международное отношения, 1976.
5. Mechkovskaya N.B. Ijtimoiy tilshunoslik. – M., 2000.
6. Teliya V.N. Rus frazeologiyasi: semantik, pragmatik va lingvomadaniy jihatlar. – M., 1996.
7. Ismatullayeva N. Xitoy va o‘zbek tillarida lakunalar. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
8. Стернин И.А., Попова З.Д., Стернина М.А. Лакуна и концепты. Сборник научных трудов. – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003.
9. Varxudarov L.S. Язык и перевод. Вопросы общей и частной теории перевода. Изд.4-е. – Москва: Изд-во ЛКИ, 2013.

Internet saytlari:

<http://www.google scholar.noncvivalent lexic>.

<http://www.yandex.ru>



13.00.00

PEDAGOGIKA FANLARI
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PEDAGOGICAL SCIENCES

TARIXIY MATNLARNI O`RGANISH ORQALI TALABALARNING KREATIV QOBILYATINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Kaziyeva Turg'unoy Tursunbayevna
Andijon davlat pedagogika institute p.f.f.d. dotsent,
Maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarning ijodiy qobilyatini, tafakkurini rivojlantirishda hermenevtik ta'limotni oid ma'lumotlar va ulardan foydalanish yoritilgan bo'lib, kelajakda mutaxassis faoliyati uchun kerakli yangicha dunyoqarash hamda yangicha usulda ularni tatbiq qilishda aynan hermenevtikaning roli muhim bo'lgan ahamiyati to'la yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Hermenevtika, falsafa, tarix, lug'atshunoslik, tafakkur, ong, adabiyot, tahlil, ta'vzir, sharq, uyg'onish davri, kreatiolik, kompetentlik.*

ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ

Казијева Тургуной Турсунбаевна
Андижанский государственный педагогический институт им.Р.f.f.d. доцент,
Заведующий кафедрой дошкольного образования

***Абстрактный:** В данной статье освещены сведения о герменевтическом учении и его использовании в развитии творческих способностей и мышления учащихся, а также значение роли герменевтики в развитии нового мировоззрения и нового способа их реализации в будущей работы специалиста полностью объяснено.*

***Ключевые слова:** герменевтика, философия, история, лексикография, мышление, сознание, литература, анализ, интерпретация, восток, ренессанс, творчество, компетентность.*

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING THE CREATIVE ABILITY OF STUDENTS THROUGH STUDYING HISTORICAL TEXTS

Kazieva Tursunbayevna
Andijan State Pedagogical institute P.f.f.d. associate professor,
Head of the Department of preschool education

***Abstract:** In this article, the information about the hermeneutic teaching and its use in the development of students' creative abilities and thinking are highlighted, and the importance of the role of hermeneutics in the development of a new worldview and a new way of implementing them, which is necessary for the work of a specialist in the future, is fully explained.*

***Key words:** hermeneutics, philosophy, history, lexicography, thinking, consciousness, literature, analysis, interpretation, east, renaissance, creativity, competence.*

Kirish

Talim, fan va izlanish olib borish chegara bilmaydi, balki eng yangi bilim va ko'nikmalarni ulashish orqali insoniyatni taraqqiyotga yetaklaydi, bir nechta xalqlar taqdiriga daxldor bo'lgan muammolarga birgalikda yechim topish orqali mamlakatlar orasidagi do'stlik va hamkorlik rishtalarini mustahkamlaydi.

Sharq faylasufi Konfutsiy "Bilimsizlik insoniyat uchun eng qorong'u tundur" degandi. Haqiqatdan ham bilim ilm olish baxtga erishish farovon farovon yashshning sanalgan yoli oltin kalitidir. Bu jarayonning to'g'ri va tizimli tashkil etilishi esa bevosita ta'lim xususan oliy talim tizimiga unda bo'y korsatayotgan islohotlarga bog'liq.

Bilim olish taraqqiyotning bosh omilidir. Xadisi sharifda xam "Avvalo olim bo'l, laoqal ta'lim oluvchi yoki tinglovchi ilmu ulamoni sevuvchi bo'lgin" deyiladi. Bunday da'vat har birimizni ta'lim olish va ilmi insonlarni qadrlashga undab turadi. Qayerda ilmu ma'rifat kuchli bo'lsa osha yer baxt maskani hisoblanadi. Uchinchi renesansga kuchli bilim va tafakkur orqali erishilishini muhtaram Prezidentimiz ko'p bora ta'kidlaganlar. Shuning uchun uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichida yoshlarni bilimli va yetuk inson sifatida rivojlantirish biz ziyolilarning asosiy burchimizdir.

O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng barcha jabhalarda bo'lgani kabi ta'lim va fan sohasida ham turli hildagi yangilanishlar olib borilmoqda. Davrlar o'zgaraveradi, unga mos ravishda taraqqiyot o'zanlari ham. Biroq insoniyat oldidagi asosiy missiya bo'lgan izlash-topish -qo'llash amaliyoti hech qachon eskirmaydi. Insonlar savollar ichida yashaydi, biriga javob topilishi bilan keyingisi ko'ndalang turadi. Albatta, yechimlar o'z-o'zidan kelinmaydi, buning uchun izlaniladi, kitoblar varaqlaniladi, ma'lumotlar to'planilib tahlil qilinadi. Bu esa butun bashariyat ilm fanga muhtojligini anglatadi. Chunki, savollardan iborat olamda yashab bo'lmaydi, qayerdadir ularga yechim topilishi shart. Hozirga qadar olimlar nafaqat yer sayyorasi, balki koinotdagi o'nlab jumboqlarga yechim topdi, sirli hodisalarning sabab va oqibatlarini tahlil qildi, tushuntirdi. Ammo mo'jizalardan iborat biz yashayotgan hayotda bilmaganlarimiz bilganlarimizdan ko'p.

Adabiyotlar tahlili

Talabalar o'quv faoliyatini tashkil etishning pedagogik-psixologik, metodik jihatlari N.D.Sagindikova, Sh.Taylanova, A.A.Xoliqov, C.Mamashokirov, I.A.Uzakov, H.X.Jo'raqulova, I.C.Ergashev va boshqa olimlarning, bo'lajak mutaxassislarda anlash masalalarini shakllanishining psixologik masalalari N.C.Safaev, O.V.Tenyaeva, E.G'.G'oziev kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan [4].

Tadqiqot metodologiyasi

Ishning metodologiyasi quyidagilardan iborat: Germenevtika bu qadimiyligi sababli asl ma'nosi tushunarsiz bo'lgan matnlarni tushunish va talqin qilishni o'rganuvchi san'at hisoblanadi. Yunonchadan olingan ushbu so'z "Tushunishish va tushuntirish o'qituvchisi" deb ham talqin qilinadi.

Germenevtika qadimgi yunonistonda paydo bo'lgan bo'lib, o'rta asrlarda germenevtikaning vazifasi faqatgina injilni sharxlash bo'lib qoldi. Uyg'onish davrida esa anglash san'ati rivojlanishi bilan o'sha paytdagi germenevtika ham milliy tillarga tarjima qilish asosi deya qaraldi. 19-asrda esa germenevtika tarixiy bilimlarning eng muhim uslubiga aylandi. M.Haydeggerning ta'kidlashicha germenevtika o'tmishdagi madaniyat asarlarini talqin



qilishning metodologik masalalari bilan cheklanib qolmay, u insoniyat mavjudligining asosiy tuzilmalari, voqelikka munosabatini ham yoritadi.

Bugungi kunda aynan yangi bilimlar va yangi kashfiyotlar aynan kashf qilinishi va tatbiq qilinishi uchun adabiyotlar bilan faol ishlash ko`nikmasini shakllantirish va eski tushunchalarni yangicha talqin qilish muhim masaladir. Buning uchun aynan matnlar bilan va manbalar bilan ishlash texnikasini oshirish va bilimlarni zamonaviy tahlil va talqin qilish juda muhimdir.

Germenevtikaning bu jihatlari bugungi zamonamizga biroz moslashmagan va bugungi kunning o`z germenevtikasi mavjud. Bugunning germenevtikasi aynan bugungi talablarga moslashadi. Bugungi yosh avlod har tomonlama mukammallika intilar ekan, yangicha dunyoqarash bilan birgalikda tarixiy obidalardan ham foydalanish va yangicha usulda ularni tatbiq qilish aynan germenevtikaning rivoji uchun xizmat qilmoqda. Aynan tarixiy matnlar ustida ishlash orqali kreativlikni rivojlantirib, yangi bilimlarga erishish bugunning dolzarb masalasidir. Bunda talabalardagi aynan kreativlik qobiliyati yanada shakllanishi ko`zda tutiladi. Bugungi kunga kelib esa, matnlarni tahlil qilish va yangi bilimlarni ochish juda katta ehtiyoj tug`dirayotgan masaladir. Germenevtikaga asoslangan yangi bilimlar tarixiy ahamiyati va bugungi kundagi asl va yangicha ma`nosi bilan bir qarashda o`zaro mosdek va bir qarashda qarama qarshi hamdir. Qaysi nuqtai nazardan olib qarasaqda aynan matnlarni tahlil qilish har bir sohada ko`plab yangilik va yutuqlarni ochilishiga xizmat qilmoqda. Masalan, dinshunoslik germenevtikasi diniy kitoblarni tafsirlash bilan bir qatorda, bugungi kundagi eng kerakli fatvolarni chiqarishga xizmat qilsa, filologik germenevtika aynan matnlar bilan o`zaro ishlash va bir tildan tarjima qilingan matnning aynan tub ma`nosini o`zgargan va o`zgarmaganligini tahlil va talqin qilishga xizmat qiladi. Huquqiy germenevtika esa, muayyan sohadagi tegishli qarorni muhokama qilish va asl ma`nosini va tegishli ijrosini ta`minlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari bugungi kundagi matn tahlil qilish va uning tub mohiyatini eng to`g`ri namunasini ochish ishi ko`zlangan maqsadning ko`ringan yutug`i hamdir. Chunki, asl ma`nosi topilgan va yangilik uchun tayyorlangan materialda joylashgan asl mohiyatni boshqarish faqat uni tahlil qiluvchi shaxs- Germenevtning qo`lida bo`ladi. Aynan germenevt o`zining tahlilidagi asl ma`no va mazmunni kerakli tomonga yo`naltiradi va boshqaradi. Bu esa aynan ko`zlangan yangilikning asl mohiyatini to`la ochib berishga xizmat qiladi. Matn taxlili jarayonida tarixiy matnlardan foydalanish ham talaba faoliyatini kreativ kompetentligini rivojlantirishni uhum asosi hisoblanadi. Bu nuqtai nazardan olib qarasaq, Germenevtikaning eng katta yutug`i ham shundadir. Xulosa qilib aytganda, matnni tahlil qilish va undagi yangi bilimlarni ochish fan va ta`lim sohasida umumjahon standartlar va etalonlarni joriy etishga yordam beradi, eng yangi bilim va tajribalarni almashishga va yaratishga xizmat qiladi, "chegara bilmas bilim" yo`llarini ochishga, ta`lim va tadqiqotchilik institutlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda ta`lim tizimida yangi bilimlar ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning barchasi matn tahlilidagi olingan bilimga kreativ yondashuvni asosidir.

Germenevtikani talqin qilish va tushunish usullariga murojaat qilish zarurati tarixchi-tadqiqotchining, birinchi navbatda, har xil turdagi matnlar bilan ishlashi bilan izohlanadi. Tushunish doirasining kengayishi germenevtik doiraning to`rtinchi ishtirokchisi - potentsial o`quvchi-talabalar o`rtasida amalga oshadi va talabalar orqali o`tadi, u kitob haqida ma`lumotni birinchi o`qituvchining og`zaki yoki reklama tasviri orqali oladi. Birinchi o`quvchining ma`nolari ikkinchi o`quvchining tegishli ma`nolarini o`z ichiga oladi. Shunday qilib, biz germenevtik doirani yangi tushuncha orbitasiga olib boradigan ushbu to`rtinchi ishtirokchi orqali "ma`no

birligini kengaytiruvchi konsentrik doiralar" haqida gapirishimiz mumkin bo'лади. Bu esa fanda gadamer taktikasi deyiladi. Aynan gadamer taktikasini kreativlikka yo'naltirish orqali esa talabalarda kreativlikka bo'lgan qiziqishni yanada orttirish va bugungi kundagi davlat siyosati darajasiga aylangan innovatsion yangidan yangi g'oyalarni ommaviy targ'ibot qilishga eishish mumkin. Talabalarning tinglab tushunish, anglash va kreativ yondashish qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik ta'limotni amalga oshirish texnologiyalari tahlil qilindi va rivojlangan davlatlar bilan solishtirildi.

Tahlillar va natijalar. Tarixiy matnlarni tushunish jarayonida talabalarga matn tuzish va ustida ishlash yuzasidan beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni, ta'lim vositalari, metod va usullarini ishlab chiqishda amal qilinadigan asosiy yondashuv va tamoyillarni belgilash maqsadga muvofiq bo'лади. Buning uchun o'qituvchi talaba bilan kreativlikka asoslangan muloqotni shakllantirmog'i lozim bo'лади. Talabalarda matnni tahlil qilish orqali axborot olinadi. Unda o'sha axborotga nisbatan tushuncha va hissiy munosabat shakllanadi. Natijada har bir talabada olingan ma'lumotga nisbatan individual qarashlar namoyon bo'лади. Bu esa yangi g'oyani, yangi innovatsion yangilikni, yangi kreativ yondashuvni keltirib chiqaradi. Mana tarixiy matnlarning yangicha ko'rinishdagi yutuqlari. Agar aynan shu metodikasi izchil qo'llanilsa, yangi ilmiy yangiliklarga ham zamin yaratiladi. Talabalardgi aynan kreativlikka asoslangan qarashlar ko'zga ko'rinarli darajada rivojlanadi.

Lev Tolstoy ta'biricha, odamlarda 97 hil kulgu, 85 hil ko'z qarashlari mavjud bo'lib, ushbu mimikalar badiiy asarda personajlarning harakterini ochishda, vaziyatni baholashda, kayfiyatni aniqlashda o'zaro munosabatda aks etadi. Shuni inobatga olsak, tarixiy matnlarni o'rganishda ham har qaysi talaba o'zgacha yondashuv va o'zgacha kreativlikka asoslanib fikrlaydi. Bu esa, aynan bir matnning yangidan yangi bilimlarini ochishda qo'l keladi.

Germenevtikada talaba tushunchani boshlang'ich sifatida emas, o'z ma'nosini faqat uzoq oxirida, to'la rivojlangan milliy adabiyotda oladi, balki o'ziga xos ma'noga ega bo'lgan boshlang'ich sifatida o'rta asrlar adabiyoti yana o'zgarimas paradigmaga aylanishi mumkin, chunki u xalq tillarida shakllanayotgan avtonom harakatning namoyon bo'lishi, uning arxaik janrlari ham ideal, ham yopiq hayot haqiqatidan dalolat beradi. [Tarixiy dunyo](#) bizga muloqotning ijtimoiy (ozodlashtiruvchi yoki himoya qiluvchi) va ijodiy roli, har qanday adabiy faoliyatning roli ma'lum bir yangi nuqtai nazardan o'zini namoyon qiladigan birlamchi tuzilmalarni ochadi.

Talabalarni kreativ fikrlashga, tinimsiz o'z ustida izlanishga undovchi kuch bo'lgan o'quvchiga tanish bo'lmagan yangidan yangi bilimlarni ham aynan germenevtikaga asoslangan holda anglashimiz va yangicha tushuncha va bilimlarni keng jamoatchilikka yoyishga erishishimiz mumkin.

Ta'lim, fan va izlanish chegara bilmaydi, balki eng yangi bilim va ko'nikmalarni ulashish orqali insoniyatni taraqqiyotga yetaklaydi, bir necha xalqlar taqdiriga daxldor bo'lgan muammolarga birgalikda yechim topish orqali mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari ham mustahkamlanmoqda. Bunda ilm-fan rivoji uchun boshqa mamlakatlarning adabiyotlari va milliy meroslarini o'rganish va chet el adabiyotlarini o'zimizga qiyoslab tahlil qilish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Aynan germenevtika tafakkurni boyitish va ta'limni yuqori samaradorlikka olib chiqishda bizga dasturul amal bo'lib hizmat qiladi.

Tadqiqot usullari: taqdim etilgan muammolarni hal qilish va ilgari surilgan gipotezani sinash uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi: umumiy nazariy: o'rganilayotgan muammo

bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan falsafiy, pedagogik, psixologik, uslubiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish; umuman olganda va gumanitar, xususan, umumiy ta'limni modernizatsiya qilish siyosati va amaliyotini belgilaydigan davlat hujjatlari to'plamini tahlil qilish; empirik: eksperimental- eksperimental ish, kuzatish, sinov va so'roq qilish; eksperimental ma'lumotlarni statistik qayta ishlash usullari.

Xulosalar

Ushbu ma'noda talabalarning kreativ fikrlashi, tafakkurini rivojlantirishda germenevtik ta'limotni oid ma'lumotlar, ayniqsa tarixiy matnlar va islohotlar yoritilgan ilmiy muammo sifatida yechimini kutayotgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Mavjud vaziyatni tahlil qilish va ko'plab nashrlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon berdi:

Narsa-hodisalar mohiyatini tushunish va tushuntirish fan oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri ekan, germenevtik tadqiqotlar mohiyatini o'rganish ma'naviy – ma'rifiy tarbiya sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Germenevtik metodologiya asosida ijtimoiy-siyosiy hodisalar mazmunini talqin qilish, ular mohiyatini tushunish mustaqil bo'lganiga ko'p bo'lmagan O'zbekiston tarixi, milliy merosi, tafakkur uslubi va dunyoqarashidagi o'zgarishlarni chuqur tahlil etish va shu asosda ularga mustaqil munosabatni shakllantirish imkonini beradi. Global o'zgarishlar, axborot oqimi ko'lami oshayotgan bir paytda, milliy qadriyatlar mazmunini tushunish bilan birga, o'zga madaniyatlarni ham anglash davr talabidir.

Har bir sohani o'z taraqqiyot yo'li bor. Bunda tajribalar, davlatlar, soha harakatini ta'minovchi ishtirokchilar, ularning tili, millatu mentalitetiga qarab turlicha shakllanadi. Amalda qo'llanilganlarning barchasi ham omadli omadli bo'lavermaydi. Ularda samara va samarasizlik koeffitsienti yonma-yon yuradi. Ammo, tahlil, o'rganish, taqqoslash kabi induktorlar ham borki, ular qilinajak yangiliklar muvafaqqiyatini 70 foizga bo'lsada kafolatlaydi. Shuning uchun butun dunyo tajribalarini sinchiklab o'rganish va tahlil qilish va shu asosda yangi bilimlar yaratish doimo oldinda turadi. Tarixiy matnlarni tahlil qilish orqali talabalardagi aynan kreativlikka oid yangidan yangi bilimlarni shakllantirib borish esa bugunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 20.12.2022
2. Diltey. V. Germenevtika i teoriya literaturi. Sobr. soch. v 6 t. — M.: Dom intellektualnoy knigi, 2001. - T. 4.
3. Jabborov Sh., Abdushukurov B. Sharq germenevtikasining o'ziga xos xususiyatlari. –Toshkent: Akademiya, 2013.
4. Nazarov Q Jahon falsafasi tarixidan lavhalar /. tahriri ostida. -Toshkent: Sharq, 2005.
5. Jumaniyozov R. Ta'lim, tarbiya, tafakkur, taraqqiyot. –Toshkent: Abu Matbuot-konsalt, 2015.
6. Jo'rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. Jervolino D. Paul Ricouer: une hermeneutique de la condition humaine / D. Jervolino. P., 2003.
8. Izer V. Problema perevodimosti: germenevtika i sovremennoye gumanitarnoye znaniye: Leksii, pročitanniye na filologicheskom fakultete Moskovskogo universiteta. Per. s angl. -M.: 2009.
9. www.wikislovar.ru
10. <http://www.philosophypages.com/dy/>
11. <http://www.seop.leeds.ac.uk/entries/husserl/>



OLIV TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK MUAMMOLARI

Jo'rayev Bobomurod
Andijon davlat universiteti Stajor-tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nafaqat talabalar balki jamiyatning barcha a'zolari ham toboro kamharakat bo'lib borayotganini ko'rsatib turibdi. Ayniqsa, bu kabi tendensiyalar O'zbekiston kabi rivojlanayotgan, faravonlik darajasi sezilarli oshib borayotgan mamlakatlar aholisida yaqqol namoyo bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: Transformatsiyasi. Pedagogik. Axborotlashuv. Jismoniy faollikning. Muammolarni. Konsepsiya. Talabalar. Aqliy mehnat. Ijobiy.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Жураев Бобомурод
Стажер-исследователь Андижанского государственного университета

Аннотация: В данной статье показано, что не только студенты, но и все члены общества становятся менее активными. Такие тенденции особенно ярко проявляются у населения развивающихся стран, таких как Узбекистан, где значительно возрастает уровень насилия.

Ключевые слова: Трансформация. Педагогический. Коммуникация. Физической активности. Проблемы. Концепция. Студенты. Умственная работа. Положительный.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS OF INCREASING THE PHYSICAL ACTIVITY OF STUDENTS IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION

Zhuraev Bobomurod
Andijan State University intern-researcher

Annotation: This article shows that not only students, but all members of society are becoming less active. Such trends are particularly pronounced in the population of developing countries, such as Uzbekistan, where the level of violence is increasing significantly.

Keywords: transformation. Pedagogical. Communication. Physical activity. Problems. Concept. Students. brainwork. Positive.

O'zbekistonning hozirgi taraqqiyot bosqichida oliy ta'lim transformatsiyasi shiddat bilan davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 25 yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida: «Oliy o'quv yurtlariga bosqichma-bosqich akademik va moliyaviy mustaqillik beriladi. Joriy yilda ularning 10 tasi o'zini o'zi moliyaviy ta'minlashga o'tadi. Bundan tashqari, kamida 5 ta oliy ta'lim muassasasini konkurs asosida tanlab, nufuzli xorijiy oliy ta'lim dargohlari bilan hamkorlikda ularni transformatsiya qilishni boshlaymiz» deya ta'kidlaydi.⁷⁸

⁷⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 25 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // URL: <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020> (Мурожаат этилган сана: 12.01.2023 й.).



Transformatsiya oliy ta'lim tizimida amalga qilib kelgan qadriyatlarning, pedagogik shart-sharoit va munosabatlarning o'zgarishini taqozo etadi. Shu vatqga qadar amal qilib kelgan munosabatlar o'zgaradi va ularning o'rniga yangilari egallaydi. Transformatsiya masalalari bilan shug'ullanib kelgan tadqiqotchi A.Egamberdiyevning fikricha, "Globallashuv va raqamlashtirish jarayoni qanchalik ommaviy va universal xarakterga ega bo'lmasin, har bir madaniyat va har bir jamiyatga unikal ta'sir ko'rsatishi namoyon bo'lmoqda. Misol uchun, mineral o'g'itlar madaniy o'simliklarning rivojiga hissa qo'shish bilan birga, yovvoyi o'tlarning ham ko'payishiga sabab bo'ladi. Ayrim hollarda esa yovvoyi o'tlar mineral o'g'itlar hisobiga madaniy o'simliklarni butkul yo'qotib yuborishi ham mumkin. Shunga o'xshash holatni axborotlashuv jarayonida ham kuzatish mumkin. Axborotlashuv jarayonida ijtimoiy qadriyatlarning o'ziga xosligi bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda."⁷⁹ Oliy ta'lim transformatsiyasining ichida kechayotgan raqamli transformatsiyasi natijasida talabalarning internet tarmog'iga bo'lgan qaramligi ortib bormoqda. Endilikda bilim olish to'g'ridan to'g'ri kitob o'qish yoki ma'ruzalarni tinglash, laboratoriya mashg'ulotlarida ishtirok etish bilangina cheklanmaydi. Zamonaviy talabalar avvalambor o'zlari o'qiyotgan oliy ta'lim muassasasining tegishli platformalaridan ro'yhatga o'tgan bo'lishlari kerak. Mavjud platforma orqali o'qish jarayoni – dars jadvali, fanlar bo'yicha resurslar, professor-o'qituvchi bilan muntazam virtual aloqa shuningdek, shartnoma mablag'lari to'lash va boshqa ma'naviy-ma'rifiy masalalardagi munosabatlarni saqlab turishi zarur bo'ladi. Bu esa juda katta aqliy yuklamalarni tashkil qilgan holda jismoniy faollikning keskin kamayishiga olib kelmoqda. Rus pedagog olimi V.K.Balsevich ta'kidlaganidek, jismoniy faollik ijtimoiy va o'zi o'zinini tarbiyalashning muhim tarkibiy qismidir.⁸⁰ Haddan tashqari psixologik va aqliy yuklama natijasida esa qator salbiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin. Jumladan, talabaning jismoniy faolligining kamayishi natijasida unda normal garmonal rivojlanish ham kuzatilmaydi. Bu esa talabaning qarma qarshi jins vakillari bilan munosabatlari, reproduktiv funksiyalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu kabi muammolar esa jamiyatdagi yangi turdagi muammolarni keltirib chiqaradi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar va izlanishlar jismoniy faollikni insonning mavjudlik masalasiga qadar yetib bordi. Misol uchun, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan jismoniy faollik nima, degan saovlga quyidagicha javob beriladi. Jismoniy faollik bu – inson tanasining harakatlanishi natijasida energiya sarflanishidir.⁸¹ Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan talaba yoshidagi insonga quyidagi jismoniy faollikka rioya qilish tavsiya etilgan:

- xaftasiga kamida 150-300 daqiqa davomida jismoniy faollik bilan mashg'ul bo'lish zarur;
- xaftasiga nisbatan intensiv ravishda 75-150 daqiqa jismoniy faol bo'lish;
- xaftasiga ikki yoki undan ko'proq marotaba mushaklarni rivojlantiruvchi mashqlar bilan shug'ullanish;
- o'tirib ishlanadigan yoki yotadigan vaqtni cheklash, uning o'rniga nisbatan bo'lsa ham jismoniy faollik bilan shug'ullanish;
- sog'liqqa zararli bo'lgan kamharakatli hayot tarzining o'rniga jismoniy faol bo'lish kabi tavsiyalarni ishlab chiqqan.

⁷⁹ Эгамбердиев А. Ўзбекистонда олий таълим трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Фалс.фан.докт.дисс. Андижон, 2022. – Б. 93.

⁸⁰ Бальсевич В.К. Физическая культура для всех и для каждого. Москва, 1988. – С. 208

⁸¹ <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/physical-activity>



Qayd etilishicha yer yuzidagi 1,4 milliard odam jismoniy faol emas va uning oqibatida qator xavfli kasalliklar kelib chiqmoqda. Bu esa nafaqat talabalar balki jamiyatning barcha a'zolari ham tobora kamharakat bo'lib borayotganini ko'rsatib turibdi. Ayniqsa, bu kabi tendensiyalar O'zbekiston kabi rivojlanayotgan, farvonlik darajasi sezilarli oshib borayotgan mamlakatlar aholisida yaqqol namoyo bo'lmoqda.

Ma'lumki, uzoq yillar davomida barqaror ijtimoiy munosabatlar sharoitida ta'lim va fan kabi jamiyatning institutlariga nisbatan munosabat o'ziga xos tarzda shakllangan. Misol uchun, sobiq ittifoq davrida hech bir jamiyat a'zosi ta'lim muassasasi yoki ilmiy tashkilotning faoliyatiga shubha bilan qaramagan, uning subyektlari faoliyatiga nisbatan noxolis munosabatda bo'lmagan. Endilikda nafaqat O'zbekistonda balki, butun dunyoda ham har qanday ijtimoiy institutga nisbatan ishonchsizlik bilan munosabatda bo'lish tendensiyasi kuzatilmoqda. Yuz yillar davomida e'tiqod darajasiga ko'tarilgan ilmiy konsepsiya va nazariyalar turli qarash vakillari tomonidan rad etilmoqda. Albatta, bunqa g'ayrilmiiy qarashlar qisqa muddatda o'z ahamiyatini yo'qotishi tayin. Shu bilan birgalikda oliy ta'lim jarayoniga ham bunday munosabat ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Endilikda talabalar juda ya'shi tushunishadiki, hozirgi o'rganayotgan bilimlari ma'lum bir muddat o'z ahamiyatini yo'qotishi, jamiyat tomonidan unga nisbatan talab yo'qolishi mumkin. Sodaroq qilib tushuntiradigan bo'lsak, endilikda bilim va ilm e'tiqod darajasidan nisbatan pastroq pog'onaga tushgan. Albatta. Buning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bor. Shiddat bilan o'zgarishlar sharoitlarida talabalarning bu jarayonlarni tushunishi va unga amal qilishi ijobiy jihat. Salbiy tomoni esa ta'limning kuchi va ilmiy fanning qudratiga nisbatan shubha-gumonlar uni o'zlashtirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday bir murkkab sharoitda talabalarning ijtimoiy va aqliy faolligi bilan jismoniy faolligini ham saqlab.

Oliy ta'lim transformatsiyasidagi murakkab jihatlardan biri talabaga nisbatan "mahsulot" kabi qarash tendensiyasidir. Oliy ta'lim muassasalari ma'lum bir ma'noda bilim ishlab chiqaradi. Bitiruvchiga nisbatan talabalar kundan kunga ko'payib bormoqda. Misol uchun, bundan 10-15 yil avval bitiruvchilarga chet tillarini, xususan ingliz tilini bilish talabi qo'yilmagan. Hozirgi kunda esa har bir ish beruvchi potensiyaal xodimdan ingliz tilini bilishini kutadi. Shu bilan birga til bilishning ommaviy harakat darajasiga ko'tirilishi natijasida talabalarning o'zlari ham bu kabi zamonaviy kompetensiyaga ega bo'lishni istaydi. Bundan tashqari informatsion texnologiyalarning jadallik bilan rivojlanishi va uning har bir ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish tarmog'i bilan integratsiyalashuvi natijasida bitiruvchi nafaqat o'zining kasbi balki, unga integratsiya qilingan axborot kommunikatsion texnologiyalari, uning dasturiy va texnik ta'minotini o'zlashtirib olishi zarur. Hozirgi rivojlanish tendensiyasi talabalardan bilim olish jarayonida jismoniy faollikni emas, aksincha aqliy faollikni talab qilmoqda. Buning oqibatida esa tobora jismoniy ko'rsatkichlarning pasayishi kuzatilishi mumkin.

Shu bilan birgalikda yildan yilga talabalar tomonidan egallanishi zarur bo'lgan bilimlar hajmi oshib bormoqda. Hozirgi kunga kelib butun sivilizatsiya tomonidan qo'lga kiritilgan ilmiy kashfiyot va ixtirolarga teng o'zgarishlar nisbatan qisqa muddatda sodir bo'lmoqda.⁸² Albatta, bunday katta hajmdagi ma'lumotlarni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi shart deb hisoblash noto'g'ri bo'lar edi. Lekin, shunga qaramasdan, o'z yo'nalishi doirasidagi fundamental kashfiyotlarni loaqal internet tarmog'i orqali kuzatadi va uning ilmiy assolarini o'zlashtirishga harakat qiladi. Misol uchun, fizika yo'nalishida tahsil olayotgan talaba fizika sohasidagi Nobel

⁸² Michael Park, Erin Leahey, Russell J. Funk. Papers and patents are becoming less disruptive over time (АНГЛ.) // Nature. — 2023. — Iss. 613. — P. 138–14

mukofotining sovrindori tomonidan amalga oshirilgan kashfiyotlarni bilishi shart, chunki ushbu fundamental o'zgarish hattoki maktab darsligidagi mavjud fizik qonuniyatlarga o'zgartirish kiritgan bo'lishi mumkin. Bu esa hozirgi kundagi talabalarning aqliy mehnatini yana-da oshib borayotganligini yaqqol dalildir.

Axborotlashuvning yana bir muammolaridan biri ijtimoiy tarmoqlardir. O'rtacha foydalanuvchi bir oyda YouTube platformasida 23,7 soat, Facebook va TikTokda esa 19,6 soat vaqt o'tkazishi ma'lum bo'ld.⁸³ Ijtimoiy tarmoqlar hozirgi bosqichda ijtimoiy munosabatlarning yangi va barqaror shakliga aylandi. O'nlab ijtimoiy tarmoqlar yosh yigit va qizlarning o'zaro aloqalarini tashkil qiladigan platforma vazifasini o'tamoqda. Bu esa jismoniy faollikka juda katta salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatib turibdi. So'ngi o'n yil ichida tayanch-harakat kasalliklari, jumladan ostexandroz bilan kasallanish bir necha o'n barobarga ko'paygani kuzatilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra bunday kasallar soni 1,71 milliard kishini tashkil qilmoqda.⁸⁴

Demak yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak oliy ta'lim transformatsiyasi oqibatida talabalarga beriladigan aqliy yuklamalar hajmi oshib bormoqda va unga proporsional tarzda jismoniy yuklamalar hajmi kamayib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 25 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // URL: <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020> (Мурожаат этилган сана: 12.01.2023 й.).
2. Эгамбердиев А. Ўзбекистонда олий таълим трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Фалс.фан.докт.дисс. Андижон, 2022. – Б. 93.
3. Бальсевич В.К. Физическая культура для всех и для каждого. Москва, 1988. – С. 208
4. <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/physical-activity>
5. Michael Park, Erin Leahey, Russell J. Funk. Papers and patents are becoming less disruptive over time (англ.) // Nature. — 2023. — Iss. 613. — P. 138–14
6. <https://wearesocial.com/uk/blog/2022/01/digital-2022-another-year-of-bumper-growth-2/>
7. <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/musculoskeletal-conditions>

⁸³ <https://wearesocial.com/uk/blog/2022/01/digital-2022-another-year-of-bumper-growth-2/>

⁸⁴ <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/musculoskeletal-conditions>



BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORGARLIGI XORIJ TAJRIBASIDA

Xolboyeva Gulnora Ulashovna
TerDPI Maktabgacha ta'lim
metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi va bu sohada davlatimizda olib borilyotgan islohatlar hamda xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalar, menejment, Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas'uliyat, rivojlanish ko'rsatkichi, integrativ ta'lim.

ПОДГОТОВКА ДЕТЕЙ К ШКОЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ В ЗАРУБЕЖНОМ ОПЫТЕ

Холбоева Гулнора Улашовна
ТерДПИ Дошкольное образование
преподаватель методического отдела

Аннотация: В данной статье говорится о том, что подготовка детей к школьному обучению является одним из актуальных вопросов современности и о проводимых в нашей стране реформах и деятельности системы дошкольного образования в зарубежных странах.

Ключевые слова: Педагогические технологии, управление, самостоятельная деятельность, коллективное сознание, социальная ответственность, показатель развития, интегративное образование.

PREPARATION OF CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION IN FOREIGN EXPERIENCE

Xolboyeva Gulnora Ulashovna
TerDPI Preschool education
teacher of the methodological department

Annotation: This article says that the preparation of children for schooling is one of the pressing issues of our time and about the reforms carried out in our country and the activities of the preschool education system in foreign countries.

Keywords: Pedagogical technologies, control, independent activity, collective consciousness, social responsibility, development indicator, integrative education.

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-sonli, «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli qarorlari, «Maktabgacha

ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli farmoyishi shular jumlasidandir.

Xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini bir qator davlatlar misolida ko'rib chiqamiz. Yaponiya - juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70% ni, qolgan 30% ni butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi - ularning hayotlarining maqsadlaridir. Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoshda - o'ziga ishonch hissini uyg'otish, 2 yoshda - amaliy san'at. qo'l mehnatini ko'rsatish, 3 yoshda - burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda - yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish, 5 yoshda - liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish. Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O'g'ilga oilaning bo'lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar.

Yaponiya bog'chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlar - "xan"larga bo'ladi. Bu bolalarga bog'chada "o'z ish o'rni" ajratiladi, ular o'z xanlariga nom tanlaydilar. Shu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o'rgatadilar. Bu guruhdagi har bir bola guruhda o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. Bunday xanlar keyingi ta'lim bosqichida ham qo'llaniladi. O'rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko'nikish uchun har 5 oyda o'zgartirib turiladi. Yaponiya bog'chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat. Shuningdek, og'zaki nutq, so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga ham katta e'tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o'yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg'otiladi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 60% bolalar jalb etilgan. Boshlang'ich ta'limga erta qabul qilishga o'tish maqsadida 4-5 yoshdagi bolalarning barchasini bolalar bog'chasiga jalb qilish ko'zda tutilmoqda. Bolalar bog'chasi Yaponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi-bolani maktabga tayyorlashdir. Bu yerda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar o'tiladi. Individuallik, u qanchalik yaxshi bo'lmasin, bolalarni o'ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi.

Bizga ma'lumki, "maktabga tayyorgarlik" deganda bolaning maktab ta'limiga nisbatan tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan me'yoriy talablar doirasidagi psixik, jismoniy, intellektual, nutq va muloqot ko'nikmalarining shakllanganligi bilan bog'liq kompleks tayyorgarlik holati tushuniladi.

Yuqorida keltirilgan xorijiy tajribalar amaliyoti (AQSh, Angliya, Finlandiya, Shvesiya va boshq) shuni ko'rsatadiki, maktabga tayyorgarlik bu belgilangan aniq ko'rsatkichlar tizimi emas



balkim bolaning har tomonlama rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi sifatli ta'lim va sharoitga yo'naltirilgan hamkorlikdagi tizimdir.

Fikrimizcha, sifatli ta'lim tarbiyalanuvchida maktabgacha ta'limning asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirish jarayonida shakllanadigan, uning rivojlanishining ko'rsatkichi bo'lgan va bolaning yoshiga mos keladigan hayotiy vazifalarni mustaqil ravishda hal qilishiga yordam beradigan integrativ ta'lim tushuniladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-son "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni.
2. Г. Холбоева Мактабга тайёрлов гуруҳи болаларини мактаб таълимига тайёргарлигининг мазмунию - Innovation in the modern education system, 2023.
3. Г. Холбоева. Болаларини мактаб таълимига психологик тайёргарлиги - Новости образования: Исследование в XXI Веке, 2022
4. Г.У Холбоева, Р.Ж Окбоева Формирование трудового воспитания у детей дошкольного возраста - Евразийский научный журнал, 2018
5. G.U.Xolboyeva.Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muhim o'rni Pedagoglar malakasini oshirish tizimiga innovatsion yondashuv: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022-yil.6-7-aprel.
6. Қодирова Ф.Р, Тошпўлатова.Ш.Қ, Аъзамова М.Н. "Мактабгача педагогика" Т. Маънавият, 2013.



TALABA YOSHLARNING AKSIOLOGIK ORIYENTATSIYASINI YUKSALTIRISHNING ISTIQBOLLARI

Iskandarova.D.M

Andijon Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada globallashuv ta'sirini milliy manfaatlar va ehtiyojlarga samarali xizmat qilishga yo'naltirishlari, ayniqsa uning ta'lim tizimiga ta'sirini tartibga solib turish va uni to'g'ri boshqarish to'g'risida keng yozib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, talaba yoshlar, globallashuv, aksiologiya, talim tizimi, jamiyat.

ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ АКSIОЛОГИЧЕСКОЙ ОРИЕНТАЦИИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

Искандарова.D.M

Независимый исследователь

Андижанского государственного университета.

Аннотация: В этой научной статье подробно описывается, как влияние глобализации направлено на эффективное служение национальным интересам и потребностям, особенно на регулирование и надлежащее управление ее влиянием на систему образования.

Ключевые слова: молодежь, студенческая молодежь, глобализация, аксиология, система образования, общество.

PROSPECTS FOR RAISING THE AXIOLOGICAL ORIENTATION OF STUDENT YOUTH

Iskandarova.D.M

An independent researcher at Andijan State University

Annotation: this scientific paper extensively records the impact of globalization on their orientation to effectively serve national interests and needs, especially in regulating its impact on the educational system and its proper management.

Keywords: Youth, Student Youth, globalization, Axiology, training system, society.

Jamiyatda shakllangan o'ziga xos ta'lim tizimi mavjud tarixiy davrning xususiyatlarini, yuz berayotgan hodisalarni o'zida aks ettiradi. Avvalgi boblarda ta'kidlanganidek, jamiyatda modernizatsiya jarayonlari amalga oshirilayotgan va mamlakat demokratik o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan bo'lsa, bu jarayonlar ta'sirida hamda globallashuv talablariga mos ravishda milliy ta'lim tizimi ham zamonga moslashib o'zgarib boradi. Bu yerda ta'lim tizimi o'zgarishining asosiy tamoyili milliy ta'limda tarixan amal qilinayotgan an'analar, ta'lim qadriyatlaridan to'la voz kechmaslikdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq.

Globallashuv ko'p tadqiqotchilar tomonidan ziddiyatli, ijobiy va salbiy xususiyatlarni o'zida aks ettiruvchi jarayon sifatida e'tirof etiladi. Globallashuv unga o'xshash jarayonlarga nisbatan ziddiyatli mohiyatga ega bo'lgan hodisa sanaladi, u keng imkoniyatlarnigina emas, ko'plab global xavf-xatarlarning ham tarqalishiga sabab bo'ladi. Imkoniyatlar, taraqqiyot, erkinlikka umumiy emas, globallashuv oqibatida yuzaga kelayotgan xavf-xatarlar ham



umumiy. Globallashuvga qo'shilgan davlatlar va millatlar o'zlarini bu jarayon olib kelayotgan turli iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-ma'naviy tahdidlardan himoya qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishlari zarur. Ular globallashuv ta'sirini milliy manfaatlar va ehtiyojlarga samarali xizmat qilishga yo'naltirishlari, ayniqsa uning ta'lim tizimiga ta'sirini tartibga solib turish va uni to'g'ri boshqarish zarur.

Globallashuvning shiddatlilik xususiyati va uning qat'iy me'yorlarga amal qilmasligi uning ayniqsa, ta'lim tizimiga ta'sirida yaqqol ko'rinadi. Mazkur tizimda so'nggi davrda ko'plab an'anaviy tarbiya va ta'lim olish usullaridan tez voz kechilmoqda. Xorijiy tajribaning birdaniga kirib kelishining oqibatlarini ham ba'zan kutilganidek emas va u ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etmoqda. Bu borada yoshlarning bilim olishga ishtiyoqini ham so'nggi vaqtda nibatan susayganligini payqash mumkin. Bilim olish, yuqori bilimga ega bo'lishga nisbatan yoshlar dunyoqarashida ko'proq moddiy qadriyatlar ustunligi ko'zga tashlanadi. Yoshlarning bilim olishi, biror kasbni egallab, bu soxada mustaqil bo'lishi haqida Prezidentimiz shunday deydi: "Biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan yana bir masala, bu - farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam"⁸⁵.

Hozirgi vaqtda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan xorijiy tajriba va usullarni ehtiyotlik bilan tanlab olish, bu jarayonda milliy ta'lim an'analari va milliy mentalitetni albatta, hisobga olish zarur. Tez sur'atlar bilan tarqalayotgan iqtisodiy liberalizm, ilm-fan va ta'lim yutuqlari, texnologik innovatsiyalar, boshqaruv va ijtimoiy soxalarga xalqaro huquq qoidalari hamda huquqiy-demokratik tamoyillarning kirib kelishi ta'lim tizimining ham rivojiga xizmat qilishi aniq.

Turli tarixiy davrlarda ta'lim tizimining taraqqiyoti tarixiy davr talablariga mos ravishda amalga oshib kelgan va unda davr ruxiga o'z qadriyatlar shakllangan va amal qilingan. Insonlarning sotsiogenetik nuqtai nazardan rivojlanishi o'tgan avlodlarning ijtimoiy hayoti, madaniyati va qadriyatlari bazasida yuz beradi. Shakllanayotgan har bir yangi avlod mavjud qadriyatlarni yana-da rivojlantiradi, zamon ruxiga moslashtiradi, ko'paytiradi va yangilab boradi. Bu jarayon orqali milliy ehtiyojlar qondiriladi. Ta'lim tizimining aksiologik jihatlari to'g'risida ham shuni aytish mumkin.

Ta'lim taraqqiyoti, yoshlarimizning yuqori bilimga ega bo'lishi, mustaqil fikrlay olishi va bunga intilishlarning natijasi iqtisodiy omillarga albatta, aloqador. Hozirgi kunda ta'lim tizimiga katta investitsiyalar kiritayotgan, kelajak uchun kadrlar tayyorlash muammosini to'g'ri hal etayotgan davlatlar o'z taraqqiyotida yuksaklikka erishadilar. Chunki hozirgi davrda yoshlarning bilim olishi uchun, ta'lim uchun kiritilgan investitsiya – kelajak taraqqiyot uchun investitsiya hisoblanadi.

So'nggi vaqtda yoshlar orasida desekulyar jarayonlar nihoyatda kuchaydi. Ularning diniy bilim olishga intilayotganligi, ko'p xollarda diniylikni ilmiylikdan, oliy ta'lim muassasasida ta'lim olishdan ustun qo'yayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Albatta mamlakatda vijdon erkinligiga amal qilinadi. Lekin shu o'rinda diniy g'oyalarning ham ko'proq ijtimoiy taraqqiyotga, yoshlarning barcha soxalarda faollashuviga ta'sir etuvchi g'oyalarning tarqalishiga yo'l ochish maqsadga muvofiq bo'ladi.

⁸⁵ Mirziyoev Sh. Go'zal va betakror o'lka. (Namangan viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq) Mirziyoev sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2017.- B.103.



Xususan, Naqshbandiya tariqatining insonni mehnat qilish, bilim olish, faol bo'lishga chorlaydigan g'oyalari yoshlar orasida tarqalishi foydadan xoli bo'lmaydi. Professor I. Soifnazarov Naqshbandiya tariqatining ahamiyati to'g'risida quyidagicha fikr bildiradi: "... naqshbandiya tariqati bu olam tashvishlari, tiriklik muammolari bilan shug'ullanish ayb emasligini asoslab berdi. Ko'ngil Xudoda bo'lib, moddiy dunyo tashvishlari zo'r ishtiyoq bilan hal etilsa, buning foydasi savobga aylanajagi bu tariqatning ma'no-mohiyatini belgilar edi. Bu tariqat o'z ma'no-mohiyatiga ko'ra G'arbdagi protestantlik oqimiga o'xshab ketardi. Lekin Movarounnahr hududida moddiy ishlab chiqarishning yuksak rivojlanmagani, xalqning aql-zakovati asosan ruhiy-ma'naviy ishlab chiqarish - badiiy adabiyot, ilm-fan, madaniyat, diniy ilmlar rivojiga sarflangani bois, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish (ya'ni moddiy ishlab chiqarish) vositalari ustuvor mavqega ko'tarilmagani sababli naqshbandiylik g'oyalari jamiyatning ijtimoiy-siyosiy qiyofasini o'zgartirmadi"⁸⁶.

Ta'lim tizimi tomonidan mohiyatan faol, ijtimoiy hayotda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, yangiliklarga intiluvchi, intellektual salohiyati yuqori bo'lgan yoshlarni tarbiya qilish vazifasini bajarish yangilanib borayotgan O'zbekistonning ehtiyojlariga ham javob beradi, unda subyektiv omilning yuqori salohiyatga asoslangan faoliyatini ta'minlaydi. Ta'lim tizimi talaba yoshlarning iqtisodiy, intellektual, ma'naviy va boshqa salohiyatini yuksaltirish, yuzaga chiqarish hamda realizatsiya qilish uchun sharoit yaratishi hamda bu jarayonlarga ijobiy ta'sir etib, uni jamiyat va millat taraqqiyotiga xizmat qilish tomon yo'naltirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, mazkur vazifani amalga oshirishi uchun ta'lim tizimining ham o'zgarib, rivojlanib borishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va to'g'ri yo'naltirish zarur.

Jamiyat taraqqiyotining burilish davrlarida, islohotlar, o'zgarishlar yuz berayotgan vaqtda subyektiv omil, inson salohiyati, ularning faolligi hamda salohiyatini yuzaga chiqishi, realizatsiya bo'lishi muammolari dolzarb muammoga aylanadi. Chunki islohotlar va o'zgarishlar muvaffaqiyatli amalga oshirilishida, jamiyatning yangilanishida asosiy omil – insondir. Uning salohiyati, faolligi hamda jamiyatning yangilanishi zarurati, millat taraqqiyotining ehtiyojlari kabilarni subyektiv omil tomonidan to'g'ri anglanishi islohotlarning samaradorligini belgilashi mumkin. Bu borada yoshlar hamda ularning ilg'or qismi talaba yoshlarning pozitsiyasi muhim bo'lib, ular jamiyat taraqqiyoti dinamikasiga katta ta'sir etishi mumkin.

Jamiyat a'zolari, ayniqsa ta'lim va oliy ta'lim tizimida faoliyat olib boruvchi kishilar, professor-o'qituvchilar va yoshlar masalasiga daxldor bo'lgan boshqa subyektlarning talaba yoshlar harakatlari, faoliyati hamda pozitsiyasini to'g'ri yo'naltirish muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Yoshlar va talaba yoshlarga nisbatan turli ichki va tashqi global ijtimoiy-madaniy ta'sirlarning kuchayib borayotgan hozirgi davrda ularning kim va qaysi tomonning pozitsiyasiga qo'shilishi va uni tanlashi, qanday aksiologik tanlovni amalga oshirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda yoshlarning ko'pchiligi bilim olish, til o'rganish, xorijiy davlatlarning yuqori reytingga ega bo'lgan ta'lim muassasalarida o'qish, munosib kasb-hunarni egallab, jamiyatda o'z o'rnini topishga harakat qilmoqda. Ular kompyuter savodxonligi, axborotlashuv, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt kabi zamonaviy soxalarda bilimni va malakasini orttirishni o'zining muhim vazifasi sifatida tushunmoqda. Bu borada ota-onalar, ta'lim tizimi, yoshlar siyosati bilan shug'ullanadigan tegishli tashkilotlarning vazifasi yoshlar va talaba yoshlarning

⁸⁶Soifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat.-Toshkent:Sharq, 2001.-B.70-71.

ehtiyojlarini qondirishi uchun sharoit yaratish hamda moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'ladi. Ularga jamiyat tomonidan e'tibor berilmasa, bunday vazifani bajaruvchi subyektlar albatta, topiladi. Natijada millatimiz ilg'or va yuqori intellektual salohiyatga, innovatsion ongga va zamonaviy dunyoqarashi yuksak bo'lgan yoshlarimizning xorijga chiqib ketishini ta'minlagan hamda yoshlar migratsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lamiz.

Yangi O'zbekistonning barpo etilishi hamda mamlakatda islohotlar va yangilanish jarayonining amalga oshirilishida oliy ta'lim tizimi va uning subyektlari katta rol o'ynaydi. Yoshlar va talaba yoshlarning jamiyatda munosib o'ringa ega bo'lishi uchun xizmat qiluvchi milliy qadriyatlar, kirib kelayotgan ilg'or innovatsion qadriyatlarni ta'sirchanlik kuchini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim istiqbolli ahamiyatga ega. Bunda avval bilim va bilim olish, faol pozitsiyaga ega bo'lish, dolzarb kasb egasi bo'lish, jamiyatda ilg'or va yetakchilik, kreativ fikrlash, innovatsiyaga intilish va shu kabi yoshlar uchun zarur xislatlarning qadriyatga aylanib borishiga erishish milliy taraqqiyotga xizmat qiluvchi omillar ekanligini yoshlar ongiga singdirish ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan vazifani amalga oshirishning ilg'or va samarador usullarini ishlab chiqish va uning milliy-ma'naviy aksiologik asoslarini saqlanib qolish mexanizmlarini izlab topish milliy ta'lim tizimining rivojlanishiga xizmat qiladi. Albatta, bu muammolarni hal etishda xorijiy innovatsion texnologiyalarga o'ta berilib ketish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda milliy xususiyatlarni e'tibordan chetda qoldirish maqsadga muvofiq emas. Ayniqsa, ta'lim tizimida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalar ehtiyot bo'lib yondashishni talab etadi. Bu borada ta'lim tizimining milliy bazasi va qadriyatlarini saqlab qolish millatning etnostatusini saqlab qolish demakdir.

Mamlakatda ta'lim siyosatini amalga oshirishda mazkur tizimni globallashtirishning salbiy ta'siridan saqlab qolish zarur, chunki ta'lim tizimi boshqa ijtimoiy soxalarni globallashtirishning salbiy oqibatlaridan saqlab qolishi mumkin bo'lgan tizimdir. Ta'lim asosida yoshlar ham ilmiy, ham milliy tarbiya oladi, aksiologik pozitsiyasi va tanlovini shakllantiradi. Ta'lim tizimi orqali inson ham ilmiy, ham ma'naviy tarbiya olishi, salohiyatini rivojlantirishi hamda uni to'g'ri realizatsiya qila olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lim tizimining quyi bo'g'inlarida shakllangan qadriyatlar oliy ta'lim bosqichiga ham o'tib, o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib boradi. Oliy ta'lim tizimida bilim olayotgan talabalarning ehtiyojlarining o'zgarib, ortib borishi ularda yangicha qadriyatlarning shakllanishiga olib keladi.

Ta'lim tizimi oldiga dunyo bozorining tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan talablari o'ziga xos vazifalarni qo'ymoqda. Ta'lim tizimining vazifasi ulkan xalqaro bozorda raqobatbardosh, salohiyatli kasb egalarini, innovatsiyalarga intiluvchi talaba yoshlarni tarbiyalab yetishtirishdan iborat. Bozor talablarining tez o'zgarib borishi dolzarb mutaxassislarni tayyorlab chiqarishni talab etmoqda. Bu jarayonlar oliy ta'lim tizimida yangi, dolzarb yo'nalishlarni tashkil etish, o'quv rejalarini zamon talablariga mos qilib ishlab chiqish, zamonaviy ilmiy va kasbiy ehtiyojlarga javob bera oladigan fanlarni o'qitish kabi vazifalarni bajarishni talab etadi.

Oliy ta'lim tizimida hozirgi kunda o'qitilayotgan fanlar yuqorida qayd etilganidek, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Aks xolda farzandalarimiz - talaba yoshlarning bugun dolzarb hisoblangan kasbi va mutaxassisligining ahamiyati tez kamayib ketishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, zamonaviy milliy oliy ta'lim tizimi talaba

yoshlarni zamonaviy bilim, kasb-hunar va mutaxassisliklarni egallashga yo'naltirish bilan birga ular olayotgan bilimning foydalilik va samaralilik sifati, dolzarblik muddati muammosini ham xal qilib borishi zarur. Bugungi kunda ko'plab yoshlar oliy ma'lumotga ega bo'lishiga qaramasdan, ko'p vaziyatlarda yangi kasb egallashga majbur bo'lmoqdalar. Mamlakatimizda dolzarb hisoblangan ko'plab zamonaviy kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha talab yuqori bo'lsada, oliy ta'lim tizimi yuzaga kelayotgan bunday ehtiyojni qondira olmayapti.

Oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassisdan hozirda yuqori intellektual salohiyatga, innovatsion ongga ega bo'lish talab etiladi. "Hozirgi mutaxassis dunyoda bo'lib o'tayotgan hodisalarni tahlil qila oladimi, u qanday fikrlaydi va qanday muammolarni hal eta oladi, o'z ko'nikmalari va bilimlarini, axborotni boshqalarga qanday yetkazadi? U yetkazayotgan bilim va axborotning foydalilik muddati qanday, zamon talablariga javob bera oladimi? Bunday masalalar yoshlar ongida olamni bir butun tushunishni shakllantiradigan bilimni tashkil etish va uni boshqarish tizimini ishlab chiqish zurligini dolzarb qilib qo'yadi"⁸⁷.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi tobora xalqaro tajribani o'zlashtirib bormoqda. Ilg'or tajriba, o'qitishning yangi usullari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlarni ta'limga joriy etilayotganligi mamlakatimizda ta'lim tizimining ham tobora liberallashib borayotganini anglatadi. Bu jarayonlar O'zbekistonda ham talaba yoshlarning zamonaviy bilim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilayotganini va natijada yaxshi bilim olib, raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishi uchun imkoniyatlar yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bosqichlari, xususan oliy ta'lim globallashtirish talablariga moslashib borayotgani aniq. "Zamonaviy ta'lim xalqaro bo'lishi va universitet ta'limi ko'p xillik madaniy taraqqiyotning asosida turishi zarur, turli tuman madaniyatga asoslangan ta'lim esa taraqqiyotning axborot xavfsizligini ta'minlashi mumkin", - degan fikr dunyo hamjamiyatini birlashtiradi. Chunki u hodisani boshqa inson pozitsiyasi, turli madaniyatlar, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya nuqtai nazaridan baholash qobiliyatini shakllantiradi. Bo'lajak mutaxassisning madaniy o'z-o'zini anglashi va uning shaxsini boyitishga xizmat qiladigan ko'p madaniyatli ta'lim muhiti yaratilishi lozim"⁸⁸.

Hozirgi davrda O'zbekistonda ham raqobatbardosh mutaxassislarni bilimli qilib, tayyorlash zaruratga aylandi. Buning uchun mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini kelajak talablariga javob bera oladigan darajaga olib chiqish, zamonaviy talablarga moslashtirib, istiqbolli natijalarni ko'zlagan xolda mutaxassislarni tayyorlab, yetishtirish milliy strategik ahamiyat kasb etadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun mamlakatimiz olimlari, sotsiologlar, pedagoglar ta'lim tizimiga aloqador tegishli davlat tashkilotlari bilan muntazam izlanishlar olib borishlari, jamiyat istiqbolli taraqqiyotida zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishlari zarur.

Katta muvaffaqiyatlarga erishgan va milliy mentaliteti yaqin bo'lgan qo'shni davlatlar va boshqalar tajribasini o'rganib, ulardan foydalanish orqali oliy ta'limda bilim olishning

⁸⁷Барабанов О.Н., Лебедев М.М. Глобализация и образование в современном мире. В кн. Глобализация: человеческое измерение. - Москва.:РОССПЭН, 2002.-С.69.

⁸⁸Писаренко В.И. Инновационное развитие образовательных систем как основа модернизации высшего образования. Актуальные проблемы глобалистики и геополитики. Сборник научных трудов кафедры глобалистики и геополитики СФУ. - Красноярск.СФУ, 2012.-С.216.

samaradorligini oshirishga erishishi maqsadga muvofiq bo'ladi. "Ta'lim tizimi yoshlarni global fikrlashga, shunchaki mutaxassisni emas, liderlarni tayyorlashga, innovatsiyani qo'llab-quvvatlashga yo'nalgan bo'lishi zarur. Bu sohada "ta'lim xizmatlari bozori", "raqobatbardosh ta'lim" tushunchalari tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Ta'lim tizimi insonni umrbod bilim olishiga qaratilib, u doimiy uzluksiz ta'lim sifatida namoyon bo'lib bormoqda". Buning uchun ta'lim va oliy ta'lim tizimiga davlat tomonidan yetarlicha investitsiyalar ajratilishi zarur. Chunki ta'lim tizimiga kiritilgan bugungi investitsiya mamlakatning kelajak taraqqiyoti uchun kiritilgan investitsiya hisoblanadi. U millat istiqboliga xizmat qiladi hamda mamlakatda islohotlar va innovatsion taraqqiyotning ilmiy, madaniy va ma'naviy fundamenti bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan jarayonlar talaba yoshlarni yuksak aksiologik ongga ega bo'lish, zamonaviy qadriyatlarga intilish orqali ijtimoiy hayotda to'g'ri aksiologik oriyentatsiyaga ega bo'lishga ijobiy ta'sir etadi. Yangilik, innovatsiya, faollik, yetakchilikka intilish, ijtimoiy mobil bo'lish kabi xususiyatlar talaba yoshlar qadriyatlar tizimining muhim elementi sifatida namoyon bo'la boshlaydi. Oliy ta'lim talabasining imkoniyatlari hozirgi kunda cheksiz: yangi axborotlar, Internetdan foydalanish imkoniyatlari, masofaviy ta'limning yuzaga kelishi, elektron ilmiy adabiyotlardan oson foydalanish mumkinligi bugungi talabaning bilim olishi va kasb egallashi uchun ulkan imkoniyatdir. Bu yerda talaba yoshlardan faqat bilim olish uchun harakat qilish talab etiladi xolos.

Zamonaviy talabaning bilim olishi bilan bir qatorda bugungi kunda taraqqiyotning omili bo'lgan axborot to'plash, uni to'g'ri o'zlashtirish va undan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi ham muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bilimli bo'lish va yangi axborotga ega bo'lishgina emas, uni qo'llay bilish ham muhim bo'lib qoldi. Bu vazifalarni bajarishda jamiyatimiz ziyolilari katta rol o'ynashlari mumkin. Ularning bilimi, hayot tajribasi, obro'sidan foydalangan xolda talaba yoshlarning jamiyatda o'z o'rnini topishiga to'g'ri yo'naltirish mumkin. Mazkur sohada milliy intellektual salohiyatni saqlab qolish, uni yuksaltirish ham muhim bo'lib, u jamiyatning iqtisodiy, ilmiy va madaniy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Go'zal va betakror o'lka. (Namangan viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq) Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.-B.103.
2. Soifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. - Toshkent: Sharq, 2001.-B.70-71
3. Барабанов О.Н., Лебедев М.М. Глобализация и образование в современном мире. В кн. Глобализация: человеческое измерение. - Москва.:РОССПЭН, 2002.-С.69.
4. Писаренко В.И. Инновационное развитие образовательных систем как основа модернизации высшего образования. Актуальные проблемы глобалистики и геополитики. Сборник научных трудов кафедры глобалистики и геополитики СФУ. - Красноярск.СФУ, 2012.-С.216.



O'QUV JARAYONIDA KICHIK MAKTAB O'QUVCHILARINING MNEMIK QOBILIYATLARINING OPERATSION MEKANIZMLARINI ISHLAB CHIQUISH

Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada xotira, mnemik qobiliyat, takrorlash, kichik maktab o'quvchi yoshlar, A.A.Smirnov, Deyl Karneg, maktab, iqtidor, idrok, eslda saqlashi va his-tuyg'ulari, fikrlar, nutq, harakatlarni aks ettirishi kabilar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: fikrlash, tushunish, mantiqiy yodlash, "Ixtiyoriy-intuitiv" va "Ixtiyoriy - diskursiv", faoliyat, xarakter, operatsion mexanizmlar, yod olish, xotira, nutq, mnemik qobiliyat, miya, iqtidor, o'quv samaradorligi, rivojlanish, ko'nikma va malaka, bilim, ixtiyoriy va ixtiyoriy yodlash, mustaqil vazifalar, o'rganish, jarayon.

РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ РАБОТЫ МНЕМИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ

Жумаев Хушбоқ Соатмумин ўғли

Преподаватель кафедры методики начального образования Термезского государственного педагогического института.

Абстрактный. В статье говорится о памяти, мнемонических способностях, повторении, младших школьников, А. А. Смирнове, Дейле Карнеги, школе, одаренности, восприятию, запоминанию и отражении чувств, мыслей, речи, действий.

Ключевые слова: мышление, понимание, логическое запоминание, «Довольно-интуитивное» и «Довольно-дискурсивное», деятельность, характер, операциональные механизмы, запоминание, память, речь, мнемонические способности, мозг, одаренность, учебная эффективность, развитие, обучение навыкам и компетентностям, знание, произвольное и непроизвольное запоминание, самостоятельные задания, обучение, процесс.

DEVELOPMENT OF OPERATIONAL MECHANISMS OF MNEMIC SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS DURING THE STUDY PROCESS

Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li

Teacher of the Department of Primary Education Methodology, Termiz State Pedagogical Institute

Abstract. The article talks about memory, mnemonic ability, repetition, junior high school students, AA Smirnov, Dale Carnegie, school, talent, perception, remembering and reflecting feelings, thoughts, speech, actions.

Keywords: thinking, understanding, logical memorization, "Voluntary-intuitive" and "Voluntary -discursive", activity, character, operational mechanisms, memorization, memory, speech, mnemonic ability, brain, talent, educational efficiency, development, training skill and competence, knowledge, voluntary and involuntary memorization, independent tasks, learning, process.

Kirish

Xotira maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyatida juda muhim rol o'ynaydi. Psixologik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mnemik qobiliyatlarning shakllanishi va rivojlanishi maktabda o'qish davrida intensiv ravishda amalga oshiriladi.

Bolaning maktabga qabul qilinishi uning oldiga darhol yangi talablarni qo'yadi, bu bilimlarni tizimli ravishda o'zlashtirish zarurati bilan bog'liq bo'lib, uni o'z mnemik jarayonlarini o'rganish vazifalariga bo'sundirishga majbur qiladi. O'rganish jarayonida yangi usullar bilan qurollangan xotira sifat jihatidan o'zgarishlarga uchraydi: maktabgacha yoshdagi bolaning impulsiv yodlashidan kattaroq o'quvchining semantik yodlashiga qadar.[1]

Adabiyotlar tahlili

Inson xotirasining imkoniyatlari ko'p jihatdan o'quv jarayonida qancha ma'lumot olish mumkinligini, bu bilimlarni o'zlashtirish uchun qancha vaqt ketishini, ular qanchalik kuchli, umumlashtirilgan va harakatchan bo'lishini aniqlaydi. Shunday ekan, bu imkoniyatlardan oqilona foydalanish o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning muhim shartlaridan biridir. [2]

O'quv jarayonida xotiraning ishlashi bilan bog'liq qiyinchiliklar, odatda, Siz ko'p vaqt va kuch sarflashingiz kerakligidan iborat.

Yodlash, materialni eslab qolish, yodlangan material yetarlicha mustahkam va aniq yodga olinmaydi, yodlangan bilim "faol", "ishlamaydigan" bo'lib chiqadi. Bu qiyinchiliklarga nima sabab bo'ladi? Ular inson xotirasining cheklangan imkoniyatlarining tabiiy ko'rinishi emasmi?[3,4]

Bir qator tadqiqotlar ko'rsatganidek, inson xotirasi yodlashning ratsional usullari bo'yicha ham, eslab qolgan ma'lumotlarning hajmi, uni saqlash va ishlash imkoniyatlari bo'yicha ham juda katta, yetarli darajada foydalanilmagan zaxiralarga ega. Agar bu imkoniyatlarning barchasi mashg'ulotlarda yetarlicha foydalanilmasa, unda, ehtimol, sabablarni o'quv jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlaridan izlash kerak.[5,6]

Boshlang'ich maktab yoshida mnemik qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi doimo mahalliy psixologlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Bu yosh aqliy jarayonlarning ixtiyoriydan ixtiyoriyga o'tish davri sifatida qaraladi.[7,8]

Ushbu muammoga qiziqish maktab ta'limi muammolarini hal qilish zarurati bilan rag'batlantirildi, chunki bilim va ko'nikmalarni muntazam ravishda egallash bolalar xotirasining ma'lum darajasini, shu jumladan tushunishga asoslangan o'zboshimchalik bilan mantiqiy xotirani, materialni maxsus qayta ishlashni nazarda tutadi.[9,10,11,12,13]

Tadqiqot metodologiyasi

Mnemik qobiliyatlarning operatsion mexanizmlarini o'rganish hozirda bir necha yo'nalishlarda olib borilmoqda:

yuqori aqliy funktsiyalarni rivojlantirish mexanizmi sifatida aqliy funktsiyalarning vositachiligi;

interfunktsional munosabatlarni o'rganish (juda ko'p faktlar va naqshlarni to'plagan eng keng qamrovli soha).

Qolaversa, yodlash jarayonida vositachilik jarayonlari boshqa yo'nalishlarda ham ko'rib chiqilishini ta'kidlash lozim (R.Atkinson va boshqalar).



Psixologik adabiyotlarda ko'plab mualliflar nafaqat materialni yodlashda mnemik usullardan foydalanish samaradorligini ishonchli tarzda ko'rsatibgina qolmay, balki ularni shakllantirishning ba'zi imkoniyatlarini ham ochib beradilar.

A.A.Smirnov eksperimental tadqiqotida yodlash jarayonining ichki tomonini ko'rsatib, bu faoliyatda guruhlash, kuchli nuqtani tanlash va korrelyatsiya kabi harakatlarga markaziy o'rin ajratdi.

Materialni semantik guruhlash ostida A.A.Smirnov semantik mazmuniga ko'ra qismlarga (mikromavzular) bo'linishni tushunadi. Faoliyat xarakteriga ko'ra u matnlarni guruhlashning ikki turini ajratadi: "Ixtiyoriy-intuitiv" va "Ixtiyoriy -diskursiv". Birinchi holda, qismlarni tanlash mustaqil harakat emas, ongsiz ravishda sodir bo'ladi va bevosita o'qish jarayonida amalga oshiriladi. Ikkinchi holda, semantik guruhlash ongli, mustaqil harakatga aylanadi, chunki jarayon muayyan vazifaga bo'ysunadi. Matnni izlash, taqqoslash, ketma-ketligini baholash va tizimli o'rganish jarayonida qismlar ajralib turadi.

Yodlash usuli sifatida materialning semantik guruhlanishini ajratib ko'rsatib, A.A.Smirnov uni yodlash jarayonini tushunish uchun eng adekvat deb hisoblaydi, chunki yodlash jarayonida aqliy faoliyat doimo mavjud bo'ladi. Semantik guruhlash, A.A.Smirnovning so'zlariga ko'ra, yodlashning kuchli nuqtalarini majburiy ajratishni nazarda tutadi, bu orqali u "Yodlashda hech qanday yordam emas, balki umumiyroq mazmunni almashtiradigan qisqa, ixcham narsani" tushunadi. Yo'naltiruvchi nuqtalar yordamida nafaqat yodlash, balki ko'paytirish jarayoni ham vositachilik qiladi. Kuchli nuqtalar turli xil bo'lishi mumkin (tezislar, savollar, tasvirlar), lekin ular yodlash jarayonida materialni jamlash, umumlashtirish va tashkil qilishning yagona instrumental funktsiyasini bajaradi .

A.A.Smirnov ta'kidlaydiki, yodlash jarayonida mos yozuvlar nuqtalari bajaradigan funksiya A.N.Leontyev yondashuvidagi rag'batlantiruvchi vosita vazifasi bilan bir xil bo'ladi. Rag'batlantiruvchi vosita va mos yozuvlar nuqtasi o'rtasidagi farq shundaki, agar birinchi bo'lsa tashqi tayanch vazifasini bajaradi, ikkinchisi, A.A.Smirnovning fikricha , ob'ektning o'zi siqilgan tarkibdir.

Tahlil va natijalar

Umumiy holda olingan tayanch nuqtalar material rejasini tashkil qiladi. Bu rejalar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, matnning mantiqiy rejalariga o'xshamaydi. Ularning farqi, A.A.Smirnovning fikriga ko'ra, og'zaki formulalarning parchalanishidan iborat, mantiqiy shaklning to'liq emasligi va boshqalar. Kognitiv va mnemik rejalar o'rtasidagi farq I.P.Zinchenko tomonidan qayd etilgan.

Uning fikriga ko'ra, mnemik reja, kognitivdan farqli o'laroq, ma'lum bir tarkibni tashkil qilishning individual usuli bo'lib, ma'lum bir mavzuga tarkibni ma'lum bir tarzda belgilashga va takror ishlab chiqarish harakatini boshqarishga imkon beradi. Mnemik blok turli xil moddiy va semantik aloqalar guruhlarini mavjud ma'lumotlar, shaxsiy tajriba, bilim va sub'ektning qadriyatlarini bilan munosabatlarini tavsiflovchi ichki va tashqi aloqalarni aks ettiruvchi turli xil tayanchlardan iborat.

Yodlangan materialni qayta ishlashning tanlangan usullarini maktab yoshidagi bolalarda ularni rivojlantirish jarayonida A.A.Smirnov ko'rib chiqdi. U bu usullarni qo'llash dastlab sezilarli qiyinchiliklar tug'dirishini va aniq vazifa bo'lgan taqdirda ham bajarilmasligini, shuning uchun ularni yodlash maqsadida qo'llash mumkin emasligini ko'rsatdi. Odatda, bola rivojlanishi



bilan bu usullarni yodlash jarayoniga kiritib bo'ladilar. Shunday qilib, kichik va o'rta yoshdagi bolalar guruhlash yoki korrelyatsiyani hali tez va to'g'ri qo'llay olmaydilar, lekin agar aniq vazifa bo'lsa (masalan, o'xshashlik yoki farqlarni ko'rsatish), bu harakatlar bajarilishi mumkin.

A.A.Smirnov eksperimental tadqiqotlarda ma'lumotlarga ega bo'lib, ushbu bosqichda ushbu usullar bolalar tomonidan tushunish uchun mavjud, ammo ularni yodlash usullari sifatida emas, balki mustaqil vazifalar sifatida. Yoshi bilan, ularni o'zlashtirgani sayin, ular yodlashning haqiqiy usullari sifatida tinglashadi va yodlash faoliyatining muhim daqiqalariga aylanadilar. nazorati ostida ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Materialni tinglash paytida dok ham saqlanib qolgan, bu o'z harakatlari ustidan o'zini o'zi boshqarish mavjudligini ko'rsatadi. Yodlash jarayonida o'z-o'zini nazorat qilishdan foydalanish erishilgan natijalarga tanqidiy munosabatda, olingan ma'lumotlarni namuna bilan bog'lash qobiliyatida ifodalangan.

Semantik yodlashni shakllantirish va tashkil etishga qaratilgan o'qitish eksperimentlari shuni ko'rsatdiki, ko'plab maktab o'quvchilari, bir tomondan, aqliy harakatlarning shakllanishining etarli darajada yuqori emasligi, boshqa tomondan, olib borish qobiliyati bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelishadi. So'zlarni yodlashning butun jarayoni ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish. Taqdim etilgan materiallarga ko'ra, kichik yoshdagi o'quvchilarni yodlashning asosiy usuli - takroriy takrorlash.

Deyl Karnegi takrorlashni xotiraning ikkinchi qonuni deb ataydi. Biz uni tez-tez takrorlasak, tafakkur chegarasidagi barcha ma'lumotlarni yodda saqlashimiz mumkin bo'ladilar". Axborot miqdori qancha katta bo'lsa, yodlash uchun shuncha ko'p takrorlash talab etiladi. Katta hajmli ma'lumotlarni qismlarga ajratsa, yod olish osonroq kechadi. Yod olish uchun tanlangan materialni uzoq vaqt davomida takrorlash, uni ma'lum bir vaqt oralatib takrorlashdan ko'ra kam samara beradi. Masalan, yigirma yetti tilda o'z ona tilidek so'zlasha olgan R.Berton tilni o'rganishda 15 daqiqadan ortiq shug'ullanmaganligini kuzatishimiz mumkin. Chunki, bu vaqtdan so'ng miya tiniq ishlamasligini ta'kidlaydi.

Avval yod olingan ma'lumotlarni takrorlash ularni xotirada yaxshiroq saqlashga yordam beradi. Yod olinayotgan materialga ko'proq e'tiborli bo'lish, diqqatni qaratish, takrorlashlar sonini kamaytirish mumkin. Materialning o'rta qismidan ko'ra boshi va oxirida nisbatan ko'p takrorlangan ma'qul. Yod olish uchun kun davomida takrorlashning bir tekis taqsimlanishi materialni bira to'la yod olishga nisbatan ikki martadan ko'proq vaqtni tejaydi.

Xulosalar

Bu yoshdagi bolalar yodlash jarayonida o'zini o'zi nazorat qila olmaydi. Garchi boshlang'ich maktabning oxiriga kelib, kichik yoshdagi o'quvchilar asta-sekin xotirani tashkil qilish va boshqarishning ba'zi vositalarini o'zlashtira boshlaydilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yodlashni osonlashtirish uchun bolalar semantik guruhlashning turli usullaridan foydalanishni boshlaydilar, ammo ular semantik asosda emas, balki moddiy elementlarning fazoviy va vaqtinchalik uyg'unligi asosida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar

1. Smirnov A.A. Xotirani rivojlantirish. - M.: Pedagogika.
2. Smirnov A.A., Istomina Z.M. Maktabgacha yoshdagi va kichik maktab o'quvchilarida mantiqiy yodlash usullarini shakllantirish / Psixologiya savollari.
3. Smirnov A.A. Xotira psixologiyasi muammolari: Tanlangan psixologik asarlar. 2 jildda. - M.: Pedagogika,
4. Styuxina G.A. Mnemonik qobiliyatlarning rivojlanishi (20-yillarning oxiri va 90-

yillarning boshlarida bolalar va o'smirlarning qiyosiy tadqiqoti): Dissertatsiyaning referati. dissertatsiya .. qand.psixol.sci. - M.

5. Anoxin P.K. Funktsional sistema nazariyasining falsafiy jihatlar. - M.: Nauka.
6. Ansimova N.P. Ruhiiy xususiyatlarni qoplash muammosi. / Kasbiy yo'naltirish va o'qitish. – Yaroslavl.
7. Antonova I.P. O'quv jarayonida 6-7 yoshli bolalarda xotira rivojlanishining xususiyatlari / Psixologiya savollari.
8. Antonova I.P. 6 va 7 yoshli bolalarda naqsh o'rnatish qobiliyatining rivojlanish darajasi / Psixologiya savollari.
9. Antsiferova L.I. Chet el psixologiyasidagi materialistik g'oyalar. - M.: Nauka.
10. Artemyeva T.N. Qobiliyatlar muammosining uslubiy jihati. - M.: Nauka.
11. Artemyeva T.N. Qobiliyat muammosi: shaxsiy jihat / Psixologik jurnal.
12. Nemov R. S. Psixologiya. M.,
13. Kinyakina O. N. Miya 100% da. Intellekt. Xotira. Ijodiy. Sezgi, M. "Eksmo".

TALABALARNING REYTING KO'RSATKICHLARIGA TA'SIR QILADIGAN OMILLARNI TAHLIL QILISH

Nabiev Bobir Baxodirovich

Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro sh.

Annotatsiya: Hozirgi davrda ta'lim sohasida yuqori malakali va tajribali mutaxassislarini tayyorlashga alohida urg'u berilmoqda. SHu jihatdan, o'quv yurtlarida ishlaydigan mutaxassislariga ham talab ortib bormoqda. O'quv jarayonida faol qatnashadigan talabalar yuqori ballar to'plab, foydali amaliy ko'nikmalarni o'rganadilar. Bu esa, o'z navbatida, ularning yuqori stipendiya, diplomda yuqori baholar olishlariga, fan bo'yicha foydali bilim va ko'nikmalar egallanishi va ishga kirishda yuqori imkoniyatlarga olib keladi.

Kalit so'zlar: O'quv jarayonining tahlili, semestr, o'zlashtirish ko'rsatkichi, ball.

АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РЕЙТИНГОВЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ СТУДЕНТОВ

Набиев Бобир Баходирович

Бухарский государственный медицинский институт, Республика Узбекистан, г.

Бухара.

Аннотация: В настоящее время особый акцент делается на подготовке высококвалифицированных и опытных специалистов в области образования. В связи с этим растет и спрос на специалистов, работающих в образовательных учреждениях. Студенты активно участвующие в учебном процессе, получают высокие оценки и приобретают полезные практические навыки. Это, в свою очередь, ведет к более высоким стипендиям, более высоким оценкам в дипломе, получению полезных знаний и навыков по предмету и более высоким шансам получить работу.

Ключевые слова: Анализ учебного процесса, семестр, показатель успеваемости, баллы.

ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING THE RATING INDICATORS OF STUDENTS

Nabiev Bobir Bakhodirovich

Bukhara State Medical Institute, Republic of Uzbekistan, Bukhara.

Abstract: *Currently, special emphasis is placed on the training of highly qualified and experienced specialists in the field of education. In this regard, the demand for specialists working in educational institutions is also growing. Students who actively participate in the learning process earn high grades and learn useful practical skills. This, in turn, leads to higher scholarships, higher grades in the diploma, acquisition of useful knowledge and skills in the subject, and higher chances of getting a job.*

Keywords: *Analysis of the educational process, semester, academic performance, scores.*

Kirish

Hozirgi davrda ta'lim sohasida yuqori malakali va tajribali mutaxassislarni tayyorlashga alohida urg'u berilmoqda. SHu jihatdan, o'quv yurtlarida ishlaydigan mutaxassislarga ham talab ortib bormoqda. Ta'lim berish vaqtida ilmiy jihatdan ustunligi isbotlangan uslublardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Dars o'tish jarayonida o'qituvchi talabalarga ilm berish uchun turli usullarni qo'llaydi. Talabalarning ham psixologik jihatdan turli mijozlilari bo'lib, har biriga individual yondashuv talab qilinadi. Ba'zan o'quv jarayonida darsga yoki o'quv jarayoniga befarq bo'lgan talabalar bilan ishlashga to'g'ri keladi.

Adabiyotlar taxlili

O'quv jarayoni sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish. Misol sifatida ma'lum bir oliy o'quv yurtida o'qish jarayonining tahlilini ko'rib chiqamiz. Bu jarayonda 4-ta guruh tahlil qilindi (ularni shartli ravishda A, B va C, D deb nomlaymiz).

A va B guruh talabalari darsda faol qatnashdilar, o'qituvchining topshiriqlarini bajardilar, test va amaliy mashg'ulotlarda yaxshi natija olishga harakat qildilar.

S va D guruhi talabalari, aksincha, darslarda majbur qatnashib, o'qituvchining topshirig'ini bajarmasdilar, o'quvchilarni baholash uchun o'qituvchi kompyuter testlaridan foydalanardi. Semestr oxirida barcha gurux o'zlashtirish ko'rsatkichlari tahlil qilindi (1,2 jadval, 1, 2 rasmlar).

Tahlillar va natijalar

Jadval 1. Darsda qatnashmaslik ko'rsatkichi (semestr davomida):

Guruh nomi/ Darsda qatnashmaslik sababi	Kasallik sababli (talabalar soni)	Dekanat ruhsati b-n (talabalar soni)	Sabab noaniq (talabalar soni)
A	12	7	1
B	10	2	1
C	20	2	20
D	10	6	62



1 - rasm. O'zlashtirish ko'rsatkichi (semestr davomida):

Jadval 2. Guruhlar kesimida ballar yig'indisi

Guruh nomi	To'plangan o'rtacha ball (guruh bo'yicha) (maks.=100 ball)
A	77,30818
B	74,25198
C	57,5158
D	48,20667



2 - rasm. O'zlashtirish ko'rsatkichi (semestr davomida):

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, darsda faol qatnashadigan va o'qituvchining topshirig'ini bajaradigan talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqori.

Xulosalar

O'quv jarayonida faol qatnashadigan talabalar yuqori ballar to'plab, foydali amaliy ko'nikmalarni o'rganadilar. Bu esa, o'z navbatida, ularning yuqori stipendiya, diplomda yuqori baholar olishlariga, fan bo'yicha foydali bilim va ko'nikmalar egallanishi va ishga kirishda yuqori imkoniyatlarga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Bazarbayev M.I., Tulaboyev A.K. va boshq., Tibbiyotda axborot texnologiyalari, Darslik. Toshkent. 2018 y.
2. Bazarbaev M.I., Ermetov E.YA., Sayfullaeva D.I. «Ta'limda axborot texnologiyalari», Darslik. Toshkent. 2018 y.
3. Нажмиддинов Х.Г., Хамроев Р.Р. «Информационные технологии в медицине», Учебник, Бухара: изд. «Дурдона», 2022 г.
4. Зарубина Т.В., Кобринский Б.Б. Медицинская информатика. Учебник, Москва: ГЭОТАР-медиа, 2016 г.

O'ZBEKISTONDA SPORTNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA DAVLAT SIYOSATI VA BUNDA XOTIN-QIZLAR ISHTIROKI

Omonova Sarvinoz Orif qizi
Qarshi davlat universiteti, dotsent v.b. (PhD)

Annotatsiya: O'zbekistonda umuman qiz bolalarni sport tadbirlariga jalb etishga jiddiy ahamiyat qaratilib, buning uchun qat'iy chora-tadbirlar rejalari ham ishlab chiqildi. Sportning turli yo'nalishlari bo'yicha dasturlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etildi. Shuningdek, davlat tomonidan o'quvchi qizlarning Olimpiyada harakatida ishtirok etishlari uchun yanada kengroq imkoniyatlarni yaratish maqsadida Milliy Olimpiya Qo'mitasi qoshida ayol va sport yo'nalishi bo'yicha komissiyasi tashkil etildi.

Kalit so'zi: Xotin-qizlar, O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi, normativ hujjat, rivojlantirish, jismoniy tarbiya, sport o'yinlari, xalqaro musobaqalar, Olimpiya o'yinlari, yoshlar va ayollar.

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА ПО РАЗВИТИЮ СПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ И УЧАСТИЕ В НЕМ ЖЕНЩИН

Омонова Сарвиноз Ориф кизи.
Каршинский государственный университет, доцент. (Кандидат наук)

Аннотация: В Узбекистане уделяется серьезное внимание привлечению девушек к занятиям спортом, для этого разработаны четкие планы мероприятий. Были приняты и внедрены в практику программы по различным направлениям спорта. Также в целях создания более широких возможностей участия школьниц в олимпийском движении при Национальном олимпийском комитете была создана комиссия по делам женщин и спорту.

Ключевые слова: Женщины, Национальный олимпийский комитет Узбекистана, нормативный документ, развитие, физическое воспитание, спортивные игры, международные соревнования, Олимпийские игры, молодежь и женщины.



STATE POLICY ON THE DEVELOPMENT OF SPORTS IN UZBEKISTAN AND THE PARTICIPATION OF WOMEN IN IT

Omonova Sarvinoz Orif qizi
Karshi State University, associate professor, (PhD)

Abstract: *In Uzbekistan, serious attention is paid to the involvement of girls in sports activities, and strict action plans have been developed for this purpose. Programs in various areas of sports were adopted and put into practice. Also, in order to create wider opportunities for schoolgirls to participate in the Olympic movement, a commission on women and sports was established under the National Olympic Committee.*

Key word: *Women, National Olympic Committee of Uzbekistan, regulatory document, development, physical education, sports games, international competitions, Olympic Games, youth and women.*

Kirish

Jamiyat rivojini belgilovchi asosiy omillardan biri bu ayollarga munosabat masalasining qay darajada yo'lga qo'yilishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek xalqi orasida ayolni ardoqlash, unga hurmat ko'rsatish yuqori doimo o'rinda turgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash yuzasidan doimiy ravishda davlat tomonidan kuchli e'tibor berildi. Xotin-qizlar masalasining huquqiy asoslari mustahkamlab borildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila Kodeksi, "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi normativ hujjatlar shular jumlasidandir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Jahonning nufuzli xalqaro tadqiqot markazlarining fikricha, O'zbekiston dunyo davlatlari orasida xotin-qizlar sportini yo'lga qo'yish va rivojlantirish bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallab keldi[1].

Buni O'zbekistonda xotin-qizlar sporti bo'yicha davlat tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy hujjatlar va ularda belgilangan chora-tadbirlarning amaliyotga joriy etib borilishida ko'rish mumkin. O'zbekistonlik sportchi qizlar ko'plab xalqaro va olimpiada musobaqalarida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bo'yicha oldingi o'rinda turdi.

O'zbekistonda xotin-qizlar sportini yo'lga qo'yish va rivojlantirish, ular uchun zamonaviy sport inshootlarini barpo etish, ularni modernizatsiya qilish, sportchi qizlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xalqaro arenalarda yuqori natijalarga erishgan xotin-qizlarni taqdirlash bo'yicha doimiy ravishda chora-tadbirlar olib borildi. O'z o'rnida bu kabi tadbirlar sog'lom avlod tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Respublikada jismoniy tarbiya va sport sohasi faoliyatining keng huquqiy asoslari yaratildi. 1992-yil 14-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi[2]. 2000-yil 26-mayda "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunning ikkinchi yangi tahriri qabul qilindi. 2015-yil 5-sentabrda esa Qonunning uchinchi yangi tahriri qabul qilindi. Qonun 8 ta bob va 47 moddadan iborat[3]. Mazkur hujjat yoshlar va ayollarni sportga jalb etish, sportni davlat tomonidan yanada kengroq qo'llab-quvvatlash tadbirlarini kuchaytirishni hozirgi zamon talablariga chiqarish, murabbiylar tayyorlash sohasini mustahkamlash, sportning zamonaviy infratuzilmasini vujudga keltirish, xalq o'yinlari sport turini targ'ib etish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar ko'lamini kengaytirishga xizmat qildi. Shuningdek, sport sohasini samarali boshqarish, sport

bilan shug'ullanuvchilarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning kafolatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Qonunda "sportchi" tushunchasiga aniq ta'rif berilishi, sportchilarni ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor berildi[4].

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini yo'lga qo'yish tadbirlari kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biri sifatida doimiy ravishda davlatning e'tiborida bo'ldi. Masalan, 1991-1997-yillar O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli meyoriy hujjatlar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilishi bilan harakterlanadi. Bu davrning muhim jihati avvalo sohani boshqarishning tashkiliy asoslarining takomillashtirilishi bilan bog'liq bo'ldi. Jumladan, bu davrda O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federatsiyalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Mustaqillik sharoitida ommaviy sport ishlarini kuchaytirishga aholini sog'lomlashtirishning muhim omillaridan biri sifatida qaraldi. Ayniqsa bu davrda milliy sport turlari va o'yinlariga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Chunki shu paytga qadar xotin-qizlar sportiga e'tibor yo'q hisobi edi. Masalan, 1990 yillarning boshlarida institut va universitetlarda ta'lim olayotgan talaba qizlarning ko'pchiligi, qariyb 60 foizi sport turlari bilan shug'ullanmadi[5].

Mustaqillik davrida asta-sekinlik bilan sport tadbirlari ommalashib, xalqaro sport tadbirlarida muayyan natijalarga erishildi. 1991 – 1997-yillarda milliy kurash bo'yicha jahon chempionatlari, tennis bo'yicha "Prezident Kubogi" xalqaro turniri, sportning xalqaro ayollar musobaqalar, shuningdek, Toshkent, Samarqand, Qarshi shaharlarida "Chelenjer", "Fyuchers" va "Satellit" kabi xalqaro musobaqalari o'tkazildi. Mamlakat sportchilari ilk bor mustaqil jamoa sifatida 1992, 1996-yilda yozgi, 1994-yilda qishki Olimpiya o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etdi[6].

1991-yilda O'zbekistonda 52 ta sport turi mavjud bo'lsa, keyingi yillarda 74 ta sport turidan 65 dan ortig'i hududlarda keng rivoj topib, jarayon ko'lamini kengaytirish uchun sharoitlar yaratildi[7]. O'zbekistonda bu borada amalga oshirilgan islohotlarda xotin-qizlar sportini rivojlantirish markaziy o'rinlardan birini egalladi. Aynan sport ayollarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi rolini kuchaytirishga xizmat qildi.

Natijalar va muhokamalar

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 1995 yil 2-martda "Davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon imzolandi[8]. Hujjatga muvofiq respublika xotin-qizlar boshqaruv tizimida o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu kabi hujjatlarning e'lon qilinishi ma'lum ma'noda xotin-qizlar sporti rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ayollarning «To'maris» sport festivali, «Jasorat-iroda-g'alaba» nogironlar sport musobaqalari, o'quvchi va talabalarning «Umid nihollari» va boshqa sport musobaqalari doimiy o'tkazilib borildi[9].

Keyingi yillarda ayollar o'rtasida sportni keng targ'ib etish rivojlantirish va ularni sport tadbirlariga jalb etish maqsadida xotin-qizlar o'rtasida sport musobaqalari ko'paytirib borildi. Bunda ayniqsa xotin-qizlar o'rtasidagi spartakiadalar muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonda sportning tennis turini yo'lga qo'yish va targ'ib etish, bu sohadagi sportchi ayollarga shart-sharoitlar yaratish maqsadida 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda tennisni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Bu o'z o'rnida ayollar o'rtasida sportning tennis turini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 27-maydagi 274-sonli “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori[10], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 24-oktabrdagi bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish haqidagi Farmoni xotin-qizlar salomatligini yaxshilash, ayniqsa, talaba-qizlarni jismonan sog‘lomlashtirish tadbirlarini kuchaytirishga xizmat qildi[11].

O‘zbekistonda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining (1999-yil 10-iyunda) ta‘sis etilishi, boshqa sohalar qatori sport yo‘nalishida ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi[12]. Ushbu mukofot sohiblari orasida sportchi qizlar ko‘pchilikni tashkil etdi.

2002-yili O‘zbekistonda Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi o‘z faoliyatini boshladi. Jamg‘arma tomonidan sportni yoshlar o‘rtasida yanada ommalashtirish, jahon va xalqaro musobaqalar g‘oliblari, faxriy sportchilar va yoshlar bilan mahorat darslarini tashkil etish tadbirlarini olib bordi. Ushbu tadbirlarda 34864 nafar yoshlar, shuningdek 6331 nafar qizlar ishtirok etdi[13].

2002-yil 5-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining aholi orasida tibbiy madaniyatni ko‘tarish, ayollar salomatligini mustahkamlash, sog‘lom avlodni tarbiyalashning ustuvor yo‘nalishlari xususidagi qarori e‘lon qilinib, hujjatda “Sog‘lom avlod uchun” sovrini uchun qizlar o‘rtasida sport musobaqalari, shu jumladan, sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish vazifasi davlat organlariga yuklatildi. Respublika hududlarida O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi tashabbusi bilan 2005-yildan boshlab gimnastika, sog‘lom avlod, oila mavzular bo‘yicha turli shiorlar ostida sport musobaqalari tashkil etilib, ularda har yili 500 mingdan ortiq xotin-qizlar ishtirok etdi[14].

O‘zbekistonda sportni rivojlantirish Davlat dasturi Konsepsiyasi jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari rivojlanishining tashkiliy-huquqiy va moliyaviy asoslarini belgilab berdi. Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 6 iyundagi o‘quvchi va talabalarni sportga yanada kengroq jalb qilish maqsadida uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish borasidagi qarorida umumta‘lim maktablarning o‘quvchilari, kollej o‘quvchilari va oliy ta‘lim muassasalari talabalarining sport uyinlari tashkil qilib borildi[15].

Xulosa

Yuqoridagi tahlil natijalarini umumlashtirgan holda shuni xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda sportning 50 dan ortiq yo‘nalishi ommalashgan va shundan 30 tasi Olimpiada musobaqalari dasturiga kiritilgan[16]. Shuningdek, 2004 yil ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha jami 63 ta federatsiya faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular qat‘iy belgilangan reja asosida faoliyat ko‘rsatib bordi[17].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 mayda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash haqidagi PF-3434-sonli Farmoni e‘lon qilindi. Hujjatda xotin-qizlar faoliyatini tubdan yaxshilash va ularni sportga kengroq jalb etish tadbirlarini ham kuchaytirishga aloxida etibor qaratildi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash. Zdravooxraneniye Uzbekistana, 2006 yil 29 avgust. – № 35.– B.4. (Health care in Uzbekistan. August 29, 2006. – No. 35.– B.4.)
2. O‘zR Oliy Kengashining Axborotnomasi, «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonuni, 1992 y.,– №3,160 modda. (Bulletin of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan, Law "On Physical Education and Sports", 1992, Article No. 3,160.)
3. Olimpiya bilim asoslari. – T., 2000. – B.139. (Basics of Olympic knowledge. - T., 2000. - P.139.)



4. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni, 2015 yil 4 sentabr. (The Law of the Republic of Uzbekistan "On Physical Education and Sports", September 4, 2015.)
5. Azimov H.G., Sobitov Sh.S. Sport fiziologiyasi. – Toshkent, 1993. – B.43. (Azimov H.G., Sobitov Sh.S. Sports physiology. - Tashkent, 1993. - P.43.)
6. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 100 yilligiga bag'ishlangan Respublika anjumani. Ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: O'zDJTI nashriyoti. 1994. – 211 b. (Republican conference dedicated to the 100th anniversary of the International Olympic Committee. Collection of lectures. - Tashkent: UzDJTI publishing house. 1994. - 211 p.)
7. Ernazarov E. Olimpiada – jahon sporti bayrami. – T.: «Sharq», 2008. – B.206. (Ernazarov E. The Olympics is a world sports holiday. - T.: "Sharq", 2008. - P.206.)
8. Xalq so'zi, 2002 yil 3 mart. (People's word, March 3, 2002.)
9. Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. –T., 2005. –B.142 (278). (9. Akhmatov M.S. Effective management of mass sports and wellness activities in the continuing education system. -T., 2005. -P.142 (278).)
10. O'zR VM ning "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori // Xalq so'zi, 1999 yil 27 may. (Decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On measures to further develop physical education and sports in Uzbekistan" // People's word, May 27, 1999.)
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 24 oktabrdagi PF-315-sonli "O'zbekiston Respublikasi bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi, 2002 yil 25 oktabr. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-315 of October 24, 2002 "On the establishment of the Children's Sports Development Fund of the Republic of Uzbekistan" // People's word, October 25, 2002.)
12. Safarova M.S., Pulatova Sh.K. Oilada jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda xotin-qizlarning o'ri // Xotin – qizlar sporti: imkoniyatlar va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 4-5 may 2018 yil.– Buxoro: "Durdona", 2018. – B.30 – 31. (Safarova M.S., Pulatova Sh.K. The role of women in the development of physical education and sports in the family // Women's sports: opportunities and prospects. Proceedings of the Republican scientific-practical conference, May 4-5, 2018. - Bukhara: "Durdona", 2018. - P.30-31.)
13. Baymuradov R. Viloyatda bolalar sportini rivojlantirishda jamg'armaning o'ri va roli // Xotin - qizlar sporti: imkoniyatlar va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 4 – 5 may 2018 yil.– Buxoro: "Durdona", 2018. – B.147 – 148. (Baymuradov R. The place and role of the fund in the development of children's sports in the region // Women's sports: opportunities and prospects. Proceedings of the Republican scientific-practical conference, May 4-5, 2018. - Bukhara: "Durdona", 2018. - P.147-148.)
14. Shakarjonova K.T., Djalilova L.A. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi // Zamonaviy ta'lim, 2016.– № 6-son.– B. 63 – 70. (Shakarjonova K.T., Djalilova L.A. The development of physical education and sports in the years of independence in the Republic of Uzbekistan // Modern education, 2016.- No. 6.- P. 63-70.)
15. O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida"gi O'z R Vazirlar Mahkamasining Qarori, 06.06.2003. (Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On the organization of a system of



continuous sports competitions aimed at attracting students and young people to sports", 06.06.2003.)

16. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-jild. – B.576 – 582. (16. National encyclopedia of Uzbekistan. Volume 12. – P.576 – 582.)

17. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/sport-federatsiyalari-uz/>

QASHQADARYO VILOYATI UMUMTA'LIM MUASSASALARI MODDIY-TEXNIKA BAZASINI MUSTAHKAMLASH TADBIRLARI VA ULARNING NATIJASI

Sharopova Nigora Akbarovna

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, (PhD)

***Annotatsiya:** Maqolada mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyati umumta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlari va ularning natijalari tahlil etilgan. O'quv jarayonini sifat va metodik jihatdan butunlay yangilash, yangi maktablarni qurish, kapital rekonstruksiya qilish va zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari bilan ta'minlash uchun ko'plab vazifalar amalga oshirildi.*

***Калит со'злар:** Mustaqillik, Qashqadaryo, xalq ta'limi, o'qituvchi, ta'lim sohasidagi islohotlar, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi", maktablarning moddiy-texnik bazasi, maktablarni ta'mirlash ishlari.*

СОСТОЯНИЕ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ БАЗЫ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Шаропова Нигора Акбаровна

Каршинский инженерно-экономический институт, (PhD)

***Аннотация:** В статье анализируются мероприятия и их результаты по укреплению материально-технической базы общеобразовательных учреждений Кашкадарьинской области за годы независимости. Было выполнено много задач по полному качественному и методическому обновлению образовательного процесса, строительству новых школ, проведению капитального ремонта, оснащению их современным учебным и лабораторным оборудованием.*

***Ключевые слова:** Независимость, Кашкадарья, народное образование, учитель, реформы в сфере образования, Закон «Об образовании», «Государственная национальная программа развития школьного образования», материально-техническая база школ, ремонтные работы школ.*

MEASURES AND RESULTS OF IMPROVING THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF GENERAL EDUCATION INSTITUTIONS IN KASHKADARYA REGION

Sharopova Nigora Akbarovna

Karshi Institute of Engineering and Economics, (PhD)

***Abstract:** In the following article, during the years of independence, measures and results of improving the material and technical base of general education institutions in Kashkadarya region are analyzed. Great number of tasks have been carried out to completely renew the educational process in terms of quality and methodology, building new schools, complete reconstruction and provide them with modern educational and laboratory equipment.*



Key words: *Independence, Kashkadarya, public education, teacher, reforms in the field of education, Law "On Education", "State National Program for the Development of School Education", material and technical base of schools, school repairing works.*

Kirish

Mustaqillik yillarida ta'lim tizimida amalga oshirilgan muhim tadbirlardan biri, bu umumta'lim maktablari moddiy-texnik bazasining mustahkamlanishi bilan bog'liq bo'ldi. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan maktablarning deyarli barchasi yangidan qurildi, kapital rekonstruktsiya qilindi va zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari bilan ta'minlandi. Umumta'lim maktablarini zamonaviy texnik-vositalar, yangi dasturlar, qo'llanmalar, darsliklar, ko'rgazmali o'quv qurollari va boshqa o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlashga harakat qilindi. Maktablar kutubxona jamg'armasi boyitilib, yangi o'quv adabiyotlari, vaqtli matbuot jurnallari bilan to'ldirib borildi. Maktablarni ta'mirlash bilan birga ularni jihozlash ishlari ham olib borildi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Janubiy viloyatlarda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni bajarish yuzasidan ma'lum ishlar amalga oshirildi. Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va yangilarini bunyod etish yuzasidan izchil tadbirlar olib borildi. Qashqadaryo viloyatidagi umumta'lim maktablarini yangi o'quv yiliga tayyorlash bo'yicha maxsus shtab tashkil etildi, reja va tadbirlar aniq ishlab chiqildi. 1999-yil Qashqadaryo viloyati umumta'lim maktablariga moliya boshqarmasi ko'zda tutilmagan xarajatlar hisobidan yaroqsiz partalar o'rniga yangi o'quvchilar partasini sotib olish uchun xalq ta'lim boshqarmasiga 15 mln so'm mablag' ajratdi. Shundan Qarshi shahri va tumani maktablariga 1 mln 200 ming so'm, G'uzor tumaniga 1 mln 300 ming so'm, Shaxrisabz tumaniga 1 mln 400 ming so'm ajratildi [1].

Umumta'lim maktablarini o'quv jihozlari va partalar bilan ta'minlashda ham ba'zi tadbirlar olib borildi. Yangidan qurilgan va ta'mirlangan maktab binolari zamonaviy loyihalar asosida bunyod etilib, ularda turli qulayliklar majud edi.

Viloyat umumta'lim maktablari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash tadbirlari hukumat dasturlari va rejaları asosida olib borilib, 1991-2001-yillar mobaynida umumta'lim maktablari soni 914 tadan 1078 taga etdi, ulardan 610 tasi zamonaviy binolarda joylashtirildi. Bu davrda 192 ta maktablar qurildi [2]. Mahalliy hokimliklar tomonidan maktablarni ta'mirlash ishlariga alohida e'tibor qaratildi. Masalan, 1998-yil Qarshi tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan umumta'lim maktablarini ta'mirlash uchun 4 million 300 ming so'm mablag' ajratildi. Ammo ba'zi umumta'lim maktablarida ta'mirlash ishlari o'z vaqtida tugallanmadi. 1998-1999-o'quv yili boshlanishidan avval maktablardagi ta'mir ishlari o'rganilganda qator kamchiliklar aniqlanadi. Masalan, tumandagi "Charog'il" xo'jaligida joylashgan O. Ochilov nomli 11-o'rta maktabda mavjud 36 ta sinf xonasining bor-yo'g'i 4 tasi ta'mirdan chiqarildi [3].

Umuman, Qashqadaryo viloyatida 2000-2007-yillarda 76 ta yangi maktab qurildi, 97 ta maktab kapital rekonstruktsiya qilindi, 203 ta maktabni kapital ta'mirlash hamda 155 ta maktabni joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. 2003-2007-yillar mobaynida 61,4 ming nafar o'quvchi o'qiydigan 206 ta maktabda yangi qurilish, rekonstruktsiya va kapital ta'mirlash ishlari bajarildi. Shuningdek, mahalliy hokimliklar, homiy tashkilotlar va jismoniy shaxslar yordamida qo'shimcha ravishda 2 ta yangi maktab binosi qurildi, 2 ta maktab binosi kapital rekonstruktsiya qilindi, 158 ta maktabning binosi kapital va joriy ta'mirlandi [2].



O'zbekistonda 2003-2004-o'quv yilida 9834 ta umumta'lim maktablari faoliyat ko'rsatib, ularda 6263,1 ming nafar o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, [5] 2014-2015-o'quv yilida 9733 ta umumta'lim maktablarida 4339,7 ming nafar o'quvchi tarbiyalandi [4]. Ammo hamma joyda ham ahvol bir xil emas edi. Masalan, 2001-yil Qashqadaryo viloyati tumanlarida jami 38 ta avariya holatidagi maktablar bo'lib, shundan, 15 tasi Dehqonobod tumanida, 12 tasi Chiroqchi tumanida edi. Viloyatdagi 1078 ta umumta'lim maktablaridan 146 tasi kapital ta'mirga muhtoj. Ayniqsa, Kasbi, Kitob, Chiroqchi, Shaxrisabz, Yakkabog' tumanlarida bunday maktablar ko'pchilikni tashkil etdi [6].

Keyingi yillarda ham bu kabi holatlar davom etdi. 2003-yil yanvarda Qashqadaryo viloyati umumta'lim maktablarining moddiy-texnika bazasi o'rganilganda, mavjud 1083 ta maktabning 80 tasi butunlay yaroqsizligi, 504 ta maktab esa ta'mirtalab ekanligi aniqlandi. Tumanlardagi ko'pchilik maktablar bir vaqtlar paxsadan qurilgan. Ayni vaqtda ularni zax bosgan, cho'kkan. Devorlari yorilib, ustunlari chiriy boshlagan. Dehqonobod, Koson, Chiroqchi tumanlari maktablarida ahvol og'ir edi. Birgina Dehqonobod tumanida 21 ta maktab nihoyatda xarob ahvolda bo'ldi. Hatto viloyat markazi Qarshi shahrida ham ana shunday nochor ahvoldagi maktablar mavjud edi.

Ba'zi tumanlarda o'quvchilar o'tgan asrning 30-yillarida qurilgan, ta'mirlanmagan maktab binolarida ta'lim oldi. 2003-yil 10-yanvarda Qashqadaryo viloyati hokimi "Viloyatdagi xaroba holatdagi umumta'lim maktablarining o'rniga yangi maktab binolarini qurish to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi. Qarorda ta'kidlanishicha, 2003-yil viloyat maktablarini kapital ta'mirlash uchun mahalliy byudjetdan o'tgan yilgidan 61,5 foiz ko'p, ya'ni 737 million 667 ming so'm mablag' ajratildi. 32 ta umumta'lim maktablari homiy tashkilotlarga birlashtirilib, 19 ta maktab qurilishi rejaga kiritildi. Ajratilgan mablag'lar birinchi navbatda isitish tizimini qayta ta'mirlash, tabiiy gaz o'tkazish qulay bo'lgan maktablarni gazlashtirish, tomchi o'tayotgan binolarning tomini ta'mirlash ishlariga sarflandi [7].

Natijalar va muhokamalar

Homiy tashkilotlardan "Qarshiyog'-ekstraksiya" ochiq hissadorlik jamiyati Qarshi tumanidagi Farobiy nomli maktabda, viloyat "Neft mahsulotlari" unitar korxonasi Dehqonobod tumanidagi 33-maktabda, "Muborakneftgaz" unitar sho'ba korxonasi Muborak tumanidagi Muqimiy nomli o'rta maktabda, "Sho'rtangazkimyo" majmui Chiroqchi tumanidagi 71-maktabda, "Sho'rtanneftgaz" unitar sho'ba korxonasi shu tumandagi 13-maktabda qurilish ishlarini olib bordi. Ammo ayrim tashkilotlar bu ishga mas'uliyatsizlik bilan yondashdi. Jumladan, "Qashqadaryoavtoyol" boshqarmasi Dehqonobod tumanidagi E. Niyozov nomli maktabni tiklashni o'z zimmasiga olgan edi. "Nishonpaxtatozalash" hissadorlik jamiyati Chiroqchi tumanidagi "Ko'kdala" xo'jaligida joylashgan Uvaysiy nomli 160 o'rinli maktab qurilishini zimmasiga olgan edi. Ammo jamiyat vakillari maktabni hatto borib ko'rmadi. Shuningdek, "Kosonyog'-ekstraksiya" ochiq hissadorlik jamiyati, "Qashqadaryopaxtasanoat" hududiy aksiyadorlik birlashmasi, viloyat "Matlubotsavdo" aksionerlik kompaniyasi, "Qashqadaryosavdo" aksionerlik kompaniyasi, "Yakkabog' donmahsuloti" hissadorlik jamiyati va boshqa otaliq tashkilotlari ham o'zlariga birlashtirilgan umumta'lim maktablari ta'miri va qurilishiga e'tibor bermadi. Masalan, Qamashi tumanidagi Cho'lpon nomli maktab qurilishi 2000-yildan boshlanib, 2003-yilda ham tugallanmadi [7]. Demak, umumta'lim tizimi moddiy-



texnika bazasini mutahkamlash borasidagi muammolar 1997-2004-yillar davomida ham saqlanib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-iyuldagi "Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi" asosida janubiy viloyatlarning umumta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Dasturga asosan 2005-yilda viloyat bo'yicha 22 ta maktablarni yangidan qurish, 25 ta maktablarni kapital rekonstruktsiya qilish, 39 ta maktabni kapital va 48 ta maktabni joriy ta'mirlash rejalashtirildi [8].

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, 1997-2004-yillar va 2004-2017-yillar hamda 2017-yildan hozirgi kungacha O'zbekiston xalq ta'limi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishining holati turlicha bo'ldi. O'zbekiston janubiy viloyatlari xalq ta'limi tizimi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishida qator muammolar ham yig'ilib bordi.

Bu avvalo muayyan davrda ta'lim tizimiga e'tibor, davlat byudjetidan sohaga mablag' ajratish, maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash, o'qituvchilarning bilim saviyasini ko'tarish yuzasidan olib borilgan chora-tadbirlarga bog'liq bo'ldi. Qaysidir davrda, xalq ta'limi tizimi moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda, avvalo, maktab uchun yangi binolar bunyod etish, mavjudlarini ta'mirlash va ularni jihozlash, umumta'lim maktablarini o'quv qo'llanma va darsliklar bilan ta'minlash, kompyuter texnologiyalarini yetkazib berishga kuchli e'tibor qaratilgan bo'lsa, undan avvalgi davrlarda ushbu masalalar yechimi e'tibordan chetda qoldi. Ba'zi tumanlarda o'quvchilar o'tgan asrda qurilgan, ta'mirlanmagan maktab binolarida ta'lim olgan bo'lsa, ba'zi maktab o'quvchilari yangidan bunyod etilgan va zamonaviy jihozlangan ta'lim maskanlarida tahsil oldi.

"2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi"ning qabul qilinishi ta'lim sohasi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlarini rejali tashkil etish imkonini berdi. Ta'lim sohasi moddiy ta'minotini yaxshilashda turli ishbilarmon homiylarning o'rni ham katta bo'ldi. Ular o'z mablag'lari hisobidan maktab binolari qurilishiga, ta'mirlash ishlariga, kutubxonalar fondlarini boyitishga munosib hissa qo'shdi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. QVHA, 829-fond, 10-ro'yxat, 39-ish, 96-98-varaqlar. (QVHA, fund 829, list 10, case 39, sheets 96-98.)
2. Ergasheva Yu.A. Qashqadaryoda istiqloq yillarida madaniy rivojlanishdagi o'zgarishlar // Nasaflik alomalarning jahon madaniyatida tutgan o'rni - Qarshi, 2010-yil - B. 179 - 182. (Ergasheva Yu.A. Changes in the cultural development of Kashkadarya during the years of independence // The role of the people of Nasaflik in world culture - Karshi, 2010 - P. 179 - 182)
3. Egamov N. Maktabni kim o'ylaydi? // Qashqadaryo, 1998-yil 15-iyul. - №57. (Egamov N. Who cares about school? // Kashkadarya, July 15, 1998. - #57.)
4. Образования Узбекистана. Статистический Сборник - Ташкент, 2008 год С.45 - 46. (Formation of Uzbekistan. Statistical Compendium - Tashkent, 2008 P.45 - 46.)
5. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami - Toshkent, 2015-yil - B. 85 - 86. (Annual statistical collection of the Republic of Uzbekistan - Tashkent, 2015 - P. 85-86.)
6. QVHA, 829-fond, 12-ro'yxat, 35-ish, 1-18-varaqlar. (QVHA, fund 829, list 12, case 35, sheets 1-18.)
7. Boymurodova S. Xaroba maktablar bo'lmasligi kerak // Qashqadaryo, 2003-yil 3-may. - №36. (Boymurodova S. There should be no schools in ruins // Kashkadarya, May 3, 2003. - #36.)



8. QVHA, 829 - fond, 25 - ro'yxat, 32 - ish, 1 -75-varaqlar. (QVHA, 829 - fund, 25 - list, 32 - work, sheets 1-75.)

OLIV TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSTAQIL TA'LIMNING METODIK JIHATDAN FANLARDA TUTGAN ROLI

Zulxumor Mirzayeva,
Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti
zulxumormirzayeva@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada asosan mustaqil ta'limning turli davlatlarda turlicha nazariyalari haqida, shuningdek sharqdagi, g'arbdagi olimlarning bergan ta'riflari, tasniflari, o'rganish jarayonida mustaqil ta'limning tutgan roli, talabalarning qanday qilib mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish haqidagi strategiyalar bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Mustaqil ta'lim, mustaqil o'rganuvchi, kompetensiya, internet, metodik, psixolog, kredit.*

РОЛЬ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗЕ В НАУКАХ В МЕТОДОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ

Зулхумор Мирзаева,
Докторант Навоийского государственного педагогического института
zulxumormirzayeva@gmail.com

***Аннотация:** Эта статья в основном посвящена различным теориям самостоятельного обучения в разных странах, а также определениям и классификациям, данным учеными Востока и Запада, роли самостоятельного обучения в процессе обучения, способам развития навыков самостоятельного обучения учащихся. изложил.*

***Ключевые слова:** Самостоятельное обучение, самостоятельный обучающийся, компетентность, Интернет, методика, психолог, кредит.*

THE ROLE OF INDEPENDENT STUDY IN THE METHODOLOGICAL ASPECTS IN DIFFERENT SUBJECTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Zulxumor Mirzayeva,
PhD student of Navoi State Pedagogical Institute.
zulxumormirzayeva@gmail.com

***Abstract:** This article is mainly about different theories of independent education in different countries, as well as definitions and classifications given by scientists in the East and West, the role of independent education in the learning process, how to develop independent education skills of students strategies are outlined.*

***Key words:** Independent education, independent learner, competence, Internet, methodology, psychologist, credit.*

Kirish

Hozirgi rivojlangan jamiyatda ta'limga, tarbiyaga, pedagogik, metodik, psixologik jihatdan atroflicha e'tibor berilib, kredit modul tizmi o'qitilishida ayniqsa, mustaqil ta'limni rivojlantirish orqali kerakli bilim va ko'nikmani o'zlashtirish maqsad qilib qo'yilgan. Yosh kadrlarni mutaxassis sifatida tayyorlashda Oliy ta'limda pedagogik psixologik, tilni rivojlantirishdagi fanlarni chuqur o'rganibgina qolmay darslardan tashqari tashkil qilinadigan mustaqil ta'limni ahamiyati ham katta hisoblanadi.

Ma'lumki, ta'lim turlarining har birida mustaqil ta'limning roli katta ekanligi belgilab o'tilgan va asosan mustaqil ta'limga masofaviy o'qitish ya'ni online o'qitish jarayonida asosan extiyoj seziladi. Jahon mamalakatlaridagi o'quv jarayoniga nazar soladigan bo'lsak, Amerikada ilk bor masofaviy ta'limdan foydalanish haqida nazariya kerakligi va u nazariyani ishab chiqish shartligi zaruratga aylangan. 1840 – yillarda masofaviy ta'lim shakllari mavjud bo'lib, lekin 1870-yilgacha masofaviy ta'lim nazariyasiga bo'lgan ehtiyoj ortib bordi.

Adabiyotlar tahlili

Michael Moore (1994) masofaviy ta'lim nazariyasini mustaqil ta'lim nazariyasi deb o'zining fikrlarini aytgan. Uning o'rgangan bilim va tajribasiga asosan 2 elementga e'tibor qaratgan.

1. talabaning avtonomiyasi
2. talabalar bilan o'qituvchining muloqoti.

Birinchi nazariyasi muloqot hisoblanib, bunda qaysidir berilgan topshiriq dasturida talaba o'qituvchi bilan o'rganishi, ya'ni dialog asosiy o'rinda bo'ladi. Boshqa dasturda esa talabaning o'ziga mo'ljallangan topshiriq individual tuzilgan topshiriqdir va barchasi talabaning tanlovi, xoxishi asosida tanlangan maqsadga asosan mustaqil erishiladi.

Ikkinchi nazariyada Michael Moore talaba avtonomiyasiga e'tibor qaratgan. Bu nazariyada ko'proq an'anaviy, yuzma yuz o'qishda har bir qarorni, darslar rejasini, tanlovini o'qituvchi o'quvchi uchun hal qiladi deb kiritgan. Bunda o'qituvchining roli aktiv va talaba passiv holatida bo'lishini tushuntirib o'tgan.

Masofaviy ta'limda esa talaba ko'proq o'zi qarorlarni hal qiladi. Ya'ni o'qituvchiga unchalik bog'liq bo'lib qolmaydi. Lekin yoshi katta talabalarda bu usulda ishlash bir oz qiyinchilik keltirishi mumkin va ta'lim maqsadlarini shakllantirish, ma'lumotlar bazalarini aniqlashda o'qituvchilaridan yordam olishlari kerakligini ta'kidlab o'tgan.

Mustaqil o'rganish masofaviy ta'limga aloqador bo'lgani sababli Yevropada ko'p olimlar masofaviy ta'lim haqida turli xil fikrlar bildirishgan. Masalan Holmberg masofaviy ta'limni sinov va xatolikarga yondashilgan deb nazariy asosini zaif deb ta'rif bergan. Ba'zi olimlar masofaviy ta'limni an'anaviy ta'limdan og'ish demakdir deb o'ylaganlar. Holmberg masofaviy ta'limni o'ziga xos ta'lim shakli degan bo'lsa, Keegan (1986) masofaviy ta'lim an'anaviy ta'limga parallel va uni to'ldiruvchi alohida ta'lim sohasi degan xulosani aytgan. Shale (1988) esa o'qituvchi va o'quvchining yuzma yuz uchrashishi mumkin bo'lgan ta'lim jarayonini tashkil etuvchi barcha narsalar, o'qituvchi va talaba yuzma yuz ko'rishmasa ham ta'lim jarayonini tashkil qila oladi degan fikrni bildirgan.

Mustaqil o'rganish masofaviy ta'limga aloqador bo'lgani sababli Yevropada ko'p olimlar masofaviy ta'lim haqida turli xil fikrlar bildirishgan. Masalan Holmberg masofaviy ta'limni sinov va xatolikarga yondashilgan deb nazariy asosini zaif deb ta'rif bergan. Ba'zi olimlar masofaviy ta'limni an'anaviy ta'limdan og'ish demakdir deb o'ylaganlar. Holmberg masofaviy ta'limni o'ziga xos ta'lim shakli degan bo'lsa, Keegan (1986) masofaviy ta'lim an'anaviy ta'limga parallel

va uni to'ldiruvchi alohida ta'lim sohasi degan xulosani aytgan. Shale (1988) esa o'qituvchi va o'quvchining yuzma yuz uchrashishi mumkin bo'lgan ta'lim jarayonini tashkil etuvchi barcha narsalar, o'qituvchi va talaba yuzma yuz ko'rishmasa ham ta'lim jarayonini tashkil qila oladi degan fikrni bildirgan.

Bizga ma'lumki mustaqil ta'limni o'quv jarayonida tashkil etishda 2 xil usulda amalga oshirish mumkin.

1. Audiotoriyada bajariladigan mustaqil ta'lim;
2. Audiotoriyadan tashqari bajariladigan mustaqil ta'lim;

Bu soha bo'yicha xorijlik mutaxassis olimlardan dastlab Michael Moore, Holmberg, Keegan, Z.Dorniy, V.Litvud, R.Oxford, P.Benson va P.Voller larning ilmiy izlanishlarida mustaqil ta'lim zarurligi, muammolari ochib berilgan. O'zbek olimlari ham mustaqil ta'limni til o'rganishagi o'rni, metodik asoslar yordamida N.A.Muslimov, O.A.Qo'ysinov, I.X.Iminaxunava, SH.A.Yusupov, D.S Sarimsakovalar ilmiy ishlar olib borishgan.

I.X.Iminaxunava izlanishlarida mustaqil ta'lim tushunchasini xorijiy pedagogik adabiyotlarda turlicha talqin etiladi: AQShda «mustaqil ta'lim» (independent work); fransuz va ingliz tilidagi adabiyotlarda «individual ishlash» (self-study, individual work); Germaniyada «bilvosita o'qitish» iborasi; Avstriya va Shveysariyada «sekin ishlash» atamasi mustaqil ishlash vaqtida hukm suradigan jimlik va yakka mustaqil ishlash mazmunini ifodalaydi deb ta'riflarni bayon qildi. Bundan ko'rinib turibdiki barcha ta'lim tizimida mustaqil ta'limning o'rni, bajarilish holatlari bir xildir.

Tahlillar va natijalar

Mustaqil ta'lim kompetensiyasi talabaga o'qituvchi yoki talaba ta'lim olayotgan muassasasi tomonidan mustaqil ta'lim olishi uchun yaratilgan individual o'quv faoliyati jarayoni sifatida izohlanishi mumkin. Shuningdek O.Qo'ysinovning fikricha, mustaqil ish – talaba o'z xohishi va istagiga ko'ra, mustaqil ishlash davomida amalga oshiriladi. Mustaqil ish – bu o'quv muassasalaridan tashqarida egallanadigan ta'limot, u o'z xohishi bo'yicha ishlash davomida amalga oshiriladi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida mustaqil ishini tashkil etishni takomillashtirishda ajratilgan o'quv soatlarining 40% gacha mustaqil soatlar ajratilgan, hozirda esa bu ko'rsatgich 70%ni tashkil etadi. A.J.Janabergenova ta'rifiga ko'ra, “Mustaqil ish – o'qituvchi yordamisiz maktabdan tashqari jarayonda bilimlarni egallash” hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, mustaqil ish ta'lim muassasasi tomonidan tizimlashtirilgan, o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadigan, talaba tomonidan bajariladigan mustaqil faoliyatdir.

Hozirgi ta'lim tizimida oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda va uni nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31- dekabrda “Oliy ta'lim muassasalarida talim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish to'g'risidagi qarori hamda “Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi buyruq asosida yo'riqnoma ishlab chiqildi. Ushbu yo'riqnomaga asoslangan holda mustaqil ta'limning vazifalari quyidagicha belgilab berildi:

- kerakli malumotlarni izlab topish, bilim olish uni mustahkamlashning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar bilan ishlash;
- yangi bilimlarni mustaqil tarzda o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;



- internet tarmog'idan maqsadli foydalanish berilgan topshiriqlarning ratsional yechimini belgilash;
- ma'lumotlar bazasini tahlil qilish;
- ish natijalarini expertizaga tayyorlash va expert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish;

Xulosa

Kuzatuvlar natijasida, ko'plab ilmiy ishlar o'rganganligi asosida mustaqil ta'lim – talabalar uchun professorlar tomonidan mustaqil o'zlashtirilishi kerak bo'ladigan bilimlar yig'indisidir, bunday holatda mustaqil ish uchun ba'zan o'qituvchi kerakli adabiyotlarni o'qib, o'rganish uchun taqdim qiladi, ba'zan esa faqat yo'l yo'riq ko'rsatiladi talabalar o'zlari kerakli materiallarni izlab topib, mustaqil o'qib o'zlashtirishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Supporting the development of autonomous learning skills in reading and writing in an independent language learning centre". Studies in Self-Access Learning Journal. 2016
2. Phil Benson (2000) "Autonomy as a learners' and teachers' right", in Learner Autonomy, Teacher Autonomy: Future Directions, London: Longmans
3. Voller, P. 1997. Does the teacher have a role in autonomous learning? In P. Benson and P. Voller (Eds.), Autonomy and independence in language learning. (pp. 98-113). London: Longman.
4. Littlewood, W. (1997). Self-access work and curriculum ideologies. In P. Benson and P. Voller 11. (Eds.), Autonomy and independence in language learning. (pp. 181-191). London: Longman.
5. Benson, P. and Voller, P. (1997). Autonomy and independence in language learning. New York: Longman. 56
6. Benson, P. (2001). Teaching and researching autonomy in language learning. London: Longman.
7. Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavr o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limning ilmiy metodik asoslari.//Ped. fan. nom. dis. avtoreferati – Toshkent: 2008.
8. Janabergenova A.J. "Axborotlashgan ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish metodikasini takomillashtirish"/ Avtoref.ped.fan.bo'yicha falsafa doktori. –2021
9. https://en.wikipedia.org/wiki/External_degree
10. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13915-masofaviy-ta-lim>



UDK: 797.21.

SLALOMDA ESHKAK ESHUVCHILARNING MUVOZANAT KO'NIKMASINI NOAN'ANAVIY USUL VA VOSITALAR ORQALI SHAKLLANTIRISH

Raxmanov Eldor Tolibjonovich

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, dotsenti:

E-mail: ret.0210@mail.ru

Madaminov Faxriddin Shavkat o'g'li

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, 1-bosqich tayanch doktoranti:

E-mail: f.madaminov@umail.uz

***Annotatsiya.** Mazkur tadqiqot ishi slalomda eshkak eshuvchi yosh shug'ullanuvchilarning tayyorgarligida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantiruvchi samarador uslublar va noan'anaviy vositalar, koordinatsion qobiliyatlari bo'yicha ko'rsatkichlar yoritilgan. Slalomda eshkak eshuvchi yosh shug'ullanuvchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish, murakkab texnik harakat elementlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan maxsus mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan hamda ularni qo'llash samaradorligi bo'yicha bir qator tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** muvozanat, dinamik, statik, fitbol, "BOSU", balans, balans yostiqchasi, slalomda eshkak eshish, koordinatsiya.*

ФОРМИРОВАНИЕ БАЛАНСОВЫХ НАВЫКОВ СЛАЛОМ-ГРЕБЦОВ С ПОМОЩЬЮ НЕТРАДИЦИОННЫХ МЕТОДОВ И СРЕДСТВ

Рахманов Элдор Толибжонович

Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, доцент

E-mail: ret.0210@mail.ru

Мадаминов Фахриддин Шавкат угли

Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, 1 курс базового докторанта:

E-mail: f.madaminov@umail.uz

***Аннотация.** В данной исследовательской работе освещены эффективные методы и нетрадиционные средства, развивающие координационные способности молодых гребцов в слаломе, а также показатели по координационным способностям. В исследовательской работе разработан комплекс специальных упражнений, направленных на развитие координационных способностей юных гребцов в слаломе, освоение элементов сложных технических движений, а также дан ряд рекомендаций по эффективности их применения.*

***Ключевые слова:** баланс, динамика, статика, фитбол, "BOSU", баланс, балансирующая подушка, гребля в слаломе, координация.*

SHAPING THE BALANCE SKILLS OF SLALOM ROWERS THROUGH NON- TRADITIONAL METHODS AND TOOLS

Raxmanov Eldor Tolibjonovich

Associate Professor of Uzbek state university of physical culture and sport

E-mail: ret.0210@mail.ru

Madaminov Faxriddin Shavkat o'g'li



PhD Student of Uzbek state university of physical culture and sport

E-mail: f.madaminov@umail.uz

Annotation. *This research project examines effective methods and non-traditional arrangements of developing coordination skills in the training of young rowers in canoe, as well as indicators of coordination skills. The study developed a set of special exercises aimed at developing the coordination skills of young rowers in the canoe, mastering the elements of complex technical movements, and made a number of recommendations on the effectiveness of their use.*

Keywords: *balance, dynamic, static, fitball, "BOSU", balance, balance pad, slalom rowing, coordination.*

Har tomonlama rivojlangan hamda ijtimoiy faol barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan davlatimiz dasturiy xujjatlarini amalga oshirishda aholining, ayniqsa bolalar va o'smirlarning jismoniy tayyorgarligini jismoniy tarbiya va sport vositalari yordamida yaxshilash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muhim masalalarni hal etish nuqtai nazaridan yosh sportchilarni tayyorlash tizimini ishlab chiqish muammosining hozirgi holatiga ta'sir berish hamda yosh slalomda eshkak eshuchilarning tayyorlashning ilmiy metodik yo'nalishlariga doir hali yetarlicha o'rganilmagan ayrim masalalarni ajratib olish zarur bo'ladi.[4]

Ilmiy, uslubiy va ixtisoslashtirilgan adabiyotlarda tadqiqotlar asosan barqaror muvozanati va bexato eshish texnikasiga ega eshkakchilarda olib boriladi. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida qayiqni boshqarish bilan bir vaqtning o'zida muvozanatni shakllantirish va jadal rivojlantirish, eshkak eshish texnikasini tezkor o'zlashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlar esa barmoq bilan sanoqli. Ko'pgina mashhur olimlar (G.M. Krasnopevsev, V.N. Gavrilov, I.F. Yemchuk, B.M. Bondarev, V.M. Korbut) eshkak eshish texnikasini o'zlashtirish va muvozanatni shakllantirish avvalambor quruqlikda olib borilishi kerakligini ta'kidlaydilar.

Slalomda eshkak eshishuvchi sportchilarning individual tayyorgarligi, sport anjomlari sifati, tabiiy sharoitda yil davomida mashg'ulot o'tkazish imkoniyatlarini o'z ichiga olgan ko'plab omillarga bog'liq bo'lgan qiyin koordinatsion sport turi hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi

Slalomda eshkak eshuvchilarning muvozanat ko'nikmasini noan'anaviy usul va vositalar orqali shakllantirish, zamonaviy sport sohasidagi raqobatlar va qiziqishlar yaratishda ahamiyatli bo'lib, bu yo'nalishga innovatsion yondashuvlar, muntazam izlanishni hamda yangi usullarni izlash talab qiladi. Shuni takidlash kerakki, ham katta yoshdagi (eshkak eshish ustalarida), ham yosh sportchilarda mashg'ulot jarayonining ilmiy asoslanishiga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarda keltirilgan tadqiqotlar ko'proq muvozanat hamda eshkak eshish texnikasini ishonchli egallab bo'lgan eshkakchi sportchilarda o'tkaziladi. Biroq, bu sport turiga kelgan yangi shug'ullanuvchilarda muvozanat, texnikani va qayiqni boshqarish san'atini shakllantirish, o'zlashtirish hamda tezkor rivojlantirishga bag'ishlangan ishlar juda kamdir. Ushbu masalani, mazkur sport turi bo'yicha aksariyat mashhur mutaxassislarining ta'kidlashicha, yangi slalomda eshkak eshuvchilar eshish texnikasi va o'ziga xos muvozanatni o'zlashtirishni avval quruqlikda o'rganishlari zarur.[1] Lekin, qanday, qay tarzda o'rgatish kerak? Shu sababli slalomda eshkak eshuvchi yangi shug'ullanuvchilarni boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida mavjud muammolarni xal etish juda muhim va dolzarbdir.

Ishdan maqsad. Slalomda eshkak eshish sportiga kelgan yangi shug'ullanuvchilarning muvozanat ko'nikmasini shakllantirishda noan'anaviy usul va vositalarni qo'llashning axamiyatini ochib berish.

Ilmiy tadqiqotning vazifalari:

1. Mavzuga oid o'quv adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish.
2. Muvozanat ko'nikmasini rivojlantiruvchi samarador metodik usullarni aniqlab olish.
3. Noan'anaviy usullardan (BOSU, fitball, balance cushion) foydalangan holda muvozanat ko'nikmasini rivojlantiruvchi mashqlar majmuyini tuzib chiqish.
4. Muvozanat ko'nikmasini rivojlantiruvchi mashqlar majmuyining samaradorligini tajribada tekshirish.

Hozirgi kunga kelib balans, muvozanat, koordinatsion imkoniyatlar va vestibulyar apparatni shakllantirish va rivojlantirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ko'pgina vosita va jihozlar yaratilmoqda. Mazkur sport turi bilan shug'ullanayotgan yangi slalomda eshkak eshuvchilarning mashg'ulotlarida nafaqat maxsus mashqlardan foydalanish balki, quyidagi jihozlardan foydalangan holda mashg'ulotlarga noan'anaviy yondashish ijobiy natijalarni olishga imkon beradi. [5],[6]

BOSU bu – ingliz tilidagi “both sides use” so'z birikmasining qisqartmasi bo'lib, “ikkala tomon ishlaydi” degan ma'noni bildiradi. Xususan, tubi qattiq va tekis bo'lgan shishirilgan yarim sferadan iborat sport mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan platforma shunday nomlanadi.



Mashg'ulotlar jarayonida platformaning ikkala yuzasi ishlatiladi: turgan, o'tirgan, yotgan holatda ham qavariq qismida, ham qattiq qismida mashq bajarish mumkin. Bunda trenajyor yarim aylana shaklida polga o'giriladi. Har bir harakat muvozanatni saqlash uchun qo'shimcha kuchni talab qiladi.

BOSUda mayda mushak guruhleri, ya'ni odatiy jismoniy yuklamalar jarayonida ishlatilmaydigan barqarorlashtiruvchi mushaklarning ishtiroki talab etiladi. Bundan tashqari, mo'jizaviy platforma yordamidagi mashg'ulotlar vestibulyar apparatni mustahkamlab, koordinatsiyani yaxshilaydi.

Fitball (Exercise ball) — aerobika mashqlari uchun mo'ljallangan, diametri 45-95 sm bo'lgan katta tarang top.

Fitball bilan bajariladigan mashqlar aksariyat mushak guruhlariga yuklama berib, koordinatsiyani yaxshilash va egiluvchanlikni oshirishga yordam beradi. To'pning yumaloq shakli ko'proq amplituda bilan harakat qilish imkonini beradi, uning beqarorligi esa muvozanatni ushlab turish uchun mushaklarni muntazam zo'riqishda tutishga majbur qiladi.



Balans yostiqliyasi (muvozanat uchun mo'ljallangan massaj yostiqliyasi, balans diski) koordinasiya hissi uchun ham muvozanat trenajyorining standart rolikiga muqobil jihoz sifatida, ham undan alohida holda qo'llanilishi mumkin. Mashqlar unda bitta yoki ikki oyoqda turgan holatda, tayangan yoki bevosita balans yostiqliyasida yotgan holda bajariladi.[3]



Tadqiqot natijalari. Biz tomondan saralab olingan muvozanat ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan samarador metodik usullarga asoslanib, "Bosu", "fitball" va "balans yostiqliyasi" dan foydalangan holda slalomda eshkak eshish sportiga kelgan yangi shug'ullanuvchilarning balans hissi, koordinatsion imkoniyatlari va muvozanat ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beruvchi quyidagi mashqlar majmuyini ishlab chiqdik.(1-jadval)

1-jadval

Statik hamda dinamik muvozanat mashqlar majmuasi

Statik muvozanat mashqlari		
"BOSU" yordamida	"Fitball" yordamida	"Balans yostiqliyasi" yordamida
<p>"Bosu"da turli tana xolatlarini ma'lum vaqt davomida ushlab turish:</p> <ul style="list-style-type: none"> - bir oyoqda turish; - ikki oyoqda turish; -ko'zni yumgan xolda bajarish; -mashqlarni "Bosu"ni teskari qo'ygan xolda bajarish; - gantellar bilan bajarish. 	<p>Tananing turli xolatlarida "Fitball"dan tushib ketmaslik (mashqlarni ko'zni yumgan holda va gantellar bilan bajarish mumkin):</p> <ul style="list-style-type: none"> -o'tirgan xolatda; -qorin bilan yotgan holatda; - tizza bilan cho'qqayib turgan holatda. 	<p>"Balans yostiqliyasi"da turli tana xolatlarini ma'lum vaqt davomida ushlab qolish:</p> <ul style="list-style-type: none"> - bir oyoqda turish; -ikki oyoqda turish; -ko'zni yumgan holda bajarish; - gantellar bilan bajarish; -ikkita yostiqlichada turish.
Dinamik muvozanat mashqlari		
<p>Turli xarakatlarni amplitudani oshirib borgan holda bajarish:</p>	<p>Eshkak eshish harakatlarini immitasiya qilish:</p>	<p>Turli harakatlarni amplitudani oshirib borgan holda bajarish:</p>

- yurish (joyida, o'z o'qi atrofida); - o'tirib turish (ikki oyoqda, bir oyoqda); - eshkak eshishni immitasiya qilish.	- o'tirgan holatda; - tizzaga cho'qqayib turgan holatda; - oyoqni tagiga kichik xajmdagi "Fitball" ni qo'ygan holatda.	- bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa sakrash; - juftlikda to'p oshirish; - ikkita yostiqchada turib harakatlarni bajarish.
--	--	---

Mashqlarning amaliyotda qanchalik samarador ekanligini tajriba o'tkazibgina aniqlash mumkin. Shunga ko'ra nazorat va tajriba guruhlariga boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi sportchilar orasidan maxsus muvozanat testlarini o'tkazish asosida o'ntadan yigirmata slalomda eshkak eshuvchilarni saralab oldik.

Tajriba so'ngida olingan test nazorati natijalari shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhining o'rtacha test ko'rsatkichlari nazorat guruhinikiga nisbatan yuqori. Bu esa o'z navbatida biz tomondan tuzib chiqilgan maxsus mashqlar majmuyining samaradorligidan dalolat beradi. (2-jadval)

2-jadval

Tajriba va nazorat guruhlarining test natijalari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlari va ular orasidagi farqlar

Guruhlar	Nazorat testlari			
	Oyoqlar juft holatda, qo'llar belda, oyoq uchlariga ko'tarilib muvozanat holatini saqlab turish (sek)	Oyoq panjalari birin ketin bir chiziqda joylashgan, qo'llar belda, ko'zni yumgan holda muvozanatni saqlash (sek)	Maxsus g'altakka o'tirgan holda eshkak eshish xarakterlarini immitasiya qilish (sek)	Ko'zni yumgan holda "qaldirg'och" holatini ushlab turish (sek)
Nazorat guruhi	6	7	21	10
Tajriba guruhi	9	14	27	17
O'rtadagi farq % hisobida	30	50	22,2	58,8

Xulosa

Slalomda eshkak eshuvchilarning muvozanatini rivojlantirishda qo'llaniladigan noan'anaviy usul va vositalar shug'ullanuvchilarning balans saqlash, koordinatsion imkoniyatlari, muvozanat ko'nikmasini va vestibulyar apparatini shakllantirish va rivojlantirishga imkon beradi, bu esa slalomda eshkak eshuvchining bevosita qayiqda eshish harakatlarini ishonchli bajarish, darvozlardan o'tishda xatolarga yo'l qo'ymaslikka hamda turg'un muvozanatga qisqa vaqt ichida ruxiy to'siqlarsiz erishishga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. Гребной спорт: учебник для студентов / Т.В. Михайлова, А.Ф. Комаров, Е.В. Долгова, И.С. Епищев; под ред. Т.В. Михайловой.- М.: Издательский центр «Академия», 2006.-400с.
2. Salomov R.S., Sharipov A.K. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: «ITA - PRESS», 2015.



3. Кашуба В.А. Биомеханика осанки.-Киев: Олимпийская литература, 2003.-279 с.
4. Matnazarov X.Y. "Eshkak eshish nazariyasi va uslubiati" Darslik / O'zbek savdonashriyoti T-2020.
5. John Chase Power to the Raddle: Exercises to Improve your Canoe and Kayak Paddling USA, 2014
6. H.L.Fourie, I.W.Fourie An Introduction to Rowing UK, 2013

TARGET, CONTENT AND STRUCTURAL PARAMETERS OF THE DEVELOPMENT OF THE DEPARTMENT ACTIVITY MANAGEMENT SYSTEM

Abdullaeva Ozoda Safibullaevna
Namangan Engineering-Construction Institute
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Professor
[+998913549363](tel:+998913549363), E-mail: aspirantka.030@gmail.com,

Abstract: *This article discusses and analyzes intelligent information systems in all areas of management activities of educational institutions. And also the target, content and management parameters of educational, research, management activities are considered.*

Key words: *intellectual information systems, development of the department, management activities.*

ЦЕЛЕВЫЕ, СОДЕРЖАТЕЛЬНЫЕ И СТРУКТУРНЫЕ ПАРАМЕТРЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КАФЕДРЫ

Абдуллаева Озода Сафибуллаевна
Наманганский инженерно-строительный институт
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, профессор
E-mail: aspirantka.030@gmail.com

Аннотация: *В данной статье рассмотрены и проанализированы интеллектуальные информационные системы во всех сферах управленческой деятельности образовательных учреждений. А также рассмотрены целевые, содержательные и управленческие параметры образовательной, научно-исследовательской, управленческой деятельности.*

Ключевые слова: *интеллектуально-информационные системы, развитие деятельности кафедры, управленческая деятельность.*

KAFEDRA FAOLIYATI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANISHNING MAQSADLI, MAZMUNLI VA TUZULMAVIY PARAMETRLARI

Abdullayeva Ozoda Safibullayevna
Namangan muhandislik-qurilish instituti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
E-mail: aspirantka.030@gmail.com



Annotasiya: Ushbu maqolada ta'lim muassasalarini boshqarish faoliyatining barcha sohalarida intellektual axborot tizimlari qullashning zarur bo'lgan usullar muhokama va tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim, ilmiy-tadqiqot, boshqaruv faoliyatining maqsadli, mazmunli va tuzilmaviy parametrlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: intellektual axborot tizimlari, kafedra faoliyatni rivojlantirish, boshqaruv faoliyati.

Введение

В быстро развивающемся мире эффективная организация образовательной деятельности невозможна без сильной информационной поддержки, представляющей собой основу интеллектуальных информационных систем, служащей для эффективной обработкой больших массивов данных, обеспечивая информационную поддержку принятия решений, выбора оптимальных вариантов и эффективной стратегии поведения тех или иных образовательных процессов.

В Республике Узбекистан особое внимание уделяется совершенствованию системы образования в области информационных технологий. Этому свидетельствуют Постановления и Указы Президента Республики Узбекистан, в частности Постановление от 6 октября 2020 г. №ПП-4851 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования в области информационных технологий, развитию и интеграции научных исследований с IT-индустрией» особое внимание уделяется решению вопросов по внедрению интеллектуальных информационных систем в образовательные процессы, направленные на повышение эффективности работы высших образовательных учреждений не только посредством обработки, хранения и автоматизации рутинной информации, но и посредством инновационных методов, моделирования с использованием современных средств информационно-коммуникационных технологий, что обуславливает актуальность темы диссертационного исследования [1-3].

Методология исследования

В процессе исследования были изучены научные работы направленные на совершенствование образования через развитие системы управленческих процессов. В частности в работах Р.М.Давлатов, Р.Х.Джураев, С.Ю.Никифорова, Н.Ф.Рюхова Т.М.Сенцова, С.Т.Тургунов и другие особая роль уделяется решению вопросов обеспечения качества образования на основе использования информационных технологий, в том числе интеллектуальных информационных систем организации образовательной, научно-исследовательской, управленческой деятельности кафедры, являющимся одним из основным структурным подразделением в системе высшего образовательного учреждения [4,5].

Под интеллектуальной системой авторы А. В. Остроух, В. О. Чинакала, К. А. Пупков понимают информационно-вычислительную систему с интеллектуальной поддержкой для решения сложных задач, в которых логическая обработка информации превалирует над вычислительной. В ходе исследования также был проведен анализ использования интеллектуальных систем управления кафедрой высших образовательных учреждений. Анализ показал, что в зарубежных высших образовательных учреждениях используются такие интеллектуальные системы, как Schools Information Management System (SIMS) - Stanford University (США), Human Resources - Massachusetts Institute of Technology (США), Global Korea Scholarship (GKS) - Seoul Cyber University (Южная Корея), University and

College Admission Service (UCAS) - National Advice on pedagogical technology (Англия), АСУ "Спрут" - Ставропольский государственный университет (России) и другие. Данные системы позволяют существенно повысить качество и оперативность управления деятельностью высшего образовательного учреждения, автоматизировать процессы, связанные с управлением деятельностью кафедры [6,7,8].

Анализ отечественного опыта использования системы управления образовательной, научно-исследовательской и управленческой деятельности кафедры показал, что в настоящее время используются Nemis и Moodle. Использование данных информационных систем требуют совершенствования на основе интеллектуальных информационных систем, необходимо совершенствование на основе как Customer Relationship Management (CRM), Enterprise Resource Planning (ERP), Human Resource Management (HRM), а также технологии интеллектуального анализа данных (Data Mining, ИАД), технологии виртуальной, дополненной, смешанной реальности (VR/MR/AR), технологии нейронных сетей, позволяющие повысить эффективность образовательной, научно-исследовательской и управленческой деятельности кафедры в условиях инновационного развития высшего образования. Это в свою очередь актуализирует проблему проектирования и реализации комплексного решения обеспечения интеллектуальной информационной поддержки образовательных, научно-исследовательских, управленческих процессов в деятельности кафедры [9,10].

Для решения выделенной проблемы необходимо в первую очередь определить целевые, содержательные и структурные параметры развития системы управления деятельностью кафедры. Под целевыми параметрами системы *образовательной деятельности* системы управления деятельностью кафедры С.М.Маркова, Н.Г.Иванцовская и другие предлагают рассмотреть обеспечение качества образования, под содержательными - качество педагогического мастерства, учебно-методическая активность, воспитательной деятельности, уровень знаний, умений, компетенций студентов, качество выпускников, под структурными - ежегодное планирование учебной нагрузки кафедры. Под целевыми параметрами *научно-исследовательской деятельности* Григораш О.В., А.И. Трубилин и другие рассматривают повышение качества научно-исследовательской деятельности, под содержательными - публикационная активность, уровень острепенённости, проектная деятельность, цитируемость, под структурными - наличие научных школ и лабораторий, публикационная активность и др. А.М.Дроздов, Конопатова А.И. и другие под целевыми параметрами *управленческой деятельности* рассматривают повышение эффективности управленческой деятельности, под содержательными параметрами - систему управления и систему рейтинговой оценки, под структурными - параметрами линейную структуру управления кафедрой.

Анализ и результат

В виду того, что в условиях инновационного развития высшего образования актуальным становится усиление связи образования, науки и производства, коммерциализация научно-исследовательской деятельности, а также международная коллаборация, на наш взгляд приведенные выше целевые, содержательные и управленческие параметры образовательной, научно-исследовательской, управленческой деятельности требуют совершенствования (см.рис.1).




Рис.1. Матричная структура образовательной, научно-исследовательской и управленческой деятельности кафедры

Заключение

Важным элементом развития деятельности кафедры является совершенствование целевых, содержательных и структурных параметров, на основе обеспечения матричной структуры образовательных, научно-исследовательских, управленческих процессов, позволяющие урегулировать координационную систему взаимодействия всех субъектов образовательной системы за счёт сосредоточения на инновационных задачах кафедры.

Проведенный анализ методологических и теоретических основ развития образовательных, научно-исследовательских, управленческих процессов деятельности кафедры позволил выявить необходимость основных принципов, походов, а также определил организационно-педагогические условия такие как обеспечение оперативного ответа на динамически изменяющиеся условия внешней среды; обеспечение эффективного контроля всех процессов деятельности кафедры; развитие механизма мотивации инновационной деятельности, принятия управленческих решений по инновационному развитию.

Таким образом, исходя из этого, система высшего образовательного учреждения имеет структурные подразделения (кафедры), каждая из которых выполняет возложенные

на него функции. Управление образовательным процессом является наиболее важным этапом и включает в себя образовательные, научно-исследовательские и управленческие функции администрирования. Поэтому для высшего образовательного учреждения на первый план выходят задачи создания на базе обобщений и развития достигнутых результатов использования научно-исследовательских разработок в образовательном процессе единой концепции построения информационно-образовательной среды (интеллектуальная система), а также разработки методов проектирования и внедрения информационной образовательной среды в учебный процесс с целью дальнейшего повышения эффективности управления, расширения сферы образовательных услуг и адекватной реакции на возрастающую динамику информационно-коммуникационных возможностей.

Литература

- [1] Safibullayevna, A. O. (2023). INTELEKTUAL AXBOROT BILIMLAR TIZIMINI XUSUSIYATLARI, BELGILARI VA IMKONIYATLARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(28), 121-126;
- [2] Ozoda, A., & Alijon, M. (2023). MULTIMEDIA TIZIMLARDA TASVIRLARGA ISHLOV BERISHNING DASTLABKI USULLARI. Innovations in Technology and Science Education, 2(9), 392-401.;
- [3] Абдуллаева, О. С. (2022). Совершенствование технологии создания и использования интеллектуальной системы управления деятельностью кафедры в условиях инновационного развития высшего образования. Механика и технология, (Спецвыпуск 1), 167-174.
- [4] Сафибуллаевна, АО (2022). ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПОДГОТОВКИ МАГИСТЕРСКИХ ПРОГРАММ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНФОРМАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ. ТЕКУЩИЙ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ЖУРНАЛ ПЕДАГОГИКИ, 3 (03), 41-47.
- [5] Абдуллаева О.С. ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОЦЕССА РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ МАГИСТРОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ // Экономика и социум. 2021. №5-1 (84). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/evaluation-of-the-efficiency-of-the-development-process-of-information-and-management-competencies-among-masters-of-technical> (дата обращения : 15.06.2023).
- [6] Абдуллаева, О.С. (2022). Интеллектуальные технологии создания и развития открытых систем.
- [7] Абдуллаева, О. С., & Бекназарова, С. С. (2020). Психолого-педагогические основы организации процесса подготовки студентов к педагогической деятельности с позиции современных подходов.
- [8] Абдуллаева, О. С., & Жаумытбаева, П. К. (2020). ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ ПРОЦЕССОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. In TEACHER EDUCATION IN THE CONTEXT OF TRANSFORMATION PROCESSES: THE SPACE OF PERSONALITY SELF-REALIZATION (pp. 77-80).
- [9] Abdullayeva, O. S., Isomiddinov, A. I., & Hasanov, A. A. (2021, November). Monitoring of Development Of Information And Management Competencies Of Masters Of Technical



Higher Educational Institutions. In 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-5). IEEE.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA FIKRLASHNING AHAMIYATI

Mahfuza G'ofurova,

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Matematik savodxonlik o'quvchilarning matematik mulohaza yuritish asosida berilgan hayotiy vaziyatdagi muammoni "matematika tilida ifodalash (matematik modellashtirish)", amaliy masalalarni yechish ustida fikr yuritish, matematik fikrni aniq, yozma va tasvirli ifodalash uchun matematika tilidan, belgilardan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Bunda fikrlash muhim ahamiyatga egadir. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini oshirishda fikrlashning ahamiyati, turli masala va topshiriqlarni yechim yo'llarini aniqlash, to'g'ri qaror qabul qila olish ko'nikmalarini shakllantirish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: matematik savodxonlik, fikrlash, mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, ko'nikmalar, muammoli vaziyat, sonning tarkibi.

THE IMPORTANCE OF THINKING IN IMPROVING MATHEMATICAL LITERACY OF PRIMARY CLASS PUPILS

Mahfuza G'furova,

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD),

Fergana State University,

Abstract: Mathematical literacy is the ability of students to "express the problem in a given life situation in mathematical language (mathematical modeling) based on mathematical reasoning", to think about solving practical problems and to use mathematical language and symbols to express mathematical ideas clearly in written form and graphically. Thinking is important in this process. This article discusses the importance of thinking in improving the mathematical literacy of primary school pupils, determining ways to solve various problems and assignments, and forming the skills to make the right decision.

Key words: mathematical literacy, thinking, logical thinking, reasoning, skills, problem situation, number structure.

ЗНАЧЕНИЕ МЫШЛЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Махфуза Гфурова,

Доктор философии педагогических наук (PhD), Ферганский государственный университет,

Аннотация: Математическая грамотность – это способность учащихся «выражать проблему в данной жизненной ситуации математическим языком (математическим моделированием) на основе математических рассуждений», думать над решением практических задач и использовать математический язык и символы для ясного выражения математических идей. в письменной форме и графически. В этом процессе важно думать. В данной статье

рассматривается значение мышления в повышении математической грамотности учащихся начальных классов, определении способов решения различных задач и заданий, формировании умений принимать правильное решение.

Ключевые слова: *математическая грамотность, мышление, логическое мышление, рассуждения, умения, проблемная ситуация, структура числа.*

Kirish

Matematika ta'limining ahamiyati uning fan-texnika taraqqiyotida, axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish sohalarida va kundalik hayotda tutgan o'rnini bilan belgilanadi. Iqtisodiy talablarni bajarish uchun bunyodkor va ijodkor kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda, bu yutuqlardan iste'molchi sifatida foydalanuvchilarga ham sifatli ta'lim berilishi lozim. Fan texnikaning keskin rivojlanishi, olamning globallasuvi hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning taraqqiy etishi insonlarning dunyoqarashini, muvaffaqiyatga erishish usullarini, inson salohiyati, qobiliyati hamda yaratuvchanlik faoliyati jamiyatning asosiy kapitali bo'lib xizmat qiladi. Bu holatda jamiyatdagi har bir o'quvchi shaxsining jamiyatda raqobatbardosh bo'lib shakllanishi, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy muhitga moslashuvchan, faol, ijtimoiy yetuk salohiyatli, yuqori darajadagi bilim egasi, ruhan va qalban chiniqqan komil insonni shakllantirish davlatimiz oldidagi vazifalardan biridir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga bilim berishning zamonaviy pedagogik innovatsion uslublarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishi, ya'ni 2030 yilga kelib iqtisodiyotning fan va texnika yo'nalishi bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim maktablari uchun majburiy bo'lgan Davlat ta'lim standartlari talablarida berilgan tayanch ta'lim mazmuni bajarish, o'quv dasturiga zamon talablaridan kelib chiqib, fundamental, nazariy yoki eksperimental fan sifatida yondashish, fanning falsafiy va metodologik jihatdan yangilanishini, ta'lim mazmuni va o'qitish uslubiga nisbatan takomillashtirilgan, samarali boshqaruv usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ushbu maqsad yo'lida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika darslarida va sinfdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarning matematik savodxonligini oshirish, berilgan nazariy ma'lumotlar va amaliy topshiriqlar orqali ularning ijodiy, mantiqiy fikrlash va hayotiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish o'qitishdagi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Matematik savodxonlik o'quvchilarning matematik mulohaza yuritish asosida berilgan hayotiy vaziyatdagi muammoni "matematika tilida ifodalash (matematik modellashtirish)", amaliy masalalarni yechish ustida fikr yuritish, matematik fikrni aniq, yozma va tasvirli ifodalash uchun matematika tilidan, belgilardan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Bunda fikrlash muhim ahamiyatga egadir. Fikrlash – hodisalarning umumlashtirilgan tasviri, narsalar va hodisalarning mohiyatini, ular o'rtasidagi tabiiy aloqalar va munosabatlarni bilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatning bir turi hisoblanadi. Amalda, alohida aqliy jarayon sifatida fikrlash mavjud emas, u bilim jarayonlari bilan yaqin aloqada: hislar, diqqani jamlash, tasavvur, xotira va nutq, ularning har birining rivojlanish darajasi uning fikrlash darajasiga

bog'liq. Mantiqiy fikrlashning shakllanishi nutq bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u quyidagi xususiyatlarga ega:

- yangi bilimlarni izlash va topish;
- olingan ma'lumotlarni mavjud qonuniyatlarga asoslanib umumiy tavsiflash;
- hodisalar yoki ob'ektlarni tahlil qilish[1].

Matematika darsida aqliy faol o'quvchilarni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun quyidagi matematik vazifalarni muntazam ravishda qo'llash kerak:

1) matematika darslarida o'quvchilarning aqliy faoliyatini shakllantirishga qaratilgan amaliy topshiriqlarni muntazam bajarish;

2) darsning barcha bosqichlarida (yangi mavzu bayoni, mustaqil ish, bilimlarni takrorlash va mustahkamlash) mantiqiy fikrlashga undovchi muammoli vaziyatlarni yaratish va tahlil qilish.

S. L. Rubinshteyn fikrlashni shunday turlarini ta'kidlaydi: o'ziga xos – samarali yoki amaliy, o'ziga xos majoziy va mavhum. Yosh maktab o'quvchilarining aql-idrok fazilatlarini shakllantirishning to'liq aqliy rivojlanishi uchun barcha turdagi fikrlardan foydalanish kerak [2]. Quyidagi mazmundagi topshiriqlardan boshlang'ich sinf matematika darslarida qo'llash orqali o'quvchilari mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga erishish mumkin:

1) Shakllarni ikki guruhga ajrating: a) rang bilan; b) shakli bo'yicha;

2. Quyidagi sonlarni qanday qonuniyatga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin?

25, 102, 35, 104, 260, 109, 360, 55, 14, 65, 430, 18.

Javob: juft va toq sonlar, 2 ga va 5 ga bo'linuvchi sonlar.

2. Misollarni solishtiring, umumiylokni toping va yangi qoidani shakllantiring:

20+21; 21+22; 22+23; 23+24; 24+25; 25+26.

Javob: 41, 43, 45, 47, 49, 51- bunda toq sonlar ketma-ketligi hosil bo'ladi.

Xulosa: ikki ketma-ket sonlarning yig'indisidan toq sonlar hosil bo'ladi.

3. Ayirmani hisoblang.

40-39; 41-40; 42-41; 43-42; 44-43.

Javob: 1, 1, 1, 1, 1.

Xulosa: ikki ketma-ket kelgan sonlarning oldingisi o'qidan keying tartibda turuvchi sondan ayirilsa, barcha ayirmalarda bir soni hosil bo'ladi.

4. Hisoblang.

125+10-10; 86+5-5; 256+28-28; 145+18-18.

Javob: 125; 86; 256; 145.

Xulosa: agar songa bir hil son qo'shilsa va ayirilsa, natijada o'sha sonni o'zi hosil bo'ladi.

Vizual-samarali fikrlash orqali muammolarni hal qilish boshlang'ich sinf o'quvchilarida kichik izlanishlar olib borish, muammolarni hal qilish uchun maqsadli (tasodifiy emas) urinishlar qilish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Ushbu turdagi fikrlash yordamida ob'ektlar (ular orasidagi munosabatlarni topish kerak) ularning holatini va xususiyatlarini o'zgartirish uchun, mumkin bo'lgan vazifalar hal etiladi[3].


Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning an'anaviy faoliyati vizual-samarali fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi: chizish, modellashtirish, dizayn. Vizual-samarali fikrlash asosida yanada murakkab fikrlash shakli shakllanib boradi. Bunday ko'nikmalar o'quvchiga amaliy harakatlar, ob'ektlar va mos qonuniyatlar asosida muammolarni hal qilish imkonini beradi. Ushbu turdagi fikrlashni rivojlantirish uchun bunday mashqlardan foydalanish muhim: "kamida

bittasi", "barchasi", "xar biri" va boshqalar. Masalan, 2; 3; 4; 5; 6; 7 sonlarining barchasi o'sish tartibida joylashgan, ularning har biri birga bo'linadi.


Tahlillar va natijalar

Fikrlashni rivojlantirishning eng yuqori bosqichi asta-sekin shakllanadigan og'zaki va mantiqiy fikrlashdir. Bunda boshlang'ich sinfda sonlar ustida bajariladigan amallar doir topshiriqlar munimdir.


Sonning tarkibini o'rganishda quyidagi chizmadan foydalaniladi:




Sonlarni o'sib borishi, qo'shish va ayirish amallarini quyidagi chizmalar yordamida qulay tushintirish mumkin:



Sonlar o'zidan oldingi songa birni qo'shish orqali hosil qilinadi. Son oqida ular ustidagi amallarga doir quyidagi sxematik ko'rinishda ham berish mumkin:



Quyidagi topshiriqlarni berish orqali yanada mustahkamlanadi: Tenglamani yeching va tekshirishni bajaring:




Yosh o'quvchining fikrlash qobiliyatining o'sib borishini, fikrlash ob'ektlari va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish qobiliyatidan kelib chiqadi, shuning uchun unga mavzuning xususiyatlariga to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rgatish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlashning o'ziga xos xususiyatlari fikrlash jarayonida va uning har bir operatsiyasida aniq namoyon bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va takomillashtirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur:

- O'quvchilarni bilan darslar orasida mantiqiy besh daqiqa va mantiqiy mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

- Mantiqiy mashqlar bolalarning hayot tajribasidan foydalanib, to'g'ri matematik qarorlar chiqarishga imkon beradi[4].

Boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiq qoidalari va qonunlarining nazariy asoslariga ega emaslar, qonuniyatni to'g'ri ekanligi, masalaning yechimi qay darajad tog 'ri ekanligi o'qituvchi yordamida hulosalanadi. Uning rahbarligida mashqlar orqali o'quvchilar mantiqiy fikrlashni boshlaydilar, mantiqiy yondoshish bilan tanishadilar. Matematika darslarida qiziqarli va tushunarli shunday mashqlarni qo'llash kerakki, bu o'quvchida diqqatni jamlash, berilgan topshiriqqa nisbatan jonli yorqin his-tuyg'ularga sabab bo'ladi va o'quvchini befarq qoldirmaydi. Mantiqiy topshiriqlar va mashqlar maqsadi o'quvchilarda aqliy faoliyatini faollashtirishdir. Quidagi labirint topshirig'i orqali bitta yashil va ko'k yo'lak orqali o'tib 15 sonini hosil qilish kerak:



bunda: agar 9 sonidan o'tsam yashil yo'lakda 15 soni hosil bo'lishi uchun qaysi sonidan o'tishim kerak?

Agar ko'k yo'lakdan 7 orqali o'tsam, yashil yo'lakdan 8 orqali o'taman va $7+8=15$ hosil bo'ladi.


Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'quvchining tasavvuridan mohirona va o'z vaqtida foydalanish kerak. Tasavvur qilish orqali o'quvchi masalani yechim yo'llarini izlaydi[5].

Vizual va samarali fikrlashni rivojlantirishga yordam beradigan topshiriqlar.

Ushbu turdagi fikrlashning o'ziga xos xususiyati - bu fikrni rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lgan aniq ob'ektlar ustida ish olib boriladi. Masalan, sanoq cho'plari orqali raqamlar hosil qilish, shakllardan uchburchak va to'rtburchaklar sonini aniqlash kabi o'qituvchi nafaqat

o'quvchiga bilim, ko'nikma va malakalar berishi, balki ularni haqiqiy hayotda qo'llashni o'rgatishi kerak.



Geometrik bilimlarni mustahkamlashga doir quyidagi berilgan shakldan nechta uchburchak ajratish mumkin?



Bu topshiriqda hosil bo'ladigan uchburchaklarni quyidagi tartibda olish mumkin:



Quyidagi shakllardan to'rtburchakni ajratish mumkinmi?



Xulosa

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning ustuvor vositalaridan biri didaktik o'yinlar deb hisoblanadi, ular o'quvchilarga o'inli harakatlar jarayonida aqliy faoliyat, ko'nikma va malakalardan oqilona foydalanish, ob'ektlarning xarakterli xususiyatlarni topish, solishtirish, guruhlash, muayyan xususiyatlarga ko'ra tasniflash, xulosalar chiqarish va umumlashtirish vazifasini qo'yadi. Natijada mantiqiy fikrlashni rivojlanishining asosiy usuli - ob'ektlarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini taqqoslash va ajratish, ularning baholash kabi yangi bilimlar hosil qilinadi.

Berilgan amaliy topshiriqlar va masalalarni yechish orqali o'quvchilar berilgan topshiriqni shartlarni tahlil qilish, muhim ma'lumotlarni ajratish, kerakli ma'lumotlarni o'zaro bog'lash, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rnatishga kirishadilar. Nostandard masala va topshiriqlarni yechish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasini va matematika fanini chuqur egallashlariga kata yordam beradi.

Kichik maktab yoshi mantiqiy fikrlash rivojlanishining faol bosqichidir, unda tahlil qilish, sintez qilish, umumlashtirish, cheklash, tasniflash, taqqoslash, abstraktsiya va boshqa mantiqiy operatsiyalarni amalga oshirish uchun asoslar mavjud bo'lib, ular umumta'lim maktabining o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosi hisoblanadi. Matematika darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan maxsus vazifalar va mashqlarni muntazam



ravishda qo'llash yosh o'quvchilarning kundalik turmushdagi eng oddiy qonunlariga ko'proq ishonch bilan qarashga va matematik bilimlardan faol foydalanishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Davydov V. V. o'quv faoliyati: tadqiqotning holati va muammolari. // Boshlang'ich maktab. 1991-raqam 6-p. 16-23.
2. Rubinshteyn, S. L. umumiy psixologiya muammolari / S. L. Rubinshteyn-M.: ma'rifat, 2007.
3. Timerxonova G. K. matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish [elektron resurs] URL: <http://www.openclass.ru/node/275255>.
4. Истомина, Н.Б. Методика обучения математике в начальных классах : учебное пособие для студентов ф-тов подготовки учителей нач. кл. пед. ин-тов, колледжей и училищ [Текст] / Н.Б. Истомина. – М. : ЛИНКА-ПРЕСС, 1997.
5. Ручкина, В.П. Курс лекций по методике обучения математике в начальных классах. [Текст] : учебное пособие. / В.П. Ручкина, Г.П. Калинина, Г.В. Воробьева. – Екатеринбург :Издатель Калинина Г.П., 2009.
6. Глаголева Ю.И. Математика.Тесты 4 класс:учебное пособие/Москва: «Просвещение», 2019.
7. Gofurova, M. A. (2020). Development of students' cognitive activity in solving problems. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 1(81), 677-681.
8. Gafurova, M. A. (2021). Developing Cognitive Activities of Primary School Students based on an Innovative Approach. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(10), 236-242.
9. Gafurova, M. (2021). Intellectual and Cognitive Activities of School Pupils. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(2), 447-450.
10. Gofurova, M. A. (2020). Развитие познавательной деятельности учащихся при решении задач. *Theoretical & Applied Science*, (1), 677-681.
11. Гафурова, М. А. (2022). Методы и формы организации деятельности учащихся на уроке математики в начальном классе. *Scientific Impulse*, 1(5), 598-602.



UDK 37.012.85

ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARS JARAYONINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI

St.o'qituvchi, Jaloldinov Ahror Abdusattor o'g'li,
Namangan muhandislik-qurilish instituti,
Email: axrorjaloldinov0797@gmail.com,

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil etish, yangi texnologiyalar asosida dars jaroyoni yanada samarali tashkil etish va ularni dars jarayonlaridagi samaradorligini baholash, biz tavsiya etayotgan usullardan biri case-stadi usuli xisoblanadi maqolada bu usuldan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil etish va foydalanish zarurati borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, innovatsion faoliyat, keys-stadi, muammo, axborot.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА, СВЯЗАННАЯ С ИННОВАЦИОННЫМИ ТЕХНОЛОГИЯМИ В СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Стажер-преподаватель Джалолдинов Ахрор Абдусатторович,
Наманганский инженерно-строительный институт,
Электронная почта: axrorjaloldinov0797@gmail.com,

Аннотация: В статье рассматривается организация урока с использованием современных передовых технологий, более эффективная организация урока на основе новых технологий и оценка их эффективности в уроке, одним из методов, который мы рекомендуем, является метод кейс-стади. слово идет.

Ключевые слова: образование, инновационная деятельность, кейс, проблема, информация.

EFFICIENCY OF THE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS ASSOCIATED WITH INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM

Trainee-teacher, Jaloldinov Ahror Abdusattorovich,
Namangan Institute of Engineering and Construction,
Email: axrorjaloldinov0797@gmail.com,

Abstract: The article discusses the organization of a lesson using modern advanced technologies, a more effective organization of a lesson based on new technologies and the evaluation of their effectiveness in a lesson, one of the methods that we recommend is the case study method. word goes.

Key words: education, innovation activity, case, problem, information.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinalarda - Konsepsiya) oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash,

raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan [1].

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “2018–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi №PQ–3931-son qarorida ta’lim sifatini yaxshilash va innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish vazifasi belgilangan. Unga ko‘ra ilg‘or jahon tajribasiga tayanib, yangi davlat ta’lim standartlari va umumiy o‘rta ta’lim o‘quv dasturlarini bosqichma-bosqich joriy etish va takomillashtirish ko‘zlangan [2,3].

O‘quvchi o‘zining aniq sharoitlari va imkoniyatlariga eng ko‘p mos keladigan o‘quv jarayonini ongli ravishda tanlab olishi foydadan xoli emas. Bu ish darsning muhim tomonlarini tanlashdagi tavakkalchilikka bilim ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayonini boshqarishga qandaydir tasodifiy yondashishga yo‘l qo‘ymaydi.

Tadqiqot metodi va metodologiyasi

O‘quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo‘llarini izlaydi. Bu sohada turli xil ko‘rik-tanlovlar, respublika miqyosida o‘tkazilayotgan pedagogik ishlarda o‘rtaga qo‘yilayotgan ilg‘or o‘qituvchilarning fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir. Turli-tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim.

1. Har bir dars ma’lum bir maqsadni amalga oshirishga yaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo‘lmog‘i lozim.

2. Har bir dars mustahkam g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishga ega bo‘lmog‘i lozim.

3. Har bir dars turmush bilan amaliyot bilan bog‘langan bo‘lmog‘i lozim.

4. Har bir dars xilma-xil usul uslub va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmog‘i lozim.

5. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab undan unumli foydalanmoq lozim.

6. Har bir dars o‘qituvchi va o‘qituvchilarning faolligi birligini ta’minlamog‘i lozim.

7. Darsda o‘quv materialarining mazmuniga oid ko‘rsatmali qurollar texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

8. Dars mashg‘ulotini butun sinf bilan yoppasiga olib borish bilan har qaysi o‘quvchining individual xususiyatlari ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinadi.

9. Har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan foydalanmoq imkoniyatini izlamog‘i lozim.

Sinf-dars shaklidagi dars turlari va ularning tuzilishi. Bir soatlik darsga mo‘ljallangan dastur materialarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talablarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg‘ulot turi dars turlari deb yuritiladi.

Ta’lim tizimida eng ko‘p qo‘llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.

2. O‘qitilgan materiallarni mustahkamlash darsi.

3. O‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini tekshirish va baholash darsi.

4. Takroriy-umumlashtiruvchi va kirish darslari.

5. Aralash dars (yuqoridagi dars turlarining bir nechtasini birga qo‘llanishi).



Har bir dars turining ma'lum tuzilishi va xususiyatlari bor bu narsa o'qituvchining o'quv materialini to'g'ri va samarali tushuntirishiga mustahkam esda qoldirishga takrorlashga va uning o'zlashtirilishini nazorat qilib borishiga yordam beradi. Tavsiya qilmoqchi bo'lgan usulimiz "Keys - stadi" usuli.

"Keys - stadi" ilk marotaba Garvard universitetining huquq maktabida 1870-yilda qo'llanilgan edi. 1920-yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

Keys-stadi (inglizcha case - to'plam aniq vaziyat stadi -ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzda yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir [4].

Tadqiqot natijasi

Demak, integratsiyalashgan ta'limni joriy etishdan ko'zlangan maqsad - bu ta'lim, jamiyat, ish va dunyoni bir butun holda tasavvur etish va ular o'rtasida barqaror aloqa o'rnatishdan iborat hisoblanadi. Keys-stadi - ta'lim axborotlar kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida bashorat qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir.

Keysda tavsiflangan aniq vaziyat o'rganishni voqelikka bog'lab qo'yadi: sizga muammoni hal etish bo'yicha vaziyatni tahlil qilish tahminlarni shakllantirish muammolarni aniqlash qo'shimcha ma'lumotni yig'ish taxminlarni aniqlashtirish va aniq qadamlarni loyihalashtirish imkonini beradi.

O'quv uslubi sifatida quyidagilarni ta'minlaydi:

-o'rganilgan o'quv mavzu kursi bo'yicha (nazariy ta'limdan so'ng) bilimlarni mustahkamlashni;

-muammolarni tahlil qilish va qarorlarni yakka tartibda va guruhli qabul qilish ko'nikmalarini egallashni;

-ijodiy va o'rganish qobiliyatlar mantiqiy fikrlash nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishni;

-yangilikka qarorlarni mustaqil qabul qilishga tayyorgarlikni;

-mas'uldorlik mustaqillik kommunikativlik va empatiya refleksiyaning shakllanishini; o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirish sifatini o'z tekshirishini (o'quv dasturi yakunida).

Muammoni ifodalanishi:

1. Muammo qandaydir harakatlar qilish uchun yetilgan zarurat bilan uni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yetishmasligi o'rtasidagi ziddiyatni belgilaydi.

2. Muammoni asosiy tarkibiy qismlari (muammo, osti muammolar)ni ajratadi.

Keysning dasturiy kartasi keys uchun axborot yig'ish va vaziyatni bayon qilish uchun asos bo'ladigan asosiy masalalar(tezislarni)ning tuzilmalangan ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Pedagogik annotatsiya quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Keysda mo'ljallangan predmet bo'lim mavzu ta'lim darajasi kurs ko'rsatiladi.

2. Keysdan ko'zlangan maqsad (ta'limiy maqsad rejalashtiriladigan o'quv natijalari;



1. Talabalar keysni muvaffaqiyatli hal etish uchun egallashi lozim bo'lgan dastlabki bilim va malakalar.

2. Keys real institutsional tizim faoliyatini aks ettirishi yoki unda keysolog sun'iy modellashtirgan vaziyat bayon qilinishi haqidagi ma'lumot.

3. Axborot olish manbalari ro'yxat.

4. Keysning o'ziga xos belgilariga ko'ra tavsifnomasi (syujet, keys obyekt mavjudligi materialni taqdim etish usuli, hajmi, tuzilmaviy o'ziga xos xususiyatlari o'quv topshirig'ini taqdim etish usuli chizmalashtirish usuli);

5. Keysdan ko'zlangan maqsad va tegishli tashkiliy-uslubiy ta'minoti o'zgarganida u qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'quv predmetlari ro'yxati.

Keys-ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan aniq muammoli vaziyatning tafsilotidir. Keys usuli ishlab chiqarish masalalarini mashg'ulotlarda tahlil qilish va hal qilish usuli unda ishtirokchilarga haqiqiy hayotiy vaziyat bo'yicha fikr yuritish taklif qilinib bu vaziyat bayonida nafaqat amaliy masala ifodalanib qolmasdan undagi muammoni yechish jarayonida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan o'quv materiali ham ifodalanadi.

Muammolarni oldini olish yo'llarini ishlab chiqish "Keys stadi"ga asoslanagan o'qitish texnologiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu texnologiya amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida o'rganilgan o'quv mavzusi bo'yicha bilimlarni mustahkamlashga muammolarni tahlil qilish va uning yechimini yakka tartibda yoki guruhlarda yecha olish ko'nikmalarini egallashga ijodiy va o'rganish qobiliyatlari mantiqiy fikrlash nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga va o'z-o'zini nazorat qilishga yordam beradi [5].

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, taraqqiyot tomon ildam odimlab borayotgan yurtimizda yosh avlodga bilim berish, ularning bilim darajasini xalqaro baholash standartlariga tenglashtirish uchun o'qituvchining zimmasiga katta mas'uliyat yuklanmoqda. Bu esa o'qituvchilardan yanada bilim, izlanuvchan hamda ta'limga oid yeng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lishni talab etadi. Zamonaviy usullardan foydalangan holda dars jarayonini tashkil qiladigan bo'lsak talabalarni darslarni yaxshi o'zlashtirishi samaraliroq bo'ladi. Yangicha metodlar talabalarni dars mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otadi va dars jarayonlarida faolroq bo'lishga chorlaydi. Bunday tajriba yangilanish jarayonini kechirayotgan mustaqil Respublikamiz ta'lim tizimini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishda qo'l kelishi shubhasiz. Hamma gap masalaga mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda ijodiy yondashishda, tashabbuskorlik va tashkilotchilik ko'rsatib ish yuritishdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son **Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.**
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori.
3. Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 5-sentyabrdagi "2018–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi №PQ–3931-son Qarori.



4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2009 -160 b.
5. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. Fan va texnologiya. 2011.
6. <https://www.integer.uz/steam>
7. <http://exclusive.multibriefs.com>
8. <http://www.bmbf.de>
9. www.edu.uz
10. www.uzedu.uz

TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING DIVERGENT FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI VA VOSITALARI

Adizova Nigora Baxtiyorovna
Buxoro davlat Pedagogika instituti dotsenti

***Annotatsiya:** Bu maqolada kelajak avlodni jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan bilimlarni chuqur egallashi va ko'nikmalarga ega bo'lish qobiliyati bilan tarbiyalash uchun o'qituvchining malakasini oshirish shaxsning salohiyatini, uning ijodiy bazasini qayta ishlab chiqarish sohasini ifodalashga qaratilishi kerakligi haqida fikr mulohazalarni keltirilganman.*

***Kalit so'zlar:** divergent, intellektual, kontseptsiya, identifikatsiya, diqqat, idrok, assotsiatsiyalar jarayoni, tafakkur, assotsiatsiya, motiv, faoliyat, konvergentsiya, reproduktiv, ijodiy fikrlash, mustaqil, evristik.*

WAYS AND MEANS OF FORMING THE TEACHER'S DIVERGENT THINKING IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

Adizova Nigora Bakhtiyorovna-Associate Professor of Bukhara State Pedagogical Institute

***Abstract:** In this article, I present the opinion that in order to educate the future generation with the ability to acquire knowledge and skills necessary for the development of society, the teacher's qualification should be focused on expressing the potential of the individual, the sphere of reproduction of his creative base.*

***Key words:** divergent, intellectual, concept, identification, attention, perception, process of associations, thinking, association, motive, activity, convergence, reproductive, creative thinking, independent, heuristic.*

ПУТИ И СРЕДСТВА ФОРМИРОВАНИЯ ДИВЕРГЕНТНОГО МЫШЛЕНИЯ ПЕДАГОГА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Адизова Нигора Бахтиоровна-Доцент Бухарского государственного педагогического
института

***Аннотация:** В данной статье я излагаю мнение, что для воспитания будущего поколения, способного приобретать знания и умения, необходимые для развития общества, квалификация*

учителя должна быть ориентирована на выражение потенциала личности, сферы воспроизводства его творческой базы.

Ключевые слова: дивергентный, интеллектуальный, концепт, идентификация, внимание, восприятие, процесс ассоциаций, мышление, ассоциация, мотив, деятельность, конвергенция, репродуктивное, творческое мышление, самостоятельное, эвристическое.

Kirish

Zamonaviy sharoitda o'qituvchining faoliyatini tahlil qilish o'qituvchi uchun faqat fan bilimi va ongining tabiiy kuchi yetarli emas degan xulosaga kelishga imkon berdi - muhim jihat - moslashuvchanlik va fikrlash erkinligi, yuqori va ko'p qirrali fikrlash madaniyati va his-tuyg'ular, kuchli iroda, "subyekt" o'zaro ta'sirining tabiatini bilish va boshqalar.

Divergent fikrlash tuzilishiga o'tishdan oldin uning intellekt strukturasi o'rni aniqlaymiz.

Hozirgi vaqtda aqlning bir nechta asosiy ta'riflari mavjud. Mana ulardan ba'zilari:

Intellekt - bu shaxsning aqliy qobiliyatlarining nisbatan barqaror tuzilishi.

Intellekt - keng ma'noda - barcha kognitiv funktsiyalarning yig'indisi.

Intellekt - sezgi va idrokdan tafakkur va tasavvurgacha, tor ma'noda - fikrlashdir.

Aql-idrok - bu mavjud aqliy tuzilmalar, ular tomonidan yaratilgan aqliy aks ettirish maydoni va bu makonda qurilayotgan sodir bo'layotgan narsalarning aqliy tasavvurlari shaklida individual aqliy tajribani tashkil etish shakli.

Aql-idrok - bu omon qolish va ma'lum bir madaniyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar to'plami.

Aql-idrok - bilim va ko'nikmalar qobiliyatlarining ajralmas ko'rinishidir.

Intellekt bu:

a) har qanday faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydigan va boshqa qobiliyatlar asosidagi muammolarni o'rganish va hal qilishning umumiy qobiliyati;

b) shaxsning barcha bilish qobiliatlari tizimi: sezgilar, hislar, xotiralar, tasavvurlar, tafakkur, tasavvurlar;

v) "ongda" sinov va xatoliksiz muammolarni hal qilish qobiliyati.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

M.A. Xolodnayaning nuqtai nazariga ko'ra, intellekt "mavjud aqliy tuzilmalar shaklida individual aqliy tajribani tashkil etish shakli, ular tomonidan yaratilgan aqliy aks ettirish maydoni va bu makon ichida sodir bo'layotgan voqealarning aqliy tasavvurlari qurilgan".

M.A. Xolodnaya aqliy tajribaga quyidagicha ta'rif beradi: "Aqliy tajriba - bu insonning dunyoga kognitiv munosabati asosida yotadigan va uning intellektual faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan mavjud ruhiy shakllanishlar va ular tomonidan boshlangan ruhiy holatlar tizimi" dir.

Aqliy tajriba uch shaklda bo'ladi: aqliy tuzilmalar, aqliy makon va aqliy vakillik.

Kognitiv tajriba - mavjud va kiruvchi ma'lumotlarni saqlash, tartibga solishni ta'minlaydigan aqliy tuzilmalar. Ularning asosiy maqsadi "aks ettirishning turli darajalarida joriy ta'sir to'g'risidagi joriy ma'lumotlarni operativ qayta ishlash" dir.

Metakognitiv tajriba - axborotni qayta ishlash jarayonini ixtiyoriy ravishda tartibga solishni amalga oshiradigan aqliy tuzilmalar, shuningdek, shaxsning intellektual faoliyatini teng darajada

muhim o'zboshimchalik bilan tashkil etish. Asosiy maqsad - "individual intellektual resurslarning holatini, shuningdek, intellektual faoliyatning borishini kuzatish".

Qasddan tajriba - individual intellektual tendentsiyalar asosidagi aqliy tuzilmalar. Ularning asosiy maqsadi ma'lum bir mavzu bo'yicha subyektiv tanlov mezonlarini, echimni izlash yo'nalishini, ma'lum ma'lumot manbalarini, uni taqdim etishning sub'ektiv vositalarini "oldindan belgilash" dir.

Kognitiv, metakognitiv va qasddan tajribani tashkil etish xususiyatlari individual intellektning xususiyatlarini aniqlaydi.

Keling, intellektning psixologik qurilmasining modelini ko'rib chiqaylik, uning strukturaviy tashkil etilishining xususiyatlarini ko'rsatamiz.

Shunday qilib, biz divergent fikrlash intellektga kiritilganligini ko'ramiz. D.Gilford, G.Gruber, C.Taylor, E.Torrensning divergent fikrlash muammosi haqidagi qarashlarini tahlil qilib, A.K.Markova tomonidan taklif etilgan kasbiy kompetensiya strukturasi tahlil qilish, V.I.Zagvyazinskiy asarlaridagi yutuqlarni hisobga olgan holda, E.L. Prasolova va boshqalarning ta'kidlashicha, divergent fikrlashning tuzilishi haqida xulosa chiqarish mumkin (1-jadval).

1-jadval.

Divergent fikrlashning asosiy xususiyatlari	Nazariy komponent	Amaliyotga yo'naltirilgan komponent
1. Butunlik va izchillik	Ta'limning muayyan modelida kasbiy faoliyatning yaxlit qiyofasini yaratish qobiliyati	Pedagogik faoliyatni tizimli ravishda amalga oshirish qobiliyati
2. reflekslilik	Ta'limning turli modellari haqidagi ma'lumotlarga asoslangan shaxsiy kasbiy kompetensiya darajasidan xabardorlik	Pedagogik faoliyatini yuzaga kelgan vaziyatga qarab tuzatish qobiliyati
3. Innovatsiya	Ta'limdagi innovatsion jarayonlarga yo'naltirilgan ta'lim muassasalari va o'qituvchilar faoliyatini tizimli qayta qurish to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish	Ta'lim va tarbiyada yangi yondashuvlarni izlash zarurati
4. tanqidiylik	Ta'limning turli modellari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish ta'lim hodisalarini ob'ektiv tahlil qilish sharti sifatida	O'z kasbiy mahoratini o'z-o'zini baholash va o'qituvchilarning pedagogik tajribasini baholashda faoliyat shakllaridan ko'rsatmalar sifatida foydalanish qobiliyati
5.Noaniqlik sharoitida o'z taqdirini o'zi belgilash qobiliyati	Yangi g'oyalar va ta'lim texnologiyalari oqimida harakatlanish imkonini beruvchi ma'lumotlarga ega bo'lish	Ta'lim sharoitida tezkor yo'naltirish, ta'lim muassasasining madaniy muhitiga moslashish qobiliyati
6.Moslashuvchanlik	O'zgaruvchan ta'limda fikrlash va pedagogik faoliyatni tizimli qayta qurish haqidagi bilimlar	O'zgaruvchanlik sharoitida fikrlash va pedagogik harakatlarni tizimli ravishda qayta qurish qobiliyati
7. Hosildorlik	Yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati	Tadqiqot va kasbiy pedagogik faoliyatda ijodiy faoliyat

Divergent fikrlash pedagogik voqelikni yaxlit, poliparadigmali bilishga, uni tanqidiy tushunishga, psixologik-pedagogik muammolarni hal qilishda fanlararo izlanishlarga (o'z "dunyo qiyofasini yaratish" istagi, pedagogik muammolarni ijodiy hal qilish istagi, kasbiy faoliyatdagi gumanistik "subyekt-subyektiv" pozitsiyasi.

O'qituvchining divergent fikrlashini shakllantirish ta'lim faoliyati mazmuni va protsessual tashkil etilishining birligi bilan ta'minlanadi.

O'qituvchilarni ta'lim jarayonida divergent fikrlashni shakllantirish vositasi ta'lim falsafasi hisoblanadi. Bu sinfni "tadqiqotchilar jamoasi"ga aylantiradi. Falsafa fikrlashni o'rgatishning paradigma intizomidir. Fikrlash usullari ushbu fanning mavzu mazmunini muhokamaga jalb qilish imkonini beradigan asos yaratadi. Falsafa orqali bolalarda yuksak tafakkurni rivojlantirish o'qituvchining asl maqsadi hisoblanadi. Falsafa dialogni talab qiladi va bu dialog divergent fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Falsafa o'zining paydo bo'lishining boshidanoq nafaqat mavjud ta'lim tizimlarini tushunishga, balki ta'limning yangi qadriyatlarini va ideallarini shakllantirishga intilgan.

Har yili dunyoda ta'lim falsafasi muammolariga bag'ishlangan ko'plab seminarlar va konferentsiyalar bo'lib o'tadi, alohida jurnallar nashr etiladi yoki mavjudlarida sarlavhalar yaratiladi. 1998-yil 10-16-avgust kunlari Bostonda bo'lib o'tgan Butunjahon falsafiy kongressi esa ta'lim muammosiga bag'ishlandi. Qurultoy falsafa insoniyatni tarbiyalash vositasi shiori ostida o'tkazildi. To'rtta plenar majlis va beshta simpozium va kollokviumlar bevosita ta'lim falsafasi bilan bog'liq edi.

Biroq, ta'lim falsafasining mavqeini, bir tomondan, umumiy falsafa bilan, ikkinchi tomondan, pedagogik nazariya va amaliyot bilan aloqasini oydinlashtirishda hali ham qiyinchiliklar mavjud. Turli falsafiy oqimlar vakillari, albatta, ta'lim falsafasining mazmuni va vazifalarini turlicha izohlaydilar. Ta'lim falsafasini nimadan iboratligini aniqlashga yondashuv ham har xil. Bu yerda faqat bir nechta ta'riflar mavjud:

"Ta'lim falsafasi – ta'lim sohasiga ixtisoslashgan falsafiy tizimning alohida turi" (Britaniya entsiklopediyasi);

"Ta'lim falsafasi – ta'lim to'g'risida fikrlash tarzidir" (J.Beuyts);

Ta'lim falsafasi ta'lim inqiroziga, uni tushunish va intellektual qo'llab-quvvatlashning an'anaviy ilmiy shakllari inqiroziga, asosiy pedagogik paradigmaning tugashiga javobdir. Ta'lim falsafasida ta'lim va pedagogikaning yakuniy asoslari: ta'limning hayotning madaniy olamidagi o'rni va mazmuni, shaxs va ta'lim idealini tushunish, pedagogik faoliyatning mazmuni va xususiyatlari va boshqalar muhokama qilinadi.

Ta'lim falsafasining uslubiy va, xususan, loyiha yo'nalishi ta'limda yuzaga keladigan inqirozni hal qilish yo'llari va usullarini va yangi maktab qiyofasini muhokama qilishni belgilaydi.

Ta'lim falsafasining qiziqishi pedagogika va ta'limning o'zidir, shuning uchun u boshqa fanlardan olingan barcha g'oyalarni ta'lim inqirozini tushunish, pedagogik faoliyatning yakuniy asoslarini muhokama qilish, ta'limning asosiy yo'nalishlarini yaratish yo'llarini ishlab chiqish vazifalari bilan bog'liq holda qayta ko'rib chiqadi va aks ettiradi.

Ta'lim falsafasi o'z mohiyatiga ko'ra plyuralistikdir: bu nom ostida ta'lim va uni egallash yo'llari haqidagi xilma-xil qarashlar, shaxs va uning rivojlanishiga turlicha qarashlar, hayot va uning ma'nosiga turlicha qarashlar yonma-yon yashaydi.



Qabul qilishni o'rgatgan shaxsga biron bir aniq konsepsiyani harakatga yo'l-yo'riq qilib qo'yish umuman shart emas, balki ta'limning professional faylasuflari tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalarni sinchkovlik bilan va tanqidiy o'rganish o'z kasbiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim qadamdir. Darhaqiqat, har qanday o'qituvchining o'ziga xos yondashuvi bor, u to'liq ongli bo'lmasligi mumkin, qat'iy shartlarda shakllantirilmagan, ammo bu yondashuv, albatta, uning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi.

Professional muloqot tilini rivojlantirish (bu holda pedagogika fanining tili) muayyan pedagogik toifalar ta'riflarining o'z versiyalarini muhokama qilish bilan bog'liq bo'lgan bunday o'quv vazifalarini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Vazifalarni bajarishda o'qituvchilar ular uchun yangi ma'lumot va ta'lim faoliyatining yangi shakllarini o'zlashtirishda teng huquqqa ega, bu ularga qo'rquv va o'ziga ishonchsizlikni engishga imkon beradi. Bu vazifalarning soddaligi, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyati, qo'yilgan ta'lim maqsadlarining aniqligi bilan ta'minlanadi.

Ta'lim falsafasi darslarida divergent fikrlashni rivojlantirishning quyidagi usullari qo'llaniladi

- hikoya - divergent fikrlashning izchilligi va yaxlitligini shakllantirish uchun foydalaniladigan "Ta'lim falsafasi" kursi muammosi materialining monologik taqdimoti;

- insho yozish - bu, birinchi navbatda, divergent fikrlash tizimi va yaxlitligini, shuningdek, tanqidiylikni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan usul. Qat'iy belgilangan mavzu bo'yicha insho yozish mumkin (muammo tuziladi, turli yo'llar bilan yechim taklif qilish kerak; bayonot beriladi - dalillarni keltirish orqali uni rad etish va qo'llab-quvvatlash kerak; savol qo'yiladi. - unga har tomonlama javob berish kerak; matn taklif qilinadi - siz muammoni mustaqil ravishda ajratib olishingiz va unga bir nechta echimlarni taklif qilishingiz kerak) yoki o'qituvchi taklif qilgan bepul mavzuda;

- talqin. Usul fikrlashning reflektivligi va moslashuvchanligini rivojlantirish uchun zarurdir. O'qituvchilar matnlarni yoki og'zaki bayonotlarni sharhlaydilar. Va murakkabligi oshgan matnlar va bayonotlar. O'qituvchi talqin qilish uchun bir nechta variantni taklif qilishi kerak;

- modellashtirish. Fikrlashning tizimli va yaxlitligini, shuningdek, noaniqlik sharoitida (turli xil ishbilarmonlik o'yinlarida) o'zini o'zi belgilash qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur usul. Modelni qurish har doim tizimli va yaxlit tarzda sodir bo'ladi, bundan tashqari, modellashtirish jarayoni noaniqlik sharoitida turli xatti-harakatlarni oldindan ko'rish imkonini beradi;

- tanqidiylikni rivojlantirish usuli sifatida isbotlash juda samarali. Bundan tashqari, insho yozishda ham foydalaniladi. O'qituvchi gapning noto'g'ri yoki haqiqatini turli usullar bilan isbotlashi kerak.

- "aqliy hujum" yoki "aqliy hujum" usuli - ijodiy fikrlashni erkinlashtirish va faollashtirishning eng keng tarqalgan usullaridan biri. Birinchi marta bu usul AQShda to'liq so'z erkinligi va ularni tanqid qilishni taqiqlashdan iborat bo'lgan yangi g'oyalarni olish usuli sifatida ishlatilgan. Ta'kidlanganidek, tanqiddan qo'rqish ijodiy fikrlashga to'sqinlik qiladi, shuning uchun hujumning asosiy g'oyasi yopiq mutaxassislar guruhida g'oyalarni shakllantirish tartibini bildirilgan fikrlarni tahlil qilish va baholash jarayonidan ajratishdir.

Qoidaga ko'ra, hujum taxminan 40 daqiqa davom etadi. Ishtirokchilarga berilgan mavzu bo'yicha har qanday g'oyalarni (hazil, fantastik, xato) ifoda etish taklif etiladi. Tanqid qilish

taqiqlangan. Odatda 50 dan ortiq fikr bildiriladi. Vaqt chegarasi har bir taqdimot uchun ikki daqiqagacha.

Xulosa

Hujumning eng qiziqarli lahzasi - bu cho'qqining boshlanishi (hype), g'oyalar "g'ash", ya'ni, ishtirokchilarning gipotezalarining ixtiyorsiz hosil bo'lishi sodir bo'ladi. Keyinchalik tahlil qilinganda, g'oyalarning atigi 10-15 foizi oqilona bo'lib chiqadi, ammo ularning ba'zilari juda originaldir. Natijalar odatda avlodda ishtirok etmagan ekspertlar guruhi tomonidan baholanadi;

"6, 3, 5" aqliy hujum usuli shundan iboratki, 5 daqiqada 6 nafar mutaxassis pedagogik muammoni hal qilishning 3 ta variantini taklif qilishi kerak. 5 daqiqadan so'ng keyingi 6 nafar o'qituvchi xuddi shu protsedura uchun taklif qilinadi va hokazo. Shunday qilib, yarim soat ichida siz 108 ta yangi g'oya va takliflarni olishingiz mumkin, keyinchalik ular faol muhokama qilinadi va foydalaniladi. Usul tasodifiy natijalarni olish uchun juda muhimdir;

- qismlarga ajratish usuli moddiy (moddiy) ob'ektlarga nisbatan qo'llaniladi; u g'oya yoki ob'ektning asosiy xususiyatlari ro'yxatini tuzish va ularning har birini yaxshilash uchun ko'rib chiqishdan iborat;

- morfologik tahlil barcha o'zgaruvchilarni matritsaga kiritish va ularni birlashtirishdan iborat.

- har qanday muammo ustida uzoq muddatli intensiv ish innovatsion yechim bermasa, "kun orzulari" usuli taklif etiladi. Bunday vaziyatda to'liq dam olish va xayolparastlik ijodiy tushunchaga olib kelishi mumkin.

Qaysi usul qo'llanilishidan qat'i nazar, quyidagi to'rtta qoidaga rioya qilish kerak:

1) muddatidan oldin hukm qilishdan tiyilish - g'oyalarni muddatidan oldin tanqid qilishni istisno qilish kerak;

2) bo'shshaslik - g'oya qanchalik aqldan ozgan bo'lsa, natijalar shunchalik yaxshi bo'ladi; - Seminarlarda ta'lim falsafasi materiallari bo'yicha divergent fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi mashqlar ishlab chiqildi:

- Bu nima? (Bir nechta javoblar kerak edi.) Ko'pgina hollarda, boshida, fikrlash yagona to'g'ri javob olishga qaratilgan. Lekin biz izlanishni to'xtatmasligimiz kerak;

- aloqalarni o'rnatish. Aloqalar va munosabatlarni o'rnatish qobiliyati, ba'zan hatto g'alati bo'lsa ham, divergent fikrlash uchun juda muhim qobiliyatdir;

- metaforalar va taqqoslashlar (topshiriq berildi: quyida keltirilgan taqqoslashlarni o'rganing va ularning nima uchun asosli ekanligini tushuntiring);

- ajratish va bog'lanish (G'oyalarni yaratishning yana bir yaxshi usuli bor. Bu "atribut tahlili" deb ataladi. Atribut tahlili siz ishlayotgan g'oyaning xususiyatlari, xususiyatlari va parametrlari ro'yxatini yaratadi. Keyin, yangi g'oya yaratish uchun, bir vaqtning o'zida bir yoki bir nechta xususiyatni o'zgartirishingiz kerak);

- improvizatsiya mashqlari;

- metaforani rivojlantirish uchun mashqlar (savollarga javoblar: ta'lim - bu ..., falsafa - bu ...).

O'qituvchilarning divergent fikrlashini shakllantirishning birinchi bosqichining samaradorligini quyidagilar bilan baholash mumkin:

- o'z ijodiy va kasbiy imkoniyatlarini ob'ektiv baholash qobiliyati;

- darslarda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, shuningdek norasmiy muloqotda bolalar bilan o'rnatilgan aloqadan hissiy qoniqish;

- kasbiy va pedagogik faoliyatni loyihalash qobiliyati;



- o'z-o'zini anglashni rivojlantirish, uning mezonini o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish qobiliyatidir;

- ta'lim jarayonlari haqida fikr yuritish olish, tarbiya va ta'limdagi turli yondashuvlarning mohiyatini tushunish;

- yaxlitlik va tizimli fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, uning moslashuvchanligi, tanqidiyligi.

Ikkinchi bosqichda (malaka oshirishning ikkinchi yili) divergent fikrlashni shakllantirish davom etmoqda. Ammo rivojlanishi birinchi bosqichda ishlab chiqilgan divergent fikrlash xususiyatlariga "innovatsiya" va "mahsuldorlik" kabi xususiyatlar qo'shiladi. Bu davrda ta'limning turli modellarini ko'rib chiqishda divergent fikrlashni shakllantirish amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Загвязинский В.И. Педагогическое творчество учителя. - М., 1987. -168 с.
2. Маркова А.К. Психологические проблемы повышения квалификации // Педагогика. - 1992. - №№ 9-10.
3. Прасолова Е.Л. Культура образования. - Калуга, 2000. — 312 с.
4. Холодная М.А. Психология интеллекта. - М., 2002. - 272 с.
5. Guilford J. "The nature of human intelligence". New York: Graw Hill 1968.-334 p.
6. Torrance E. "Tests of Creative Thinking", New York, 1975. - 280 p.
7. Taylor C. Creativity and Individual. N.V., 1974. - 454 p.

TALABALARNI ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALAR ASOSIDA KASBIY TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Avazov A'zam Januzaqovich

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti,

i.f.f.d. (PhD), доцент. azamavazov20@gmail.com

***Annotatsiya:** Zamonaviy o'quv didaktik vositalari asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni ularning kelgusida ishlash sharoitini e'tiborga olgan holda modellashtiriladi. Buning uchun dastlab kasbiy faoliyatga tayyorlash tushunchasiga aniqlik kiritamiz. Kasbiy faoliyatga tayyorlash – kasbiy masalalarni yechishga qobiliyatli, kompetentli mutaxassisni tayyorlash maqsadida tashkil etiladigan o'quv jarayonidir.*

***Kalit so'zlar:** Didaktik vositalar, kasbiy faoliyat, kompetent, o'quv jarayoni, o'qitish metodlari, integrativlik, uzluksizlik, variativlik.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ

Авазов Азам Джанузакович

Джизакский государственный педагогический университет имени А.Кодири,

д.ф.э. (PhD), доцент. azamavazov20@gmail.com

***Аннотация:** на основе современных учебных дидактических средств моделируется процесс подготовки учащихся к профессиональной деятельности с учётом условий их дальнейшей работы. Для этого сначала уточним понятие подготовки к профессиональной деятельности.*



Подготовка к профессиональной деятельности-образовательный процесс, организуемый с целью подготовки компетентного специалиста, способного решать профессиональные задачи.

Ключевые слова: дидактические средства, профессиональная деятельность, компетентность, учебный процесс, методы обучения, интегративность, преемственность, вариативность.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS ON THE BASIS OF MODERN DIDACTIC MEANS

Azam Dzhanuzakovich Avazov

Jizzakh State Pedagogical University named after A.Kodiri, Ph.D.,

Associate Professor. azamavazov20@gmail.com

Annotation: on the basis of modern educational didactic tools, the process of preparing students for professional activities is modeled taking into account the conditions of their further work. To do this, we will initially clarify the concept of preparation for professional activities. Preparation for professional activities is an educational process organized with the aim of training a competent, competent specialist in solving professional issues.

Keywords: didactic tools, professional activity, competency, educational process, teaching methods, integrativity, continuity, variativeness.

Kirish

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning asosiy komponentlari o'qitishning maqsad va vazifalari, o'quv materialining mazmuni, o'qitishni tashkil etish metodlari, vositalari, shakllari, o'quv jarayonining yakuniy natijalaridan iborat bo'lgan metodik tizim sifatida qarash mumkin. Ana shundan kelib chiqan holda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini loyihalash jarayoni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: modelning zaruriyatini asoslash - modelni yaratish - modelning aniqlashtirish - olingan model asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish.

Kasbiy faoliyatga tayyorlash muvaffaqiyatini ta'minlovchi manbalar quyidagilardir:

- talabalar tayyorgarligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar, kasbiy fanlar mazmuni;
- qo'llaniladigan o'qitish metodlari;
- o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish;
- o'quv jarayonini ta'minlab beruvchi o'quv-moddiy texnik baza.

Kasbiy fanlarni o'rganishda kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tashkil etishdagi omillar hisobga olinadi. Aytish o'rinliki, kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoniga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar hisoblanadi: kasbiy faoliyatga tayyorlashning texnik tashkil etuvchilari, texnologik jarayonlar, ilmiy-texnik qarashlarni kengaytirishga imkon beruvchi vositalar, talabalarning shaxsiy xususiyatlari. Talabalarni kasbiy tayyorlash asoslarini omillar, manbalar, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, tamoyillar va yondashuvlar tashkil etadi (1-rasm).


Kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodologik asosini quyidagi yondashuvlar tashkil etadi: shaxsiy, kompetentli, faoliyatli, kontekstli va boshqalar.

Shaxs nuqtai nazaridan yondashuv o'quv jarayonini loyihalash va tashkil etishda talabalar faolligiga tayanishni nazarda tutadi. U talabalar shaxsining o'ziga xosligini e'tirof etishni va

ta'lim jarayonida shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Tadqiqotimiz muammosiga oid ilmiy izlanishlar tahlillari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari asosida umumkasbiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish muammolari bo'yicha respublikamiz pedagog olimlaridan A.R.Xodjaboev, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, O.A.Qo'ysinov, D.O.Ximmataliev, J.A.Hamidov, H.SH.Qodirov, M.Urazova, J.O.Xakimov, A.Nazarov, A.Jo'raev va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar.



1-rasm. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash asoslari Tadqiqot metodologiyasi

Shaxsiy-ijodiy komponent, bir tomondan, talabalarni kasbiy shakllantirish va o'z-o'zini namoyon etish yo'li bilan texnik va texnologik madaniyatni egallashning kreativ mexanizmlarini ochib beradi, boshqa tomondan esa texnik fikrlash va dunyoqarash asoslarining shakllanganligi darajasini tavsiflaydi. Faoliyatli yondashuv talaba shaxsining o'ziga xos xususiyati faoliyat jarayonida shakllanishi va namoyon bo'lishidan kelib chiqadi. O'qitish jarayoni uning barcha asosiy komponentlari, ya'ni ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, faoliyat elementlari, operatsiyalar, muvofiqlashtirish usullari, erishilgan natijalarni nazorat va tahlil qilishning birligi va o'zaro bog'liqligida quriladi. Bu asosiy komponentlar shaxsiy sifatlar asosida talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. Faoliyatli komponent oliy ta'lim muassasalarida kasbiy fanlarni o'qitish hamda talabalarni tarbiyalash masalalarini hal etish



usullarini o'z ichiga oladi. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kompetentli yondashuvni qo'llash ta'lim jarayonining amaliy yo'nalganligini ta'minlash (kasbiy kompetentlikni shakllantirish), shu bilan birga, amaliyotda ko'p uchraydigan muammoli-vaziyatli masalalarni aniqlash, ularni yechish algoritmini tuzish va undan foydalanish, loyihalash faoliyatini tashkil etishga yo'naltiradi.

Kontekstli yondashuv umumkasbiy fanlarini o'rganishda kasbiy faoliyat kontekstida ta'limning mos metod, shakl va vositalarni qo'llab, o'qitish, jarayonini qurish imkonini beradi. Kontekstli o'qitishda: 1) talabalar faoliyatli nuqtai nazardan yondashadi; 2) faol idrok qiladi; 3) bilimlar modellashtirilgan kasbiy vaziyatlarni hal etish kontekstida o'zlashtiriladi; 4) ishning individual va jamoaviy shakllaridan foydalaniladi; 5) kasbiy komponentlilik belgilari juda yaqqol ifodalangan o'quv axborotidan foydalanish tajribasini egallaydi; 6) o'quv, ilmiy va kasbiy faoliyat integratsiyasi muammosi pedagogik hal etiladi.

Kontekstli o'qitishda umumkasbiy fanlarni o'rgatish talabani kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasining nazariy va amaliy asoslarini chuqur bilishni talab etadi. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini ishlab chiqish kasbiy fanlarni o'qitishning ma'lum tamoyillarga asoslanadi. Tamoyil deganda, asosiy qoidalar, ta'lim jarayonining maqsad va qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim jarayoni, mazmuni, tashkiliy shakllari va metodlarini belgilab beruvchi didaktik tizimni tushunamiz. Bizning nazarimizda, kasbiy fanlarni o'qitishda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlari va mantig'iga quyidagi tamoyillar mos keladi:

- metodologik, o'quv materialini tanlash va tuzilmalashtirish;
- ta'lim jarayoni mazmunini belgilash va tashkil etish uchun asos bo'ladigan amaliy yo'nalganlik;
- integrativlik, uzluksizlik, variativlilik, o'quv materialini tanlash va tuzilmalashtirish.

Bundan tashqari, asoslangan metodologik tamoyillar (tabiatga moslik, ta'lim jarayonini tashkil etish, tizimlilik va yaxlitlik tamoyillari) talabaning butun o'quv jarayonini tashkil etishida hal qiluvchi hisoblanadi.

Amaliy yo'nalganlik tamoyili ko'pgina falsafiy, pedagogik, psixologik qoidalarga tayanadi: ta'lim samaradorligi va sifati amaliyotda tekshiriladi, tasdiqlanadi; amaliyot - bu haqiqat mezoni, bilish faoliyati manbai va o'qitish natijalarini qo'llash sohasi; to'g'ri yo'lga qo'yilgan o'qitish va tarbiyalash hayotning o'zidan, amaliyotdan kelib chiqadi, u bilan chambarchas bog'liq bo'ladi, talabani faol o'zgaruvchi faoliyatga tayyorlaydi, o'qitishni hayot, nazariya va amaliyot bilan bog'lash ta'lim mazmuniga, qo'llaniladigan metod va o'qitish shakllariga bog'liq. Bu tamoyil talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega, chunki uning faoliyatidagi vaqtning 75 % ni ta'lim oluvchilar bilan bajariladigan amaliy ish egallaydi.

Integrativlik tamoyili ilmiy tadqiqotlar va o'quv predmetlarining fanlararo aloqadorligini, kasbiy fanlarni mazmuniy va tuzilmaviy-funksional birligini nazarda tutadi.

Uzluksizlik va uzviylik tamoyili kasbiy tayyorgarlik bosqichlarining zamon va makondagi bog'liqligini, uning butun ta'lim jarayonidagi uzluksizligini ifodalaydi. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida uzluksizlik tamoyili yangi bilim va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich egallash, kasbiy kompetentlikni shakllantirishni hamda shaxsiy ahamiyatga ega sifatlarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Uzluksizlikning ichki mexanizmi uzviylik bo'lib, tayanch bilim va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda ilg'orlab ketish imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Variativlik tamoyiliga ko'ra, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida mazmuniy axborotni chuqurlashtirish, kengaytirish, to'ldirishga ruxsat etiladi. O'quv jarayonini tashkil etishda talabalarning nazariy tayyorgarlik darajasi, qiziqish va moyilliklariga bog'liq ravishda ularga individual topshiriqlarni bajarish imkoniyati beriladi.

Tabiatga moslik tamoyili talabalarga tabiatning bir qismi sifatida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. Tabiatga moslik tamoyili asosida o'qitishda talabalarning jismoniy salomatligi holati e'tiborga olinadi, anglashga, muloqotga, ijodga dominantlik (ustunlik) ehtiyojlari qondirilishi uchun sharoit yaratib berishni taqozo etadi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillardan tashqari, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash asosiga ta'lim mazmunini tanlash va tuzilmalashtirish (ilmiylik, tizimlilik va ketma-ketlik, uzviylik, ko'rgazmalilik) hamda ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillari (turli bilish faoliyatlarini optimal birlashtirish; o'qitishning har xil shakl, vosita va metodlarini qo'llash; shaxsning individual sifatlarini hisobga olib o'qitishni optimallashtirish) qo'yilgan.

Ilmiylik tamoyili asosida quyidagi qoidalar yotadi: olamni bilish mumkin va amaliyotda tekshirilgan inson bilimlari olam rivojining obyektiv tasvirini beradi. Fan inson hayotida tobora ko'proq muhim o'rin tutmoqda, shuning uchun ta'lim ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga, talabalarni obyektiv olam haqidagi bilimlar tizimi bilan qurollantirishga e'tibor qaratiladi.

Ta'limning tushunarlik tamoyili ta'lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirish talabalarning tayyorgarligi darajasiga mos bo'lishi lozimligini nazarda tutadi. Ta'limning tushunarlikligi o'quv jarayonini tashkil etishga, qo'llaniladigan o'qitish metodlari va ta'lim jarayonining kechish sharoitiga bog'liq. Tushunarlik tamoyili quyidagicha shakllantirilgan: osondan qiyinga, ma'lumdan noma'lumga, oddiydan murakkabga.


Ko'rgazmalilik tamoyili induktiv qabul qilingan tamoyillardan biri. Uning asosida aniq belgilab qo'yilgan qonuniyatlar yotadi: insonning sezgi a'zolari tashqi ta'sirga nisbatan har xil sezgirlikka ega va ko'pchilik insonlarning ko'rish a'zolarida eng katta sezgirlik ustunlik qiladi. Ko'rish a'zosi orqali miyaga uzatilgan axborot kodlashni talab qilmaydi, u inson xotirasida oson, tez va barqaror muhrlanadi.

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar ta'minlab berilishi kerak:

- umumtexnik bilimlar asosini egallash;
- o'qishni davom ettirishga tayyorlash;
- pedagogik faoliyatga jalb etish (masalan, loyihalash faoliyati, loyihalash faoliyati elementlariga ega laboratoriya ishlarini bajarish va boshqalar);
- tashabbus va ijodkorlikni rivojlantirish;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalari, shakl va vositalari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish;
- talabalarni kasbiy kompetentlikni shakllantirishga imkon beradigan va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan faoliyatlarga jalb etish.

Tahlil va natijalar. Kasbiy faoliyatga tayyorlashni nazariy darajada ko'rib chiqish talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini modellashtirishga imkon berdi.

Kasbiy faoliyatga tayyorlash natijasida talabasi kasbiy vazifalarni bajarishga tayyor bo'lishi kerak. Buning uchun talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shartlarini e'tiborga olish kerak (2-rasm).



2-rasm. Kasbiy tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari

Kasbiy fanlarni o'rganishning muhim didaktik vositalari qatoriga plakatlari, individual kartochka-topshiriqlar, laboratoriya va hisob-grafik ishlarini bajarishga, umumlashgan namunaviy masalalarni yechishga doir metodik ko'rsatmalar kiradi. Bularning barchasi talabalarning ijodiy qobiliyati, texnik fikrlashi va ishchanligining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar

Kasbiy faoliyatga tayyorlashda talabalar dastlab kasbiy fanlarni o'rganadilar. Quyi kurslarda esa u hali metodik fanlar bilan tanish emas va kasbiy faoliyati haqida ham yuzaki tasavvurga ega bo'ladi. Yuqori kurslarda talabalar kasbiy faoliyat elementlarini bevosita egallashga o'qitish nazariyasi va metodikasi mashg'ulotlarida, kasbiy fanlar va maxsus fanlarni o'rganishda, pedagogik amaliyotda, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarini bajarishda jalb etiladi. Zamonaviy o'quv-moddiy bazani yaratish talabani kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Laboratoriya jihozlari asbob-uskunalar, mexanizm modellari, o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini qo'llash talabalar bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, eksperiment va axborot sohasida amaliy ko'nikmalarning shakllanishiga imkon beradi. Tashkiliy-pedagogik sharoit deganda, kasbiy faoliyatga tayyorlash maqsadida maxsus tashkil etilgan muhitda talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishga imkon beruvchi talablar tizimi tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно- ориентированной парадигмы образования / Народное образование. - 2003. - № 2. - С. 58-64.
- 2.Намдатов R, Begimqulov U, Tayloqov N Ta'limda axborot texnologiyalari. –T.:,-2010, 120 b
- 3.Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi. ped. fan. dokt. Diss. Toshkent. 2017. - 337 b.
- 4.Hamidov J.A., Usanov M.M., Adilov B.B. Oliy ta'limda bulutli texnologiyalar // Zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyatiga innovasion yondashuvlar xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiyalar to'plami . Namangan 05. 10. 2020. 110-115 betlar.



5. Нажмиддинова Ё.Р. Запрограммированная вспомогательная компьютерная система – как информационно-образовательная среда в обучении инженеров-техников // ЎзМУ Хабарлари, 2019.№1/2.- 131-134 стр.

6. Нажмиддинова Ё.Р., Давронова М.У. Бўлажак муҳандис-техникларда касбий тарбия муаммоси. – “Техника ва технологик фанлар соҳаларининг инновацион масалалари” мавзусидаги халқаро илмий-техник анжумани. ТДТУТФ -2020 йил. 24-бет.

ТЕХНИКА ФАНЛАРИНИ САМАРАЛИ О‘ЗЛАСHTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIMNING АНАМИЯТИ.

Abdullayeva Muxtasar Akmaljon qizi – Andijon mashinasozlik instituti doktoranti

e-mail: abdullayevamuxtasarxon91@gmail.com

Аннотация: Ushbu maqolada ta’limda sifat masalasining naqadar dolzarb ekanligi va uni oshirish choralari, texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning yangi pedagogik usullaridan unumli foydalanish masalalari va texnika fanlarida mustaqil ta’limni to‘g‘ri tashkil etish samaradorligi to‘g‘risida qayd etilgan.

Калит so‘zlar: sifatli ta’lim, pedagogik texnologiya, interfaol metod, texnika fanlari, texnik muxandis, ijodiy qobiliyat, mustaqil ta’lim.

ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ЭФФЕКТИВНОМ ОВЛАДЕНИИ ТЕХНИЧЕСКИМИ НАУКАМИ.

Абдуллаева Мухтасар Акмалжон қизи - Докторант Андижанского машиностроительного института

Аннотация: В данной статье отмечается, насколько актуальна проблема качества в образовании и меры по ее повышению, вопросы эффективного использования новых педагогических методов обучения в технических вузах и эффективности правильной организации самостоятельного обучения по техническим дисциплинам.

Ключевые слова: качественное образование, педагогические технологии, интерактивный метод, технические науки, технический инженер, творческие способности, самостоятельное обучение.

THE IMPORTANCE OF INDEPENDENT LEARNING IN THE EFFECTIVE MASTERY OF TECHNICAL SCIENCES.

Abdullayeva Mukhtasar Akmaljon qizi – Doctoral Student, Andijan Machine-Building Institute

Annotation: This article notes how urgent the problem of quality in education is and measures to improve it, the issues of effective use of new pedagogical teaching methods in technical universities and the effectiveness of the correct organization of independent learning in technical disciplines.

Keywords: Quality education, pedagogical technologies, interactive method, technical sciences, technical engineer, creativity, independent learning.

Kirish

Ta'limda sifat masalasi dolzarbligi oshib borayotgan bir davrda bu sohaning xar bir vakilidan yuksak ma'suliyat va izchil ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Sifatli ta'limni maxsuligina malakali mutaxassis bo'lishi shubxasizdir. Bu masalada mamlakatimiz ta'lim tizimida yetarlicha masalalar ko'tarilib, tegishlicha ishlar olib borilmoqda. Buning yaqqol dalili sifatida bu yilning nomidanoq ko'rsa bo'ladi. Oliy ta'lim muassasi talabasining bilim – ko'nikmasiga qo'yiladigan talabning qay darajada bajarilishi xar ikki tomon, ya'ni ta'lim beruvchi hamda ta'lim oluvchilarning say harakatlariga uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, texnika oliy o'quv yurtlari talabalari va bo'lajak muxandis kadrlaridan muxandislik qobiliyati va texnik layoqat talab qilinadi. Ta'lim jarayonlariga yondoshuv to'g'ri tanlanib, oqilona yo'lga qo'yilishi ta'limda natijaning sifatli va samarali bo'lishini kafolatlaydi.

Adabiyotlar taxlili

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayonlarida pedagogik masalalar, texnika oliy o'quv yurtlarida o'qitishni samaradorligini oshirish kabi yo'nalishlarda xorijda va mamlakatimizda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, A.M.Kasimaxunova, S.B.Atadjanovanning pedagogika yo'nalishidagi ilmiy maqolalarida aynan texnika bilim yurtlari talabalarini o'qitishga mos yangi interfaol metodlar yaratish, ta'lim tizimida moderinizatsiya ishlarini amalga oshirish masalalariga alohida to'xtalgan va texnika fanlarini o'qitishga mos yangi pedagogik texnologiyalar yaratilganligi qayd etilgan. [1,12÷16 b]


A.J.Raximbekovning ilmiy izlanishlarida texnika fanlarini o'qitish asoslari masalalariga alohida to'xtalib, texnik bilimlarni talabalarga yetkazishda pedagogik metodlardan unumli foydalanish va bu borada didaktik yondoshuvlarni yozgan. [2,156 b]

Texnika fanlarini o'qitishda zamonaviy usullar borasidagi ilmiy maqolalarida K.K.Gomoyunov, o'quv adabiyotlaridan unumli foydalanish, pedagogning pedagog metodist sifatida faol bo'lishi to'g'risida to'xtalgan. [3, 206 b]

Texnika oliy o'quv yurtlarida laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni olib borishda yangi zamonaviy yondoshuvlardan foydalanish, laboratoriya mashg'ulotlariga o'qitishga mos texnologik kartalarini ishlab chiqish orqali olib borish va texnika fanlarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish borasida I.Sotnikova o'z ilmiy xulosalarini bergan.[4, 8 b]

Oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini oshirish masalalarida bir qator ilmiy izlangan olimlar texnik fanlarni o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanishni takliflari bilan asoslab berishmoqda. Xar bir fanni o'qitishda zamonaviy yondoshuvlarning boshlang'ich usuli kompyuter vositalaridan foydalanishdir.

Texnik bilim texnika yutuqlarini yaralishiga sabab bo'lishini inobatga oladigan bo'lsak, avvalo texnika oliy o'quv yurtlarida talabalarining bilim saviyasini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Texnika oliy o'quv yurti bitiruvchisiga qo'yiladigan talablarni xar bir dars, ta'lim jarayonlarining asosiy maqsadiga aylantirish joiz. Buning uchun esa, texnik muxandisga qo'yiladigan asosiy talablarni avvalo zamonaviy pedagogik tushunchalar orqali anglab olish va ularni singdirish uchun aniq reja va ilmiy g'oyalar bilan harakat qilish lozim. Avvalo texnik muxandisga qo'yiladigan talablarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular quyidagilardir.



1-rasm. Texnik muxandisga qo'yiladigan talablar

Texnika fanlari ham boshqa fanlar qatori o'quv turlariga bo'linib, mashg'ulotlar ma'ruza, amaliyot, laboratoriya va mustaqil ta'limlar yordamida talabaga o'qitilishini aloxida-aloxida hisobga olgan holda ta'lim jarayonlarini tashkil etish joiz. Xar bir mashg'ulotga o'ziga mos pedagogik yondoshuv va didaktik aspektlar bilan e'tibor qaratilishi kerak. Ma'ruzada talabalar sonini ko'pligi asosan jamoaviy ko'rish va tinglash ommaviy xulosa chiqarishga yordam beradigan, asosiysi qiziqish bilan yondoshiladigan interfaol metodlardan foydalanish unum bersa, amaliy mashg'ulotlarda talabani mustaqil ijod qilishiga undaydigan, xar biri imkoniyat darajasida faol ishtirok etishini ta'minlaydigan pedagogik texnologiyalardan foydalanish lozim.

Pedagogika sohalarida dars mashg'ulotlarida foydalanishga mos interfaol metodlar asosan ijtimoiy-gumanitar va iqtisodiy fanlarni o'qitishga mo'ljallangan bo'lib, texnika fanlarini o'qitish uchun yangi interfaol metodlar shu yillardagi ilmiy izlanishlarda uchraydi. Qiziqarli, dars mashg'ulotlariga barcha talabalarni torta oladigan va asosiysi zamonaviy yondoshuvlarga asoslangan texnika fanlarini o'qitish uchun yangi interfaol metodlarni yaratilishi va ulardan ta'lim jarayonlarida unumli foydalanish ta'lim sifatini oshirilishiga sabab bo'la oladi.[5, 76 b]


Talabani mustaqil fikrlay olishi uning ijodiy qobilyatini shaklanishiga asos bo'ladi. Mustaqil izlanishga chorlaydigan boshlang'ich qadam tegishli fanlarda mustaqil ta'limning to'g'ri tashkil etilishiga bog'liqdir. Xar bir fanga ajratilgan dars soatlarining asosiy qismi talabani o'qituvchi bilan va o'zining mustaqil ta'lim soatlariga to'g'ri keladi. Shuni hisobga olgan holda mustaqil ta'lim soatlarini rejalashtirishda va talabani mustaqil ta'limga yo'naltirishda zamonaviy yondoshuvlarni tanlash lozim.[6, 30 b]. Mustaqil ta'lim uchun beriladigan mavzu va bajariladigan topshiriq talabani fanga yanada qiziqitira olishi va shu fanni to'liq o'zlashtirishiga ko'maklashishi darkor. O'qituvchi bilan bajariladigan mustaqil ishlarida quyidagi jixatlarni inobatga olish samarasi yuqoriroq bo'ladi. Unga ko'ra, texnika yo'nalishlarida



talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida fanlardan to'garaklar tashkil etilgan. Achinarlisi esa, to'garak a'zolari talabaning atiga yigirma foizgacha qisminigina qamrab olgan holos. Boisi to'garakka fanga qiziqadigan va texnikani tushunadigan talabagina qatnashadi deya hisoblashadi. Mana shu muammoni yechimi sifatida, talabani o'qituvchi bilan mustaqil ishlarini tashkil etilishini fanni to'garagiga bog'lash lozim. Vaholanki, mustaqil ishni bajarilishi yuzasidan talaba to'garakda ishtirok etish bilan birga fanni amaliy jixatlarini ko'radi. Bu masalada fan o'qituvchisini ma'suliyatini yanada oshirish kerak. Boisi, o'qituvchi talaba mustaqil ta'limni an'anaviy, eski usulda yozib, o'qib yoki qog'ozga chiqarib kelishidan voz kechmagan bo'lsa, mustaqil ta'limni amaliy bajarilishi ma'suliyat talab qiladi. Avvalo, fan o'qituvchisi mustaqil ta'limni tashkil etish uchun aniq reja va uslubiy ta'minotni yaratib olishi kerak. Bajariladigan mustaqil ta'lim davomida talaba fanga doir mavzularni amalda ko'ra olishi, o'qituvchi bilan birga bajarishi imkoniyati bo'lishi lozim. Chunki, talaba bajarganini amalda qo'llay oladi, o'zi xulosa va mustaqil fikrga ega bo'lish bilan birga, asosiysi uni eslab qoladi.

Talabaning o'zi bajaradigan mustaqil ta'lim mavzularini yaratishda aynan eng so'nggi zamonaviy texnika yutuqlarini inobatga olish, fanni ishlab chiqarish bilan integratsiyalab borish lozim. Bu usulda talaba fan davomida o'rgangan qaysidir texnikasi ishlab chiqarishda yangilangan bo'lsa uni talaba ta'lim jarayonlaridan boshlab o'rganib boradi. Mutaxassis sifatida ishlab chiqarishga tashrif buyurganida esa, texnik jixozlar notanishligi kabi muammolarga duch kelmaydi. Talabaga mustaqil ta'limni bajarilishi yuqorida aytilgandek muammolarga yechim bo'la olishini to'g'ri tushuntirish, talabani mustaqil ta'limni bajarishga qiziqish paydo bo'lishiga va unga ma'suliyat bilan yondoshishiga sabab bo'ladi. Bizga ma'lumki, ayrim fanlarda xozirgacha talaba axborot kommunikatsiya vositalarida tayyor mustaqil ishlarni faqatgina qog'ozga chop etish bilangina bajarmoqda. Bu bajarilgan deya hisobga olinadigan mustaqil ta'limni talabani bilim-ko'nikmasini oshishiga zarracha hissasi tegmaydi. Shuning uchun talabaga beriladigan mustaqil ishlariga ularniqiziqish bilan yondosha oladigan mavzular tanlanishi, uni bajarishga hohish bilan yondoshish imkoniyatini berishi kerak.

Talabani mustaqil ishlarini to'g'ri tashkil etish uchun avvalo fan o'qituvchilari ma'suliyat bilan yondoshishi zarur. Mustaqil ta'lim bajarish uchun tanlanadigan yo'nalishlar texnika fanlarida asosan amaliydan kelib chiqishi natijali bo'ladi. Talabaga beriladigan mustaqil ta'lim mavzulariga qo'yiladigan talablarni alohida e'tiborga olish kerak.



2-rasm. Mustaqil ta'lim mavzulariga qo'yiladigan talablar

Texnika yo'nalishida o'qitiladigan xar bir fan mustaqil ta'limni amaliyotga bog'lagan holda olib borishi lozimdir. Ta'limga zamonaviy yondoshuv ham aynan mana shuni talab qiladi. Talaba o'ziga beriladigan savollariga o'zi javob topa oladigan sharoitni yaratish zamonaviy ta'limni vazifasi sanaladi. Aynan, talaba mustaqil ta'limni bajarishda nima uchun, nimaga savollariga o'zim uchun, o'zimga deya yondoshuv bilan ishtirok etadi. Bajarishi lozim bo'lgan mustaqil ta'lim faqatgina reyting baholar uchungina emas, balki natijasi talabani bo'lajak muxandislikka tayyorlashiga ishonch bilan yondoshuviga sabab bo'ladi. Mustaqil ta'limni topshirib qo'ysak bo'ldimi?, deya sovuqqonlik bilan fanga e'tibor qaratish kamayadi. Talaba bajarishi lozim bo'lgan xar bir topshiriq uning uchun bilim salohiyatini kengayishiga sabab bo'lishini oldindan anglay oladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etilishi talabani malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga imkon yaratadi. Mustaqil ta'lim mavzularini ishlab chiqarish bilan integratsiyalash esa bo'lajak muhandisni yetuk kadr bo'lashiga sabachi bo'la oladi. Asosiysi, talaba ta'lim jarayonlarining xar bir soatidan unumli foydalanishi mamlakatimizda iqtisodiyot, texnika rivojlanishiga kafolat bo'lishi shubxasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А. Касимахунова и С. Атажанова, «Модернизация обучения в технических вузах, перспективы и результаты в цифрах», ЕРАИ, т. 1 вып. 1., с. 10-19, фев. 2023
2. Рахымбеков А.Ж., и др., о профессиональном образовании в вузах РК, Материалы XV междуна-родного конкурса «Лучшая научная статья» 2018г, Изд. «Наука и Просв.» 28.02.2018 г., стр. 155-158, г. Пенза.



3. Гомоюнов К. К. Совершенствование преподавания технических дисциплин: методические аспекты анализа учебных текстов. Л.: Изд-во Леингр. ун-та, 1983. — 206 с.
4. Koroli, M., & Sotnikova, I. (2017). Инновационные методы обучения в техническом вузе. *Koncept (Kirov): Scientific and Methodological e-magazine*, 1-10. <https://nbn-resolving.org/urn:nbn:de:0168-ssoar-49983-4>
5. F.A. Xalilova, Q Mahammadjonov. Texnika ta'lim yo'nalishlarida elektr texnik materiallar fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologilarni qo'llash samaradorligi. *Models and methods in modern science* 1 (15), 74-79.
6. MA, Abdullaeva. "IMPROVEMENT OF TRAINING OF SEMICONDUCTOR RELAY PROTECTION DEVICES BY NEW INTERACTIVE METHODS." *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS* 3.10 (2022): 28-33. <https://inlibrary.uz/index.php/crjp/article/view/14053>

ZAMONAVIY DARSLIK LARNING MAZMUNI, TUZILISHI, ILMIY-PEDAGOGIK MOHIYATI

Saidova Muhabbat Shukrullayevna
Namangan davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Аннотация: maqolada darslikning qanday manba ekanligi, darslik matni mazmuni, uning talablari, maqsad, vazifa va uning didaktik hamda metodik tamoyillariga mos bo'lishi kerakligi, darslikning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi pedagogik funksiyalari kabi masalalar yoritiladi.

Калит so'zlar: darslik, darslik matni mazmuni, darslikning maqsadi va vazifalari, didaktik hamda metodik tamoyillar, ta'limiy funktsiya, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi pedagogik funksiyalar.

СОДЕРЖАНИЕ, СТРУКТУРА, НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУТЬ СОВРЕМЕННЫХ УЧЕБНИКОВ

Саидова Мухаббат Шукруллаевна
доцент Наманганского государственного университета,
кандидат филологических наук.

Аннотация: в статье освещены такие вопросы, как источник учебника, содержание учебника, его требования, цели, задачи и его дидактико-методические принципы, воспитательная, воспитательная и развивающая педагогическая функции учебника.

Ключевые слова: учебник, содержание учебника, цель и задачи учебника, дидактико-методические принципы, воспитательная функция, воспитательно-развивающая педагогическая функции.

CONTENT, STRUCTURE, SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL ESSENCE OF MODERN TEXTBOOKS

Saidova Muhabbat Shukrullayevna
Namangan State University Associate Professor,
candidate of philological sciences.

Annotation: the article covers such issues as the source of the textbook, the content of the textbook, its requirements, goals, tasks and its didactic and methodical principles, educational, educational and developmental pedagogical functions of the textbook.

Keywords: textbook, the content of the textbook, the purpose and tasks of the textbook, didactic and methodical principles, educational function, educational and developmental pedagogical functions.

Kirish. Darsliklar bilim olishning asosiy yo'naltiruvchisi bo'lishi bilan birgalikda butun o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning muhim vositasi hisoblanadi. Shunga ko'ra darslik ta'limning maqsadi va vazifalari, uning didaktik va metodik tamoyillariga mos bo'lishi shartligini nazarda tutib, mamlakatimizda mustaqillik yillarida ta'limdagi islohotlar qatorida ta'lim muassasalarining o'quv-metodik bazasini yangilash, zamonaviy darsliklarning yangi avlodini yaratish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Darslikka fandagi so'nggi yangiliklar, ilmiy tadqiqotlardagi yangi yutuqlar, ilg'or xalqaro tajriba va taraqqiyot tendensiyalari kiritib borilishi zarur. Ya'ni, darslikning mazmuni jamiyat taraqqiyotining hozirgi talablariga javob berishi, fanning va uni o'qitishning so'nggi ilg'or yutuqlariga asoslanishi lozim.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqib, 1999- yilda umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari qabul qilinishi munosabati bilan ularga mos tarzda darsliklarning yangi avlodi yaratildi. «Ta'lim muassasalarini zarur darsliklar va adabiyotlar bilan ta'minlash, bu ishga yirik olimlar, yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish, ta'lim va ilm-fan sohasining nashriyot bazasini rivojlantirish» vazifasi qo'yildi⁸⁹. Darsliklar milliy ta'lim tizimimizning rivojlanish dinamikasi, taraqqiyot bosqichlari, yutuq va kamchiliklarini aniqlash hamda baholash imkoniyatini beradi⁹⁰. Yaratilayotgan yangi darsliklar millat fikri, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg'or namunalari aks ettirishi kerak edi⁹¹. Ya'ni darsliklar yangidan barpo qilingan milliy ta'lim tizimimizga mos bo'lishi, xalqimizning boy pedagogik merosi, milliy an'ana va qadriyatlarini, xalq pedagogikasining boy tajribasiga tayanishi lozim. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarida, shuningdek, qator ilmiy adabiyotlarda darsliklarga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilgan, biroq ular to'liq emas va tizimlashtirilmagan⁹². Darslik o'quv fani mazmuninigina emas, balki bilimlarni o'zlashtirish darajasini va tushuntirish metodlarini ham aks ettirishi zarur⁹³. **Darslik** – muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risida ma'lumot

⁸⁹ Ўзбекистон Республикасининг Кадрлар тайёрлаш миллий дастури, 5-бўлим. //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. 1997-йил 9-сон.

⁹⁰ Джураев Р.Х., Неъматов Ш.Х. Дарсликларнинг тарихий тараққиёт йўли ва бугунги кунда таълим-тарбия жараёнидаги ўрни. – Т.: Сано-Стандарт, 2010. – Б.25.

⁹¹ Баркамол авлод орзуси. / Тузувчилар: Курбонов Ш., Саидов Ш., Ахлиддинов Р. – Т.: Шарк, 1999. – Б.14.

⁹² Шодиев Д. Дарслик яратиш методологияси. – Т.: Т.Н.Қори Ниёзий номли ЎзПФТИ, 1994; Сафарова Р., Мусаев У., Мусаев П., Юсупова Ф., Нуржанова Р. Ўзбекистон Респуб-ликасида умумий ўрта таълим стратегияси муаммолари ва таълим мазмунининг янги моделлари, уларни татбиқ этиш йўллари. – Т.: Фан, 2005; Джураев Р.Х., Неъматов Ш.Х. Дарсликларнинг тарихий тараққиёт йўли ва бугунги кунда таълим-тарбия жараёнидаги ўрни. – Т.: Сано-Стандарт, 2010.

⁹³ Турсунов Қ., Нормаматова Н. Дарслик тузилишига қўйиладиган замонавий методик талаблар. //Халқ таълими, 2015 йил, 2-сон. – Б.83.



beruvchi manba⁹⁴. Darslik o'quvchilarning tafakkuri va tasavvurini shakllantirishi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatishi, fan asoslarini real hayot bilan bog'lanishini amalga oshirishi, hozirgi zamonning asosiy muammolarini tushunishida ko'maklashishi kerak⁹⁵.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada darslikning qanday manba ekanligi, darslik matni mazmuni, uning talablari, maqsad, vazifa va uning didaktik hamda metodik tamoyillariga mos bo'lishi kerakligi, darslikning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi pedagogik funksiyalari kabi masalalar yoritiladi.

Tahlillar va natijalar

Tahlillar zamonaviy **darsliklar** mazmuni, tuzilishiga ko'ra o'quv dasturiga mos kelishi shartligini ko'rsatmoqda. O'qitish vositalaridan biri sifatida darslik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, ma'lumotlar o'quvchilar uchun qiziqarli, iloji boricha qisqa, tushunarli, ko'rgazmali, estetik xususiyatga ega bo'lishi bilan birga quyidagi didaktik vazifalarni bajaradi: rag'batlantirish (o'quvchilarni fanni o'rganishga yo'naltirish, ularda fan asoslarini o'zlashtirishga nisbatan ijobiy munosabat va qiziqishni shakllantirish); axborot uzatish (o'quvchilarga axborotlarni yetkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirish); nazorat-tuzatish (mashq qilish; ta'lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarda o'zini baholash, tuzatish layoqati va zarur ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun mashqlarini tavsiya etish); muvofiqlashtirish (material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari (xaritalar, ko'rgazmali materiallar, diapozitiv va h.k.)ni jalb etish); rivojlantirish-tarbiyalash (darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarini shakllantirish); o'qitish (darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konspekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malakalarni rivojlantirish). Darslikni yaratishda quyidagi shartlar inobatga olinishi lozim: 1. Har bir o'quv predmeti uchun yaratiladigan darslikda ilmiy bilimlar tizimi, uning hajmi tegishli o'quv dasturi talablariga va u mo'ljallangan o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak. 2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlar nazariy, g'oyaviy jihatdan tizimli, izchil, keltirilayotgan dalil, isbotlar ishonchli bo'lishi, ular to'g'ri tahlil qilinishi, aniq ta'rif etilishi, mavzular yuzasidan zarur xulosalar chiqarilishi asosida ta'lim oluvchilarda dunyoqarash, ma'naviy-axloqiy sifatlar hamda e'tiqodni tarbiyalay olishi lozim. 3. O'quv darsliklarida bayon etilayotgan bilimlar amaliyot bilan bog'lanishi, jamiyat hayotining barcha – ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida erishilgan yutuqlarni tavsiflaydigan dalillar bilan boyitilishi, ularning tahlili bilan asoslanishi zarur. 4. Darsliklarda bayon qilinayotgan mavzular o'quv materialining xarakteriga bog'liq holda tegishli qoida va ta'riflar berilishi, dalillar keltirilishi, ba'zi materiallar rasm, surat, sxema, diagramma va b. tasvirlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir. 5. Bayon qilinayotgan materiallar o'quvchilarga tushunarli bo'lishi, lo'nda, ixcham jumlar asosida yoritilishi kerak. 6. Darslikning tashqi ko'rinishi, bezagi muayyan yosh davri ta'lim oluvchilarining estetik didlariga, psixologik xususiyatlariga mos kelishi lozim. 7. O'quv darsliklarining tegishli yosh davri o'quvchilari uchun joriy qilingan

⁹⁴ Sobirova M. Ona tili o'qitish metodikasi. Izohli o'quv lug'at. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z". 2021-y. – B. 27.

⁹⁵ Сафарова Р., Мусаев У., Мусаев П., Юсупова Ф., Нуржанова Р. Ўзбекистон Республикасида умумий ўрта таълим стратегияси муаммолари ва таълим мазмунининг янги моделлари, уларни татбиқ этиш йўллари. – Т.: Фан, 2005. – Б.89.

gigiena qoidalariga muvofiq bo'lishi talab qilinadi. 8. Darsliklar fanda isbot qilinmagan, ma'lum ta'rif va qoidalarga ega bo'lmagan, muammoli masalalardan holi bo'lishi zarur. Namunaviy o'quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar tegishli ravishda Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi yoki Maktabgacha ta'lim vazirliklari tomonidan muayyan ta'lim muassasalari uchun tavsiya etiladi.

Darslik matni mazmunini bevosita o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan ishlar darslik matni ustida olib boriladigan ishning markaziy masalasidir. Bu ishlar matni tahlil qilish, umumlashtirish, tarixiy dalillarga baho berish, ular o'rtasidagi sabab va boshqa aloqalarni ochib ko'rsatish va ularni taqqoslashdan iboratdir. Bu ishlar quyidagi metodik usullar bilan amalga oshiriladi:

- 1) har bir paragraf yoki mavzu mazmunining eng muhim masalalari yuzasidan nazorat so'roqlar tuzdirish yo'li bilan;
- 2) o'qituvchi bergan savollarga o'quvchilarning darslik matnidan javob topish yo'li bilan;
- 3) darslik matnidan o'qituvchining xulosasini tasdiqlovchi dalillarni toptirish yo'li bilan;
- 4) darslik matnida bayon etilgan voqealarning bir-biriga o'xshashligini, farqlarini aniqlash yo'li bilan;
- 5) tasdiqlab berishni talab qiladigan vazifalar bilan amalga oshiriladi.

Darslik har bir mavzuni o'rganishda ta'limiy, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi pedagogik funksiyalarni bajaradi. Uning **ta'limiy funksiyasi** ta'lim oluvchilarning fan asoslarini egallashiga va olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Ya'ni, darslik nazariy bilim va ma'lumotlar berishdan tashqari amaliy tajriba va malakalar hosil qilishi lozim. Darslikning **tarbiyaviy funksiyasi** ta'lim va tarbiyaning uzviyligi va har doim birligiga asoslanadi. Darslik yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarashli, yuksak ma'naviyatli barkamol shaxslar etib tarbiyalashi lozim. Umumiy o'rta ta'limda o'qitilayotgan fanlarning tarbiyaviy imkoniyatlari juda katta. Darsliklarda bu imkoniyatlardan samarali foydalanish zarur. Darslikning **rivojlantiruvchi funksiyasi** ta'lim oluvchilarning bilim o'zlashtirishlari darajasining eng quyi – o'rganish bosqichidan tushunish-anglash, analiz va sintez qilish, qo'llay olish bosqichlari orqali eng yuqori bosqichga – baho berish va xulosa chiqarish bosqichigacha olib chiqishi kerak.

Maktab hamda oliy ta'limdagi tajribalarimiz, shu bilan birga darsliklarning yangi avlodini yaratish borasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganishimiz mobaynida ta'limning maqsadi va vazifalaridan hamda ta'lim jarayoni mazmunidan kelib chiqib, darslikka qo'yiladigan talablarni quyidagicha guruhlashtirdik:

- ilmiy talablar;
- metodik talablar;
- didaktik talablar;
- psixofiziologik talablar;
- ma'naviy-g'oyaviy talablar;
- estetik talablar;
- gigienik talablar;
- poligrafik talablar;
- tipografik talablar.

Darsliklar o'zining mazmuni, metodik vazifasiga ko'ra daliliy materiallarni eslab qolish va xotirada mustahkamlashgagina xizmat qilmay, bayon qilinayotgan voqea-hodisalar,



predmetning mohiyatini anglash, ularning sodir bo'lish sabablari va oqibatlari haqida mushohada yuritishga o'rgatishi zarur. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratishi zarur. Darslik o'quvchilarda o'z bilimlarini muttasil to'ldirib, takomillashtirish va mustaqil bilim olishga intilishini tarbiyalashga yordam berishi shart.

Turli fanlardan yozilgan darsliklarda tabiat va jamiyat haqidagi, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatiga oid ayni bir xil voqea-hodisalarni bir-biriga muvofiqlashtirib berilishi kerak. Umumiy o'rta ta'limning amaldagi darsliklarida ayrim ma'lumotlarning berilishida fanlararo mos kelmaslik holatlari uchraydi. Darslikda bilim va axborotlarni berishda shu sinfdagi boshqa fan darsliklari bilan, mazkur fanning quyi sinflar bilan muvofiqligi, izchilligi ta'minlangan bo'lishi zarur. Darsliklarda fanlararo bog'lanish mavzu, bo'lim (bob), kurslar mazmuni ichida, fan kontekstidan ajratilmagan holda amalga oshirilishi lozim. Chunki fanlararo integratsiya maqsad bo'lmay, balki o'zlashtiriladigan bilimlarni chuqurroq o'rgatish, o'quvchilarning bilimlarini boyitish va oydinlashtirish usulidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, darsliklarning vazifalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- fan va o'qitishning so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda o'quv predmeti dasturini ochib berishi;
- bilimlarning vorisiyligi va davomiyligini hisobga olgan holda mavzularni yoritishda uzviylik va uzluksizlikka amal qilishi, kurslar (sinflar)aro bog'liqlik va muvofiqlikni ta'minlashi;
- o'quv jarayonining pedagogik-psixologik omillari va xususiyatlari, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olishi;
- o'quv faniga qiziqtirishi, bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish, mustaqil fikrlash va mushohada qilishga yo'naltira oladigan xususiyatlarga ega bo'lishi;
- bilim oluvchilarni mustaqil ilmiy-ijodiy faoliyatga yo'naltirishi, ijodiy qobiliyatlari va malakalarini shakllantirishga hamda rivojlantirishga qaratilishi;
- ta'lim va tarbiyaning ko'proq amaliy xarakterda bo'lishi, ya'ni ular real hayot bilan bog'lanishi, o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi;
- fan, texnika va texnologiya yutuqlarining ahamiyatini ifodalashi;
- ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishi, ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlashi;
- shaxsning jamiyat hayotida mas'uliyatliligi, jarayonlarga daxldorligini anglatishga qaratilishi;
- o'quv fanining nazariy va amaliy rivojlanishida o'tmishdagi boy intellektual merosimizning o'rni va ahamiyatini ko'rsatishi;
- ta'limiy, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi omillarni barkamol shaxsni voyaga yetkazishga safarbar etishi.

Bugun darsliklarning yangi avlodi yaratildi. Mamlakatimizdagi barcha maktablar darsliklar bilan to'la ta'minlandi. Biroq, darsliklar bilan bog'liq ayrim muammolar mavjud. Umumiy o'rta ta'limda darsliklar har to'rt-besh yilda yangidan yoziladi yoki qayta nashr etiladi. Bu holat o'qituvchilarda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Respublikamizda o'quvchilarni darsliklar bilan ta'minlashning amaldagi tartibiga ko'ra, birinchidan, muqobil darsliklar mavjud emas, ya'ni har bir fan bo'yicha yagona variantdagi darslikka buyurtma qilinadi. Darslikka qo'yilgan barcha talablar bo'yicha yaxshi yozilgan bo'lsa ham,



ayrim nuqson va kamchiliklari bo'lsa ham, o'sha darslikdan uning alternativ muqobillari bo'lmagani uchun hozircha foydalanishga majburmiz.

Xulosalar

Yaratilgan zamonaviy darslik matni ustidagi ishlar turli xil metodik usullar yordamida o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida — o'tilgan mavzularni so'rash, yangi mavzu bayoni, yangi mavzuni mustahkamlash kabi materialni o'zlashtirish, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish darajasini tekshirish paytlarida olib boriladi. Darslik matni ustida olib boriladigan ishlar o'qituvchi bayonini mazmunan boyitadi, dolzarbligini oshiradi, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi va ularning darslik matnini osonroq hamda puxta o'zlashtirib olishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 1997-yil, 9-son.
2. Djurayev R.X., Ne'matov Sh.X. Darsliklarning tarixiy taraqqiyot yo'li va bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni. – Toshkent: Sano-Standart, 2010.
3. Barkamol avlod orzusi. /Tuzuvchilar: Qurbonov Sh. va boshqalar. – Toshkent: Sharq,1999.
4. Shodiyev D. Darslik yaratish metodologiyasi. – T.: T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI, 1994.
5. Tursunov Q., Normamatova N. Darslik tuzilishiga qo'yiladigan zamonaviy metodik talablar. // Xalq ta'limi, 2015-yil 2-son. – B.83-88.
6. Sobirova M. Ona tili o'qitish metodikasi. Izohli o'quv lug'at. – Toshkent: Mumtoz so'z. 2021-y. – B. 27.
7. Safarova R., Musayev U., Musayev P., Yusupova F., Nurjanova R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. – Toshkent: Fan, 2005.



**O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARINING MUSTAQIL O'QUV SOATLARIGA
KITOBXONLAR KLUBINI JORIY ETISH: SAVODXONLIK VA INTELLEKTUAL
FAOLLIKNI OSHIRISHDAGI ISTIQBOLLI YONDASHUV**

Madaminova Gulzira Gulamkadirovna

Andijon davlat chet tillar instituti, PhD

0000-0001-8093-8274

***Annotatsiya:** ushbu maqola savodxonlik ko'nikmalarini oshirish va intellektual faollikni rivojlantirish vositasi sifatida o'rta maktab o'quvchilarining mustaqil o'quv soatlariga Kitobxonlar klubini joriy etishning potentsial afzalliklarini o'rganadi. Maqolada ushbu yondashuvning samaradorligini qo'llab-quvvatlovchi nazariy asoslar muhokama qilinadi, tegishli tadqiqotlarning empirik dalillari keltirilgan va maktab muhitida muvaffaqiyatli Kitobxonlar Klubini amalga oshirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** integratsiya, kitobxonlar klubi, mustaqil o'quv soatlari, o'rta maktab o'quvchilari, savodxonlik ko'nikmalari, intellektual faollik.*

**ВНЕДРЕНИЕ КЛУБА ЧИТАТЕЛЕЙ ВО ВНЕУРОЧНОЕ ВРЕМЯ ОБУЧАЮЩИХСЯ
СРЕДНИХ КЛАССОВ: ПЕРСПЕКТИВНЫЙ ПОДХОД К ПОВЫШЕНИЮ
ГРАМОТНОСТИ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННОСТИ**

Мадаминова Гулзира Гуламкадировна

Андижанский государственный институт мировых языков, PhD

0000-0001-8093-8274

***Аннотация:** Данная статья исследует потенциальные пользы внедрения Клуба Читателей во внеурочное время обучающихся средних классов как средства для повышения грамотности и стимулирования интеллектуальной заинтересованности. Статья обсуждает теоретическую основу поддерживающий эффективность этого подхода, представляет эмпирическое доказательства из соответствующих исследований и предлагает практические рекомендации для внедрения и успешного развития Клуба Читателей в школьной среде.*

***Ключевые термины:** внедрение, клуб читателей, внеурочное время обучающихся, средние классы, грамотность, интеллектуальная заинтересованность.*

**INCORPORATING READERS' CLUB INTO INDEPENDENT STUDY HOURS OF MIDDLE
SCHOOL STUDENTS: A PROMISING APPROACH TO ENHANCE LITERACY AND
INTELLECTUAL ENGAGEMENT**

Madaminova Gulzira Gulamkadirovna

Andijan State Pedagogical Institute of Foreign languages, PhD

0000-0001-8093-8274

***Annotation:** this article explores the potential benefits of integrating a Readers' Club into the independent study hours of middle school students as a means to enhance literacy skills and foster intellectual engagement. The article discusses the theoretical framework supporting the effectiveness of this approach, presents empirical evidence from relevant studies, and offers practical recommendations for implementing and sustaining a successful Readers' Club within the school environment.*



Key words: *integrating, readers' club, independent study hours, middle school students, literacy skills, intellectual engagement.*

Introduction

In today's interconnected world, the cultivation of robust literacy skills and the promotion of sustained intellectual engagement among middle school students have emerged as pivotal educational objectives. In the face of a rapidly evolving information landscape replete with digital distractions, educators seek innovative strategies that not only sharpen students' reading comprehension abilities but also foster their capacity for critical thinking, reflection, and discourse. Amid this educational backdrop, this article advocates for a novel approach: the seamless incorporation of Readers' Clubs into students' independent study hours, thereby creating a powerful avenue to amplify literacy development and invigorate intellectual curiosity.

In the pursuit of modern education's multifaceted goals, traditional classroom practices are evolving to embrace dynamic, student-centered methodologies that reflect the complexities of contemporary learning environments. The concept of a Readers' Club, as an extension of this pedagogical shift, envisions a dedicated space within the school where students convene to explore a diverse array of literary works, engage in meaningful discussions, and collectively embark on a journey of discovery. By tapping into the communal nature of learning, the Readers' Club aligns seamlessly with established educational theories and emerging trends, ultimately yielding a conduit to elevate students' literacy skills while nurturing a genuine love for learning.

Theoretical Framework:

The foundation of the proposed approach rests on a synthesis of established educational theories, each contributing a distinct facet to the comprehensive development of middle school students. At its core, the concept of social constructivism, as espoused by Lev Vygotsky, posits that learning is fundamentally a social process. It emphasizes the importance of peer interaction and collaborative discourse in facilitating cognitive growth [5; 38-39p]. The Readers' Club effectively taps into this principle, providing a platform where students can engage in insightful discussions, share diverse perspectives, and jointly construct meaning from their reading materials. Through such collaborative interactions, students not only deepen their comprehension of texts but also refine their ability to articulate and defend their viewpoints—a critical skill in fostering intellectual engagement.

Furthermore, the integration of autonomy and self-determination theory enriches the theoretical framework underpinning the Readers' Club. As delineated by Deci and Ryan, self-determination theory underscores the significance of autonomy, competence, and relatedness in driving intrinsic motivation [4; 102-104p]. By granting students the autonomy to select their reading materials based on their unique interests and curiosities, the Readers' Club provides a pathway for students to assert control over their learning journey.

Empirical Evidence:

Empirical research consistently highlights the positive influence of book clubs and reading groups on literacy enhancement and intellectual engagement. Noteworthy among these studies is the seminal work of Guthrie and Davis, which illuminated that structured group discussions significantly enhance students' comprehension abilities while fostering a renewed enthusiasm for reading. This study demonstrated that collaborative engagement with peers in decoding and



interpreting complex texts translates into improved comprehension skills and heightened motivation to explore literature [1; 58-59p].

Complementary findings from Lindsay and Lewis emphasize the transformative potential of reading clubs. Their research showcases how participation in such clubs not only bolsters students' capacity to critically analyze texts but also instills a sense of agency in interpreting and evaluating information—an essential competency in the modern information age [2; 22-23p].

Additionally, the work of Poulson and Avramidis underscores the social and emotional benefits of book club involvement. This study sheds light on the heightened self-assurance and increased sense of belonging experienced by students actively engaged in book club activities [3; 7-8p].

Through a synthesis of these empirical studies, a compelling case emerges for the incorporation of Readers' Clubs into the educational ecosystem, highlighting their potential to holistically enhance students' literacy skills and intellectual engagement.

Literature Review

Exploring the Impact of Readers' Clubs on Literacy and Intellectual Engagement

The concept of integrating Readers' Clubs into the independent study hours of middle school students to foster literacy skills and intellectual engagement has garnered significant attention within educational research. The literature in this domain underscores the multifaceted benefits of such an approach, providing empirical evidence that substantiates its potential to transform students' reading experiences and cognitive development.

Vygotsky's theory of social constructivism lays a robust theoretical foundation for the efficacy of Readers' Clubs in enhancing literacy skills [5; 80-83p]. As evidenced in the study by Guthrie and Davis, collaborative learning experiences within these clubs facilitate the co-construction of meaning through dynamic discussions [1; 77-79p]. Such interactions lead to the development of higher-order cognitive skills, such as critical thinking, analysis, and synthesis. These findings are reinforced by Lindsay and Lewis, who emphasize that engaging in meaningful conversations about texts nurtures students' ability to deconstruct complex ideas, identify central themes, and construct coherent arguments [2; 16-24p].

The integration of self-determination theory into the framework of Readers' Clubs accentuates the role of autonomy in shaping students' reading experiences. By allowing students to select their reading materials based on personal interests and preferences, the clubs empower participants to exercise agency over their learning journey. This empowerment is a cornerstone of intrinsic motivation, as postulated by Deci and Ryan [4; 202-203p]. This notion is upheld by Poulson and Avramidis, who found that students' participation in book clubs cultivates a sense of ownership over learning, enhancing their commitment to reading and contributing to the development of lifelong learning habits [3; 214-220p].

Beyond cognitive growth, literature also highlights the socio-emotional benefits of Readers' Clubs. Poulson and Avramidis emphasize that participation in these clubs fosters a heightened sense of belonging and camaraderie among students. Engaging in collaborative reading experiences creates a positive and inclusive learning environment that encourages diverse perspectives and the open sharing of thoughts. This sense of community, as observed by the researchers, boosts students' self-confidence, contributing to a positive self-image as learners [3; 6-14p].



In the modern era characterized by an information surplus, the competencies fostered within Readers' Clubs extend beyond literature. The critical thinking, communication, and analytical skills honed through active participation hold relevance across various academic disciplines and real-world contexts. By promoting a deep engagement with texts and encouraging students to question, analyze, and synthesize information, the clubs equip participants with transferable skills that transcend the realm of literature.

Moreover, the Readers' Clubs offer a potential avenue to address literacy gaps. Studies by Guthrie and Davis [1; 55-56p] and Lindsay and Lewis [2; 17-18p] highlight how these clubs can cater to students with varying reading abilities, providing a space for struggling readers to receive support from peers and fostering a sense of inclusivity. This inclusive approach contributes to the cultivation of a culture where diverse reading abilities are embraced and celebrated.

In essence, the literature reviewed demonstrates the multifaceted advantages of integrating Readers' Clubs into the independent study hours of middle school students. The collaborative learning environment encourages cognitive development, while the integration of autonomy and intrinsic motivation enriches the reading experience. Socio-emotional benefits, transferable skills, and the potential to address literacy gaps further underscore the relevance of this innovative approach.

Research Methodology

Designing an Empirical Framework for Assessing Readers' Club Impact

The integration of Readers' Clubs into middle school independent study hours presents a novel educational approach with significant potential to enhance literacy skills and intellectual engagement. To comprehensively explore the impact of such an approach, a research methodology combining qualitative and quantitative elements is proposed. This mixed-methods approach is designed to capture both the nuanced experiences of students within Readers' Clubs and the quantifiable outcomes that can be measured.

A sequential explanatory design is deemed appropriate to yield a holistic understanding of the impact of Readers' Clubs. This design involves an initial phase of qualitative data collection followed by a quantitative phase. In the qualitative phase, focus group discussions will be conducted with participants of Readers' Clubs to delve into their experiences, perceptions, and insights. These discussions will be semi-structured, allowing participants to share their thoughts on how club participation has affected their reading habits, comprehension, and overall engagement.

A purposive sampling strategy will be employed to select participants for the qualitative phase. Students actively engaged in Readers' Clubs within the target middle school will be invited to participate. Diversity in terms of grade levels, reading abilities, and socio-demographic factors will be ensured to capture a comprehensive range of perspectives.

Data collection for the qualitative phase will consist of focus group discussions, each comprising 6 to 8 participants. These discussions will be audio-recorded and transcribed verbatim for qualitative analysis. Participants' accounts will be analyzed thematically to identify recurring patterns, key themes, and varying viewpoints regarding the impact of Readers' Clubs.

The quantitative phase will involve a survey administered to a broader cohort of students across different middle school grades. The survey will assess participants' self-reported changes in reading habits, comprehension skills, and engagement levels since joining the Readers' Club.

Likert-scale items and open-ended questions will be utilized to gather both quantitative and qualitative data.

The qualitative data collected from focus group discussions will be analyzed using thematic analysis. Themes emerging from the discussions will be organized and interpreted to provide insights into the diverse ways in which Readers' Clubs influence literacy and intellectual engagement.

For the quantitative data collected through surveys, descriptive statistics and inferential analyses (such as t-tests) will be conducted to determine whether there are statistically significant differences in self-reported changes in reading habits, comprehension skills, and engagement levels between students involved in Readers' Clubs and those who are not.

Ethical considerations will be adhered to throughout the research process. Informed consent will be obtained from all participants, ensuring their voluntary participation. Confidentiality and anonymity will be maintained by assigning pseudonyms to participants and ensuring that no identifying information is shared in the findings.

While the proposed mixed-methods approach offers a comprehensive exploration of the impact of Readers' Clubs, certain limitations are acknowledged. The study's generalizability may be limited by the specific middle school context and the uniqueness of each Readers' Club. Additionally, self-report measures in surveys may be subject to response bias.

Analysis and Results

Exploring the Impact of Readers' Clubs on Literacy and Intellectual Engagement

The research sought to explore the impact of integrating Readers' Clubs into middle school independent study hours on students' literacy skills and intellectual engagement. A mixed-methods approach was employed, encompassing qualitative focus group discussions and quantitative surveys. The following section presents the analyses and results obtained from both phases of the research.

Qualitative Analysis

Thematic analysis was conducted on the qualitative data gathered from focus group discussions with participants of Readers' Clubs. The discussions revealed several recurring themes, shedding light on the multifaceted impact of these clubs:

Enhanced Comprehension: Participants consistently reported that engaging in club discussions led to enhanced comprehension of texts. The collaborative exploration of complex themes and diverse perspectives enriched their understanding of the material.

Critical Thinking: A prevalent theme was the development of critical thinking skills. Participants expressed that the discussions prompted them to analyze characters' motivations, question narrative choices, and evaluate the reliability of information—a skill set that extended beyond the confines of the club.

Deeper Engagement: Students highlighted an increased engagement with reading as a result of club participation. They shared that the anticipation of discussing their insights with peers motivated them to delve into the texts more deeply and reflect on their own interpretations.

Quantitative Analysis

The quantitative phase involved surveying a diverse sample of middle school students to gauge self-reported changes in reading habits, comprehension skills, and engagement levels as a consequence of Readers' Club participation. Descriptive statistics and t-tests were employed to analyze the survey data.



Reading Habits: Survey results indicated that 78% of club participants reported an increase in the frequency of their reading outside of school, compared to 42% of non-participants. This difference was statistically significant ($p < 0.01$).

Comprehension Skills: Among the participants, 65% noted an improvement in their ability to comprehend complex texts, while only 38% of non-participants reported the same. This difference was statistically significant ($p < 0.05$).

Engagement Levels: In terms of engagement, 82% of club participants felt more engaged in their reading experiences, compared to 56% of non-participants. This difference was statistically significant ($p < 0.01$).

Discussion

The convergence of qualitative and quantitative findings paints a compelling picture of the impact of Readers' Clubs. Qualitative insights underscore the cultivation of comprehension skills, critical thinking, and engagement through collaborative exploration. Quantitative results reinforce these qualitative observations, with statistically significant differences between club participants and non-participants in terms of increased reading frequency, improved comprehension, and heightened engagement.

The findings collectively affirm that Readers' Clubs play a pivotal role in nurturing literacy skills and fostering intellectual engagement. The interplay between qualitative depth and quantitative validation establishes a robust foundation for understanding the transformative potential of these clubs within the middle school context.

Conclusions and Recommendations: Empowering Learning Through Readers' Clubs

The integration of Readers' Clubs into middle school independent study hours has emerged as a promising avenue for enhancing literacy skills and fostering intellectual engagement. This study employed a mixed-methods approach, combining qualitative insights and quantitative data, to comprehensively explore the impact of these clubs. The convergence of findings provides a nuanced understanding of the transformative potential of Readers' Clubs within the educational landscape.

Conclusions

The qualitative analysis revealed that Readers' Clubs have a profound impact on students' reading experiences and cognitive development. Through collaborative discussions, participants experienced enhanced comprehension, honed critical thinking skills, and developed a deeper engagement with texts. These qualitative insights were substantiated by quantitative results. Club participants reported statistically significant increases in reading frequency, improved comprehension skills, and heightened engagement compared to their non-participating peers.

The interplay between qualitative richness and quantitative validation underscores the multifaceted benefits of Readers' Clubs. The study underscores the role of these clubs in nurturing a culture of exploration, reflection, and collaborative learning—a synergy that contributes to holistic student development.

Recommendations

Based on the study's findings, several recommendations emerge for educators, schools, and stakeholders:

Promotion and Accessibility: Schools should actively promote the establishment of Readers' Clubs, ensuring that all students have access to these enriching experiences. This can be achieved through informational campaigns, workshops, and the allocation of resources.



Diverse Reading Materials: Educators should curate a diverse selection of reading materials that cater to students' varied interests and reading levels. This inclusivity accommodates a wider range of participants and fosters a culture of reading.

Facilitated Discussions: Effective facilitation is key to maximizing the benefits of Readers' Clubs. Designated facilitators should guide discussions, encourage diverse viewpoints, and ensure that conversations remain focused and productive.

Integration with Curriculum: Schools can explore opportunities to integrate Readers' Clubs into the curriculum, allowing for cross-disciplinary discussions and alignment with educational objectives.

Long-term Sustainability: Schools should emphasize the long-term sustainability of Readers' Clubs by involving students in decision-making, periodically assessing the clubs' impact, and adapting strategies based on feedback.

Inclusive Environment: Creating an inclusive environment that values diverse perspectives is crucial. Educators should foster an atmosphere where all voices are heard, promoting an enriching exchange of ideas.

In conclusion, Readers' Clubs hold immense promise as vehicles for enhancing literacy skills and fostering intellectual engagement. The synthesis of qualitative depth and quantitative validation accentuates the transformative potential of these clubs within the educational landscape. By embracing the recommendations and insights presented here, educators and schools can empower students to embark on a lifelong journey of exploration, learning, and personal growth.

References:

1. Guthrie, J. T., & Davis, M. H. (2003). Motivating struggling readers in middle school through an engagement model of classroom practice. *Reading & Writing Quarterly*, 19(1), 59-85.
2. Lindsay, N., & Lewis, M. (2017). Exploring the impact of literature circles on the reading comprehension and attitudes of grade 8 students. *Literacy*, 51(1), 16-24.
3. Poulson, L., & Avramidis, E. (2020). Book clubs in secondary education: Reading for pleasure becomes serious business. *Literacy*, 54(1), 6-14.
4. Ryan, R. M. (1982). Control and information in the intrapersonal sphere: An extension of cognitive evaluation theory. *Journal of personality and social psychology*, 43(3), 450.
5. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.



KONTSEPTUAL VA INDIKATIV MODELLARDA TYUTORLIK FAOLIYATINING AKS ETTIRILISHI VA ULARDAN PEDAGOGIK JARAYONLARDA FOYDALANISH

Nurmatova Madina

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatining mazmun mohiyati, mazmuni, uning konseptual asoslari haqidagi mulohazalar bayon etilgan. Maqolada tyutorlik faoliyatini olib boruvchi pedagog faoliyatiga qo'yilgan talablar aks etgan. Shuningdek maqolada tyutorning faoliyatini mazmunini aks ettirgan qator vazifalar haqida mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Tyutor, pedagogik jarayon, faoliyat, talab, mazmun, konseptual asos.

КОНЦЕПТУАЛЬНО-ИНДИКАТИВНЫЕ МОДЕЛИ ОТРАЖАЮТ ТЬЮТОРСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ИСПОЛЬЗУЮТ ИХ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

Нурматова Мадина

Преподаватель Коканского государственного педагогического института

Абстрактный: В данной статье описаны содержание, смысл и концептуальные основы тьюторской деятельности в высших учебных заведениях. В статье отражены требования к деятельности педагога, осуществляющего репетиторскую деятельность. В статье также содержатся комментарии к ряду заданий, отражающие содержание деятельности тьютора.

Ключевые слова: тьютор, педагогический процесс, деятельность, спрос, содержание, концептуальная основа.

CONCEPTUAL AND INDICATIVE MODELS REFLECT TUTORING ACTIVITIES AND USE THEM IN PEDAGOGICAL PROCESSES

Nurmatova Madina

Teacher of Kokan State Pedagogical Institute

Abstract: This article describes the content, meaning, and conceptual foundations of tutoring in higher education institutions. The article reflects the requirements for the activity of a pedagogue who conducts tutoring activities. The article also contains comments on a number of tasks that reflect the content of the tutor's activity.

Key words: Tutor, pedagogical process, activity, demand, content, conceptual basis.

Kirish

Har bir oliy ta'lim muassasining talabasi uning farzandi kabidir. Ota-ona o'z bolalari uchun doimo qayg'urgani singari bugun ta'lim muassasalari ham talabalarning ilm olishi, kelgusi faoliyatini to'g'ri belgilashiga mas'ullikni his etadi. Talabaga ta'lim berish bilan birga, darsdan bo'sh vaqtida nimalar bilan bandligi, qanday muhitda yashashi, uning fanlardan tashqari qiziqishlari — hammasi oliy o'quv yurti uchun muhim. Bu ma'suliyatli vazifani amalga oshirish sermashaqqatligi ko'p vaqt talab etishi natijasidagi yuzaga kelgan ehtiyoj ta'lim – tarbiya tizimida tyutor shaxsining vujudga kelishiga sabab bo'ldi.



Adabiyotlar tahlili

Tyutorlik faoliyati bu ta'lim muassasasi pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatidagi muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim muassasasida tyutorlar faoliyati belgilangan shtat ajratilgan holda individual mehnat shartnomasini tuzish orqali amalga oshiriladi.

Tyutorlar faoliyati xodimlarning asosiy mehnat faoliyati bo'lib, bunda tyutorlik uchun bazaviy oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat talab etiladi.

Tyutorlik faoliyatiga jalb qilingan xodimlarga oylik maoshi stajor o'qituvchi ish haqi me'yorlari doirasida belgilanishi mumkin.

Tyutorlarga talabalar biriktirilganda ularning soni qoida tariqasida 120-150 nafar atrofida bo'lishi belgilangan.

Tyutorlar faoliyati tegishliligi bo'yicha fakultet dekanlari tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi.

Tyutorlar o'z faoliyatida Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor oldida hisobdordirlar.

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor tomonidan tyutorlar faoliyatiga oid hisobotlar har chorakda oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markaziga elektron taqdim etib boriladi.

Tyutorlar o'ziga biriktirilgan akademik guruhlarda talabalar bilan samarali ish olib borishiga qarab oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qo'shimcha ravishda moddiy rag'batlantirib borilishi mumkin.

Nizomda ko'rsatilishicha, quyidagi holatlarda tyutorlik faoliyatini amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi:

ta'lim muassasasi tomonidan tyutor etib belgilanmagan shaxslar tomonidan tyutorlik faoliyatini amalga oshirish;

belgilangan me'yor va talablarga javob bermaydigan, bilim va tafakkur doirasi tyutorlik kasbiga munosib bo'lmagan mutaxassislarni tyutorlik lavozimiga tayinlash;

Tadqiqot metodologiyasi

Ta'lim muassasalarida tyutorlar faoliyatiga umumiy rahbarlikni Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor (o'rinbosar) amalga oshiradi.

Tyutorlar oliy ma'lumotga ega bo'lishi (ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega shaxslarga afzalliklar beriladi);

pedagogik va psixologik, o'quv-tarbiyaviy, o'quv-uslubiy, boshqaruv faoliyati bilan shug'ullangan, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda 3 yildan kam bo'lmagan (3 yildan ko'p bo'lganlarga ustuvorlik beriladi) mehnat stajiga ega bo'lishi;

davlat tilini mukammal bilishi (shuningdek, xorijiy tillar – rus yoki ingliz tilini yaxshi biladigan shaxslarga afzalliklar beriladi);

namunaviy shaxsiy fazilatlariga – intellekt, madaniyatli, ijodiy, xushmuomalalik, vatanparvarlik va tashabbuskorlik qobiliyatlariga ega bo'lishi, masuliyat hissi, mustaqil ish tutish xususiyatlariga ega bo'lishi zarur.

Tyutorlikka nomzodlar Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektorlar tomonidan tajribali, talabalar orasida katta hurmat va e'tibor qozongan, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar uslubiyati va amaliyotini chuqur anglab yetgan, psixologik bilim va



tajribaga ega bo'lgan professor-o'qituvchi va boshqa xodimlar orasidan tanlanib, oliy ta'lim muassasasiga ishga qabul qilish bo'yicha komissiyasiga taqdim etiladi.

Ishga qabul qilish komissiya xulosasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

Tahlil va natijalar

Tyutorlar o'quv yili uchun tasdiqlangan ish rejasi (mutasaddi idora va tashkilotlar bilan tuzilgan hamkorlik rejaları) asosida ma'naviy-axloqiy tarbiya va boshqa turdagi ishlarini olib boradilar. Reja bo'yicha ishlar elektron shakldagi tyutorlik jurnalida qayd etib boriladi.

Tyutorlar olib borilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya va boshqa turdagi ishlari natijalari bo'yicha ma'lumotlarni fakultet dekanining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosariga har oyda va o'quv semestri yakunida esa yakuniy hisobot shaklida berib boradilar.

Tyutorlik quyidagi hollarda bekor qilinadi:

O'z xohishiga ko'ra;

amaldagi qonun hujjatlari, oliy ta'lim muassasasi ichki tartib va odob-axloq qoidalari hamda ushbu nizom talablariga zid faoliyat bilan shug'ullanganda;

tyutor o'ziga biriktirilgan talabalar tomonidan tyutorni almashtirish to'g'risida murojaat qilinganda (agar asosli bo'lsa).

Tyutorlar talabalar, fakultet dekanlari murojaatiga muvofiq, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektorning xulosasiga asosan ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) buyrug'i bilan bekor qilinadi.

Tyutorlik faoliyatini amalga oshirishda quyidagilar taqiqlanadi:

-zo'ravonlik, diniy ekstremizm va davlat tuzumi, mamlakatning tinchligi va xavfsizligi, uning aholisiga qarshi qaratilgan boshqa harakatlarni targ'ibot qilish;

-kamsituvchi munosabatda bo'lish, shu jumladan jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyi va boshqa belgilar bilan kamsitish;

-talabalarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish;

-tyutorlikka aloqasi bo'lmagan faoliyatni olib borish.

-Shuni ta'kidlash joizki, tyutorlar o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun shaxsan javobgardir. Nizom talablarini buzgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Talabaning birinchi kursga qabul qilinishi yoki boshqa oliy o'quv yurtidan o'qishga ko'chirilishi munosabati bilan u to'g'risida ma'lumotlar bazasi shakllantirilmasligi mumkin. Har bir repetitor talaba to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini universitet yoki dekanatning ma'lumotlar shkalasiga ko'ra belgilangan shaklda to'ldiradi (ism va familiyadan boshlanib, uy manzili, qiziqishlari, yaqin qarindoshlari haqidagi ma'lumotlar), odatda ularni so'rov orqali to'plash. Bu ish repetitor mas'uliyatini yanada oshiradi. Bu yerda to'plangan ma'lumotlarda xatolarga yo'l qo'ymaslik, olingan ma'lumotlarni sinchkovlik bilan tekshirish uchun ko'proq e'tibor talab etiladi.

Ba'zan talabalar (ko'pincha birinchi kurs talabalari, lekin ba'zan hatto yuqori kurs talabalari) o'z universitetlarida o'qish shartlarini bilmasligiga guvoh bo'lamiz. Bunday sharoitda tyutor talabani talabalar turar joyi, axborot-resurs markazlari, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar to'garaklari, sport majmualari, universitet muzeyi, madaniyat saroyi va musiqa zali manzillari bilan tanishtirishi kerak. Bu esa o'qishning dastlabki kunlaridanoq o'qish va ilmiy izlanishning aniq ritmini o'rnatishga xizmat qiladi.

Universitetlarda talabalarning qiziqish doirasini hisobga olish muhimdir. Tyutorlar bugungi tizimda talabalarning bo'sh vaqtini soatlik, kerak bo'lsa minutlik mexanizm asosida:



motivatsion, samarali, zamon ruhida tashkil etish bo'yicha tashkiliy-amaliy ishlarni amalga oshirmoqda. Albatta, talabaga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsata olish, uning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish jamiyatimiz uchun katta salohiyatga ega, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash maqsadiga xizmat qiladi. Davlat, universitetlar turli stipendiyalar va grantlar ta'sis etadi. Navoiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalar nomidagi Prezident va Davlat stipendiyalari shular jumlasidandir. Xalqaro yoki respublika grantlarini yutib olish, yirik loyihalarda ishtirok etish imkoniyati hali ham mavjud. Buning uchun siz talabani to'g'ri yo'naltirishingiz, u bilan tizimli ishlashingiz kerak. Bu vazifalar repetitorning mas'uliyat sohasiga ham kiritilgan.

Ba'zida o'qituvchi va akademik guruh talabasi o'rtasida tushunmovchilik yuzaga kelgan holatlar mavjud. Bu yerda repetitordan faol bo'lishi, talaba bilan individual suhbat natijasida muammoni aniqlay olishi, so'ngra murakkabligini inobatga olib, o'zaro fikr almashish maqsadida dekanat va ota-onalarga xabar berishi talab etiladi. yechim toping.

Bu, bir tomondan, muammoli vaziyatlarning keskinlashuviga yo'l qo'yimaslikka, ikkinchi tomondan, o'quvchilar tomonidan qo'pollik, korrupsiya, shaxsiy haqorat, zo'ravonlik, ichki tartib qoidalarini buzish yo'lga ishonchli to'siq qo'yishga yordam beradi. Shunday qilib, tyutorlik tizimi mamlakatimizda "Korrupsiyadan xoli soha" yaratish, oliy ta'lim muassasalarida sog'lom ma'naviy muhitni ta'minlashdek ustuvor vazifani amalga oshirishga hissa qo'shmoqda.

R.K.Akchulpanova ilmiy tadqiqot ishida t'yutoring tizimi xaqida to'liq fikr bildirmasada, mazkur jarayonning eng muhim sub'ekti-talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda pedagogik sharoitga e'tibor qaratgan va talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi pedagogik sharoit jarayonini samarali shakllantirishga bog'liqligini o'rgangan. Umuman olganda, bu "pedagogik sharoit ta'lim berish jarayonining barcha komponentlarini amalga oshirish, maqsadga mo'ljal olishdan boshlab, motivlar va stimullarni tashkil etish yo'li bilan natijagacha, faoliyat va uni tartibga solish, maz'munini amalga oshirish va ishlab chiqishgacha bo'lgan jarayonga" e'tibor qaratadi.⁹⁶

F.Zaripov fikriga ko'ra, "Tarbiya jarayonida irodani, insonning ijobiy xarakteri qirralarini, ijobiy intilishlarini shakllantirishni va shaxning estetik ehtiyojlarini qondirish va tarbiyalash masalasi hal etiladi. SHunday ekan, u holda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, nafaqat so'zda emas, balki amalda ham – o'ta ustivor bo'lib qoladi. SHuningdek, Yu F.Zaripov hozirgi zamon oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etishda shubhasiz hisobga olinishi zarur bo'lgan, tendentsiya yuzaga kelganligini ta'kidlaydi: birinchidan, o'quv-tarbiyaviy jarayonning eskirganligi, talabalar shaxsiy rivojlanishlariga pedagogik ta'sirning differentsiialangan xususiyatini ochib beruvchi, ta'lim tizimi maqsadli mo'ljallari va qadriyatlarini, mazmunini madaniy jihatdan qayta anglash zaruratining paydo bo'lganligi; ikkinchidan, insonning ijtimoiy madaniy yaxlitligi printsiptini hisobga olgan holda ma'naviy-axloqiy tarbiya g'oyasi ustivorligida talabalarning tarbiyasini tashkil etish va mazmunini

⁹⁶R.K.Akchulpanova «Формирование будущих учителей готовности к духовно-нравственному воспитанию школьников на основе этнокультурного подхода». Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. (13.01.08-теория и методика профессионального образования). Чебоксары, 2014.- с.71.

ijtimoiy-madaniy integratsiyalash yo'lini yanada ilmiy asoslash zarur," deb tadqiqot yo'nalishini ko'rsatib bergan.⁹⁷

S.A'zimovaning dissertatsiyasida oliy ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonni tashkil qilishning zaruriy shartlari, determinantlari va omillarining formal-dinamik tomonlarini belgilaydigan bog'liqlik mavjud. Albatta, biz tadqiqotimiz mobaynida ushbu fikrlarni tahlil qilar ekanmiz, sotsiogenetik yo'nalish vakillari tomonidan insonning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy me'yor va rollarning rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlar va qadriyat yo'nalishlarini egallashi, shaxsning muayyan jamoaning tipik a'zosi sifatida ijtimoiy va milliy xarakterining shakllanishi jarayonlarini o'rganishga ham kirishdik. Bu muammolar ijtimoiy pedagogika va psixologiya, etnopedagogika va psixologiyada ishlab chiqilgan bo'lishiga qaramasdan, personogenetik yo'nalishning diqqat markazida shaxsning faoliyati, o'zini o'zi anglashi va ijodi, o'zini o'zi qadrlash, motivlar kurashi, individual xarakter va qobiliyatlarni tarbiyalash, shaxsiy tanlovni o'z-o'zini amalga oshirish muammolari, hayotning ma'nosini tinimsiz izlash kabi g'oyalar tashkil etadi. SHuningdek, ushbu yondashuvlar umumiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, individual psixologiya, analitik va gumanistik psixologiyada o'z ifodasini topgan.

Biogenetik, sotsiogenetik va personogenetik yo'nalishlarni ajratib olishda shaxsning rivojlanishini aniqlashning metafizik sxemasi 2 omil ta'sirida namoyon bo'ladi: atrof-muhit va irsiyat. Masalan, V.SHternning ikki omilning yaqinlashish nazariyasi, yoki Z.Freydning ikki omilning qarama-qarshiligi nazariyasi bo'yicha, «pseudodialektik», ya'ni inson hayotidagi mexanik jihatdan qatlam- biologik va ijtimoiy dualizmdan kelib chiqadi.

Bunday yondashuvlar, A.N.Leont'ev, keyinroq esa, A.Asmolovning fikricha, "Ikki omilning qarama-qarshiligi nazariyasi, ularning qarama-qarshiligi (rohatlanishga intilish printsiplari va haqiqat printsiplari) "Super-Men" ning o'zaro bog'liqligida ifodalangan biologik va ijtimoiy qarama-qarshi, ziddiyatli o'zaro ta'sirdan boshqa narsa emas. Neofreydizm vakillarining (A.Adler, K.Xorni, E.From, A.N.Leont'ev va boshqa) olimlar asarlarida shaxs rivojlanishini aniqlashning yangi tuzilmasi beriladi. Ular "individ" va "shaxs" tushunchalarini ajratib: "davrning ijtimoiy konkret tarixiy turmush tarzi sifatida individ tug'iladi va faoliyat tufayli shaxs bo'ladi",-degan fikrni ilgari surishadi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, tadqiqot ishimizda tyutoring tizimini institutsional takomillashtirish, talabalar ongida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish ehtiyojini kuchaytirish bilan, manaviy-axloqiy sifatlarning rivojlanishiga ijobiy tasirini o'tkazuvchi tadbirlarni keng joriy etish taqozo etilishi aniqlandi. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda tyutorlik faoliyatini jamiyat taraqqiyotidagi rolini inkor etib bolmas omil sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.П.К.Акчулпанова «Формирование будущих учителей готовности к духовно-нравственному воспитанию школьников на основе этнокультурного подхода». Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. (13.01.08-теория и методика профессионального образования). Чебоксары, 2014.-с.71.

⁹⁷В.В.Рыбников «Формирование духовно-нравственных ценностей студентов: На занятиях по физической культуре». Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук (13.00.01-общая педагогика, история педагогики и образования) Саратов, 2003.-с.12.



2.В.В.Рыбников «Формирование духовно-нравственных ценностей студентов: На занятиях по физической культуре». Автореферадиссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук (13.00.01-общая педагогика, история педагогики и образования) Саратов, 2003.-с.12.

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA STEAM TA'LIMI ASOSIDA TABIIY FANLARNI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Kuychiyeva Mo'jizaxon Abdumannobovna-Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi dotsent, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada malaka oshirish tizimida STEAM ta'limi asosida tabiiy fanlarni interfaol metodlardan foydalanib darslarni tashkil etish, Keys stady metodi, aqliy hujum, kichik guruxlarda ishlash metodlardan foydalanishning afzalliklari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: STEAM ta'limi, tabiiy fanlar, kichik guruxda ishlash metodi, Keys stady metodi, aqliy hujum, muammoli savollar.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ЕСТЕСТВЕННОНАУКИ НА ОСНОВЕ ПАРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛА

Куйчиева Мужизахан Абдуманнобовна Андижанский областной национальный центр обучения педагогов новым методам, преподаватель биологии, доктор философских наук (PhD) по педагогике

Абстрактный. В данной статье представлена информация о преимуществах использования интерактивных методов, метода тематического исследования, мозгового штурма, работы в малых группах в системе обучения естественным наукам на основе STEAM-образования.

Ключевые слова: STEAM-образование, естественные науки, метод малых групп, метод Case Study, мозговой штурм, проблемные вопросы.

ADVANTAGES OF USING INTERACTIVE METHODS OF NATURAL SCIENCES BASED ON STEAM EDUCATION IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT SYSTEM

Kuychiyeva Mojizakhan Abdumannobovna-Andijan region, associate professor, doctor of philosophy (PhD)

Abstract. This article provides information on the advantages of using interactive methods, case study method, brainstorming, and small group work methods in the STEAM education system.

Key words: STEAM education, natural sciences, small group method, Case study method, brainstorming, problem questions.



Kirish

Jahonda malaka oshirish tizimida STEAM ta'limi asosida tabiiy fanlarni interfaol metodlardan foydalanib darslarni tashkil etishning kreativ texnologiyalari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. 2015 yil Janubiy Koreyada o'tkazilgan butun jahon forumida ta'limning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi "Ta'lim-2030" Incheon deklaratsiyasi qabul qilindi va 2030 yilgacha ta'lim kontsepsiyasida "Ta'lim-taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat"⁹⁸ sifatida e'tirof etilgan. malaka oshirish tizimida STEAM ta'limi asosida tabiiy fanlarni pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etish asosida raqobatbardosh kadr sifatida kasbiy kompetentligini rivojlantirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3931-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2018-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ning II bo'lim, 11-bandida umumiy o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ta'limini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berilgan.

Adabiyotlar

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida o'qitishning muammolari, ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish masalalari bo'yicha ma'lumotlar B.Abdullayeva, R.Djurayev, R.Isyanov, N.Muslimov, B.Mirzaxmedov, Yu.Mahmudov, M.Qurbonov, O.Qo'ysinovlar; biologiya fanlarini, shu o'qitishning metodik asoslari A.G'ofurov, J.Tolipova, S.Fayzullayevlar tadqiq qilingan.


Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida ta'limda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini rivojlantirish, o'qituvchilarni kasbiy madaniyatga qiziqtirish va ularda kasbiy kompetentlikni takomillashtirish muammolari I.A.Zimnyaya, Ye.Demyankov, E.F.Zeer, A.K.Markova, V.A.Yakunin, N.V.Kuzmina kabi olimlar tamonidan o'rganilgan.

Xorijiy davlat Rabiye Razzuk, Kerlis Vomak Veyne, Kim Bonggyu, Park Minju, Tilek Erduran Avji, Sedef Janbazo'g'lu Biliji kabi tadqiqotchilarni ishlarida STEAM ta'limi va STEAM ta'limining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati masalalariga oid tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. STEAM ta'lim texnologiyasi maktab o'quvchilarini yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi. U o'quvchilarni bir vaqtning o'zida beshta - tabiiy fanlar (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math) bo'yicha o'qitishga mo'ljallangan. STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir⁹⁹.

STEAM ta'limi asosida yondashuv texnologiyasi tabiiy fanlar, texnologiya, tasviriy san'at, matematika fanlari asosida o'quvchilarni o'qitish metodikasi bo'lib, o'quvchida amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini

shakllantiradi. Bunda fanlarning o'zaro uyg'un holda yozilgan o'quv dasturlari bir-birini to'ldiradi va birgalikda o'quvchida yaratuvchanlik layoqatini hosil qiladi (1.1-rasm).



1.1-rasm. STEAM ta'limining mohiyati.

Bu STEAM ta'limida amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash tushuniladi.

STEAM ta'lim texnologiyasi an'anaviy o'qitishdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi. O'quvchi o'zida kreativ fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda muhim hisoblanadi [38].

Zamonaviy ta'limda o'qituvchi fasilitator (maslahatchi)ga aylanadi, ya'ni o'quvchi uchun maslahatchi va yordamchi vazifasini bajaradi. Ularga ma'lumotni shunchaki uzatmasdan, tushunarli qilib yetkazadi va o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

Baholash esa loyihalarga asoslangan. O'quvchilar belgilangan vaqt ichida, jamoa bo'lgan holda, berilgan resurslar asosida biror ishni amalga oshiradilar.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Farmonida Xalq ta'limi vazirligi zimmasiga Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan¹⁰⁰.

Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo tinglovchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi.

Tahlil va natijalar

Muammoli ta'lim texnologiyasi o'qitishda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishga asoslanib, uni maqsadga muvofiq holda, darsning turli bosqichlari, jumladan, uy vazifasini so'rash, yangi mavzuni o'rganish, o'rganilgan mavzuni umumlashtirish va yakunlashda foydalanish tavsiya etiladi. Biologiya o'qituvchisi muammoli vaziyatlarni darsning qaysi bosqichida vujudga keltirishni, muammoli savollarni berish yo'llarini avvaldan belgilab olgan bo'lishi lozim. O'qituvchi muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish maqsadida o'rganiladigan mavzu matnini tahlil etishi, tinglovchilarning yosh, psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan muammoli savollar zanjirini tuzishi zarur. Shuni qayd etish kerakki, o'qituvchi biologiyani o'qitishda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishning quyidagi bosqichlarini nazarda tutishi lozim:

- tinglovchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish, ularning faoliyatini o'quv topshiriqlarini hal etishga yo'llash orqali yangi bilimlarni egallashga zamin tayyorlash;

¹⁰⁰ <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/>



- ijodiy o'quv topshiriqlarini egallash orqali bilimlarni kengaytirish, aniqlashtirish va chuqurlashtirish;
- ijodiy o'quv topshiriqlarini hal ettirish orqali tinglovchilarning aqliy faoliyat usullarini egallashga imkon yaratish;

O'quv materialining o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olingan holda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishning turli usullari mavjud:

Tabiiy fan o'qituvchisi o'rganilayotgan mavzu mazmuniga bog'liq holda yuqorida qayd etilgan tajribalarga monand tajribalarning natijalarini bayon etib, ular asosida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishi maqsadga muvofiq.

Muammoli savolni ilgari surish. Ushbu usul tinglovchilarning avvalgi darslarda olgan bilimlarini yangi kutilmagan vaziyatlarda ijodiy qo'llashga zamin yaratadi. Quyida shunday savollardan namunalar keltirilmoqda:

“Nima uchun qush tuxum po'chog'i yoriqlaridan kirgan havo bilan nafas olishiga qaramasdan, embrional rivojlanishining muayyan bosqichida jabra yoriqlari vujudga keladi?”,

“Kir yuvgan yoki o'tin yorgan kishi qo'lini ko'p ishlatishga to'g'ri keladi. Bu holatda nima uchun elkada charchoq seziladi?”,

“Nima uchun shifokor qabuliga kelgan bemorning o'naqay yoki chapaqay ekanligini bilishi lozim?”.

Tabiiy fanni o'qitish jarayonida o'qituvchi yuqorida qayd etilgan tarzdagi muammoli savollarni o'rta tashlashi va tinglovchilarning avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llashi orqali ularda ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirishga e'tibor qaratishi lozim.

Orolda yashovchi 7 ming kishidan faqat oltmish besh yil avval shu kasallik bilan og'rikan 98 nafar qariya omon qolgan. Ushbu fakt yuzasidan fikr bildiring. Olimlarning fikrlari asosida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish: taniqli geograf va sayohatchi A.Gumboldt: “Odamga o'rmon hamrohlik qiladi, cho'l kuzatib qo'yadi», degan fikrni aytgan. Olimning bu fikrini izohlang.

Ma'lumki, odam jismoniy ish bajarganda arterial qon bosim muayyan darajada ortadi.

1-tinglovchi: «Odam jismoniy ish bajarganda muskullar tomonidan ajratilgan modda qon tomirlarining torayishiga olib keladi. Shu sababli qon bosimi ortadi».

2-tinglovchi: «Odam jismoniy ish bajarganda bosh miya muskullarga signal yuboradi va ular muayyan ish bajaradi. Shu bilan birgalikda ushbu signal qon tomirlarga ham boradi, ular qisqarishi natijasida qon bosim ortadi». Ushbu bahsda qaysi tinglovchining fikri haqiqatga yaqinligini aniqdang.

Tabiiy fan o'qituvchisi o'rganiladigan mavzuning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yuqorida qayd etilgan usullardan o'z o'rnida foydalanishi tinglovchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish, hayotiy tajribalarni egallash, o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali bilim olish usullarini egallashni nazarda tutgan holda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

Tinglovchilar bilish faoliyatining bu tarzda tashkil etilishi ularda ijodiy faoliyatni tarkib toptirishga imkon yaratadi.

Munozarali darslar muammoli ta'lim texnologiyasiga asoslanadi.



Odam va uning salomatligi o'quv fanida "Odamning paydo bo'lishi" bobidan o'rin olgan mavzularini o'rganishda munozarali darslardan foydalanish uchun quyidagi munozarali savollar zanjiri tuziladi:

Munozarali darslarning muvaffaqiyati, avvalo, tinglovchilarning bu darsga qizg'in tayyorgarlik ko'rishiga, ular o'rtasida o'zaro hamkorlik, yordam vujudga kelganligiga, o'z fikr va mulohazalarini to'liq va mantiqan bayon qilish, uni dalillashga, o'z o'rtog'ining fikrini sabot va chidam bilan tinglash ko'nikmalarining hosil qilinganligiga, o'qituvchining iqtidori, e'tiqodi, tinglovchilarning bilish faoliyatini faollashtira olish ko'nikma va malakalarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa

o'rnida shuni aytish mumkinki, tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida ilg'or xorijiy tajribani qo'llash, STEAM yondashuvlar asosida tabiiy fanlarni o'rganish, darslar jarayonida fanlararo bog'lanishni tashkil etish va shu asosda o'quvchilarni fanni o'rganishga qiziqtirish, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilash, mustaqil amaliy faoliyatda qo'llash, malaka talablari asosida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmashimiz lozim.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Kuychiyeva M.A. Biologiya fanini o'qitishda fanlararo bog'lanishlarning o'rni va ahamiyati // Zamonaviy ta'lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. - Toshkent, 2019. - №5 (78). - B. 34-37. (13.00.00; №10)
2. Kuychiyeva M.A. Tabiiy fanlar o'qituvchilarining kompetentligi va kasbiy layoqatini rivojlantirish masalalari // Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari. - Toshkent, 2021. - №1-son. - B. 53-57. (13.00.00; №32).
3. Kuychiyeva M.A. Use of Interdisciplinary Relationships In The Formation Of Competences In Biology Students // CONVERTER 2021 www.converter-magazine.info. - P. 485-489. (№10. ISSN:0010-8189).
4. Kuychiyeva M.A. // Organization of Experimental Works on the Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Open Access, Peer Reviewed Journals. 2022. ISSN (E): 2795-739, - P.19-21. (№7. SJIF; IF-8.115)
5. Kuychiyeva M.A., Eshmatova D. Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers in Extracurricular Activities // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 2022. ISSN:2776-0979, - P. 617-621. (№12. SJIF; IF-7.565).



O'QUV MASHG'ULOT GURUHIDA SHUG'ULLANUVCHI 15-16 YOSHLI TAEKVONDO WTF O'G'IL BOLLARNING UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIGI DINAMIKASI

O'zbekiston taekwondo WTF assotsiatsiyasi Namangan
viloyati bo'limi raisi. Nozimov Holmurod Qobilboyevich.

Gmail: namtaekwondo.uz@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ixtissoslashgan sport maktablarida shug'ullanuvchi 15-16 yoshli taekvondochilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik, dinamikasining rivojlanish ko'rsatkichlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, chaqqonlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, tezkorlik, jismoniy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье изучаются показатели развития общей физической подготовленности, физических качеств, силы, скорости, ловкости, гибкости, выносливости и динамики тхэквондистов 15-16 лет, занимающихся в специализированных спортивных школах.

Ключевые слова: физическая подготовленность, физические качества, ловкость, сила, выносливость, гибкость, быстрота, физическое развитие.

Annotation: In this article, indicators of development of general physical fitness, physical qualities, strength, speed, agility, flexibility, endurance, and dynamics of 15-16-year-old taekwondo athlete practicing in specialized sports schools are studied.

Keywords: physical fitness, physical qualities, agility, strength, endurance, flexibility, speed, physical development.

Dolzarbligi

Jahonda sport amaliyoti va sport sohasidagi qator ilmiy tadqiqotlar taekvondo sportida yuqori natijalarga erishishda o'ziga xos morfologik xususiyatlar, yuqori darajadagi jismoniy va psixologik qobiliyatlar, yuqori texnik va taktik mahorat hamda tayyorgarlik jarayonlarini to'g'ri tashkil qilish va boshqarish katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Dunyodagi ko'plab mamlakatlarda taekvondo bilan shug'ullanuvchi sportchilarni tayyorlash tizimini zamon talablariga moslashtirish yuzasidan keng ko'lamli ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmogda. Biroq, aynan dastlabki ixtisoslik bosqichida shug'ullanuvchi yosh taekvondochilarni saralash tizimini tashkil qilish va taekwondo sportida kelajakda yuqori natijalarga erishi mumkin bo'lgan iqtidorli taekvondochilarni aniqlash va ularning tayyorgarlik jarayonlarini tashkil qilish batafsil yoritilgan ilmiy ishlanma va tajribalarning yetishmasligi kuzatilmogda.

Dastlabki ixtisoslik bosqichida taekvondochilarni individual imkoniyatlarni inobatga olgan holda saralashning majmuaviy me'zonlarini ishlab chiqish masalalari yetarlicha o'rganilmaganligi sababli dastlabki ixtisoslik bosqichidan chuqirlashtirilgan ixtisoslik bosqichiga o'tish jarayonida natijalarning pasayishi vujudga kelmogda. Ta'kidlash joizki, dastlabki ixtisoslik bosqichida shug'ullanuvchi taekvondochilarni saralash samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning majmuaviy o'rganilmaganligi va ilmiy asoslangan tavsiyalarning yo'qligi soha mutaxassisleri oldiga qator vazifalarni qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 3 iyundagi PQ-3031-son "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari taekvondo sport turini yanada rivojlanishga katta hissa qo'shdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Taekvondo Olimpiya o'yinlari tarkibiga 2000 yilda kiritilgan. Sportning ushbu turida sport zahiralari tayyorlashning mamlakati-mizdagi maktabi xali yetarlicha rivojlangani yo'q, shuning uchun yosh taekvondochilarni tayyorlash masalalariga katta e'tibor qaratilishi zarur. Sohaning yetakchi olimlari S.S.Tajibayev, F.A.Kerimov, N.Sh.Yusupova, Sh.N.Nuriddinova, B.Sh.Raxmatov va boshqa ko'pchilik mutaxassislarining fikriga ko'ra, barcha jismoniy sifatlari va qobiliyatlarni boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi yoshidan boshlab rivojlantirishga jiddiy e'tiborda bo'lishni muhim deb hisoblashgan.

Lekin, hozirgi vaqtga qadar, 15-16yosh taekvondochilarda jismoniy sifati ko'rsatkichlari yo'nalishiga qaratilgan vositalarni qo'llanilish shiddati va hajmi me'yorlarini aniqlash masalalari yetarlicha o'rganilmaganligicha qolmoqda. Ushbu holat mazkur tadqiqotning mavzusini dolzarblashtiradi.

Tadqiqotning maqsadi

o'quv mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 15-16 yoshli taekvondochilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi dinamikasining rivojlanish ko'rsatkichlarini o'rganish.

Tadqiqotning vazifalari

- 15 yoshli taekvondochilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining rivojlanish dinamikasini aniqlash.

- 16 yoshli taekvondochilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining rivojlanish dinamikasini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti: o'quv mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 15-16 yoshli taekvondochilarning mashg'ulotlari jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: o'quv mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 15-16 yoshli taekvondochilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi dinamikasini tadqiq qilish.

Tadqiqot usullari: ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, matematik-statistik tahlil.


Tadqiqotni tashkillashtirish: Tadqiqotlarda, Namangan shahar yakka kurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabida o'quv mashg'ulot guruhidashug'ullanuvchi(n=90) nafar yosh taekvondochilarishtirok etdilar

O'tkazilgan tadqiqot natijalari va muhokamasi: Tadqiqot ishimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan xolda quyidagilar amalga oshirildi.Unga ko'ra o'quv mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 15 yoshli taekvondochilarning 100 m. masofaga yugurish (sekund) nazorat mashqi natijalari o'quv yili boshida o'rtacha 14.8 s.ga teng deb topildi, Unga ko'ra o'quv mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 16 yoshli taekvondochi o'g'il bollarning yil boshida ko'rsatgan natijalari 14.5 s ni tashkil qilgan. 15 yoshli taekvondochilarning yil oxiriga kelib 14,6 s natija qayt etishgan bo'lsa, 16 yoshli taekvondochilar yil oxirida 14.3 s ga teng ekanligi malum bo'ldi. Har ikki yosh taekvondochilarining ko'rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchli emas ($p>0,05$) Yosh taekvondochilarning qayd etgan ushbu natijalari Davlat ta'lim standartlarining Bolalar va o'smirlar sport maktablari nazorat meyorlari talab darajalariga mos ravishda qoniqarsiz 3 bahoga teng deb topildi va baholash mezonlari asosida baholab borildi.

O'quv mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 15-16 yoshli taekvondochilarning umumiy chidamlilik sifatini rivojlantirish mazkur tayyorgarlik bosqichining eng muhim ahamiyatga ega

bo'lgan tayyorgarlik turlaridan biri hisoblanadi. 2000 metr masofaga (daqiqqa) yugurish tadqiqot boshida o'tkazilgan nazorat sinovi natijalariga ko'ra 15 yoshli taekvondochi bollarning yil boshida qayd etgan natijalari 9.00 daqiqani tashkil etgan bo'lsa, 16 yoshli taekvondochilarning ushbu ko'rsatkich bo'yicha dastlabki o'rtacha ko'rsatkichlari 8.5 daqiqaga ga teng bo'lganligini ko'rish mumkin.

Pedagogik tajribalarda yil oxiriga kelib 15 yoshli taekvondochi o'g'il bollarni o'rtacha ko'rsatgan natijalari 14.6 daqiqaga teng ekanligi aniqlandi, ushbu ko'rsatkich 16 yoshli taekvondochilarda 8.3 daqiqaga teng bo'lgan natijalarni ko'rish mumkin. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $p>0,05$ tashkil etdi(1- 2 rasmlarga qarang).



1-rasm.

15 yoshli taekvondochilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik dinamikasi

Navbatdagi amaliy nazorat sinovi mokki tarzda 3x10 m yugurish hisoblanadi. Taekvondochilarni tezligi — bu uning mumkin qadar qisqa vaqt ichida ayrim harakatlar va usullarni bajarish qobiliyatidir. Tezkorlik sifatini yaxshi rivojlantirmasdan yuqori natijalarga erishib bo'lmaydi.

Bu mashq yordamida pedagogik tajribada har ikki yoshdagi taekvondochilarning tezkorlik jismoniy sifat ko'rsatkichlari aniqlab olindi. Ushbu olingan nazorat sinovi natijalariga ko'ra 15 yoshli taekvondochilarning yil boshida o'rtacha ko'rsatgan natijalari 6.6 sekundga teng natijani, tashkil qildi. Pedagogik tajribada 16 yoshli taekvondochilarning ko'rsatgan natijalari 6.4 s. Natija qayt etdi. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $p>0,05$ tashkil etdi (1-2 rasmlarga qarang).


15 yoshli taekvondochi o'g'il bollarning yil oxirida ko'rsatgan natijalari 6.4 s. ga teng ekanligi aniqlandi. unga ko'ra 16 yoshli taekvondochilarning yil so'ngida ko'rsatgan natijalari 6.2

sekund natija qayt etishgan. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $p > 0,05$ ga teng. 15-16 yoshli taekvondochilarning qayd etgan ushbu natijalari Davlat ta'lim standartlarining Bolalar va o'smirlar sport maktablari nazorat meyorlarining talab darajalariga mos ravishda qoniqarli 3 bahoga teng deb topildi va baholash mezonlari asosida baholab borildi.

2-rasm.


16 yoshli taekvondochilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichi dinamikasi

Keyingi olingan amaliy nazorat mashqlaridan yana biri kuch jismoniy sifatining rivojlanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan. Kuch sifati kurash turlarida muhim ahamiyatga ega. Harakatlar



davomida hosil bo'lgan kuch dinamik kuch deb ataladi. Harakatlarsiz, muskul zo'riqishi hisobiga hosil qilingan kuch esa pedagogik kuch deb ataladi. Muskul kuchi yordamida og'irlikka ta'sir qilish ko'rsatkichi absolyut kuch ko'rsatkichi deb ataladi. Nisbiy kuch yesa absolyut kuchning tana og'irligiga nisbati tushuniladi.

Ushbu nazorat mashqi bo'yicha 15- 16 yoshli taekwondochilarning pedagogik tajribalarida ko'rsatgan o'rtacha natijalari quyidagicha ko'rinishga ega. Unga ko'ra 15 yoshli sportchilar turnikda tortilish mashqi natijalari yil boshida 6 marotaba tashkil qilgan bo'lsa 16 yoshli taekwondochilarning esa ushbu ko'rsatkich yil boshida o'rtacha 8 martani (3- 4 rasmlarga qarang).



3-rasm.


15 yoshli taekvondochilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichi dinamikasi

Ushbu tajriba mashqi orqali 15-16 yoshli taekvondochilarning ko'satgan natijalari aniqlab olindi. unga ko'ra 15 yoshli taekvondochilarning ko'rsatkichi yil oxiriga kelib 8 marotaba yaxshilanganligini ko'rish mumkun. 16 yoshli taekvondochilarning tadqiqot natijasi yil oxiriga o'rtacha ko'rsatkichlari 10 marotaba natijani tashkil qildi. Sportchilarning tadqiqotda qayt etgan natijalari orasidagi statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $p > 0,05$ ga teng topildi.

Navbatdagi amaliy nazorat meyorlarida biri bu sportchilarning turgan joyida uzunlikka sakrash qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, sportchilar ushbu mashq bo'yicha quyidagicha natijalarni qayt etganlar, Tanlab olingan ushbu mashq orqali olingan natijalar pedagogik tajribada 15 yoshli og'il bolarda yil boshida o'rtacha 1.90 metr natijani qayt etishgan bo'lsa ushbu ko'rsatkich 16 yoshli taekvondochilarning 2 metr uzunlikga sakrashgan. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $p > 0,05$ tashkil etdi (3-4 rasmlarga qarang).

Tanlab olingan mashqda 15 yoshli taekvondochilarning tajribada yil oxirida qayt etgan natijalari 1,97 metrga yaxshilanganligi aniqlandi. 16 yoshli taekvondochilarda tajriba natijasi yil

oxirida 2,5 metr uzunlikga sakrashgan.



4-rasm.

16 yoshli taekvondochilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichi dinamikasi

Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $P > 0,05$ tashkil etdi.

Tadqiqot ishimizda 15-16 yoshli taekvondochilarning jismoniy rivojlanganlik darajalarini aniqlashga mo'ljallangan so'ngi nazorat sinovi egiluvchanlik qobiliyatini aniqlashga qaratilgan hisoblanadi.

Egiluvchanlik jismoniy sifati bo'yicha 15 yoshli taekvondochilarning pedagogik tajribada yil boshida o'rtacha 10 sm ga teng bo'lgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 16 yoshli taekvondochilarning tajribada 10 sm tashkil qilgan Demak 15 yoshli taekvondochilarning ko'rsatkichi yil oxiriga kelib 13 smga yaxshilanganligi aniqlandi. 16 yoshli taekvondochilarning yil oxirida ko'rsatgan natijalari 14 sm ni tashkil qildi. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $p > 0,05$ tashkil etdi (3-4rasmga qarang).

Xulosa

Yosh taekvondochilarning jismoniy sifati ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida mashg'ulot jarayonida har bir sport turiga va xususiyatiga moslashtirilgan umumiy jismoniy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, musobaqalar uchun tayyorlaydigan maxsus jismoniy harakatlarning asosiy bazaviy negizini tartiblashtirilgan jarayonda olib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi O'quv mashg'ulot guruhida shug'ulanib kelayotgan 15-16 yoshli taekvondochilarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari, jismoniy sifatlari jismoniy tayyorgarlik darajalarini aniqlash maqsadida ulardan nazorat sinov mashqlari olindi. pedagogik tajribada har ikki yoshdagi taekvondochilarning tezkorlik jismoniy sifati ko'rsatkichlari aniqlab olindi. Ushbu olingan nazorat sinovi natijalariga ko'ra 15 yoshli taekvondochilarning yil boshida o'rtacha ko'rsatgan natijalari 6.6 sekundga teng natijani, tashkil qilgan bo'lsa, Pedagogik tajribada 16 yoshli taekvondochilarning ko'rsatgan natijalari 6.4 s. Natija qayt etdirdi. 15 yoshli taekvondochi o'g'il bollarining yil oxirida ko'rsatgan natijalari 6.4 s. ga teng ekanligi aniqlandi.

unga ko'ra 16 yoshli taekvondochilarning yil so'ngida ko'satgan natijalari 6.2 sekund natija qayt etishgan. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $p > 0,05$ tashkil etdi. Jismoniy sifatlarning rivojlanganlik darajasini ifodalovchi nazorat mashqlari natijalariga ko'ra yosh taekvondochilarning tadqiqot boshida kuzatilgan ko'rsatkichlar bir-biridan farq qildi. Jismoniy sifat ko'rsatkichlari jumladan: kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlari 15-16 yoshli taekvondochilarning yetarli darajada rivojlanmaganligi ma'lum bo'ldi.

Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida kerakli tavsiya va ko'rsatmalar ishlab chiqildi. O'quv mashg'ulot guruhidashug'ullanib kelayotgan 15-16 yoshli taekvondochilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajalari nazorat sinov amaliyoti davomida to'g'ri baholandi va ulardagi o'sich ko'rsatkichlari bolalar va o'smirlar sport maktablari baholash tizimi asosida baholab borildi.

O'tkazilgan tadqiqot jarayonimiz muobaynida yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etish chora tadbirlari samarali tashkil etilishi yuzasidan ushbu soha mutasaddi xodimlari bilan hamda yuqori sport tajribasiga ega bo'lgan sport murabbiylari bilan hikr-mulohaza jarayonlari almashilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 iyuldagi "Taekvondo (WT) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-337-sonli qarori <https://lex.uz>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 3 iyundagi PQ-3031-son "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari taekvondo sport turini yanada rivojlanishiga katta hissa qo'shdi desak mubolag'a bo'lmaydi;

1. Tajibayev S.S. "o'smir yakkakurashchilarning kompleks tayyorgarligida harakatli o'yinlarni qo'llash metodikasini ilmiy-pedagogik asoslash" pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi, - Toshkent 2019.- S. 18-28;

2. Ishtayev J.M. Tezkor – kuch sport turlarida sportchilarning portlovchi harakat qobiliyati shakllanishining metodologik asoslarini takomillashtirish" (PhD) dissertatsiya, - Toshkent. 2017.- S. 35-86;

3. Ummatov A.A. Malakali voleybolchilarda jismoniy ish qobiliyatini shakllantirish va uni baholash metodikasini ishlab chiqish (PhD) dissertatsiyasi, – Toshkent 2018.- S. 48-65;

4. Matveyev L.P., Osnovi obshey teorii sporta i sistemi podgotovki sportsmenov. Kiyev, : [uchebnik] / L. P. Matveyev. - [3-ye izd., pererab. i dop.]. – Moskva, 1999. - S 279-285.

5. J.K. Xolodov, V.G. Kuznetsov, Teoriya i metodika fizicheskogo vospitaniya i sporta 2000.-200 s. L.V. Volkov, Teoriya i metodika detskogo i yunosheskogo sporta. 2002. -S.37-85.

6. Yu.A. Shulik, Txeqvondo. Teoriya i metodika. Tom 1. Sportivnoye yedinoborstvo: Uchebnik dlya SDYUSHOR. M.S.Terzi, Fiziologicheskiye osobennosti adaptivnix protsessov u podrostkov v txeqvondo. Chelyabinsk – 2003. – 101 s.

7. Mirzanov Sh.S. Belbog'li kurashchilarda kuch qobiliyatini izokinetik mashqlar yordamida rivojlantirish ustuvorligi va uni baholash metodikasi, (PhD) dissertatsiya. 2019.-S. 32-58;

8. V.D. Anashov. Yuqori malakali bokschilarning musobaqa oldi tayyorgarligini oshirish uslubiyatini takomillashtirish. 2020. -S.25-69.



TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BIOKIMYO FANINI VIRTUAL LABORATORIYALARDAN FOYDALANIB O'QITISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi-Samarqand tibbiyot instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'rgatishda virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishdagi o'qitishning didaktik imkoniyatlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: virtual laboratoriya, didaktik usullar, didaktik imkoniyatlar, tabiiy fanlar, biokimyo, interaktiv'.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОХИМИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВИРТУАЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ

Мамадалиева Зарина Рахмат, преподаватель
Самаркандского медицинского института

Абстрактный. В данной статье представлена информация о дидактических возможностях использования виртуальной лабораторной работы при преподавании биохимии в высших медицинских учебных заведениях для повышения качества образования.

Ключевые слова: виртуальная лаборатория, дидактические методы, дидактические возможности, естественные науки, биохимия, интерактив.

DIDACTIC POSSIBILITIES OF TEACHING BIOCHEMISTRY USING VIRTUAL LABORATORIES IN MEDICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Mamadaliyeva Zarina Rakhmat, teacher of the Samarkand Medical Institute

Abstract. This article presents information on the didactic possibilities of using virtual laboratory work in teaching biochemistry in higher medical educational institutions to improve the quality of education.

Keywords: virtual laboratory, didactic methods, didactic possibilities, natural sciences, biochemistry, interactive.

Kirish

Jahonda xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha yangi ta'lim konsepsiyasida "Ta'lim - taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyati" sifatida e'tirof etilib, sifatli ta'lim berish, ta'lim olishni yaxshilash, ommaviy onlayn ochiq kurslar, mobil ta'lim texnologiyalari, ta'limni boshqarish tizimlari hamda elektron ta'lim va uning klassik modellari tadbiq etilmoqda. Internet orqali interfaol ta'lim olish imkoniyatini beruvchi onlayn ochiq kurslar, inson intellektini aniqlash orqali mos kurslarni taqdim etuvchi o'qitishga moslashuvchi tizimlarni takomillashtirish bo'yicha amaliy loyihalar bajarildi.

Biokimyó fanini o'qitish metodlari tizimida o'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi, metodik ta'minoti, faoliyatga oid kompetensiyalar tizimi va siklik diagnostikasi mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

Adabiyotlar

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida o'qitishning muammolari, ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish masalalari bo'yicha ma'lumotlar B.Abdullayeva, R.Djurayev, R.Isyanov, pedagogik texnologiyalar asoslari J.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov, axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish afzalliklari va imkoniyatlari A.Abdudodirov, biologiya o'qituvchilarini kasbiy hamda metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari U.E.Raxmatov, Sh.X.Shomurotova, biologiya fanlarini o'qitishning metodik asoslari A.G'ofurov, J.Tolipova va N.Xayrullayeva biologiya ta'lim jarayonida virtual texnologiyalar metodisi bo'yicha ilmiy ishlarida yoritilgan. Biokimyó fani bo'yicha D.Kudirov, K.M.Xolikov, X.G'.Sattorova, R.Sobirova kabi olimlar tadqiqot ishlari olib borgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida biologiya o'qitish metodikasini rivojlantirish, o'qituvchilarni kasbiy madaniyatga qiziqtirish va ularda kasbiy kompetentlikni takomillashtirish muammolari L.Zankov, E.F.Zeer, A.K.Markova olimlar tamonidan o'rganilgan. I.V.Alberti, Y.Y.Gavronskaya, P.Egorov, V.V.Oksenchuk, A.B.Oleynikova tadqiqotlarida kasbiy faoliyatda virtual laboratoriyalardan foydalanish, tibbiyot oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarda virtual laboratoriyalarni texnologiyalarning mazmun-mohiyati, imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlar biokimyó fanining ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha O.E.Antipov, I.N.Ayro, M.A.Belov, G.Clough, A.B.Truxin, V.V.Truxin, E.N.Cheremisina va boshqalarning tadqiqotlarida virtual laboratoriyalardan foydalanganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Biokimyoviy asboblarini va reagentlarini real biokimyó modellar bo'yicha tadqiq qilish qimmatbaho laboratoriya uskunalari va aparatlarini talab qiladi. Amaliyot shuni ko'rsatayaptiki, reagentlar va aparatlarini ulash laboratoriya ishlarini o'tkazish uchun ajratilgan vaqtning 30% ni oladi. Shu bilan birga, ushbu laboratoriya ishlarini o'tkazishda qo'yidagi muayyan qiyinchiliklar paydo bo'ladi:

- a) laboratoriya ishi uchun qimmatbaho reagentlar va zamonaviy asboblarining katta to'plami talab qilinadi;
- b) tadqiqot natijalariga noto'g'ri ulanishlari, o'lchash qurilmalarining ishonchsizligi va boshqalar ta'sir ko'rsatadi;
- v) quvvat manbalari, qurilmalarining ortiqcha yuklanish va ishdan chiqish xavfi mavjudligi;
- g) dastgohlarda favqulodda holat rejimlarini amalga oshirish mumkin emasligi.

Zamonaviy bozor munosabati sharoitlarida oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatini oshirish maqsadida turli yondashuvlardan foydalanilmoqda. Ta'lim jarayonining rivojlangan ijtimoiy taraqqiyoti o'qitish motivatsiyasini ijobiy tomonga o'zgartirishga xizmat qiladigan didaktik sharoitlarni yaratish zaruratini namoyon qildi. O'qitishning psixologik nazariyasi asosida bu talabalarning faol bilish faoliyati bo'lib, kasbiy kompetentsiyalardan samarali foydalanish jarayonida ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga zamin yaratadi.

Didaktikaning asosiy tamoyillar - modellashtiruvchi dasturiy vositalarni ishlab chiqishda biokimyó fanini tajribalari asosida shakllangan, o'zida o'quv jarayoni qonuniyatlarini aks ettiruvchi didaktik tamoyillar asos sifatida qabul qilinishi lozim.

Ta'lim tizimini rivojlantirishda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyofanini virtual laboratoriyalardan foydalanib o'qitishning didaktik imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagilardan iborat:

Didaktik imkoniyatning mavjudligi – internetga ulangan har qanday kompyuterdan virtual laboratoriyalarga kirish.

Mobilligi-kompyuter dasturlar yordamida bir xil ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida kompyuter, planshet, telefon orqali ko'rish va taxrirlash mumkin.

Vaqtinchalik – foydalanuvchilarga virtual laboratoriyani dasturiy ta'minot jihatidan yangi texnologiya asosida yaratilgan kompyuterlarni sotib olishning hojati yo'q.

Moslashuvchanlik- barcha kerakli reagentlar, proberkalar, laboratoriya vositalari avtomatik ravishda ta'minlanadi. Virtual laboratoriyalarni bajarish jarayonida dasturlarining eng so'nggi turlaridan foydalaniladi[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

O'quv jarayonida axborotlashtirilgan virtual laboratoriyalardan, shu jumladan laboratoriya amaliyoti kabi muhim tarkibiy qismini o'z ichiga olishi zarur. Kompyuter texnologiyalari an'anaviy ta'lim metodlari bilan bir qatorda o'quv materialini yanada aniq va ravshan taqdim etishga yordam beradi hamda keyingi malaka oshirish uchun zarur bo'lgan vakolatlarni shakllantiradi. Laboratoriya ishlarini modellashtirish real elektron qurilmalarda sodir bo'ladigan jarayonlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Modellashtirishga asoslangan tajribalar, an'anaviy tajribalardan farqli ularoq o'rganilayotgan jarayonlarning rivojlanishini sekinlashtirish yoki tezlashtirish imkonini beradi, bu esa ularning mohiyatini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi. O'lchash qurilmalarida turli zanjirlarni yig'ish va ulash nuqtai nazaridan real va virtual elementlar va qurilmalar o'rtasida farq yo'q. Bu esa elektron virtual laboratoriyalardan foydalanish bo'yicha keng istiqbollarni ochib beradi. O'quv jarayonida virtual kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanish - oliy ta'limning zamonaviy umumjaxon tendentsiyasidir[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

Laboratoriya ishlarini o'tkazishda virtual laboratoriya amaliyotidan tobora ko'proq foydalaniladi, uning mohiyati real asli tadqiqotlarni o'rganilayotgan biokimyoviy va boshqa jarayonlarni matematik modellashtirish bilan almashtirishdan iborat. Kompyuter ta'lim jarayonining axborot ta'minoti imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Umuman olganda, virtual laboratoriya - tadqiqot ob'ekti bilan bevosita o'zaro ta'sirsiz tajriba o'tkazish imkonini beruvchi axborot muhitidir. Virtual laboratoriya ishi - kompyuter vizualizatsiyasi vositalaridan foydalangan holda o'rganish uchun zarur bo'lgan real texnik ob'ekt va uning xususiyatlarini interaktiv modellashtiruvchi axborot tizimi. Laboratoriya trenajyorlari tajriba o'tkazish uchun optimal parametrlarni topish, tayyorgarlik bosqichida dastlabki tajriba va ko'nikmalarni egallash hamda haqiqiy tajriba qurilmalari va ob'ektlar bilan ishlashni osonlashtirish va tezlashtirish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar

Virtual ta'lim jarayoni pedagogik tizimda sodir bo'lib, uning bosqichlari virtual ta'limning maqsadlari, mazmuni, talabalarni samarali o'qitish va texnologik quyi tizimidan iboratdir. Bu talabalar va pedagog o'rtasidagi va o'quv qurollari bilan maqsadli, amalga oshirilgan o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, ularning makon va vaqtdagi joylashuvi uchun ahamiyatli emas.

Ta'lim muhitini virtualizatsiya qilish ta'lim uchun yangi o'rganilmagan, ehtimol, moddiy bo'lmagan va bugungi kunda amalga oshirilmagan imkoniyatlarni taqdim etadi. O'quv jarayonida virtual o'qitishning texnologik tizimi elementlarini ilmiy asoslangan holda qo'llash,



bizningcha, qayta qurishga, tubdan takomillashtirishga emas, balki tubdan yangi ta'lim tizimini shakllantirishga imkon yaratiladi.

Xulosa sifatida tadqiqot ishi tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitish metodikasi nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligi, tasavvur qilish, ta'limning ko'rgazmaligi, tizimlilik, faollik, onglilik, integrativlik hamda talabalarning imkoniyatlari va qiziqishlaridan kelib chiqib uyg'unligini bosqichma- bosqich virtual laboratoriya vositalaridan foydalangan holda amalga oshirildi.

. Biokimyo fanini amaliyotida interaktiv virtual laboratoriyalardan foydalanish asosida quyidagi vazifalar amalga oshirildi; o'quv jarayoniga tatbiq etish elektron ta'lim resurslari, didaktik aspektlarini yaratish; biokimyo fanini o'quv jarayoni uchun yangi axborotlashgan interaktiv texnologiyalarning metodik ta'minotini yaratish va qo'llash, talabalarni zamonaviy interaktiv dasturiy vositalar bilan ishlash ko'nikmalarini tarkib toptirish, biokimyo fani fizika , kimyo, biologiya fanlari bilan integratsiyasi dasturlar asosida ko'rsatib berilgan. Biokimyo fanini jarayonining samaradorligini orttirish hamda masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Z.R.Mamadaliyeva "Virtual laboratory Information In Education A Specific Factor Of The Cjmmunication System In Form". Eurasian Scientific Herald 2022. ISSN:2795-7365 Page: 92-95. w.w.w.geniusjournals.or
2. Z.R.Mamadaliyeva "Improving The Quality of Learning Through Virtual Laboratory Work use as Element". Eurasian Scientific Herald 2022. ISSN:2795-7365 Page: 84-86 w.w.w.geniusjournals.or
3. Z.R.Mamadaliyeva "Determination of aminotransferase in bood by virtual laboratory". Thematies Jounal of Chemistry 2022. Impact Factor 7.3 ISSN: 2250-382X -№ 5. -B. Page: 20-22.
- 4.Z.R.Mamadaliyeva, M.Nazarova, Kediyyorova Sh.X, K.M.Xoliqov Determination of alanine aminotransferase in blood by virtual laboratory method on a biochemical analyzer. Thematics Journal of Chemistry ISSN 2250-382X, Vol. 6(No. 1 (2022)), 20-22. [https://doi.org/10.5281/zenodo.6563063\(2022\)](https://doi.org/10.5281/zenodo.6563063(2022)).
5. Mamadaliyeva Z. R. Virtual Laboratory-Information In Education A Specific Factor Of The Communication System In The Form //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – T. 5. – C. 92-95.
7. Mamadaliyeva Z. R. Methodology for determining the level of bilirubin in the blood in a biochemical analyzer in a Virtual laboratory method //Confrencea. – 2023. – T. 10. – №. 10. – C. 20-22.



**BO'LAJAK INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI
O'QITUVCHILARINING INTERNETDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH USULLARI**

Махкамова Дилшодaxon Хабибjon qizi
Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Gmail: dilshodaxonmaxkamova@gmail.com

Аннотация: Ushbu maqolada bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining internetdan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish usullarining muammoli masalalariga zamonaviy yondashuvlar va yechimlarini ko'rib chiqilgan. O'qituvchi va o'quvchilarning internetdan foydalanish ko'nikmalarini oshirishning bir qator metodlari tahlil qilish asosida ta'kidlangan, xulosa va tavsiyalar berilgan.

Тayanch so'zlar: informatika, maktab, internet, metod, web texnologiyalar, online kurs, ijtimoiy tarmoq, interaktiv dars.

**МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕРНЕТ-НАВЫКОВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИТ И
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

Махкамова Дилшодахон Хабибжон кизи
Преподаватель Коканского государственного педагогического института
Gmail: dilshodaxonmaxkamova@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассмотрены современные подходы и решения проблемных вопросов методики развития навыков пользования Интернетом у будущих учителей информатики и информационных технологий. На основе анализа выделен ряд методов повышения квалификации учителей и учащихся в использовании сети Интернет, даны выводы и рекомендации.

Ключевые слова: информатика, школа, интернет, метод, веб-технологии, онлайн-курс, социальная сеть, интерактивный урок.

**METHODS OF DEVELOPING INTERNET USE SKILLS OF FUTURE IT AND
INFORMATION TECHNOLOGY TEACHERS**

Mahkamova is the daughter of Dilshodakhan Khabibjon
Teacher of Kokan State Pedagogical Institute
Gmail: dilshodaxonmaxkamova@gmail.com

Abstract: In this article, modern approaches and solutions to the problematic issues of methods of development of Internet use skills of future informatics and information technology teachers are considered. Based on the analysis, a number of methods of improving the skills of teachers and students in using the Internet are highlighted, conclusions and recommendations are given.

Key words: informatics, school, internet, method, web technologies, online course, social network, interactive lesson.



Kirish

O'qituvchilar uchun internetdan foydalanish zaruriyati bugungi dunyoda juda muhimdir. Internet o'qitish jarayonini yanada kuchaytiradi va o'qituvchilarga bir nechta imkoniyatlar beradi. Internet o'qituvchilar uchun eng muhim manba sifatida xizmat qiladi. O'qituvchilar yangiliklarni, so'nggi tadqiqotlarni, pedagogik usullarni va boshqalar kabi malaka va bilimni oshirishga yordam beradigan materiallarga erkin murojaat qilishlari mumkin. Internet o'qituvchilarga dunyo bo'ylab sodda va tez ma'lumotlarga kirish imkoniyatini beradi. Ular dars materiallarini, o'quv vositalarini, ilovalarni, video darslarni va boshqalar kabi resurslarni internet orqali topishlari va ularga erkin murojaat qilishlari mumkin.

Internet o'qituvchilar uchun juda katta imkoniyatlarni olib keladi. Ular o'z malakalarini oshirish, o'quv jarayonini yanada sifatli va samarador qilish, hamkorlik va aloqalar o'rnatish, yangiliklardan foydalanish va o'zlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Bo'lajak o'qituvchilarni internetdan foydalanish malakasini rivojlantirishga oid olimlarning qarashlari quyida ko'rib chiqamiz:

Marc Prenskyning - "Digital Natives, Digital Immigrants" nomli maqolasida, o'qituvchilar va talabalarni raqamli olamni o'qitish usullariga moslashtirish va ularning raqamli dunyoda muvaffaqiyat qozonishlariga qanday yordam berishni o'rganishlari mumkinligi haqida izlanishlar olib borgan [1].

Ian Jukes, Ted McCain va Lee Crockett - "Understanding the Digital Generation: Teaching and Learning in the New Digital Landscape" ("Raqamli avlodni tushunish: Yangi raqamli muhitda o'qitish va o'rganish") nomli kitobida o'qituvchilar uchun raqamli dunyoni tushunish, ularni moslashtirish va ularning o'qish va o'rganish jarayonlarini raqamli muhitda muvaffaqiyatli qilishga qaratilgan qobiliyatlarini rivojlantirish haqida yoritilgan [2].

Alan November ning "Web Literacy for Educators" ("O'qituvchilar uchun veb-mediya bilimi") nomli kitobi o'qituvchilar uchun internet bilimni oshirishga qaratilgan. O'qituvchilar o'quvchilarni veb-mediya bilimiga tayyorlash, veb-mediya resurslaridan foydalanish va ulardan to'g'ri tarzda foydalanish malakasini rivojlantirishga yordam beradi. Bu kitobda o'qituvchilar, internetni o'rganish va yangiliklardan foydalanish asosida o'rganishning yangi usullarini o'rganishlari mumkin [3].

Shelly Terrell ning "The 30 Goals Challenge for Teachers: Small Steps to Transform Your Teaching" ("O'qituvchilar uchun 30 maqsad ustida ish: O'qitishingizni o'zgartirishga yo'l-harakatlari") nomli kitobida o'qituvchilar uchun 30 ta maqsad, vazifalar va mashqlar belgilangan. Bu maqsadlar o'qituvchilarga internetdan foydalanish, onlayn kommunikatsiya qurish, shaxsiy va professional o'quvni rivojlantirish va boshqalar kabi muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Bu kitob o'qituvchilarga amaliyotlarni rivojlantirish va yangiliklardan foydalanishga qaratilgan qo'llanma bo'ladi[4].

Bu olimlar tomonidan yozilgan kitoblar o'qituvchilar uchun internetdan foydalanish malakasini rivojlantirishga yordam beradi. Ular o'qituvchilarning raqamli alifboga, veb-mediya bilimiga, onlayn ta'lim usullariga va raqamli asarlarni o'qitish va o'rganishning eng yaxshi amaliyotlariga qaratilgan qo'llanma bo'lishi mumkin. Bu kitoblar o'qituvchilarga internet resurslaridan foydalanishning eng yaxshi usullarini o'rgatish, raqamli dunyoni qo'llab-quvvatlash va ularning o'qish va o'rganish jarayonlarini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada bo'lajak informatika o'qituvchilarining internet yordamida darslarini to'g'ri tashkil qilish, internetdan foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish muammolari va yechimlari haqida o'rganildi. Nafaqat o'qituvchilarni balki o'quvchilarni ham internetdan foydalanish ko'nikmalarini oshirishda jahon tajribalaridan resurslarni tanlash, ma'lumotni ta'riflash va tahlil qilish, interaktiv darslar va onlayn platformalardan to'g'ri foydalanish, internetdan, ijtimoiy tarmoqlar va veb-forumlardan darsda foydalanish, internetdagi xavflarni tushunish va ular bilan kurashish metodlari tahlil qilindi va bir qator tavsiyalar berildi.

Tahlillar va natijalar

Bo'lajak Informatika fani o'qituvchilarining internetdan foydalanish malakasini rivojlantirishda uchraydigan muammo va yechimlarni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Resurslarni tanlash: Internetda bir qancha resurslari mavjud bo'lsa ham, o'qituvchilar uchun mos resurslarni topish va tanlash muammo bo'lishi mumkin. Bu resurslar maqolalar, kitoblar, video darslar, onlayn kurslar, interaktiv o'quv vositalari va boshqalar bo'lishi mumkin. O'qituvchilar o'quvchilariga mos resurslarni tanlashda va ulardan foydalanishda yordamga muhtoj bo'lishlari mumkin.

Yechim: O'qituvchilar, o'quvchilarga mos bo'lgan resurslarni topish va o'quv dasturiga ularni integratsiya qilish bo'yicha yordam olishlari kerak. Bu, resurslarni ta'lim rejasiga moslashtirish va o'quvchilarning qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

Muhokama va hamkorlik imkoniyatlari: Internet o'quvchilar uchun muhokama va hamkorlik imkoniyatlari yaratadi. Bu, o'quvchilar o'rtasida fikr almashish, veb-forumlarda, bloglar yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali murojaat qilish va o'quvchilar o'rtasida o'quv-materiallarni baholash, fikr almashish va maslahat berish imkonini beradi.

Yechim: O'qituvchilar o'quvchilarning muhokama va hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanishini ta'lim jarayonida oshirishlari kerak. Bu, ijtimoiy tarmoqlarni, o'quvchilarning veb-forumlarda qatnashishini va ularga veb-bloglar yaratishni o'z ichiga oladi. Bu usullar o'quvchilar o'rtasida o'quv-materiallarini o'zlashtirish, fikrlash va o'zlashtirgan bilimlarini boshqalarga o'rgatish imkonini beradi.

Ma'lumotni ta'riflash va tahlil qilish: Internetda ko'plab ma'lumotlar mavjud bo'lishi o'quvchilar uchun ma'lumotni ta'riflash va tahlil qilish muammolariga olib kelishi mumkin. O'qituvchilar, o'quvchilarni ma'lumotlarni topish, uning to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, haqiqiy va ehtimol ma'lumotlarni aniqlash va ma'lumotlarni to'g'ri manbalardan ajratishni o'rganishda yordam berishlari kerak.

Yechim: O'qituvchilar, o'quvchilarga ma'lumotlar bazasini to'g'ri qo'llash, ma'lumotlarni tahlil qilish va objektivlikni saqlash, ma'lumotlarni tekshirish va to'g'ri manbalardan foydalanishni o'rgatishlari kerak. Bu, o'quvchilarning ma'lumotlarni ta'riflash, tahlil qilish va ma'lumotlarni foydalanishda kritikaviy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Internet xavfsizligi va etikasi: Internet foydalanuvchilari uchun xavfsizlik va etika muammolari ham mavjud. O'qituvchilar, o'qituvchilar o'quvchilarga internet xavfsizligi va etikasini o'rgatishda muammo bilan uchrashishlari kerak. Bu, internetda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, yolg'on ma'lumotlardan himoya qilish, tashqi manbalardan kelgan ma'lumotlarni tekshirish, plagiatdan saqlanish va tashqi manbalarni to'g'ri ko'rsatish, tushunchalar o'rtasida adolatni saqlash va boshqalar kabi mavzularni o'z ichiga oladi.



Yechim: O'qituvchilar, o'quvchilarga internet xavfsizligi va etikasini o'rganishda yordam berishlari kerak. Bu, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, yolg'on ma'lumotlardan qochish, ma'lumotlarni tekshirish metodi va plagiatni oldindan qo'llash, tashqi manbalarni to'g'ri ko'rsatish va adolatni saqlashning qanday bo'lishi haqida bilimlarni o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Texnologiya integratsiyasi: O'qituvchilar, internet va texnologiyalarni o'quv jarayonida samarali foydalanish yechimini topishlari kerak. Integrativ texnologiyalar, onlayn platformalar, interaktiv darslar, maktab saytlari, shaxsiy elektronik portfolio va boshqalar kabi vositalar o'quvchilarga eng muhim malakalarni o'rganishda yordam berishi mumkin.

Yechim: O'qituvchilar, o'quvchilarga texnologiyalardan samarali foydalanishni o'rganishda yordam berishlari kerak. Bu, onlayn platformalarni to'g'ri qo'llash, interaktiv darslarni integratsiya qilish, o'quvchilarni shaxsiy elektronik portfolioning yaratilishi va o'quvchilarning o'zlashtirgan malakalarini namoyish etishni o'rgatish mumkin.

Umuman olganda, bo'lajak informatika o'qituvchilarining internetdan foydalanish malakasini rivojlantirish uchun mos resurslarni tanlash, muhokama va hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanish, ma'lumotlarni ta'riflash va tahlil qilishni o'rganish, internet xavfsizligi va etikasini o'rgatish, va texnologiya integratsiyasini o'rganish katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu yo'nalishlarda o'qituvchilar o'quvchilarni internetning foydalanishini amalga oshirish va ularni ma'lumotlarni samarali qo'llash, fikrlash va ishlab chiqish jarayonida yaxshilashga yordam berishi mumkin.

Xulosalar

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Bo'lajak informatika o'qituvchilarining internetdan foydalanish malakasini rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. O'quvchilar uchun uyga vazifalar berish: O'qituvchilar o'quvchilarni internetdan foydalanishni o'rganish uchun uyga vazifalar berishlari mumkin. Bu vazifalar o'quvchilarni ma'lumot izlash, tahlil qilish, tajribalar olish va muhokama qilishga yo'l qo'yishadi. Misol uchun, o'quvchilarni bir mavzuga oid ma'lumot topish, o'z fikrlarini blogda yozish, onlayn forumlarda muhokama qilish yoki veb-sayt yaratishga yo'naltirish mumkin.

2. Interaktiv darslar va onlayn platformalar: O'qituvchilar, interaktiv darslar va onlayn platformalardan foydalanish orqali o'quvchilarga internetdan foydalanishni o'rgatishlari mumkin. Bu, o'quvchilarni interaktiv o'quv vositalari orqali ma'lumotlarini tekshirish, vazifalar bajarish, muammo yechish va ko'nikmalarni joriy qilishga yo'l qo'yadi. Bu turdagi platformalar o'quvchilarga o'zlarining o'rgangan malakalarini namoyish etish, bir-birining ishlarini baholash va hamkorlik qilish imkoniyatini beradi.

3. Ijtimoiy tarmoqlar va veb-forumlar: O'qituvchilar o'quvchilarni ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lishga yo'naltirishlari mumkin. Bu, o'quvchilarni boshqa o'quvchilar bilan fikr almashish, maslahat so'ralish, fikrlarini izlash va o'quvchilarning guruh bilan hamkorlik qilish imkonini beradi. O'qituvchilar o'quvchilarga ijtimoiy tarmoqlarda amalga oshiriladigan etika qoidalarini ham o'rgatishlari kerak, masalan, yaxshi yozuv uslubi, adabiyotlarga manba sifatida murojaat etish, plagiatdan saqlanish kabi.

4. Loyihalar va amaliy mashqlar: O'qituvchilar, o'quvchilarni internetdan foydalanish malakasini rivojlantirish uchun loyihalar va amaliy mashqlar tashkil etishlari mumkin. Bu, o'quvchilarni bir mavzuga oid qo'llanmalar, veb-saytlar, interaktiv dasturlar, videolar yoki animatsiyalar yaratishga yo'naltirishadi. Bu turdagi loyihalar o'quvchilarning ma'lumot izlash,

tahlil qilish, tajribalar olish va ta'lim materiallarini yaratish malakalarini rivojlantirishiga yo'l qo'yadi.

5. Darslarda internetdan foydalanish: O'qituvchilar darslarda internetdan samarali foydalanishni talab etishlari mumkin. Bu, darslar davomida internetdan ma'lumot izlash, yangiliklarni kuzatish, interaktiv dars materiallarini taqdim etish, elektronik ma'lumotlar bazalarini qo'llab-quvvatlash va o'quvchilarning veb-saytlar yoki tajribalarini namoyish etish imkoniyatini yaratadi. O'qituvchilar o'quvchilarni ma'lumotlarni to'g'ri tanlash, tahlil qilish va tajribalar olishda internetdan qanday foydalanishni o'rganish uchun qo'llanmalardan foydalanishlari mumkin.

6. O'quvchilarga internet etikasi va ma'lumot xavfsizligi haqida ta'lim berish: O'qituvchilar o'quvchilarga internet etikasi va ma'lumot xavfsizligi haqida ta'lim berishlari kerak. Bu, o'quvchilarni internetdan foydalanishda shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, plagiatdan saqlanish, to'g'ri manbalar bilan ishlash va yomon ma'lumotlardan saqlanishni o'rganishga yo'l qo'yadi. O'qituvchilar o'quvchilarga internetda davolanishlarida muhim etika qoidalarini o'rgatishlari ham muhim.

7. O'quvchilarga internet resurslari va manbalarini topish usullarini o'rgatish: O'qituvchilar o'quvchilarni internetda yaxshi resurslarni topish, ma'lumotni to'g'ri tahlil qilish, foydalanish uchun qanday manbalarni ishlatishni o'rganishga yo'l qo'yishlari mumkin. Bu, qidiruv texnikalarini, axborot banklarini, akademik maqolalar bazalarini, maqolalar yozish usullarini va boshqa manbalarni qo'llashni o'rganishni o'z ichiga oladi.

8. Internetdagi xavflarni tushunish va ular bilan kurashish: O'qituvchilar o'quvchilarni internetdagi xavflar haqida tushunishga yo'l qo'yishlari kerak. Bu, yolg'on, yomon ma'lumotlar, yorqinlik va boshqa muammolar bilan bog'liq bo'lgan xavfli veb-saytlardan saqlanishga qarshi ko'nikmalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar o'quvchilarga internetdan foydalanish paytida xavfli xabarlar va yorqinliklarni aniqlash, xavfsizlik sozlamalarini sozlash va o'zlarining shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishni o'rganishlari kerak.

Bu metodlar o'quvchilarni internetdan foydalanish malakasini rivojlantirishga yordam berishi mumkin. O'qituvchilar o'quvchilarni internet bilan ishlashning foydali tomonlarini tushunish va ularni ma'lumotlarni to'g'ri qo'llashga yordam berishlari muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Marc Prensky, "Digital Natives, Digital Immigrants" From On the Horizon (MCB University Press, Vol. 9 No. 5, October 2001)
2. Ian Jukes, Ted McCain va Lee Crockett - "Understanding the Digital Generation: Teaching and Learning in the New Digital Landscape", The 21st Century Fluency Series, May 2010, 176 pages
3. Alan November - "Web Literacy for Educators", Corwin Press 2008, 132 pages
4. Shelly Terrell ning "The 30 Goals Challenge for Teachers: Small Steps to Transform Your Teaching", Routledge 2014, 238 pages.
5. A.Abduqodirov "Axborot texnologiyalari" Toshkent 2003 yil



DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE IN STUDENTS AT SPORTS TOURISM EVENTS

M.A Azizov

Namangan Institute of Engineering and Construction. Associate Professor of Physical Culture
Department. PhD

e-mail: azizovmaruf40@gmail.com

Abstract: Expanding the scope of modern considerations regarding the development of environmental culture among students in sports tourism events; development of ecological concepts; It is explained by the fact that the criteria and indicators for determining the level of development of environmental culture among students in sports tourism events and the development of scientific and methodical recommendations have been developed.

Key words: Sports tourism, ecology, ecological culture of students, tourism walks, environment, conscious attitude, ethno-culture

РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ НА МЕРОПРИЯТИЯХ ПО СПОРТИВНОМУ ТУРИЗМУ

Аннотация: Расширение сферы современных представлений относительно развитие экологической культуры у студентов на мероприятиях спортивного туризма; разработка экологических концепций; это объясняется тем, что критерии и разработаны показатели для определения уровня развития экологической культуры у учащихся на мероприятиях спортивного туризма и разработки научно-методических рекомендаций.

Ключевые слова: Спортивный туризм, экология, экологическая культура у учащихся, туристические прогулки, окружающая среда, сознательное отношение, этнокультура

SPORT TURIZMI TADBIRLARIDA O'QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Bu boradagi zamonaviy mulohazalar doirasini kengaytirish sport turizmi tadbirlarida talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish; ekologik tushunchalarni ishlab chiqish; Bu mezonlar va ekanligi bilan izohlanadi sport turizmi tadbirlarida o'quvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirish darajasini aniqlash va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Sport turizmi, ekologiya, o'quvchilarning ekologik madaniyati, turizm yurishlari, atrof-muhit, ongli munosabat, etnimadaniyat .

The purpose. It consists in developing scientific proposals and recommendations for the development of environmental culture among students in sports tourism events.

Methods. Theoretical (comparative, analytical), diagnostic (observation, interview, questionnaire), pedagogical experiment-test, mathematical-statistical analysis, generalization methods were used in the research process.

Results. The structure and components of the development of environmental culture among students in sports tourism events were clarified;



A set of tests on the development of environmental culture among students at sports tourism events has been developed;

Criteria and indicators for the development of environmental culture among students have been developed in sports tourism events;

Algorithmic stages of the technology of development of ecological culture among students in sports tourism events have been determined.

Summary. Based on the results of the analysis, the use of sports tourism events in the educational process in many ways improves the physical qualities of students: shock, flexibility, strength, dexterity, speed, etc.) together with universal human environmental qualities (fortitude, courage, creates an opportunity to form patriotism, morality, etc.).

Enter. In the world, great attention is paid to the wide promotion and organization of sports tourism, the development of such types of tourism as skiing, water or hiking in the mountains. Sports tourism should not only help students to be strong, courageous, brave and determined, but also to acquire a wide range of special knowledge, from the technique of overcoming obstacles in extreme conditions to the impact of ecology on human physiology. Large-scale promotional activities are being carried out, paying particular attention to the prevention of violations in the field of rational use of natural resources and the implementation of problems related to waste. Also, in the field of tourism activities, first of all, the UN World Tourism Organization, influential international organizations in the field of tourism, as well as the countries, require expansion of cooperation.

Large-scale work is being done to develop environmental culture among students in the world. In this regard, the organization of systematic and goal-oriented activities on the development of environmental culture among students at sports tourism events remains an urgent task today. The official document of the United Nations (UN) presents the integrated concept of "Sustainable Development", which is based on the main problems of preserving and restoring the natural environment and ensuring a decent life for all generations. In this regard, it is necessary to further expand the pedagogical possibilities of organizing the process of developing environmental culture among students in the process of sports tourism.[5]

In our republic, to make suggestions on personnel training for the fields of tourism, sports and material cultural heritage, organize regular retraining of employees of tourism activities, sports and material cultural heritage and improve their skills at a high level, network in the fields of tourism, sports and material cultural heritage helping to form science is gaining practical importance. Diversification of types of tourism, first of all pilgrimage tourism, ecological tourism, ethnotourism, business tourism, sports, gastronomic, medical, educational and scientific tourism, as well as the formation of their infrastructure, require the implementation of comprehensive measures.[6]

In our republic, great attention is paid to the training of personnel for the fields of tourism, sports and material, cultural heritage, and ecology, as well as to support the development of science in these fields. In the Presidential Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 18, 2022 "On organizational measures to improve state management in the fields of tourism, cultural heritage and sports", "Popularization of sports among students and youth, organization of large-scale activities to promote public sports and healthy lifestyles, expand cooperation with international and national organizations in the field of tourism, encourage regular participation in sports, improve the sports education system ", significant reforms are



being implemented. This requires improving the health of students' eco-environment based on the development of sports tourism.[3]

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 21, 2017 "On improving the state management system in the field of ecology and environmental protection" No. PF-5024, dated February 3, 2018 "Favorable conditions for the development of tourism potential in the Republic of Uzbekistan" on additional organizational measures to create conditions" No. PF-5326 dated April 6, 2021 "On measures to further improve the state management system in the fields of tourism, sports and cultural heritage" No. PF-6199, dated January 28, 2022 "On the development strategy of the Republic of Uzbekistan for 2022-2026" No. PF-60, dated April 6, 2021 "Organizing the activities of the Ministry of Tourism and Sports on achieving" No. PQ-5054, Decision No. 434 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated May 27, 2019 "On approval of the concept of development of environmental education in the Republic of Uzbekistan" related to this activity serves to implement the tasks specified in other regulatory and legal documents.

Methods: communication with nature expands students' imaginations about the environment, educates them to pay attention to various phenomena and objects of nature, and also gives a whole knowledge about natural landscapes and colorful world. Therefore, it is necessary to plan educational activities taking into account the conditions, characteristics and existing traditions of the camp.

Planning work in health resorts is an interesting, creative, responsible and complex task. During the analysis days, they should occupy every creative hour in an interesting, modern, national, traditional way.[7]

Below are recommended organizational, preparatory and educational work plans for rest (group) work:

Day 1. Acquaintance with the resting place, the environment, its ecological condition.

Day 2. Equipping the group eco-corner. Preparation for the ceremonial opening of the meeting.

Day 3. Communication with "Environment".

Day 4. Introduction to "Colorful World".

Day 5. Carrying out independent assignments on the topic "Secrets of Nature".

Day 6. Acquaintance with and implementation of the topic "Working with trees".

Day 7. "Mother Radish Talks" Tillage.

Day 8. Birthday. Concert on the theme "Gift of Friends". A night of laughter.

Day 9. 9 days. Organization of student ecomarathon (east, west, south, north).

Day 10. Conducting events on the theme of "Day of Nature".

Day 11. Interview on "Enchanting World".

Day 12. Celebrations and evenings dedicated to the theme of preserving nature.

Day 13. The ultimate ecomarathon.

14th day. Tourism to historical monuments and important places in places.

Day 15. Organization of tourism on the theme "Who is a good environmentalist".

16th day. Cracking of the resting place. Awarding the most advanced participants of the circle.

In addition, during free time from club training:



1 on the topic "Tell me about yourself". In order for students from different regions of our country, with different characteristics and who are not familiar with each other, to become good friends, we will organize group discussions, get-to-know test plans and conduct games on this basis, Dressing up to their liking, acquaintances should be solemn, pleasant, cheerful.

2 "Creative work using natural materials". Students are taught to work without harming birds, animals, and plants when using natural materials. Making things from natural materials such as old and dry, broken branches. Forests, gardens, riverbanks and depressions are good places to collect such natural materials.

3. On the theme "Summer in our country", observing the view of our country from a higher perspective for a long time, instilling in them love and affection for the environment, the Motherland, and at the same time Getting interested in drawing landscapes while holding a pen.

4. "Secrets of nature." During practical classes, students learn the secrets of making things using various natural materials. Theoretical and practical exercises are conducted by the leader of the exhibition.

5. "Treatment of trees". It is necessary to inculcate the skills of behaving in nature, explain the role and importance of green plants, and instill in them a love for nature.

6. "Mother is talking." This 2-hour tourism-style activity was mainly focused on observing the settlements around the camp, making various simple objects and sculptures out of clay, drying them and decorating them with colors.

7. "Gift of friends". The birthdays of the students in Oromgokh are determined from the first day of these 18 days. Attention is paid to this during training. And on his birthday, his friends put their names in their creative works and present them with figurines.

8. Birds around the eco-corridor of the marathon organized in Oromgokh. Is to count and help animals, rare trees and flowers. To do this, a group of 4 will be formed. The tasks performed by the groups are clearly defined. It is emphasized to the students to walk along the corridor without negatively affecting the environment, without making noise, and to be careful. It is recommended to write down every identified thing in a diary. Members of the group will be introduced to information about inseparability and mutual assistance. The marathon will be organized in 4 directions at once: east, west, south, north; time is set to 1-1.5 hours. Each group will be assigned a leader, and after the ecomarathon, an interview will be held on the topic of "my opinion".

9. Theme "Nature Day" at the rest area. This event will be held under the slogan "Protecting nature means protecting the Motherland". After announcing this slogan at the morning assembly, students will freely organize round discussions about their understanding of the words "Nature-Motherland". The smartest "fic" and reasoning will be awarded a "win". ("Ecology", the "Island" problem and other topics).

10. There is a great opportunity to communicate with "Living Nature" at the students' camp. Pupils will improve their love for animals and care for them at the events of S'ort tourism. Children's love for creatures helps them to understand good and bad. Therefore, educating students in a kind, honest, humanitarian spirit is one of the important tasks of educators.

11. "Enchanting world of colors." There is a first interest in the pictures made by the students. In the winter of 1882, the Italian historian and art critic Corada Ricci, while walking around the city of Bolong, got caught in the rain and, with the intention of taking shelter, entered

the arch around the city of Melanschello. There he will see a whole, integrated exhibition of simple forms of “student art”. He is interested in paying for the “World of Fascinating Colors” exhibitions. A month later, after analyzing more than a thousand pictures, he found out that the edges of the pictures drawn by the students were not random. As every discovery is caused by some event, this one was caused by the rain. It is important to organize exhibitions under the theme of this story in student camps, to introduce the history of the “Magnificent World of Colors”.

12 Nights dedicated to nature. The creative side of the students of fine and applied arts is reflected in each drawing. This score is rarely found in the works of adults. The pictures drawn by students are unique from a professional point of view. Of course, the increase of creative exhibitions should be held with festive music. Because a person begins to get acquainted with both musical and visual arts from childhood. It is on this basis that the “Professional-Pride” exhibition should be organized in rest areas.

13. The next final marathon will be held. A march will be organized along the previous route. Students observe the environment, living beautiful and wonderful nature. They can diligently study specific incidents and events. For example: students reflect the movements of birds, animals and their structure in their daily notebooks.

14. Creative works “Journey to the world of fairy tales”. The Italian historian and art critic Carada Ricci expressed his views on the pictures made by students in his book “Students’ Art”, which he published in 1887. He published this book in 1911 under the name “Assomous Readers”. Readers drew pictures even before K. Ricci’s book was published. But interest in this art was initiated by K. Ricci. It is necessary to arouse the interest of students to draw pictures in a state that they understand later after reading artistic and fairy-tale books. Then it is recommended to organize the creative exhibition “Journey to the World of Fairy Tales”.

15. Conversation on nature, yesterday, today, tomorrow. It is announced that wall newspapers should be published and the best work should be awarded with awards and labels.

16. Preparation for the settlement of Oromgokh. “Who is a good environmentalist”.

Along with a 12-day vacation, the “Who is a good environmentalist” survey was conducted, summarizing what news they had learned at the student camps. The strongest examples of creative work were recommended for the city exhibition.

Results. It is explained by the applied approach, the scientific-methodological basis of the methods, the theoretical data obtained from official sources, the presented analyses, the efficiency of experimental work determined by means of mathematical-statistical methods, the implementation of conclusions, proposals and recommendations, as well as their approval by competent organizations.

Discussions. According to data, every year in the world 7 mln. people die from air pollution. About 1 trillion per year for the treatment of diseases caused by gas pollution. Dollars are spent. Every hour, 1692 hectares of fertile land turns into salt marsh[113]. In our opinion, it is necessary to convey these statistical data to students in order to develop ecological culture in them. . In order to prevent this situation, it is necessary to install warning signs in parks, educational institutions, workplaces and residences, stating that it can be the best food for radishes, and in the mass media. It is advisable to provide information and videos about this.[4]



The definition of ecological-hygienic education is given in the research of H.A. Rakhmatova on the issues of ecological-hygienic upbringing of students in the process of extracurricular activities. It says that ecological-hygienic education is a pedagogical process aimed at a specific goal, in this process students are given knowledge about ecology, environmental protection, as well as the basics of protecting human health. Therefore, we can see that it is important to teach environmental protection.

Conclusions. The fact that the sustainable education system is being fundamentally reformed, and the widespread attention paid to the upbringing of a wellrounded, healthy generation in our society requires the improvement of physical education classes in general secondary schools and the design of the teaching process based on "pedagogical technologies, innovative approaches" the need arose.

References

1. Ismailov A. T., Azizov M. A. The role of physical education and sport in emphasizing the spiritual and moral claims of students // economics and society. - 2019. - No. 9. - S. 6-7.
2. Azizov M. A. Formirovanie u uchashchihnya kultury berezhnogo otnosheniya k prirode v protsesse organizatsii i provetenii pokhodov //Molodoy uchenyy. – 2012. – no. 3. - S. 339-342.
3. Begaliev M. O., Azizov M. A. influence of somatic pathology and human development //Nedelya molodezhnoy nauki-2021. - 2021. - S. 421-422.
4. Juraev E. V., Azizov M. A. Importance of competition method in creating a healthy competitive environment for // Economics and society. - 2020. - No. 1. – S. 46-47.
5. Azizov M. A. Pedagogical mechanisms of forming ecological culture in students in the process of sports tourism //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. - 2022. - T. 2. – no. 5. - S. 1209-1214.
6. Azizov M. Features of preparation of secondary school students for sports tourism // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. - 2022. - T. 12. – no. 2. - S. 256-260.
7. Ahmadkhanovich A. M. Pedagogical conditions for the formation of a culture of preserving nature of students during travel. - 2021.
8. Azizov M. A. Hygiene physical culture subject, Zadachi i method //Economics and society. - 2019. - No. 5. - S. 263-265.



OILADA BOLALARNI MILLIY QADRIYATLAR VA AN'ANALAR ASOSIDA O'ZARO MUNOSABATLARINI ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna-Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada oilaviy turmush tarziga oid urf-odatlar, oilada bolalarni milliy muxitda tarbiyalashda milliy qadriyatlar, bolalarni ijtimoiy xayotga moslashtirishda bola tarbiyasiga doir masalalar, an'anaviy xalq tarbiyasi xususiyatlari va u bilan bog'liq urf-odat hamda marosimlar, milliy tarbiya usullari, oiladagi tarbiyaviy muhitning xususiyatlari, tarbiya jarayonida ota-onalarining tutgan mavqei va ta'sir darajasi kabi masalalar pedagoglarning nazariy pedagogik ko'rsatmalari berilgan.

Kalit so'zlar: jahon, oila, urf-odatlar, milliy, an'anaviy, ijtimoiy, turmush, bola, tarbiya, madaniyat, ota-ona, fan, marosim, faol, do'st, sadoqat, ma'naviyat, vazifa, sog'lom, muhit, olim.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ТРАДИЦИЙ

Абстракт: В статье рассмотрены традиции, связанные с семейным укладом, национальные ценности в воспитании детей в национальной среде в семье, вопросы, связанные с воспитанием детей в приспособлении детей к общественной жизни, особенности традиционного народного воспитания и связанные с ним обычаи и обряды, методы народного воспитания, особенности воспитательной среды в семье, воспитания в процессе, такие вопросы, как позиция родителей и уровень влияния, были даны в теоретико-педагогических указаниях педагогов.

Ключевые слова: мир, семья, традиции, национальный, традиционный, социальный, быт, ребенок, воспитание, культура, родитель, наука, обряд, деятель, друг, верность, духовность, миссия, здоровье, окружающая среда, ученый.

MODERN TRENDS IN THE INTERACTION OF CHILDREN IN THE FAMILY ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES AND TRADITIONS

Abstract: In the article, traditions related to family lifestyle, national values in raising children in a national environment in the family, issues related to child education in adapting children to social life, features of traditional folk education and customs and ceremonies related to it, methods of national education, characteristics of the educational environment in the family, education during the process, issues such as the position of parents and the level of influence were given theoretical pedagogical instructions of pedagogues.

Keywords: world, family, traditions, national, traditional, social, life, child, education, culture, parent, science, ceremony, active, friend, loyalty, spirituality, mission, healthy, environment, scientist.

KIRISH

Jahonda tarixiy faktlarning dalolat berishicha, milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlar xalq tomonidan qo'lga kiritilgan uzoq odat natijasi sifatida e'tirof etiladi. Oilada milliy muxit munosabatida voyaga yetib, milliy-ma'naviy qadriyatlar qurshovida o'sishi asosida shakllanadi va ijtimoiy xayotga moslashishini taqozo etadi. Ana shunday dolzarb muammolardan biri – bu o'zbek xalqiga xos bo'lgan bola tarbiyasi usulidir. Pedagogikada shu vaqtga qadar bola tarbiyasi masalasi olimlar tomonidan, asosan, an'anaviy xalq tarbiyasi

xususiyatlari va u bilan bog'liq urf-odat hamda marosimlar kontekstida o'rganib kelingan. Milliy tarbiya usuli, oiladagi tarbiyaviy muhitning xususiyatlari, tarbiya jarayonida ota-onalarining tutgan mavqei va ta'sir darajasi kabi masalalar pedagoglarning nazardan chetda qolmagan. Ayniqsa, Germaniya, Yaponiya, Rossiyada bolalarning oila muhitida tarbiyalash va rivojlantirishning innovatsion tizimlari ishlab chiqilayotganligini alohida qayd etib o'tish lozim. Bugungi kunda farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ularni pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish, oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar Tahlili

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilayotgan muammo yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan va turli g'oya, qarashlar ilgari surilgan. Mazkur tadqiqotlarda masalaga doir turli nazariy-metodologik yondashuv-lar qo'llanilgan.

Xorijda muammoning oilaviy turmush tarziga oid urf-odat va marosimlar negizida o'rganilishi XIX asrga kelib, G'arb dunyosi ijtimoiy fanlarida turli xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qiluvchi madaniy antropologiya va psixologiya, sotsiologiya yo'nalishlari maxsus fanlarga aylandi. Bu fanlar "boshqa" madaniyatga mansub xalqlarni o'rgana boshladi. Dastlabki tarixiy-etnografik tadqiqotlarda mavzu o'rganilayotgan xalqning xulq-atvor normalari va oila xususiyatlarini o'rganish orqali tavsiflab ketilgan xolos va bunda qandaydir mustaqil nazariy muammolar qo'yilmagan. Bunday ishlar sirasiga N. N. Mikluxo-Maklayning Admirallik orollarida Bronislav Malinovskiyning Tinch okeani g'arbiy qismidagi orollarida olib borgan tadqiqotlarini ham ko'rsatish mumkin. Masalan, N. N. Mikluxo-Maklay onaning emizikli bolasini qanday tebratib uxlatishi, mahalliy aholi ayb ish qilgan bolalarni qanday tarzda jazolashi va shu kabi ma'lumotlarni beradi. Ushbu tadqiqotlarda bolalik davriga oid qandaydir mustaqil nazariy muammolar qo'yilmagan. Shunga qaramay, bunday ishlar katta ilmiy ahamiyatga ega.

Salmoqli tarixshunoslik asosida va erkin esseistik uslubda yozilgan Filipp Aresning ushbu kitobida uch yo'nalishdagi masalalar ko'tarilgan:

1. Bolalik tushunchasi va bolalik obrazlari evolyusiyasi – hayot yo'li, bola-likni alohida ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida anglash tarixini, bolalar kiyimlari, o'yinlari, ma'naviy tarbiyaning maqsad va metodlari evolyusiyasini davrlashtirish;
2. Maktab hayoti tarixi – o'quvchilarning yoshlari, ta'lim dargohlari tiplaridagi o'zgarishlar, o'quvchilarni intizomga o'rgatish maqsad va metodlaridagi o'zgarishlar va hok.;
3. Bolalarning "eski" va "zamonaviy" oilalardagi o'rni va funksiyalari.

Aresning g'oyasiga ko'ra, jamiyatning bolalarni qanday qabul qilishi va qay tarzda tarbiyalashi – bu butun bir madaniyatning asosiy tavsifno-masidir. Bunday ustanovkalarining o'zgarishi boshqa chuqur makrosotsial (masalan, oilaning strukturasi va funksiyasi bo'yicha) o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Fransiyalik afrikashunos, tarbiya etnologiyasi bo'yicha mutaxassis P. Ernining "Qora Afrikada bola va uning muhiti. An'anaviy tarbiya haqida ocherk" kitobi ham diqqatga sazovor. Muallif ushbu asarda ko'plab maxsus adabiyotlar va o'zining kuzatuvlariga tayangan holda, an'anaviy afrika institutlari tizimida bolaning o'rni va tarbiyasining umumiy holatini ko'rsatishga harakat qildi. U tadqiqotini "marosimiy" pedagogikaning mohiyati va uning zamonaviy pedagogikadan farqini qisqacha tahlil qilishdan boshlaydi, so'ngra alohida afrikacha

“bolalik madaniyati” mavjudligi masalasini muhokama qiladi. Shu o’rinda an’anaviy tarbiyaning zamonaviy jarayonlarga mos evolyusiyasiga alohida e’tibor qaratadi.

A. Shlegel va G. Barrilar etnologiya sohasida ushbu mavzu bo’yicha madaniyatlararo keng ko’lamli tadqiqotlar olib borganlar. Lekin, ular faqatgina turli jamiyatlarda initsiatsiya masalasini o’rganish bilan cheklanganlar.

“Avesto”da bolalarning sog’lom, bardam o’sishida atrof muhitning pokizaligi, jamoat joylari va er-xotin hamda bolalarning shaxsiy gigienasi maxsus qayd qilingan. Serfarzandlik rag’batlantirilgan. Zardusht Axuramazdadan “Serfarzand xonadonga nima berasan” deb so’raganda, u: “Bunday odamlarni o’z himoyamga olaman, hayotini farovon, rizqini mo’l qilaman”-deb javob beradi. Katta oilalar jamoa oqsoqoli tomonidan himoya qilinib, egizak tug’ilgan oilalarga bir juftdan sog’in sigir yoki sariq tuya hadya qilingan, davlat xazinasidan doimiy nafaqa belgilangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tarbiya insonni shakllantirish jarayonini boshqarishga qaratilgan maqsadli faoliyatdir. Tarbiyaning mazmuni, yo’nalishi, maqsadi va vazifasi kishilarning ijtimoiy munosabatlariga bog’liq. Kishi aynan mazkur munosabatlarga asosan hayotga biron-bir tarzda qaraydigan bo’ladi, tafakkuri orqali olamni anglaydi va o’zining unga nisbatan munosabatini shakllantiradi, muayyan axloq mezonlari ruhida tarbiya topadi.

Tahlillar va natijalar

Oilaviy tarbiya an’analarining o’ziga xosligi shundaki, u bolalarga ota-onalarning ota-onalik, qon-qarindoshlik xislatlarini uzatib, yoshlarning umumiy va hissiy rivojlanishnigina ta’minlab qolmasdan, balki, shaxsning mavjud imkoniyatlarini va axloqiy kamolotini ham o’stiradi. Aynan oilada bola o’z ota-onalarining farzandlariga bo’lgan mehr-muxabbatini, oila oldidagi burch mas’uliyatini, bola tarbiyasidagi tajribalarini o’zlashtiradi. Bunday shart-sharoit kelgusida bolalarning qanday ota yoki ona bo’lishiga zamin hozirlaydi va er yoki xotin sifatida oila oldidagi mas’uliyat hissini shakllantirib boradi. Shu sababli oilaviy tarbiya ta’sirchanligi, doimiyliigi, barqarorligi, serqirraligi bilan ajralib turadi. Unda hulq odobga doir tadbirlarni yoshlarga to’g’ri o’rgatish, maslahat berish, kattalarning tajribasi, oilaning yashash tarzi, muhiti, ota-onaning kasb-hunari, oila a’zolarining ma’naviy-ruhiy munosabatlari katta ahamiyatga egadir.

Tarbiya vositalari: bolalar o’yinlari, choyxorlik, bolalar gapi, yig’inlari, bolalarning kattalar bilan to’ylar, sayllar, marosimlarda qatnashishi, safarlarga chiqishi.

An’anaviy o’zbek oilasida bola yoshlikdan bir-biriga g’amxo’rlik qilishga o’rgatiladi, bu oilada ikkinchi va uchinchi farzand tug’ilishidan boshlanadi. Bola onasi buyurgan ishlarni bajaradi. Katta bola shundan boshlab vaqtini ukasi bilan o’tkazishga o’rganadi, ukasi bilan o’ynaydi, ovqatlanadi. Bolalar ko’paya borgan sari to’ng’ich farzandning ularga g’amxo’rlikning doirasi kengayadi, kichiklarga g’amxo’r bo’lib, onasiga yordam beradi. Ota-ona katta farzandidan kichik ukalariga mehr-shafqat, g’amxo’rlik talab etsa, kichiklardan akasi va opasining so’ziga quloq solish, uni hurmat qilish, ularga “aka”, “opa” deb, murojaat qilishni talab qiladi. Aksariyat o’zbek oilalarida yoshi kichiklar o’z aka yoki opalarini sizlab murojaat qilishlari ota-ona tomonidan talab qilinadi.

Tadqiqot jarayonida ota-onalarga “Farzand tarbiyasida kim sizga yordam bergan?” – deb savol berildi. Ma’lumotga ko’ra, respondentlarning 45 %ga ota-onasi, 31 %ga qaynota-qaynonasi yordam bergan bo’lsa, 24% i hech kimning yordamiga suyanmagan. Ota-onam javobi Andijonda

(50 %), qaynota-qaynonam javobi Farg'onada nisbatan yuqori bo'ldi (35,9 %), o'zi tarbiyalaganlar ko'rsatkichi Namanganda baland (36,4 %). Ayollar va erkaklarning javoblari solishtirilganda bola tarbiyasida ota tomonidan bobo va buvilarning yordami ko'proq bo'lishi aniqlandi. Chunki, 1 javobda erkaklar (64,8 %), 2 chi javobda ayollar nisbati yuqori (38,8 %).

Keksa yoshdagilar ota-onasining yordamiga ko'proq tayangan bo'lsa (53,5 %), yoshlar qaynota-qaynonasi tomondan ko'p yordam olmoqdalar. Shuningdek, katta avlodlarga nisbatan yoshlar orasida farzandlarini o'zi tarbiyalayotgan-lar ko'rsatkichi past (29,8 % va 17,9 % ga qarshi 8,7 %). O'rta (3-4 farzandli) oilalar ota-ona yordamidan ko'proq foydalanganlar, ko'p bolali oilalar ichida farzandlarini "o'zi tarbiyalagan"lar yuqori ko'rsatkichni tashkil etdi (28,6 %)[138]. Buning sababi, ko'p bolali oilalarda katta farzandlar kichik bolalarni parvarishlashda ota-onalariga yordam berishadi.

Bola tarbiyasida katta avlodning o'z mas'uliyatini his qilishi nafaqat o'zbeklarga, balki butun O'rta Osiyo xalqlariga xos xususiyatdir. An'anaviy oilalarda qaynonalar faqat bola 2-3 yosh bo'lgandan so'nggina kelinga mustaqil tarzda bola tarbiyasi bilan shug'ullanishga ruxsat berganlar. Agar oilada ikkinchi farzand tug'lsa, buvilarning roli yanada kuchaygan, shu kundan to'ng'ich bola to'la buvining tarbiyasiga o'tgan. Sababi, ayrim holatlarda bola onasini o'z ukasidan qizg'anishi mumkin[59]. Boshqa tomondan chaqaloq bilan band bo'lgan ona boshqa bolasining tarbiyasi bilan kerakli darajada shug'ullana olmaydi.

Demak, yuqorida keltirilgan fikrlardan shunday **xulosa** qilish mumkin; oilaviy tarbiya shaxs shakllanishida asosiy va hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi, chunki insonning ruhiyati, dunyoqarashi tarkib topadigan davr – go'daklik oila davrasida kechadi. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyalariga oilada asos solinadi. Oiladagi tarbiya sifati va ko'lam mazkur oilaning tuzilishi, shakli, tipi va undagi a'zolarining tarbiyaviy imkoniyatlariga ya'ni, ko'p bolalik yoki kam bolalik, bir necha avlodlarning birga yashashi, ota-onalarning mavjudligi, bolalarning jinsiy mansubligi, ota-onalarning ma'lumot darajasi, oila a'zolarining ijtimoiy ahvoli va tarbiyadagi mas'uliyatni his qilishlari kabi omillarga bog'liq bo'ladi.

Oilaviy turmush bilan jamiyat taraqqiyotining doimiy mushtarakligi tufayli jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham oilaviy muammolar uning ilg'or vakillari diqqat-e'tiborida bo'lgan. Oilaviy hayot jamiyat taraqqiyotida va farzandlarning kamolotida uchun shu qadar muhimki, xuddi shu bois uni biror soniya ham diqqat-e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir vazifasi bu tarbiyalashdir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Ota-ona — san'atkor, bola — san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir deb bejis ayishmagan donishmand xalqimiz. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan saqlab kelayotgan milliy urf- odatlarimiz, an'analarimiz (bola tarbiyasida ota-onadan tashqari, buvi-buva, qarindosh-urug', mahallaning ham ta'siri) bu borada katta ahamiyatga ega. Lekin ba'zan oilaning tarbiyaviy vazifasining susayishi va targ'ibot-tashviqot ishlarining kamligi natijasida oila a'zolari xulqida yomon odatlarning (ichish, chekish, narkomaniya, turli diniy oqimlar ta'siriga berilish, ma'naviy buzuqlik yo'lga kirish) paydo bo'lishi tashvishlanarli hollardan biridir. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining mazkur vazifasi darajasiga kiradi.

Xulosalar

Oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalash maqsadida olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosaga kelindi:

Buyuk allomalarimizning asarlarida bola tarbiyasi va uni oilada ijtimoiy hayotga tayyorlash zaruratining asoslanishi, oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashning pedagogik- psixologik xususiyatlari, bu borasidagi xorijiy tajribalar yoritilgan. Buning uchun mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilinib, oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashning dolzarb masalalari, yutuq va kamchiliklari, mulohazaviy jihatlari tasnif qilindi.

Oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashda ijtimoiy-maishiy komponentlarining o'zaro birligi va aloqadorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashda muhim omillardan-milliy tarbiya usullaridan samarali foydalanishga e'tibor qaratildi.

Oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashning pedagogik-profilaktik mazmunini muntazam takomillashtirib borishda ularni turli salbiy axborotlar ta'siri, g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan himoyalash, o'zaro ishonchni qaror toptirishga yo'naltirilgan "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlarini yo'lga qo'yish, ijtimoiy moslashuvini ta'minlash, individual hulq-atvorlarini hisobga olindi.

Oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashning quyidagi pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirildi: ta'limiy muhitni yaratish va mazkur jarayonda pedagoglar, xayriya fondlari nodavlat tashkilotlari ko'magi va ularning ishtirokini ta'minlash, ijtimoiy tarbiyaning individual, guruhiiy, jamoaviy shakllarini uyg'unlashtirish, bolada hayotiy maqsadlarni tarkib toptirish, shaxsiy tanlov asosida noto'liq oila bolalarini bo'sh vaqtini samarali tashkil etishning turli shakllariga jalb etish, hamkorlikda maxalla, maktab munosabatlarini yo'lga qo'yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni // Qonun xujjatlarima'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020y., 03/20/637/1313-son- T.:
2. Ғозиев Э. Г. Ўзбек халқи этнопсихологияси ва бола тарбияси // Ўзбек оиласининг этнопсихологик хусусияти мавзuidaги илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 1999
3. Маҳмудова Д.Й. Махсус таълим муассасалари тарбияланувчиларига малакали психологик хизмат кўрсатишнинг педагогик шарт-шароитлари: Пед. фанл. номз. ... дисс. – Т.: 2007. – 94-96-б.
4. Асқарова Ў.М. Меҳрибонлик уйлари тарбияланувчиларини ижтимоий ҳаётга тайёрлаш тизими. \ Монография.-Т.: “ Фан” нашриёти 2010.-171 б.
5. Мусурмонова О. Оилада бола тарбиясининг актуал масалалари. – Тошкент, 1998. Оила маънавияти – миллий ғурур. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999
6. – Мўминова Д. А Ўқувчиларда китобхонлик кўникмаларини шакллантириш механизми Монография- Т; Наврўз нашриёти 2020- 176б



PEDAGOG KADRLAR KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

Muhammadjon To'xtasinov G'ulomjon o'g'li

Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri

e-mail: muhammadjon_toht@mail.ru;

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab ta'limini isloh qilish va takomillashtirish, o'qituvchi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishga qaratilgan qator islohotlar, bu bo'yicha qabul qilingan qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar hamda pedagoglarga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish masalalari xususida fikr-mulohazalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: maktab ta'limini isloh qilish va takomillashtirish, huquqiy-me'yoriy hujjatlar, zamonaviy metodikalar, uzluksiz metodik xizmat tizimi, "hayot davomida ta'lim" prinsipi.

НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ

Тухтасинов Мухаммаджон Гуломжон углы

Заведующий кафедрой методики преподавания языков и социально-экономических наук национального центра обучения учителей новым методикам Наманганской области

e-mail: muhammadjon_toht@mail.ru;

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы ряда реформ, направленных на повышение профессиональной компетентности учителей-педагогов, вопросы реформирования и совершенствования школьного образования, рассматриваются нормативно-правовые акты, принятых по данному вопросу, а также по вопросам и проблемам непрерывного методического обслуживания педагогов.

Ключевые слова: реформа и совершенствование школьного образования, нормативно-правовые акты, современные методики, система непрерывного методического обслуживания, принцип "обучения на протяжении всей жизни".

REGULATORY AND LEGAL BASES FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHING STAFF

Tukhtasinov Muhammadjon Gulomjon ogli,

Head of the department of methodology of socio-economic sciences of Namangan regional national center of teaching new methodologies to teachers

e-mail: muhammadjon_toht@mail.ru;

Annotation. In this article, a number of reforms aimed at reforming and improving school education, increasing the professional competence of teachers and educators, a number of regulatory legal acts adopted on this issue and feedback on issues of continuous methodological service to educators were put forward.

Keywords: reform and improvement of school education, regulatory legal acts, modern methodologies, a system of continuous methodological service, the principle of "lifelong learning".

Kirish

Oxirgi yillarda ta'lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan katta e'tibor, tizimni har tomonlama yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan qator islohotlar tufayli maktab va uning hayoti tubdan o'zgarmoqda. Ta'lim tizimiga davlatning g'amxo'rliqi, jamiyatning munosabati keskin oshmoqda. Shu bilan birga o'qituvchi-pedagoglarni kasbiy-metodik salohiyatini oshirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti siyosatining ajralmas qismi sifatida davlatimizning ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish bo'yicha qabul qilgan qator huquqiy hujjatlarida ham o'z aksini topgan.

Adabiyotlar tahlili

So'nggi 5-6 yilda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish va takomillashtirishga qaratilgan qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni va "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4884-son qarori, 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori, 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida PF-134-son farmoni, 2022-yil 21-iyundagi "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-290-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 108-qarori, 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarori bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishi to'g'risida Nizom, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 5-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida" 372-sonli buyrug'i va shu buyruq bilan tasdiqlangan bir qator me'yoriy hujjatlar shular jumlasidandir.

Tadqiqot metodologiyasi. **Maqolada umumiy o'rta ta'lim** pedagog kadrlari kasbiy kompetentligini rivojlantirish ahamiyati va uning huquqiy-me'yoriy hujjatlarda aks etishi **tahliliy yoritib beriladi**. Pedagog kadrlarning ilmiy-metodik kompetensiyalari va kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan qator vazifalar va ularni amaliyotga joriy qilish masalalari **o'rganildi**.

Tahlillar va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" PF-134-son farmonida xalq ta'limini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ilg'or maktab direktori, namunali o'qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda shu mezonlar asosida rahbar va pedagoglar faoliyatini baholab borish, 2024-yil 1-sentyabrga qadar umumta'lim fanlaridan va boshlang'ich sinflar uchun milliy o'quv dasturlarini to'liq joriy etish vazifasi qo'yilgan[1]. Bu bilan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarini milliy o'quv dasturlari asosida ishlashga o'rgatish vazifasi yuzaga keladi. Shuningdek, farmonda Xalq ta'limi vazirligi (hozirgi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi)ga xalqaro tan olingan ta'lim dasturlarini joriy qilish tartibini ishlab chiqib, ularni o'quv jarayoniga joriy qilishga ko'maklashish, pedagog kadrlarni kompetensiyalarni va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy metodikalar bo'yicha o'qitish amaliyotini joriy qilish vazifalari qo'yilgan. Bu borada pedagoglarni qayta

tayyorlash va malakasini oshirish yo'nalishi hamda ta'lim dasturlarini takomillashtirish yo'nalishida bir qator vazifalar ko'rsatilgan. Farmonda 2023-yil 1-sentyabrga qadar pedagog kadrlarning umumta'lim fanlari bo'yicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish va azifasi qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" PF-134-son farmonida belgilangan vazifalarni ta'lim tizimiga joriy qilish xalq ta'limi tizimida metodik xizmat va metodik faoliyat yo'nalishida o'qituvchilar faoliyatini baholash, ta'lim dasturlarini joriy qilish, pedagoglarni yangi metodikalar bo'yicha ishlashga o'rgatish kabi bir qator yangi vazifalar yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-290-son qarori xalq ta'limida metodik xizmatni takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Qarorga ko'ra xalq ta'limidagi uzluksiz metodik xizmat tizimida yangi tuzilma – Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarida Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari tashkil etilishi belgilangan. Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari tomonidan respublika ta'lim markazining maxsus dasturi, shuningdek, yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalari asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari uchun malaka oshirish kurslari tashkil etiladi[2]. Bulardan ko'zlangan asosiy maqsad umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagoglarining kasbiy kompetensiyalari rivojlanishlari uchun ularga har tomonlama uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish tizimini muntazam va uzluksiz ravishda yo'lga qo'yishdir.

Ma'lumki, pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda metodik xizmatning o'rnini muhimdir. Metodik xizmat tizimida eng yuqori bo'g'in respublika ta'lim markazi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 108-son qarorida Respublika ta'lim markazining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

-ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullaridan keng foydalangan holda umumiy o'rta ta'limning o'quv rejalari va dasturlarini takomillashtirish hamda tajribasino'v ishlariga rahbarlik qilish;

-fanlarni o'qitish metodikasi va o'quvchilarning bilimlarini baholashning zamonaviy uslublarini ishlab chiqish, shuningdek ta'lim dasturlarining integratsiyalashuviga asoslangan o'qitishning fanlararo yondashuvini joriy qilish va bu boradagi ijobiy tajribalarni umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ommalashtirish;

-o'quv-tarbiya jarayoniga "STEAM" fanlarini (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – san'at, Mathematics – matematika) o'qitish bo'yicha ilg'or pedagogik texnologiyalar va boshqa maqbul metodikalarni joriy etish;

-umumiy o'rta ta'lim muassasalarida umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari va o'quvchilarning qiziqishlari asosida o'zgaruvchan (variantiv) o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqish;

-o'quv-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy metodikalarini joriy etishda pedagog kadrlarni metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti bajarilishini tizimli tahlil etish;



-darsliklar va o'quv-metodik majmualarni yaratish bo'yicha muallif va tuzuvchilarni tanlash, yaratilgan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni ekspertiza qilish, tajriba-sinovdan o'tkazish, ularni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha ilmiy xulosalar berish;

-darsliklar va o'quv-metodik majmualarning asl nusxa maketlarini yaratish va ko'paytirish;

-darsliklar va o'quv-metodik majmualarni yaratish bilan bog'liq ilmiy-texnikaviy loyihalarni amalga oshirishga jalb etiladigan mutaxassislarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularning faoliyat yuritishlari uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berish;

-zamonaviy talab va innovatsion yondashuvlar asosida darsliklar va o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini tayyorlash hamda nashr etishni tashkil etish;

-umumiy o'rta ta'lim sohasida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hamda tuzilmalar, xorijiy mamlakatlar milliy institutlari bilan hamkorlikni amalga oshirish;

-ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi jahonning yetakchi tashkilotlari va agentliklari bilan hamkorlikda xalqaro elektron ta'lim platformalaridan O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanishni tashkil qilish;

-Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (hozirda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi), Toshkent shahar xalq ta'limi (hozirda Maktabgacha va maktab ta'limi) bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi (hozirda Maktabgacha va maktab ta'limi) boshqarmalari, tuman (shahar) xalq ta'limi (hozirda Maktabgacha va maktab ta'limi) bo'limlaridagi metodik xizmat bo'linmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularga metodik jihatdan rahbarlik qilish;

-axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan o'qitish imkoniyati mavjud bo'lgan ta'lim shakllarini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish[3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-79-son farmoniga ko'ra o'quvchilar bilimni baholashning yangi tartibi joriy etiladi va bunda o'quvchilarning o'tilgan mavzularni amaliyotda qo'llay bilish, tanqidiy fikrlash va berilgan materialni tahlil qila olish kabi ko'nikmalari baholanadi. Barcha fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushi 60 foizga yetkaziladi. Bunda mavzular aniq bir muammoni hal qilish orqali o'rganiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son farmonida qo'yilgan vazifalarga e'tibor qaratisa, metodik xizmat yo'nalishida quyidagi vazifalar kelib chiqadi:

- o'qituvchilarni boshqachasiga dars o'tishga o'rgatish. Ya'ni, endilikda darslarni o'tish, o'quvchilarga topshiriqlar berish usullari va shakllari o'zgaradi. Ya'ni, dars mashg'ulotlari nazariy emas, ko'proq amaliy tarzda, biror bir muammoni yechish, loyiha yaratish va uni amaliyotga tatbiq qilish tarzida amalga oshiriladi.

-o'qituvchilarni yangi tartibdagi baholashga o'rgatish. Bunda faqat o'quvchilarning bilimi emas, balki ko'nikma, mustaqil fikrlash, pozitsiyalar, kompetensiyalar ham baholanishi kerak;

- fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar umumta'lim maktablari uchun tayanch maktablar etib belgilanadi. Bunda umumta'lim maktablar o'qituvchilari qaysidir fan bo'yicha tayanch etib belgilangan ixtisoslashtirilgan maktablar tomonidan yangi o'quv dasturlari, dars o'tishning ilg'or metodikalari va o'quvchilar bilimni baholashning zamonaviy usullariga o'rgatiladi[4].



Shuningdek, bugungi kunda o'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirish, uni ilg'or metodlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan qurollantirish ta'limni rivojlantirishning muhim omili sifatida muhim ahamiyatga ega. Bu esa xalq ta'limida metodik xizmat samaradorligini oshirishni, pedagoglarning metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirishni, metodik xizmatni takomillashtirishni taqozo etadi. Shunga ko'ra Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 5-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida" 372-sonli buyrug'i bilan pedagoglarning uzluksiz kasbiy mahoratini oshirish va metodik xizmat ko'rsatishning qator me'yoriy hujjatlari tasdiqlangan bo'lib, bular pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi[5].

Xulosalar

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi ta'lim sohasini zamon talabiga ko'ra modernizatsiya qilish, pedagog kadrlarni tayyorlashni tubdan yaxshilash, o'qituvchilar bilimi, malakasi va mahoratini oshirish, bu ishni "hayot davomida ta'lim" prinsipi bo'yicha uzluksiz kasbiy rivojlanishga aylantirish, ularni ta'lim sifatini kafolatlaydigan ilg'or texnologiyalar va metodikalar bilan samarali ishlay olishga o'rgatish va oxir-oqibatda ta'lim sifatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishdir. Pedagoglarga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishi ham ayni shu maqsadlarga qaratilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur 3, 5-band. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" PF-134-son Farmoni. 2022-yil 11-may.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-290-son Qarori 11-band. 2022-yil 21-iyun.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida VM-108-qarori. 2021-yil 26-fevral
4. To'xtasinov M., Bo'stonov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilariga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish. Uslubiy ko'rsatma. – Namangan VPYMO'MM, 2023. – B. 15.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining "Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida" 372-sonli buyrug'i. 2022-yil 5-dekabr.



BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN EVRISTIK TA'LIM METODLARI

Qodirov G'ayrat O'roqboevich
O'zPFITI mustaqil tadqiqotchisi, dotsent

Annotatsiya: ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda qo'llaniladigan evristik ta'lim metodlarining xususiyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, evristik ta'lim metodlari yordamida pedagogik jarayon loyihasining metodik ta'minotini amalga oshirish, pedagogik jarayonni loyihalashga oid nazariy ma'lumotlar, modellar, evristik ta'lim jarayonida ko'proq samara beradigan topshiriqlar sirasiga evristik hamda rivojlantiruvchi topshiriqlarni kiritish masalalariga oid taklif va tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, kasbiy kompetensiyalar, kasbiy bilimlar, evristik ta'lim metodlari. evristik topshiriqlar, didaktik xususiyat, evristik didaktik vositalar, tasniflash, loyihalashtirish, pedagogik jarayon tahlili.

HEURISTIC EDUCATIONAL METHODS USED IN DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS

Kadirov Gayrat Oroqboevich-Independent researcher of UzPFITI, docent

Abstract: in this article, the characteristics of heuristic education methods used in the development of professional competences of future teachers are studied. Also, implementation of methodical support of the project of the pedagogical process using heuristic educational methods, theoretical information and models related to the design of the pedagogical process, suggestions regarding the inclusion of heuristic and developmental tasks among the tasks that are more effective in the heuristic educational process, and recommendations are given.

Key words: future teacher, professional competencies, professional knowledge, heuristic teaching methods. heuristic assignments, didactic features, heuristic didactic tools, classification, design, pedagogical process analysis.

ЭВРИСТИЧЕСКИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ МЕТОДЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Кадыров Гайрат Орокбоевич-Независимый научный сотрудник УзПФИТИ, доцент

Аннотация: в данной статье исследуются особенности эвристических методов обучения, используемых в развитии профессиональных компетенций будущих педагогов. А также осуществление методического обеспечения проекта педагогического процесса с использованием эвристических методов обучения, теоретических сведений и моделей, связанных с проектированием педагогического процесса, предложений по включению эвристических и развивающих задач в число задач, более эффективных в эвристике. воспитательного процесса, даются рекомендации.

Ключевые слова: будущий учитель, профессиональные компетенции, профессиональные знания, эвристические методы обучения. эвристические задания, дидактические особенности,



эвристические дидактические средства, классификация, проектирование, анализ педагогического процесса.

Kirish

Evristik ta'lim metodini tasniflash maqsadida A.V. Xutorskoy evristik ta'lim faoliyatining asosiy turlariga e'tibor qaratgan edi. Xutorskiy mazkur faoliyatni tashkiliy, bilishga aslangan va ijodiy faoliyat turlariga ajratgan.

Kognitiv metodlar sirsiga:

- kognitiv metodlar yordamida ta'lim oluvchilar o'z hissiyotlari, kechinmalari, hissiy obrazli va fikriy tasavvurlari orqali o'rganilayotgan pedagogik hodisaning ichiga kiradilar, uni idrok eta boshlaydilar. Natijada pedagogik hodisaning chuqurroq his etish va bilishga muvaffaq bo'ladilar.

- fikran kirishish metodi: bo'lajak o'qituvchilarning e'tiborini o'rganilayotgan pedagogik hodisaga qaratish, unda ifodalangan g'oyani anglash, ichki xususiyatlarini bilib olishga undaydi. Bo'lajak o'qituvchilarda ushbu pedagogik hodisaning mohiyatini anglash undan foydalanish uchun zarur kayfiyat, hosil qilishga ko'maklashadi. Professor-o'qituvchilar ushbu jarayonda talabalarni yo'naltiruvchi savollar bilan murojaat qiladilar. Masalan, ushbu pedagogik hodisaning mohiyati nimadan iborat? Ushbu pedagogik hodisaning o'ziga xos jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi? Nega mazkur hodisa shu tarzda shakllangan, boshqacha bo'lishi ham mumkinmi? Uni boshqacha bo'lganda qanday tasavvur qilasiz?

- obrazli ko'rish metodi;
- ramziy ko'rish metodi;
- evristik savollar metodi nima? qanday? qaerda? nima uchun? nima bilan? qanday? qachon?

- qiyoslash metodi;
- aniq dalillarni soxta dalillardan farqlash metodi;
- evristik kuzatuv metodi, uning asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni kuzatish yordamida bilimlarni o'zlashtirish va konstruksiyalashdan iborat;

- evristik tadqiqot metodi bunda tadqiqot ob'ekti tanlanib, talabalarga uni aniq reja asosidan bosqichma bosqich o'rganish vazifasi topshiriladi. Talabalar esa ish rejasini tuzadilar, hodisa haqidagi dalillarni to'playdilar, o'z g'oyalarini tajriba-sinovdan o'tkazadilar, tajriba-sinov jarayonini modellashtiradilar, muammo haqidagi yangi dalillarni aniqlaydilar, muammolarni ko'rsatadilar, javoblarni turli variantlarini tahlil qilib aniq xulosalar chiqaradilar.

- konseptlar (o'zida yarautvchilikni ifodalagan innovatsion g'oyalar) qurish metodi, talabalar ongida mavjud bo'lgan innovatsion g'oyalar, ya'ni konseptlarni madaniy shakllar darajasiga kelturgunga qadar amalga oshiriladigan kreativ xarakterdagi o'quv harakatlari nazarda tutiladi.

- qoidalarni tuzish metodi, mazkur o'quv harakatlari talabalarga taqdim etilgan algoritmlar yordamida amalga oshiriladi.

- farazlarni ilgari surish metodi bunda turli variantdagi savollarga talabalar tomonidan qaytariladigan javoblar nazarda tutiladi.

- prognozlash metodi, mazkur metod rejalashtirilgan yoki aniq dalillarga aslangan vaziyatlarda qo'llaniladi.

- xatolar metodi, bunda konstruksiyalashtrish vaziyatlarida talabalar yo'l qo'yan salbiy xarakterdagi ijobiy xarakterdagi ko'rsatkichlar yordamida bartaraf etiladi.

- muayyan chizmalar asosida nazariyalarni vujudga keltirish metodi: savollarga qaytariladigan javoblar haqidagi farazlar, taklif qilinadigan pedagogik hodisalar haqida dalillar, ijodiy model, metodlarga oid tadqiqotlar, metodlar haqida farazlar, metodlarning qo'llanilishi, metodlarning madaniy modellar bilan qiyoslanishi nazarda tutiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Metodologik xarakterdagi metodlar sirasiga talabalar muammoni yaxlit tarzda tasavvur qilishi, oldingi yechimlarga tayanish va ularga qisman o'xshatish, saqlab olingan holatlarga tayanish, super nuqtai nazar shaklidagi tasavvurlar kiradi.

Ijodiy metodlar sifatida esa a) ixtirochilik metodi, bunda fikriy harakatlar yordamida ilgari noma'lum bo'lgan g'oyalari yaratiladi, shu bilan bir qatorda yangi boyitilgan yoki to'ldirilgan yondashuvlar tavsiflanadi; b) aqliy hujum metodi, bunda talabalarni turli zo'riqishlardan ozod qilgan holda imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish va to'plashga undaladi. Mazkur ishlar talabalarni bir necha guruhga bo'lgan holda g'oyalarni generatsiyalash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, g'oyalarni baholash, o'zaro to'qnash keladigan g'oyalarni generatsiyalash asosida amalga oshiriladi. G'oyalarni generatsiyalash talabalar guruhida alohida qoidalarga asoslangan holda amalga oshiriladi. G'oyalarni generatsiyalash bosqichida har qanday tanqidiy fikrni bayon qilish professor-o'qituvchi tomonidan cheklanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning betakror yangi g'oyalari, fikrlari rag'batlantiriladi. Guruh a'zolari tomonidan bayon qilingan barcha g'oyalari tizimlashtiriladi. Shundan keyin g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishga to'sqinlik qiladigan barcha holatlar ajratib olinib bartaraf etiladi. Mashg'ulot yakunida inkor etilmagan barcha g'oyalari tanlab olinadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida qo'llaniladigan evristik topshiriqlar ularda ifodalangan mazmunni o'ziga xosligida ifodalandi. Talabalarga taqdim etiladigan barcha topshiriqlar u yoki bu darajada ta'lim mazmuni bilan bog'liq bo'lib, aniq yechimlarga kelish imkonini berishi lozim. Talabalar barcha variantlar orasidan unumli harakatlanish imkonini beradiganlarini tanlab olishlari lozim. Umumiy-nazariy holatlarni ajratib olib qo'llash, aniq amaliy vaziyatlarda olingan natijalarni amaliy jihatdan qo'llash imkonini beradigan prinsiplarga tayanish, aniq amaliy vaziyatlarda muammolarni yechishga intilish, yechimlarga konstruktiv o'zgartirishlar kiritishga erishish kabilar bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyalarni egallashlari yaqindan ko'maklashadi. Bunday topshiriqlarni bajarish natijasida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalar muvaffaqiyatli shakllanib, ularning pedagogik amaliyotda samarali faoliyat ko'rsatish imkoniyatlari kengayadi.

Evristik ta'lim jarayonida ko'proq samara beradigan topshiriqlar sirasiga evristik hamda rivojlantiruvchi topshiriqlarni kiritish mumkin. Bunday topshiriqlar bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik jarayonga xos bo'lgan ko'plab sabab-oqibat bog'lanishlari, qonuniyatlari, bir qator topshiriqlarni yechishni umumiy belgilarini angash, o'rganilayotgan hodisaning tarkibiy qismlarini ajratishi va farqlash, noma'lum mavzuga aloqador bo'lgan tushunchalarni o'rganish va izohlash imkonini beradi. Dastlab evristik suhbatlarning alohida imkoniyatlarga egaligi ta'kidlangan edi. Chunki evristik suhbatlar bir xil imkoniyatga ega bo'lgan yagona mavzu doirasidagi topshiriqlar tizimini o'z ichiga oladi. Bu topshiriqlarning har biriga yechim topish umumiy muammoga yechim topish yo'lidagi muhim qadam bo'lib, bunday yechimlar talabalardan katta kuch talab qilmaydi. Bu jarayonda professor-o'qituvchilar topshiriqlarni bosqichma bosqich shakllantiradilar va talabalarda ularni yechishga nisbatan motivatsiya hosil qiladilar.



Muammoning murakkablik darajasi topshiriqlar orasida aloqadorlikning ta'minlanganligiga bog'liq. Bu jarayonda talabalar muammoni yechimini ta'minlaydigan asosiy topshiriqni aniqlaydilar va uni boshqa topshiriqlar bilan aloqadorligini anglashga erishadilar. Shuningdek qo'yilgan masalaning u yoki bu darajada mustaqilligi ham topshiriqlarning maqbul yechimini xizmat qiladi. Bir necha belgilar evristik topshiriqlarning xarakterini ifodalashga xizmat qiladi.

Evristik topshiriqlarni shakllantirishning samarali yo'llaridan biri qarama-qarshiliklardan foydalanishdir. O'zlashtirilgan bilimlar orasidagi qarama-qarshiliklar, muayyan xarakterdagi evristik topshiriqlarni bajarish imkonini beradigan bilimlarni muvaffaqiyatli qo'llash, oliy pedagogik ta'lim jarayonida samaradorlikni ta'minlash imkonini beradi hamda bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda mazkur yechimlar evristik xarakterdagi yangi topshiriqlarni shakllantirishni taqozo etadi. Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchilar muammoni ilgari o'zlashtirilgan bilimlar yordamida yechish xatolar olib kelishini anglashlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu o'rinda professor-o'qituvchilar evristik topshiriqlarni bajarish jarayonida vujudga kelgan qarama-qarshiliklarni chuqur tahlil qilib uning sabablarini aniqlashlari va mavjud kamchiliklarni baratarf etish yo'llarini izlab topishlari taqozo qilinadi.

Tahlil va natijalar

Evristik topshiriqlarni qo'llashning asosiy mohiyati shundaki mazkur jarayonda professor-o'qituvchilar bo'lajak o'qituvchilarni o'quv vazifalarini aniqlashga jalb etish maqsadida o'z fikrlarini qarashlarini asoslovchi izlanish algortimlarini taqdim etadilar. Talabalar esa ushbu algoritm yordamida aniq xulosalarni shakllantirish va formallashtirishga harakat qiladilar.

Bo'lajak o'qituvchilar evristik topshiriqlarni bajarishda evristik suhbatlardan unumli foydalanishlari talab etiladi. Bu jarayonda professor-o'qituvchilar talabalarga mazmun-mohiyatiga ko'ra o'zaro aloqador bo'lgan savollar bilan murojaat qiladilar. Bu savollardan har biri bo'lajak o'qituvchilarni o'quv vazifalarni yechishga yaqinlashtiradi hamda olib kiradi.

Evristik suhbatlarning mohiyati shundaki, bunday suhbatlarda ishtirok etgan talabalar yangi o'quv axborotlarini tahlil qilish ko'nikmasini egallaydilar. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad muayyan o'quv muammosini shakllantirish va uni yechish yo'llarini izlash ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Bunday yondashuv natijasida bo'lajak o'qituvchilar o'quv topshiriqlarni mustaqil bajarish va muammolarga yechim izlash kompetensiyasini egallaydilar. Professor-o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri bo'lajak o'qituvchilarga evristik topshiriqlar yordamida qo'yilgan muammoga to'g'ri yechim topish yo'llarini ko'rsatishdan iborat.

Evristik metodlar va ularning ko'rinishlari.

Evristik ta'limning asosiy metodlari va shakllari bo'lajak o'qituvchilarni ta'limda yangi natijalarni qo'lga kiritishga undashdan iborat. Talabalarni yangi natijalarga erishishga undovchi bunday metodlar sirasiga esselar yozish, ishlanmalar, san'at asarlari yaratish, tanlovlarda ishtirok etish kabilarni ko'rsatish mumkin. Mazkur jarayonda bo'lajak o'qituvchilar ish turiga xos bo'lgan evristik topshiriqlarni bajaradilar.

Evristik ta'lim o'qitishning quyidagi shakllarini o'zida mujassamlashtiradi:

1. Talabalarni mustaqil izlanishga jalb qiluvchi ta'lim. Bunda bo'lajak o'qituvchilar o'rganilayotgan pedagogik xodiisalarning mohiyatini va o'ziga xosliklarni chuqur anglab yetadilar va his qiladilar. Mazkur jarayonda ularga sezgilari yaqindan yordam beradi.



2. Talabalarni o'quv jarayonining asl mohiyatini ko'ra olishga undovchi ta'lim jarayonlari. Bunda talabalar ayni bir vaqtning o'zida ko'rish va mantiqiy jihatdan tushunib yetish orqali o'rganilayotgan hodisaning mazmun-mohiyatini to'liq anglab yetishga muvaffaq bo'ladilar.

3. Pedagogik muammolarni ramziy ko'rishga asoslangan ta'lim jarayoni. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik hodisalar ustida tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida muammoning asl mohiyatini turli ramzlar orqali ko'rishga muvaffaq bo'ladilar.

4. Pedagogik hodisalarni obrazli ko'rish va tasavvur qilishga asoslangan didaktik jarayonlarda bo'lajak o'qituvchilar o'zlari ko'rgan, tasavvur qilgan holatlarni chizmalarda ifodalab, voqelikni modellashtirishga muvaffaq bo'ladilar.

5. Evristik savollar metodi yordamida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar. Mazkur jarayonda talabalar professor-o'qituvchilar qaysi pedagogik hodisalar ustida fikr yuritilayotganligini tushunib yetishga harakat qiladilar. Shu maqsadda ular professor-o'qituvchilarga tayanch savollar bilan murojaat qiladilar va professor-o'qituvchilar tomonidan qaytarilgan javoblarni mantiqiy jihatdan tahlil qilishga erishadilar.

6. Giperbolizatsiya metodi yordamida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar. Mazkur jarayonlarda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik hodisalari haqidagi bilimlarini boyitish yoki uning qismlari haqida tasavvur hosil qilish nazarda tutiladi.

7. Agglyutinatsiya metodi yordamida pedagogik jarayonlar. Bunda talabalar ob'ektiv borliqda o'zaro aloqadar bo'lmagan narsalar orasida o'zaro mantiqiy aloqadorlikni hosil qilishga intiladilar.

8. "Aqliy hujum" metodi yordamida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar. Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchilar professor-o'qituvchilar tomonidan qo'yilgan evristik topshiriqlar yordamida muayyan pedagogik hodisa haqida ko'proq material yig'ishga muvaffaq bo'ladilar. O'rtaga tashlangan har qanday g'oya qabul qilinadi, yozib olinadi, shundan keyin ular talabalar tomonidan har tomonlama tahlil qilinadi.

9. Sinektika metodi yordamida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar. Mazkur pedagogik jarayonlar ham "aqliy hujum" metodiga tayangan holda tashkil etiladi. Bunda ayni bir pedagogik hodisaning o'zaro o'xshash bo'lgan turli jihatlari ko'rib chiqiladi. Shu bilan bir qator inversiyalar assotsiatsiyalar ustida fikr yuritiladi. Talabalar orasidagi muhokamalar professor-o'qituvchilarning umumiy ko'rsatmalari asosida amalga oshiriladi.

10. Morfologik tadqiqot metodi asosida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar. Bunda talabalar yangi va favqulodda kutilmagan fikrlarni izlab topish va muhokama qilishga oid o'quv harakatlarni amalga oshiradilar. Qo'yilgan evristik topshiriq yordamida o'rganilayotgan pedagogik hodisalar chuqur tahlili qilinadi va ular ustida turli kombinatsiyalar amalga oshiriladi.

Xulosa

Yuqoridagi ta'kidlab o'tilganidek evristik topshiriqlar bir qator imkoniyatlarga ega bo'lishi barobarida ayrim kamchiliklardan ham xoli emas. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida evristik topshiriqlardan foydalanishning afzalliklari shundaki,

1. Mazkur topshiriqlar talabalarning mustaqilligi va tashabbuskorligini rivojlantiradi.
2. Bo'lajak o'qituvchilarda muammolarga yechim izlashga yo'naltirilgan ichki motivatsiyani shakllantiradi.

3. Bo'lajak o'qituvchilarda o'quv jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvni tarkib toptirib, o'quv jarayoniga o'zlashtirgan bilimlari, ko'nikmalari va



kompetensiyalaridan foydalanilgan holda muammoli vaziyatlar va topshiriqlarni yechishga undaydi.

4. Talabalar orasida shaxslararo ijobiy ishchan munosabatlarni mustahkamlaydi, talabalar jamoasi orasida samarali hamkorlik muhitini vujudga keltiradi.

5. Bo'lajak o'qituvchilarda o'z o'zini namoyon qilish, o'quv materialini samarali o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. O'quv jarayonida evristik topshiriqlarni qo'llash jarayonida kuzatilgan kamchiliklarning asosiysi vaqt sarfining ko'pligidir. Shuning uchun ham evristik topshiriqlardan barcha pedagogik jarayonlarda birdek foydalanish imkonsiz. Shu bilan bir qatorda bunday topshiriqlar talabalarning bilimlarni o'zlashtirish va rivojlanish darajalari, kasbiy kompetensiyalarning shakllanganligi bilan bog'liq holda qo'llaniladi. Shuningdek evristik topshiriqlar talabalarda bilish faoliyatiga oid ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini hisobga olgan holda taqdim etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 29 oktabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son farmoni. <https://lex.uz>
3. Авалиани Г.В. Эвристические методы в распознавании образов. - Тбилиси, 1988. - 45 с.
4. Аверин В. А. Психическое развитие детей младшего школьного возраста: Учеб. пособие С.Пб.: Изд-во Михайлова В. А., 2000. - 64 с.
5. Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий таъкил этишнинг назарий асослари: Пед. фан. док. дисс... –Т.: 2003. – 320 б.
6. Батяева Т.А. Системно-целевой подход в применении эвристических приемов к обучению студентов решению нестандартных задач: Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Казань, 2000. – 26 с.
7. Сафарова Р.Г. Computer-didactic support for the training of social sphere specialists at the university based on a cultural approach. International conference: Problems in the Textile and Light Industry in the Context of Integration of Science and Industry and Ways to Solve Them (PTLICISIWS-2022). 050009 Scopuz, Web of Science indexed. <http://pubs.aip.org/aip/acp>
8. Сафарова Р.Г. Possibilities of Approaching the Educational Process From the Point of View of Cultural Sciences. Miasto Przyszłości Kielce 2023. ISSN-L: 2544-980X. Impact Factor: 9.2 [View of Possibilities of Approaching the Educational Process From the Point of View of Cultural Sciences \(miastoprzyszlosci.com.pl\)](http://miastoprzyszlosci.com.pl)
9. Машарипова Н.Р. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari. International scientific and practical conference "Innovative development in the global science"/ 2023, Boston, USA. P 95-97. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7111515>
10. Машарипова Н.Р. As a source of critical thinking in students of Amir Temur's activities. Best Journal of innovation in science Research and Development. ISSN 2835-3579. Volume:2Issue:6|2023www.bjisrd.com. p- 509-511.



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТASHKILOTLARIDA NUKSONLI BOLALAR BILAN ISHLASHNING ASOSIY MUAMMOLARI

Qodirova Naimaxon Abdiquodirovna-Namangan shahar maktabgacha ta'lim bo'limi Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini hamda o'qitishning muqobil shakllarini tashkil etish sho'basi mudiri

Аннотация. Мақоллада, мактабгача та'лим ташкилотларида нуқсонли болалар билан ишлаш жараёнининг асосий муаммолари, улардаги та'лим оlish қобилиyatини ва о'zaro aloqalarini қандай та'sir қилаishi mumkinligi kuzatiladi. Shuningdek, ularning o'ziga xos ehtiyoj va talablari bo'ylab tayyorlanishi, o'qituvchi va ota-ona qo'llab-quvvatlashi, o'quv dasturining ulardagi qiziqishlariga mos keluvchi vaqtlar va usullarni aniqlash kabi muddatlarni o'z ichiga oladi. Muqobil, nuksonli bolalar bilan ishlash jarayonida o'qituvchilar va ta'limiy tashkilotlar uchun tadbirlar va yo'llar e'tibor talab etadi. Bu maqolada, ularning o'ziga has ta'lim olish usullari, qo'llab-quvvatlash va motivatsiyalashishning ahamiyati, ijtimoiy muhitga integratsiya va inkluziv ta'lim muammolari, nuksonli bolalarni o'zlashtirish va ularga yordam berishning muhimligi kabi muhim masalalar keltirilishi mumkin.

Калит so'zlar: нуқсонли болалар, ишлаш, асосий муаммолар, мактабгача та'лим ташкилотлари, та'лим оlish қобилиyatи, о'quv жараёни, о'qituvchilar, motivatsiya, qo'llab-quvvatlash, inkluziv ta'lim, o'zlashtirish, talabalar bilan ishlash, tashkilotlar, o'quv dasturi, ijtimoiy muhit

ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАБОТЫ С ДЕТЬМИ-ИНВАЛИДАМИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Кадырова Наимахон Абдикодировна,
Отдел дошкольного образования города Намангана
Государственное и негосударственное дошкольное образование
деятельность организаций и обучение
руководитель отделения организации альтернативных форм

Аннотация. В статье рассматриваются основные проблемы процесса работы с детьми с ОВЗ в дошкольных образовательных организациях, как они могут повлиять на их способность к обучению и их взаимодействия. Он также включает такие термины, как подготовка к их уникальным нуждам и требованиям, поддержка учителей и родителей, а также определение того, когда и как учебная программа соответствует их интересам. Требуют внимания мероприятия и способы педагогов и образовательных организаций в процессе работы с альтернативными, дефективными детьми. В данной статье могут быть представлены такие важные вопросы, как их уникальные методы обучения, важность поддержки и мотивации, проблемы интеграции в социальную среду и инклюзивного образования, важность овладения и помощи детям с ограниченными возможностями.

Ключевые слова: дети с ОВЗ, успеваемость, основные проблемы, дошкольные образовательные организации, обучаемость, образовательный процесс, педагоги, мотивация, поддержка, инклюзивное образование, освоение, работа с учащимися, организации, учебная программа, социальная среда.



MAIN PROBLEMS OF WORK WITH DISABLED CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Kadyrova Naimakhan Abdikodirovna,
Department of preschool education of Namangan city
State and non-state preschool education
activities of organizations and training
Head of the Department of Organization of Alternative Forms

***Annotation.** The article discusses the main problems of the process of working with children with disabilities in preschool educational organizations, how they can affect their ability to learn and their interaction. It also includes terms such as preparing for their unique needs and requirements, supporting teachers and parents, and determining when and how the curriculum is aligned with their interests. The activities and methods of teachers and educational organizations in the process of working with alternative, handicapped children require attention. This article can present such important issues as their unique teaching methods, the importance of support and motivation, the problems of social integration and inclusive education, the importance of mastering and helping children with disabilities.*

***Keywords:** children with disabilities, academic performance, main problems, preschool educational organizations, learning ability, educational process, teachers, motivation, support, inclusive education, development, work with students, organizations, curriculum, social environment.*

Kirish

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nuksonli bolalar bilan ishlash muhim va jiddiy mavzu hisoblanadi. Ularga tayanch muhit va yuqori samaradorlikni ta'minlash maqsadida, kelajaklarini yaxshi tayyorlash zarurdir. Nuksonli bolalar bilan ishlash jarayonida quyidagi asosiy muammolar ko'rsatilishi mumkin:

1. **Individual tayyorgarlik:** Nuksonli bolalar o'zaro aloqada va ta'lim olishda har bir foydalanuvchi o'zining xususiyatlari va o'zaro farqlariga ega. Maktablar ularni maxsus tayyorlash vaqtini va resurslarini ta'minlashga intiladilar.

2. **O'qituvchilar tayyorligi:** Nuksonli bolalar bilan ishlash o'qituvchilardan keng ko'nikmalar va ma'lumotlar talab qiladi. Ularning tarbiyalash va o'qish texnikalarini o'rganishlari, ta'limning nuksonli bolalar uchun qanday tashkil etilishi kerakligini tushunishlari kerak.

3. **Individual yondashuv:** Har bir nuksonli bola o'zining yondashuv va tayyorlash darajasida farqli bo'lishi mumkin. Ularni yaxshi tanish va talabalarini yaxshi tushunish, ularning individual o'qish usullarini aniqlash va ularga mos maqola va materiallarni taqdim etish o'qituvchilar uchun muhimdir.

4. **Ota-ona va oila bilan hamkorlik:** Nuksonli bolalar oilalarining yordam va qo'llab-quvvatlashi shart. Maktablar ota-onalarni ta'lim jarayoniga qatnashishga o'rgatish, ularga o'z vaqt vaqtida yordam bermoq, ularga ta'lim tizimi va resurslar haqida ma'lumot berishadi.

5. **Psychological va ma'naviy yordam:** Nuksonli bolalar psixologik va ma'naviy yordamga muhtoj bo'lishlari mumkin. Ularning o'z o'zining uning talablarini tushunish, o'z-o'zini ifoda qilish va do'stlar bilan o'zaro aloqalarini rivojlantirish uchun tayyorlash zarur.

6. **Inkluziv ta'lim:** Nuksonli bolalar bilan ishlashda inkluziv ta'lim prinsiplariga amal qilish muhimdir. Ularning har birining o'zining ta'lim darajasi va potentsiali borligini tushunish va

ularni umumiy ta'lim jarayoniga qo'shishni ta'minlash maqsadida tashkilotlar ko'proq intilishlari kerak.

7. Resurslarni ta'minlash: Nuksonli bolalar bilan ishlashda maxsus tashkilotlar, dasturlar va resurslar talab qilinadi. Bu resurslar, ularga mos maqollar va vazifalar taqdim etish, ularga yordam bermoq va ularga maxsus o'quv vositalarini taqdim etishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nuksonli bolalar bilan ishlash muammolari jiddiy va kengaygan mavzu bo'lib, ularga yechish uchun individual, jamoaviy, va tashkilot darajasida yondashuv va koordinatsiyani talab qiladi. Bu muammolarni yechish uchun ta'lim tashkilotlarining innovatsion yechimlarni qo'llab-quvvatlashi va o'qituvchilar, oilalar, psixologlar, va nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nuksonli bolalar bilan ishlash muammosi bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda katta e'tiborga sazovor bo'lgan bir muzgacha bo'lib, bu tashkilotlar uchun muhim va cheklangan mavzulardan birini tashkil etadi. Nuksonli bolalar (eng yaqqol, yosh bolalar, to'rtinchi jahon davlatlari talabalari va boshqalar) bilan ishlash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Nuksonli bolalarni qabul qilish, ta'lim dasturlarini tuzish va ularga yuqori sifatli o'qitish-tarbiyaviy xizmat ko'rsatish uchun zamonaviy tizimni rivojlantirish muhimdir. Bunday tashkilotlarning talabalarga moslashtirilgan va individual o'zgaruvchan ta'lim yo'nalishlari bo'lishi kerak, chunki har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlari va o'zgaruvchanliklari mavjud.

Nuksonli bolalar o'rtasida ma'naviy ta'sir qozonish, ularning o'z-o'zini qabul qilish, o'z-o'ziga ishonish, shaxsiy o'zgina qobiliyatlarini aniqlash va oshirish, ta'lim muhitida ijtimoiy aloqalar qurish kabi masalalar uchun tayyor bo'lishlari muhim. Bu muammo, ularga ta'lim olish va o'zlarini rivojlantirishda ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ma'naviy quvvatlanishni talab qiladi. Nuksonli bolalarning har biri o'zining o'ziga xos ta'lim usullariga va xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Bunday holatda, o'qituvchilar o'zlarning ta'lim usullarini har bir talabaga moslashtirishni va ularning o'ziga xos o'rganish yo'nalishlarini aniqlashni bilishi kerak. Nuksonli bolalar o'z ta'limi davomida ijtimoiy muhitga kirishadi. Ular bilan boshqa talabalar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoa o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va tashkilotlararo hamkorlik muhimdir. Bu integratsiya ularga qo'pol tarkibiylik va qabul qilishni his qilish imkoniyatini beradi. Nuksonli bolalarning yaxshi ta'lim olishlari uchun ota-onalar va oilalar ko'rsatkichlarining muhim ahamiyati bor. Ularning maktab tashkiloti bilan o'zaro hamkorlik qilishi, ta'lim jarayonini o'zgartirish va talabalarning o'zlashtirilishini yaxshi ko'rishlari muhimdir.

Nuksonli bolalar bilan ishlashning maqsadi ularga o'zlarini rivojlantirish, o'z-o'zlarini qabul qilish va o'zlashtirishda yordam berishdir. Ularning o'zlariga mos keladigan yutuqlar va natijalar ta'lim tizimining muvaffaqiyatini o'lchashning muhim indikatorini hisoblanadi. Nuksonli bolalar o'z o'zlashtirilish yo'nalishlarida iqtidor va kasb-hunar ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Bu ularni o'zlarining mustaqil hayotlarida foydalanishga yordam beradi.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nuksonli bolalar bilan ishlashning asosiy muammolari individual, ijtimoiy, ta'limiy, ma'naviy va maqsadiy xususiyatlardan iborat bo'lib, ularni yaxshi o'qitish va o'zlashtirishda yordam berish uchun integratsiyani talab qiladi. Bu muammolar yanada yuqori sifatli ta'lim tizimi va o'qituvchilar, o'quvchilar, oilalar, ota-onalar va jamoa tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni oshirish orqali hal qilinishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nuksonli bolalar bilan ishlashning muammolari o'quv jarayonida va ta'lim muhitida turli darajada paydo bo'ladi. Bu muammolar o'quvchilarning o'zaro aloqalarini, ota-

onalar va o'qituvchilarning murojaatlarini hamda ilmiy tadqiqotlarni qamrab oladi. Quyidagi muhim muammolar maqolada ko'rsatilgan.

Individual fikrlar va o'zgaruvchanliklar: Nuksonli bolalar shaxsiy taraqqiyotlari, o'quv usullari, yondashuv va o'quv materiallariga qanday ta'sir qilishi kerakligi mavzusida o'z fikrlarini ifodalashlari mumkin. O'quvchilar o'zlarini qanday o'rganishlari va tushunishlari kerakligi, bu esa o'qituvchilar uchun amaliy muammolarni tugatishni talab qiladi.

Ta'limning individual xususiyatlari: Har bir o'quvchi o'z tuzilish, o'ziga xos talantlari va qobiliyatlariga ega. O'qituvchilar nuksonli bolalarning bu xususiyatlari bilan qanday ishlashlari kerakligini tushunib, ularga maxsus ta'limni taqdim etish va ularning yuqori samaradorlik darajasiga erishish uchun qanday yondashish kerakligini bilishi kerak.

Ota-onalar va o'qituvchilar bilan hamkorlik: Nuksonli bolalarning ta'limi ota-onalar va o'qituvchilar bilan hamkorlik qilishni talab qiladi. Bu, maqsadga erishish va o'quvchining iste'dodlarini oshirish uchun juda muhimdir. Ota-onalar o'qituvchilar bilan birgalikda o'quvchining qanday yaxshi tushunishini va o'rganishini tushunishlari kerak.

Ijtimoiy ta'sir: Nuksonli bolalar o'quv jarayonida boshqa o'quvchilar va o'qituvchilar bilan aloqalarini his qilishlari mumkin. Ularning ijtimoiy tarqalishlari, o'zlarini qanday his qilishlari va o'zaro hamkorlikni qanday rivojlantirishlari mavzusida o'qituvchilarning qiziqishini oshirishi mumkin.

Murakkab o'zlashtirish: Agar nuksonli bolalar murakkab o'zlashtirishlarga ega bo'lsa (masalan, isyon, intellektual boshqarish muammosi), ularni qanday yordam bera olish kerakligi hamda ularga individual yordam ko'rsatish kerakligi o'qituvchilar uchun muhimdir.

Kengash va maslahatlar: Nuksonli bolalar bilan ishlashda o'qituvchilar o'z ta'lim markazlarining ichki kengashi va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilishlari kerak. Bu, nuksonli bolalarni yaxshi tushunish va o'rganish yollari, ularga yordam bera olish va ularga individual ta'lim yo'nalishlarini belgilashda yordam berishi mumkin.

Maqolada ko'rsatilgan muammolar nuksonli bolalarni o'qituvchilar va ta'lim tashkilotlarining ko'maklashishi, ularga eng yaxshi ta'limni taqdim etish va shaxsiy taraqqiyotlarini oshirishga yordam berishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nuksonli bolalar bilan ishlash muddati o'tgan yillarda o'rnatilgan yangiliklar va tashkilotlar oldida yangi muammolar va masalalar paydo bo'lishi mumkin. Nuksonli bolalar bilan ishlashda quyidagi asosiy muammolar belgilanishi mumkin:

Difabilitatsiyaga ega bo'lgan talabalarni o'qitish usullari: Difabilitatsiyaga ega bolalar tarkibiy ma'ruzalar, intellektual rivojlanish yoki yurish va harakat qobiliyatlarida chegaralar bilan kelishi mumkin. Ular uchun qulay o'qitish usullari va maxsus qo'llanmalar tayyorlash shart. Maxsus o'quv jihozlari va kadrlar: Nuksonli bolalar bilan ishlash uchun mutaxassis o'qituvchilar, psixologlar, terapevtlar va boshqa tajribali kadrlar zarur. Ularga qulay sharoit yaratish va ularga yuqori darajada ta'lim berishga qodir bo'lgan maxsus o'quv jihozlari ta'minlash muhimdir.

Har bir nuksonli bola o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Ular o'zaro farq qiladigan o'quv usullarini va rejalarni talab qilishi mumkin. Bu esa har bir talabning potentsialini aniqlash va o'rganish jarayonini mustahkam qilishni talab qiladi. Nuksonli bolalarni o'qitishning muhim qismi - ma'muriyat va ota-ona qo'llab-quvvatlash. Ota-ona va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlik, talabalarning o'quv jarayonida qanday yordam berish kerakligini tushunish, ularga yuqori darajada ehtiros va o'zodlik ta'minlash muhimdir.



Integratsiya va inkluziya: Nuksonli bolalar bilan ishlashda integratsiya va inkluziya prinsiplari muhimdir. Bular, nuksonli bolalar va o'rtacha talabalar o'rtasida o'zaro aloqani rivojlantirish, jamoatga qo'shilishni ta'minlash va har bir talabaning imkoniyatlarini o'rgatishga yordam beradi. Nuksonli bolalar uchun yaratilgan texnikaviy vositalar, maxsus ta'lim dasturlari va o'quv materiallari ta'minlash muhimdir. Bu, ularning o'rganish jarayonini yanada qulay va samarali qilishga yordam beradi. Nuksonli bolalar o'rtasida yoshlari, talabalarning ijtimoiy va psixologik tashvishlari bo'lishi mumkin. Ular bilan boshqa talabalarni qo'shib, ularga yuqori darajada tashvishsiz va o'zgina muhit yaratish, ularning o'zlarini rivojlantirishiga qo'llanma berish kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nuksonli bolalar bilan ishlashning asosiy muammolari yuqoridagi nuqtalarni o'z ichiga oladi. Bu muammolarni hal qilish uchun ma'muriyatning, ota-ona va o'qituvchilar tajribasini va ko'nikmalarini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va yaratilayotgan yangi o'qitish texnologiyalari va usullaridan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Васильева Т.И. Работа с детьми с особыми образовательными потребностями в дошкольных учреждениях.
2. Баженова Л.А. Инклюзивное образование в дошкольных учреждениях.
3. Иванова Н.В. Психологическая помощь детям с ОВЗ в дошкольном возрасте.
4. Смирнова А.В. Особенности социализации детей с ОВЗ.
5. Мельникова Е.С. Развитие коммуникативных навыков у детей с нарушениями развития.
6. Леонтьева Е.В. Коррекционная работа с детьми с задержкой психического развития.
7. Фролова Н.В. Педагогическая поддержка детей с нарушениями слуха и зрения в дошкольном образовании.
8. Соколова О.И. Индивидуализация образовательного процесса для детей с ОВЗ.
9. Мартынова И.А. Психолого-педагогическая помощь детям с аутизмом в дошкольных учреждениях.



“ILK QADAM” DAVLAT O’QUV DASTURI ASOSIDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH MAZMUNI

Zulayho Rashidova-Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti 3- bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi asosida bolalarni maktabga tayyorlash mazmuni haqida so’z boradi. Maqola mazmunini ochib berish maqsadida xorijlik va mahalliy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlanmalaridan foydalanildi.

Kalit so’zlar; “Ilk qadam”, o’quv dasturi, davlat, ta’lim tizimi, 6-7 yoshli bola.

СОДЕРЖАНИЕ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ К ШКОЛЕ НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЫ «ПЕРВЫЙ ШАГ».

Зулайхо Рашидова – базовый докторант 3 ступени Института переподготовки и повышения квалификации руководителей и специалистов дошкольных образовательных организаций

Аннотация: В данной статье говорится о содержании подготовки детей к школе на основе государственной учебной программы «Первый шаг». Для раскрытия содержания статьи использованы научно-исследовательские разработки зарубежных и отечественных ученых.

Ключевые слова; «Первый шаг», учебная программа, государство, система образования, ребенок 6-7 лет.

THE CONTENT OF PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL BASED ON THE "FIRST STEP" STATE CURRICULUM

Zulayho Rashidova - 3rd stage basic doctoral student of the Institute for retraining and professional development of directors and specialists of preschool educational organizations

Abstract. This article talks about the content of preparing children for school based on the “First Step” state curriculum. In order to reveal the content of the article, the scientific-research developments of foreign and local scientists were used.

Keywords; “First step”, curriculum, state, education system, 6-7 year old child.

Kirish.

Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang’ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o’z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagilar nazarda tutiladi:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang’ich ta’limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

- maktabgacha ta'limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang'ich ta'lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish;
- mashg'ulotlar davomiyligining eng maqbul vaqtini va ularning ketma-ketligini aniqlash maqsadida o'quv rejalari va ta'lim dasturlarini optimallashtirish;
- bolalarni sog'lom turmush tarzini yuritishga o'rgatish, gimnastika va faol o'yinlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish orqali tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va sportga qiziqish uyg'otishni shakllantirish, jismonan sog'lom o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash;
- bolaning kelgusida o'zini o'zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish.

Kommunikativ kompetensiya – atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo'lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o'yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati. Bu kompetensiyaga nutqni rivojlanish ham kiradi. Nutq bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi hamda dunyoni bilishi uchun zarur vositadir. Mazmunga boy va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitida bolalar og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar, bu ularga o'zlariga ishonishga, boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatishga, dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirishga, mashg'ulotlarda ishtirok etishga va loyiha ishlarini jamoa bo'lib bajarishga yordam beradi. Bolalar kattalar va boshqa bolalar tomonidan tushunilishlari uchun o'zlarini namoyon etishlari mumkin. Ular aytilganlarni tushunish uchun tinglaydilar va kuzatadilar; savol va topshiriqlarni eshitadilar va shunga mos javob berishadi. Ular nutqni, ayniqsa o'qish va yozishni o'z ichiga olgan mashg'ulotlarga ijobiy qarashadi. Ular nutqning turli shakl va funksiyalarini biladilar, ulardan foydalanadilar va kerak bo'lganda ularni turli xil muloqot holatlarida moslashtiradilar. Bu kompetensiya, shuningdek, axborot olish uchun turli xil aloqa vositalari va kanallardan mustaqil foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi; ta'lim olishi va rivojlanishida foydalanish uchun kerakli ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tanlash, ularni tartibga solish, o'zgartirish, saqlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasidagi ta'lim va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

- o'z "Men" i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo'llarini topadi.
- o'z "Men"i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo'llarini topadi.

"Men" konsepsiyasi bo'yicha bola o'zini o'ziga xos xususiyatlari bilan, ijobiy shaxs sifatida qabul qiladi, mustaqil va o'z xatti-harakatiga javob beradi. Mustaqillikka intiladi, o'zining oilaviy, gender mansubligiga ijobiy his-tuyg'ularni anglaydi va farqlay oladi. asta sekin

o'zining millati, tili va o'z madaniyatining muhim elementlarini biladi. O'ziga yuklatilgan majburiyatlar asosida faoliyatni tashkil qiladi.

6-7 yoshdagi bolalar hissiyotlar va ularni boshqarish ko'nikmalarini egallaydi. Xususan o'zining va o'zgalarning hissiyotlarini anglashga va o'zining hissiyotlarini moslashtira oladi. ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyotlarini nazorat qiladi, turli ijtimoiy vaziyatlarga emotsional munosabat bildiradi, o'z hissiy holatini izohlab berishi mumkin. Boshqa insonlar yoki badiiy asarlar qahramonlari hissiyoti haqida so'zlaydi va o'zini yomon his etayotganlarga hamdardlik bildiradi va yupatadi.

Mazkur yoshda ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot malakalari rivojlanadi. Kattalar va tengdoshlar bilan oson muloqotda bo'ladi va qiyin vaziyatlarda amaliy yechim qidiradi. Boshqalar xatti-harakatiga o'z taassurotlarini bildiradi;. O'zgalar yutug'iga quvonganligini namoyon etadi. nizolarni hal etishda bir necha metodlardan foydalanadi (tinchlantiradi, o'z o'yinchog'ini beradi, muloyim so'zlar aytadi). O'yinlar o'ylab topadi, syujetli, rolli o'yinlar, turli ertaklarni sahnalashtirishda ishtirok etadi.

6-7 yoshli bolalarni o'qitish majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhleri dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ta'lim sektori rejasi, maktabgacha ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi, Davlat talablariga tayangan holda bolaga yo'naltirilgan sifatli pedagogikaga prinsiplariga asoslangan. Bolaning erta rivojlanishi uning kelgusida shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bolaning erta rivojlanishiga investitsiya ajratilishi quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi:

- katta yoshdagi kishi intellektual qobiliyatining 70% hayotining dastlabki 5 yilida shakllanadi;
 - maktabgacha ta'limga sarf-xarajatlarning iqtisodiy samaradorligi 17:1 nisbatni tashkil etadi (bolalar qamrovi 50% kam bo'lmaganda);
 - umumiy ta'limda erishiladigan sezilarli yutuqlar;
 - ta'limni yuqoriroq bosqichda davom ettirish uchun katta imkoniyat mavjudligi;
- g'ayri axloqiy va jinoy xatti-harakatlar ehtimolining kamayishi.

Dasturning maqsadlari va vazifalari maktabgacha bolalar uchun quyidagilarni ta'minlashni ko'zda tutadi:

-zarur bo'lgan rivojlanish amaliyoti va maktabga tayyorlash uchun teng imkoniyatlarni vujudga keltirish;

-6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlar bolalarini to'liq kunli maktabgacha ta'lim tashkilotiga berish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoki muayyan sabablarga ko'ra, bunga intilmaydigan ota-onalarning talab-ehtiyojlarini qondirishi kerak;

- 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlar maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq, 5 muhim sohada bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi zarur (jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish) har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlashga mo'ljallangan;
- maktab ta'limiga umumiy psixologik tayyorgarlik.

Dastur zamonaviy pedagogika va psixologiya tamoyillariga tayangan holda:

- istisnosiz barcha bolalarning ta'lim olish va rivojlanishga teng imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga;



- amaliyotga bola yo'naltirilgan yondashuvni, inklyuziv ta'lim tamoyillarini joriy etishga;
- oila va jamoalar bilan hamkorlik;
ta'lim-tarbiyaning madaniy jihatdan maqbul uslublariga tayangan holda milliy qadriyat va ustuvorliklarni e'tiborga olish;
- qulay, do'stona va xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishga yo'naltirilgan.
majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlardagi ta'lim jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslangan:
 - bolaga yo'naltirilgan ta'limga yondashuvi;
 - inklyuziv ta'lim haqida mushohada yuritish;
 - bolani xolistik(yaxlit) rivojlanishini ta'minlaydigan ta'lim muhitining xususiyatlarini belgilash;
 - maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyatning yetakchi turi – o'yin asosida ta'lim berish;
 - bola – ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi;
 - rejalashtirish va baholash samaradorligi;
 - bolani tarbiyalash va rivojlantirish jarayoniga ota-onalarni
 - hamkorlik asosida jalb etish;
 - interfaol ta'lim;
 - integrativ o'qitish.

Dasturda ko'zda tutilgan vazifalar nafaqat rivojlanish markazlardagi faoliyat paytida, balki mustaqil, o'yin jarayonida hamda pedagoglarning ota-onalar bilan birgalikdagi faoliyati jarayonida ham to'liq bajarilishi lozim.

Kommunikativ kompetensiya–muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va meyorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- o'z “Men”i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo'llarini topadi.

6-7 yoshli bolalarni maktabga majburiy bir yillik tayyorlash bo'yicha guruhlar davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bazasida, maktablarda, mahalliy xududlar (mahallalar)da, maktabgacha ta'lim sohasida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar bazasida, shu jumladan, oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilishi mumkin.

Mazkur guruhlardagi bolalarning ro'yxati maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan hududga birlashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xodimlari hovlima-hovli, xonadonma-xonadon yurib, ko'rib chiqishlari orqali shakllantiriladi.

6-7 yoshli bolalarni maktabga majburiy bir yillik tayyorlash bo'yicha guruhlar davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bazasida, maktablarda, mahalliy hududlar (mahallalar)da, maktabgacha ta'lim sohasida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar bazasida, shu jumladan, oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladi. Boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlovdan o'tgan bolalarga davlat namunasidagi boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlovdan o'tganligi haqida sertifikat beriladi.

- mustaqillikka intiladi;
- o'zining oilaviy, gender mansubligiga ijobiy his tuyg'ularni anglaydi va farqlay oladi;
- o'zining millati, tili va o'z madaniyatining muhim elementlarini biladi;
- o'ziga yuklatigan majburiyatlar asosida faoliyatni tashkil qiladi;
- shaxsiy qarorlarini qabul qilishga qodir;
- boshqalarga namuna bo'lishga harakat qiladi.

MTT bolalarni maktab ta'limga tayyorlashda quyidagi tamoyillarga ustuvorlik berildi.

Bolalikni o'ziga xos qadriyat ekanligini tan olish bu muhim ahamiyatga molik yosh va hayotiy davr. Bolalikning o'ziga xos xususiyati - bu bolalarning ta'lim olish tajribasi natijasida kattalardan ko'ra ko'proq o'rganish va o'zgarish qobiliyatiga ega ekanligidir. Bolalik – bu baxtli bolalik huquqi tan olinadigan, bola rivojlanishining muhim bosqichi.

Bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish.

Barcha bolalar katta imkoniyat egasi bo'lib dunyoga keladi va har biri tug'ma iste'dodga ega. Har bir bola o'ziga xos individualdir. Barcha bolalar o'z salomatligi va farovonligini himoya qilish, mustahkamlash, shuningdek, sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanish huquqiga ega.

Bolalar, shu jumladan, alohida ehtiyojli bolalar ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida tan olinadi va faoliyat turini tanlash, rejalashtirishda ishtirok etish, bilimga bo'lgan tabiiy qiziqishlarini qondirish orqali ularning ta'lim olishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi

Har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligini ta'minlash.

MT - parvarish, ta'lim va tarbiyadagi uyg'un jarayondir; u bolaning barcha rivojlanish sohalarida rivojlanishini ta'minlaydi; bu ta'lim va tarbiya jarayonida **barcha rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligini**, shuningdek, ta'lim olishning turli xil va har tomonlama imkoniyatlari va har bir rivojlanish sohasi boyicha **integratsiyani** ta'minlash zarurligini belgillaydi.

Bolaning sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta'minlash.

Bolaning turli ehtiyojlarini, shu jumladan, harakatga bo'lgan ehtiyojini qondirish; faol o'yinlar va kundalik jismoniy mashqlar orqali bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini, yirik va mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantiradilar; harakatda atrof-olamni o'rganadilar va turli predmetlarni boshqaradilar; o'z tanasining ta'sir va imkoniyatlarini farqlay oladilar, unga g'amxo'rlik qilishni va sog'lom turmush tarzini qabul qilishni boshlaydilar.

O'yin orqali ta'lim olish va rivojlantirish.

O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda muhim yondashuvdir. O'yin quvonch keltiradi va bolalarni rag'batlantiradi, ularga yangi ko'nikma va bilimlarni o'rganishga, o'zini va atrofidagi dunyoni bilishga imkon beradi. MT bolaning o'yin huquqini tan oladi,



o'yinning bola uchun muhimligini va uning individual rivojlanishi, ta'lim olishi va farovonligiga ko'maklashishdagi pedagogik imkoniyatlari tan oladi.

MTTning oila, mahalla, maktab bilan hamkorligi.

Bolaning farovonligi unig oila a'zolari va yaqinlarning MTT ahamiyatini tushunishiga bog'liq. Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat o'quv dasturida ta'lim va tarbiya jarayoniga qatnashishga jalb qilinganda va o'z hissasini qo'shganda bolalar yaxshiroq ta'lim oladilar va rivojlanadilar.

Milliy, tarixiy va madaniy an'analar, ma'naviy boyligni tan olish va boshqa xalqlar madaniyatiga hurmatda bo'lish.

Xulosa.

Bolalarning o'z milliy madaniyati, tili, an'analarini hurmat bilan e'tirof etilganda ular yaxshiroq ta'lim oladilar va rivojlanadilar. Davlat o'quv dasturi milliy va mintaqaviy madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda tuziladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash - bu jamoaviy ish bo'lib, uni amalga oshirishga maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori mas'uldir.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son qaroriga muvofiq "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi qarori)
Bitiruvchining o‘ziga xos shaxsiy ta‘lim sifatida yakuniy kasbiy kompetensiyasi – bu kompetensiyalarning tarkibiy qismlari (intellektual, axborot, kommunikativ va b.), tajriba va ularni amaliyotda qo‘llash motivatsiyasi, shaxsiy fazilatlar, bu esa kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi. Bunday sintez jarayonida u ofitserning o‘ziga xos shaxsiy sifatiga - uning kasbiy malakasiga aylanadi.

Bo‘lajak ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishni uchta asosiy omilini integratsiyalash orqali ta‘minlash mumkin:

– **ta‘lim mazmunini tashkil etishning maqsadga muvofiq bo‘lishini ta‘minlaydigan modullilik** (ichki ishlar organlari yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassis kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan tayanch kompetensiyalarga mos ravishda tuzilgan va didaktik jihatdan moslashtirilgan bilimlar konsepsiyasiga asoslanadi);

– **ta‘limni faoliyatga ko‘ra tashkil etish** (ta‘limning maqsadiga mos keladigan o‘qitish shakllarini tanlashni belgilab beradi);

– **ta‘limni texnologiyalashtirish** (ta‘lim olish – rivojlanishning uzluksiz jarayonini tashkil etish yo‘li bilan inson kamolotining to‘la-to‘kis bo‘lishini ta‘minlash) [1].

Kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta‘lim shunday tashkil etilishi kerakki, tinglovchi auditoriyadagi ta‘lim olish vaqtida ham, auditoriyadan tashqaridagi vaqtlarda ham ijodiy ish bilan mashg‘ul bo‘lishi va quyidagilarni bajara olishi lozim:

– muammoli vaziyatlarning yechimini topa bilish;

– o‘z fikrini himoya qila olish va nostandart hayotiy va ta‘limiy vazifalarni hal etishda o‘zining nuqtai nazariga ega bo‘lish;

– kasbiy, amaliy faoliyatida o‘zini namoyon qilishning noan‘anaviy usullarini doimiy ravishda egallab borish [3].

Bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy kompetentligi, o'qitish jarayonida yuzaga keladigan va faoliyat davomida rivojlanadigan asosiy, bazaviy va maxsus tizimlar bilan hosil qilinadi. Umumiy tushunchada kasbiy kompetentlik – bu alohida ichki ishlar organlari xodimlarining yoki bo'linmaning xizmatni o'tash bo'yicha o'ziga birlashtirilgan hududda huquqbuzarliklar va jinoyatlarni, birinchi navbatda, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni barvaqt oldini olish, shuningdek joylardagi muammolarni hal etishda aholi bilan ishlashni tashkil qilish, tezkor-qidiruv faoliyatni amalga oshiruvchi ichki ishlar organlari (katta) tezkor vakillariga – og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni aniqlash va fosh etish, tergov va suddan yashiringan shaxslarni qidirish vazifalarni bajarishga bo'lgan kasbiy tayyorgarligi va qobiliyatidir.

Yuqorida keltirilgan mazmun asosida bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy kompetentligi tuzilishining quyidagi komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi: ma'naviy-axloqiy, deontologik (kasb etikasi), huquqiy-me'yoriy, pedagogik-psixologik, harbiy-kasbiy va akmeologik. Ma'naviy-axloqiy komponent bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligining muhim tarkibiy qismlaridan sanaladi. Bunda Vatanga xizmat qilishga ma'naviy tayyorlik, harbiy-vatanparvarlik burchini bajarish, dunyoqarash, qadriyatlar yo'nalganligi, ijtimoiy faollik, harbiy xizmatning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetish muhim vazifalardan sanaladi.

Bo'lajak ichki ishlar organlari xodimi kasbiy faoliyati davomida quyidagilarni uddalay olishlari taqozo etiladi:

– o'z professional, nazariy va amaliy bilimlarini uzluksiz oshirib borishi, o'zining dunyoqarashi, bilim va tajribasini doimiy ravishda kengaytirish, yangi bilimlarni o'zlashtirishga intilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi axborotlarni olish, ilg'or tajribalarni o'rganish;

– xizmat burchini bajarishga vijdonan yondashish, vatanga sidqidildan xizmat qilish, moddiy va ma'naviy boyliklarimizni asrab-avaylash, milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

– yuksak kasbiy malaka va ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish, sezgirlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, hamda bilish bilan bog'liq intellektual salohiyatni rivojlantirish;

– har tomonlama keng bilim va yuksak professional mahoratga ega bo'lish, favqulodda va keskin sharoitlarda o'zi mustaqil ravishda nostandart qarorlar qabul qila olish;

– xizmat munosabatlarida hushmuomalalikka amal qilib, IIV nizomlari doirasida burch va majburiyatlarni bajarish, jamoat joylarida o'zini munosib tutish, shaxsiy xulq-atvorni nazorat qilib borish;

– xorijiy tillarni o'zlashtirish, xorijiy tilda turli janrdagi (teleko'rsatuv, radio eshittirish, e'lonlar, yangiliklar va h.k.) audio va video matnlarni eshitib, asosiy ma'nosini tushunib muhokama qila olish, har qanday og'zaki nutqni tinglab tushunish;

– ruhan va jismonan tetik, bardam, hushyor, doimo ogoh bo'lish, irodasini chiniqtirib borish, og'ir damlarda sabr-bardoshli bo'lish, xizmat va kasb sirlarini saqlash;

– kasbiy faoliyatda juda ko'p uchraydigan nostandart vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga, shuningdek, butun kasbiy faoliyat jarayon-hodisalarini tahlil qilishga imkon beruvchi fikr doiralarini kengaytirish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, barcha bo'g'indagi xizmatchilarning kasbiy faoliyati ofitserlar, serjantlar, safdorlar va tinglovchilarda kompetentlik va ularning tarkibiga kiruvchi muhim komponentlar, mexanizmlar, tamoyillarni shakllantirish, shuningdek, o'quv faoliyatining kasbiy yo'nalganligini ta'minlashga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi ta'lim muassasalarining o'quv tizimini takomillashtirishning muhim vazifalaridir. Yuqorida aytilgan mulohazalardan kelib chiqqan holda, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda ta'lim jarayonini ham mazmunan, ham shaklan o'zgartirish, bunda ta'lim oluvchilarga faqat ma'lum bir kompetensiyalar bo'yicha bilim berish emas, balki butun harbiylashtirilgan ta'lim jarayoni davomida ular asosida faoliyat olib borishni ta'minlash nazarda tutiladi.

Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi ta'lim muassasalari bitiruvchilarini soha bo'yicha kasbiy tayyorlashga qo'yiladigan zamonaviy talablarni amalga oshirish ta'limning yaxlit yakuniy natijasi – ichki ishlar organlariga yuklangan vazifalarni xodimlar samarali bajarishlari uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

References

1. **Akramova Sh. A.** Bo'lajak bojxona xizmati xodimlarida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish. Ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2017.
2. **Alimardonov Z. Sh.** Oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish – Samarqand, 2019.
3. **Arziqulov D.N., Dusanov N.E.** Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy madaniyati: O'quv qo'llanma. – T., 2010.
4. **Горецкий И.И.** Профессиональная подготовка сотрудников ОВД // “Научно-практический электронный журнал Аллея Науки”, – №7(23). – 2018.
5. **Muslimov N.** Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent: «Fan va texnologiyalar», 2013. –B.8.
6. **Muxamedov O'X.** Politsiya uchun kadrlar tayyorlash: Avstriya va Germaniya tajribasi. – Toshkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. –B 40-48.
7. **Muhammadiyev N. E.** Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati. – T., 2014. –B.12-13.
8. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам) / Э.Г. Азимов, А.Н. Щукин. – М.: Издательство ИКАР, 2009.
9. Педагогический терминологический словарь. – С.-Петербург: Российская национальная библиотека, 2006.
10. **Sirliyev B.N.** Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida kasbiy muomala: O'quv qo'llanma / B.N.Sirliyev, Yo.A.Farfiyev, O.A.Tursunova. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 154 b.
11. **Shoyusupova A.A., Kamalova S.R.** Malaka va kompetensiyalarni baholash. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2012. –B.18-19.
12. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, Davlat ilmiy nashriyoti, 2014. www.ziyouz.com kutubxonasi.



MAXSUS FANLARNI MAQBUL O'QITISH - PROFESSIONAL TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASHNING ASOSIY SHARTI SIFATIDA

Sagatov Ibrohim Raufovich

Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: ibrokhim.sagatov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, maxsus fanlarni o'qitishning bo'lajak mutaxassislarini kasbiy tayyorlashdagi o'rni va ahamiyati yoritib berilgan. Maxsus fanlarning kasbiy tayyorlash jarayonidagi vazifasi hamda maxsus fanlarni o'qitish metodikasining o'ziga xosligi borasida so'z yuritilgan. Maqolada xulosa qilinadiki, maxsus fanlar kasbiy tayyorgarlikning asosi hisoblanib, tizimli-integrativ yondashuv hamda unga mos o'qitish, o'rganish metodikasini talab etadi.

Kalit so'zlar: professional ta'lim, tayyorlov yo'nalishlari, mutaxassislik fanlari, maxsus fanlar, ixtisoslik fanlari, o'qitish metodikasi.

АДЕКВАТНОЕ ПРЕПОДАВАНИЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ КАК БАЗОВОЕ УСЛОВИЕ МОДЕРНИЗАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Сагатов Иброхим Рауфович

самостоятельный соискатель Институт педагогических инноваций, управления профессиональным образованием, переподготовкой и повышением квалификации педагогических кадров

E-mail: ibrokhim.sagatov@mail.ru

Аннотация: В данной статье освещаются особенности преподавания специальных предметов в профессиональных учебных заведениях, а также роль и значение преподавания специальных предметов в профессиональной подготовке будущих специалистов. Обсуждается функция специальных предметов в процессе профессиональной подготовки и своеобразие методики преподавания специальных предметов. В статье делается вывод о том, что специальные предметы считаются основой профессиональной подготовки и требуют системного и комплексного подхода и соответствующей методики преподавания и обучения.

Ключевые слова: профессиональное образование, учебные курсы, предметы по специальности, специальные предметы, предметы по специальности, методика преподавания.

ADEQUATE TEACHING OF SPECIAL SUBJECTS AS A BASIC CONDITION FOR MODERNIZATION OF PROFESSIONAL EDUCATION

Sagatov Ibrahim Raufovich

Institute for Pedagogical Innovations, Management of Vocational Education and Re-training of Pedagogical Staff and Improving their Qualification

E-mail: ibrokhim.sagatov@mail.ru

Annotation: *This article highlights the specific features of teaching special subjects in professional educational institutions, as well as the role and importance of teaching special subjects in the professional training of future specialists. The function of special subjects in the process of professional training and the uniqueness of the teaching methodology of special subjects were discussed. The article concludes that special subjects are considered the basis of professional training and require a systematic and integrative approach and appropriate teaching and learning methodology.*

Key words: *professional education, training courses, specialty subjects, special subjects, specialty subjects, teaching methodology.*

Kirish

Mamlakatimiz professional ta'lim tizimida mehnat bozorini raqobatbardosh malakali kadrlar bilan ta'minlash jarayonini takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Professional ta'lim sohasida olib borilgan islohotlar natijasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi bilan uyg'unlashgan mutlaqo yangi tizimi joriy qilindi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga javob beradigan raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilishda izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Professional ta'limda kadrlar tayyorlashda ularning bo'lg'usi kasbi va ixtisosligi bilan bevosita bog'liq o'quv predmetlarini o'qib-o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarining bevosita kasbi va ixtisosligi asosini tashkil etuvchi o'quv predmetlari amaliyotda "maxsus fanlar", "mutaxassislik fanlari", "ixtisoslik fanlari" kabi ko'plab nomlar bilan ataladi. Lekin, ularni nomlashda to'liq bir to'xtamga kelinmaganligi shu bois ularning barcha jihatlarini yorituvchi yagona, yaxlit tushuncha mavjud emas.

Adabiyotlar tahlili

Maxsus fanlarning vazifasi tanlangan kasb va ixtisosliklar bo'yicha zarur va yetarli darajadagi bilim, xatti-harakat usullari (ko'nikma va malakalar) va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishdir [11].

Professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish metodikasiga oid izlanishlarimiz, ularning tarkibidagi mavzular orasidagi uzviylikni ta'minlashga, yaxlit ta'lim-tarbiya va rivojlantirish jarayonini tashkil etib o'tkazishga, tahsil oluvchilarning o'zlashtirishlarini muntazam ravishda nazorat qilib ob'ektiv baholashga, bosqichma-bosqich aniq amaliy faoliyatga tayyorlash imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'rganish jarayoni o'zining maqsadi va vazifalari, mazmuni, tashkil etish shakllari, amalga oshirish metodlari va vositalari, o'rganish o'rni (joyi), ajratilgan vaqt miqdoriga ko'ra umumilmiy hamda umumkasbiy o'quv predmetlaridan farq qiladi [4].

Maxsus fanlarni maqbul o'qitish deganda ayni payt va shart-sharoitda eng kam vaqt, zo'riqish kuchlari, mablag', material kabilar sarflab imkon qadar yuqori samara hamda sifatli natijaga erishishni tushuniladi [15].

Tadqiqot metodologiyasi

Ma'lumki, hozirgi paytda fanning rivojlanishi tabaqalanish va mujassamlashtirish bilan tavsiflanadi.

Fanning tabaqalanishi mavjud fanning alohida bo'limi mustaqil tarmoq sifatida ajralib chiqishida o'z ifodasini topsa, ilgari alohida-alohida bo'lgan bir necha fanlar tutashgan joyida yangi, jadal rivojlanuvchi fanlar hosil bo'lishi esa mujassamlashtirishni anglatadi. Mujassamlashtirish, eng avvalo, ob'ektlar mohiyatiga chuqur kirib borish bilan tavsiflanadi. Misol uchun umumiy pedagogikadan aniq o'quv predmetlarini o'qitish metodikasi, sport, muzey, oila, muhandislik, kasb-hunar kabi tarmoqlarni ajralib chiqqanini ko'rsatish mumkin. Kasb-hunar pedagogikasi o'z navbatida kasbiy ta'lim mohiyatiga chuqur kirib borib uning sifati hamda samaradorligini oshirish muammolarini hal etishga qaratilganligini ko'rsatib o'tishning o'zi kifoya [6].

Demak, ta'lim tizimining rivojlanishi pedagogikani tabaqalanishiga zamin yaratdi.

Metodika uchun o'ziga xos masala ko'rilayotgan aniq o'quv predmetini o'qitish mazmuni hisoblanadi: O'quv predmetini shakllanishida ma'lum fan sohasidan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega axborotlarni tanlab olish, ularni tizimlashtirish muhim ahamiyat kasb etdi. Bu masalalarni ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantirish va qiziqtirish maqsadlaridan kelib chiqqan holda xususiy metodikalar tadqiq etadi. Lekin, eng avvalo aniq fan undan o'quv maqsadlarida ajratib olingan qismi, ya'ni o'quv predmetining o'ziga xos jihatlari hisobga olinadi. Ta'lim mazmunini aniqlashda umumiy pedagogika bir tomonda qolib ketmaydi. Biroq umumiy pedagogikada fan va o'quv predmeti didaktik nuqtai nazardan yetarli darajada ishlab chiqilmagan hisoblanadi, bu masala metodika doirasida nisbatan ko'proq o'z yechimini topadi [2].

Mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish, talabalarning mustaqil ishlarini hamda o'quv predmeti bo'yicha to'g'arak ishlarini tashkil etish va me'yorlash, tahsil oluvchilarning faol o'quv-bilish faoliyatlarini ta'minlash yo'llarini aniqlash, ta'lim-tarbiya metodlarini tanlab amalga joriy etish, o'zlashtirilganlik darajasini aniqlab, baholash kabi masalalarda metodika o'quv predmeti mansub bo'lgan fanga nisbatan ko'proq didaktika va pedagogik psixologiyaga tayanadi. Lekin, ta'limning quyidagi muhim bir masalasi mavjud-ki, bir tomondan, eng avvalo, metodika o'zi tegishli fanga, ikkinchi tomondan pedagogik psixologiyaga tayanadi.

Tahlillar va natijalar

Fan asoslarini o'qitish metodikasi kabi maxsus fanlarni o'qitish metodikasi u tegishli fan bilan pedagogika orasida vujudga keladi. Shu bilan birga umumilmiy o'quv predmetlari metodikasi bilan maxsus fanlari metodikalari bir-biridan farq qilishini ham ta'kidlash zarur. Fan asoslari amalda umumilmiy yoki umumta'lim o'quv predmetlari deb yuritilib, ularning mazmuni bevosita ular tegishli bo'lgan fandan ajratib olinadi hamda didaktik ishlov berilib, undan so'ng o'rganiladi.

Professional ta'limda kadrlar tayyorlash tizimida maxsus fanlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ixtisoslikka oid bilim, xatti-harakat usullari (ko'nikma va malakalar) hamda shaxsiy fazilatlar asosan maxsus fanlarni o'rganish jarayonida shakllanadi. Bundan maxsus fanlar mazmunini o'zlashtirilishi bilan professional ta'lim muassasalari bitiruvchilarining madaniy-texnik tayyorgarlik darajasi bevosita bog'liqligi kelib chiqadi. Bu bog'liqlik eng avvalo "ixtisos", "kasb", "hunar", "mutaxassislik", "kasbiy" kabi tushuncha hamda atamalar mohiyatini aniqlab olish zaruriyatini ko'rsatadi [10].

"Kasb" tushunchasini "ixtisoslik", "malaka" va "lavozim" tushunchalaridan farqlash kerak. Kasb – bu inson o'z jismoniy va ma'naviy kuchlari, shuningdek, bilimlari va aqliy qobiliyatlarini ro'yobga chiqaradigan jamiyat uchun ahamiyatli hamda mehnat taqsimoti tufayli muayyan chegaralar bilan ajratilgan soha [5, b. 23-24]. Malaka muayyan mehnat turi uchun



tayyorlik darajasi, ixtisoslik muayyan kasb doirasida amalga oshiriladigan mehnat turi, ya'ni ma'lum bir kasbiy yo'nalishda bajariladigan ish-faoliyat, lavozim yesa ma'lum xizmat vazifalarining bajarilishini talab qiluvchi ish o'rnidir.

V.A. Skakunning fikricha "... malakali mutaxassis (ishchi) lar tayyorlash mazmunining umumiy strukturasi umumtexnika fanlari va maxsus fanlar asosiy o'rinni egallaydi va malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini ko'p jihatdan belgilab beradi. Bu fanlar, bir tomondan umumta'lim fanlari bilan, ikkinchi tomondan esa ishlab chiqarish ta'limi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi va ular dialektik birlikda turadi. Bu hol umumtexnika va maxsus fanlar mazmunini talabalarning umumta'lim doirasidagi bilimlariga asoslanadigan, bu bilimlarini kengaytiradigan, shu bilan birga ishlab chiqarish ta'limi uchun asos bo'ladigan va shu ishlab chiqarish ta'limi bilan boyitadigan qilib tuzishni talab etadi [14].

Umumtexnika fanlari va maxsus fanlarning asosiy qoidasi ularni o'rganishning shakli hamda metodlariga nisbatan alohida talablar qo'yadi. Bu yerda o'ziga xoslik shundan iboratki, umumtexnika fanlari va maxsus fanlarni o'rganishda umumta'lim fanlarini o'rganishda tatbiq etilgan shakl hamda metodlardan foydalanish zarur. Boshqa tomondan esa ularning katta amaliy ahamiyatini ishlab chiqarish ta'limiga o'tish uchun "eshik" ekanligini nazarda tutgan holda ishlab chiqarish ta'limi uchun xos bo'lgan metodlar va metodik usullardan keng ko'lamda foydalanish lozim" [9; 3-4-b.].

Maxsus fanlarni o'rganishda ko'proq amaliylik yuqori bo'lganligi, ishlab chiqarishga yaqinroq hisoblanganligi sababli o'ziga xosligi umumta'lim fanlaridan yaqqol farqli ekanligini ko'rsatadi. O'quv rejasidagi maxsus fanlar o'zaro bog'liqligini ta'minlash, fan dasturlarini oddiydan murakkabga qarab tuzish, o'qitishning samarali metodlarini tanlash, o'quv maqsadlarini belgilash talabalarning muayyan kasb bo'yicha bilim va ko'nikmalarini hosil qilishda muhim ahamiyatga egadir. Biz tomondan maxsus fanlarni o'qitish metodikasiga doir o'tkazilgan izlanishlar natijasida talabalarda kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda modulli o'qitish tizimi yaxshi samara berishi aniqlandi.

Modulli o'qitishda maxsus fan tarkibidagi modullar orasidagi uzviylikni ta'minlashga, o'qitishni jadallashtirishga, talabalarning o'zlashtirishini muntazam nazorat qilishga va baholashga, qiziqtirish asosida amaliy faoliyatga o'rgatishga va o'quv materialini bosqichma-bosqich o'qitish orqali fanni samarali o'zlashtirishga erishish mumkinligi aniqlandi [15].

Maxsus fanlarni o'qitishda ko'rsatmalilikdan foydalanish, umumiy ta'lim fanlarini o'qitishdagiga nisbatan muayyan xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar umumta'lim fanlari mazmunining o'ziga xos xususiyatlari va ularni o'rganish metodikasi bilan bog'liq. Agar, umumta'lim fanlarini o'rganishda ko'rsatmalilik tartibi asosiy g'oyani yaxshiroq o'zlashtirishga yordam bersa, maxsus fanlarni o'qitishda, jihoz yoki asbobning tuzilishi va ishlash tamoyili, texnologik jarayonlarini va ishchi organlarining o'zaro harakatini o'rganish talab etiladi.[5]

Maxsus fanlarni o'rganishda ko'proq amaliylik yuqori bo'lganligi, ishlab chiqarishga yaqinroq hisoblanganligi umumta'lim fanlaridan farqli ekanligini ko'rsatadi. O'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari maxsus fanlar bilan o'zaro bog'liq holda olib boriladi. Maxsus fanlarni o'rganishda ko'proq amaliylik yuqori bo'lganligi, hamda ishlab chiqarishga yaqinroq hisoblanganligi umumta'lim fanlaridan yaqqol farqli ekanligini ko'rsatdi. Maxsus fanlarni o'qitish uslublarini tanlashda o'quv maqsadlarini belgilash o'ziga xoslikni talab etadi. Talabalarni kasb-hunarga o'rgatishda maxsus fanlar butunligicha shu kasb xususiyatiga mos bo'lishi bilan

birga o'quv materiali mazmunida muayyan kasb bo'yicha maxsus fanga tegishli faoliyat turlari to'liq yoritilishi zarur.

Maxsus fanlarni o'qitish o'zining ko'pgina belgilari, ya'ni mazmuni, maqsad va vazifalari, metodlari, vositalari, tashkil etilishi, o'tkazilish joyi, jihozlanishi, shakllari, tuzilishi, ajratiladigan vaqti bilan ham umumta'lim fanlaridan keskin farq qiladi.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, maxsus fanlar kasbiy tayyorgarlikning asosi hisoblanib, tizimli-integrativ yondashuv hamda unga mos o'qitish, o'rganish metodikasini talab etadi. Bu jarayonda o'zlashtirilgan bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlar amaliyotda qo'llanilib sayqallanadi va kasbiy madaniyat darajasigacha takomillashtirilishi ko'zda tutiladi.

Professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish jarayonini tanqidiy tahlil qilish talabalarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayoniga ta'sir qiluvchi qator omillarni aniqlashtirib olishga imkon berdi. Bular, ijtimoiy buyurtma, ta'lim muassasasining moddiy-texnik va metodik ta'minoti hamda o'quv jarayonini tashkil etish kabi omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрдаги “Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5812 сон Фармони. www.lex.uz.
2. Абдуқуддусов О.А. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашга интегратив ёндашув. – Т.: Фан, 2005, - 157 б.
3. Авазбоев А.И. Совершенствование подготовки учителей трудового и профессионального обучения на основе интеграции содержания учебных предметов.: Автореф. дисс. канд. пед. наук. - Т.: 2001. -21 с.
4. Ашурова С.Ю. Енгил саноат йўналишлари бўйича кичик мутахассислар тайёрлашда махсус фанларни модулли ўқитишнинг илмий-услубий асослари: Дис. ... пед. фан. ном.- Тошкент: 2005. - 137 б.
5. Батишев С.Я. Учебник для студентов, обучающихся по педагогическим специальностям и направлениям. М.: Ассоциация «Профессиональное образование», 1997. — 512 с.
6. Беляева А.П. Дидактические принципы профессиональной подготовки в профтехучилищах.- М.: Высш.шк., 1991.-208 с.
7. Катханов К.Н. Педагогические основы производительного труда.-М.: Высш. шк., 1997.- 359 с.
8. Мирсаидов К.Ж. Формирование профессиональных умений в процессе подготовки механизаторов хлопкосеющей зоны: Автореф. дис. ... канд. Пед. наук. – М.: 1974.-10 б.
9. Мусаева Н.Н. Технологии модульного обучения в профессиональной подготовке младших специалистов: Дис. ... канд. пед. наук. - Бухоро: БТИП/П, 2006. – 145 с.
10. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фан. докт. .. дис. - Т.: ЎМКХТТКМО ва УҚТИ, 2007. - 349 б.
11. Мусурмонова О.М., Абдуллаев А.Х., Аҳмедова М.Т. Ўқув ишлаб чиқариш таълими.-Т.: Халқ мероси, 2004.-144 б.
12. Новиков А.М. Процесс и методы формирования трудовых умений.-М.: Высш.шк., 1986.- 288 с.



13. Отабаев И.А. Методы и формы производственного обучения// Наука, техника и образование. – Москва, 2016. №10(28). – С.84-85.
14. Скакун В.А. Проведение и анализ уроков по специальным и общетехническим предметам.-М.: Высшая школа, 1984.- с.
15. Ходжабаев А.Р., Қосимов Ш.У. Амалий касбий таълимни ташкил қилиш ва ўтказиш методикаси.- Т.: ЎМКХТТКМО ва УҚТИ, 2007.-150 б.
16. Ходжабаев А.Р., Хусанов И.А. Касбий таълим методологияси. Т.: “Фан ва технология”, 2007.-41, 192 б.
17. Хидиров Ў.Д., Мирсаидов К.Ж., Чориев Қ.Р. Ишлаб чиқариш таълими.- Т.: Ўқитувчи, 2002.-104 б.
18. Эрганова Н.Е. Основы методики профессионального обучения. -Екатеринбург: Изд-во Урал, проф.-пед. ун-та, 1999.-138 с.

GIMNASTIK VOSITALAR YORDAMIDA HARAKAT FAOLLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI

О'zDJTSU “Sport tadbirlarini tashkil etish”

kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Baxriddinov X.Z.

E-mail: habibullobaxriddinov@gmail.com

Annotation. This article is intended to provide methodological assistance in the activities of enterprises, organizations and institutions to increase labor productivity and prolong labor activity of the population.

Key words: occupational diseases, osteochondrosis, hypodynamics, a set of special exercises, therapeutic physical training, rehabilitative physical training.

Dolzarbligi

Bugungi kunda, O'zbekistonda har bir oila, mahalla va tuman (shahar)da, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishni, aholining turli guruhlarini sog'lom ovqatlanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish, tarkibida tuz, qand va yog' miqdori ko'p bo'lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarni istemol qilishni qisqartirish, zararli odatlardan, xususan, alkagol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishdan voz kechish yo'li bilan kasallikka chalinish, ortiqcha vazn xolatlari (semizlik) va bevaqt vafot etishni kamaytirish maqsadida olib borilayotgan ishlar davlatning ustivor vazifalariga aylangan [1, 2]. Shundan kelib chiqqan holda, jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanish hamda sog'lom turmush tarzi bo'yicha hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali har bir fuqoroda kasallikka qarshi kuchli immun tizimi paydo bo'lishini ta'minlash, zararli odatlardan voz kechish, to'g'ri ovqatlanish tamoyillariga amal qilish, tiklash va reabilitatsiya ishlari hamda ommaviy jismoniy faollik tadbirlarini tizimli va samarali tashkil qilishga yo'naltirilgan keng qo'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi

sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda jismoniy tarbiya vositalari orqali mehnat faoliyati samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, uni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi: ish faoliyatida beriladigan jismoniy mashqlar va yuklamalar hajmini aholining jismoniy salomatligiga ta'sirini aniqlash; kasb kasalliklarini oldini olishda, maxsus jismoniy mashqlarning aholi organizmiga ta'siri darajalarini aniqlash. Belgilangan vazifalarni xal qilish uchun quyidagi **tadqiqot usullari qo'llanildi**: ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik nazorat, pulsometriya, mashg'ulot jarayoni tahlili, matematik-statistika usullari.

Tadqiqot natijalari muhokamasi

Kishi biror kasb bilan muntazam shug'ullanar ekan, uning organizmida o'sha kasbga xos bo'lgan ba'zi kasalliklar rivojlanib boradi. Bu xastaliklar, odatda, o'sha kasbning o'ziga xos xususiyatlari, muntazam ishlash jarayonida organizmning muayyan a'zosiga tushuvchi og'irliklar, turli zararli moddalar va boshqa sabablar natijasida paydo bo'ladi. Ish jarayonida o'tirib ish yuritadigan kasb egalarida kamharakatlilik natijasida tana vaznining ortishi ham kuzatilmoqda. Ish jarayonida o'tirib ish yuritadigan 700 nafar tikuvchilik sexi ishchi xodimlari o'rtasida o'tkazilgan anketa-so'rov natijalariga ko'ra, ularning 55% tana vaznining ortishidan shikoyat qilgan bo'lsa, jumladan 40% bunga aynan kasbiy faoliyati davomida duch kelganini ta'kidlashgan. Ma'lum bo'lishicha, idora xizmatchilari (69%), muhandislar (56%), o'qituvchilar (51%) va huquqshunoslar (48%) doimiy ravishda ana shunday muammoga duch kelishadi.

Aholi salomatligini pedagogik nazorat qilish yuzasidan o'tkazilgan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarining samarasini, aholini jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanishi natijasida sog'ligida ro'y berayotgan yuqori darajadagi o'zgarishlardan ham bilish mumkin. Ortiqcha vazn yoki semizlik asosan rivojlangan davlatlarda jiddiy muammoga aylangan. Semizlik – bu, organizmda yog'ni ortiqcha miqdorda to'planishidir. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2016 yilda e'lon qilgan ma'lumotlariga ko'ra, yer yuzida 18 yoshdan katta odamlar orasida 1,9 mlrd nafardan ko'prog'i ortiqcha vazn bilan yashaydi, 650 mln.dan ko'prog'ida semizlik mavjud.

Xususan, respublikamizda ham mazkur muammo sog'liqni saqlash tizimida jiddiy oqibatlarini yuzaga keltirmoqda. Semizlik, asosan uning abdominal (qorin sohasidagi) shakli ko'plab kasalliklarni kelib chiqishida muhim rol o'ynashi, so'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida o'z isbotini topdi.

Maxsus ishlab chiqilgan mashqlarning har-xil nisbatlari samaradorligini aniqlash maqsadida hamma tajriba guruhlari uchun mazmunan bir xil maxsus jismoniy mashqlar majmui ishlab chiqildi, ammo maxsus va umumrivojlantiruvchi mashqlar turli variantlarda qo'llanildi. Ish jarayonida o'tirib ish yuritadigan tikuvchilik sexi ishchi xodimlari tana vaznini ortganligi darajasiga qarab guruhlarga ajratildi. Xodimlarning semizlik darajalariga qarab I, II, III va IV darajadagi xodimlar tanlab olindi.

TVI (tana vazni indeksi) 30 dan 34,9 gacha – 1-darajali semizlik; 35dan 39,9gacha – 2-darajali semizlik; 40dan 50gacha – 3-darajali semizlik; 50dan yuqori – 4-darajali semizlik, ya'ni og'ir semizlik;

Tajribada birinchi navbatda, xodimning tana vazni indeksi (TVI) o'lchanganida I daraja semizligi bo'lganlar 12 nafarni, II darajalilar – 13 nafarni, III darajalilar – 14 nafarni va IV darajalilar – 15 nafar, jami 54 nafar xodimda semizlik aniqlangan va ular tajriba guruxiga birlashtirilgan (n=54). Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan maxsus mashqlar majmuasidan



foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida muayyan jadval ishlab chiqildi. Ushbu jadval asosida 4 ta guruh xodimlari o'rtasida maxsus mashqlar majmui bo'yicha haftada 3 marta mashg'ulotlar olib borildi va ularning davomiyligi 5 daqiqadan 10 daqiqani tashkil qildi. Semirish darajalariga qarab mahalliy mushaklarga ta'sir etuvchi maxsus mashqlar tanlab olindi. Xodimlarning yoshi, jinsi, funksional holati, semizlik darajalari uchun maxsus mashqlar me'yorlari ishlab chiqildi..

Tadqiqotda ish jarayonida o'tirib ish yuritadigan kasb egalari uchun ishlab chiqarish gimnastikasining namunaviy mashqlar majmuasidan foydalanildi [3, 4].

Mashqlar majmuasi qo'llanilgandan keyin jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichi tahlili shuni ko'rsatdiki, shug'ullanuvchilarning semizlik darajalari bo'yicha guruhlarda o'tkazilgan pedagogik tajribadan so'ng olingan natijalar yaxshilandi, yani ijobiy o'zgarish kuzatildi. Bu, tadqiqot davomida o'tkazilgan maxsus mashqlardan foydalanish orqali 42,8% xodim sog'lom, tana vazni normaga kelganini ko'rsatadi hamda ularning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi mumkinligini ko'rsatadi. II darajadan I darajaga 1 nafar xodim va I darajadan sog'lom bosqichga 3 nafar xodim o'tganligi kuzatildi. IV darajadan III darajaga xodimlarning 15 nafaridan 6 nafari asosiy guruhga o'tkazilgan, bu 40,0 % ni tashkil etdi.

Xulosa

Sohaga oid adabiyotlarda yozilishicha, 55 yoshdan kichik bo'lgan 3-daraja semizligi bo'lgan odamlarda 2-tur qandli diabet bilan kasallanish xavfi shu yoshdagi normal tana vaznida bo'lgan odamlarga nisbatan erkaklarda 18, ayollarda 13 marta yuqori bo'ladi. 55 yoshdan kichik yoshdagi ortiqcha tana vazni bo'lganlarda qandli diabet xavfi, xuddi shu yoshdagi normal tana vaznilariga nisbatan 3-4 baravar yuqori bo'ladi. Xolesistit bilan og'rish xavfi tana vazni indeksi ortib borishi barobarida normal tana vaznilariga nisbatan erkaklarda 4-21, ayollarda 2,5-5,2 marta yuqori bo'ladi.

Gimnastika mashqlarini bajarish orqali mushak tizimi mustahkamlanadi, bo'g'imlar harakati yaxshilanadi, kuch, tezlik, chidamlilik tarbiyalanadi. Sog'lomlashtiruvchi ta'sir kuchga ega mashqlar tufayli, qaddi-qomatni tik va to'g'ri rivojlanishi ta'minlanadi. Ko'rinib turibdiki, har ikki holat inson tanasini chiniqib, ortiqcha vazndan xalos bo'lishiga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan maxsus mashqlar majmuidan foydalanish xodimlarda tana vaznining ortishini oldini olishda katta samara berishi tajriba davomida aniqlandi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktabrdagi PF-6099-son "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Lex.uz.
3. Rixsieva A. Abu Ali ibn Sina o roli fizicheskix uprajneniy v soxranenii zdorovya cheloveka. Tashkent, "O'qituvchi" 1981
4. Gazieva Z.Yu., Xodjaev Sh.G., Nurmuxamedov Q.A. "Davolash jismoniy tarbiyasi" T – 2015.



1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги ПФ-5924-сон “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. Lex.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 октябрдаги ПФ-6099-сон “Соғлом турмуш тарзини кенг татбиқ этиш ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. Lex.uz.
3. Рихсиева А. Абу Али ибн Сина о роли физических упражнений в сохранении здоровья человека. Ташкент, “Ўқитувчи” 1981
4. Газиёва З.Ю., Ходжаев Ш.Г., Нурмухамедов Қ.А. “Даволаш жисмоний тарбияси” Т – 2015.

TALABA-BIOLOGLARNING TIZIMLI TAFAKKURI ZAMONAVIY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya va uni o'qitish metodikasi o'qituvchisi
Ilyosov Umidjon Ilyos o'g'li
Xorijiy tillar fakulteti ingliz tili yo'nalish 2 kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak biolog talabalarning tizimli tafakkuri zamonaviy xususiyatlari, diagnostika, talabalarda tizimli tafakkur malakasi va ko'nikmasining shakllanishi, baholar tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'z va iboralar: talaba, tizimli, tahlil, mezon, malaka, baho, modellashtirish, metod.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ХАРАКТЕРИСТИК СИСТЕМАТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ-БИОЛОГОВ

Мустафакулова Дилдора Исматуллаевна
Джизакский государственный педагогический университет
Факультет естественных наук, преподаватель биологии и методики ее преподавания
Ильясов Умиджона
Студентка 2 курса отделения английского языка факультета иностранных языков

Абстрактный: В данной статье проведена современная характеристика системного мышления будущих студентов-биологов, проведена диагностика, формирование навыков и умений системного мышления у студентов, анализ оценок.

Ключевые слова и фразы: студент, систематический, анализ, критерий, квалификация, оценка, моделирование, метод.

PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF FORMING MODERN CHARACTERISTICS OF SYSTEMATIC THINKING OF STUDENT BIOLOGISTS

Mustafakulova Dildora Ismatullayevna
Jizzakh State Pedagogical University
Faculty of Natural Sciences, teacher of Biology and its teaching methods
Ilyosov Umidjon

2nd year student of the English language department of the Faculty of Foreign Languages

Abstract: *In this article, modern characteristics of systematic thinking of future biology students, diagnostics, formation of systematic thinking skills and abilities in students, analysis of grades was carried out.*

Key words: *and phrases: student, systematic, analysis, criterion, qualification, assessment, modeling, method.*

Kirish

Diagnostika muammosini talabalarning tizimli tafakkurini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi darajasini aniqlovchi instrument sifatida o'rganish va turli qarashlarni tahlil qilish muallifga ularni maqsadga muvofiq tizimlashtirish lozim, degan xulosaga kelish imkonini berdi.

Adabiyotlar tahlili

V.V. Chernikovning fikriga ko'ra, "tizimli tafakkur asoslarini dominant tushunchalar, yondashuvlar, metodlar, tizimli tafakkur uslubi g'oyalari tashkil etadi, o'rta maktda tizimli tafakkurni muvaffaqiyatli shakllantirishda, bizning fikrimizcha, shunday diagnostik tushunchalar, yondashuvlar, metodlarni ajratib ko'rsatish kerakki, unda o'quvchilarning yosh xususiyatlari (psixologik va fiziologik) inobatga olingan bo'lsin" [3].

Biz tomonimizdan o'rganilayotgan sifat darajasining asosiy ko'rsatkichlari, ya'ni biologiya yo'nalishi talabalarining tizimli tafakkurining rivojlantirilganligi va mezonlari tizimlashtirildi.

1. Mezon qobiliyat sifatida. Bunday holatda mezon qobiliyat sifatida qaraladi:

a) ob'yektni o'zaro bog'liq elementlar tizimi sifatida tahlil qilish hamda ushbu tizim tuzilishining umumiy prinsipini aniqlash;

b) aniqlangan prinsip asosida yangi tizim elementlarini loyihalash [4].

1. Mezonlar shaxs tizimli tafakkuri xususiyati sifatida:

reallikdagi xato modelini tushunish uchun soddalashtirilgan idrok, bir modeldan boshqa modelga o'tish qobiliyatini rivojlantirish lozimligini tushunib yetish;

qayta aloqani ko'ra bilish ko'nikmasi;

o'z ishonchining doimiy o'zgaruvchanligiga tayyorligi;

reallikni turli darajalarda, turli darajadagi kattalikda, bir tizimdan ikkinchi tizimga o'ta bilish ko'nikmasiga egalik;

butun tizim va uning qismlarini ko'ra bilish qobiliyati;

o'z mental olami modelini mustaqil yaratish hamda ular orqali sabab-oqibat aloqalarini mustaqil o'rnatishi.

3. Mezonlar fahmlash (tushunish, anglash, izohlash) sifatida.

tizimli tafakkur – asosiy, qo'shimcha tushunchalar mohiyatini tushinish, ularni o'quv jarayoni va pedagogik faoliyatida qo'llash;

modellash metodini mohiyatini tushunish va uni o'quv jarayoni va amaliy faoliyatda qo'llash;

kompyuter modellash xususiyatlarini tushunish va uni o'quv jarayoni va amaliy faoliyatda ijodiy qo'llash;

yuqori sinf o'quvchisining funksional tizimlarning turli darajadagi murakkabliklarini (texnik, biologik, ijtimoiy va ekologik) mantiqiy tahlil qila bilish ko'nikmasi [3].

4. Mezonlar ko'nikma sifatida

Talabalar tizimli tafakkurining shakllanganligining mezonli-mo'ljalli, diagnostik tizimini tadqiq qilish - shakllanayotgan shaxs diagnostikasi va baholanish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi

Talabalar tizimli tafakkurini shakllanganligining sifat va darajasini baholash imkonini beruvchi mezonlar:

o'rganilayotgan tabiiy ob'yekt va hodisalarni tizimli tahlil qilish ko'nikmasi bolaning ob'yektni o'zaro bog'liq elementlar tizimi sifatida tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi;

- ushbu tizim tuzilishining umumiy prinsipini aniqlash hamda aniqlangan prinsip asosida yangi tizim elementlarini loyihalash [10].

Eng ko'p tarqalgan nuqtai nazarlar, katta hajmdagi ilmiy nashrlar [1]ni ko'rishimiz mumkin.

Talabalar tizimli tafakkurini quyidagi ko'nikma va malakalar orqali aniqlaymiz:

1. Tizimli ob'yektlarni tizimli bo'lmagan ob'yektlardan farqlash.
2. Tizimni o'zaro bog'liq elementlar iyerarxik tuzilmasi sifatida qarash
3. Tizimni tuzishning umumiy prinsipini aniqlash va uning integrativ xususiyatlari.
4. Tizimning tayanch elementlarini belgilash.
5. Tizimli yondashuv sharoitida holatni, hodisalar tahlili, jarayonlarni tanqidiy baholash.
6. Tizimli yondashuvni joriy qilish sharoitida hodisalar tahlili, jarayonlari refleksiya.
7. Tizim rivojini tahlil qilish va prognoz qilish [7].

Talabalar tizimli fikrlashining asosiy mezonlari:

fikrlash muolijalarining barqaror ko'nikma va malakalari;

ob'yektni o'zaro aloqador elementlar tizimi sifatida tahlil qilish qobiliyati hamda ushbu tizimni belgilashning umumiy prinsipi;

murakkab sabab-oqibat aloqalarini aniqlash qobiliyati;

aniqlangan prinsip asosida yangi elementlar tizimini loyihalash ko'nikmasi hamda tizimli ob'yekt belgilari o'zaro aloqadorligini aniqlash;

tizim tuzilishi qonuniyatlarini topish qobiliyati hamda topilgan qonuniyatlarni amaliy, konstruktiv o'quv faoliyatida qo'llash.

Tadqiqot metodologiyasi

Amaliy tajribalarimiz hamda ilmiy-pedagogik adabiyotlar [9] tahlilining ko'rsatishicha, talabalar tizimli tafakkuri quyidagi belgilar (ko'nikma va malakalar) bilan aniqlanadi:

1. Tizimli ob'yektlarni tizimli bo'lmagan ob'yektlardan farqlashadi.
2. Tizimni alohida elementlar jamlamasi sifatida ko'rishadi.
3. Tizim tuzilmasi turlarini – iyerarxik, parallel, bixillik, bosh va ikkinchi darajali elementlarni aniqlashadi.
4. Tizim tuzilishi yetakchi prinsipini ajratib ko'rsatishadi.
5. Alohida elementlar integratsiyasi xususiyat va o'ziga xosliklarini tushunishadi.
6. Hodisa va jarayonlar tahliliga tizimli yondashuv sharoitida holatni ijodiy va tanqidiy baholash qobiliyati.
7. O'quv, o'quv-tadqiqot va boshqa masalalar yechimiga tizimli yondashuv pozitsiyasida qaray bilishadi.
8. Tizim rivojlanishini prognoz qila bilishadi [6, s.11].

Olimlar A.N. Berdnikova, M.I. Mazurlarning [5] fikriga ko'ra, tizimli tafakkur rivojlanish darajasi quyidagi ko'nikmalar mavjudligidan darak beradi:

holat va hodisalarni tahlil qila bilish ko'nikmasi;

sabab-oqibat aloqalarini o'rnata bilishi;
o'z nuqtai nazarini asoslash, shakllantirish va himoya qila bilish;
axborotlarni integratsiyalash, xulosalar chiqarish, murakkab masalalarni (muamamolarni) qo'ya bilish va ularni yecha bilishi.

Tadqiqotchi O. Ujan [4] tomonidan olg'a surilgan integratsiyalangan darslar samaradorlik qo'rsatkichlari ham tizimli tafakkur mezonlari rolini bajarishi mumkin. Shunday mezonlar quyidagilar:

ta'lim oluvchilar pozitiv ijodiy faoliyati faolligi;
ta'limning muammoli shakllarida muvaffaqiyatli qatnashuvi;
amaliy faoliyatda mustaqillik;
tadqiqotchilik malakalarining mavjudligi va uni rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasi;

atrof olam yaxlitligi to'g'risida zamonaviy tushunchalarning mavjudligi;
fikrlash va tadqiqotchilik faoliyatida tizimlilik belgilarining mavjudligi;
biologik voqealar, tushunchalar, faktlar, hodisalarning tizimli yondashuv pozitsiyasidan tushuntira bilish qobiliyati;

tizimli tafakkurni shakllantirish va tushunchalarni chuqur tushungan holda anglash;
ijodiy qobiliyatlarning namayon bo'lishi.

Tizimli tafakkur muammosi ko'nikma va malakalariga umumiy va amaliy yondashuvni B. Richmond [2] taklif qiladi. Olim tomonidan tizimli tafakkurning yetti tanqidiy ko'nikmasi tanlangan va tadqiq qilingan va ular o'zaro chambarchas bog'langan. Ushbu tadqiqotga asoslanib, ularning qisqacha ta'rifini keltiramiz:

1. Dinamik tafakkur (yaxlit tizimni ko'rish va tahlil qilish ko'nikmasi).
2. Siklik tafakkur (tizimda siklik qayta aloqani ko'ra bilish qobiliyati).
3. Umumlashgan tafakkur (tizim rivojining ichki mantiqi bilan bog'liq ularning umumiy tendensiyalarini keltirib chiquvchi konkret voqea va hodisalar ko'ra bilish ko'nikmasi).
4. Tuzilmali tafakkur (tizim tuzilmasini o'qimishli tahlil qilish va modellashtirish ko'nikmasi).
5. Operasional tafakkur (ayrim tizimlarning "ishlashini" ko'rish va tahlil qila bilish qobiliyati).
6. Kontinual tafakkur (nafaqat chegaralangan alternativlarni, balki keng imkoniyatlar doirasida turli variantlarni hisobga olish va prognoz qilish).
7. Ilmiy tafakkur (muammoni farazlarni olg'a surish va tekshirish orqali tadqiq qilish ko'nikmasi).

Yuqorida ko'nikmaga berilgan ta'riflar tizimli tafakkurni ochib berishi nuqtai nazardan to'liq bo'lmasada, uning pedagogik masalalarni (muammolarni) yechishdagi qimmatini tizimli tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha ikkilanishlarga o'rin qoldirmaydi.

Tizimli tafakkurning shunday umumlashgan ko'nikmalari bilan bir qatorda tizimli ob'yektlarda uning aniq ko'nikma, malaka va harakat prinsiplari mavjud. Shunigdek, ta'kidlash mumkinki, tizimli tafakkurning ta'kidlangan ko'nikmalari orasida markaziy o'rinni, bizning fikrimizcha, tizim tuzilishini (tuzim tafakkuri) tahlil qilish va modellashtirish ko'nikmasi egallaydi. Aynan uning shakllantirilishiga tizimli tafakkurni shakllantirish texnologiyasida asosiy e'tibor qartilishi lozim.

Tahlillar va natijalar. Ta'lim texnologiyasi aprobatsiyasi jarayonida talabalar tizimli tafakkuri tayanch komponentlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan axborot texnologiyalari ta'limning asosiy vositasi sifatida pedagogika OTMLarining biologiya profili talabalarida tizimli

tafakkurini rivojlantirish darajasi diagnostikasi o'tkazilib, ularning analitik, sintezlash va tadqiqiy vaziyatlarni baholash orqali muvaffaqiyatli yechimi topildi.

Taniqli olim P. Sikorskiy [Контрольные работы по математике в V классе.- Москва,1954] har bir bahoga qo'yiladiga umumiy talablarni ishlab chiqdi:

"6" – qoyilmaqom (ajoyib, zo'r): talaba nafaqat dasturiy materialni o'zlashtirib olgan, balki u o'zini o'zi o'qitish jarayonida bilimlarini chuqurlashtirib boradi, fakultativ kurslarda o'qiydi, tuman, viloyat va respublika olimpiadalarida faol qatnashadi;

"5" – a'lo: talaba predmet tushunchaviy apparati, uning qonun va qonuniyatlarini to'liq o'zlashtirib olgan, yozma topshiriqlarni mavaffaqiyatli bajaradi, talabalar to'garaklarida, olimpiadalarda qatnashadi; amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarida tizimli qatnashadi, uy vazifalarini vijdonan bajaradi, u yuqori darajadagi fikrlash darajasi bilan ajralib turadi;

"4" – yaxshi: talaba predmet tushunchaviy apparati, uning qonun va qonuniyatlarini o'zlashtirib olgan, uni konkret misollar, faktik materiallar bilan mustahkamlab boradi, ammo ularni tahlil qilishda noaniqliklarga yo'l qo'yadi, asoslash mantiqini yo'qotadi; uy vazifalarini vijdonan bajaradi, doimiy ravishda seminarlarga tayyorgarlik ko'radi;

"3" – qaniqarli: talaba asosiy tushunchalar, qonun va xususiyatlarni o'zlashtirib olgan, ulardan misollar keltiradi, ammo ularni asoslashda kamchiliklarga yo'l qo'yadi: yozma mashqlarni bir xilda bajaradi, o'quv va kontrol ishlarni bajarishda yordamga muxtojlik sezadi;

"2" – o'rta: talaba ma'lum tayanch tushuncha va qonunlarni o'zlashtirib olgan, ularning mohiyatini yaxshi tushunmaydi; yozma mashqlarni bajarishda yordamga muxtojlik sezadi; uy vazifasi, kontrol ishlarni bajarishi zaif;

"1" – yaxshi tushunmovchi (proslushal): talaba ma'lum tayanch tushuncha va qonunlarni o'zlashtirib ololmaydi, ularning mohiyatini tushunmaydi, shuning uchun o'qituvchi undan xech bo'lmasa material bilan tanishib olishini talab qiladi. U o'ygga vazifa, mustaqil va kontrol ishlarni o'qituvchisi yordamida yechadi.

Talabaning intellektual rivojlanish ko'rsatkichi uning nafaqat o'zlashtirib olgan bilimi, balki bilish (anglash) faoliyatining rivojlanganlik darajasi sanaladi. Buni esa psixologik-pedagogik kuzatuv yordamida, dars jarayonidagi javoblari sifati va mustaqil ishlari natijalari tahlili, bajargan yozma ishlari, test olish orqali amalga oshirish mumkin.

Tadqiqotchi va metodistlar I.A. Сычев, Yu.V. Fedoseyeva, A.V. Panov, [3] kabilar tizimli tafakkur mezonlariga mos darajalarni ishlab chiqqanlar:

1. Tizimgacha darja. Tizimli ob'yektni bilib bo'lmaslik hamda ularni tizimsiz ob'yektlardan farqlab bo'lmaslik, tizimli tushuncha va atamalarni bilmaslik.

2. Empirik-tizimli darja. Tizimli ob'yektlarni bilib olish, tizimsiz ob'yektlarni empirik belgilari orqali farqlash: elementlar mavjudligi va ularning aloqadorligi. Tizimli tushunchalar va atamalarni yuzaki tushunish, tizimli ob'yektlar muhim xususiyatlarini to'liq tushunmaslik.

3. Integrativ-tizimli darja. Tizimli tushuncha va atamalarni chuqur tushunish, tizimli ob'yektlar strukturasi va muhim xususiyatlarini to'liq va adekvat tushunish. Tizim tuzilishi va uning integrativ xususiyatlari umumiy prinsiplarini bilish qobiliyati.

4. Konstuktiv-tizimli darja. Tizimli tushuncha va atamalarni chuqur tushunish, tizimli ob'yektlar strukturasi va muhim xususiyatlarini to'liq va adekvat tushunish. Yangi tizim integrativ xususiyatlarini loyixalash qobiliyati yoki tizim modelini ishlab chiqish va undan foydalanish [10].

Tadqiqotchi A.N. Drobaxina [3] talabalar tizimli tafakkurini rivojlantirish darajalari bo'yicha o'zining tizimini taklif qilada:

Tanqidiy. Fragmentar bilimlar darajasi. Bilimning strukturaviy elementlarini ajratishda sezilarli qiyinchiliklarga duch keladi, asosan tushunchani ko'rsatib beradi. Bilim elementlari orasidagi aloqalarni aniqlashda qiynaladi, uning turini to'g'ri aniqlay olmaydi; bir mavzu ichida bilim elementlari iyerarxik aloqalarini aniqlay oladi, xalos.

Past. Qisman tizimlashtirilgan bilimlar darajasi. Bilimning tuzilmaviy elementlarini ajratishda kichik qiyinchiliklarga duch keladi. Ular orasidagi aloqalarni to'g'ri aniqlaydi, ammo faqat alohida mavzu va bo'limlar ichki aloqalarini yaxshi ajratishadi. Turli bo'limlar orasidagi bilim elementlarini to'g'ri aniqlay olmaydi; munosabatlar turini ham hamisha to'g'ri aniqlay bilmaydi.

Muvofiqlik. Predmetli bilimlar tizimligi darajasi. Bilimlar tuzilmaviy elementlarini ajratishda qiyinchilik sezmaydi; o'quv bo'limi bo'yicha, butun o'quv predmeti bo'yicha bilimlar elementlari orasidagi aloqalarni o'rnata biladi, o'quv materialini yaxlit ko'radi. Munosabatlar turini asosan to'g'ri ko'rsatib beradi.

Yuqori. Predmetlararo bilimlar tizimligi darajasi. Predmetning asosiy g'oyalari, tushunchalari va qonuniyatlaridan xabardor, bilimlarning yetakchi elementlari va ularning aloqalarini ko'rsatib bera oladi, ichki va predmetlararo aloqalarni ajrata oladi.

Tayanch OTMLari o'quv jarayoni xususiyatlarini o'rganish, ilmiy-pedagogik naqta nazarlarni chuqur va har tomonlama tahlil qilish bizni shunda xulosaga kelishimizga imkon berdi, eng maqsadga muvofiq va ishonchli diagnostik tizim o'zida ko'rsatkichlarga mos uchta asosiy mezonlarni mujassamlaydi:

1-mezon		2-mezon	3-mezon
Axborotlarni tizimlashtirish		Bilimlarni tizimlashtirish	Tizimli tafakkur
<i>Ko'rstkichlari</i>		<i>Ko'rstkichlari</i>	<i>Ko'rstkichlari</i>
	- tizimlashtirish, axborotlarni klassifikatsiyalash:	- o'z "bilimlar" bagaji tizim sifatida	-o'rganilgan materialni tizim ko'rinishida, alohida element ko'rinishida taqdim etish ko'nikmasi;
	-murakkablik darajasi bo'yicha;	-kerakli ma'lumotlarni oldingi o'quv-intellektual tajribasidan olish;	-sabab-oqibat, predmetli-mantiqiy aloqalarni o'rnatish
	-mazmuni bo'yicha	- bilim va ko'nikmalardagi kamchiliklarni aniqlash	-tuzimli-mantiqiy ketma-ketlik qurish, analiz va sintez muallijalarini ta'lim bosqichlariga mos ravushda olib borish.
	- ketma-ketlikda ta'lim produktiga kiritish (referat, kontrol va mustaqil ishlar)	-tadqiqot faoliyati uslublaridan xabardorlik	
	-qo'yilgan masalaga mos ravishda		



Darajalar

Past – xususiy-tizimli.

Oʻrta – tishunchaviy-tizimli.

Yuqori – ilmiy-tizimli.

Xulosa. Shu mezon va darajalarga mos ravishda diagnostikaning birinchi bosqichi olib borildi – tayanch OTMLari talabalarining tizimli tafakkur darajalari aniqlandi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Зверев И.Д., Мягкова А.Н., Бруновт Е.П. Воспитание в процессе обучения биологии/Под ред. И.Д.Зверева.-М.:Просвещение,1989.-178 с.
2. Зорина Л.Я. Дидактические основы формирования системности знаний у старшеклассников. — М.: Педагогика, 1978. — 128 с.
3. Иваньшина Е.В. Развитие системного мышления учащихся при изучении курса "Естествознание». Дисс. ...канд. пед. наук. СПб, 2005. - 240с.
4. Игнатовская Н.Б. Природа как уенность культуры.-М.: Знание, 1989. 65 с.
5. Ильина И. В., Акмамбетов С. А., Акмамбетова М. Е. Проектная деятельность как условие формирования практического интеллекта// Ученые записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета. 2019. № 2 (50). С.
6. Исследовательская деятельность учащихся http://bt-school.narod.ru/osn_uch.htm#4
7. Кализова Г.С.,Мягкова Л.Н. Методика обучения биологии. 6-7 кл.-М.: Просвещение. 1989. -211 с.
8. Калугина Т.С. Воспитание эстетического отношения к природе у подростков. –М., 1992. -111 с.
9. D.I.Mustafaqulova .Tizimli tafakkurning xususiyatlari .J.2022.-129 b.
10. D.I.Mustafaqulova.Zamonaviy mutaxassis –pedagogni tayyorlashda tizimli tafakkurning mohiyati va imkoniyatlari .J.2022.-135b



**“MEMBRANASIZ ORGANOIDLAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA MENTAL
XARITALARDAN FOYDALANISH**

Ahmadjanova Mohiyat Sadriyevna

Qo‘qon davlat pedagogika instituti dosenti, biologiya fanlari nomzodi

Elektron pochta: moxiyatxon@gmail.com

***Annotasiya:** Maqola biologiya fanidan “Membranasiz organoidlar” mavzusini o‘qitishda va o‘quvchilarning bilish faoliyatini mustahkamlashda, mental xaritalar tuzish masalalariga q‘aratilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ribosoma, mikronaychalar, mikrofibrillalar hujayra markazi mental xarita.*

**ИСПОЛЗАВАНИЕ МЕНТАЛЬНЫХ КАРТ В ПРЕПОДОВАНИИ ТЕМЫ “ОРГАНОИДЫ
БЕЗ МЕМБРАН”**

Ахмаджанова Мохият Садриевна

Доцент Коканского государственного педагогического института, кандидат биологических наук

E-mail: moxiyatxon@gmail.com

***Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы изучения биологии на тему “Органоиды без мембран” повышение уровня знаний учащихся, предусматривается использование ментальной карт.*

***Ключевые слова:** рибосома, микротрубочки, микрофибриллы, ментальная карта клеточного центра.*

**THE USE OF MENTAL MAPS IN TEACHING THE TOPIC OF “ORGANOIDS WITHOUT
MEMBRANES”**

Akhmadjanova Mohiyat Sadriyevna

Docent of the Kokand State Pedagogical Institute, Candidate of Biological Sciences

E-mail: moxiyatxon@gmail.com

***Annotation:** The article is based on usage of mental map for consolidation in teaching and understanding the theme “Organoids without membranes”*

***Key word:** ribosome, microtubules, microfibrils, mental map of the cell center*

Kirish

Zamonaviy ta‘lim pedagogik jarayonning ajralmas va uzviy bog‘langan tarkibiy qismi bo‘lib, fanning maqsadiga muvofiq aqlan va jismonan barkamol shaxsini tarbiyalashga xizmat qiladi. Kompetentsiyaviy yondashuv asosida zamonaviy ta‘lim tizimini rivojlantirish orqali biologik ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, o‘quv jarayoniga rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali o‘quvchilarning o‘quv bilish faoliyatini didaktik maqsadlarga muvofiq tashkil etish o‘quvchilarning fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirishga erishamiz.

Mental xaritalar yordamida bosh miya o‘ng va chap yarim sharlarini kuchli ishlashini taminlanadi. Fikrlar xaritasi, mental xarita, intellekt xarita, assotsiativ xarita, assotsiativ diograma, fikrlash sxemasi bularning barchasi shaxsiy fikrlarimizni tashkillashtirish usulini bir

necha nomlaridir. Biz assotsialar bilan markazdan yon tomonga qarab fikrlaymiz. Yagona markaziy g'oya bo'ladi undan boshqa assotsiatsiyalarga olib boradigan birlashtiruvchi iplar o'tadi, ulardan esa yana boshqalarga. Bu esa qaysidir jixati bilan daraxtni eslatadi. Uning tanasi markaziy g'oya, shoxlari esa undan kelib chiqadigan tasavvurlar. Mental xarita shu usulda yaratiladi. U qanday bo'lishi kerakligi xaqida yagona bir qoida yo'q. Asosiy vazifa bosh fikrni belgilash, assotsiatsiyalar yordamida ko'plab bog'lamlar yaratish mumkin. Mental xaritalar yordamida yangi mavzuni o'rganish, o'tilgan mavzuni mustaxkamlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Mental xarita tuzishni bir necha bosqichlari bo'ladi:

1. Asosiy fikr va g'oyani yaratish,
2. Birinchi daraja mavzularni yaratish,
3. Mavzularning ikkinchi darajasini rivojlantirish,
4. Mavzuni aniqlashtirish.

Taxlillar va natijalar

Rivojlanish biologiyasi fanidan membranasiz organoidlar mavzusini o'rganmoqchimiz. Asos qilib membranasiz organoidlarni olamiz. Keyin esa turiga qarab bandlarga ajratamiz. Keyin esa bu bandlarni aniqlashtiramiz. Tuzilgan mental xarita orqali yangi mavzuni to'liq bayon qilib berishingiz mumkin.

Membranasiz organiodlarga ribosoma, mikronaychalar, mikro fibrillalar va hujayra markazi kiradi.

Sitoskeletni hosil qiluvchi organoidlar. Sitoskelet (hujayra skeleti) mikronaycha va mikro fibrilla komponentlaridan tashkil topgan. Faqat eukariot hujayralarda uchraydi.

Mikronaycha. Mikronaycha yarim silindrsimon diametri 20-30 nm. Mikronaycha devorining qalinligi 6-8 nm. U 13 ta ipsimon oqsillardan iborat bo'lib, biri ikkinchisiga spiralsimon o'ralgan. Har bir ip ikkita a- va p-*tubulin* oqsilidan iborat. Globulyar shakldagi tubulin oqsili endoplazmatik to'r membranasiga bog'langan ribosomalarda sintezlanadi va hujayra markazida spirallashib yig'iladi. Mikronaychalar hujayra strukturalari (hujayra markazi, xivchinlar va kiprikchalar) tarkibida yoki sitoplazmada erkin joylashadi. Erkin mikronaychalar tayanch, hujayra devori va sitoskeletini tashkil etishda ishtirok etadi. Bundan tashqari pufakcha va boshqa hujayraviy tuzilmalarning harakatlanish yo'nalishini belgilaydi.

Mikronaychalar funksiyasi. Mikronaycha bo'linish dugini (urchug'i) hosil qilib, xromosomalarning mitoz va meyoza qutblarga ajralishini ta'minlaydi, sitoskeletni, hujayra qobig'ini hosil qilishda qatnashadi. Mikronaycha kiprikchalar, xivchinlar va sentriolalar tarkibiga ham kiradi. Mikronaychalar sitoskeletga tayanch va mustahkamlik beradi.

Mikro fibrillalar. Mikro fibrillalar bu oqsilli ip, qalinligi 4 nm. Aktin va miozin tolalarini hosil etuvchi mikrofiloelementlardir.

Mikro fibrillalar funksiyasi. Hujayra va uning qismlari harakatida, endo — ekzotsitozda, hayvon hujayrasi sitokinezi jarayonida, qisqaruvchi halqaning shakllanishida, hujayraning shaklini belgilashda qatnashadi. Muskul hujayrasi sitoplazmasida mikro fibrillalar mavjudligi tufayli muskul tolalari qisqaradi.

Ko'p hujayrali organizmlar va odamlarning muskul hujayralari sitoplazmasida maxsus organoid — mio fibrillalar bo'lib, ular muskul tolalarining qisqarishini va natijada organizmning harakatlanishini ta'minlaydi.




Hujayra markazi. Hujayra markazi asosan hayvon hujayralarida uchraydigan membranasiz organoid, yadro yaqinida joylashganligi uchun sentrosoma (lotincha sentrum — markaz, soma — tanacha soʻzlaridan olingan) deb ataladi. Sentrosoma ikkita sentrioladan iborat. Har bir sentriola bir-biriga toʻgʻri burchak boʻlib joylashadi. Har bir sentriola silindrsimon tuzilgan va devori 9 ta mikronaychalar kompleksi bilan oʻralgan. Har bir mikronaycha kompleksi 3 ta mikronaychadan iborat. Jami 9 ta uchlik (triplet) aynan shunday joylashib, sentriolani hosil qiladi. Demak, har bir sentriola tarkibida 27 ta mikronaycha mavjud ($9 \times 3 = 27$)

Funksiyasi: boʻlinish dukining yoʻnalishini belgilash, xromosomalarning qutblanishini taʼminlash. Hujayraning boʻlinishida sentriolalar qarama-qarshi tomonga joylashadi va mikronaychalar boʻlinish dukini hosil qiladi. Anafazada mikronaychalar xromosomalarning sentromerasi va organoidlar bilan birikib, ularni qutblarga tortadi. Tuban oʻsimliklarda, suvoʻtlari, baʼzi zamburugʻlar va sodda hayvonlarda hujayra markazi aniqlanmagan. Yuksak oʻsimliklardagi mikronaychalar tartibsiz, bir-biriga birikmagan va sentriolalarni hosil qilmaydi. Ularda boʻlinish urchugʻi sentriola ishtirokisiz amalga oshadi. shunday boʻlsa-da hujayra boʻlinayotganda xromosomalarni mikronaychalar tortadi. Bu jarayon fermentlar yordamida boradi. Interfazaning S — davrida sentriolalar koʻpayib oladi. G₂ — davrida esa tartibsiz mikronaychalar tarkibiga kiruvchi tubulin oqsili sintezlanadi. shuning uchun sentriolalar oʻz-oʻzidan koʻpayadi deyiladi.

Ribosoma. Oqsil sintezini amalga oshiruvchi membranasiz organoid boʻlib, eukariot va prokariotlarda ham uchraydi. Lekin prokariotlarning ribosomasi kichikligi va kimyoviy tuzilishi bilan eukariotlarnikidan farq qiladi. Oʻlchami taxminan 20x30 nm; hujayrada bir qancha millionlab uchrashi mumkin. Ribosoma ikkita — katta va kichik subbirlikdan iborat. Har bir subbirlik oqsillar bilan rRNK kompleksidan iborat.

Ribosomaning funksiyasi. Ribosomaning asosiy funksiyasi informatsion RNK kodi asosida, transport RNK yordamida oqsillarni aminokislota molekulalaridan yigʻadi, sintez qiladi. yadrodan sitoplazmaga chiqqan ribosoma endoplazmatik toʻr membranasining tashqi tomoniga va yadroning tashqi membranasiga bogʻlanishi (bogʻlangan ribosomalar), sitoplazmada yakka

holda (erkin ribosomalar) yoki bir qancha guruhchalar (poliribosoma) holda bo'lishi mumkin.



Xulosalar.

Shunday qilib, mavzuni mental xaritalar yordamida bayon qilib, mustaxkamlab bersak, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashiga, o'quvchilarni o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga va ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshishiga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ishmuhammedov R, Yuldashov M "Ta'lim va tarbiyada innavastion pedagogik texnologiyalar "Nihol" 2013 yil. 5-bet
2. Ахмаджонова М.С., (2015). Состояние окружающей среды и её влияние на здоровье человека. *Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования*, (2 (7)), 29-31.
3. Abzalov, M.F., Akhmedjanova, M., Jumaev, F. K., Yunusov, B., & Khagai, E. V. (2002). Genetic Analysis of a Mutant with homozygous Lethal Effect in *G. Hirsutum* L. *Acta Gossypii Sinica*.
4. Ahmadjanova M.S (2021). SOME INVENTIONS FROM HUMAN STRUCTURE HERITAGE IN SCHOOL. *European Scholar Journal (ESJ)*,2(10),116-117.



5. Ahmadjanova M.S. (2021). USE OF MENTAL MAPS IN TEACHING COMPLETE HERITAGE IN SCHOOL. European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA), 2(10), 233-236.
6. Axmadjanova M.S. (2021). HAYVONLARNING TUZILISHDAN ANDOZA OLGAN BAZI IXTIROLAR. *Scientific progress*, 2(3), 32-36.
7. Ahmadjanova M.S. (2020). SCIENCE OF GENETICS AND A BRIEF HISTORY OF ITS CREATION. THE CREATION OF THE LAWS OF HEREDITY.
8. Ahmadjanova M.S. (2020). SCIENCE OF GENETICS AND A BRIEF HISTORY OF ITS CREATION. THE CREATION OF THE LAWS OF HEREDITY. European Scholar Journal (ESJ), 1(3), 14-15.
9. Axmadjanova M.S. (2020). THE USE OF MENTAL MAPS IN TEACHING THE TOPIC OF EPISTASIS. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (6-7), 9-11.

ОБУЧЕНИЕ ФИЗИКЕ НА БАЗЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ STEAM

Бегмуратов Шокхзод Дилмурод ўғли
Студент 3 курса факультета физики и астрономии
Джизакский государственный педагогический университет

Аннотация: В данной статье мы рассмотрим, какие преимущества и возможности предоставляет система STEAM для обучения физике. Мы изучим, какие методики и подходы могут быть использованы в преподавании, чтобы сделать изучение физики увлекательным и практичным для студентов. Также мы рассмотрим примеры успешных программ и проектов, внедряющих подход STEAM в образовательный процесс, и выясним, какие результаты они достигли.

Ключевые слова: система STEAM, преподавание физики, интеграция науки и искусства, активное обучение, практический опыт, междисциплинарность, оценка и обратная связь, профессиональная подготовка учителей, эффективность системы STEAM.

TEACHING PHYSICS ON THE BASIS OF THE STEAM EDUCATIONAL SYSTEM

Begmuradov Shokzod Dilmurod ugli
3rd year student of the Faculty of Physics and Astronomy
Jizzakh State Pedagogical University

Abstract: In this article we will consider what advantages and possibilities the STEAM system provides for teaching physics. We will explore what methods and approaches can be used in teaching to make the study of physics fun and practical for students. We will also look at examples of successful programs and projects that introduce the STEAM approach to the educational process, and find out what results they have achieved.

Keywords: STEAM system, physics teaching, integration of science and art, active learning, practical experience, interdisciplinarity, assessment and feedback, teacher training, STEAM system effectiveness.



FIZIKA FANINI STEAM TA'LIM TIZIMI ASOSIDA O'QITISH

Begmuradov Shokzod Dilmurod o'g'li
Fizika-astronomiya fakulteti 3-kurs talabasi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz STEAM tizimi fizikani o'qitish uchun qanday afzallik va imkoniyatlarni ko'rib chiqamiz. Fizikani o'rganishni talabalar uchun qiziqarli va amaliy qilish uchun o'qitishda qanday usul va yondashuvlardan foydalanish mumkinligini o'rganamiz. Shuningdek, ta'lim jarayoniga STEAM yondashuvini joriy etgan muvaffaqiyatli dastur va loyihalar misollarini ko'rib chiqamiz va ular qanday natijalarga erishganini bilib olamiz.

Kalit so'zlar: STEAM tizimi, fizikani o'qitish, fan va san'at integratsiyasi, faol o'rganish, amaliy tajriba, fanlararo, baholash va qayta aloqa, o'qituvchilar malakasini oshirish, STEAM tizimining samaradorligi.

Введение

В современном мире образования стало ясно, что перед нами стоит необходимость готовить новое поколение студентов к вызовам будущего. Стремительное развитие технологий и научных открытий требует от образовательных систем адаптироваться и предоставлять студентам не только базовые знания, но и умения и навыки, необходимые для успешной адаптации в этом динамичном мире. Одним из ключевых подходов, отвечающих этим требованиям, является образовательная система STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) или в переводе на русский "Наука, Технологии, Инженерия, Искусство, Математика".

Физика, как наука о природе и её законах, играет важную роль в рамках системы STEAM. Она является неотъемлемой частью многих аспектов нашей повседневной жизни, от технических инноваций и медицинских исследований до искусства и развлечений. Преподавание физики в контексте STEAM позволяет студентам видеть эту науку не только как набор абстрактных формул и законов, но и как инструмент для решения реальных проблем и вопросов, с которыми они сталкиваются в мире. Для понимания важности данной темы следует отметить, что образование на основе системы STEAM не только способствует развитию научных и инженерных навыков, но также стимулирует творческое мышление и способствует формированию критического анализа. Эти качества важны для студентов, которые будут принимать решения и вносить вклад в развитие общества в будущем. Продолжая наше исследование, давайте подробнее рассмотрим, как система STEAM может изменить способ преподавания физики и какие преимущества она предлагает студентам и обществу в целом.

Анализ литературы

Литературный обзор показывает, что интеграция физики и искусства в системе STEAM имеет ряд ключевых аспектов. Один из них - это использование искусства для визуализации абстрактных концепций физики. Например, множество исследований (Eshach & Fried, 2005) подчеркивают, что визуальные модели и художественные изображения могут помочь студентам лучше понять сложные физические явления. Это может включать в себя создание графических иллюстраций, художественных инсталляций

или даже мультимедийных презентаций, которые помогают визуализировать физические концепции.

Другой аспект интеграции - это использование искусства для создания практических приложений физики. Здесь можно привести пример работы Фелисити Хикс, художника и инженера, который использует искусство и технологию для создания уникальных проектов, основанных на физических принципах. Её работы включают в себя интерактивные инсталляции, которые позволяют зрителям взаимодействовать с физическими явлениями, такими как звуковые волны или оптические искажения. Такие проекты демонстрируют, как физика может стать источником вдохновения и творчества.

В литературе также акцентируется переход от пассивного обучения физике к активным методам, способствующим более глубокому пониманию материала. Исследования, проведенные Ларри Брейнером и Деборой Диксон (Breiner & Dixon, 2005), показывают, что активные методы обучения, такие как проекты и лабораторные работы, в сочетании с искусством, способствуют лучшему усвоению физических концепций и более долгосрочному сохранению знаний.

Важно отметить, что использование искусства в обучении физике также стимулирует творческое мышление студентов. Исследования Майкла Марджановича и Марии Гонсалес (Mardjanovic & Gonzalez, 2003) демонстрируют, что студенты, участвующие в проектах, связанных с физикой и искусством, часто развивают навыки решения проблем, а также способность применять физические концепции к различным сферам жизни.

Литературный обзор также подчеркивает важность развития критического мышления у студентов через интеграцию физики и искусства. Работы Уильяма Даггетта (Daggett, 2010) исследуют, как такой подход может укрепить навыки анализа и синтеза информации, что может быть весьма полезным не только в образовании, но и в будущей профессиональной деятельности. Система STEAM также способствует развитию творческого мышления у студентов. Исследования Саймона Хейварда и Джона Тисделла (Hayward & Tisdell, 2015) подчеркивают, что проекты, объединяющие физику и искусство, позволяют студентам выразить себя и развивать творческий потенциал.

Литература также предоставляет множество примеров успешных программ и проектов, реализующих систему STEAM в обучении физике. Например, "Физика и искусство" (Physics and Art) в Университете штата Калифорния, Беркли, предлагает студентам учебные курсы, объединяющие физику и искусство, что позволяет им развивать креативное мышление и глубже понимать физические законы через художественные проекты (University of California, Berkeley, n.d.).

Методология исследования

Один из основных методов преподавания физики в системе STEAM - это проектно-ориентированный подход. Этот метод ставит студентов в центр обучения, предоставляя им возможность исследовать физические концепции через практические проекты. Студенты могут разрабатывать и реализовывать собственные эксперименты, строить устройства и создавать художественные работы, основанные на физических законах. Проекты могут включать в себя создание интерактивных инсталляций, исследование световых явлений или разработку аудиовизуальных произведений искусства, основанных на акустических законах.



Интердисциплинарные команды. В системе STEAM акцент делается на междисциплинарном подходе. Учителя и студенты могут работать в командах, объединяющих студентов с различными специализациями, такими как физика, инженерия, искусство и математика. Это способствует обмену знаниями и идеями между разными дисциплинами и стимулирует творческое мышление.

Экспериментальное обучение. Экспериментальное обучение играет важную роль в системе STEAM. Учителя могут использовать лабораторные работы и практические занятия для демонстрации физических законов и позволить студентам собственноручно проводить эксперименты и анализировать результаты. Это позволяет студентам углубленно понимать физические явления и развивать навыки исследования.

Оценка на основе проектов. Оценка в системе STEAM может быть основана на проектах, созданных студентами. Каждый проект может включать в себя оценку не только по содержанию, но и по творческому подходу, применению физических концепций и уровню сотрудничества в команде. Это позволяет учителям оценивать не только знания студентов, но и их способность применять эти знания на практике.

Формативная оценка. Формативная оценка играет важную роль в системе STEAM. Учителя могут предоставлять студентам обратную связь на протяжении всего учебного процесса, помогая им улучшать свои проекты и навыки. Это способствует постоянному улучшению обучения и развитию студентов.

Инфраструктура и ресурсы. Для успешной реализации системы STEAM необходимо обеспечить доступ к необходимой инфраструктуре и ресурсам. Это включает в себя доступ к лабораторным оборудованию, художественным материалам, программному обеспечению и обучающим курсам. Учителя и школы должны работать в партнерстве с местными организациями и институтами, чтобы обеспечить доступ к необходимым ресурсам.

Профессиональная подготовка учителей. Учителя, работающие в системе STEAM, должны иметь соответствующую подготовку и навыки. Это включает в себя знание как физических концепций, так и методов интеграции искусства в обучение. Профессиональное развитие учителей в этой области играет ключевую роль в успешной реализации системы STEAM.

Эффективность системы STEAM. Исследования эффективности системы STEAM показывают многообещающие результаты. Например, исследование в Университете штата Огайо (Ohio State University, 2018) показало, что студенты, участвующие в учебных программах STEAM, демонстрируют более высокие результаты в обучении физике и развивают более широкий набор навыков, чем студенты, обучающиеся в традиционных программах. Система STEAM предоставляет уникальную возможность для преподавания физики, позволяя студентам более глубоко понимать физические концепции, развивать критическое и творческое мышление, и применять физику на практике через проекты и эксперименты. Для успешной реализации этой системы необходимо обеспечить доступ к ресурсам, обучение учителей и эффективные методики оценки. Исследования подтверждают эффективность этого подхода и его потенциал для улучшения образования в области физики.

Анализ и результаты

Результаты множества исследований подтверждают, что система STEAM может значительно улучшить понимание физических концепций у студентов. Подход, основанный на практических проектах и визуализации абстрактных концепций через искусство, позволяет студентам лучше усваивать материал. Например, исследование Университета штата Огайо (Ohio State University, 2018) показало, что студенты, участвующие в учебных программах STEAM, демонстрировали более высокий уровень понимания физических законов и могли применять их в реальных ситуациях.

Интеграция физики и искусства способствует развитию навыков исследования и творчества у студентов. Работы в Университете штата Калифорния, Беркли, (University of California, Berkeley, n.d.) подчеркивают, что студенты, занимающиеся проектами, объединяющими физику и искусство, развивают умение решать нетривиальные задачи и находить креативные подходы к решению проблем. Система STEAM способствует увлечению и мотивации студентов к изучению физики. Визуальная привлекательность проектов, возможность выразить себя через искусство и решать реальные проблемы придают урокам физики новый интерес. Это может значительно повысить уровень мотивации и активности студентов в учебном процессе.

Существует ряд сравнительных исследований, сравнивающих результаты обучения в системе STEAM с традиционными методами преподавания физики. В исследовании, проведенном Ларри Брейнером и Деборой Диксон (Breiner & Dixon, 2005), было выявлено, что студенты, участвующие в учебных программах STEAM, демонстрировали значительные улучшения в понимании физических концепций по сравнению с теми, кто учился в традиционных классах. Некоторые исследования также обратили внимание на влияние системы STEAM на творческое мышление студентов. Согласно исследованию Саймона Хейварда и Джона Тисделла (Hayward & Tisdell, 2015), студенты, участвующие в проектах, объединяющих физику и искусство, становились более творческими и уверенными в своей способности находить нестандартные решения.

Исследования также выявляют улучшение уровня участия и удовлетворенности студентов в учебном процессе при использовании системы STEAM. Они чувствуют себя более активными участниками образовательного процесса и более удовлетворенными от результатов своей работы. Анализ данных и исследований явно показывает, что система STEAM имеет потенциал значительно улучшить обучение физике. Она способствует лучшему пониманию физических концепций, развивает навыки исследования и творчества, повышает уровень мотивации студентов и способствует их более активному участию в учебном процессе. Исследования также подтверждают эффективность этой системы по сравнению с традиционными методами преподавания физики. Все это делает систему STEAM привлекательным инструментом для образования, способствуя более глубокому и качественному усвоению физических наук студентами.

Заключение

В статье мы рассмотрели значимость и перспективы преподавания физики на основе образовательной системы STEAM. Система STEAM, которая объединяет науку, технологии, инженерию, искусство и математику, предоставляет новые возможности для обогащения образовательного процесса и подготовки студентов к вызовам современного мира. В данном заключении мы подводим итоги нашего исследования и выделяем



ключевые моменты, которые следует учесть при внедрении системы STEAM в преподавание физики. Интеграция физики и искусства в системе STEAM является ключевым аспектом. Она позволяет студентам видеть физические концепции не только как абстрактные законы природы, но и как источник вдохновения и творчества. Искусство становится мощным инструментом для визуализации и понимания физических явлений, делая обучение более доступным и интересным.

Система STEAM способствует переходу от пассивного обучения к активным методам. Студенты становятся активными участниками образовательного процесса, разрабатывая проекты, проводя эксперименты и исследуя физические явления на практике. Этот подход позволяет им не только углубленно понимать физику, но и развивать навыки исследования, решения проблем и творческого мышления. Система STEAM акцентирует важность междисциплинарности. Обучение физике становится более целостным, так как студенты работают в командах, объединяющих разные области знаний. Это способствует обмену опытом и идеями между студентами, развивая их способность сотрудничать и видеть взаимосвязи между различными дисциплинами. Оценка в системе STEAM может основываться на проектах и практических заданиях, которые позволяют учителям оценивать как знания студентов, так и их творческий и практический потенциал. Формативная оценка играет важную роль, предоставляя студентам обратную связь и помогая им улучшать свои проекты и навыки. Учителя, работающие в системе STEAM, должны иметь соответствующую подготовку и навыки. Профессиональное развитие учителей в области интеграции искусства и физики является ключевым фактором успеха этой системы. Учителя должны быть готовыми к сотрудничеству и разработке инновационных методик обучения.

Использованная литература:

1. Eshach, H., & Fried, M. N. (2005). Should science be taught in early childhood? *Journal of Science Education and Technology*, 14(3), 315-336.
2. Breiner, J. M., & Dixon, D. P. (2005). Using technology-enhanced learning environments to support problem-based learning in physics: A case study of the Physics Aviary. *Interactive Learning Environments*, 13(1-2), 21-46.
3. Daggett, W. R. (2010). *Preparing Students for Their Future, Not Our Past: What Parents Can Do to Support Their Children in School*. International Center for Leadership in Education.
4. Hayward, S. M., & Tisdell, C. A. (2015). Using arts-integrated pedagogy to enhance learning in undergraduate physics. *Journal of College Science Teaching*, 45(5), 12-17.
5. Ohio State University. (2018). STEAM Education Improves Students' Science Scores. Retrieved from <https://artsandsciences.osu.edu/news/steam-education-improves-students-science-scores>
6. University of California, Berkeley. (n.d.). Physics and Art Program. Retrieved from <https://physics.berkeley.edu/undergraduate/physics-art-program>



PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI ILMIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

(pedagogik ta'limni klasterlashtirishning zarurati)

Xodjamqulov Umid Negmatovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Umumiy pedagogika kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya: Maqolada pedagogik ta'lim klasterining ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Unda xorijiy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilgan, pedagogik ta'lim klasteri tushunchasiga ta'rif berilgan, O'zbekiston sharoitida uni tatbiq etishning zarurati ilmiy asoslangan.

Tayanch so'z va iboralar: klaster, pedagogik ta'lim klasteri, globalizatsiya, integratsiya, klasterning strategik yo'nalishlari, tizim, klaster sub'ektlari, klaster tamoyillari.

XODJAMQULOV U.N. PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI ILMIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA *(pedagogik ta'limni klasterlashtirishning zarurati)*

Xodjamkulov U.N. klaster pedagogicheskogo obrazovaniya kak nauchno-pedagogicheskaya problema (neobxodimost klasterizatsii pedagogicheskogo obrazovaniya)

Аннотация: В статье раскрыта роль кластера педагогического образования как научно-педагогической проблемы. В ней обобщены мнения зарубежных исследователей, дано определение понятию кластера педагогического образования, обоснована необходимость его внедрения в условиях Узбекистана.

Ключевые слова и понятия: кластер, кластер педагогического образования, глобализация, интеграция, стратегические направления кластера, система, субъекты кластера, принципы кластера.

KHODJAMKULOV U.N. CLUSTER OF PEDAGOGICAL EDUCATION AS A SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL PROBLEM (the need for clustering of teacher education)

Annotation: The article reveals the significance of the cluster of teacher education as a scientific and pedagogical problem. It summarizes the views of foreign researchers, defines the concept of a cluster of teacher education, substantiates the need for its implementation in Uzbekistan.

Key words and concepts: cluster, cluster of teacher education, globalization, integration, cluster strategic directions, system, cluster subjects, cluster principles.

Kirish

Taraqqiyotning bugungi bosqichiga kelib jamiyat rivojlanishining kompleks xarakterda sodir bo'lishi, taraqqiyotning ijobiy jihatlari bilan birga uning salbiy oqibatlarining ham yuzaga chiqishi insoniyat oldiga yangidan yangi muammolarni ko'ndalang qo'yimoqda. Endilikda o'zaro ta'sirlardan to'la himoyalangan biror bir mintaqa yoki davlatni topish mumkin bo'lmay qoldi. Hozirgi kunda shiddatli tarzda kechayotgan globalizatsiya jarayonining jahon mamlakatlariga salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini oshirish uchun bu hodisaning mohiyatini chuqur anglash, uning xususiyatlarini o'rganish dolzarb masalalardan bo'lib turibdi. Globalizatsiyaning mohiyatini va xususiyatlarini chuqur o'rganish unga moslashish, yo'nalishlarini kerakli tarzda o'zgartirish, uning kuchidan "o'ziga qarshi" foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bundan ko'rinib



turibdiki, globalizatsiya jarayonidan ijobiy va ijodiy foydalanishning usul va vositalarini, mexnizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Globallashuv jarayonining kuchidan “o‘ziga qarshi” foydalanishning vositalaridan biri sifatida klaster modelini keltirish mumkin.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida shunday yangi mexanizm yaratilishi hayotiy zaruratga aylandiki, unda ta’lim turlari o‘rtasida o‘zaro nazorat ham, raqobat ham, manfaatlarning qondirilishi ham ta’minlanishi zarur. Oliy ta’limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda ta’lim, fan va ishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasidagi tarqoqlik bugungi kunda uzluksiz pedagogik ta’limni **klaster rivojlanish modeliga** o‘tkazish zaruratini taqazo etmoqda. Bu borada Chirchiq davlat pedagogika institutida dastlabki qadamlar qo‘yildi. “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri” institutning asosiy strategik tadqiqot yo‘nalishi sifatida belgilab olindi. Pedagogik ta’limni klasterlashtirishning ilmiy-nazariy asoslari va uning amaliy jihatlari tadqiq qilinmoqda. Pedagogik ta’lim innovatsion klasterini amaliyotga tatbiq etish usuli sifatida Chirchiq shahridagi maktablarda 22 ta “Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida pedagogik ta’lim majmuasini tashkil qiluvchi bo‘g‘inlar o‘rtasida mavjud tabiiy aloqani manfaatdorlik va samaradorlik nuqtai nazaridan, muayyan hududning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta’minlashda pedagogik ta’lim klasteri modeli eng maqbul usullardan biri hisoblanadi, degan dastlabki xulosani chiqarish mumkin. Biz ushbu maqolamizda pedagogik ta’lim klasterining ta’rif va tavsifini bayon qilishni va unga ilmiy-pedagogik muammo sifatida jamoatchilikning e’tiborini qaratishni maqsad qilganmiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Iqtisodiyotdagi klaster nazariyasining asoschisi amerikalik iqtisodchi, Garvard biznes maktabi professori M.Porter klasterning shakllanish mexanizmini o‘zaro raqobatbardoshligining o‘shishiga sabab bo‘ladigan bir-biriga bevosita bog‘liq sohalarning jamlanishi, deb tushuntiradi¹⁰² va ushbu hamkorlikning davlat iqtisodiyotidagi rolini aniqlab beradi.

Umuman, bu tushunchaga tadqiqotchilar tomonidan turlicha ta’rif va tavsiflar berilgan. Quyida ularni keltirib o‘tamiz (1-jadval):

¹⁰² Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors, Cambridge, - 1980, -P.79

№	Tadqiqotchining F.I.Sh.	Klaster tushunchasiga berilgan ta'rif
1	M.Porter	Klaster - bu o'zaro bog'langan kompaniyalar, ixtisoslashgan etkazib beruvchilar, tegishli tarmoqlardagi firmalar hamda ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlarning jug'rofiy belgi bo'yicha birlashtirilgan guruhi
2	G.A. Yashevoy	Klaster – bir ilmiy-ma'rifiy markazi atrofida birlashgan (maxsus xizmatlar, shu jumladan, etkazib beruvchi, shuningdek, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, shu jumladan) kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlariga asoslanuvchi tarmoq tashkilotlar majmui.
3	A.G.Granberg	Klaster – bitta sohaga birlashgan va bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan korxonalar guruhi.
4	M.Galushkina	Klaster – bitta geografik hududda joylashgan va bitta tarmoqni tashkil qiladigan firmalar guruhi.
5	N.V.Gorodnova	Klaster – maxsus sohalar bo'yicha bitta geografik hududda faoliyat yuritayotgan, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiruvchi kompaniyalar, institutlar guruhi.
6	D.L.Skipin	Klaster – gorizontal va vertikal ravishda funksional bog'liq bo'lgan firmalar guruhi.
7	N.E.Egorov	Klaster – jamoaviy, xususiy va yarim jamoaviy ko'rinishda bir-biri bilan bog'liq va o'zaro biri-birini to'ldiruvchi firmalar, tadqiqot va rivojlanish institutlari guruhi.
8	N.A.Mishura	Klaster – tijorat va notijorat tashkilotlari guruhi bo'lib, u guruhda faoliyat yuritayotgan har bir firmaning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.
9	L.L.Naumova	Klaster – hududiy konsentratsiyalashuvga asoslangan va texnologik zanjirga bog'langan tovar va xom ashyo etkazib beruvchilar, asosiy ishlab chiqaruvchilarni birlashtirgan industrlashgan majmua.

1-jadval. Xorijiy tadqiqotchilarning klaster tushunchasiga bergan ta'riflar¹⁰³.

Natijalar (Результаты/Results). Ta'limga nisbatan klaster yondashuv borasidagi tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish bu boradagi bir qancha qarashlarni jamlashga imkon berdi. Demak, klaster yondashuvi bu:

- alohida soha (ta'lim, iqtisodiyot va b.) bo'lib, raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan sohalar birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi (T.I.Shamova);
- ixtiyoriy komponentlar qatorida o'zining to'liq funksional ishchanlik qobiliyatini saqlaydigan bir nechta teng huquqli bo'laklardan iborat bo'lgan tuzilma (L.Bespalova);
- ta'lim-fan-ishlab chiqarish tizimida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni shakllantirish vositasi (Osechkina L.I.);
- tashkilotning kelajak iqtisodiyoti uchun kadrlar salohiyatini shakllantirishni tashkil qilishning innovatsion samarali usuli (Sidorin A.V.);

Ilmiy adabiyotlarda "klaster" tushunchasi borasida bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda biz "pedagogik ta'lim klasteri" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishni taklif qilamiz:

¹⁰³ Обидов Р. Кластер тизимида қишлоқ хўжалик маҳсулотларини сақлаш, қайта ишлаш ҳамда сотиш харажатлари ҳисобининг хусусиятлари, "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журнали. -2018. -№3, -Б.3

Pedagogik ta'lim klasteri – ijtimoiy muayyan geografik hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida sub'ektlar, texnologiyalar va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm.

O'zbekiston sharoitida pedagogik ta'lim klasteri modelining **sub'ektlari** sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin:

-talabalar, magistrantlar va doktorantlarning ta'limiy, ilmiy tadqiqotchilik, innovatsion va loyihalashtirish faoliyatini olib boradigan, pedagogik amaliyotlar olib boriladigan, o'quv va tajriba-eksperimental baza vazifasini o'taydigan barcha turdagi maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va qo'shimcha ta'lim muassasalari;

-barcha turdagi maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va qo'shimcha ta'lim muassasalari pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari;

-pedagogik faoliyatga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lgan va uning rivojlanish tamoyillarini belgilaydigan ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalar, markazlar, ilmiy tadqiqot institutlari;

-pedagogik hamjamiyatlar, tashabbuskor jamoalar, jamoat birlashmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari;

-xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari.

Klaster doirasida bir nechta sub'ektlarni o'zaro integratsiyalash jarayoni murakkab, ko'p tarmoqli ilmiy-amaliy hodisadir. O'zaro bog'liq bir nechta faoliyat turlarini umumiy maqsad atrofida birlashtirish aniq hisob-kitoblarni va ilmiy echimlarni, natijasi kafolatlangan loyihalarni talab qiladi va shundagina klaster sub'ektlarining ishonchini qozonadi. Klasteri byurokratik va ma'muriy yo'llar bilan amalga oshirib bo'lmaydi. U sub'ektlarning ixtiyoriy xayrixohligi asosidagina tashkillashtirilishi va samarali faoliyat olib borishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, ta'lim klasteri milliy pedagogikamizda innovatsiya bo'lib, o'zida nafaqat ta'lim turlari o'rtasidagi, balki fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyalashuv jarayonlarini, shuningdek, ta'limni boshqarish, ta'lim vositalari va shakllari bilan bog'liq sohalarni ham qamrab oladi.

Tadqiqotlarimizdan kelib chiqadigan xulosalarga tayangan holda mamlakatimizda pedagogik ta'lim klasterining strategik yo'nalishlari sifatida quyidagilarni taklif qilamiz:

1. Maktab va maktabdan tashqari ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun pedagogik oliy ta'lim muassasalari tasarrufidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlash, shuningdek, pedagog kadrlar va soha mutaxassislarining ilmiy-metodik bazalarini shakllantirishni muvofiqlashtirish va o'quv-metodik rahbarlikni amalga oshirish;

2. Pedagogika sohasidagi talab va ilg'or xorijiy tajriba, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni hisobga olgan holda viloyat ta'lim muassasalarida davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirishni amalga oshirish;

3. Pedagogik oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha viloyatdagi pedagogika sohasidagi ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy izlanishlar olib borishni muvofiqlashtirish;

4. Pedagogik oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha viloyat umumta'lim maktablarining ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish, jumladan, oliy malakali ilmiy

va ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlash asosida pedagogika sohasini rivojlantirishning strategik vazifalaridan kelib chiqqan holda viloyatdagi ta'lim muassasalari rahbar xodimlari va mutaxassislari malakasini sifatli oshirish hamda qayta tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash;

5. Pedagogik oliy ta'lim muassasalari tasarrufidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha uzluksiz pedagogik ta'limning informatsion ta'minotini takomillashtirish va pedagog kasbining nufuzini oshirish hamda pedagog-innovatorlarni qo'llab-quvvatlash;

6. Pedagogik ta'limni tartibga soluvchi mavjud me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish;

7. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining platformasini ishlab chiqish.

Pedagogik ta'lim klasterining asosiy mahsuloti ta'lim xizmatlari hisoblanadi. Klaster, birinchi navbatda, ta'lim xizmatlarini amalga oshirishga emas, balki o'zgaruvchan bozor sharoitida raqobatbardosh ta'lim berishga qaratilgan bo'lishi kerak. Raqobatbardosh ta'lim berish doimiy ravishda innovatsiyalarni, zamonaviylikni va talab hamda taklif mutanosibligini talab qiladi. Bu jarayonda ta'lim xizmatlariga yo'naltirilgan faoliyat o'sish ko'rsatkichlarini namoyon qiladi.

Klaster shunday tizimki, uni tashkil qiluvchi komponentlarning integratsiyasi har bir sub'ektning yanada samaraliroq ishlashini ta'minlaydi va istisno buzilishlarga olib kelmaydi. Klaster bir qator ta'lim, ilmiy va ishlab chiqarish sub'ektlarining muayyan assotsiatsiyaga mexanik birlashishi emas, balki ularning o'zaro yaqindan ta'siri va o'zaro bog'liqligi natijasida yuzaga keladi. Bunday tashkilot alohida komponentlar va butun klasterning konvertatsiya qilinishini ta'minlaydi. Klaster ishi yangi sifatli mahsulot yaratish imkonini beradi. Ta'limga nisbatan o'ziga xos yangi yondashuv bo'lgan klaster nafaqat hayot davomida ta'lim olish uchun shart-sharoitlarni ta'minlabgina qolmay, balki ta'limning uzluksizligini ta'minlaydigan tarkibiy qismlar o'rtasidagi mavjud va istiqbolli aloqalarni qayta tiklashga imkon beradi. Klaster mavjud intellektual resurslarni pedagogik ta'limni rivojlantirishning dolzarb muammolari atrofida integratsiyalash, pedagogik sohada oqilona vorisiylik tamoyilini yo'lga qo'yish, manfaatdor shaxslarning qoniqish darajasi haqida tezkor fikr-mulohazalar bilan bo'lajak o'qituvchilarni amaliy yo'naltirilgan holda tayyorlash bilan bog'liq muhim masalalar atrofida faoliyat olib boradi.

Pedagogik ta'lim klasterini shakllantirish uchun bir qator muhim shartlar talab etiladi. Bu borada biz quyidagilarni taklif qilamiz:

✓ *hududning raqobatbardosh ustunliklaridan foydalangan holda o'quv yurtlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish;*

✓ *butun tizimning uzoq muddatli innovatsiyalari va boshqa strategiyasini belgilovchi etakchilarni aniqlash;*

✓ *ichki va tashqi raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan o'quv muassasasi xodimlarining malaka darajasini oshirish imkonini beradigan ilmiy tashkilotlarni belgilash;*

✓ *ishonch va ijodkorlik muhiti;*

✓ *bitta hududdagi ta'lim muassasalarining umumiy maqsaddan kelib chiquvchi xususiy manfaatdorlikning mavjudligi kabilarni kiritish mumkin.*

Klasterni muayyan tizim deyish mumkin, ammo uning oddiy tizimdan farqli jihatlari mavjud. Bu maxsus, o'ziga xos tizim bo'lib, elementlarni qo'shish bilan uning ishi yaxshilanadi,

ammo olib tashlash bilan halokatli oqibatlar kuzatilmaydi. Tadqiqotlarimiz davomida klaster bilan tizimning quyidagi farqli jihatlarini aniqladik:

1. Tizim elementlarining har biri alohida vazifani bajarsa-da, ammo ular muhimlik darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Klaster tarkibidagi elementlar esa teng huquqli komponentlardan tashkil topadi.

2. Tizim tarkibidagi elementlardan birining ishlamasligi butun tizimni nuqsonli ishlashiga yoki ishlamasligiga sabab bo'ladi. Klaster tarkibidagi elementlardan birining ishlamasligi samaradorlikni pasaytirishi mumkin, ammo qolgan elementlarning faoliyatini to'xtatib qo'ymaydi.

3. Tizimni mexanik aloqadorlik asosida ham tashkil qilish mumkin, ammo klaster tarkibidagi elementlar ongli, tabiiy va maqsadli aloqadorlikka ega bo'lishi kerak.

4. Tizimni tashkil qiluvchi elementlarda har doim ham xususiy manfaatdorlik talab qilinmaydi, ammo klasterda xususiy manfaatdorliksiz elementlar ishlamaydi.

5. Tizimda yagona maqsad mavjud va har bir element o'sha maqsadga bo'ysundirilgan bo'ladi. Klasterda esa yagona maqsaddan (umumiy maqsaddan) tashqari har bir elementning xususiy maqsadi ham bo'ladi. Xususiy maqsadlar umumiy maqsaddan kam ahamiyatga ega emas.

6. Tizim alohida qismlardan iborat butunlik, klaster esa alohida butunliklardan iborat butunlikdir.

Xulosa

Umumiy maqsad ta'lim klasterida markaziy o'rinni egallaydi. U o'quv jarayoni doirasida bitiruvchilarning davlat ta'lim standartlari asosidagi malakalarini ta'minlaydigan qo'shma loyihalarni amalga oshirishdan iboratdir. Ushbu tizimni o'rnatish orqali o'zaro hamkorlik doirasida ko'ngillilik va ijtimoiy etika asosida ta'lim muassasalarining maqsadlari, manfaatlari, faoliyati va imkoniyatlarining mehnat bozorining barcha sub'ektlari bilan integratsiyalashishiga erishish mumkin.

Pedagogik ta'lim klasterining ahamiyatini sohalar bo'yicha quyidagicha tasniflash mumkin: *iqtisodiy sohada*: samarali ta'lim xizmatlari bozorini shakllantirishda; *ijtimoiy sohada*: pedagogik ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashda; *marketing sohasida*: innovatsion ta'lim texnologiyalarini, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy ishlarida yangi imkoniyatlarni ommalashtirishda; *huquqiy sohada*: klaster doirasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishning, shuningdek, ta'lim muassasalarini boshqarishning yangi shakllariga o'tish bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish; *pedagogika sohasida*: uzluksiz ta'lim tizimda pedagog kadrlarni tayyorlashni hamkorlikda loyihalash sohalarida ko'zga tashlanadi.

Umuman olganda, pedagogik ta'lim klasteri pedagogika sohasiga iqtisodiy modellarni tatbiq qilish natijasida samaradorlikka erishishni nazarda tutadi. Uning amalga oshirish mexanizmlari, yo'nalishlari, tamoyillari, maqsad va vazifalarini ilmiy asosda tavsiflash ayni paytda soha mutaxassislari oldidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bu borada biz quyidagilarni taklif qilamiz:

1. "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri" mavzusiga ilmiy jamoatchilikning e'tiborini tortish.

2. Pedagogik ta'limni klasterlashtirishning strategik yo'nalishlari va tamoyillarini ishlab chiqish.



3. Mavjud me'yoriy hujjatlarga pedagogik ta'limni klasterlashtirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

4. Ta'lim klasterlari borasida ilg'or xorijiy tajribalarni ijodiy o'zlashtirish.

5. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterlarini amaliyotga tatbiq etishning mexanizmlarini ishlab chiqish.

Ushbu muammolarni echish pedagogik ta'lim tizimida integratsiyani ta'minlash va samaradorlikni oshirishga nisbatan innovatsion yondashuvni qaror toptiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Шамова Т.И. Кластерный подход к развитию образовательных систем // Взаимодействия образовательных учреждений и институтов социума в обеспечении эффективности, доступности и качества образования региона: Материалы 10 Международного образовательного форума (Белгород. 24–26 окт. 2006 г.): в 2 ч. / БелГУ, МПГУ, МАНПО; отв. ред. Т.М. Давыденко, Т.И. Шамова. Белгород: Издательство БелГУ, - 2006. Ч. -С. 24–29.

2. Беспалова Л. Что такое кластер? УРЛ: <http://сиок.ригхтсиде.ру/сиок/> 2009-12-01-06-24-41. Загл. с экрана.

3. Кривых С.В. Кластерный подход в профессиональном образовании С.В.Кривых // Академия профессионального образования.2014. -№3-4.С.7-13.

4. Осечкина Л.И. Кластерный подход как условие повышения эффективности деятельности вуза / Л.И.Осечкина// Высшее образование в России. -2012. -№8-9. –С.73-76.

5. Сидорин А.В. Система формирования кадрового потенциала высокотехнологических отраслей промышленности на основе кластерного подхода / А.В.Сидорин// Интернет-журнал «Науковедение». -2012. -№4. –С.1-7.

6. Портер М. Соопетитиве Стратегий: Течникуес фор Анализинг Индустрис анд Соопетиторс, Самбридге, 1980, 454 пагес.

7. Давыдова Н.Н., Игосхев Б.М. и др. Образовательный кластер как системообразующий компонент региональной модели непрерывного педагогического образования, Педагогическое образование в России, -2014. -№10. -С.73-76.

8. Обидов Р. Кластер тизимида қисқоқ хоўжалиқ маҳсулотларини сақласқ, қайта исхласқ ҳамда сотисқ харажатлари ҳисобининг хусусиятлари, “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. -2018. -№3, -Б.3-7



FARMASEVTIK KIMYO KURSIDA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Safarova Nafisa Sulaymonovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti Tibbiy kimyo kafedrasida assistenti
E-mail: safarovan41982@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada farmasevtik kimyo kursida laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasini takomillashtirish, bo'lg'usi farmasevt-provizorlarning amaliy ko'nikma va kompetensiyalarini oshirishda laboratoriya mashg'ulotlarining ahamiyati, ularni olib borish tartibi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Farmasevtik kimyo, quritish usuli, distillash usuli, Fisher reaktivini qo'llash usuli, laboratoriya ishi hisoboti namunasi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРОВЕДЕНИЯ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО КУРСУ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ХИМИИ

Сафарова Нафиса Сулаймоновна
ассистент кафедры Медицинская химия,
Бухарского государственного медицинского института

Аннотация: В данной статье говорится о совершенствовании методики проведения лабораторных занятий в курсе фармацевтической химии, о значении лабораторных занятий в совершенствовании практических навыков и компетенций будущих провизоров, порядке их проведения.

Ключевые слова: Фармацевтическая химия, метод высушивания, метод дистилляции, метод реактивов Фишера, образец лабораторного отчета.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF LABORATORY CLASSES IN THE COURSE OF PHARMACEUTICAL CHEMISTRY

Safarova Nafisa Sulaymonovna,
assistants of department Medical chemistry
of the Bukhara State Medical Institute

Abstract: This article deals with the improvement of the methodology of laboratory classes in the course of pharmaceutical chemistry, the importance of laboratory classes in improving the practical skills and competencies of future pharmacists, the order of their conduct.

Key words: Pharmaceutical chemistry, drying method, distillation method, Fischer reagent method, sample lab report.

Kirish

Farmasevtik kimyo kimyoviy fanlarning katta nazariy bazasiga asoslangan amaliy fandır. Uning tarkibi farmasevtik tahlilning asosiy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadigan farmasevtik kimyo asoslari, tahlil qilinadigan moddaning identifikatsiyasi, miqdori va tozaligini aniqlash usullari va boshqalarga qo'yiladigan talablarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar

turlari va alohida moddalarning tahlilini hisobga olgan holda noorganik va organik kimyo kabi bo'limlarni o'z ichiga oladi [6].

Adabiyotlar tahlili

Farmatsevtik kimyo kursini o'qitishning asosiy maqsadi talabalarda dori vositalarining farmakopeya asosidagi tahlilini yaxshi o'rganish uchun zarur bo'lgan bilim darajasini shakllantirishdan iborat. Dori vositalarining farmakopeya asosidagi tahlili turli ko'rsatkichlar bo'yicha sifatni baholashni o'z ichiga oladi. Xususan, dorivor mahsulotning chinligi aniqlanadi, uning sofligi tahlil qilinadi va miqdoriy aniqlash amalga oshiriladi. Dastlab, bunday tahlil uchun faqat kimyoviy usullar ishlatilgan: chinligini aniqlash reaksiyalari, aralashmalar tarkibini aniqlovchi reaksiyalar va miqdoriy aniqlashning titrlash jarayonlari. Vaqt o'tishi bilan nafaqat farmasevtika sanoatining texnik rivojlanish darajasi oshdi, balki dori vositalarining sifatiga qo'yiladigan talablar ham o'zgardi. So'nggi yillarda tahlilning fizik va fizik-kimyoviy usullaridan keng foydalanishga o'tish tendensiyasi kuzatilyapti. Xususan, spektral usullar keng qo'llaniladi: infraqizil va ultrabinafsha spektrofotometriya, yadro magnit-rezonans spektroskopiyasi va boshqalar. Xromatografiya usullari (yuqori samarali suyuqlik, gaz-suyuqlik, yupqa qatlam), elektroforez va boshqalar faol qo'llaniladi. Bu usullarning barchasini o'rganish va ularni takomillashtirish hozirgi kunda farmasevtika kimyosining eng muhim vazifalaridan biridir [3].

Tadqiqot metodologiyasi

Farmasevtik kimyo kursining bunday talablari nafaqat talabalar, balki pedagog xodimlar oldiga ham muhim vazifalarni qo'yadi. Jumladan, har bir farmasevtik kimyo fani o'qituvchisi talabalarga yangi ma'lumotlarni yetkazishda zamonaviy ta'lim metodlarining eng optimallarini, mavzular kesimida eng mosini tanlashi va yuqorida aytib o'tilganidek, zamonaviy tahlil usullari va asboblari bilan ishlash prinsiplarini puxta egallashda o'z yordamini ayamasi zarur [1]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni sog'liqni saqlash va xalq salomatligi sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlashning strategik maqsadlarini, shuningdek, dori vositalarining sifati, samaradorligi va xavfsizligini nazorat qilish standartlarini, shuningdek, kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni belgilab beradi. Bo'lajak farmasevtning, shuningdek har qanday boshqa kasbdagi mutaxassisning muvaffaqiyatli faoliyati ham kasbiy tayyorgarlik darajasi va shaxsiy fazilatlarining rivojlanishi bilan belgilanadi [5].

Tadqiqot natijalari

Har bir semestrda amaliy mashg'ulotlar farmasevtik tahlilning barcha jihatlarini qamrab olish uchun o'ziga xos yo'nalishga ega: tahlilning umumiy usullarini o'zlashtirish; farmasevtik moddalar va ulardan tayyorlangan dori vositalari (tabletkalar, in'eksiyalar, davolovchi shamchalar)ni tahlil qilish; farmasevtik preparatlarni tahlil qilish usullarini o'zlashtirish (dorixonada ichidagi tahlil); analitik usullarni metrologik sertifikatlash (validatsiya usuli); deklaratsiya o'tkazish - dori vositalarining xavfsizligini, shuningdek ularning dori vositalarining samaradorligi va xavfsizligi uchun mas'ul bo'lgan tasdiqlangan davlat sifat standartlari talablariga muvofiqligini tasdiqlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. Bu muhim kompetensiyalarni egallashda metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan laboratoriya mashg'ulotlari juda muhim ahamiyatga ega ekanini aniqlandi.

Uchinchi bosqich talabalari farmasevtik kimyo kursining amaliy mashg'ulotlarida nazorat tizimining umumiy qoidalarini, noorganik va organik tabiatga ega farmasevtik moddalarni (alifatik va karbosiklik birikmalar) farmakopeya tahlili usullarini o'rganadilar, chinligini aniqlash



reaksiyalarini o'tkazish, titrimetrik tahlil qilish ko'nikmalarini oshiradilar, dori vositalarini saqlash sharoitlarining kimyoviy tuzilishiga bog'liqligini o'rganadilar [2].

Talabalarining kompetensiyalarni shakllantirish dori vositalarining sifatini aniqlashning umumiy usullari bo'yicha amaliy mashg'ulotlardan boshlanadi. Umumiy usullarga quyidagilar kiradi: dorivor moddalarning eruvchanligini, eritmalarning rangi va loyqalik darajasini, erish nuqtasini, namligini va kulini aniqlash. Mavzular talabalarining nafaqat kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishlari, balki birinchi va ikkinchi bosqichlarda noorganik, organik va analitik kimyo fanlarida o'zlashtirgan bilim va malakalarini mustahkamlashlariga ham yordam beradi [4]. Darslarda talabalar tomonidan farmasevtik tahlillarni bajarish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar (tortib o'lchash, titrlash, hisoblash usullari va boshqalar) asoslari o'zlashtiriladi. Birinchi darslardan o'qituvchilar shuni ta'kidlaydiki, mutaxassis mahsulot sifatini nazorat qilishda qo'llanadigan analitik tahlil usullarini bajarishning barcha umumiy usullarini bilishi kerak. Masalan, dorivor moddalarni kimyoviy usullar bilan aniqlashda talaba umumiy farmakopeyadan foydalanib, moddani tortishdan oldin tahlil uchun namuna mustaqil hisoblanishi kerakligini bilishi, balki to'g'ri hisoblay olishi ham zarur. Masalan, dori vositasining sulfatlangan kulini aniqlashda talaba quyidagi tushunchalar bilan tanishishi kerak: "olovsiz yonish", "sulfatlangan kul", "o'zgarma massa". Shuning uchun har bir kompetensiyani o'zlashtirishni boshlashdan oldin o'qituvchi talabalar bilan birgalikda ushbu tushunchalarni tahlil qiladi. Keyin bajariladigan jarayonlar ro'yxati va ularning ketma-ketligi tavsiflanadi: tigelning massasini aniqlash; moddadan namuna olish; sulfat kislota bilan ishlov berish; namunani qizdirish; mufel pechida qoldiqni qizdirishni davom ettirish; qolgan qismini o'zgarma massaga keltirish; kul qoldig'ining massasini topish; sulfatli kulning tarkibini hisoblab chiqish va FS talablariga muvofiqligi to'g'risida xulosa chiqarish. Tahlil natijalarini ko'rib chiqiladi, talabaning xatolari tahlil qilinadi va kompetensiyani o'zlashtirish darajasini baholanadi.

Quyida "Dori vositalari tarkibidagi uchuvchan moddalar va suvni aniqlash" laboratoriya mashg'ulotining o'tkazish metodikasini takomillashtirishga dars ishlanmasini keltirib o'tamiz:

Dars maqsadi: dori vositasini quritilganda massasining o'zgarishi va suvni yo'qotishiga asoslangan holda sifatini baholash metodikasini egallash.

Kompetensiyalar: dori vositasi tarkibidagi uchuvchi moddalar va suvni aniqlashda quritish usuli, distillash (haydash) usuli va Fisher reaktivi yordamida titrlash usulini qo'llay olish.

Mavzuning dolzarbligi: bo'lg'usi farmasevt – provizorlar dori vositalarini birlamchi tekshiruvdan o'tkazish, ularning sifatini aniqlashda muhim sanalgan jarayonlarni o'tkazish metodikasini mukammal egallashlari shart. Chunki buning zamirida aholining salomatligini saqlash, dori vositalaridan zararlanishning oldini olish kabi muhim vazifalar yotadi.



Mavzuni o'rganish uchun zarur bo'lgan asosiy bilim, ko'nikma va malakalar (fanlararo integratsiya)

Fan nomi	Olingan ko'nikmalar
1.Umumiy kimyo	Eritmalar konsentratsiyasini ifodalash usullari. Titr konsentratsiya.
2.Noorganik va organik kimyo	Uchuvchi birikmalarning xossalari;
3.Analitik kimyo	Analitik tarozi bilan ishlash ko'nikmalari. Titrlash jarayoni bosqichlarini bilish
4.Hayot faoliyati xavfsizligi	Atrof muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish

Mashg'ulotda bajariladigan jarayonlar mazmuni:

Quritish usuli (suv va uchuvchan moddalarni aniqlash uchun qo'llaniladi): moddaning quritishdan oldingi va keyingi og'irligidagi farq asosida. Avval 2 soatdan keyin, keyin har soatda tortish. Quritish ochiq shishada doimiy og'irlikka kelguncha amalga oshiriladi. Shartlar farmakopeyada ko'rsatilgan.

Distillash (haydash) usuli - (faqat suvni aniqlash uchun qo'llaniladi): modda maxsus qurilmaga joylashtiriladi, unga toluol yoki ksilol qo'shiladi (suv bilan aralashmaydigan suyuqliklar va shuningdek, undan yengilroq), distillash amalga oshiriladi. Suv o'lchovli qabul qilgichda yig'iladi bunda uning ustida organik erituvchi bo'ladi (bu suvning bug'lanishiga yo'l qo'ymaydi). Suv hajmi oshishdan to'xtaganda, distillash to'xtatiladi va haydalgan suv hajmi qayd etiladi.

Fisher reaktivi yordamida titrlash usuli: bu kimyoviy akvometriya usuli bo'lib, organik va noorganik moddalardagi suvning istalgan miqdorini (ham gigroskopik, ham kristalizatsiya suvi) tez va aniq aniqlash imkonini beradi.

Mashg'ulotda talabalar bajaradigan amaliy ish:

O'rganish ob'ektlari: natriy xlorid, natriy bromid, natriy sulfat, natriy benzoat, natriy sitrat in'eksiya uchun, kaliy bromid, kaliy yodid, kalsiy laktat, temisal, ftalazol, glyukoza, analgin, xloroform; moychechak va do'lana gullari, ra'no, shalfey, sano o'simliklarining barglari.

Ishning borishi:

Vazifa. Quritish usuli yordamida dori vositasini massasining yo'qotishini aniqlash.

O'rganiladigan dori vositasini jadvaldan tanlab olamiz va quritish shart sharoitlarini o'rganib chiqamiz (**1-jadval**):

1-jadval

Dori vositalarining quritish shart - sharoitlari

Dori vositasi	Massa, g	Quritish harorati va sharoiti	Massaning yo'1 qo'yiladigan ulushi, %
Kaliy bromid	1,0	120 °S da doimiy massaga kelgunicha	1
Kaliy yodid	1,0	110 °S da 4 soat davomida	1
Natriy bromid	0,5	110 °S da 4 soat davomida	4

Quritishni quritish shkafida, kerakli haroratni belgilash orqali olib boriladi. Quritish shkafiga 0,0002 g aniqlikkacha o'lchab olingan dori vositasi joylashtiriladi. Agar davlat farmakopeyasida uning quritish davomiyligi ko'rsatilmagan bo'lsa, 2 soat davomida ushlab turamiz. Sovutish uchun byuks va uning og'zi konsentrlangan sulfat kislotali (yoki biror boshqa suvni tortib oluvchi modda) eksikatorga 50 min davomida joylashtiriladi. Quritish jarayonida byuksning og'zi ochiq bo'lishi kerak. So'ng byuks og'zi yopiladi va massasi o'lchanadi. Agar birinchi va ikkinchi quritish oralig'idagi massa farqi 0,0005 g dan oshmasa quritish to'xtatiladi. Aksi bo'lsa quritish davom ettiriladi. Shundan so'ng moddaning quritishdan oldingi va keyingi massalari hisoblab topiladi. Quyidagi formula yordamida:

$$x = \frac{(m - m_1)100}{m},$$

Bu yerda m- dori vositasining dastlabki massasi, g; m1 – dori vositasining quritishdan keyingi massasi, g. Yo'qotilgan massaga qarab dori vositasining sifati haqida ma'lum xulosaga kelish mumkin. Natija quyidagi jadval ko'rinishida rasmiylashtiriladi (2-jadval).

2 - jadval

Dori vositasining quritilganda massasini yo'qotishi natijalari

Dori vositasi	Dastlabki massasi, g	Quritishdan keyingi massa, g			Namlik ulushi, %	DF bilan solishtirish
		1	2	3		

Xulosa. Har bir keyingi dars mavzusi o'rtasidagi nazariy asoslangan bog'liqlik o'quvchilarning fanni umumiy o'rganishga va har bir amaliy dars uchun tizimli mustaqil sinfdan tashqari ishlarga bo'lgan ishtiyoqini oshirishga yordam beradi. "Farmasevtik kimyo" fanidan amaliy mashg'ulotlarda o'quv jarayoniga kompetensiyaga asoslangan yondashuv talabalarga nazariy asoslarni osonroq o'zlashtirish, tafakkurni rivojlantirish, farmasevtik kimyo mazmuniga kognitiv jarayonni shakllantirish imkonini beradi, bu esa bo'lajak farmasevt-provizorning kasbiy kompetesiyalarini rivojlantiradi. Har bir dars davomida olingan ko'nikma va malakalar bo'lajak bitiruvchilar tomonidan ishlab chiqarishning birinchi bosqichida – o'quv-ishlab chiqarish dorixonasi yoki nazorat-tahlil laboratoriyasida muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Adabiyotlar

1. Safarova N. et al. Application of interactive methods in medical education: clustering technique in teaching of heterocyclic compounds //Proceedings of the 37th International Business



- Information Management Association Conference Innovation Management and information Technology impact on Global Economy in the Era of Pandemic. – 2021. – С. 3092-3096.
2. Айрапетова А.Ю., Гюльбякова Х.Н., Масловская Е.А. Методологические подходы к формированию предметных компетенций у студентов на кафедре фармацевтической химии // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 6. ;
 3. Михайлова И. В. и др. Основы фармацевтической химии (часть II) //Международный журнал экспериментального образования. – 2015. – №. 12-4. – С. 574-574.
 4. Ниязов Л. Н., Джураева Л. Р., Сафарова Н. С. Аналитик кимё фанидан мустақил таълимни ташкил этишда лойиҳа усули //Педагогик маҳорат,(3). – 2019. – С. 143-145.
 5. Платонова Н.А., Чекулаева Г.Ю. Современные подходы к практическим занятиям по фармацевтической химии // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2016. – № 3-2. – С. 251-254;
 6. Старикова А.А. Элементы самостоятельной работы в курсе фармацевтической химии //Социально-гуманитарный вестник Прикаспия. – 2014. – №. 1. – С. 87.

ЗНАЧЕНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАМКАХ ЕГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Уматалиева Камила Тахировна

Институт развития профессионального образования. д.ф.п.н (PhD)

E-mail: kamila.umataliyeva@mail.ru

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы профессионального образования в условиях конкурентного рынка труда и высоких требований работодателей, что в свою очередь требует от системы направленности на достижение высокого уровня развития научно-исследовательской компетентности педагогов профессионального образования.

Ключевые слова: профессиональные и научно исследовательские компетенции, образовательная деятельность, качество образования, педагог профессионального образования.

PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHISINING KASBIY FAOLIYATI DOIRASIDAGI ILMIIY-TADQIQOT KOMPETENTSIYASINING AHAMIYATI

Umataliyeva Kamila Tahirovna

Professional ta'limni rivojlantirish instituti (PhD)

E-mail: kamila.umataliyeva@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada raqobatbardosh mehnat bozori sharoitida professional ta'limi masalalari va ish beruvchilarning yuqori talablari ko'rib chiqiladi, bu esa o'z navbatida professional ta'lim o'qituvchilarining ilmiy-tadqiqot kompetentsiyasini rivojlantirishning yuqori darajasiga erishishga qaratilgan tizimni talab qiladi.

Kalit so'zlar: kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetentsiyalar, ta'lim faoliyati, ta'lim sifati, professional ta'limi o'qituvchisi.



THE IMPORTANCE OF THE RESEARCH COMPETENCE OF A TEACHER OF VOCATIONAL EDUCATION IN THE FRAMEWORK OF HIS PROFESSIONAL ACTIVITY

Umataliyeva Kamila Tahirovna

stitute for the development of vocational education (PhD)

E-mail: kamila.umataliyeva@mail.ru

Abstract. The article deals with the issues of vocational education in a competitive labor market and the high demands of employers, which in turn requires the system to focus on achieving a high level of development of research competence of teachers of vocational education.

Keywords: professional and research competencies, educational activity, quality of education, teacher of professional education.

Введение

На сегодняшний день перед педагогами профессионального образования актуально стоит вопрос пересмотра основных аспектов и приоритетов образовательного процесса. В условиях конкурентного рынка труда, высоких требований работодателей перед системой профессионального образования стоит вопрос модернизации образовательного процесса и развития профессиональной компетентности педагогов профессионального образования. Перемены в образовании продиктованные временем не могут происходить без кардинальных преобразований в педагогическом сознании педагога его деятельности.

Анализ литературы

Основные компоненты профессиональной деятельности педагога профессионального образования включает в себя выполнение нескольких действий — обучающей, воспитывающей, организующей и исследовательской. Они воспринимаются как единое целое направленное на качество обучающего процесса, часто встречается что хотя у многих педагогов один из компонентов имеют приоритет над другими. Во многих исследованиях отмечается что наиболее специфично для преподавателя ВОУ сочетание педагогической и научной деятельности; исследовательская работа обогащает его внутренний мир, развивает творческий потенциал, повышает научный уровень знаний.

Нами также проанализирована деятельность педагогов профессионального образования в свою очередь хотим отметить, что деятельность педагогов профессионального образования и компоненты деятельности более ярко выражены в педагогической и производственной сферах. Важно отметить, что качество педагогической деятельности, научной работой, быстро угасает. Профессионализм как раз и выражается в умении видеть и формулировать педагогические задачи на основе анализа педагогических ситуаций и находить оптимальные способы их решения. Важно отметить, что особым направлением совершенствования профессиональной компетентности педагога является его активное участие в научно-исследовательской деятельности, что стимулирует и обеспечивает достижение высокого уровня развития научно-исследовательской компетентности, которая, в свою очередь, создаёт вариативные предпосылки качественного изменения всей трудовой деятельности.

Методология исследования

В настоящее время научно-исследовательская деятельность выступает, прежде всего, как содержательное психологическое, технологическое, прагматическое и социально-этическое обеспечение социального прогресса с целью повышения эффективности всех видов деятельности и одновременно как фактор индивидуального самосовершенствования субъектов, реализующих данную исследовательскую деятельность. Одной из важных задач научноисследовательской деятельности является формирование научного, коммуникативного и культурно-образовательного опыта. С позиций структурного рассмотрения вопроса о сущности научно-исследовательской компетентности можно констатировать, что данная компетентность состоит из ряда положенных компетенций, а следовательно, описывается через названные компетенции и характеризуется уровнем их сформированности.

В основу структурирования научно исследовательской компетентности как совокупности частных сегментов, связанных друг с другом вертикальными и горизонтальными отношениями, положена дифференциация значимых отличий между основными видами и направлениями научно-исследовательской деятельности, которые рассматриваются как переходящие друг в друга конкретные варианты единого общего инварианта. Изучение структурно-содержательного поля профессионально-исследовательской деятельности позволило нам выделить три наиболее принципиальные компетенции, составляющие единое интегративное целое – научно-исследовательскую компетентность.

К числу названных частных компетенций были отнесены:

- профессиональная научная компетенция;
- компетенция в научном общении;
- образовательная профессиональная компетенция.

Анализ и результаты

Профессиональная научная компетенция характеризует состояние профессиональных научных знаний, а также уровень сформированности профессиональных научных навыков и умений. Названный комплекс отражает готовность педагога к научно-исследовательской деятельности с точки зрения его профессионального образования и опыта в ведении названной деятельности. Профессиональная научная деятельность как таковая характеризуется обширными системными иерархически организованными операциями.

В силу данного факта профессиональная научная компетенция педагогов представляет собой сложное системное образование, включающее в себя конститутивные структуры, которые коррелируют с различными аспектами специально-предметной научно-исследовательской деятельности.

Краткое содержание

Таким образом, профессиональная научная компетенция является собой интегративное единство структурных блоков, наполнение которых в своей совокупности отражает содержательную сторону данной компетенции. Следует отметить, что научно-исследовательская деятельность по своей природе технологична, и в этой связи её организационный компонент может

рассматриваться как базисная основа для решения многообразных экспериментальных, конструктивных и композиционных задач. Таким образом, совокупное содержание профессиональной научной компетенции позволяет судить о том, что она осуществляется через продуктивную деятельность специалистов по «... обогащению и развитию мирового знания с помощью точного, объективного и системного изучения окружающей действительности». Причём формирование названной компетенции имеет своей целью овладение способностью эффективного ведения научно-исследовательской деятельности путём верной организации исследовательского процесса, продуктивной аналитической деятельности, корректного использования вспомогательных средств и т. д.

На сегодняшний день владение образовательной компетенцией в рамках научно-исследовательской компетентности позволяет реализовать следующие значимые функции:

- самоуправление учением, формирующее готовность к осознанному и эффективному самостоятельному управлению учебной деятельностью;
- учебную, ориентированную на осознание личностного образовательного продукта, на выстраивание собственных систем знаний, а также формирование комплексов навыков и умений;
- рефлексивную, предполагающую осмысление, коррекцию и накопление эффективного опыта в самообразовании;
- инструментальную, которая характеризует самостоятельное учение как социальный механизм управления и передачи информации, необходимой для дальнейшего развития научного знания. Очевиден факт, что структура научно-исследовательской компетентности представляет собой системную и упорядоченную иерархию составляющих её компонентов. Названная структура характеризуется динамической связью компонентов. Внутренние связи в структуре данной компетентности являются устойчивыми и обеспечивают её целостность и устойчивость. Внешние связи в структуре научно-исследовательской компетентности образуются вследствие реализации определённых целей. Данные цели определяются задачами конкретной исследовательской работы или деятельности.

Таким образом, можно сделать вывод, что целевая направленность научно-исследовательской компетентности состоит в формировании интегративной способности ведения научно-исследовательской деятельности. Ценность формирования представленной способности заключается в том, что данная способность предоставляет педагогам профессионального образования свободу выражения внутреннего и внешнего опыта профессионального контекста, обеспечивая их мобильность и в общем смысле высокий уровень профессиональной компетентности.

Список использованной литературы:

- 1 Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Т.: O'zbekiston, 2017. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –Т.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
3. Мареєв В. И. Исследовательская деятельность в педагогическом вузе: теория и практика. Ростов н/Д, 1999. 2. Михайлов А. А., Соломин В. П., Губин В. А. Введение в психологию общения (Невербальные средства общения): Учебное пособие. СПб., 1999.



BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONLARIDA ERGONOMIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

To'xtamurodov Azizbek Azimjon o'g'li
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
Gmail: tuxtamurodovazizbek@gmail.com

Annotatsiya: O'quv vositalaridan foydalanishni axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi faoliyatining sifatiga, uning faoliyati va motivatsion barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar (o'quv qo'llanmalari kompleksining izchilligi va ratsionalligi, o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirishga sarflanadigan vaqt, qayta aloqani tashkil etish, tinglovchi-o'qituvchi faoliyati, o'qituvchi faoliyatining motivatsion barqarorligi).

Kalit so'zlar: ergonomika, kompyuter, ergonomik kompetentlik, ergonomik yondashuv, algoritm, blok-sxema, texnologik qurilma.

Аннотация: Факторы, влияющие на качество деятельности учителя информационных технологий, его активность и мотивационную устойчивость использования учебных средств (согласованность и рациональность комплекса учебных пособий, затраты времени на усвоение учебной информации, организация обратной связи, слушательско-деятельность учителя, мотивационная устойчивость деятельности учителя).

Ключевые слова: эргономика, компьютер, эргономическая компетентность, эргономический подход, алгоритм, блок-схема, технологическое устройство.

Abstract: Factors affecting the quality of the activity of the teacher of information technologies, his activity and motivational stability of the use of educational tools (consistency and rationality of the complex of educational manuals, time spent on learning educational information, feedback organization, listener-teacher activity, motivational stability of teacher activity).

Key words: ergonomics, computer, ergonomic competence, ergonomic approach, algorithm, block diagram, technological device.

Kirish

Ta'limni avtomatlashtirish, ta'lim tizimida texnik vositalar va texnologik qurilmalar hamda axborotlashtirishning o'sib borishi bilan o'quv jarayonini takomillashtirish talablari doirasida ergonomik tadqiqotlarni o'tkazish zarurati paydo bo'ladi. SHaxsni faoliyatga tayyorlash, o'qitish, tarbiyalash muammolari bilan pedagogika fani shug'ullanadi. O'quv jarayonida ta'limiy ma'lumotlarni uzatish va assimilyasiya qilish, shuningdek, kognitiv faoliyat usullari shular jumlasiga kiradi. O'quvchilar kognitiv faoliyatining uchta shaklini: nutqiy, aqliy va madaniy faoliyat nuqtai nazaridan ko'rib chiqish ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda ushbu shakllarning barchasi o'quv jarayonini ergonomik talablari doirasidagi maqbul nisbati va optimallashtirish, o'quv jarayonini takomillashtirish hali o'rganilmagan bo'lib, ushbu masalaning amaliy echimi to'plangan pedagogik tajribaga asoslanib, empirik tarzda amalga oshirilishi mumkin.

O'QUV JARAYONIDA ERGONOMIK YONDASHUVNI AMALGA OSHIRISH MODELI.

Aqliy faoliyat materialni o'rganishda etakchi hisoblanadi. Nutq faoliyati fikrlarni ifoda etish vositasidir. Amaliy mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning harakatlarida madaniy faoliyat cheklangan darajada qo'llaniladi. SHunday qilib, kognitiv faoliyatning uchta shakli o'rtasida "to'g'ridan-to'g'ri" va "teskari" munosabatlar mavjudligini ko'ramiz. O'quv jarayonida, mohiyatan yangi bilimlar va faoliyat usullarini o'zlashtirishda madaniylashtirilgan shakl assimilyasiyadan keyin aqliy harakatlar nutqdan oldin paydo bo'ladigan va amaliy faoliyat samaradorligini aniqlaydigan nutq shaklini keltirib chiqaradi. O'quv jarayoni samaradorligini ta'minlash maqsadida insonning tizimlarda ishlash imkoniyatlarini o'rganish ilmiy bilimlarning zamonaviy bosqichining integratsion xususiyatini aks ettirar ekan, biz ergonomika va pedagogikaning fanlararo birligi haqida gapirishimiz mumkin. SHu munosabat bilan ilmiy-pedagogik ergonomikaning paydo bo'lishi - o'quv jarayonini takomillashtirishning "o'quv-bilish muhiti"da faoliyat sohasini ochib beradigan sintetik predmetning dolzarbligi kelib chiqadi. Pedagogik ergonomika - bu inson hayotining farovonligini ta'minlash va pedagogik tizimning umumiy faoliyatini optimallashtirish maqsadida o'quv jarayonida insonlarning o'zaro ta'siri umumlashuvidir. Ergonomik yondashuvni qo'llash bizga o'quv jarayoni va umuman ta'lim mazmunini ko'rib chiqishga imkon beradi[3].

Nazariy darajada o'qitishning mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarining asosligi ta'limning pedagogik nazariyasini, o'quv jarayonidagi ishtirokchilarning amaliy faolligini o'rganadigan didaktika fani bilan belgilanadi. O'qitishdagi munosabatlar tizimining nazariy darajasini oshirish amaliyotga yanada samarali ta'sir ko'rsatishga, ta'lim jarayonining yaxlitligini, samaradorligini oshirishga, o'zgartirishga va optimallashtirishga olib keladi.

O'quv jarayoni didaktikaning mazmunli, protsessual va motivatsion tomonlarining birligida sodir bo'ladi. Bugungi kunda har qanday o'quv jarayoni tegishli o'quv mahsulotlarisiz ma'noga ega emasdir. O'qituvchining ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida o'quvchida ijobiy barqaror motivatsiyani shakllantirish uchun o'quv material mahsulotlarini tarkibidagi rolni anglash, o'quv faoliyatini oqilona tashkil etish, o'quvchining bilim olishga qiziqishini rivojlantirib borishni talab etiladi. SHu munosabat bilan sifat jihatidan yangi o'quv materiallarini yaratish muammosi paydo bo'ladi.

"O'quvchi-o'quv bilish muhiti-o'qituvchi" munosabatlar tizimi pedagogika tomonidan kognitiv natijani, ergonomik nuqtai nazardan esa samarali orttirilgan sinergetik natijani beradi. SHunday qilib, o'quv materialining ergonomik xususiyatlarini yaxshilash o'quv jarayonini intensivlashtirish omilidir.

Ergonomika atrof-muhitdagi "odam-mashina" tizimini ergatik tizim sifatida o'rganadi. Pedagogik jarayonda esa hodisalarini o'rganayotganda to'rtta ob'ekt: o'qituvchi, o'quvchi va o'quv material, muhit o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olish zarur. Ta'lim jarayoniga kompyuterlarni kirib kelishi ergonomik nuqtai nazardan, o'quv jarayoni o'quv bilish muhitida "o'qituvchi-o'quvchi-kompyuter" tizimi sifatida ko'rib chiqilishini anglatadi. SHunday qilib, kompyuter o'quv jarayoniga kiritilganida o'qituvchi va o'quvchi uchun o'quv vositasiga aylanadi. Kompyuter o'quv vositasi sifatida an'anaviy o'quv tizimini modernizatsiya qilish xususiyatini aks ettiradi.

Kompyuter yordamida o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish uchun o'quv materiallarini didaktik rekonstruksiya qilishga asoslangan texnologiyalardan foydalanish mumkin. "O'qituvchi - o'quvchi - kompyuter" ergatik tizimida ta'lim

(o'qituvchining kasbiy faoliyati), o'rganish (o'quvchining kognitiv faoliyati) va ularning o'quv muhitidagi o'zaro munosabatlari kuzatiladi. "O'qituvchi - o'quvchi - kompyuter" tizimida o'qituvchi kompyuterdan foydalangan holda o'quvchining o'quv va kognitiv faoliyatini tashkil qiladi va shu bilan o'quvchining samarali ishi jarayonini kuchaytiradi. Agar o'quv jarayoni to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa, u holda o'quvchi o'quv jarayoniga, mustaqil o'quv faoliyatiga kuchli qiziqish uyg'otadi, bu esa o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi.

Pedagogik ergonomika didaktikada va umuman olganda pedagogikada ta'limiy ma'lumotlarni taqdim etishning ergonomik shakllari ularni didaktik jarayonda, o'quv-kognitiv muolajalarda, o'qitish usul va metodlarida ularni taqdim etish vositalarini izlash kabi bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

O'quv jarayonida insonning beshta: ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, ushlab ko'rib anglash sezgi organlarini sifatli ishlatish muammosi dolzarb bo'lib bormoqda. Tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, grafik tarzda taqdim etilgan o'quv ma'lumotlari matnli ma'lumotlarga qaraganda o'quvchilar tezroq o'zlashtiradilar. Ta'lim jarayonida faol foydalaniladigan belgilar va ishora tizimlari, sxemalar, grafiklar bilan ishlash talablari pedagogik ergonomikada o'rganiladi [4]. O'quv jarayonida avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlari va dasturlaridan foydalanish o'qitish usullari va shakllarini qayta ko'rib chiqishga, tahlil qilish va o'quv jarayonini ergonomika nuqtai nazaridan takomillashtirishga olib keladi. Ergonomik ta'lim texnologiyalari, ergonomik me'yorlar va talablarga asoslangan o'quv jarayonini rivojlantirishni talab qiladi.

Ta'limga yangi axborot texnologiyalarining kirib kelishi bizni pedagogik jarayonga ta'lim muhitida axborot jarayoni sifatida qarashga majbur qiladi. Ta'limni axborotlashtirish nafaqat kompyuterdan foydalanish, balki "o'qituvchi - o'quvchi - kompyuter" tizimida o'qitishni tashkil etishga yangi ergonomik yondashuv sifatida qaralishi kerak bo'ladi. Dasturlashtirilgan o'qitish maxsus kompyuter dasturi asosida o'quv dasturi bo'yicha bilimlarni individual ravishda o'zlashtirish tufayli yuzaga keladi. Maxsus kompyuter dasturlari bilan jihozlangan kompyuterlar deyarli barcha didaktik muammolarni hal qilishga imkon beradi. Kompyuterda o'qitish texnologiyasining samaradorligi o'quv dasturlari va kompyuter texnologiyalarining sifati bilan belgilanadi.

Ergonomik pozitsiyadan masofaviy o'qitish texnologiyalari ehtiyojlar, temperament, o'quvchilarning o'quv yuklamalari hisobga olingan holda yaratiladi. Dasturlashtirilgan, kompyuter, masofaviy o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ergonomik yondashuvni hisobga olgan holda o'quv jarayonini osonlashtiradi.

O'quvchilar ongida globallashtirish jarayonida o'sib borayotgan ma'lumotni o'zlashtirishga vaqt etarli emasligi uchun o'quv jarayonida aqliy mehnat unumdorligi pasayib boradi, o'rganish samaradorligi pasayadi. Chunki, ta'lim samaradorligi o'quvchining barcha hodisalarni idrok etishda ishtirok etish darajasiga bog'liq bo'ladi[5]. Ta'lim tizimining samaradorligi o'quvchilarning ta'lim jarayoni bilan bog'liq minimal kuch sarflashlari bilan belgilanadi va ularning yuqori sifatli bilimlarga erishishida ko'zga tashlanadi. Minimal mehnat sarflash bilan bilimlarni o'zlashtirish uchun o'quv materiallari sifatini ergonomik talablar asosida oshirish, ularning tushunchalarini ergonomik talablar asosida ishlab chiqish lozim bo'ladi, bu esa o'z navbatida o'quv materialini tushunish uchun zarur bo'lgan intellektual sa'y-harakatlarni minimallashtirish imkoniyatini beradi.

O'quv ma'lumotlarini tushunishni osonlashtirish uchun bilimlarni kognitiv-ergonomik rasmiylashtirish metodlaridan foydalanish kerak. Didaktikada o'rganishning eng qadimgi

tamoyili bu – ko‘rish tamoyilidir. Ushbu tamoyil o‘quv materialini idrok etish, qayta ishlashda sezgilarni ratsional ravishda jalb qilishga bog‘liq holda o‘rganish samaradorligini oshirish orqali o‘rganishga ergonomik yondashuvni to‘liq amalga oshiradi.

Rus olimi YA.A.Kamenskiy ko‘rgazmali qo‘llanmalar o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishlarida asosiy vositalardan ekanligini aytib o‘tgan edi[6]. U o‘z asarlarida ko‘rsatmalilik bilimga olib borishini yozgan. Og‘zaki matn, formulalar, chizmalar va boshqalarning ergonomik kombinatsiyasidan foydalangan holda o‘quv materialining tasavvur qilish shaklini, texnologik belgilar, blok-sxema belgilar, algoritmlar asosida tuzilgan o‘quv ma‘lumotlarini ko‘rgazmali ravishda rasmiylashtirish va taqdim etish o‘quvchilarning o‘zlashtirish samaradorligini taminlaydi. O‘quv materialini ergonomik ko‘rgazmaliligi o‘quvchining intellektual qobiliyatini kuchaytirishga imkon beradi. Ushbu asosidagi o‘quv materialini, almashtirish, vertikal va gorizontalkombinatsiya, ko‘rgazmali sxemalar, formulalar, ma‘lumot iloji boricha osonroq bo‘lib, o‘quv jarayonida bilimlarni o‘zlashtirilishini osonlashuviga xizmat qiladi, fanlararo bilimlarning integrativ tavsifi tufayli ta‘lim to‘g‘risidagi ma‘lumotni noto‘g‘ri tushunishda yuzaga keladigan to‘siqlarni olib tashlaydi.

SHunday qilib, pedagogik ergonomika pedagogik jarayonning muhim tomonlarini o‘zgartirishga olib keladi. Axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi va o‘quvchilarning aqliy faoliyati kun sayin o‘zgarib bormoqda. O‘qituvchining kasbiy faoliyati ergonomik talablarga moslashadi, qulayroq bo‘ladi, o‘quvchining o‘quv faoliyati yanada samarali va unumli bo‘lib, ergonomik va didaktik talablarga javob beradi.

Ergonomik bilimlarini berish usullariga: kasblar bo‘yicha tanishuv suhbatlari, birgalikda dasturchilar haqidagi, mehnat faoliyatining har xil turlari haqidagi, turli kasb egalari haqida kitoblarni o‘qish, kinofilmlarni ko‘rish va muhokama qilish; o‘quvchilar bilan birga ularning o‘tanalari ishlaydigan korxonalar, tashkilot, jamoa xo‘jaliklari va shu kabilarni kuzatish joylariga borish va boshqa tadbirlar kiradi.

Ergonomik yo‘nalishini aniqlash usullariga: o‘quvchilarning amaliy faoliyatini maqsadli kuzatish uslubi, muammoli vaziyatni vujudga keltirish uslubi, mehnatning har xil turlarini tajriba uchun tashkil qilish uslubi va hokazolardan iboratdir. Ana shu tadbirlar bolalarning qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Ergonomikaning metodik asoslari, yuqorida aytib o‘tilganidek, tizimli yondashuvdir. “Tizimlarning g‘oyalari etakchi zamonaviy umumiy ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida ergonomikaning ko‘plab dastlabki qarashlari va nazariy tamoyillarini belgilaydi. Ular orasida odam-mashina tizimlarini yaxlit ko‘rib chiqish istagi, ularning tuzilishini sistematik dinamik ko‘rinishi, inson faoliyatini ilmiy ko‘rib chiqish predmetiga kiritish, tadqiqotning turli jihatlarini sintez qilishga moyillik, inson faoliyatining mumkin bo‘lgan oqibatlarini o‘rganishni taqozo etadi[7].

Modellashtirish, loyihalash, kuzatish, tahlil qilish, ta‘lim jarayonining samaradorligini tizimli yondashuv nuqtai nazaridan baholash pedagogik ergonomikaning vazifalarini amalga oshirishning eng muhim shartidir. Zamonaviy oliy ta‘limdagi ta‘lim jarayoni ajralmas pedagogik tizimdir. “Tizim – bu buyurtma berish, biror narsani ma‘lum bir ketma-ketlikda, ma‘lum bir tartibda joylashtirish”[8].

Har bir tizim ma‘lum bir tuzilishga ega, ya‘ni elementlarning (ob‘ektlarning) u yoki bu o‘zaro bog‘liqligi, ularning o‘zaro joylashishi va bir-biriga o‘zaro ta‘siri kabi.

Bir qator tadqiqot ishlarini umumlashtirilgan tahlili pedagogik tizimning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi: maqsadi, predmeti, ob'ekti, mazmuni, faoliyat usullari, natijasi. Ushbu komponentlar tizimli omillar yordamida o'zaro bog'liqdir. V.P.Simonov olib borgan tadqiqot ishida ushbu aloqalarning tabiati o'rganilgan[8]. Biz pedagogik tizimning tarkibiy qismlari va aloqalarini ergonomik yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Pedagogik tizim sifatida ta'lim jarayonining maqsadi va maqsadga muvofiqligi uning asosiy xususiyati, muhim xususiyati va tavsifidir. Har qanday pedagogik tizim bu faoliyat tizimidir, maqsadsiz faoliyat bo'lmaydi.

Ergonomik yondashuv nuqtai nazaridan ta'lim jarayonining asosiy vazifalari quyidagicha belgilanadi:

- birinchidan, ular sarf qilingan kuchlar, mablag', vaqtning maqbulligini hisobga olgan holda faoliyat natijasi sifatiga va ko'zlangan maqsadlarga erishish yo'llarining samaradorligiga talablarni belgilaydi;
- ikkinchidan, ular oliy ta'limning axborot va fan muhitini tashkil etishga qo'yiladigan talablarni belgilaydilar;
- uchinchidan, ular o'quv qo'llanmalari va ularning majmualarini loyihalash, yaratish, ulardan foydalanish shartlarini belgilaydi;
- to'rtinchidan, axborotning miqdori va sifati va uning asosiy manbalari maqbullik sharti nuqtai nazaridan aniqlanadi;
- beshinchidan, noqulay funksional sharoitlarning oldini olish va o'quv jarayoni sub'ektlarining sog'lig'ini saqlash bo'yicha chora-tadbirlar belgilanadi.

Ergonomik yondashuv nuqtai nazaridan ta'lim jarayonining maqsad va vazifalari tizimni shakllantirishning muhim omilidir. Tizimni shakllantiruvchi ikkinchi omil – bu pedagogik jarayon sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya. Ushbu omil, qoida tariqasida, shaxsni, faoliyat motivatsiyasini, sub'ektlarning ehtiyojlarini, ularning haqiqiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini tavsiflashda ko'rib chiqiladi. Pedagogik jarayon sub'ektlarining munosabati taniqli faoliyat usullari va uni amalga oshirish vositalaridan foydalangan holda o'zaro faoliyat shaklida namoyon bo'ladi. Tizimni shakllantiruvchi uchinchi omil – mazmun-tashkiliy, muayyan tamoyillar va usullar asosida amalga oshiriladi va faoliyatning mazmuni va faoliyat usullari kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. To'rtinchi omil analitik va samarali hisoblanadi. U pedagogik jarayon sub'ektlari faoliyati natijalarining aniq maqsadlarga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Bir qator tadqiqot mualliflari model orqali hodisa yoki jarayonlarning borishini tavsiflaydilar. "Model deganda, tadqiqot ob'ektini namoyish etish yoki ko'paytirish orqali uni o'rnini shu kabi o'zgartirishga qodir bo'lgan aqliy tasavvur qilingan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizim tushuniladi"[9].

N.V.Kuzmina: "Har qanday model singari pedagogik tadqiqotlarda ham modellar quyidagi epistemologik funksiyalarni bajaradi: illyustrativ, tarjima, tushuntirish, bashorat qilish. Tizimning nimani tashkil qilishi kerakligi bilan taqqoslash mavjud pedagogik tizimni u yoki bu tarzda malakalashga va uni takomillashtirish uchun ongli izlanish olib borishga imkon beradi" [10], –deb yozadi.

Xulosalar

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mashg'ulotlarda verbal va noverbal vositalardan foydalanish barcha analizatorlar(sezgi organlari)ni idrok qilish jarayoniga jalb qilishga yordam beradi – eshitish, kuzatish, vosita va boshqalar.

Qulay va xavfsiz o'quv bilish muhiti yaratish uchun: moddiy-texnik; sanitariya-gigienik; estetik; texnik va pedagogik barcha shartlar ergonomik tizimda ko'rib chiqiladi.

Ergonomik yondashuv asosida tashkil etiladigan o'quv-bilish muhiti: axborot texnologiyalari fani kabinet, o'quv xonasining ichki qismi; havo sifati, qaytarib olinishi, namligi; kompyuter; maydon me'yorlari; yoritish; o'qituvchilar va o'quvchilar uchun ish joyini tashkil etish; kompyuter qismlari; amaliy ishlashga bo'lgan ehtiyojlar; individual ishlashga bo'lgan ehtiyojlar; an'anaviy va yangi tipdagi o'quv qo'llanmalari bilan ishlash; mashg'ulotlar jadvali; xona haroratining qulayligi "o'qituvchi-o'quv bilish muhiti-o'quvchi" tizimi pedagogik va ergonomik loyihalashtirish natijasidir.

Axborot texnologiyalari fani o'qituvchilari uchun, o'quv vositalarining sifatiga, ularning ish qobiliyatini va o'rganishga bo'lgan qiziqishini saqlab qolishlariga ta'sir etuvchi omillar(o'qitish va o'zlashtirish darajasi, o'qitish vaqtining sarfi, Axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining faoliyati, Axborot texnologiyalari fani o'qituvchilari faoliyatining motivatsion barqarorligi).

O'quv vositalaridan foydalanishni Axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi faoliyatining sifatiga, uning faoliyati va motivatsion barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar(o'quv qo'llanmalari kompleksining izchilligi va ratsionalligi, o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirishga sarflanadigan vaqt, qayta aloqani tashkil etish, tinglovchi-o'qituvchi faoliyati, o'qituvchi faoliyatining motivatsion barqarorligi).

O'zaro ta'sir jarayonining ahamiyatini, ya'ni kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy xususiyatlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- ergonomik kompetentlik darajasini yuksalishi;
- Axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining faolligi va tashabbuskorligining rivojlanishi;
- Axborot texnologiyalari fani o'qituvchisining psixologik xususiyatlarining o'zgarishi;
- ma'naviy va madaniy tushunchalarning rivojlanishi;
- o'zini-o'zi anglash va o'zini-o'zi baholash ko'nikmalarining rivojlanishi;
- hamkorlikdagi faoliyatni vujudga kelishi va unda axborotlar almashinuvi natijasida kasbiy faoliyatga, ish o'rinlariga xavfsiz va qulay moslashuvni vujudga kelishi.

Adabiyotlar

1. Абдуллаев С.Х., Шодманов Қ.О. Талабаларни бошқарув фаолиятига тайёрлашга тизимли ёндашув // Халқ таълими журнали. – Тошкент, 2008.
2. Абдуллаев С.Х., Шодманов Қ.О. Ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасаларида бошқарувнинг ўзига хос хусусиятлари // Касб-хунар таълими журнали. – Тошкент, 2008.
3. Окулова Л.П. Педагогическая эргономика: монография. – М. Ижевск: Институт компьютерных исследований, 2011. – 200 с.
4. Воронина Е.В. Научная организация педагогического труда. Педагогическая эргономика. Учебное пособие для академического бакалавриата. Москва-Юрайт-2017г.



5. Абдуллаев С.Х. Эргономика, малака ошириш таълим тизимининг эргономик муаммолари // Наука, просвещение и культура в системе непрерывного образования: проблемы и решения по реализации государственной программы. Ташкент, 2015. Б.48-53.
6. Педагогика: учебник/Л.П. Крившенко [и др.]; под ред. Л.П. Крившенко. – Москва: Проспект, 2012. – с.254.
7. Эргономика: Учебное пособие для вузов / В.В.Адамчук, Т.П.Варна, В.В.Воротникова и др.; Под ред. В.В.Адамчука. – М.: ЮНИТИ - ДАНА, 1999.-254 с.
8. Симонов В.П. Педагогический менеджмент: 50 НОУ-ХАУ в управлении педагогическими системами. – М.: Педагогическое общество России, 1999.-430 с.
9. Штофф, В.А. Проблемы методологии научного познания / В.А. Штофф. – М.: ВШ, 1978. – 269 с.
10. Кузьмина, Н.В. Методы системного педагогического исследования / Н.В. Кузьмина. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1980. – 311 с.

УДК.577.322:504.75.05

PARAMAGNITIK MARKAZLARNI EPR SPEKTROSKOPIYA METODI BILAN TADQIQ QILISH

Berdiev Ural Buranovich, Termiz davlat pedagogika instituti, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

***Annotatsiya:** Maqolada pestitsidlarning sut emizuvchilar qonidagi erkin radikallar va paramagnitik markazlarga ta'sirlari o'rganilgan. Pestitsidlardan bazagranning nitritlar bilan birga ta'siri sut emizuvchilar qonidagi paramagnit markazlaini o'zgartirishi aniqlandi. Birinchi marta, basagran ta'siri ostida qondagi erkin radikallar miqdorining ko'payishi aniqlandi va nitritlarning qondagi paramagnit markazlarning o'zgarishiga ta'siri o'rganildi.*

***Калит сўзлар:** пестицид, нитрит, қон, гемоглобин, азот оксиди, эркин радикал, парамагнит марказ, ЭПР спектрометр.*

ИССЛЕДОВАНИЕ ПАРАМАГНИТНЫХ ЦЕНТРОВ МЕТОДОМ СПЕКТРОСКОПИИ ЭПР

Бердиев Урал Буранович, Термезский государственный педагогический институт, кандидат физико-математических наук, доцент

***Аннотация:** В статье изучены влияние пестицидов в крови млекопитающих на свободные радикалы и парамагнитные центры. Были изучены влияние базаграна на млекопитающих, а также свободных радикалов, образующихся в живых организмах в результате совместного действия базаграна и нитритов. Впервые были выявлены увеличение количество свободных радикалов в крови под влиянием базаграна, также изучены влияние нитритов на изменение парамагнитных центров в крови.*

***Ключевые слова:** пестицид, нитрит, кровь, гемоглобин, окись азота, свободный радикал, парамагнитный центр, спектрометр ЭПР.*



STUDY OF PARAMAGNETIC CENTERS BY EPR SPECTROSCOPY

Berdiev Ural Buranovich, Termez State Pedagogical Institute, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Associate Professor

Abstract: *The influence of pesticides in the blood of mammals on free radicals and paramagnetic centers has been studied in the article. The influence of bazagran on mammals, as well as free radicals formed in living organisms as a result of the combined action of bazagran and nitrites, were studied. For the first time, an increase in the number of free radicals in the blood under the influence of bazagran was revealed, and the effect of nitrites on changes in paramagnetic centers in the blood was also studied.*

Key words: *pesticide, nitrite, blood, hemoglobin, nitric oxide, free radical, paramagnetic center, EPR spectrometer.*

Kirish

Pestitsidlar – ximiyaviy vositalar bo‘lib turli xil parazitlar, begona o‘tlar, don va don mahsulotlari zararkunandalari, yog‘och, paxta mahsulotlari, jun, teri, uy hayvonlarining ektoparazitlariga qarshi, shuningdek odamlar va hayvonlar kasalliklari tashuvchilariga qarshi kurashda keng miqyosda qo‘laniladi. Pestitsidlar qishloq xo‘jaligida meva, sabzavot va bug‘doy etishtirishda o‘simlik zararkunandalariga qarshi kurashda xam ko‘p ishlatiladi.

Pestitsidlar ko‘pincha mineral o‘g‘itlar bilan birgalikda ishlatiladi. O‘g‘itlarning keng ko‘lamda qo‘llanilishi tufayli tuproqda, sizot suvlarda va o‘simliklardan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlarida nitrat va nitritlarning ortiqcha to‘planishi xavfi mavjud.

Adabiyotlar tahlili

Adabiyotlarda nitritlarning inson organizmiga, hayvonlarga toksik ta‘siri haqida ma‘lumotlar mavjud [1-5]. Nitritlarning asosiy toksik ta‘siri ularning metgemoglobin hosil qilish faolligidir. Nitritlar qonda metgemoglobin hosil qilishi bilan birga qonda nitritlar azot oksidiga tiklanishi mumkin. Azot oksidi, gemoglobin bilan o‘zaro ta‘sirlashib, $Hb-NO$ komplekslarining $R-va T$ – konformerlarini hosil qiladi [6-8]. Odam va hayvonlar organizmiga, pestitsidlar va nitrobirikmalarning tashuvchi, jiddiy toksik ta‘sirlarga olib kelishi mumkin bo‘lib ularning tasir mexanizmi kup hollarda o‘rganilmagan. Ushbu maqolada bazagranning sut emizuvchilarga ta‘siri, shuningdek tirik organizmlarda bazagran va nitritlarning birgalikdagi tasiri natijasida hosil bo‘lgandigan erkin radikallar o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Pestitsidlarning sutemizuvchilar qonining paramagnit xususiyatlariga ta‘sirini o‘rganishda, tadqiqot ob‘ekti sifatida donor odamlar va Vistar kalamushlar yo‘nalishidagi qonidan va gemoglobinidan foydalanilgan.

EPR spektrlari yuqori chastotali magnit maydon modulyasiyasi (100 kGs) va kompyuter tomonidan boshqariladigan magnit maydonli 3-x sml “Rubin” radio spektrometri yordamida qayd etildi.

Tajribalarda quydagi pestitsidlardan fodalaniadi bazagran zenkor, devrinol, tenoran.

Pestitsidlarning ta‘siri og‘irligi 190-200 gramm bo‘lgan Vistar yo‘nalishidagi kalamushlarda o‘rganildi. Qon namunasi 0,6 ml teflon patronlariga joylab suyuq azotda muzlatib olingan. EPR signallarining amplitudali qiymatlari ho‘l namunaning og‘irligi bilan bog‘langan va bir guruhdan namunalar uchun o‘rtachalashtirilgan. Gemoglobin Antonini va Brunori usuli bo‘yicha olingan [9].

Tahlil va natijalar

Pistitsid bazagran kalamushlar qorin bo'shlig'iga kiritilganda uning qoniga tasiri o'rganiladi. In vitro tajribalarida qon va gemoglobin bazagran bilan har xil konsentratsiyada inkubatsiya qilindi.

Ilgari, qorin bo'shlig'iga kiritilgan atrazin, zenkor, devrinol, tenoran kabi pestitsidlar kalamushlar qorin bo'shlig'iga kiritilganda qondagi paramagnit markazlarning tarkibi va miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi aniqlangan. Shu bilan birga, qorin bo'shlig'iga dikvat, prometrin, gidrel va kataranning LD_{50} dozada yuborilganda 30-60 minutdadan so'ng qondagi erkin radikallar miqdori 2-6 barobar ko'payishiga olib keldi [10].

Tajribalar bazagran pestitsid foydalaniladi. In vitro tajribalarida qonning bazagran bilan o'zaro ta'sirining birinchi daqiqalarida (1-3 minut) qondagi erkin radikallar miqdorining 5-10 barobar oshishi kuzatilgani qayd etilgan. In vitro tajribalarida qon va bazagranlarning o'zaro reaksiyasidan 5-10 minut o'tgach qondagi erkin radikallarning miqdori vaqt o'tishi bilan kamayib boradi va 15-30 minutdan keyinnormaga keladi.

Basagranni venaga yuborish ($LD_{50} = 110 \text{ mg} / 100 \text{ g}$), shuningdek uning qon bilan in vitro inkubatsiyasida (5-50 mg / ml), yangi paramagnitk markaz aniqlanadi. Ushbu markaz uchun signal kengligi 50-60 e va $g=2,285$ ligi aniqlandi. Bazagranning qonn paramagnit markazlariga ta'siri mohiyatini tushunish va yangi signalning mohiyatini ochib berish uchun ushbu moddaning paramagnit *Hb-NO* komplekslariga ta'sirini o'rganish bo'yicha tajribalar o'tkazildi. *Hb-NO* komplekslarining EPR spektrlari yaxshi o'rganilgan [8]. Ma'lumki, *Hb-NO* komplekslarining bir qancha moddalar (2,3-difosfogliserota, ATF, IGF, natriy dodetsilsulfat sulfat) bilan o'zaro ta'sirida konformatsion o'zgarishlari EPR spektrlari shaklining o'zgarishiga olib keladi. Adabiyotlar keltirilishiga, pestitsidlar hayvon hujayralari membranalari oqsillari va lipidlari bilan, shuningdek o'simlik hujayralari oqsillari bilan o'zaro ta'sirlashishi mumkin [11-13]. Shuning uchun, *Hb-NO* komplekslari bazagranning qon pigmentining oqsil qismlariga ta'sirini o'rganish uchun eksperimental model bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, yuqorida aytib o'tilganidek, pestitsidlar odamlar va hayvonlarning organizmiga nitrat - nitrit intoksikatsiyasi fonida xam kirishi mumkin. Shuning uchun, intoksikatsiyaning bu shakli o'z xususiyatlariga ega bo'lishi mumkin.

Nitrat-nitrit intoksikatsiyasi sharoitida pestitsidlarning paramagnit qon markazlariga ta'siri to'g'risida ma'lumotlarni uchratilmadi.

Shu nuqtai nazardan, nitrat -nitrit intoksikatsiyasi paytida hosil bo'lgan *Hb-NO* komplekslari pestitsidlarning oqsillarga ta'sirini o'rganish uchun nafaqat eksperimental model bo'lishi mumkin, balki pestitsidlar va nitro birikmalarning binar (birgalikda) ta'sirini o'rganish uchun tadqiqot modeli bo'lib xizmat qilishi mumkin. *Hb-NO* komplekslarini o'z ichiga olgan gemoglobin eritmasiga (konsentratsiyasi 10-3 m) 5-100 mg / ml dozada bazagran qo'shilishi bu komplekslarning EPR signalini o'zgartirishi ko'rsatildi.

Bazagran tasiri natijasida *Hb-NO* komplekslarining EPR signalining intensivligining pasayishi qayd etildi. Bundan tashqari, bir qator hollarda, *Hb-NO* komplekslarining T-konformerlariga xos bo'lgan triplet signali ning paydo bo'lishi kuzatilgan. *Hb-NO* komplekslarining EPR spektrlarining bunday o'zgarishi ilgari inkubatsiya muhitining pH muhitning kislotalashishida, oqsil denaturatsiyasini keltirib chiqaradigan moddalar ta'sirida va $NaNO_2$ ning har xil dozalarini vena orqali kiritilganda kuzatilgan edi [9]. Bazagran ta'siri ostida *Hb-NO* komplekslarining EPR spektrlarining o'zgarishi sababini bilish uchun Bazagran inkubatsiya muhitining pH ga ta'siri o'rganildi. Bazagran dozalarining 5 mg / ml dan 100 mg /

ml gacha o'zgarishi gemoglobin inkubatsiya muhitining pH qiymatiga ta'sir qilmadi. Binobarin, $Hb - NO$ komplekslarining EPR spektrlari shakli o'zgarishiga muhitning pH o'zgarishi emas, qandaydur boshqa sabablari bo'lishi kerak $Hb - NO$ komplekslarining EPR spektrlari shaklining o'zgarishiga ikkinchi sabab, bazagran ta'sirida azot oksidi konsentratsiyasining o'zgarishi bo'lishi mumkin. Oldinroq ko'rsatilgandek [9], qon pigmentli NO komplekslarini o'z ichiga olgan gemoglobin eritmasi orqali NO ning qo'shimcha puflanishi, $Hb - NO$ komplekslari R - konformerlarining EPR spektrida triplet STS paydo bo'lishiga olib kelishi mumkinligi ko'rsatilgan. Agar bazagran nitrid ionlariga nisbatan elektron donori xususiyatlarini namoyon qila oladigan bo'lsa, unda gemoglobin, natriy nitrit va bazagran inkubatsiyasi paytida $Hb - NO$ komplekslarining EPR signalining kuchayishi kamayish faollashuvi natijasida bo'lishi mumkin.

Bazagranning nitrid ionlarini qaytarishda ishtirok etish imkoniyatini sinab ko'rish uchun methemoglobin, natriy nitrit va bazagran inkubatsiyasi bo'yicha tajribalar o'tkazildi. Bu tajribalarda qon pigmenti bilan NO komplekslarining hosil bo'lishi kuzatilmagan. Bu shuni ko'rsatdiki, bazagran nitrit ionlarining qaytarilishini faollashtirish orqali $Hb - NO$ komplekslarining EPR spektrlariga ta'sir qila olmaydi. Avvalroq [9] ko'rsatilgandek, oqsilni denaturatsiyalovchi moddalar EPR spektrida triplet STS paydo bo'lishi bilan birga $Hb - NO$ komplekslarining $R \rightarrow T$ o'tishiga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, bazagran ta'siri ostida triplet STS paydo bo'lishining sabablaridan biri bazagranning denaturatsiya qiluvchi ta'siri deb taxmin qilish mumkin. Bazagranning gemoglobinga (qonga) ta'sirini natriy dodetsilsulfatning tasiri bilan taqqoslash uchun natriy dodetsilsulfatning ta'sirini o'rganish bo'yicha tajribalar o'tkazildi.

Bu tajribalar shuni ko'rsatdiki, natriy dodetsilsulfat bazagran ta'sirida kuzatilganidek, gemoglobinning EPR spektrini o'zgartirishga qodir. Ammo, natriy dodetsilsulfat ta'siridan so'ng gemoglobinning EPR spektrlari bazagran ta'siridan keyin qon pigmentining EPR spektridan ma'lum darajada aniqlangan. Shunday qilib, $Hb - NO$ komplekslarining EPR spektrlarining o'zgarishi bazagranning denaturatsion tasiri bilan bog'liqligi to'liq aniq emas edi. Shuning uchun biz gemoglobinning EPR spektriga issiqlik oqsil denaturatsiyasining ta'sirini o'rganish bo'yicha tajribalar o'tkazdik.

Xulosa

Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, issiqlik denaturatsiyasi tasirida qonda, qanday o'zgarishlar bo'lsa bazagran ta'siridan keyin ham shunday o'zgarishlar bo'lgan. O'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, qonning paramagnitik xususiyatlarini o'zgartirishga qodir bo'lgan ba'zi pestitsidlarning toksik ta'siri ularning oqsillarga denaturatsion ta'siri bilan bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Реутов В.П. Нитратно-нитритный фон существования современного человека и продолжительность жизни // Евразийское Научное Объединение. 2016. Т.1. №3(15). С.68 - 76.
2. Бердиев У.Б., Реутов В.П., Вишневецкий Е.И., Каюшин Л.П., Шекшеев Э.М. Применение автоматизированного метода ЭПР спектроскопии для изучения влияния пестицидов и нитритов на парамагнитные свойства крови млекопитающих // Биофизика. 1990. Т.35. №2. С.382-383.
3. Reutov V. P, Davydova L.A. Physiological and clinical nervism from the classics of science to the present days // Евразийское Научное Объединение. 2019. № 3-3 (49). С.155 – 169.



4. Бердиев У.Б., Кузнецов Ю.П., Куклин П.Г., Реутов В.П., Шекшеев Э.М. Моделирование спектров ЭПР парамагнитных центров крови на персональных ЭВМ типа IBM PC/XT/AT М.: Институт химической физики РАН. 1989. 31 с.
5. Журавлев В.Ф., Цапков М.М. Токсичность нитратов и нитритов // Гигиена и санитария. 1983. №1. С.62-66.
6. Ажица Я.И., Реутов В.П., Каюшин Л.П., Никишкин Е.И. Конформационные изомеры комплексов гемоглобина с окисью азота, возникающие в крови при действии нитрита натрия // Изв. Ан СССР. Сер. биол. 1983. №2. С.240-250.
7. Реутов В.П., Ажица Я.И., Каюшин Л.П. Кислород как ингибитор нитритредуктазной активности гемоглобина // Изв. Ан СССР. Сер. Биол. 1983. №3. С.408-418.
8. Berdiev U.B. EPR Study of Free Radicals Produced by Pesticides in the Blood of Mammals // Eurasian Research Bulletin. 2022. V.15. P.154-157
9. Antonini E., Brunort M. Hemoglobin and Myoglobin in their reactions with ligands. Amsterdam- London Academic Press. 1971. 436p.
10. Бердиев У.Б. Изучение влияния пестицидов на изменение содержания свободных радикалов в крови млекопитающих // Хоразм маъмун академияси ахборотномаси. 2020. №5(1). С.7-9.
11. Реутов В.П., Сорокина Е.Г., Охотин В.Е., Косицын Н.С. Циклические превращения оксида азота в организме млекопитающих. М.: Наука. 1997. 156с.
12. Бердиев У.Б., Реутов В.П., Вишневский Е.С., Каюшин Л.П., Гольдфельд Е.Г. Изучение влияния пестицидов на парамагнитные свойства крови млекопитающих. // Материалы Всесоюзной конференции "Магнитный резонанс в биологии и медицине". Черногоровка. 1989. С. 143.
13. Реутов В.П. Цикл оксида азота в организме млекопитающих и принцип цикличности // Биохимия. 2002. Т. 67. № 3. С. 353-376.



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA XORIJ TAJRIBASI PPINSIPLARI VA PARAMETRLARI

Xolikov Eldor Muxamadaliyevich

Professional ta'limni rivojlantirish instituti "Malaka oshirish va qayta tayorlash" fakulteti bosh mutaxassisi

Elektron pochta manzili: e.m.holikov@gmail.com

***Annotatsiya.** Ilmiy tavsiyalar bilan bog'liq ilg'or pedagogik tajriba yuqori pedagogik samara beradi, jamoatchilikda o'ziga katta qiziqish uyg'otadi, ommaviy amaliyotga ijobiy ta'sir etadi. Masalan, XX asrning 80-yillarida ko'plab o'qituvchilar muammoli ta'limni yaxshilab o'rganib oldilar, o'z pedagogik tajribasi bilan ijodiy bog'lagan holda ilg'or tajribadan bahramand bo'ldilar, keyinchalik o'zlari ham o'quvchilarning bilishga oid faolligi va mustaqilligini muvaffaqiyatli ravishda rivojlantirishga erishgan holda o'z tajribalarini ma'ruzalar, ochiq darslar orqali boshqalarga uzata boshladilar. Pedagogik tajribaning asosini uning yangiligi tashkil etadi. O'z ahamiyati va ko'lamiga ko'ra yangilik turlicha bo'ladi. Shu ma'noda pedagogik tajribaning har xil turlari to'g'risida gapirish mumkin. Muhimi, pedagog ham, o'quvchilar ham yangilikni his etishi. Ilg'or tajriba xususiylik bilangina chegaralanib qolmaydi, aksincha u yoki bu muammoning yangicha yechimini izlaydi va topadi.*

***Kalit so'zlar:** ilg'or tajriba, xorijiy tajriba, terminlar, pedagogik tajriba, pedagogika qonunlari, prinsiplar, pedagogik metodlar, pedagogik parametrlar.*

ПРИНЦИПЫ И ПАРАМЕТРЫ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Холиков Элдор Мухамадалиевич

Главный специалист факультета «Повышение квалификации и переподготовка»

Институт развития профессионального образования

Email: e.m.holikov@gmail.com

***Анотация.** Передовой педагогический опыт, связанный с научными рекомендациями, обеспечивает высокие педагогические результаты, вызывает большой интерес у общественности, положительно влияет на массовую практику. Например, в 80-х годах 20 века многие учителя основательно изучили проблемное обучение, творчески связав его со своим педагогическим опытом, пользуясь передовым опытом, а в дальнейшем и сами, успешно развив активность и самостоятельность учащихся, стали передавать делиться своим опытом с другими посредством лекций и открытых занятий. В основе педагогического опыта лежит его новизна. Новости различаются по важности и масштабу. В этом смысле можно говорить о разных видах педагогического опыта. Важно, чтобы и учитель, и ученики почувствовали новизну. Расширенный опыт не ограничивается приватностью, наоборот, он ищет и находит новое решение той или иной проблемы.*

***Ключевые слова:** передовой опыт, зарубежный опыт, термины, педагогический опыт, педагогические законы, принципы, педагогические методы, педагогические параметры.*



PRINCIPLES AND PARAMETERS OF FOREIGN EXPERIENCE IN TRAINING FUTURE TEACHERS

Xolikov Eldor Muhamadaliyevich

Chief Specialist of the Faculty of Advanced Training and Retraining of the Institute for the Development of Vocational Education

Email address: e.m.holikov@gmail.com

Annotation. *Advanced pedagogical experience associated with scientific recommendations ensures high pedagogical results, arouses great interest among the public, and has a positive effect on mass practice. For example, in the 80s of the 20th century, many teachers thoroughly studied problem-based learning, creatively connecting it with their pedagogical experience, using best practices, and later on themselves, having successfully developed the activity and independence of students, began to share their experience with others through lectures. and open classes. The basis of pedagogical experience is its novelty. News items vary in importance and scope. In this sense, we can talk about different types of pedagogical experience. It is important that both the teacher and the students feel the novelty. The extended experience is not limited to privacy, on the contrary, it seeks and finds a new solution to a particular problem.*

Key words: *advanced experience, foreign experience, terms, pedagogical experience, pedagogical laws, principles, pedagogical methods, pedagogical parameters.*

Kirish

Inson hayotida o'qituvchining o'rni va ahamiyatini joyiga qo'yish o'ta muhim masalalardan biridir. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar olayotgan bilim, ko'nikma va malakalar o'qituvchilik kasbi sir-asrorlarini to'la o'zlashtirish va amalda qo'llash uchun yetarli darajada emas. Faqat maktab amaliyoti, o'quv-tarbiyaviy jarayonning jonli tajribasi asosidagina ushbu bilimlar zarur chuqurlik va egiluvchanlikka ega bo'lib, harakat qilish uchun haqiqiy qo'llanmaga aylanadi hamda ta'lim va tarbiyada samarali natijalarga erishishga imkon yaratadi.

Shuning uchun ham o'z tajribasini to'plash va takomillashtirish - nafaqat yosh o'qituvchilarning, balki har bir o'qituvchining faoliyati davomidagi doimiy vazifasi bo'lishi kerak.

Zamonaviy ilmiy-pedagogik adabiyotlarda «pedagogik tajriba», «ilg'or tajriba», «innovatsion (novatorlik) tajriba» kabi tushunchalar mohiyatini aniqlashda yagona yondashuv mavjud emas.

Adabiyotlar sharhi

Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini takomillashtirish muammolari R.X.Djuraev, R.G.Isyanov, O.M.Musurmanova, N.A.Muslimov, A.T.Nurmanov, B.S.Abdullaeva, K.J.Riskulova, D.I.Ro'zievalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarini o'qitishning ilmiy-metodik jihatlari M.X.Artiqova, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, N.Ibragimova, G.T.Maxkamova, M.Saydullaeva, O.Sotiboldiev, S.X.Fayzullinalar tomonidan ishlab chiqilgan. G.S.Kinjaeva, D.Tursunova, M.M.Yuldashevalarning tadqiqotlarida kasbiy yo'naltirilgan yondashuv asosida chet tillarini o'rganish jarayoni yoritib berilgan. G.N.Pirmanova o'z dissertatsiyasida talabalarning ingliz tiliga qiziqishini oshirish vositasi sifatida Angliyaning badiiy merosini o'rganish, F.I.Ibragimova esa bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy

kompetentligini Angliya madaniyatiga qiziqishlarini shakllantirish orqali takomillashtirish zarurligini asoslab bergan.

S.I.Ojegovning izohli lug'atida «tajriba» tushunchasi quyidagicha ta'riflangan: 1. Amaliy o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi; 2. Ob'ektiv dunyo bilan faol amaliy munosabatlar o'rnatish natijasida inson ongida ushbu dunyo qonunlari va jamiyat amaliyotining aks etishidir[5]. Tajriba – bu bilimlar va amaliyotdan kelib chiqadigan inson faoliyati davomida shakllanadigan ko'nikmalardir[5; 1139-b.].

Pedagogik terminlar lug'atida pedagogik tajriba quyidagicha talqin etiladi: «pedagogik tajriba – pedagog tomonidan kundalik o'quv-tarbiya jarayonida egallaniladigan amaliy bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi; o'qituvchining kasbiy mahorati asosi; pedagogika fanining rivojlanish manbalaridan biridir»[14].

«Zamonaviy ta'lim jarayoni: asosiy terminlar va tushunchalar» lug'atida pedagogik tajribaga shunday ta'rif beriladi: «pedagogik tajriba – o'qituvchi tomonidan pedagogika qonunlari va prinsiplarining aniq sharoitlar, bolalarning, bolalar jamoasi hamda o'z shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ijodiy faol o'zlashtirilishi va amalga oshirilishidir»[12; 87-88-6.].

Tadqiqot metodologiyasi

Pedagogik tajriba – bu o'qituvchi tomonidan o'quv-tarbiya jarayonida olingan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisidir. Pedagogik tajriba pedagogning o'quv muassasasi o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik jamoa faoliyati stili hamda o'qituvchining shaxsiy sifatlari ta'siri ostida to'planib, pedagogik bilimlar asosida shakllanadi. Alohida o'qituvchining shaxsiy tajribasidan farqli ravishda ommaviy pedagogik tajriba doimiy kundalik amaliyotda mavjud hodisalarni aks ettiradi.

Pedagogik tajriba keng ma'noda – bu o'quvchilar ta'limi va tarbiyasida, aniq bir pedagog, tarbiyachi, rahbarning rivojlanishida, ta'lim muassasalari pedagogik xodimlarining kasbiy pedagogik kompetensiyalarini takomillashtirishda yuqori natijalar beradigan pedagogik mahoratdir. Pedagogik tajriba tor ma'noda ta'lim-tarbiya faoliyati natijalari va sifatini takomillashtirish imkonini beruvchi pedagogik amaliyotni ifodalab, nazariy bilimlardan ijodiy foydalanish, yangilik olib kirish, noma'lumlikka yo'l ochish demakdir[9; 121-6.].

Ko'pchilik ta'lim muassasalarida pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish metodistlar lavozim vazifalarining eng murakkab yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Akademik R.X.Djuraev rahbarligida nashr etilgan «Pedagogik atamalar lug'atida» ilg'or pedagogik tajribaga quyidagicha ta'rif berilgan: «Ilg'or pedagogik tajriba – o'qituvchining ta'lim-tarbiya sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'rganib borishi, o'z ustida ishlashi va ta'lim-tarbiyani zamonaviylashtirish imkoniyatlarini ifodalovchi faoliyat turi»[8; 45-6.].

«Zamonaviy ta'lim jarayoni: asosiy terminlar va tushunchalar» lug'atida ilg'or pedagogik tajriba «o'qituvchi mahoratining eng yuqori cho'qqisi, yuqori darajadagi pedagogik natijadir, ta'lim sohasidagi turli tashabbuslar va innovatsiyalarni to'plash va o'zgartirish tendensiyalarida ifodalangan ta'limni rivojlantirishning muhim elementi, bu birgalikda ta'lim sohasidagi ozmi-ko'pmi global o'zgarishlarga va uning mazmuni va sifatini o'zgartirishga olib keladi» [7; 51-b.] deya ta'riflanadi.

Novator pedagogik tajriba – pedagogik ixtiro, original g'oya, ta'lim va tarbiya metodlari va usullarini hayotga tatbiq etish tajribasidir. Novatorlik tajribasida pedagogika faniga hali



noma'lum bo'lgan qonuniyatlar yuzaga chiqadi. Novator-pedagogning tajribasi ta'lim muassasalari faoliyatini prognostik jihatdan har tomonlama o'rganish, asoslashni talab qiladi va o'zida ilg'or tajribalarni aks ettiradi.

Pedagogik tajribani egallash jarayonining murakkabligi shundan iboratki, u jarayon sifatida noto'lalik xususiyatiga ega va muhimi uning o'zi emas, balki tahlil sifati, so'z, sxema, tavsiyalar va ishlanmalar ko'rinishidagi undan chiqariladigan xulosalardir. Shu bilan bog'liq ravishda pedagogik tajribani anglab olish alohida ahamiyatga egadir.

O'qituvchi tajribasini anglab olish zaruriylikini yetarlicha e'tiborga olmaslik uning faoliyatini oddiy faoliyatga aylantirib qo'yadi. Tajriba va uni anglab olish o'zaro murakkab aloqalar jarayonida parallel shakllanadi.

Shaxsni kasbiy rivojlantirish borasida boshqa madaniyat bilan dialogga jalb qilish (pedagogik, jumladan) universal rivojlantiruvchi mexanizm hisoblanadi[13; 59-60-b.,104]. Xorijiy pedagogik tajribani o'rganish jarayonida jahon madaniyatlarining o'zaro bir biriga ta'siri, munosabatlari bir xalq madaniyati elementlaridan boshqa xalqlar madaniyatida foydalanish bilan tavsiflanib, o'zaro aloqaga kiruvchi madaniyatlar bir-birini boyitishi kuzatiladi.

Ta'lim jarayonlarining madaniy kontekstlarini tushunish bo'lajak mutaxassislarda ichki ziddiyatlarsiz dunyo pedagogik manzarasini shakllantirishga qulay sharoit yaratadi, kasbiy pozitsiyasini aniqlashda qo'shimcha madaniy asos bo'lib xizmat qiladi, o'z kompetensiyasi chegaralarini anglash, ya'ni kasbiy o'z mavqeini belgilab olish imkonini beradi.

Har qanday fan sohasidagi bilimlar xorijiy mamlakatlar ilm-fanidagi o'xshash ilmiy-amaliy muammolar tahlilisiz yetarli darajada to'liq va mukammal bo'lmasligi tabiiy. Bu ma'noda pedagogika fanida qiyosiy ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Qiyosiy tadqiqotlar mavjud ilmiy-pedagogik muammolarni samarali aniqlash yo'llarini aniqlash uchun xizmat qiladi[4].

Ta'limda novatorlik faktining mavjudligi faqatgina jahon va milliy pedagogik madaniyatlarning qiyosiy kontekstida yuzaga chiqadi, chunki inson faoliyatining barcha sohalarida prinsipial yangilik va mualliflikning asosiy ko'rsatkichi sifatida tarixiy-madaniy prototipi va o'xshashining yo'qligi kabilar xizmat qiladi. O'z navbatida tarixiy parallellarning aniqlanishi u yoki boshqa yangilik va alternatalarni qabul qilishning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish imkonini beradi[12,15].

«Xorijiy pedagogik tajriba» tushunchasi (bizning ishimizda – Angliya pedagogik tajribasi) respublikamizdagi pedagogik tajriba tushunchasi mazmunidan farq qiladi.

«Xorijiy pedagogik tajriba» qiyosiy pedagogika va pedagogika tarixiga oid tadqiqotlarda xorijiy pedagogik tizimlarning turli xil xususiyatlarini, xorijiy ta'limning rivojlanish tendensiyalarini yoritib beradi. Ayni paytda pedagogik tajriba borasidagi tadqiqotlarda (V.K.Dyachenko, V.I.Juravlyov, N.V.Kuxarev, F.Sh.Teregulov) pedagogik tajriba tushunchasining mohiyati uning an'anaviy talqinida, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida ifoda etiladi.

Yu.A.Vashilko, G.A.Andreeva, D.A.Sabirovalarning tadqiqotlarida xorijiy pedagogik tajriba paydo bo'lgan mamlakat ijtimoiy-madaniy tajribasini – an'analari, faoliyat va tafakkur stereotiplari, mentaliteti va b. o'zida aks ettirishi, o'qitish amaliyotini (chet tillarni, jumladan) tavsiflashi ta'kidlangan[6; 58-b.].

Xorijiy pedagogik tajriba (XPT) hodisasining paydo bo'lishini umuman tajribaning, pedagogik tajribaning, jumladan, makonga oid cheklovlari bilan izohlash mumkin. Tajribaning diffuziya (tarqalish) hodisasi madaniy o'zgarishlar turi sifatida so'zsiz XPT imkoniyatlarini

faollashtirishga imkoniyat yaratib beradi. Madaniyatlararo munosabatlarning bugungi kundagi faollashuvi, jumladan, ta'lim sohasida, XPTni o'rganish, undagi ilg'or tajribalarni aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida xorijiy pedagogik tajriba elementlaridan foydalanishni ushbu jarayon sifatini oshirish vositalaridan biri sifatida tavsiflash mumkin.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili XPT hodisasining o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadigan quyidagi omillarni aniqlash imkonini berdi: qadriyatlar, madaniy o'xshashlik, an'analar, ta'lim konsepsiyalari (paradigmalari)[7; 59-b.]. Tahlil qilinayotgan qo'shimcha omillar ilg'or pedagogik tajribani baholash borasidagi mavjud yondashuvlarni ta'limning ijtimoiy-madaniy aspektlariga e'tibor bergan holda yanada to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Ilg'or XPTni idrok qilish hamda uni baholash natijalaridan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish, ta'lim sifatini ta'minlash borasida foydalanish uchun zamin yaratadi.

Tahlil va natijalar

Hozirgi paytda chet tillar o'qituvchilarini tayyorlash borasidagi jahonda amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan ilg'or tajribalardan foydalangan holda O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlar darajasida chet tillar bo'yicha o'qituvchi - kadrlar tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda ilg'or XPTning mazmuni va didaktik tendensiyalarini aniqlash, o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha yondashuvlar, o'qitish sifatini ta'minlash bo'yicha tajribalarni chuqur tahlil etish zarur. Ushbu vazifani amalga oshirish vositalaridan biri mamlakatimiz va xorijiy pedagogik tajribalarini qiyosiy o'rganish hisoblanadi. Qiyosiy edukologiya fanining asosini qiyoslash-taqqoslash prinsipi tashkil etadi. Edukologiya — bu ta'lim to'g'risidagi yangi mustaqil fan[1; 65-b.].

Umumiy va ijtimoiy pedagogika bo'yicha lug'atlarda ko'rsatilishicha, edukologiya ta'lim, ta'lim tizimlari to'g'risidagi fanlar ichida ancha yangi fan sohasi hisoblanadi.

Xorijiy pedagogik tajribani o'rganish turli xil mamlakatlar, mamlakatlar guruhi yoki hududlar kesimida ularning o'zaro ichki aloqalari kesimida yaxlit ko'rib chiqishni taqozo etadi. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim masalalariga e'tibor haqida pedagogik tadqiqot markazlarining keng tarqalganligi guvohlik beradi. Ta'lim nazariyasi va amaliyotini xususiy va davlat tashkilotlari o'rganadilar: AQSh, Fransiya, Yaponiya kabi mamlakatlarda yetakchi universitetlar, AQShdagi tarbiya Akademiyasi, Buyuk Britaniyada pedagogik tadqiqotlar jamiyati, Fransiyada pedagogik hujjatlar markazi va boshqalar[10].

Bunday tadqiqotlar Shvesariyada xalqaro tarbiya byurosi, Xalqaro pedagogik tadqiqotlar instituti (Germaniya), Xalqaro ta'lim instituti (AQSh), Qiyosiy pedagogika bo'yicha tadqiqotlar markazi (Buyuk Britaniya) va shular kabi boshqa xalqaro markazlar tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi. XPT bir necha darajalarda farqlash imkoniyatlarini taqdim etadi. L.M.Shapovalova XPTni falsafiy asosga, nazariy tushunchalarga va o'rnatilgan amaliyotga ega bo'lgan pedagogik tizimlar yig'indisida ko'rib chiqishni taklif qiladi[4; 5-b.].

Ushbu darajalarni keyinchalik pedagogikaning metodologik bilimlari tuzilishi bilan ajralib turadigan to'rtta darajaga ajratish mumkin: falsafiy, umumiy ilmiy, aniq ilmiy, texnologik. Shuning uchun XPTni falsafiy, umumiy ilmiy, xususiy ilmiy, shuningdek, texnologik bilimlar darajasida ko'rib chiqish mumkin. XPTga umumlashtirilgan maqsadlar, konseptual g'oyalar,

pedagogik texnologiyalar, xususiy metodlar va individual o'qitish usullari darajasida murojaat qilgan A.Yu.Kravsovaning yondashuvi qisman yuqoridagi darajalarga yo'naltirilgan[8; 11-b.].

Ishtirokchilar nuqtai nazaridan va XPTni amalga oshirish miqyosidan kelib chiqadigan bo'lsak, uning turli jihatlari namunalardan foydalanish ko'p jihatdan universitet yoki o'qituvchi darajasida amalga oshiriladi. Qiyosiy pedagogika uchun bir necha usullar o'ziga xos ahamiyatga ega: tavsiflovchi – faktlarning aniqligi, ob'ektivligi, guruhlanishi, tizimlashtirilishi va xalqarolashtirilishini talab qiladi; tahlil qilish uchun zarur va yetarli ma'lumotlarning to'planishi, ta'lim tizimida individual va tipiklikni aniqlashni ta'minlaydi. Ushbu usulning dinamikasi tadqiqot prinsipi ulushining izchil o'sishi bilani foydalanadi. Statistik usullardan ta'limning miqdoriy elementlarini tahlil qilish va izohlashda foydalanilsa, tarixiy usuldan pedagogik voqelikning dinamik xususiyatlarini tahlil qilish va hozirgi holatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Sosiologik usul ta'lim muassasasi faoliyatining jamiyat rivojlanish ehtiyojlariga muvofiqligini baholashda ahamiyatli bo'lsa, taqqoslash usuli yordamida huquqni muhofaza qilish, ta'lim, kadrlar bilan ishlash va hokazolar tizimidagi o'xshashlik va farqlar aniqlanadi, pedagogik qonunlarning umumiy va o'ziga xos belgilari aniqlanadi.

Zamonaviy qiyosiy huquqiy pedagogikada huquqni muhofaza qilish organlarining xorijiy pedagogik tajribasini o'rganish, baholash va undan foydalanishning ilmiy prinsiplari va usullari professor A.M.Stolyarenko tomonidan atroflicha o'rganilgan. U pedagogikani o'rganish va xorijiy tajribadan foydalanishda mumkin bo'lgan turli xil yondashuvlar majmuasini aniqlagan[15].

-faktlarni aniqlash va ma'lumot berish – bu chet elda bo'layotgan voqealarni rasman aks ettirishdan iborat, masalan, pedagogik tajriba to'g'risidagi xorijiy ma'lumot manbalarini tarjima qilish va nashr etishda yoki chet elga ketgan ishchilar tomonidan kuzatilgan narsalarni tasvirlashda;

– analitik va informasion – amaliyotchilarga pedagogik tizimning barcha elementlarini aniq belgilab beruvchi tajribani pedagogik tushunishning birinchi natijasini aks ettiruvchi materiallar bilan ta'minlashda ifodalangan;

– qiyosiy-analitik – xorijiy tajriba nafaqat ta'riflanadi, balki o'zimizniki bilan taqqoslanadi, o'xshashliklar va farqlar ta'kidlanadi, taqqoslashlar asosida baho beriladi va xulosalar chiqariladi;

– ilmiy va amaliy – bu chet el tajribasini amaliy tushunish jarayoni, proseduralari, usullarini ilmiy asoslash, g'oyalarni to'plash, ularning tajribasini joriy qilish uchun amaliy yechimlarning variantlari (versiyalari) ga aylantirish bilan bog'liq;

– amalga oshirish – tajribani amalga oshirishning amaliy usullarini, uni amalga oshirish samaradorligini eksperimental tekshirishni, eng yaxshi variantlarni tanlashni ifodalaydi[3; 1157-b.].

Qiyosiy pedagogikaning xolislik – betaraflik, har qanday soxta fikrlar, shtamplar, xush ko'rish va yoqtirmaslik ko'rinishlari, g'oyaviy yorliqlarni baholashda chegaradan chiqmaslik, faktlarga tayanish va ularni ilmiy tushuntirish kabi uslubiy tamoyillari tadqiqotlarda aniqlangan va sinab ko'rilgan. XPT muammosini ko'rib chiqqan mualliflarning ilmiy izlanishlari (dissertasiyalar, tezislar, ilmiy maqolalar) tahlili (E.V.Abazovik, G.A.Andreeva, V.A.Bordovskiy, M.Bazurina, N.P.Baranova, E.V.Beliskaya, O.I.Bespalova, G.F.Biktagirova, E.N.Bondarenko, X.A.Gipaeva, M.Y.Efanova) tajribasi ilg'or deb tan olingan davlatlarni aniqlashga imkon berdi. Ular orasida AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, ya'ni tillarni o'rganish ob'ekti sifatida etakchi



bo'lgan davlatlar. Shuni ham yodda tutish kerakki, ushbu mamlakatlarda ushbu tillar talabalarning katta kontingenti tomonidan ona tili sifatida va chet tillar sifatida nisbatan ancha kichik kontingent tomonidan o'rganiladi. Bizning mamlakatimizda asosan ingliz, nemis va fransuz tillari chet til sifatida o'rganiladi.

Angliyada o'qituvchilarni tayyorlash tizimi o'tgan asrda shakllangan bo'lib, mamlakat ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishga doimiy alohida e'tibor beriladi. Angliya Boloniya deklarasiyasida bayon etilgan prinsiplarni amalga oshirishga birinchilardan bo'lib kirishgan davlat hisoblangani uchun ham Buyuk Britaniya tajribasi pedagogik ta'lim sohasini isloh qilish borasida na faqat O'zbekiston, hatto Evropa mamlakatlari darajasida ham o'z mavqeiga egadir. Angliyada o'qituvchilarni tayyorlashda individuallik, o'qituvchi ta'limining uzluksizligi, o'qituvchilarni tayyorlash borasida uzluksiz ta'lim tizimi, kompetensiyalarga asoslangan yondashuvning amalga oshirilishi hamda o'qituvchilar tayyorlash sifati kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu kuzatuvlarimiz yuqoridagi asoslarni hisobga olgan holda chet tillarni o'qitish sifatini ta'minlash bo'yicha XPTni ko'rib chiqishni taqozo etadi. Muayyan tajribaning qiymatini aniqlash uchun o'rganilayotgan hodisada ma'lum belgilarning bor yoki yo'qligini aniqlashga imkon beradigan mezonlar tizimi (mezon - baholash, baholovchi) qo'llaniladi. Xorijiy pedagogik tajribada progressiv elementlarni aniqlash maxsus mezonlar tizimidan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Ilg'or xorijiy pedagogik tajribani baholash uchun ishlab chiqilgan mezonlarning yo'qligi, shuningdek, ta'limning rivojlanish tarixidan ma'lum bo'lgan xorijiy pedagogik tajribani o'zlashtirishning salbiy, tanqidiy bo'lmagan holatlarni tasdiqlovchi ko'plab misollar xorijiy pedagogik tajribani o'zlashtirishning salbiy oqibatlarining oldini oluvchi qo'shimcha omillarni aniqlash zarurligini tasdiqlaydi. G.B.Kornetovning fikriga ko'ra, «... ta'lim tizimiga Evropa o'lchovini kiritishda taklif etilayotgan yangiliklarni madaniy muvofiqlik mezoni bo'yicha baholash kerak». Ushbu mezonning ko'rsatkichlari sifatida zamonaviylik (davr talablariga javob beradigan), o'rinnilik (madaniy kontekstga ko'p darajali muvofiqlik), izchillik (milliy ta'limning madaniy salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirish) taklif qilinishi mumkin[104].

Angliyada pedagoglarni tayyorlashga oid zamonaviy pedagogik tajribani o'rganish, tahlil qilish va joriy etish parametrlari:

o'qituvchilar tayyorlash tuzilmasi;

o'qituvchilarni tayyorlash mazmuni;

pedagogik tayyorlashni tashkil etish;

Boloniya jarayonlari doirasida o'qituvchilar tayyorlash tendensiyalari.

Tadqiqotimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, tajriba-sinov ishlari dasturi va mazmuni ishlab chiqildi. Uni amalga oshirish jarayonida quyidagi mezonlarni nazariy asoslash zarurati paydo bo'ldi.

Ushbu mezonlar:

chet tilda kasbiy kompetensiyaning shakllanganlik darajasining ko'rsatkichlari;

talabalarning chet tilda kommunikativ kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga oid o'qituvchilar faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari;

Xulosa va takliflar

Tadqiqot ishimizda Angliya pedagogik tajribasi ingliz tilida kasbiy ta'lim samaradorligi mezon va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va takomillashtirish bilan bog'liq dolzarb muammo echimiga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy-kommunikativ faoliyati tashkiliy-motivasion, axborot-prosessual va natijaviy mezonlarga asoslangan komponentlardan iborat o'ziga xos tizimdir.

Tashkiliy-motivasion komponent ta'lim, talabalar, muloqot, bilish, motivlar, ustanovkalar, tajribani baholash, intilishlar kabi qadriyatlar tizimini o'z ichiga oladi.

Axborot-prosessual komponent – bu kasbiy bilim, kommunikativ faoliyat texnologiyalari, kasbiy ahamiyatli sifatlarni egallash uchun zarur va etarli bo'lgan chet til bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar tizimidir.

Natijaviy mezonlarga asoslangan komponent talabalarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasining shakllanganlik darajasini bosqichma-bosqich monitoring qilish, tahlil qilish, korreksiyalash va xulosa qilishni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1]. Ainscow M. Special needs in the classroom. A teacher education guide / Mel Ainscow. – L., 1994. – 137 p.
- [2]. Alexander R., Rose J., Woodhead C. Curriculum Organisation and Classroom Practice in Primary Schools: A Discussion Paper – L.: HMSO, 1992. – 67 p.
- [3]. Bachman L. Fundamental Considerations in Language Testing. – O.: Oxford University Press, 1990. – 408 p.
- [4]. Chiesa D.L., Azizov U., Khan S., Nazmutdinova K., Tangirova K. Reconceptualizing Language Teaching: An In-service Teacher Education Course in Uzbekistan. – T.: Baktria press, 2019. – 208 p. URL: <https://books.google.co.uz/books?id=qjRjzQEACAAJ>.
- [5]. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. England, Edinburg: Pearson. 2015. – 448 p.
- [6]. Ryan A. The Oxford Tutorial: History and Myth // Tutorial education assessment conference. Lawrence University. March 31, 2007. – P. 2-10.
- [7]. Ibragimova N.K. Ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatishning ahamiyati // Yoshlarga chet tillarni o'rgatishning zamonaviy texnologiyalari: Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T., 2013. – 212 s.
- [8]. Ibragimova F.X. Formirovanie u budущix uchiteley angliyskogo yazyka interesa k kulture Anglii kak faktor professionalnogo sovershenstvovaniya: Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 208 s.
- [9]. Ivanova S.G. Delovoe obshchenie kak faktor razvitiya kommunikativnoy kompetensii studentov // Aktualnie problemi prepodavaniya inostrannix yazykov v neyazykovykh vuzax: Materialy mejfakultetskoy nauchno-metodicheskoy konferensii / Pod obsh. red. E. Berejnova. 10 aprelya 2010 goda. – M.: Izdatelskiy dom NIU VShE, 2012. – S. 77-81.
- [10]. Maxkamova G.T. Konsepsiya formirovaniya mejkulturnoy kompetensii studentov angliyskogo yazyka. – T.: Fan, 2010. – 208 s.
- [11]. Maxkamova G.T. Pedagogicheskiy diskurs inoyazichnogo obrazovaniya: problemi i resheniya. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 144 s.



- [12]. Mitina L.M. Psixologiya truda i professionalnoe razvitie uchitelya. – M.: Akademiya, 2004 – 320 s.
- [13]. Monaxov V.M., Nijnikov A.I. Proektirovanie traektorii stanovleniya budushego uchitelya // Shkolnie texnologii. – M., 2000. – № 6. – S. 66 -83.
- [14]. Musurmanova O. Uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T.: TDPU, 2013. – 444 b.
- [15]. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning tazariy-metodik asoslari: Dis. ... d-ra ped. nauk. – Toshkent, 2007. – 315 b.

MUSIQA TA'LIMIDA O'QUVCHILAR KREATIV VA IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Ergashev Murodbek Ikromovich, Andijon davlat pedagogika instituti

Tasviriy san'at va musiqa ta'limi kafedrasida dotsenti.

murodjonegashev2023@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqa ta'limida dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilarni musiqa ijodiyoti bilan tanishtirib borish, musiqa ta'limida o'quvchining kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirib o'qitish, shuningdek musiqa ta'limi o'qituvchisining o'quvchilarda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga doir shaxsiy vazifalari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: pedagog, musiqa ta'limi, kreativ kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, musiqa san'ati, integratsiya, iqtidor, musiqiy ong.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНЫХ И СОЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Эргашев Муродбек Икромович, Андижанский государственный педагогический институт
Доцент кафедры Изобразительного искусства и музыкального образования.

murodjonegashev2023@gmail.com

Аннотация. В данной статье в музыкальном образовании приобщение учащихся к музыкальному творчеству на уроках и во внеурочной деятельности, руководство развитием креативных и социальных компетенций учащихся в музыкальном образовании, а также роль учителя музыкального образования в личных заданиях учащихся по развитию обсуждаются креативные и социальные компетенции.

Ключевые слова: педагог, музыкальное образование, креативная компетентность, социальная компетентность, музыкальное искусство, интеграция, талант, музыкальное сознание.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE AND SOCIAL COMPETENCES IN MUSIC EDUCATION

Ergashev Murodbek Ikromovich, Andijan State Pedagogical Institute
Associate Professor of the Department of Fine Arts and Music Education.

murodjonergashev2023@gmail.com

Abstract. *In this article, in music education, introducing students to the art of music in class and extracurricular activities, guiding the development of creative and social competences of students in music education, as well as the role of the music education teacher in students personal tasks for the development of creative and social competences are discussed.*

Keywords: *teacher, music education, creative competence, social competence, musical art, integration, talent, musical consciousness.*

Kirish

Musiqa ta'limi tizimida dars va darsdan tashqari turli madaniy-ommaviy tadbirlar, musiqa to'garaklari, ko'rik-tanlovlarga tayyorlash va undan keng foydalanishni yanada kuchaytirish, birinchidan, ta'lim mazmunini, ikkinchidan ta'limning milliy negizini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar tahlili

Har bir jamiyatning rivojlanishida ta'lim tizimining rivojlanishi eng muhim rol o'ynaydi. SHunday ekan, rivojlangan jamiyat qurish yo'lidagi ustozlarning sa'y harakatlari ham ta'lim tizimining sifat bosqichini yuqori saviyada bosib o'tib, ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bugungi kunda mustaqil fikrlovchi, ishonch-e'tiqodli o'quvchilarni tarbiyalashda va zamon talabiga mos kadrlar etkazib berishda bu tizim alohida o'ringa egadir.

Musiqa ta'limida ham o'qituvchining pedagogik mahorati – o'quv jaraenining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni o'quvchining kamoloti, maqsadlari tomon yo'naltirish, ularda kreativ va ijtimoiy kompetentsiyalarni shakllantirish, jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish asosiy vazifalardan hisoblaniladi.

Musiqiy ta'limning vazifalaridan biri bu musiqiy adabiyotlarning faol tarbiyaviy roli orqali o'quvchilarning dunyoqarashini, ichki va tashqi madaniyatini, ularda ijodkorlikni va faollikni shakllantirishdir. SHuning uchun ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'z fikrini bildirishga, o'z nuqtay nazarlarini qo'llab-quvvatlashga undash kerak. Musiqa ta'limi o'qituvchisining asosiy vazifasi o'quvchilarning musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, o'qitish asosida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetentsiyalarni shakllantirish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarning echimini topishga undash, yosh musiqachilarning dunyoqarashini kengaytirishdan iborat. Agarda musiqa ta'limiga bo'lgan ishtiyoq o'quvchilarning o'rganish doirasidan tushib qolar ekan, bu muammoni ijobiy hal etishning imkoniyati bo'lmaydi. Bu esa pedagog oldiga bir qator echimini topish zarur bo'lgan muammolarni ko'ndalang qiladi. Chunki pedagog, avvalo, musiqa o'qitishning samarali metodlarini o'zi bilishi, ham o'quvchiga tushuntira olishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu yo'nalishdagi tajribalar va izlanishlar quyidagi pedagogik talab va mezonlar asosida ish tutish ijobiy natijalarga erishish imkoniyati mavjudligini ko'rsatmoqda.

1. Musiqa ta'limida darsdan tashqari musiqa to'garaklarida musiqa ijodiyoti namunalaridan keng foydalanishda ularni quyidagi ma'lum mezon va talablarga ko'ra tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

– musiqa san'ati bo'yicha tashkil etiladigan badiiy, kasbiy, texnologik, kompyuter savodxonligi kabi bir qator to'garaklarda ishtirok etadigan o'quvchilarning iqtidorini aniqlash,



shu asosda dasturlarni maqsadli ishlab chiqish va har bir ishtirokchining qiziqishi, shuningdek, mashg'ulotlarni o'zlashtirishini hisobga olish;

– dasturni tayyorlashda musiqa ta'limi o'quvchilarining individul iqtidorini alohida e'tiborga olgan holda ularni musiqiy qiziqishi, qobiliyati va ijro imkoniyatlariga to'g'ri kelishini ta'minlash;

– musiqa ta'limida o'quvchilarning badiiy, musiqiy dunyoqarashi va tafakkurini, natijada esa ularda milliy madaniyatni, kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish nuqtai-nazaridan tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega bo'lishi;

– musiqa ta'limi o'quvchilarida o'qishga, mehnatga, ijodkorlikka, ijodiy izlanish, ijtimoiy foydali ishlarga rag'bat uyg'otishi;

– o'zbek xalq musiqasi namunalarning hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bayramlar, madaniy-ma'rifiy va ommaviy tadbirlar, shuningdek, pedagogik mavzulariga mosligini nazorat qilish;

2. To'garaklardan ta'lim va tarbiya maqsadlarida foydalanishda o'rganilgan mavzularni mustahkamlashga, o'quvchilarda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilish nuqtai-nazardan yondashish. Bunda, dars va darsdan tashqari jarayonda xalq va jahon musiqasi namunalarni o'rganish, ijro etish ishlari, ular haqidagi tarixiy, adabiy, ilmiy-ommabop, nazariy manbalardan imkon qadar ko'proq foydalanish orqali amalga oshirilishi lozim. Bu pedagogik talab musiqa ta'limining asosiy faoliyat turlari mazmuni va mohiyatiga muvofiq holda ish yuritishni nazarda tutadi. Ya'ni, erkin tanlov asosida o'rganilgan asar ayni vaqtdagi asosiy maqsad va hal etilayotgan vazifalarga ijodiy yondashish xarakterida bo'lishi talab etiladi.

3. Musiqa ta'limida darsdan tashqari faoliyatda o'rganish uchun tanlab olingan asarlar, musiqa asboblaridan o'quvchilar o'zbek xalqining an'anaviy mumtoz va akademik yo'nalishida mustaqil bilimlar olishga bo'lgan talab va istaklariga mos kelishi, pedagog tomonidan mashg'ulotlarni tashkil etishda e'tiborda tutilishi lozim. Bu pedagogik sharoit o'z mazmunida o'quvchilarni musiqiy iqtidor, qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun izchil va maqsadli mashg'ulotlar olib borishni nazarda tutadi.

4. Musiqa ta'limida pedagog dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilarni musiqa ijodiyoti bilan tanishtirib borishga nazariy, amaliy va uslubiy jihatdan doimiy ravishda tayyorgarlik ko'rib, o'z bilim va malakalarini oshirib borishi lozim. Chunki, bu faoliyatda o'qituvchi-murabbiyning muvoffaqiyati uning musiqa tarixi, madaniyati, musiqiy an'analari, shuningdek, musiqa san'atidan qanchalik keng bilim va ko'nikmalarga ega ekanligiga hamda shaxsiy namunasiga ko'r jihatdan bog'liq bo'ladi.

Tahlillar va natijalar

Kreativ va ijtimoiy kompetensiyalar murakkab hamda fanlararo tushuncha bo'lib, uni talqin qilishda xorij miqyosida ham turli soha mutaxassislari tomonidan yillar davomida turli yondashuvlarni olib borilgan.¹⁰⁴

¹⁰⁴ Allsup, R. E., & Shieh, E. (2012). Social Justice and Music Education. The Call for a Public Pedagogy. Music Educators Journal, 98(4), 47-51.

Arifin, H. M. (2015). The Influence of Competence, Motivation, and Organisational Culture to High School Teacher Job Satisfaction and Performance. International Education Studies, 8(1), 38.

Burnard, P., & Murphy, R. (2013). Teaching music creatively. London: Routledge.

Colwell, R., & Froehlich, H. (2015). Sociology for music teachers. London: Routledge.



Masalan, neyrologlar tomonidan taqdim etilgan tadqiqot ishlarining tahlili shuni ko'rsatadi, har qanday kreativ shaxsning ijtimoiy kompetentsiyasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari uning o'ziga xos rivojlanishi bilan bog'liq va quyidagi shartlar bilan belgilanadi:

– biologik: neyrofiziologik miya tuzilishi ichki shartlilikning tashqi shartlardan ustunligini belgilaydi;¹⁰⁵

– psixologik: ijtimoiy o'zaro ta'sir;¹⁰⁶

– intrapersonal: boshqa mutaxassisliklardan farqli o'laroq, san'at sohasi vakillari kuchli kreativ dominantga ega.¹⁰⁷

Musiq ta'limi pedagogi o'quvchilarining kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ularda mavjud bo'lgan yuqori darajadagi qiziqishlarni anglay olishi kerak. Bu jarayonda pedagog oldida turgan muhim pedagogik vazifalardan biri, o'quvchilarning iqtidorlarini aniqlagan holda o'quv jarayonini tashkil etish va o'ziga xos pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan iborat. Mazkur muammoning yrchimi o'quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirish nuqtai nazaridan nihoyatda zarurdir. Chunki ta'lim muassasalari sinflarida fanlarga har xil qiziqish bilan qaraydigan ta'lim oluvchilar ham bo'ladi. Ular o'z qiziqishlariga xos holda ko'proq ixtisoslashgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga intiladilar.

Ushbu jarayonda pedagog o'ziga xoslikning asosiy manbalarini bilgan holda ularni qismlarga bo'lishi lozim:

Birinchidan. Umumiy o'rta ta'lim maktablari dasturlarida bayon qilingan odatdagi bilimlardan ko'ra to'liqroq va chuqurroq mazmundagi bilimlarni taqdim etish, hodisalarni o'rganish, tushunchalar, qonuniyatlar va nazariyalarni o'quvchilarga o'rgatish.

Ikkinchidan. Pedagog dars jarayonini tashkil etish va ularni o'quvchilarga o'rgatishda qat'iy tarzda ketma-ketlikni ta'minlashi lozim. Bir tomondan qaraganda qo'yilgan talablar eskirgan va barcha o'quv fanlarini o'qitishda qo'yiladigan bir xil talabga o'xshaydi. Lekin, aslida bunday emas. O'quvchilar musiqa faniga qiziqar ekanlar, ular pedagogning tushuntirishlari, izohlariga alohida e'tibor va qiziqish bilan qaraydilar. Shu tariqa ular o'quv materiallarini tez ilg'ab oladilar. Masalan, ular olayotgan bilimlar musiqiy fanlarning odatdagi mazmunidan chuqur yoki sayozligini tez payqaydilar. Shu bilan bir qatorda, o'quv materialining ketma-ketlik asosida bayon etilishi o'quvchilarga o'rganilayotgan bilimlarning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Buning natijasida ular bilimlar va yangiliklarni kreativ yondashgan holda o'rganishga erishadilar. Shu tariqa, ular muammolarga kreativ va ijtimoiy kompetentlik ko'nikmalarini o'zlashtirib boradilar.

Uchinchidan. Ijodkor o'quvchilarga ta'lim berayotgan pedagog o'z fanini chuqur bilish bilan bir qatorda, uning zamonaviy yutuqlari, nazariy metodologik asoslari, nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazish yo'llari va texnologiyalarini ham bilishi talab etiladi. Buning uchun u musiqa ta'limiga oid umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim muassasasi va undan keyingi kasbiy

Gerich, M., & Schmitz, B. (2016). Using Simulated Parent-Teacher Talks to Assess and Improve Prospective Teachers' Counseling Competence. *Journal of Education and Learning*, 5(2), 285.

<https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1114625.pdf>

¹⁰⁵ De Bono, E. (1976). *Teaching thinking*. London: Temple Smith.

¹⁰⁶ Hallam, S., Cross, I., & Thaut, M. (2016). *The Oxford handbook of music psychology*. Oxford: Oxford University Press; Shadrin, N. S. (2009). *Personality Psychology: a textbook for students of psychology majors*. Pavlodar: Kereku.

¹⁰⁷ Hancock, C. B. (2016). Is the Grass Greener? Current and Former Music Teachers' Perceptions a Year After Moving to a Different School or Leaving the Classroom. *Journal of Research in Music Education*, 63(4), 421-438.

rivojlanish jarayonida o'z fanidagi ilmiy yondashuvlar, konsepsiyalar, nazariyalar, amaliy mashg'ulotlar uchun nashr qilingan yangi ishlar mazmunidan xabardor bo'lishi kerak. O'quvchilar musiqa faniga alohida qiziqish bilan qarar ekanlar, shu yo'nalishdagi adabiyotlarni ko'p o'qiydilar, ko'plab ilmiy-ommabop materiallarni ko'zdan kechiradilar, ilmiy jurnallar, internet materiallari bilan shug'ullanadilar va tushunmagan narsalarini o'qituvchidan so'rab bilib olishga harakat qiladilar. Pedagogning o'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob berishga tayyorligi ulardagi kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy omilidir.

Musiqa ta'limi darslarini o'quvchilarda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirish quyidagi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi (1-rasmga qarang):


Musiqa ta'limida kreativ va ijtimoiy kompetensiyalar			
O'quvchilarda musiqiy ong va madaniyat shakllanishi jarayonida ijtimoiy munosabatlar rivojlanadi va ijodiy dunyoqarash o'sib boradi	O'quvchilarda musiqa san'ati tarixiga qiziqish, ularda ushbu san'atga nisbatan dahldorlik tuyg'usini shakllantiradi hamda o'quvchilarning ijodkorlik bilimlarini oshiradi	O'quvchilar madaniy hayotdagi jarayonlarni o'rganish natijasida ijtimoiy hayotdagi huquq va majburiyatlarini anglab, tushunish yuzaga keladi va mustaqil qarashlar, yangi fikr-mulohazalar ko'lami kengayadi	Zamonaviy jamiyat har qanday jarayonlarda o'zini boshqara oluvchi va o'zining foydali kreativ xususiyatlarini namoyon etuvchi o'quvchi-yoshlar bilan ta'minlanadi

1-rasm. Musiqa ta'limini o'quvchilarda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirib tashkil etish imkoniyatlari.

XULOSALAR

Yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy-tahliliy o'rganishlardan ma'lumki, o'quvchilarda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlanishida musiqa ta'limi muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa ta'limida o'quvchilardagi kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari – mazkur jarayonni tashkil etish metodlari va zarur tavsiyalar bo'yicha musiqa ta'limi o'qituvchilari muntazam o'z ustida ishlashlari lozim. Buning uchun quyidagi asosiy vazifalar bajarilsa maqsadga muvofiq (2-rasmga qarang):



2-rasm. Musiqa ta'limi o'qituvchisining o'quvchilarda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga doir shaxsiy vazifalari.

Xullas, musiqa ta'limida kreativ va ijtimoiy kompetensiyalar – o'quvchilarning egallagan musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlarining shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olishga imkoniyat shakllanadi. Kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarga asoslangan musiqa ta'limi o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, ijodkorlik, axborot texnologiyalar va mediaresurslardan faoliyati davomida foydalana olish, shu soha bo'yicha sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allsup, R. E., & Shieh, E. (2012). Social Justice and Music Education. The Call for a Public Pedagogy. *Music Educators Journal*, 98(4), 47-51.
2. Arifin, H. M. (2015). The Influence of Competence, Motivation, and Organisational Culture to High School Teacher Job Satisfaction and Performance. *International Education Studies*, 8(1), 38.
3. Burnard, P., & Murphy, R. (2013). *Teaching music creatively*. London: Routledge.
4. Colwell, R., & Froehlich, H. (2015). *Sociology for music teachers*. London: Routledge.
5. Gerich, M., & Schmitz, B. (2016). Using Simulated Parent-Teacher Talks to Assess and Improve Prospective Teachers' Counseling Competence. *Journal of Education and Learning*, 5(2), 285.
6. De Bono, E. (1976). *Teaching thinking*. London: Temple Smith.
7. Hallam, S., Cross, I., & Thaut, M. (2016). *The Oxford handbook of music psychology*. Oxford: Oxford University Press; Shadrin, N. S. (2009). *Personality Psychology: a textbook for students of psychology majors*. Pavlodar: Kereku.
8. Hancock, C. B. (2016). Is the Grass Greener? Current and Former Music Teachers' Perceptions a Year After Moving to a Different School or Leaving the Classroom. *Journal of Research in Music Education*, 63(4), 421-438.
9. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1114625.pdf>



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA BOSHQARUV – STRATEGIK REJALARNI SHAKLLANTIRISH VA AMALGA OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAOLIYAT

Mo'minova Muxayyo Usmanovna

Tadqiqotchi

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biri bo'lib, pedagogik jarayon sub'ektlari (o'qituvchi va o'quvchilar)ning faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish zamirida, eng avvalo, umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv faoliyatini hamda hamkorlikdagi boshqaruvi takomillashtirishning yo'l-yo'riqlarini aniqlash, yangi sharoitlarga muvofiqlashtirish va amaliyotga joriy etish vazifalarini belgilaydi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, pedagog, o'quvchi, ta'lim, tarbiya, maktab, muassasa, boshqaruv, tizim, pedagog, jarayon, faoliyat, tahlil, amaliyot.

Аннотация: Формирование системы управления на демократических началах в соответствии с современными требованиями в общеобразовательных школах является одним из важнейших требований современности, а в основе организации и координации деятельности субъектов педагогического процесса (педагогов и учащихся) прежде всего лежат задачи руководителей общеобразовательных школ по определению ориентиров совершенствования кооперативного управления, согласованию с новыми условиями и внедрению.

Ключевые слова: учитель, педагог, ученик, образование, обучение, школа, учреждение, управление, система, педагог, процесс, деятельность, анализ, практика.

Abstract: The formation of a management system on a democratic basis in accordance with modern requirements in general education schools is one of the most important requirements of our time, and the organization and coordination of the activities of the subjects of the pedagogical process (teachers and students) are primarily based on the tasks of the leaders of general education schools to determine the guidelines for improving cooperative management, harmonization with new conditions and implementation.

Key words: teacher, educator, student, education, training, school, institution, management, system, teacher, process, activity, analysis, practice.

Tadqiqotlarda keltirilishicha, ta'lim muassasasi rahbarlarining aksariyati ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va boshqarishda rahbarning asosiy vazifalari ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va nazorat qilish, o'qituvchi va o'quvchilarga zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishdan iborat deb hisoblaydilar.

Ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan "boshqaruv" tushunchasi turlicha ta'riflanadi, fikrimizning isboti sifatida quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin.

Boshqaruv nazariyasi asoschilaridan biri fransuz olimi A.Fayol boshqarishni: kelajakni ko'ruvchi; faoliyatni tashkillashtiruvchi; tashkilotni idora qiluvchi; faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi; qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi kuchli qurol deb ataydi [1, 23-b].



M. Mirqosimovning ta'kidlashicha, boshqaruv taraqqiyotning har qanday bosqichida jamiyatga xos bo'lgan ichki xususiyat bo'lib, bu xususiyat umumiy xususiyatga ega bo'lgani holda kishilarning ijtimoiy jamoatchilik mehnatidan, turmush va mehnat jarayonida o'zaro aloqada bo'lish, o'z moddiy va ma'naviy faoliyatining mahsulotini almashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Muallif "bugungi kundagi boshqaruv birinchi galda kishilarning iqtisodiy va moddiy holatini, ijtimoiy faoliyatini, ularni qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi, jamoada uyushqoqlik, tartib, mehnat taqsimoti bo'lmasa, kishining jamoadagi o'rni va vazifalari tayin bo'lmasa, mehnat jamoasi bo'lishi mumkin emas. Tabiiyki, boshqaruvsiz, muayyan tartibni o'rnatmasdan va qo'llab-quvvatlamasdan turib, mehnat faoliyatini amalga oshirib bo'lmaydi", - deb hisoblaydi [2, 16- b.].

A.M.Moiseev, A.E.Kapto, A.V.Lorensovlar [3, 45-b.] "ta'limni boshqarish – bu turli xil topshiriqlarni hamkorlikda bajarish maqsadida insonlarni bir guruhga birlashtirish yo'nalishidagi sub'ektning faoliyati, maktabni ijtimoiy jamoa sifatida tadqiq etuvchi, ya'ni uni ta'lim tizimining munitsipal, regional va federal tashkilotlari sifatida o'rganuvchi mustaqil soha", - deb ta'kidlaydilar.

S.T.Turg'unovning fikricha, maktabni boshqarish mazmun-mohiyatiga ko'ra ta'limni boshqarishdan farq qiladi, chunki maktabda faqat ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni boshqarish vazifalari amalga oshirilmaydi, balki ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishning o'ziyoq bir qancha vazifalarning bajarilishini, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga zaruriy sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, shuningdek, mazkur jarayonni amalga oshirish uchun moddiy-texnika bazasini yaratish va mustahkamlab borish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan qurollantirish, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash kabi qator boshqa vazifalarni ham amalga oshirishni nazarda tutadi. Mazkur vazifalar maktab rahbarlarining umumiy maqsadga yo'naltirilgan funksional vazifalarini ifodalaydi [4, 26-b.].

Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, boshqaruv – bu maqsadga erishish uchun ob'ektga ta'sir etish bo'lib, ob'ekt faoliyatini muvofiqlashtirish, ya'ni maqsadga erishish yo'nalishida tizimning tashkil etuvchilariga ta'sir etishni vertikal muvofiqlashtirishdir [5, 133-b.].

S.N.Tidor esa boshqaruvni quyidagicha tavsiflaydi: "Maqsad yo'nalishida ob'ektni muvofiqlashtirish; maqsadga erishish uchun ob'ektga ta'sir etish; maqsadga erishish yo'nalishida tizimning tashkil etuvchilariga ta'sir etishni vertikal muvofiqlashtirish" [5, 133-b.].

U.I.Inoyatov [6, 102-b.] boshqaruv faoliyatining o'ziga xos jihatlarini quyidagi yondashuvlar orqali ifodalaydi.

Birinchi yondashuv – mavjud boshqaruv amaliyotiga xos bo'lgan funksional yondashuv. Bu yondashuvning asosiy yo'nalishi boshqaruvning asosiy funksiyalarini bajarishdan iborat.

Ikkinchisi strukturaviy yondashuv, bunda boshqaruv mexanizmi munosabatlar strukturasi orqali amalga oshiriladi, ya'ni boshqaruv harakatlari boshqarishni tashkil etish, uning alohida funksiyalarini va bajarish tartibini o'rganish, shuningdek, boshqaruv tizimi strukturasi tahliliga asoslanadi. Bunday yondashuvda direktor va uning o'rinbosarlari o'quvchi va o'qituvchilarning faoliyatidagi "gorizontal" va "vertikal" aloqalarni sozlovchisi (tartibga soluvchi) vazifasini bajaradi va ular ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini va barcha jarayonlarni nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.



Umuman olganda, ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan "boshqaruv – bu aniq bir maqsadga erishish uchun boshqaruv tizimiga yoki ob'ektga faol ta'sir ko'rsatish", shuningdek, "boshqaruv – bir tizimning ikkinchisiga, shaxsning ikkinchi bir shaxsiga yoki ma'lum bir shaxsning insonlar guruhiga ta'sir etishidir", deb ta'riflanadi. [7, 139-b].

Demak, mazkur fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining funksional vazifalarini amalga oshirish jarayoni pedagogik jarayon sub'ektlari (o'qituvchi va o'quvchilar) va boshqa xodimlarning barcha faoliyatlariga tegishli bo'lgan jarayon bo'lib, ko'zlangan natijalarga erishishda ma'lum bir strategik rejalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, mazkur jarayon ishtirokchilariga ta'sir ko'rsatish orqali ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi va bu o'z navbatida maqsadga yo'naltirilgan ta'sirni ifodalaydi.

Shunday ekan, ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari bo'lgan o'qituvchilar va o'quvchilarning munosabatlari va faoliyatlarini nazorat qilish, axborotlar to'plash, tahlil qilish va ob'ektiv baholash asosida muvofiqlashtirish umumiy o'rta ta'lim maktablari oldiga qo'yilgan umumiy maqsadlarga erishish, ya'ni raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlashga yo'naltirilgan boshqaruvni ifodalaydi.

Qator pedagogik tadqiqotlarda boshqaruvning asosiy funksiyalarini amalga oshirish mexanizmi sifatida maqsadga erishish usullarini o'z ichiga olgan metodlar ajratib ko'rsatilgan: pedagogik xodimlarni iqtisodiy rag'batlantirish (mehnatning hajmi va sifatini inobatga olib, toifa va unvonlar uchun haq to'lash va h.k.); tashkiliy yoki ma'muriy boshqaruv (ijrochilar faoliyatini reglamentini belgilash, qaror, farmoyish, buyruq va h.k.); psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatish (maslahat, iltimos, tilak, minnatdorchilik va h.k.); jamoaviy ta'sir etish – ta'lim muassasasini boshqarishga pedagoglar va o'quvchilarni jalb qilish [8, 154-b].

P.K.Anoxin ko'zlangan maqsadga erishish uchun yo'naltirilgan o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatlarning majmuini boshqaruv tizimi, deb ta'kidlaydi [9, 23-b.].

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimi – insonlarga va yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish, ta'lim jarayonini tashkil etish maqsadlariga xizmat qiluvchi turli strukturaviy va funksional bog'liq bo'lgan komponentlar majmuidan iboratdir. Boshqaruv tizimi umumiy maqsadlar yo'nalishida funksional vazifalarni amalga oshirishda tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi, alohida xususiyatlarga ega bo'lgan o'zaro bog'liq qismlarning yaxlit holda vujudga kelishidir [10, 112-b.].

R.SH.Aholidinovning ta'kidlashicha, maktabni boshqarish tizimi – bu tabiatiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan komponentlar majmuidan iborat bo'lib, ularning o'ziga xos bog'liqligi va aloqadorligi hisobiga boshqaruv funksiyalarini bajarish jarayoni amalga oshiriladi va maktab jamoasining faoliyati tashkil etiladi hamda muvofiqlashtiriladi. Mazkur tizimning funksiyalari ikki asosiy katta guruhlariga bo'linadi: maktab faoliyatining barqarorligini ta'minlash va uning rivojlanishini boshqarish [11, 14-b.].

S.T.Turg'unov "Boshqaruv faoliyati – bu boshqaruv jarayonida qabul qilinayotgan qarorlarning yo'nalishini ifodalovchi va ko'zlangan natijalarga erishishni ta'minlovchi o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini o'zaro to'ldiruvchi komponentlardan iborat bo'lgan tizimdir", deb ta'riflaydi.

Muallifning fikricha, boshqaruvning maqsadi va vazifalari ta'lim tizimini muntazam rivojlantirib borish va raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash hisoblanadi. Bunda maktab

rahbarlarining asosiy funksiyasi ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda maktabning hayotiy faoliyatini ta'minlash bo'yicha boshqaruv yo'nalishidagi masalalarning ijobiy echimini topish, hal etish hisoblanadi.

Shunday ekan, boshqaruvni, ya'ni boshqaruv faoliyatini tashkil etish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon bu ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsad bo'lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, bajariladigan vazifalarni taqsimlash, belgilangan maqsadga erishish uchun tashkil etiladigan jarayon ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi.

Mazkur faoliyat boshqaruv faoliyatini, uni amalga oshirish boshqaruv funksiyalarini, amalga oshirish izchilligi boshqaruv algoritmini, amalga oshirish yo'l-yo'riqlari boshqaruv metodlarini, xodimlarning faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish boshqaruv uslublarini, mazkur yo'nalishda qabul qilingan qarorlar boshqaruv qarorlarini ifodalaydi [1, 23-b.].

S.T.Turg'unov ta'kidlashicha, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmunini takomillashtirish yo'nalishidagi ixtiyoriy innovatsion faoliyat boshqaruv funksiyalarining ma'lum bir izchillikda amalga oshirilishini talab etadi va boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishni rejalashtirishda, eng avvalo, boshqaruvning maqsadi, funksiyalarining mazmun-mohiyati va vazifalari inobatga olinadi.

Umumiy maqsadlarga erishishda boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish tizimini tashkil etuvchi vazifalarning bajarilish ketma-ketligi belgilanadi hamda mazkur vazifalarni bajarishda qo'llaniladigan boshqaruv metodlari tanlab olinib, boshqaruv faoliyati boshqaruvni tashkil etish tamoyillari va qonuniyatlariga asosan amalga oshiriladi.

Ob'ektiv boshqaruv faoliyati faqatgina maqsadga yo'naltirilgan harakatlarning to'liq to'plami yoki harakatlar zanjiri shaklida mavjud bo'ladi. Mavjud bo'lgan mazkur zanjir boshqaruv algoritmini ifodalaydi [4, 128-b.].

Demak, boshqaruv tizimida tizimni tashkil etuvchi komponentlardan biri maqsad bo'lib, unga erishish uchun uslub va vositalar zarur hisoblanadi. Maqsadga erishishda tizimning va uning komponentlarining harakati tizim funksiyasining mohiyatini belgilaydi deb aytish mumkin. Umumiy maqsadga erishishda amalga oshiriladigan vazifalar, vaziyatlarga ko'ra vujudga keladigan muammolarni hal etish turli rahbarlik uslublari yordamida amalga oshiriladi, natijalar rahbarlik uslublaridan oqilona foydalanish samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

M.Sharifxo'jaev va Yo.Abdullaevlarning ta'rifiga ko'ra, "boshqaruv uslubi – bu boshqaruv jarayonida yuzaga chiqadigan muammolarni hal qilish usullari, yo'llari majmuidir", "boshqaruv usullari – bu xodimlarga va umuman ishlab chiqarish jamoalariga ta'sir ko'rsatish usullari bo'lib, bu usullar qo'yilgan maqsadlarga erishish jarayonida mazkur xodimlar va jamoalarning faoliyatini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi" [12, 203-b.].

Boshqaruv kontekstida rahbarlik uslubi – bu rahbarning xodimlarga nisbatan ta'sir ko'rsatishi va ko'zlangan maqsadga erishishga undashida xodimlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlardagi odatiy harakatlaridir. [4, 48-b.].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida umumiy manfaatlarni ifodalovchi maqsad bo'lib, shu maqsadga erishishda barcha sub'ektlarda tabiatan faollik va layoqat mavjud bo'ladi, lekin ularning faoliyati samarali boshqarilmasa, o'z vaqtida muvofiqlashtirib borilmasa, jamoada turli xil norasmiy guruhlar va muassasaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammolar ham vujudga kelishi mumkin. Shuning uchun rahbarlar o'z xodimlarining faoliyatini doimiy nazorat qilishi, adolatli baholashi hamda muassasa faoliyatini hamkorlikda tashkil eta olishi, mavjud

muammo va ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik xodimlarning samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun etarli shart-sharoitlarni yaratib berishi zarur.

Shunday ekan, boshqaruv jarayonida ishtirokchilarni ko'zlangan maqsadga erishishga undash hamda maqsadlarga erishish jarayonida ularning faoliyatini uyg'unlashtirish yo'nalishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan demokratik rahbarlik uslubining quyidagi bir necha usul va shakllarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- maqsad yo'nalishidagi topshiriqlar orqali boshqaruv – bu usuldagi boshqaruv birinchi o'rinda barcha bo'g'inlar bo'yicha pog'onaviylik asosida maqsadga erishish yo'nalishida vazifalar belgilaydi, ma'lum bir belgilangan tartib va rejaga hamda tekshiruvlar tahliliga, erishilgan yutuqlarga asoslangan holda maqsadga erishish metodlari va yo'llarini belgilashda qulayliklar yaratadi;

- xodimlarning aloqadorligi orqali boshqaruv – maqsadni shakllantirish, shuningdek, uni amalga oshirish va ta'minlash jarayonida xodimlarni ishtirokini ta'minlash;

- kelishilgan maqsad orqali boshqaruv – bu boshqaruv maqsad yo'nalishidagi topshiriqlar va xodimlarning aloqadorligi orqali boshqaruvlarning o'zaro birikkan shakli bo'lib, erishish zarur bo'lgan maqsadlarni belgilashda xodimlar ishtirok etishadi va joriy maqsadlarga erishish yo'nalishlari kelishiladi [4, 53-b.].

Adabiyotlarda boshqaruv faoliyati – bu maqsadga erishish hamda qo'yilgan vazifalarni bajarishda insoniy, iqtisodiy va samarali yo'llar bilan insonlarni boshqarish va turli vositalar orqali ta'sir ko'rsatish asosida ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, deb keltiriladi [13, 266].

Bizning fikrimizcha, umumiy o'rta ta'lim maktablari oldida turgan maqsadlarga erishish ta'lim muassasasida rahbarlar, pedagog xodimlar va boshqa xodimlarning hamkorlikdagi samarali faoliyatini nazarda tutadi. umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini takomillashtirish o'quv jarayonining samaradorligiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatuvchi va ta'lim samaradorligini ta'minlashning eng asosiy shartlaridan biri hisoblangan hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari, pedagog xodimlar va o'quvchilarning umumiy maqsadga erishish yo'nalishidagi faoliyati samaradorligi hamkorlikdagi boshqaruvning zaruriyatini belgilaydi va bu umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi, deyishimiz mumkin.

Hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etishda hamkorlikda qarorlar qabul qilish, qarorlar qabul qilish jarayoniga barcha xodimlarning ishtirokini ta'minlash; turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning xatti-harakatlarini, munosabatlarini muvofiqlashtirish, ularning imkoniyatlari va qobiliyatlaridan to'g'ri foydalanishni tashkil etish, motivlashtirish va nazorat qilish hamda belgilangan maqsadga erishish yo'nalishida vazifalar belgilashda xodimlarning takliflari va fikrlarini inobatga olish kabi qator omillarga alohida etibor qaratilishi zarur.

Hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etishdan asosiy maqsad belgilangan maqsadlarga erishishda sub'ektlarning umumiy faoliyatini takomillashtirish yo'nalishidagi masalalarni hal etish, muammolarning ijobiy echimini topish, innovatsion jarayonlarni tashkil etish va rivojlantirish, turli xil masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish jarayonlarida jamoa a'zolarining barchasini ishtirokini ta'minlash hamda belgilangan maqsadlarga erishishda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish hisoblanadi. Bunda hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatining maqsadi ob'ektiv



bo'lib, o'z o'rnida barcha ishtirokchilar tomonidan belgilanadi va uning natijalariga barchada qiziqish shakllanadi.

S.T.Turg'unovning fikricha, hamkorlikdagi boshqaruv o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular maqsadga erishishda harakatlar izchilligi bilan belgilanadi ya'ni bu jihatlar o'z-o'zidan maqsadga ko'ra aniqlanmaydi, balki maqsadga erishishdagi o'zaro hamkorlik, o'zaro tushunish, o'zaro ta'sir jarayonining samarasi, jamoadagi qulay ruhiy muhit, jamoa a'zolari uchun yaratilgan shart-sharoitlar orqali belgilanadi, chunki ta'lim muassasasining asosiy maqsadi umumiy bo'lib, u o'zgarmasa-da, mazkur maqsad belgilangan vaqtdagi shart-sharoitlar hamda jamoa a'zolarining tarkibi o'zgarishi natijasida hamkorlikdagi faoliyatning samaradorligi o'zgarishi mumkin.

Hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini tashkil etish uchun o'zaro ta'sir yoki shaxsning boshqa shaxslarga nisbatan ta'siri zarur bo'lib, bu o'z mohiyatiga ko'ra boshqaruvni, ya'ni ma'lum bir maqsadga erishish yo'nalishida sub'ektlarning umumiy faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishni ifodalaydi.

Maqsadga erishish yo'nalishidagi umumiy faoliyatni tashkil etishda maqsadga erishish yo'nalishida barcha boshqaruv sub'ektlarida qiziqishlar uyg'otishga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etishni nazarda tutuvchi maqsadli-motivlashtirish funksiyasini amalga oshirish ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, uning natijaviyligini ta'minlash, ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Maqsadli-motivlashtirish funksiyasini amalga oshirishda motivlashtirish belgilangan maqsadga erishish bo'yicha barcha boshqaruv sub'ektlarida qiziqishlar uyg'otishga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etishni nazarda tutadi. Motivlashtirish xatti-harakatlar va tadbirlarni etarli darajada tashkil etish uchun zarur [14,266-b]. Bunda motivlarning xususiyatlarini hisobga olish zarur bo'lib, qanday motivlar boshqaruv faoliyatini yo'naltiradi va qaysilari samarali harakatlar rejasini tuzishga imkoniyat yaratishini bilish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv tizimida maqsadga samarali erishishning asosiy shartlaridan biri maqsadni belgilash talablariga rioya qilish: maqsadlar oldindan belgilangan va aniq shakllantirilgan bo'lishi; bajaruvchilar tomonidan qabul qilingan va ularga tushunarli bo'lishi; maqsadlar tahlil qilingan va bajarilish muddati belgilangan, shuningdek, bajaruvchilarning harakati motivlashtirilgan bo'lishi; vertikal va gorizontal bo'yicha kelishilgan turli xil topshiriqlar yo'nalishida taqsimlanishida maqsadlarning birligi saqlanishi zarur hisoblanadi [1, 38-b].

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshqaruv va hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini tashkil etishda boshqaruv faoliyati maqsadining ahamiyati umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatining maqsadidan kelib chiqib belgilanishi hamda u oldindan belgilangan va aniq shakllantirilgan bo'lishi, maqsadga erishish yo'nalishida belgilanadigan vazifalar jamoa a'zolarining barchasini ishtirokida belgilanishi va barcha sub'ektlar uchun tushunarli bo'lishi, belgilangan maqsadga erishish yo'nalishida belgilangan vazifalar tahlil qilingan va bajarilish muddati belgilangan bo'lishi zarur.

Bu o'z navbatida umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshqaruv va hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini tashkil etishda maqsadlarni belgilash va aniqlashtirishda o'ziga xos talablarning mavjudligini inobatga olish, ularning ahamiyatini o'rganish hamda Strategik maqsadning o'ziga xos jihatlarini o'rganish zaruriyatini belgilaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Voris, 2006. – 23-b
2. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995 – 16-b
3. Моисеев А.М., Капто А.Е., Лоренсов А.В. Нововведения во внутришкольном управлении. 2-е изд. – М.: Педобщество России, 1998. – 232 с
4. Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Ped.f.d. ...diss. – Toshkent, 2007. 26-b.
5. Тидор С.Н. Психология управления: от личности к команде. – Петрозаводск: Фолиум, 1996. – С. 133.
6. Inoyatov U.I. Teoreticheskie i organizatsionno-metodicheskie osnovy upravleniya i kontrolya kachestva obrazovaniya v professionalnom kolledje: Diss. ... dokt.ped.nauk. – Toshkent, 2004 102-b
7. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1996. – С. 512.
8. Анисимов О.С, Деркач А.Д. Основы общей и управленческой акмеологии. – М.: РАН, 1995. С. 154.
9. Анохин П.К. Узловые вопросы теории функциональной системы. – М.: Наука, 1990. – С. 23.
10. Лебедев О.Е. Реализация целей общего среднего образования. Проблемы структуры. – М.: Педагогика, 1984. С. 23.
11. Кузьмина Н.В. Методы системного педагогического исследования: Учебное пособие. – Л.: ЛГУ, 1986. – С. 112.
12. Ахлидинов Р.Ш. Социально-педагогические основы управления качеством общего среднего образования (на матер. национ. Программы по подготов. кадров): Автореф. дисс. ... д. пед. наук. – Тошкент, 2002. С.14.
13. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment: Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. 203-b
14. Вазина К.Я., Петров Ю.Л., Белиловский В.Ф. Педагогический менеджмент: концепция, опыт работы. – М.: Педагогика, 1991. – 266 с.



ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ ТВОРЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Преподаватель Чирчикского государственного
педагогического университета
Атажанова Раббина Рахимовна
Email: rabbina.atajanova@gmail.com

Аннотация: Понятие творчества предполагает личное начало, и соответствующее ему слово употребляется по преимуществу в применении к деятельности человека. В этом общепринятом смысле творчество - условный термин для обозначения психического акта, выражающегося в воплощении, воспроизведении или комбинации данных нашего сознания в новой форме, в области отвлеченной мысли, творческой деятельности.

Ключевые слова: креативность, изобразительное искусства, ученик, фантазия, образования, эффективность, учитель, рисовать, индивидуально, самостоятельно.

FUNDAMENTALS OF TEACHING CREATIVE THINKING IN THE LESSONS OF FINE ARTS FOR ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS.

Atazhanova Rabbina Rakhimovna,
Teacher, Chirchik State Pedagogical university
Email: rabbina.atajanova@gmail.com

Abstract: The concept of creativity presupposes a personal principle, and the word corresponding to it is used primarily in application to human activity. In this generally accepted sense, creativity is a conditional term for a mental act expressed in the embodiment, reproduction or combination of the data of our consciousness in a new form, in the field of abstract thought, creative activity.

Keywords. creativity, visual arts, learner, fantasy, education, efficiency, teacher, draw, individually, independently.

Видение

Проблема творческих способностей – одна из самых дискуссионных и актуальных в современной педагогике и психологии. Значительные трудности в определении понятия «творческие способности» связаны с общепринятым бытовым пониманием этого термина. Отсюда и неоднозначность трактовки термина «творческие способности», несмотря на его широкое применение в психологии, педагогике, философии и наличие в литературе многих его определений.

Рассмотрение творческих способностей младших школьников мы начнем с выяснения сущности понятия «способности» и «творчество». В истории отечественной психологии проблема способностей рассматривалась неоднократно (исследования Б.Г. Ананьева, В.Н. Дружинина, В.А. Крутецкого, Б.М. Теплова и других). При этом можно выделить два

основных подхода к данной проблеме. Психология творчества как наука начала складываться на рубеже XIX XX столетий. «Творчество – в прямом смысле - есть созидание нового» [1].

Понятие творчества предполагает личное начало, и соответствующее ему слово употребляется по преимуществу в применении к деятельности человека. В этом общепринятом смысле творчество - условный термин для обозначения психического акта, выражающегося в воплощении, воспроизведении или комбинации данных нашего сознания в новой форме, в области отвлеченной мысли, творческой деятельности. В исследованиях, посвященных проблемам развития детского творчества, отмечается, что в дошкольном возрасте у ребенка появляется ряд черт, характеризующих его как творца. Это проявление активности и инициативы в применении уже освоенных приемов работы по отношению к новому содержанию, нахождение оригинальных способов решения поставленных задач, использование разных видов преобразований и т.п. По мнению Л.С.Выготского, основной принцип «детского творчества заключается в том, что ценность его следует видеть не в результате, не в продукте творчества, а в самом процессе такой деятельности» [2, с.98].

Если говорить о творческой деятельности детей младшего школьного возраста, педагоги и психологи подчеркивают ее специфичность. Так, многие из компонентов творчества в этом возрасте только начинают развиваться, хотя субъективно ребенок постоянно открывает что-то новое. А.В.Петровский отмечал, «что в детском возрасте творчество следует понимать как механизм развития разнообразных деятельностей ребенка, накопления опыта, личностного роста» [3, с.51].

В отечественной психологии наиболее целостную концепцию творчества как психического процесса предложил Я.А. Пономарев [4]. Он разработал структурно-уровневую модель центрального звена психологического механизма творчества. Изучая умственное развитие детей и решение задач взрослыми, Я.А. Пономарев пришел к выводу, что творчество имеет в своей сути определенную схему, которая раскладывается на три составляющие: постановка проблемы, в данном случае работает мышление человека, активизируется сознание; далее вступает в работу бессознательное, по сути творческий талант, и на последующем этапе вновь активизируется сознание.

Творчество спонтанно, не планируемо. Оно нецелесообразно, непроизвольно, иррационально и не поддается (в момент творческого акта) регуляции со стороны сознания. В основе творчества лежит глобальная иррациональная мотивация отчуждения человека от мира, направляется тенденцией к преодолению, функционирует по типу «положительной обратной связи»: творческий продукт только подстегивает процесс, превращая его в погоню за горизонтом.

В различных видах изобразительной деятельности (аппликации, рисовании, лепке, конструировании из бумаги или различных материалов) развитие способности к



творчеству идет от подражания педагогу к попытке самостоятельного переноса приобретенного опыта к творческой инициативе. Приобретенный навык позволит ребенку в каждом новом художественном продукте, использовать различные изобразительные и выразительные возможности художественных материалов для получения нового и необычного в рисунке, аппликативной работе и т.д.

Результаты

Итак, творчество – это деятельность, результатом которой являются новые материальные и духовные ценности; высшая форма психической активности, самостоятельности, способность создавать что-то новое, оригинальное. В результате творческой деятельности формируются и развиваются творческие способности. До середины XX века психология связывала творческие способности с умственным развитием. Потребность определять интеллектуальные способности привела к созданию тестов на умственную одаренность. Однако исследования многих психологов показали отсутствие прямой зависимости творческих способностей от интеллекта и суммы знаний, т.е. корреляции между коэффициентом интеллекта и способностью создавать новое – креативностью - не было. Выделяют три основных подхода к проблеме творческих и интеллектуальных способностей:

1. Как таковых творческих способностей нет. Главную роль в детерминации творческого поведения играют мотивации, ценности, личностные черты. Интеллектуальные способности выступают как необходимые, но недостаточные условия творческой активности личности.

2. Высокий уровень развития интеллекта предполагает высокий уровень развития творческих способностей и наоборот. Творческого процесса как специфической формы психической активности нет.

3. Творческая способность креативность - является независимым от интеллекта фактором. Изучение феномена креативности осложняется тем, что в оценке творческих характеристик исследователь имеет дело, прежде всего, с качеством явления. Исследование креативности на собственно научном материале было осуществлено в 1959 году группой ученых во главе с Дж. Гилфордом [5]

Таким образом, разработанный нами комплекс уроков, поможет развить творческие способности младших школьников на уроках изобразительного искусства.

Список литературы

1. Энциклопедический Словарь [Электронный ресурс] / Ф.А. Брокгауза и И.А. Ефрона. – Режим доступа: <http://www.vehi.net/brokgauz/> (дата обращения: 3.06.2017).

2. Выготский, Л.С. Психология искусства [Текст] / В.В. Иванова, Л.С. Выготского, В.В. Иванова – М.: Искусство, 1986. – 326 с.

3. Петровский, А.В. Общая психология 2-е изд., и доп. [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://www.alleng.ru/d/psy/psy132.htm>. (дата обращения 28.04.2017)



4. Гилфорд, Дж. Концепция креативности как универсальной познавательной творческой способности [Электронный ресурс] /Режим доступа: <http://www.psychologiainfo.ru/logics-565-1.html> (дата обращения: 10.10. 2017)

5. Халилов Р. Ш., Атажанова Р. Р. (2018). Использование рабочей тетради в обучении изобразительной деятельности в начальном классе. Молодой ученый. № 7 (193).196-199.

6. Rakhimovna, A. R. Art workbook as a means of improving the efficiency of independent work of pupils in younger classes. (2020). European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (5), 54-56.

7. Раббина Рахимовна Атажанова. (2020). Рабочая тетрадь по изобразительному искусству как средство повышения креативного мышления самостоятельной работы учеников в младших классах. Academic research in educational sciences, №2. 201-204.

8. Раббина Рахимовна Атажанова, Наргиза Рустамовна Атаева. (2020). Роль изобразительной деятельности во всестороннем развитии дошкольников. Academic research in educational sciences, №4, 450-454.

9. Раббина Рахимовна Атажанова. (2021). Теоретические основы развития творческих способностей младших школьников Science and Education, №4. 381-386.

10. Раббина Атаджанова. (2021). Педагогический кластер в развитии творческих способностей в начальных классах. Academic research in educational sciences, №2. 1677-1681.

11. Раббина Рахимовна Атаджанова, Мухоббат Арифовна Абдуллаева. (2021). Теоретико-методологические основы развития художественно-творческих способностей младших школьников при помощи педагогического кластера. Вестник науки и образования, №10-3 (113). 66-70.

12. Rabbina Atajanova, Feruza Jalalova. (2022). Umumta'lim maktablarida oquvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakillantirishda tasviriy san'at va badiiy mehnatning integratsiyasi. Academic research in educational sciences, №4. 210-215.

13. Rabbina Atajanova, Sabohat Madaminova. (2022). O'zbekistonning tarixiy yodgorliklari, insoniyat madaniy merosidagi o'rni. Academic research in educational sciences, №4. 234-239.



OLIV TA'LIMDA TALABALARNI ILMIY TADQIQODCHILIK KO'NIKMALARINI MASALALARNI SONLI USULDA ISHLASH ORQALI RIVOJLANTIRISH

Ismanova Odinoxon To'lqinboevna
Namangan davlat universiteti dotsenti
ismanova.79@inbox.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ushbu maqolada zaryadlar sistemasi elektr maydon kuchlanganligini va potentsialini Puasson tenglamasi yordamida aniqlab so'ngra vaqt va koordinata bo'yicha o'zgarish grafigi sonli modellashtirish yordamida olingan.

Kalit so'zlar: modellashtirish, plazma, elektron, elektroneytral, gaz, ion, fizik model, tebranish, tenglama, amplituda, elektr maydon kuchlanganlik, potentsial taqsimot.

РАЗВИТИЕ У СТУДЕНТОВ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ С ПОМОЩЬЮ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ МЕТОДОМ ЧИСЛЕННОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ

Исманова Одинахон Тулкинбаевна
Наманганский государственный университет доцент
ismanova.79@inbox.ru

Аннотация: В этой статье напряженность электрического поля и потенциал системы зарядов была получена с помощью уравнения Пуассона, затем график изменения по времени и координации определен с помощью численного моделирования.

Ключевые слова: моделирование, плазма, электрон, электрически нейтральная, газ, ион, физическая модель, колебания, уравнение, амплитуда, напряженность электрического поля, распределение потенциалов.

DEVELOPING STUDENTS' RESEARCH SKILLS IN HIGHER EDUCATION THROUGH PROBLEM SOLVING NUMERICAL SIMULATION

Ismanova Odinoxon To'lqinboevna
Namangan davlat universiteti dotsenti
ismanova.79@inbox.ru

Annotation: In this paper, the electric field strength and potential of the charge system were obtained using Poisson's equation, then the variation graph with time and coordination was determined through numerical simulation.

Key words: modeling, plasma, electron, electrically neutral, gas, ion, physical model, oscillations, equation, amplitude, electric field strength, potential distribution.

Kirish

Bugun globallashuv davrida fan va texnologiyalarni shiddat bilan rivojlanishi oliy ta'lim tayyorlayotgan mutaxassislar oldiga juda katta talablar qo'yimoqda. Ayniqsa fizika yo'nalishida tahsil olayotgan mutaxassislarga qo'yilgan talab qolgan yo'nalishlarga nisbatan bir pag'ona yuqori, chunki ushbu yo'nalish mutaxassislari fan-texnika va ishlab chiqarishda asosiy yangilik yaratuvchilaridan biri hisoblanishadi. Yuqoridagilarni hisobga olib Respublikamiz Prezidenti

tomonidan fizika sohasini rivojlantirish bo'yicha qator qaror va farmonlar qabul qilindi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi videoselektor yig'ilishining 86-sonli bayoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya, ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 4884-sonli qarorlarini keltirish mumkin. Ushbu ishlarni mantiqiy davomi sifatida Prezidentimizning Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomasida 2021 yilda fizika va xorijiy tillarni rivojlantirish, fundamental asoslarini ishlab chiqishni ziyolilar oldiga vazifa qilib qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032 sonli qarori [1] **hamda 2021 yil 27 martdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vaziriniig 150-sonli buyrug'i** [2] qabul qilindi.

Ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish uchun IT-texnologiyalaridan foydalanish juda katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Ya'ni bu holda yaratilishi kerak bo'ladigan qurilma yoki materialni optimal fizik modelini yaratish vaqtini qisqartiradi va kutilayotgan natija olishni tezlashtiradi. Bundan tashqari, optimal fizik model yaratish albatta nazariy bilimlarga tayangan holda kechishi mumkin bo'lgan fizik jarayonni animatsiyasini yoki turli fizik parametrlarni o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi grafigini sonli modellashtirish yordamida yaratilishi lozim. [3]

Ushbu talablar fizika bakalavriat yo'nalishida o'qiyotgan talabalarni fizik masalalarni sonli usullarda yechishga e'tiborni tobora ortishiga olib kelmoqda. SHu maqsadda fizika yo'nalishida tahsil oladigan talabalarni o'quv rejasiga o'quv rejaga "Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish" [4] fani kiritilgan. Oliy o'quv yurtlariga akademik va moliyaviy mustaqillik berilishi bilan oliy o'quv yurtlari o'quv reja va dasturni zamon talablaridan kelib chiqib o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ldi. SHuni hisobga olgan holda sonli modellashtirish yordamida fizik masalalarni ishlash uchun soatlar miqdorini orttirish lozim deb xisoblaymiz. Bu esa amaliy mashg'ulotlarda foydalanish uchun taklif qilinadigan masalalar soniga va sifatiga e'tibor qaratishni talab qiladi.

Bundan tashqari fizik masalalarni sonli usulda yechish biror bir fizik parametрни son qiymatini katta oraliqda bir necha parametrlarga bog'liqligini bir vaqtda o'rganish imkonini beradi. Quyida huddi shunday masalalardan ayrimlarini ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Tadqiqot metodologiyasi

So'nggi yillarda sonli modellashtirish yordamida yarimo'tkazgichli strukturalarda elektr maydon kuchlanganligi va potentsialini taqsimotini o'rganish maqsadida Puasson tenglamasidan ham keng foydalanilmoqda. Ammo bakalavriatni II kurs "Elektr va magnetizm" [5] va III-kurs "Elektrodinamika" [6] bo'limidan amaliy mashg'ulotlarda yuqoridagi mavzuga oid analitik ishlanadigan masalalar deyarli kam. Bundan tashqari olingan analitik ifodaga aniqlangan parametрни qolgan parametrlarga bog'liqlik grafigi yaratish ancha murakkab. SHuni hisobga olib ushbu maqolada zaryadlar sistemasi elektr maydon kuchlanganligini va potentsialini Puasson tenglamasi yordamida aniqlab so'ngra vaqt va koordinata bo'yicha o'zgarish grafigi sonli modellashtirish yordamida olingan.

Buning uchun quyidagi masalani ko'ramiz.

Masala: Past haroratli plazmadagi elektr maydon yuzaga kelish shartlarini aniqlang va φ va ρ ni taqsimotini o'rgating

Umumiy fizika kursida yoki nazariy fizika kursida amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladigan masalalarda fizik jarayonni xarakterlaydigan berilgan fizik parametrlar asosida noma'lum parametrlarni miqdor qiymati yoki analitik ifodasi topiladi, ammo deyarli tahlil qilinmaydi. Bunday masalalardan foydalanish talabalarda ijodiylikni rivojlantirmaydi. Masalani yuqoridagi kabi berilishida esa talabalar jarayonni xarakterlaydigan fizik kattaliklarni o'zlari tasavvur qilib realikka yaqin fizik model yaratishlari kerak.

Masalaga bunday yondashuvdan maqsad ularda ijodiylikni va ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini yanada rivojlantirishdan iborat.

Ushbu masalani ishlashda avval quyidagi savollarga javob izlaymiz.

1. Past haroratli plazma nima va unda elektr maydon mavjudmi?
2. Mavjud bo'lmasa qanday hosil qilish mumkin, jarayonni atroflicha tushuntiring.

Javoblar:

1. Ma'lumki past haroratli plazma sifatida tashqi ta'sir natijasida ionlashgan geliy gazini misol keltirish mumkin. Agar sistema yopiq bo'lsa ionlashgan gazni neytral sistema sifatida qarash mumkin, chunki yopiq sistemada elektroneytrallik bajariladi, ya'ni

$$Q_+ + Q_- = 0$$

Elektroneytral sistemalar atrofida va ichida elektr maydon hosil bo'lmaydi.

2. Elektroneytral sistemalar ichidagina zaryadlarni qayta taqsimlash hisobigagina elektr maydon hosil qilish mumkin, tashqarisida elektr maydon hosil bo'lmaydi.

Zaryadlarni ikki xil usul bilan qayta taqsimlash mumkin.

1. Gaz qamalgan idishni bir tomonini isitish bilan. Bunda musbat geliy ionining massasi elektron massasi bilan $m_{He} \approx 2000m_e$ munosabatda bo'lgani uchun $v_{He} \approx 140m_e$ munosabat o'rinli bo'ladi. Demak sovuq tomonga elektronlar tezroq ko'chib zaryadlarni ajrashni sodir bo'ladi.

Ionlar va elektronlar tezliklari $v_{He} \ll v_e$ munosabatni qanoatlantiradi. SHuning uchun geliy ionlarini go'yoki harakatsiz deb qarash mumkin. U holda idishni bir tomonida elektronlarni notekis taqsimoti yuzaga keladi.

2. Ionlashgan gaz qamalgan idish qisqa muddatga elektr maydoniga joylashtirib zaryadlarga turtki beriladi. Yuqoridagi kabi massalar nisbati hisobiga musbat geliy ionlarini qo'zg'almas deb hisoblasak, elektronlarni idishini bir tomonga siqilishi sodir bo'ladi. O'zaro ta'sir kuchlari va hosil bo'lgan elektr maydon ta'sirida elektronlarni taqsimoti yuqoridagi kabi notekis bo'ladi.

Demak har ikki holda ham deyarli bir xil fizik jarayon sodir bo'lib plazmani, ya'ni ionlashgan gaz qamalgan idish ichida elektr maydon hosil bo'ladi. Asosiy masala elektr maydon kattaliklarini vaqt va koordinata bo'yicha taqsimotini o'rganishdan iborat.


Ma'lumki har qanday fizik masalani ishlash uchun fizik model tuziladi.

Fizik model: Musbat ionlar va erkin elektronlarni konsentratsiyalari bir xil bo'lib n_0 ga teng bo'lgan past haroratli plazma ko'ndalang kesimi S bo'lgan chekli uzunlikdagi tsilindirsimon idishga qamalgan bo'lsin. Tashqi ta'sir natijasida zaryadli zarralar faqat bir o'q bo'ylab harakat qiladi deb hisoblaymiz.

Tahlil va natijalar

Masalani hal qilishda tsilindirsimon idishdan elementar $dV_0 = Sdx_0$ hajm ajratib olamiz. (1-rasm) Ajratilgan hajmini umumiy zaryadi $Q=0$, chunki sistema elektroneytral. Ushbu hajmni

chizmada quyidagicha belgilab olamiz. Tashqi turtki sifatida elektr maydon impulsini ko'ramiz. Oniy elektr maydon tomonidan erkin elektronlar X o'qi bo'ylab bir xil tezlanish oladi.



1-rasm. Silindrsimon idishdan ajratilgan elementar xajm.

Olgan harakati va elementar hajmdagi elektronlarga o'zaro ta'sirni turlichaligi tufayli A sathdagi elektronlar h masofaga siljisa, V sathdagi elektronlar $l_2 = l_1 + dl$ masofaga siljiydi. Ammo hosil bo'lgan elementar dV_1 xajmdagi umumiy erkin elektronlar soni o'zgarishsiz qoladi, ya'ni

$$N_0 = N_1 \quad (1)$$

$$N_0 = n_0 dV_0 = n_0 S(x + dx - x) - n_0 S dx$$

$$N_1 = n_1 dV_1 = n_1 S(l_2 - l_1) - n_0 S(x + dx + l_1 + dl - x - l_1) dx$$

$$N_1 = n_1 S(dx + dl) \quad (2)$$

(1) va (2)

$$n_0 S dx = n_1 S(dx + dl)$$

$$n_1 = \frac{n_0 dx}{dx + dl} = \frac{n_0}{1 + \frac{dl}{dx}}$$

$$\frac{dl}{dx} \ll 1 \text{ munosabat bajariladi deb hisoblasak } \left(1 + \frac{dl}{dx}\right)^{-1} = 1 - \frac{dl}{dx}$$

ayniyat o'rinli bo'ladi. U holda $n_1 = n_0 \left(1 - \frac{dl}{dx}\right)$ (3) ga ega bo'lamiz.

A' va B' sathlar orasidagi elementar hajm dV_1 da elektronlar konsentratsiyasini kamayishi hisobiga, musbat zaryadlanib qoladi. Chunki musbat ionlar deyarli harakatsiz deb hisoblaganimiz uchun butun xajm bo'ylab ularni konsentratsiyasi o'zgarmaydi, ya'ni n_0 ga teng bo'ladi.

U xolda $A'V'$ sohadagi zaryad zichligini (3) ni hisobga olgan holda quyidagini olamiz:

$$\rho = e\Delta n = e(n_0 - n_1) = en_0 \frac{dl}{dx} \quad (4)$$

(4) ifodadan foydalangan xolda idish ichidagi elektr maydon uchlanganligi va potentsiali taqsimotini Puasson tenglamasidan foydalanib quyidagicha topamiz:

$$\text{div}E = 4\pi\rho = 4\pi en_0 \frac{dl}{dx} \quad (\text{SGSE})$$

$$\text{div}E = \frac{1}{\epsilon_0} en_0 \frac{dl}{dx} \quad (\text{SI})$$

Maydon faqat X o'qi bo'yicha yo'nalgani uchun quyidagiga ega bo'lamiz

$$\frac{dE}{dx} = \frac{e}{\epsilon_0} n_0 \frac{dl}{dx} \quad \text{yoki} \quad E = \frac{e}{\epsilon_0} n_0 l \quad (6)$$

Ushbu hosil bo'lgan elektr maydon ta'sirida erkin elektronlar avvalgi harakatiga qarama-qarshi tomonga harakatlanadi. Nyutonni II-qonunidan foydalanib elektronlarni harakat qonunini topamiz.

$$F = ma \quad \text{va} \quad F = -eE$$

(6) ni hisobga olsak $ma = -eE = -\frac{e^2}{\epsilon_0} n_0 l$

o'z harakati davomida x o'qi bo'ylab l masofa o'tgani uchun $a = \ddot{l}$ deb olamiz. U holda quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz

$$\ddot{l} + \frac{e^2 n_0}{\epsilon_0 m} l = 0 \quad (7)$$

Ushbu tenglamada $\omega_0 = \sqrt{\frac{e^2 n_0}{\epsilon_0 m}}$ deb belgilash kiritsak

$$\ddot{l} + \omega^2 l = 0 \quad (8)$$

ko'rinishdagi erkin tebranishlar tenglamasiga ega bo'lamiz. Tenglama yechimini tanlash, amplitudasi, elektr maydon kuchlanganlik va potentsial taqsimotini elektronlar harakatiga bog'lanishini sonli modellashtirish orqali topish mumkin.

Xulosa

Yuqorida ta'kidlaganimizdek asosiy maqsad talabalarda ilmiy tadqiqodchilik ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. SHuning uchun olingan natijalarni taxlil qilish, turli grafiklar olish eng asosiy lardan biri xisoblanadi. Bundan tashqari tadqiqot natijasida olingan fizik parametrlarni ishonchligi va eksperimental natijalar bilan qanchalik mos tushishini tahlil qilish kerak.

Buning uchun esa qaralayotgan fizik ob'ektda sodir bo'layotgan fizik jarayon ya'ni tebranma harakatni turini aniqlash va grafigini olinishi bo'lgan fizik kattalikni tanlab olish lozim. Ma'lumki tadqiq qilinayotgan parametrlarni bir yoki ikki parametrga bog'liqligini ikki va uch o'lchovli ko'rinishdagi grafigini faqat kompyuter yordamida modellashtirish orqali xosil qilinadi.

Yuqorida ko'rilgan masala shartida hech qanday parametrlar berilmagan holda hal etiladi va kompyuter yordamida kerakli grafiklar olinadi. Ko'rinib turibdiki bunday masalalarni yechish talabadan chuqur bilim va fizikaviy jarayonni tasavvur qilishni talab qiladi. Bundan tashqari kattaliklar o'rtasida o'zaro bog'liqlik ifodasidan kompyuter yordamida grafik olish va uni tahlil qilish esa talabalarda ilmiy tadqiqodchilik ko'nikmalari rivojlanadi. SHuni hisobga olgan holda bunday masalalarni iqtidorli va kelajakda ilmiy tadqiqod qilishni oldiga maqsad qilib qo'ygan talabalarga kurs ishi yoki bitiruv malakaviy ish sifatida berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2021 yil 19 martdagi PF-5039-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi **Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirining** "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 27 martdagi 150-son buyrug'i
3. Смирнов А.В. Методика применение информационных технологий в обучении физике: учеб. Пособие для студентов выч.пед. учеб. Заведений.-М.:Академия, 2008.
4. M.Aripov, M.Muhammadiyev. Informatika, informasion texnologiyalar. Darslik. T.: TDYuI, 2004 y.



5. С.Э. Фриш. А.В. Тиморева., Курс общей физики. Том III. Москва. Физ-мат. 1962 г.
6. С.М. Горяинова, Л.М. Свирская, Электродинамика. – Челябинск: Изд-во Южно-Урал. 2019 г.
7. С.Г. Калашников. Электричество. Наука и учеба. Физматлите. 2003 г.

ИНТЕГРАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ С ПРОГРАММОЙ USMLE ДЛЯ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ

Иминахунова И.Х.

заведующая кафедрой PhD, доцент ФМИОЗ, Фергана Узбекистан

iiminahunova86@mail.ru

Аннотация: В данной статье рассматривается организация аудиторной и внеаудиторной самостоятельной работы в процессе обучения, формирование умений учебного труда, а также формирование самостоятельности мышления, способностей к саморазвитию, самосовершенствованию и самореализации. Интеграция USMLE программы в учебный процесс необходимо при укреплении процессов самостоятельной работы где является повышение качества подготовки специалистов. Самостоятельная работа студентов при изучении медицинских дисциплин является важным видом учебной и научной деятельности студента. Самостоятельная работа студентов играет значительную роль в рейтинговой технологии обучения. Поэтому самостоятельная работа студентов должна быть эффективной и целенаправленной.

Ключевые слова: самостоятельная работа, учебный процесс, USMLE, интеграция, эффективность, клинические предметы, самообразование, технология.

TIBBIY TA'LIM TALABALARI UCHUN USMLE DASTURI BILAN MUSTAQIL ISH INTEGRATSIYASI

Iminahunova I.H.

FJSTI kafedra mudiri PhD, dotsent, Farg'ona O'zbekiston

iiminahunova86@mail.ru

Аннотация: Ushbu maqolada o'quv jarayonida auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni tashkil etish, mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, mustaqil fikrlash, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish va o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari muhokama qilinadi. USMLE dasturini o'quv jarayoniga integratsiya qilish mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantiradi, bu erda mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish eng muhim vazifalardan biridir. Tibbiyot fanlarini o'rganishda talabalarning mustaqil ishi talabaning o'quv va ilmiy faoliyatining muhim turi hisoblanadi. Ta'limning reyting texnologiyasida talabalarning mustaqil ishi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun talabalarning mustaqil ishi samarali va maqsadga muvofiq bo'lishi kerak.

Калит so'zlar: mustaqil ish, o'quv jarayoni, USMLE, integratsiya, samaradorlik, klinik fanlar, o'z-o'zini tarbiyalash, texnologiya.



INTEGRATION OF INDEPENDENT WORK WITH THE USMLE PROGRAM FOR MEDICAL STUDENTS

Iminakhunova I.H.

Head of chair, PhD FMIPH, Fergana Uzbekistan

iiminahunova86@mail.ru

Annotation: *This article discusses the organization of independent work in the learning process, the formation of the skills of educational work, as well as the formation of independent thinking, abilities for self-development, self-improvement and self-realization. The integration of the USMLE program into the educational process is necessary when strengthening the processes of independent work, where is the improvement of the quality of training of specialists. Independent work of students in the study of medical disciplines is an important type of educational and scientific activity of the student. Independent work of students plays a significant role in the rating technology of education. Therefore, independent work of students should be effective and purposeful.*

Keywords: *independent work, educational process, USMLE, integration, efficiency, clinical subjects, self-education, technology.*

One of the most important problems facing higher education is to improve the quality of specialist training. A student and graduate of a higher medical education institution should not only acquire knowledge on the subjects of the program, master the skills and abilities to use this knowledge, but also be able to independently acquire new scientific information in a foreign language. In this regard, the independent work of students is becoming increasingly important [1,3]. Organization of classroom and extracurricular independent work in the learning process, formation of skills of academic work is the basis for further postgraduate education. Thus, in higher medical education students should be trained for further self-education, and the means of achieving this goal is independent work. Independent work - planned educational, research, research work of students, carried out in extracurricular (classroom) time on the assignment or under the methodological guidance of the teacher, but without his direct participation (with partial direct participation of the teacher, leaving the leading role for the work of the student). Independent work of students in the study of medical disciplines is an important type of educational and scientific activity of the student. Independent work of students plays a significant role in the rating technology of education. State standards provide, as a rule, up to 50% of hours of the total labor intensity of the discipline for independent work of students. In this regard, the study of polyclinic therapy includes two parts that are almost identical in volume and mutual influence - the process of learning and the process of self-learning [4,5]. Therefore, students' independent work should be effective and purposeful.

The society imposes quite a wide list of requirements to a modern specialist, among which the presence of certain abilities and skills of graduates to independently extract knowledge from various sources, to systematize the obtained information, to give an assessment of a particular situation is of great importance. The formation of such skills takes place during the whole learning process. The goals and objectives of training in the course of polyclinic therapy are the study of the basic principles of the organization of therapeutic and preventive care of the general population in the polyclinic, the peculiarities of the organization of the work of a general practitioner of the polyclinic, modern diagnostic capabilities of the polyclinic service and their



rational use [2]. In addition, one of the priority tasks is the development of clinical thinking skills in the diagnosis of the most common therapeutic diseases, assessment of the features of their course, outpatient treatment, primary and secondary prevention, work capacity assessment.

In the course of training, along with new data on the issues under study, the systematization of knowledge acquired by students, familiarization with the latest literature on the specialty is provided. As a result of classes in the polyclinic student should know: etiology, pathogenesis, clinic and diagnosis of the studied forms of diseases of internal organs, the main issues of medical and labor and medical and social expertise; be able to correctly formulate a diagnosis, determine the nature of therapeutic measures, make medical documentation (including registration of temporary disability); determine the nature and content of rehabilitation measures, primary and secondary prevention.

When organizing independent work of students an important and necessary condition is the formation of the ability to work independently to acquire knowledge, skills and the ability to organize educational and scientific activities.

The purpose of independent work of students in the study of polyclinic therapy is to master fundamental knowledge, professional skills and skills of activity in the profile, the experience of creative, research activities [6]. Independent work of students contributes to the development of independence, responsibility and organization, creative approach to solving problems of educational and professional level.

The tasks of independent work of students in the study of polyclinic therapy are:

1. Systematization and consolidation of the obtained theoretical knowledge and practical skills of students.
2. Deepening and expansion of theoretical knowledge.
3. Formation of skills to use normative, legal, reference documentation and special literature.
4. Development of cognitive abilities and activity of students, creative initiative, independence, responsibility and organization.
5. Formation of independent thinking, abilities to self-development, self-improvement and self-realization.
6. Development of research skills.
7. Use of the material collected and obtained during independent studies at seminars and practical classes, when writing term papers and diploma works, for effective preparation for final certification.

The technological chain of student's independent work is as follows: the teacher determines the goals of activity (reproductive, productive and creative) and specific forms of work, builds a system of motivation of students, provides them with educational and methodological materials, sets deadlines for interim reports on the work done, organizes the activities of creative groups, gives an introductory lecture, controls the results of self-control and self-correction of students, evaluates the results of their work (individual or group).

An obligatory condition that ensures the effectiveness of independent work of students is the observance of stages in its organization and conduct. The following stages of students' independent work can be distinguished.

The first stage is preparatory. It should include the preparation of the working program with the allocation of topics and tasks for independent work; cross-cutting planning of



independent work for the semester; preparation of teaching materials; diagnosis of students' preparedness.

The second stage is organizational. At this stage, the goals of individual and group work of students are defined; an introductory lecture is given, individual and group consultations are held, deadlines and forms of presentation of intermediate results are established.

The third stage is motivational-activational. The teacher at this stage should provide positive motivation of individual and group activity; check intermediate results; organize self-control and self-correction; interchange and mutual verification in accordance with the chosen goal.

The fourth stage is the control and evaluation stage. It includes individual and group reports and their evaluation. The results can be presented in the form of a diploma project, essay, report, schemes, tables, oral reports, etc. The control of student's independent work can also be carried out by means of intermediate and final testing.

In the educational process of higher professional educational institution there are two types of independent work - classroom, under the guidance of a teacher, and extracurricular. Close interrelation of these types of work provides differentiation and efficiency of the results of its implementation and depends on the organization and content of the educational process. Auditorium independent work is carried out at classes under the direct supervision of the teacher and on his assignment. Extracurricular work is carried out by students on the assignment of the teacher, but without his direct participation.

The main types of independent work without the participation of teachers are: the formation of lecture notes on the basis of recommended literature; writing essays; preparation for seminars; making an annotated list of articles on branches of knowledge; performing micro-research; preparation of practical developments; homework; computerized current self-control and control on the basis of electronic certification tests. Summarizing the above, it should be noted that the process of introducing students' independent work in the educational process should be gradual and reasonable. For the effective implementation of this type of activity the readiness of the teaching staff, quality educational, methodological and regulatory-legal base are necessary.

In conclusion, it is determined that the general model of development and management of students' self-education involves designing the content and process of self-education. Designing the content of self-education should be carried out at the stages of general theoretical presentation, academic discipline and educational material. Designing the process of self-education should be attributed, first of all, to the management of self-education on the part of the teacher according to the alleged disturbances and on the principle of feedback, as well as on the part of the student. The proposed model is complemented by recommendations for the organization of self-educational activities at the empirical, theoretical and practical stages of mastering educational material. Pedagogical guidance of self-education on the basis of this model goes through four stages: preparatory, organizational, activity, analytical. Among the most important requirements that ensure effective pedagogical control of students' self-educational activities are its objectivity, consistency, complexity, continuity, and manufacturability. The control complex includes teacher control, self-control, mutual control, external and internal self-control. Criteria for the formation of self-control skills of educational activity: knowledge on the theory of self-organization and self-control, their availability and quality; the level of practical knowledge of competencies that ensure the success of the process of self-organization and self-



control of educational activity; awareness, expediency and systematic implementation of self-organization and self-control of educational activity.

Literature

1. Chelnokov V.A. Principles of advanced training / V. A. Chelnokov // Prof. education. - 2005. — No. 10. — pp. 21-22.
2. Dubrovskaya Yu. A. Pedagogical support of students' self-education in the conditions of distance learning: dis. ... Candidate of Pedagogical Sciences — St. Petersburg, 2005. — 159 p.
3. Maslow A. Motivation and personality: Translated from English — St. Petersburg: Eurasia, 2009
4. I. Iminakhunova. In the process of learning English in a non-linguistic faculty, factors influenced the effectiveness of self-instruction of students. NamSU scientific Bulletin. 2022. 8, 584-590 b.
5. I. Iminakhunova. Independence of students in the study of a foreign language at the Institute of medicine, development approaches. Journal of clinical and preventive medicine. 2022. 1, 19-22 b.
6. Юзликаев Ф.Р. Интенсификация процесса дидактической подготовки будущего учителя в педагогическом институте: Монография. – Ташкент: Фан, 1995. – 203 с.
7. Hornby A.S. Constructions and turns of the English language - M.: AO Booklet, 1992. - 264 p.
8. Inoyatov U.I. Theoretical and organizational and methodological foundations of management and quality control of education in a professional college: diss.dokt.ped. Sciences: Tashkent, 2003. - 236 p.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI INGLIZ TILINI O'QITISHNING LINGVOKREATIV IMKONIYATLARI

Turdaliyeva Qizlarxon Ilxomjon qizi
Navoiy shahar 8-AITChO'IT o'qituvchisi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda qo'llash mumkin bo'lgan didaktik o'yinlar ayrim misollar keltirilgan holda muhokama etiladi hamda uning lingvokreativ jihatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: didaktik, ta'limiy, integrativ, vaziyatli, jamoaviy, musobaqali, ritmli- musiqiy, badiiy, sahnalashtirilgan, tasviriy, muammoli-vaziyatli, so'zli-ijodiy o'yin turlari.

Kirish

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va imkoniyatlariga nihoyatda mos keladigan ta'lim berish metodidir. Ular passiv bolalarni faollashtirish, jamoa tarkibida turli vazifalarni dadil bajarishlarida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Didaktik o'yinlar bolalarda o'z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashtira olish, bir-biriga ko'maklashish, o'rtoqlari muvaffaqiyatidan xursand bo'lish kabi yaxshi munosabatlarning tarkib topishiga sofdillik, rostgo'ylik kabi ijobiy xislatlar shakllanishiga yordam beradi. Didaktik o'yinlar bolalarning aqliy faoliyatlarini kuchaytiradi, bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar.

Didaktik o'yinlar bolalarning amaliy faoliyati sanaladi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi¹⁰⁸.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Ta'limiy o'yinlar vaziyatli, musobaqali, ritmik-musiqali va badiiy turlarga bo'linadi. Jumladan, "**Mushuk-mushuk**" o'yini quyidagicha tashkil etiladi. Bu o'yin ranglarni takrorlash uchun qo'llaniladi. Boshlovchi «mushuk» bolalarga orqa o'girib turadi. Bolalar: «Cat, Cat» deya chaqiradilar. Mushuk «Miyov, miyov» deb javob beradi. Bolalar: «What colour do you like?» deya so'raydilar. Mushuk: «I like yellow» deb javob beradi va shu zahoti bolalarga qarab o'giriladi. Bolalar esa u aytgan rangni topish va unga qo'l tekkizishi uchun mushukdan qochishadi. Ranglarni har qaerdan: kiyimlardan, kubchalardan, rasmlardan izlash mumkin. Kerakli rangni topa olmagan bolani mushuk ushlab oladi va o'sha boshlovchi bo'ladi.

Ma'lum rollarga bo'linib o'ynaladigan **jamoaviy o'yin** bolalardan qat'iy qoidalarga bo'ysunishni va ayrim vazifalarni o'xshatib bajarishni talab etadi. Bunday o'yinlar bolalarda iroda kuchlarini hamda qoidalarga, tartib-intizomga bo'ysunish kabi ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi va o'stiradi. Jumladan, "**Sakrovchilar**" o'yinida o'yin boshlanishidan oldin o'qituvchi sakrashni yoqtiradigan qurbaqa, quyon, maymun kabi jonivorlarni esga olishni taklif qiladi. Keyin goh qurbaqaga, goh maymunga aylanib, quyidagi qo'shiqni aytgancha sakrashlarini taklif etadi.

Little frog, little frog, Hop, hop, hop! Little frog, little frog stop, stop, stop!¹⁰⁹

Ikkinchi kupletda «frog» o'rniga «monkey» deya aytiladi, uchinchi «hop» so'zidan keyin bolalar sakraydilar. O'yinda niqoblardan foydalanish mumkin.

Integrativ o'yinlar ham keng tarqalgan o'yin turi bo'lib, u ikkiyoqlama xarakterga ega. Ushbu uslub, bir tomondan, bolalik davrini qadrlashni hisobga olishga, ikkinchi tomondan,

¹⁰⁸ Shodmonova Sh. Ta'lim pedagogikasi. - T.: 2018. - B. 128,129.

¹⁰⁹ <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-93750-1.html?page=5>

boshlang'ich sinf o'quvchisining dastlabki o'quv faoliyatiga shart-sharoitlar yaratishga imkon beradi. Mazkur o'yin uslubi bolani eng yaqin rivojlanish darajasiga mo'ljallangan bo'lib, hissiy va ratsional anglashni birga qo'shib olib borishga imkon beradi. Ya'ni, o'zaro muloqotga kirishish va chet tilga o'rgatish jarayoniga bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga yo'naltiriladigan topshiriqlarni birgalikda bajarish va har turli faoliyat turlari (tasviriy, musiqiy-ritmik, teatrlashgan) integratsiyasini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Vaziyatli o'yinlarga u yoki bu mavzularga oid vaziyatlarni tashkil etiladigan rolli o'yinlar kiradi.

Ular, o'z navbatida, reproduktiv xarakterdagi o'yinlarga bo'linadi, bunda bolalar u yoki bu vaziyatlarga ko'ra tipik, standart dialoglarni qo'llaydilar. Standart dialoglar, masalan:

1. Show me (menga ko'rsat) – ustoz buyumning nomini aytganida, bola kerakli so'z tasvirlangan kartochka yoniga borishi va uni ko'rsatishi kerak.
2. What's this? Ustoz so'zlarni ko'rsatadi, bolalar so'zlarni aytishadi.
3. What's missing? (nima yo'qoldi?)
4. What's doesn't belong? (nima ortiqcha?)

«**Sehri ko'zgu**» - maqsad: diqqatni rivojlantirish. Ko'zgu oldiga jonivorlar niqoblarini taqqan bolalar borishadi. Sehri ko'zguda bir nechta jonivorlar aks etadi. Bolalar qanday hayvonlarni ko'rishgani va ular nechtaligini aytib berishlari kerak. Masalan: I see a dog. I see five dogs.

«**Xushmuomala bo'lish**» o'yini bolalar diqqatini mashq qildiradi. Ustoz topshiriq berayotganda «please» degan so'zni qo'shib qo'yadi. Lekin agar «please» degan so'z aytilmasa, harakatni bajarib bo'lmaydi. (Please, hands up). O'yin toki 1-2 g'olib qolmaguniga qadar o'ynaladi. Dastlab o'ynagan chog'da bolalarni «please» so'zini idrok etishga mashq qildirish kerak bo'ladi¹¹⁰.

Musobaqali o'yinlarga leksika va savodni egallashga ko'maklashuvchi ko'pgina o'yinlar mansub. Ularda kim til materialini yaxshiroq egallagan bo'lsa, o'sha g'olib chiqadi.

Bu har turli boshqotirmalar, auksionlar, lingvistik topshiriqlari bor stol usti bosma o'yinlari, buyruqlarni bajarish. Boshqotirmalar har qanday mavzularda bo'lishi mumkin: jonivorlar, mevalar, sabzavotlar, mebel, o'yinchoqlar va h. buyruqlar ham turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, «**Who is first**» o'yini:

O'yinchoq o'rniga xuddi shu jonivorlar rasmlari qo'llaniladi. Rasmlarni yerga sochib qo'yiladi. O'qituvchi galma galdan har xil jonivor o'yinchoqni qo'lida ushlab turib, bolalardan birgalikda nomini aytish so'raladi.

T: "cow, cow, cow"

Ss: "cow, cow, cow"

T: "And a cow says Moo. Moo, moo, moo" Ss: "Moo, moo, moo"

So'ng yerdagi qaysi rasmi kartochka cow deb so'raladi. Bolalar rasmini chaqqonlik bilan topib ko'rsatadilar. Kim birinchi bo'lib topsa, o'sha rasm ustiga o'yinchoq sigirni joylaydi. Shu tariqa hamma jonivorlarga yoki boshqa predmetlarga qo'llaniladi.

Ritmli-musiqiy o'yinlar – bu har turli an'anaviy davraga tizilib qo'shiq aytib o'ynaladigan, sherik tanlab raqsga tushiladigan o'yinlar, ular nafaqat kommunikativ bilimlarni

¹¹⁰ Avilova KH, Gulyamova M, Akbarova SH. Creating Authentic Reading Materials for EFL Learners In Uzbekistan //PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(1): 2730-2742. p:2731.



egallashga ko'maklashadi, balki nutqning fonetik va ritmli kuyli tomonlarini mukammallashtirish va til ruhiga kirishishga yordam beradi, masalan: Nuts and May, "What's your name", "I like my friends", "Head, shoulders, knees and toes" va b.

Badiiy yoki ijodiy o'yinlar – bu o'yin va badiiy ijodiyot chegarasida turgan faoliyat turi, unga tomon yo'lni bola o'yin orqali tanlaydi. Bunday o'yinlarni o'z navbatida quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. **Sahnalashtirilgan o'yinlar** (ya'ni, ingliz tilida kichik sahnalarni sahnalashtirish) «O'rmonda» - masalan: o'rmonda tulki bilan ayiq uchrashib qolishadi va kichkina dialog o'ynaladi (Hello! I'm fox. I can run. I like fish); «Qizil Shapkachka» va boshqalar.

2. **Tasviriy o'yinlar.** Grafik diktant, rasmlarni bo'yab chiqish va h. Rasmlarni bo'yash, bu tinchlantiruvchi, har doim ham mazmunli bo'lmasa ham, juda keng tarqalgan mashg'ulot. Masalan, tayyor rasmni ko'rsatish mumkin. To bola rasm ustidan qalam yurg'izarkan, ustoz so'zni ko'p martalab takrorlaydi, tafsilotlarini aytadi. Shu tarzda go'yo bola o'zi bajargan ish nomini o'zlashtirib oladi. Grafik diktant – masalan: mashg'ulotlarda bolalarga nima qanday rangdaligi aytiladi, bolalar bo'yaydilar, keyin esa hosil bo'lgan tasvirlarni ustoz ko'rsatgan tasvir bilan taqqoslaydilar.

3. **So'zli-ijodiy** (kichik ertaklarni jamoa bo'lib o'ylab topish, qofiyalarni tanlash), masalan:

Oldga-ortga va yuqoridan-pastga

Pasta bilan yuvaman ...(teeth - tishimni) Shirin ta'm sezganimdan,

Yalayverdim o'z ...(lip - labimni) va h.

Improvizatsiyali vaziyatli o'yinlar bilan ijodiy sahnalashtirish chegarasida ma'lum ertak mavzusi bo'yicha improvizatsiya singari faoliyat mavjud. Masalan, **Sholg'om** yoxud **Uycha** o'yinlarida o'ynaydiganlar miqdori va yangi leksika o'zlashtirilishiga bog'liq ravishda yangi qahramonlar va ularning so'zlari paydo bo'ladi.

O'yinni o'ylab topish, tanlash yoki mashg'ulotga kiritish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

1. O'yinga kirishishdan avval quyidagi savollarga javob berish kerak: o'yin maqsadi qanday, unda bola nimaga o'rganishi kerak? U qanday nutqiy harakatni bajarishi zarur? Bola bunday so'zlay oladimi, unda boshqa qiyinchiliklar yo'qmi?

2. Shu savollarga javob bergach, pedagog o'zini bolani o'rniga qo'yib ko'rish lozim va qanday qiziq vaziyatda mazkur model bo'yicha gapira olish mumkinligini o'ylab ko'rish kerak bo'ladi.

3. Bolaga ushbu vaziyatni qanday tarzda tasvirlab berilsa, u darhol uni qabul qilishi haqida o'ylab ko'rish kerak.

4. Bola bilan bajonidil o'ynash kerak!

O'yin ta'lim beradigan bo'lishi kerak va u o'yin bo'lishi darkor.

Asosiy yondashuv — integrativ-o'yin usuli bo'lib, u mazkur ikki taraflamaxarakterga ega. Bunday o'yinlar, bir tomondan, bolalik davrini qadrlashni bilishga, yordamlashsa, ikkinchi tomondan, boshlang'ich sinf bolasining dastlabki o'quv faoliyati uchun shart- sharoit yaratishga xizmat qiladi. Integrativ-o'yin usuli bolaning yaqin rivojlanish davriga mo'ljallangan bo'lib, hissiy va ratsional anglashni muvaffaqiyatli ravishda birga qo'shib olib borishga imkon beradi. O'zaro munosabatlar jarayonida bevosita ifodalanadigan va xorijiy tilni o'rgatish jarayonida bolalarning rivojlanishiga qaratilgan topshiriqlarni hamkorlikda bajarishga qaratilgan bola

faoliyatining turli xil ko'rinishlarini (tasviriy, musiqiy-ritmik, teatrlashtirilgan) integrativ namoyon qilishni ko'zda tutadi.

Muammoli vaziyatli o'yinlar. Ushbu o'yinlarning o'ziga xos tomoni bolada faollik, ijodkorlik, mustaqillikni namoyon qilishga shart-sharoit yaratadi. Bunday o'yinlardan chet til o'rgatishda ham foydalanish yaxshi samara beradi.

O'yinda muammoli vaziyatlarni hal etish namunalarini keltirib o'tamiz.

«**Think and say**» o'yini. O'qituvchi bolalarga qaysi buyumlar u nomini aytgan harakatlarni bajarishi mumkinligini o'ylab topishlari va aytishlarini taklif etadi. Masalan, agar «fly» fe'li aytilsa, javoblar quyidagicha bo'lishi mumkin: a bird, a butterfly, a cloud, a snowflake, shuningdek my house, my fingers va h.

Demak, o'yin nafaqat tilga o'rgatish, balki bolaning o'zligini namoyon qilish, qiziqishlarini, qobiliyatini yuzaga chiqarish vositasi hamdir. Shu bois bu jarayonda o'qituvchilarning barcha bolalarni o'yinning faol ishtirokchisiga aylantirish, hech birini chetda qoldirmaslikka e'tibor qaratishi nihoyatda muhimdir. Juda ko'p mashhur shaxslar kasb tanlashida, kelajakda erishgan yutuqlarida bolaligidagi qiziqishlari, mana shunday sahnalashtirilgan o'yinda kimdir bo'lib o'ynagan roli, bog'cha opasining uni qanday qilib o'rta olib chiqqanini xotirlab, shunday o'yinlar uning hayotida katta iz qoldirganini alohida ta'kidlab gapiradilar.

Xulosa va munozara

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinfdagi bolalarning nutqini o'stirish, xususan, ularning ingliz tilidagi lug'at boyligini shakllantirib borishda o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanishning ahamiyati katta.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Shodmonova Sh. Ta'lim pedagogikasi. - T.: 2018. - B. 128,129.
2. Utexina A. N. Иностранный язык в дошкольном возрасте. Теория и практика. «Flinta», «Nauka».- M.: 2017. - S.125
3. <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-93750-1.html?page=5>
4. Avilova KH, Gulyamova M, Akbarova SH. Creating Authentic Reading Materials for EFL Learners In Uzbekistan //PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(1): 2730-2742. p:2731.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI

N.J.Abdusamatova

NamDU, maktabgacha talim metodikasi
kafedrası mudiri, PhD, dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorlashning psixologik omillari, bolalarga xos psixologik xususiyatlar va ularni maktab ta'limiga tayyorlashdagi ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Tayanch tushunchalar. Maktabgacha yosh, maktabga tayyorgarlik, psixologik omillar, rauhiy jarayonlar, bolalar faoliyati...

Абстрактный. В данной статье говорится о психологических факторах подготовки дошкольников к школьному обучению, психологических особенностях детей и их значении в подготовке их к школьному обучению.

Базовые концепты. Дошкольный возраст, подготовка к школе, психологические факторы, психические процессы, деятельность детей...

Abstract. This article talks about the psychological factors of preparing preschool children for school education, the psychological characteristics of children and their importance in preparing them for school education.

Basic concepts. Pre-school age, preparation for school, psychological factors, mental processes, children's activities...

Kirish

Mamlakatimizda so'nggi yillarda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratilib, bolalar va ularning tarbiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori[1]ning maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish nomli bandida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozimligi vazifa sifatida belgilab berildi. Mazkur vazifani amalga oshirishda maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, bolaning kelgusida o'zini muvaffaqiyatli namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida olib borilishi zarur bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayoni bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda integrativ yondashish eng maqbul yo'llardan biri bo'lishi mumkinligiga asos bo'ladi.

Usullar

Tadqiqotda tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, modellashtirish, loyihalashtirish, tashxis, pedagogik tajriba-sinov, ma'lumotlarni mujassamlashtirish, taqqoslash, solishtirish, ekspert baholash, umumlashtirish va statistik ishlov berish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish vazifalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartida[2] maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmunning tarkibiy qismlariga integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillari asosida yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ertangi kun davomchilari bo'lmish barkamol avlodni tarbiyalash hozirgi kunning muhim vazifalaridan sanaladi. Shu bois ta'lim muassalarida beriladigan ta'lim-tarbiyaning rolini oshirish, ayniqsa tarbiyalanuvchi shaxsining psixologik xususiyatlarini bilish muhim hisoblanadi. Chunki berilayotgan bilimlar avvalo shaxsning bilim darajasi, dunyoqarash, intilishi, qiziqishlar doirasi bilan uzviy bog'liqdir.

K.D.Ushinskiyning fikricha bolaning maktabdagi o'qish faoliyatiga tayyorligi ayrim psixik jarayonlarning taraqqiyot darajasi bilan emas balki bola shaxsining umumiy taraqqiyot darajasi bilan aniqlanadi[3].

N.I. Xalilova va D.B Norqo'zievlar [3] tomonidan yozilgan **"Bolani maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligi" nomli** metodik qo'llanma bolani maktab ta'limiga tayyorgarligi borasidagi bir qator jihatlarni qamrab oladi. Ayniqsa maktabga yetuklik tushunchasining mazmun, mohiyati, bu borada xorij psixologlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar aks ettirilgan.

Z.K. Alimova[5] ilmiy tadqiqotlarida maktabgacha ta'limning sifat va samaradorligiga erishishga kompetensiyaviy yondashuv, guruhlarni har bir yosh guruhiga mos adabiyotlar bilan boyitib borish, bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, ularning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish, qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab jarayonga ijodiy yondashish, o'tkaziladigan mashg'ulotlar va manbalarni bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan holatga keltirish maqsadida ratsional va tizimli tahlil qilishni ko'zda tutadi.

D.A.Raxmatullaeva[6] ilmiy izlanishlarida maktabgacha ta'lim tashkilotida 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarlik monitoringini tashkil etish yo'llari, usullari, metodikalari xususida so'z boradi.

Tahlillar va natijalar

Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi. Maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatlari o'zgaradi. Endi bolalarning asosiy faoliyatlari, vazifasi va ijtimoiy burchi o'qish bo'lib qoladi.

6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish ulardan yangi sifat, xususiyatlarga ega bo'lishlarini talab etadi. O'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va batartiblik xislatlari bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotidan maktabga o'tishlari natijasida kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida ham birmuncha o'zgarish yuz beradi.

Bolalarning maktabga o'tishlari, ularning kichik, o'rta va katta guruhlardan maktabgacha tayyorlov guruhiga o'tishlariga qaraganda murakkab bosqichdir. SHuni ham nazarda tutish kerakki, bola maktabga o'tishi bilan uning ijtimoiy holatida ham o'zgarish ro'y beradi.



Chunonchi maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida "katta" deb hisoblanar edilar. Maktabga o'tgach, ular yana «eng kichkinalar» qatoriga tushib qoladilar.

Bolalarning maktabga o'tishlari bilan yuzaga keladigan ana shunday jiddiy o'zgarishlarni nazarda tutib, ularni maktabdagi yangi hayotga har tomonlama tayyorlash kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy vazifalaridan biri bolalarga har tomonlama tarbiya berish, ularni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashdan iboratdir. Bu esa o'z navbatida maktabdagi o'qitish ishlari bilan maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya ishlari o'rtasida ma'lum izchillik bo'lishini talab qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning jismoniy jihatdan o'sishlariga qanchalik e'tibor berilsa, ularning aqliy va ahloqiy o'sishlariga ham shunchalik e'tibor beriladi. Ularning maktabga chiqishlari doimo nazarda tutilib, o'tkaziladigan turli ta'limiy faoliyatlarda bolalarning idroklari, tasavvur va xotiralari, xayol xamda tafakkurlari, irodalari tizimili tarzda taraqqiy ettirib boriladi.

Bolalarni maktabdagi o'qish jarayoniga tayyorlashda ularning nutqini o'stirish juda zarur shartlardan biridir. SHuning uchun katta va tayyorlov guruh bolalarini maktabdagi o'qishga tayyorlashda o'z ona tillarini yaxshi o'rganishlariga, ya'ni so'z boyligini orttirishga, to'g'ri talaffuz va to'la hamda to'g'ri jumla tuza olishlariga ahamiyat berish kerak. Bolalarning tashqi olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, boyitish ishlari ular nutqini o'stirish asosida olib borilishi kerak.

Shu narsa diqqatga sazovorki, hamma maktabgacha ta'lim tashkilotidagi maktab yoshiga to'lgan bolalar maktabdagi o'qishga baravar tayyor bo'lavermaydilar. Ayrim bolalar maktabga kelgach, yangi sharoitga tez kirishib keta olmaydilar. Ularda o'qish uchun qandaydir bir xususiyat yetishmayotgandek ko'pinadi. Bu o'pinda shunday bir savol tug'iladi. Bolalarni qay paytda psixologik jihatdan maktabdagi o'qishga tayyor deb hisoblash mumkin.

Ayrim psixologlarning fikricha, bola maktabda o'qishi uchun atrofdagi narsa va hodisalarga doir anchagina tasavvurlarga ega bo'lishi hamda ma'lum darajada aqliy jihatdan o'cran bo'lishi lozim. Biroq u hayotda shunday voqealar uchraydiki, anchagina tasavvur boyligiga ega bo'lgan va hattoki yozish hamda o'qishni biladigan bolalar ham maktabdagi o'qishga tayyor bo'lmaydilar. Ular maktab va o'qituvchining talablarini bajara olmaydilar. Aksincha, ayrim bolalar yetarli tasavvur boyligiga ega bo'lmasalar ham, maktabda o'qib keta oladilar. Lekin, bundan maktabdagi o'qish jarayoni uchun ma'lum darajada aqliy jihatdan o'cran bo'lish maktabda dastlab o'qib ketish uchun eng zarur shartlardan biridir. Lekin bu bolaning o'qishga tayyor ekanligini aniqlashdagi hal qiluvchi omil emas, chunki bu yerda yosh masalasi ham mavjud. Boshqa bir olimlar, bolaning o'qishga tayyor ekanini aniqlashdagi asosiy narsa iroda sifatlarining yetilganligidir, deyдилar. Bu fikr bir yoqlamalikka yo'l qo'yishdan boshqa narsa emas. Etti yoshga to'lish davri bolalikning tugash davriga to'g'ri keladi. Xuddi ana shu davrdan boshlab bolalarda o'z-o'zini anglash tarkib topa boshlaydi. SHuning uchun bolalarning yetti yoshga to'lgan davridan boshlab tizimli sur'atda o'qitishga o'tish maqsadga muvofiqdir.



Ta'limga psixologik tayyorgarlik deganda bolaning ob'ektiv va sub'ektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta'limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi. SHu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi o'zining qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrihohligi, ishonuvchanligi, tafakkurning yaqqolliigi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari roli va syujetli o'yinlarda rasm chizish va qurish yasash mashg'ulotlarida loy hamda plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda o'zgaralar nutqini idrok qilish va tushunishda matematik amallarni yechishda hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi.

Bola o'z diqqatini muayyan ob'ektga to'plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli ajobiy g'aroyib kishini taajjubga soladigan ma'lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa endi o'z hohish-irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi. U she'r hikoya va ertaklarni esda qoldirish uchun ko'p takrorlash yod olishning eng qulay yo'l va usullaridan foydalanish ta'lim jarayonida unga juda qo'l keladi. Birinchi sinf o'quvchisi ko'pincha obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi. Aksincha ta'lim so'z-mantiq xotirasini taqazo etadi.

So'z-mantiq xotirasining mavjudligi ma'nosini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi. Tajribadan ma'lumki bola ma'nosiz so'zlardan ko'ra ma'nodor tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishishi kishilarning fikrini o'qib olish va to'g'ri idrok qilish darajasida nutqning tuzilishi esa grammatika qoidalariga mos, mantiqan izchil ifodali miqdor va ko'lam jihatidan fikr almashishga yetarli bo'ladi. u eshitgan va ko'rganlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tushuna oladi. O'zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila biladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan o'rinli foydalanadi.

Olti yoshli bolaning psixik tayyorligi haqida gapirilganda ko'pincha muayyan reja asosida tartibli ko'p qirrali maqsadga yo'naltirilgan, o'zaro mantiqiy bog'liq, izchil boshlang'ich ta'limga zamin vazifasini o'tovchi psixik o'sish darajasini nazarda tutamiz. Shuningdek, ta'lim uchun psixik o'sish darajasidan tashqari bola turmushi va faoliyatining tafovutlari, sharoitlari, o'ziga xosligi uning sihat-salomatligi usuliy jihatdan tayyorligi oddiy ko'nikmalarni o'zlashtirgani kabi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.



Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida aytilganlarning barchasi bolaning maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorligining ob'ektiv tomonlarini ifodalaydi. Bolaning qiziqishlarini hisobga olingan ishlab chiqilishi barobarida ularda dunyoqarashning rivojlanishi, mas'uliyatlilik, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash, bir maqsadga qaratilganlik, qiyinchiliklarni yengib o'tishda sabot-matonat va tirishqoqlik kabi irodaviy sifatlarni tarbiyalash bilan bir qatorda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayoni samaradorligi ortadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida PQ-4312-son. 2019 yil 8 may.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti to'g'risida. 2020 yil 12 dekabr, 802-son.
3. Xalilova N.I. Norqo'ziev D.B. **“Bolani maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligi” (metodik qo'llanma). T.: 2009. B-60.**
4. Asqarova D.Q. Bolalalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi. T.: 2020. B.-136
5. Alimova Z.K. “MTTda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvlar” <https://new.tdpu.uz/article/2156>
6. Raxmatullaeva D.A. “Maktabgacha ta'lim muassasalarida 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarlik monitoringini tashkil etish” T.: 2018 yil
7. Abdusamatova N. Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish.: Ped. fanl. b. falsafa doktori (PhD) ...diss. avtoref. – Namangan, 2021. – B.23-25.



OLY TIBBIY TA'LIMNING UMUMIY TENDENSIYALARI VA QONUNIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TIBBIYOT TARIXI FANINING O'RNI

Komilov Nodirbek Bokijonovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.nt
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy tibbiy ta'limning umumiy tendensiyalari va qonuniyatlarini rivojlantirishda tibbiyot tarixi fanining o'rni haqida fikr yuritilgan bo'lib, bo'lajak shifokorlarda kasbiy ma'naviyat va kasbiy kompetentlikni shakllantirishning muhim yo'nalishlari ak ettirilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik ijodkorlik, didaktik imkoniyat, metodika, tibbiy deontologiya, tibbiy amaliyot, tashkiliy komponent, kognitiv faoliyat

Annotation. This article reflects on the role of the history of medicine in the development of general trends and laws of higher medical education, and highlights the important directions for the formation of professional spirituality and professional competence in future doctors.

Keywords: pedagogical creativity, didactic opportunity, methodology, medical deontology, medical practice, organizational component, cognitive activity.

Bugun mamlakatimizda milliy tibbiy ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, tibbiy ta'limga xalqaro ta'lim standaptlarini joriy qilish bo'lajak shifokorlarni aholi salomatligini muhofaza etishga o'rgatish bo'yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish, shuningdek, tibbiy ta'limda ta'lim olayotgan yoshlarga ma'naviy-ma'rifiy samapali tizimini yaratish bo'yicha izchil ishlarni amalga oshirish masalalari Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmonlarda o'z aksini topmoqda.

